

**Matyakubov X.X.**

# **O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Matyaqubov Xalil Hayitbayevich

**O'ZBEKİSTONNING ENG  
YANGI TARIXI  
(o'quv qo'llanma)**

Bilim sohasi: 100 000 – Gumanitar soha

Ta'lif sohasi: 110 000 - Pedagogika



TOSHKENT-2021

Mazkur o'quv qo'llanmada O'zbekistonning eng yangi tarixi faninig maqsadi va vazifalari, mililly davlatchilik qurilishining tarixiy yo'li, mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, ma'naviy-madaniy yuksalish davrining tadrijiy taraqqiyoti yoritib berilgan.

O'quv qollanmada o'zlashtirilishi oson va qulay bo'lishi uchun mavzularning qisqacha mazmuni, mavzuga oid tayanch tushunchalar, tarixiy voqealarning xronologik jadvali va tarixiy atamalar izohli lug'ati berilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining barcha notarix ta'lim yo'naliishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

**Mas'ul muharir:**

Tarix fanlari doktori **L.M. Babaxadjayeva**

**Taqrizchilar:**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent **B. Yuldashev**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent **N. Egamberdiyeva**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent v/b **O. Raxmatullayeva**

**Ushbu o'quv qo'llanma:**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining  
2021 yil 23 noyabrdagi "500"- sonli buyrug'i bilan nashrga tavsiya  
etilgan.**

## MUNDARIJA

|                  |  |     |
|------------------|--|-----|
| <b>1-MAVZU:</b>  | Kirish. “O’zbekistonning eng yangi tarixi” fanining<br>predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik<br>tamoyillari .....                         | 4   |
| <b>2-MAVZU:</b>  | Mustaqillikka erishishi arafasida O’zbekistonning ijtimoiy-<br>siyosiy va iqtisodiy ahvoli .....   | 17  |
| <b>3-MAVZU:</b>  | O’zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e’lon<br>qilinishi va uning tarixiy ahamiyati .....   | 38  |
| <b>4-MAVZU:</b>  | O’zbekiston tanlagan mustaqil rivojlanish yo’li va uning<br>ahamiyati .....  | 57  |
| <b>5-MAVZU:</b>  | O’zbekistonda huquqiy siyosiy islohotlarning amalga<br>oshirilishi, demokratik jamiyatni shakllantirish yo’lidagi<br>islohotlar .....                    | 70  |
| <b>6-MAVZU:</b>  | O’zbekistonda iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi,<br>bozor munosabatlarning shakllanishi .....  | 96  |
| <b>7-MAVZU:</b>  | Ijtimoiy sohada davlat siyosatining takomillashib borishi va<br>aholi farovonligini oshirish tadbirlari .....  | 118 |
| <b>8-MAVZU:</b>  | Ma’naviy hayotdagि o’zgarishlar, madaniy taraqqiyot<br>muammolari .....  | 135 |
| <b>9-MAVZU:</b>  | Kadrlar tayyorlash va ta’lim sohasini isloh qilish .....   | 161 |
| <b>10-MAVZU:</b> | Mustaqillik yillarda qurolli kuchlar, ichki ishlар va davlat<br>xavfsizlik, favqulotda vaziyatlar xizmatlari tizimidagi<br>islohotlar .....              | 181 |
| <b>11-MAVZU:</b> | Mustaqillik yillarda Qoraqalpog’iston Respublikasi .....   | 200 |
| <b>12-MAVZU:</b> | O’zbekistonning xalqaro aloqlari va jahon hamjamiyatidagi<br>o’mi .....  | 220 |
| <b>13-MAVZU:</b> | O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev<br>rahbarligida yangilanayotgan O’zbekiston: milliy<br>tiklanishdan – milliy yuksalish sari ..... | 269 |

## **1-MAVZU: KIRISH. "O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI" FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI, NAZARIY-METODOLOGIK TAMOYILLARI**

**Reja:**

- 1. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.**
- 2. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanini o'rganishning nazariy-uslubiy asoslari.**
- 3. O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitish va o'rganish tizimining tashkil etilishi.**

**Tayanch tushunchalar:** *O'zbekistonning eng yangi tarixi fani predmeti. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining o'rganish obyekti. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining maqsadi va vazifalari. Metodologiya. Dialektika. Xronologiya. Arxiv manbalar. Tarixni davrlashtirish. Komil inson.*

- 1. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.**

Tarix fani odamzodning eng qadimgi davridan bugungi kungacha kechgan hayotini, o'tmishdagi tarixiy jarayonlarni, turmush tarzini, avloddan-avlodga meros sifatida rivojlanib, boyib borayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy, davlat qurilishi sohalaridagi tajribalarini, o'z xalqiga bosh bo'lib, ularga yetakchilik qilgan tarixiy shaxslar faoliyatini tartibga solib o'rganuvchi va tasvirlovchi fandir.

Inson o'z tarixini o'rganish, bilish orqali kishilik jamiyatining rivojlanish qonuniyatlarini, taraqqiyotining bosqichlarini, jamiyatning inqirozli holatga tushish sabablarini va bu holatdan chiqish yo'llidagi tajribalarini tushunib oladi, o'tmish saboqlaridan xulosa chiqaradi va kelajakda to'g'ri yo'lidan borish lozimligini anglab yetadi. Shu jihatdan, tarix fani tarixiy jarayonlarning qonuniyatlarini va an'analarini tushunib yetishga, hozirgi zamonni to'g'ri anglab kelajakni asosli ravishda ko'ra bilishga ko'maklashuvchi ilm manbaidir.

Har bir mamlakat, har bir xalq o'zining uzoq va betakror tarixiga ega. O'zbekistonning, o'zbek xalqining tarixi boy va sermazmun. O'zbekiston jahon tarixinining turli xalqlar, tamaddunlar tutashgan eng qaynoq chorrahalaridan biri sifatida butun insoniyat sivilizatsiyasining takomiliga ma'lum darajada ta'sir etib bordi.

Xalqimizning davlatchilik tajribasi ham boy va qadimiylar. O'zbekiston hududida dastlabki mustaqil davlat tuzilmalari bundan salkam 3000 yil muqaddam (mil. avv. 1-ming yillik boshlarida) paydo bo'lib, o'tgan ming yilliklar davomida takomillashib, dunyo davlatchiligi rivojiga munosib hissa qo'shib keldi. Bugungi mustaqil O'zbekiston davlati xalqimizning ming yillik davlatchiligining tarixiy vorisi – davomchisidir. O'zbekistonning eng yangi tarixi fani anashu mustaqil O'zbekiston davlatining zarvorli tarixini o'rganuvchi fandir.

Mamlakatimizning 1991-yildan keyingi mustaqillik davri xalqimiz qadimiy tarixining uzviy va tadrijiy qismi hisoblanadi. Chunki aynan shu tarixiy sanadan o'zbek xalqining davlatchilik tarixi yangi bir bosqichga kirdi. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" deb ataladigan mazkur davr Vatanimiz tarixiga tub ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy o'zgarishlar, asriy orzularimizning ro'yobi, buyuk kelajak va farovonlik jamiatini qurish davri bo'lib kirdi. Hayotimiz va tafakkurimizda ro'y berayotgan o'zgarishlarni tahlil qilish, erishilgan yutuqlar va muammolarimizdan to'g'ri xulosa chiqarish tarixiy zaruratga aylandi.

"O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanining *predmetini* mustabid sovet tuzumining inqirozi boshlangan XX-asrning 80-yillari oxiridan boshlab to bugungi kunga qadar mamlakatimizda kechgan tarixiy jarayonlar tashkil etadi.

O'zbekistonning istiqlolga erishish arafasidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy holati, mustaqillikni qo'lga kiritish jarayonlari, O'zbekistonning mustaqillik yillardagi taraqqiyoti va rivojlanish bosqichlari, istiqlol yillarda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalardagi o'zgarishlar, O'zbekistonning xalqaro maydonidagi o'mi va mavqeい, tashqi siyosatda, ayniqsa, mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasida olib borgan siyosati, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov hamda bugungi Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalari asosida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, respublikada millatlararo va umuminsoniy qadriyatlarining rivojlanishiga yaratilayotgan imkoniyatlar mazkur fanning o'rghanish va tahlil qilish *obyekti* hisoblanadi.

Milliy istiqlol o'zbek xalqining asriy orzusi, armoni edi. Bu yo'lda minglab Vatan fidoyilarilari aziz jonlarini qurban qildilar. Milliy mustaqillikning qo'lga kiritilishi katta yutuq, uning qadriga yetish, mustahkamlash, asrab avaylash mushkul va mas'uliyatlari vazifa. Har qanday mamlakatning qudrati, uning milliy mustaqilligi davlat chegaralarining daxlsizligi, o'sha mamlakat fuqarolarining o'z yurtiga mehr-muhabbat bilan tarbiya topgani, Vatan mustaqilligi va milliy istiqlol uchun kurashda zarur bo'lsa jonini fido qilishga ham tayyor bo'lishdek oliyjanob fazilatlarga ega bo'lishlariga bog'liq. Bu fazilatlarni xalq, yurt kelajagi – yoshlar ongida shakllantirish *ushbu fanning vazifasi* hisoblanadi.

"O'zbekistonning eng yangi tarixi" fani xalqimiz uchun ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy, ma'naviy saboqlar majmuasidir. Bu fan barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog'liq holda o'rganiladi. Insoniyat hayotining ma'no-mazmuni va jamiat taraqqiyotining umumiyl qonuniyatлari haqida fikr yuritganda, falsafa, davlat qurilishi va jamiatni boshqarish masalalarida politologiya, iqtisodiy hayotni yoritishda iqtisodiyot nazariyasи, xalqimizning turmush tarzi, tili va milliy mentalitetini tasvirlashda etnologiya, o'zbek tili va adabiyoti, dinshunoslik fanlari yutuqlaridan foydaliladi. Tarixshunoslik, manbashunoslik, arxivshunoslik kabi maxsus fanlar eng yangi tarix falsafasini chuqur anglab yetishga ko'maklashadi.

Bugungi globallashuv asrida ta'lrim sohasida "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanini o'qitish zamirida mamlakatimizning intellektual va ma'naviy boyligi bo'lgan yoshlar salohiyatni yuksaltirishdan manfaatdor ekanligi omili yotadi. Globallashuv sharoitida bilimlichkeit mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish va uning milliy boyligini

ko'paytirishning muhim tarkibiy qismiga aylanib borayotganligi, yoshlarning yuksak ma'naviy darajasi esa insonlarda huquqiy madaniyatni, erkin va demokratik huquqiy davlatda yashash hamda mehnat qilish qobiliyatini shakllantirish, o'zligini anglash, ulardan shaxs, davlat hamda jamiyat manfaatlari yo'lida foydalanish imkonini beradi. Fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi.

Mazkur fanning o'qitilishi jarayonida talaba fan bo'yicha mustaqillikka erishish arafasida O'zbekistonda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni, ularning sabablari va oqibatlarini; mustaqillik yillaridagi o'zgarishlarni, O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalarini, zamonaviy jarayonlarda O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o'mini tarixiylik va xolislik nuqtai nazaridan bilib oladi.

O'zbekistonning eng yangi tarixi muammolarini o'rganish, dunyoqarashni mustahkamlashda milliy mustaqillik g'oyasini qo'llay bilish, atrofida sodir bo'layotgan jarayonlarga o'z munosabatini bildira olish, jamiyat va inson dunyoqarashi rivojida tarix fanining o'rnini anglash va bugungi kunda sodir bo'layotgan voqealarning tarixdagi muhim voqealar bilan bog'liqligini bilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Shuningdek, O'zbekistonning eng yangi tarixini chuqur organish orqali talabalar ma'naviy-milliy va umuminsoniy masalalar bo'yicha o'z qarashlarini ilmiy asoslay olish hamda milliy mustaqillik g'oyalariga amal qiladigan faol zamonaviy dunyoqarash malakalarga ega bo'ladilar. Bu o'z navbatida, yoshlarda tarixiy tafakkurini shakllantirib, komil inson bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyat kasp etadi. Asosiy vazifa O'zbekiston tarixi fanining mantiqiy davomi bo'lgan "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fani bo'yicha yosh avlodni millatning dardiga darmon bo'ladi, yurt kelajagi uchun qayg'urib yashaydigan komil, o'z ona yurti bilan g'ururlanadigan inson qilib tarbiyalashdan iborat.

## **2. O'zbekistonning eng yangi tarixi fanini o'rganishning nazariy-uslubiy yasoslari.**

Istiqlol yillarda O'zbekistonda tarix fani katta o'zgarishlarga yuz tutdi. Sovet mafkurasi to'laligicha va qat'yan rad etilib, ko'p omilli metodologik yondashuvlarga jiddiy e'tibor qaratildi. Milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan yangi metodologik yondashuvlar paydo bo'ldi. Ilm-fanning muammoli sohalariga shu kungacha o'rganilmagan mavzular kirib keldi, ko'plab tarixiy voqealarga yangicha izohlar berila boshlandi, yangicha ta'lif standartlari, dasturlar, darslik va o'quv qo'llanmalar ishlab chiqildi. Lekin, shunga qaramay, hali qilinishi lozim bo'lgan ishlar juda ko'p. O'tgan davr mobaynida O'zbekistonning eng yangi tarixidagi voqealar ko'lami va o'sish sur'ati fan va ta'lif oldiga ularni tizimli ravishda o'rganish vazifasini qo'ymoqda. Bu, bir jihatdan, mamlakatimiz keyingi 30 yil davomida iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy sohalarda erishgan ulkan yutuqlar yetarli darajada yoritilmagani bilan sharhlanadi.

Mustaqillik O'zbekiston xalqi tarixini xolisona o'rganish imkonini berdi. Bu omil tarixni mafkuraviy aqidalar, bir tomonlama noxolisona yondashuvlar ta'siridan xalos etish, tarixiy voqealari qanday sodir bo'lgan bo'lsa, shundayligicha tadqiq etish va undan to'g'ri xulosa chiqarish uchun asos bo'ldi.

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda tarix faniga bo'lgan munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimovning 1998-yil iyun oyidagi bir guruh tarixchilar bilan uchrashuvi, "O'zbekiston FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori va "O'zbekiston tarixi konsepsiyasi"ning ishlab chiqilishi anashu amaliy harakatlar debochasi bo'lgan edi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" (1998), "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" (2008), "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" (2011) kabi asarlari O'zbekistonning eng yangi tarixini zamonaivi tarzda o'rganishning nazariy-metodologik asoslarini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qildi.

Vatan va xalq tarixini o'rganishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevlarning asarlari, maqola va nutqlari, farmon va qarorlari, 2016-2021-yillarda qabul qilingan Qonun va meyoriy hujjatlar ham muhim nazariy-metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

E'tibor berish lozimki, tarixning yaratuvchisi va ijodkori bu – xalq. Bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlar, voqelik va hodisalar, islohotlarni xalqsiz va tarixiy shaxslarsiz tasavvur etish aslo mumkin emas. Tarix xalqning fikr-tafakkuri va dunyoqarashining hosilasi. Aynan shuning uchun ham – tarix ibrat maktabi bo'lib, o'tmishda yo'l qo'yilgan nuqsonlarni anglash va ulardan tegishli saboq chiqarish, xushyorlik va ogohlilikni targ'ib etuvchi, buzg'unchi g'oyalarga qarshi tunishga undovchi, milliy birlik, hamkorlik va bag'rikenglikka chaqiruvchi beqiyos ibrat maktabidir. Shuningdek, xalq xotirasi, o'tmish, ushbu o'tgan tarixiylikni o'quvchilarga haqiqiy yetkazish tarixni fan darajasiga ko'taradi. Tarixni fan sifatida o'qish, o'rganish, talqin etish va chuqur anglab yetish bevosita ilmiy tadqiqotlarning samarasi hisoblanadi. Faqat ilmiy tadqiqotlar orqaligina bo'lib o'tgan tarixiy-madaniy jarayonlarni xolis tahlil qilish va mantiqiy talqin etish qiyosiy va tanqidiy solishtirish asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, tarixiy dunyoqarash asosida voqeahodisalar, tarixiy jarayonlarga baho berish, tarix falsafasini anglab yetish imkoniyatlari kengayadi. Aynan shuning uchun ham tadqiqotlar natijalarini doimiy ravishda fanga joriy etib borish metodologik jihatdan ulkan ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik bizga barcha imkoniyatlар bilan birlgilikda haqqoniy tarixni yoritish va o'rganish imkoniyatini ham berdi. Shu jihatdan tarixni yoritish va o'rganishda birinchi navbatda bilish nazariyasining dialektik metodidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, olam yagona va yaxlit, barcha hodisa-voqealar umumiy va o'zaro bog'liqlikda, uzuksiz harakatda, ziddiyatlari taraqqiyotda bo'lishi dialektikaning asosiy tamoyillaridir. Dialektik metodologiya barcha mamlakat va xalq tarixini, shuningdek, O'zbekistonning eng yangi tarixini jahon xalqlari tarixi bilan bog'liq holda o'rganishni talab etadi.

O'zbekistonning eng yangi tarixi Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixi bilan, qolaversa, bashariyat tarixi bilan chambarchas bog'langan. Qadimdan bugungacha O'zbekiston Markaziy Osiyo va qo'shni mintaqadagi ko'pgina davlatlar bilan yagona iqtisodiy va madaniy makonda bo'lib keldi. Bu katta hududda yashovchi urug', qabila, qavm, elatlar etnik jihatdan doimo o'zaro ta'sir va aloqada bo'lgan, qo'shilish,

aralashish jarayonlarini boshdan kechirgan, ularning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayoti bir-biri bilan uzziy bog'liqlikda o'tgan. Bu holatlar O'zbekistonning eng yangi tarixini qo'shni mamlakatlar tarixi bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, tojik, fors, afg'on, hind, arab va boshqa xalqlarning zamonaviy tarixini qanchalik yaxshi bilsak, O'zbekistonning eng yangi tarixini shunchalik chuqur, har tomonlama mukammal o'rganish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Tarixiy voqeа-hodisalarни tahlil etish, yoritish va o'rganishda xolisona, haqqoniy, adolatli va ilmiy yondoshuv muhim metodologik qoida hisoblanadi. Xolislik qoidasi tarixiy voqeа-hodisalarни o'rganayotganda, ular bilan bog'liq barcha jarayonlarning hech bir istisnosiz butun majmuani birga olib tekshirishni, aniq, haqqoniy dalillarga asoslanib ishlashni talab qiladi. Tarixiy hodisalarни bir butun holda o'zaro aloqada va munosabatda tekshirish lozim.

Tadqiqotchilar to'g'ri ta'kidlaganlaridek, tor doirada tug'ilgan bir g'oyani, uydirmani oqlash lozim bo'lsa, faktlar silsilasidan faqat ayrimlarini, mos keladiganlarinigmiga tanlab olish "tajribasi" sir emas... Bu usulda chiqarilgan xulosa yoki baho xolisona, haqqoniy bo'lmaydi va bu bir tomonlamalikka olib keladi.

Tarixiy voqeа-hodisalarни o'z davrining aniq tarixiy sharoitidan kelib chiqqan holda o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Voqeа-hodisalarни o'rganishda tarixiy rivojlanish jarayoniga e'tibor qaratmoq zarur. Shu jihatdan tarixni yoritish va o'rganishda tarixiylik metodologiyasi muhim o'rinn tutadi. Har bir voqeа-hodisani boshqa voqeа-hodisa bilan bog'lab o'rganilgandagina mazkur voqeа-hodisalarning umumiy tarixiy jarayonidagi o'mini to'g'ri aniqlash, belgilash mumkin bo'ladi. Har bir voqeа-hodisaga umumiy tarixiy jarayonning bir qismi, bir bo'lagi deb qaramoq zarur. Ularning qanday tarixiy sharoitda, muhitda paydo bo'lganligini, o'z taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni o'taganligini, keyinchalik u qanday bo'lib qolganligini bilish tarixiylik qoidasining asosiy talabidir.

Tarixiylik metodologiyasi xalqning o'tmishini, hozirgi zamon va kelajagini yagona tabiiy tarixiy jarayon deb, o'tmish hozirgi zamonni yaratdi, hozirgi zamon kelajakni yaratadi, degan taraqqiyot qonuni asosida qaraydi. O'tmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, anglab yetsak, hozirgi zamonni, mustaqillik mazmun-mohiyati va ahamiyatini mukammal tushunamiz, kelajakni to'g'ri tasavvur etamiz.

Tarixiy jarayonni o'rganishda ijtimoiy yondashuv tamoyiliga ham rioya qilmoq zarur bo'ladi. Ijtimoiy yondashuv metodologiyasi tarixiy jarayonlarni aholi barcha tabaqalarining manfaatlarini hisobga olgan holda o'rganishni taqozo etadi. Voqealarni alohida bir ijtimoiy tabaqa – kambag'allar, yo'qsillar yoki mulkdor, boylar manfaati nuqtai nazaridan turib tahlil etish, yoritish bir tomonlama yondashuv bo'lib, u tarixni soxtalashtiradi, to'g'ri xulosaga olib kelmaydi.

Mamlakat yurtboshisiz, boshliqsiz, davlat idora organlarisiz, boshqaruvchilarsiz, amaldorlarsiz bo'imasligini isbot etishning hojati bo'lmasa kerak. Shunday ekan, barcha davlat arboblarini, amaldorlarni yoppasiga qoralash to'g'ri emas.

Ijtimoiy yondashuv tamoyili davlat arboblarining, siyosiy kuchlar, partiyalar, turli uyushmalar, ular yo'lboshchilarining tarixiy taraqqiyot darajasiga ko'rsatgan

ijobiy yoki salbiy ta'sirini, jamiyatda u yoki bu yo'ldan rivojlanishdagi rolini bilib olishda ham muhim ahamiyatga egadir. O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishda milliy qadriyatlar, xalq an'ana va urf-odatlarini, din tarixi, odamlarning diniy e'tiqodlari, diniy ta'limotlar va ulaming asoschilari faoliyatini tahlil qilishda, yoritishda *vorisiylik* tamoyiliga amal qilish, ularga hurmatlash, e'zozlash nuqtai nazaridan yondashmoq kerak. Hayot xalqning necha ming yillar davomida yaratgan ma'naviy madaniyatini, axloqiy mezonlarini ikkiga: ekspluatatorlik madaniyati va axloqi hamda ekspluatatsiya qilinuvchilar madaniyati va axloqiga bo'lish va birinchisini qoralashdan iborat bolsheviklarcha yo'riqnomaning naqadar zararli ekanligini ko'rsatdi. Ma'naviy merosga bunday yondashuv ma'naviy qashshoqlanishga, milliy qadriyat va urf-odatlarining oyoqosti qilinishiga olib kelganligini ham unutmaslik kerak.

O'tmishning tarixiy jarayonlarini tahlil etish, yoritish va o'rganishda Vatan manfaati nuqtai-nazaridan yondoshib, milliy istiqlol g'oyasi tamoyillariga tayanib ish tutish juda muhim hisoblanadi.

Tarixni o'rganishda yuqoridaq nazariy-metodologik qoidalar bilan bir qatorda, dalillarni taqqoslash, mantiqiy-qiyosiy xulosalar chiqarish, davrlashtirish, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish, statistik, matematik va boshqa usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Prezidenti SH.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "o'tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lishi zarur".

O'zbekistonning yangi tarixi mustaqillikni qo'liga kiritish va O'zbekiston Respublikasining rivojlanish tarixidir. Shu boisdan, bu tarixning boshlanish nuqtasi sifatida sovet totalitar tuzumining so'nggi o'n yilligi davrida O'zbekiston uchun tahlikali bo'lgan 1989-yilni ko'rsatish mumkin. Ushbu voqealar negizida esa inqirozga yuz tutgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi, respublikalarning milliy, iqtisodiy, ijtimoiy manfaatlарini inobatga olmaslik siyosati va paxta yakkahokimligi oqibatida ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik ahvolning, insonlar hayot darajasining fojiali yomonlashuvi yotar edi. O'zbekiston tarixining eng murakkab davrida siyosat maydoniga kelgan Islom Karimovning jasorati, say-harakatlari natijasi o'laroq, markazda respublika manfaatlari qat'iyat bilan himoya qilindi, mamlakatni siyosiy va iqtisodiy parokandalikdan, ichki va tashqi nizolardan saqlab qolishga erishildi. Natijada 1991-yilda O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Bu o'zbek xalqi va davlatchiligi rivojlanishida yangi, hal qiluvchi nuqta bo'lib qoladi.

Ikkinchidan, O'zbekistonning suveren davlat sifatidagi eng yangi tarixi insoniyat tarixi rivojlanishidagi yangi bosqichga to'g'ri keldi. Bu bosqichda biz yangi davrga qadam qo'yamoqdamiz, ko'z o'ngimizda jahonda butunlay yangi tartib o'matilmoqda. O'zbekistonning eng yangi tarixi esa insoniyat eng yangi tarixining ajralmas qismi sifatida zamonaviy dunyoning global voqealari bilan chambarchas bog'liq.

### **3. O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitish va o'rganish tizimining tashkil etilishi.**

Vatanimiz eng yangi tarixni o'rganish tarixchilarning yangi avlodni paydo bo'lishi bilan izohlanadi. Bu, o'z navbatida, zamonaviy nazariyada muhim

hisoblangan bir savol – tarixchining jamiyatga berayotgan o'tmish haqidagi bilimlariga nisbatan javobgarligi masalasini yuzaga chiqaradi. Eng yangi tarix – uning zamondoshlari tarixi. Biz barchamiz – O'zbekiston Respublikasining fuqarolari ushbu tarixning bevosita guvohlari va ijodkorlarimiz.

Bugungu kunda mamlakatimizdagı tarixchi-jamiyatshunos olimlar tomonidan O'zbekistonning yangi tarixini quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rGANISH maqsadga muvofiq deb ko'rilmoxda:

**Birinchi bosqich (1989-1991-yillar).** Bu bosqich Islom Karimovning respublika rahbari lavozimiga kelishi, O'zbekistonda mustaqillik g'oyalarining pishib yetilishi, davlat mustaqilligi tarixiy tasodif ta'sirida emas, balki respublikada yuzaga kelgan ziddiyatli va murakkab vaziyatdan chiqish yo'l-yo'riqlarini qidirish hamda sobiq Ittifoq rahbaryatinining O'zbekiston yetakchisi Islom Karimov siyosatiga qarshi qaratilgan fitnalarining oldini olish yo'lida kurashlar bilan xarakterlanadi. Mazkur yillarning alohida davr sifatida e'tirof etilishida I.Karimovning 2011-yilda e'lon qilingan "O'zbekiston mustaqillikka etishish ostonasida" asaridagi xronologik yondashuv konseptual asos bo'lib xizmat qiladi.

**Ikkinci bosqich (1991- 2000-yillar) –** o'tish davri. Bir necha avlod davrida shakllanib kelgan va odamlar ongiga singib ketgan kommunistik mafkura aqidasidan voz kechilib, "O'zbek modeli"ning hayotga joriy etilishi natijasida tarixan qisqa davr ichida ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan eski sovet tizimi o'miga milliy davlatchilik asoslarini yuzaga keltirishga qaratilgan huquqiy baza yaratilishi davri. Ushbi davrda shuningdek, yangi davlat boshqaruv tizimi – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tashkil etildi hamda fuqarolik jamiyatasi asosları yaratildi, erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni boshlandi. Bu davrda mamlakat mustaqilligini mustahkamlash bilan bir qatorda, milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlarini saqlash hamda taraqqiy ettirish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. 1996-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida "**O'zbekistonning yangi tarixi markazi**" tashkil etildi.

**Uchinchi bosqich (2000-2016-yillar)** – mamlakatimizda demokratik yangilanish va modernizatsiyalash davri. Ushbu bosqichning asosiy vazifasi sifatida o'tish davrining obyektiv ehtiyoji hamda milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlashga qaratilgan kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqich o'tish vazifasi kun tartibiga qo'yildi.

**2016-yidan O'zbekiston yangi tarixining beshinchchi bosqichi boshlandi.** Bu davr 2016-yil sentabr oyidan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti vazifasini bajaruvchi, 2016-yil dekabrdan esa umumxalq tomonidan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylangan SH.M.Mirziyoyev faoliyati bilan bevosita boshlanuvchi yangilanishlar davridir.

Istiqlolning eng muhim qiymati shundaki, ushbu davrda mustabid tuzum davrida soxtalashtirilgan o'tmish voqeligi xususida tarixiy adolat qaror topdi, tarixni ilmiy va xolisona o'rGANISH imkoniyati yuzaga kelidi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tarixini chuqur o'rGANISH juda dolzarb vazifa ekanini, bugungi tinch-osoyishta kunlarning

qadriga yetish, mustaqilligimizni mustahkamlash haqida to'xtalar ekan, o'sib kelayotgan yosh avlod istiqlolimiz tarixini chuqr o'rganishi, bunday kunlarga osonlik bilan erishilmaganini tushunib, anglab yetishi zarurligini doimo ta'kidlagan edi<sup>1</sup>.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning eng yangi tarixini chuqr o'rganish, bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni, ta'lif-tarbiya hamda ma'naviy-marifiy faoliyatning butun tizimini yanada yuqori bosqichga ko'tarish muhim ahamiyatga ega. Bu tarix fani oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Yangi tarixni o'rganishda yana bir muhim omil borki, u bugungi kun butun jahon tadqiqotlari tizimida ustuvor o'rinni egallab kelmoqda. Bu "tarixdagi Inson" mavzusini tadqiq qilish, boshqacha aytganda, shaxsning, tarixiy siyomoning hamda oddiy insonning uni o'rab turgan dunyodagi rolini o'rganishdir. Eng muhim vazifa, eng yangi tarixni metodologik va ilmiy asosga tayangan holda tadqiq etishdan iborat. Biz metodologik asosni chuqr anglab yetsak, tarixni siyosiyashtirish, qalbakilashtirish va buzib ko'rsatish kabi salbiy holatlarning oldini olgan bo'lamiz.

O'zbekistonning eng yangi tarixini tizimli o'rganish dolzarbli tufayli 2012-yil 27-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-1694) bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha **Jamoatchilik kengashi** tashkil etilgan edi. Jamoatchilik kengashi va uning ishchi organi bo'lgan muvofiqlashtiruvchi Markaz o'zining 5 yillik faoliyati davomida istiqlolning dastlabki chorak asrida amalga oshirilgan ishlar aks etgan turli mavzulardagi monografiyalar, to'plamlar va ilmiy jurnallarni nashr etish ishini boshqarib, ularning ilmiy-uslubiy va metodologik mazmunini muvofiqlashtirib bordi.

2016-2017-yildan mustaqil O'zbekiston o'zining yangi rivojlanish pallasiga kirdi. Oldingi yillarda amalga oshirilgan tub-ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarasi o'laroq ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan tub o'zgarishlarni yangicha talqin qilish tarixiy zaruratga aylandi.

O'zbekiston milliy davlatchiligining vujudga kelishi va taraqqiy topishining eng yangi tarixini tadqiq etish va o'qitish, ilmiy, ilmiy-ommabop, o'quv-metodik, ma'rifiy adabiyotlami tayyorlash va chop etish, ilm-fanning ta'lif va boshqa ijtimoiy sohalar bilan integratsiyasi mexanizmlarini mustahkamlash va rivojlantirish borasida ilmiy, madaniy, ta'lif, jamoat muassasalari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarining samaradorligini oshirish, yoshlarda, avvalambor, umumta'lif maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar o'quvchilarida, oliy ta'lif muassasalari talabalarda mamlakat tarixi haqidagi chuqr bilimlarni shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2789-sonli Qaroriga muvofiq, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha **Jamoatchilik kengashi** O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi **O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashiga aylantirildi**.

<sup>1</sup> Karimov I.A. Inson xotiras - boqiy, qadr-qimmati - ulug'. // "Xalq so'zi" gazetası. 2012-yil 10-may.

Jamoatchilik kengashi O'zbekistonning eng yangi tarixini tadqiq etish va o'qitish samaradorligini, mazkur sohada ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlari sifatini oshirishga ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan, jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi idoralararo ilmiy-muvofiqlashtirish va maslahat organi etib belgilandi.

O'zbekistonning eng yangi tarixini zamonaviy nazariy-metodologik, fanlararo yondashuvlarga, tarixiylik va xolislik tamoyillariga asoslangan holda tizimli o'rganishni tashkil etish, O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha dolzarb muammolarni ishlab chiqish, shuningdek, buyuk tarixiy-madaniy merosga ega bo'lgan va jahon sivilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi va bugungi kuniga baho berishda bir yoqlama yondashuvlarga, aqidaparastlikka yo'l qo'ymaslik ishlari muvofiqlashtirish;

-demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning "o'zbek modeli" mohiyati va mazmunini, jamiyatda barqarorlikni, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni saqlash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni, hozirgi dunyoda O'zbekistonning roli va o'mini chuqur o'rganish va yaqqol ochib berish;

-ilmiy, o'quv, o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va chop etish ishlari muvofiqlashtirish, ularda O'zbekistonning eng yangi tarixini umumjahon va mintaqaviy jarayonlar bilan, shuningdek, hozirgi O'zbekiston hududida shakllangan xalqlar va davlatlar sivilizatsiyasining tarixiy-madaniy merosi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqishni ta'minlash;

-O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha ilmiy, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv dasturlari monitoringini olib borish, ushbu sohada ilmiy-tadqiqot, o'quv-metodik ishlarning sifatini yaxshilash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va joriy etish;

-fuqarolarda tarixiy xotira, milliy o'zlikni anglash, yuksak ma'naviyat, xalqning tarixiy an'analarini, madaniy merosiga hurmat, mamlakatimiz mustaqillikka erishganligining buyuk tarixiy ahamiyatini anglash kabi fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlari samaradorligini, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali oshirib borishga ko'maklashish;

-O'zbekiston tarixi bo'yicha zamonaviy chet el ilmiy va o'quv adabiyotlarini o'rganishga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish, hozirgi O'zbekistonning tarixiy o'tmishi, sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi, mamlakatda olib borilayotgan demokratik islohotlar to'g'risidagi xolis axborotni keng xalqaro jamoatchilikka yetkazish **Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari** etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz Jamoatchilik kengashining ishchi organi etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi "O'zbekistonning eng yangi tarixining dolzarb masalalari" jurnalni muassisilari qilib belgilandi.

Mazkur Qarorda O'zbekistonning eng yangi tarixini tizimli ravishda tarixiylik

va xolislik prinsiplariga asoslangan holda o'rganishni tashkil etish, shuningdek, u tarixiy-madaniy merosga ega bo'lgan va jahon sivilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi va bugungi kuniga baho berishda bir yoqlama yondashuvlarga yo'l qo'ymaslikka yo'naltirilgan bo'lib, hujatda O'zbekiston ilmiy jamoatchiligi oldiga o'quv, ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlami tayyorlash va yangi avlod nashrlarini chop etish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish, ularda O'zbekistonning eng yangi tarixini umumjahon va mintaqaviy jarayonlar bilan, ayni vaqtida, hozirgi O'zbekiston hududida shakllangan xalqlar va davlatlar sivilizatsiyasining tarixiy-madaniy merosi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqishni ta'minlash kabi vazifalar belgilab berilgan.

O'zbekistonning eng yangi tarixini bilish shu mamlakat har bir fuqarosi, shuningdek, har bir soha mutaxassis uchun jahon tarixi tizimida Vatanimiz tarixinining XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi muhim voqealarini, davlatimiz taraqqiyotining o'ta muhim yo'nalishlarini bilish va teran anglab yetishga, yangi strategik davrda O'zbekistonning zamonaliv dunyodagi o'rni va roli hamda davlatimiz rahbari olib borayotgan ichki va tashqi siyosatning ustuvor vazifalari haqida tasavvur hosil qilishga ko'maklashishi lozim.

O'zbekistonning yangi tarixi bo'yicha ilmiy adabiyotlar yaratish dolzarbligining yana bir jihat shundan iboratki, globallashuv sharoitida O'zbekiston yoshlari turli mafkuraviy oqimlar ta'siriga tushib qolishi mumkin. Bu mafkuralardan ba'zilari mustaqil O'zbekiston va uning siyosatini ongli ravishda parokanda qilishga yo'naltirilgani yaxshi ma'lum. Shu bois, ilmiy va o'quv fani sifatida O'zbekistonning eng yangi tarixi o'z ichiga axborot xavfsizligi tizimining bir qismi sifatida ana shunday kuch va oqimlarga qarshi targ'ibotni olishi shart. Bundan tashqari, O'zbekistonning eng yangi tarixi – konstruktiv tarixiy xotira, vatanparvarlik va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi vosita hamdir.

Tarix, huquq, iqtisod va falsafa sohalari mutaxassislarining maxsuli bo'lgan ushbu fonda xronologik yondashuv asosida, mustaqil davlatchilikning tadrijiy rivojlanishi, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot, yangicha huquq tizimining shakllanishi, tashqi siyosat, milliy munosabatlar va madaniyatga oid masalalar batafsil yoritiladi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov va amaldagi O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevlarning davlat rahbari sifatidagi keng qirrali faoliyatlariga alohida o'rinn beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlab o'tilganidek: "Oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur.

Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarni kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim.

O'tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lishi zarur.

Afsuski, yurtimiz tarixini o'rganishda o'tgan davrda arxeologik tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmadi.

Shuning uchun Fanlar akademiyasining Arxeologiya va San'atshunoslik institutlari faoliyatini, oliv o'quv yurtlari va muzeylardagi arxeologik izlanishlarni chet ellik hamkorlar bilan birga tashkil etish zarur.

Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebafo merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlari ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixon tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak”<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2019-yil 11-iyuldag'i “O'zbekiston tarixi” telekanalini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g'risida”gi Qaroriga (PQ-4390) asosan, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini chuqur o'rganish, ushbu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini faollashtirish, yosh avlodni milliy qadriyatlar va ajdodlarimizning bebafo merosi asosida tarbiyalash, jamiyatda vatanparvarlik va o‘z xalqi bilan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish asosida milliy o'zlikni anglash hissini mustahkamlash va vatandoshlarimiz dunyoqarashini kengaytirish maqsadida “O'zbekiston tarixi” telekanali tashkil etildi. Telekanal 2019-yil 1-sentabrdan o‘z ko'rsatuvlarini efiga uzata boshladi.

O'tgan davr mobaynidagi “O'zbekiston tarixi” telekanali O'zbekistonning ko'hma va boy tarixi, xalqimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan g'oyat katta ilmiy, madaniy va ma'naviy hissasini yoritishda har bir voqeanning mazmun-mohiyatini izchil va tizimli ochib berish orqali buyuk tariximizning barcha davrlarini chuqur ilmiy tadqiqotlarning xolisona natijalari asosida ko'rsatib beruvchi axborot-tahliliy va mavzuli teleko'rsatuvlar, tok-shou, “davra suhbatlari”ni yuqori professional va g'oyaviy-badiiy saviyada tayyorlay boshladi.

Telekanalga xorijiy telekanallar, ilmiy-tadqiqot markazlari va jamg'armalar tomonidan tayyorlangan, jahon tarixining ahamiyatli lavhalarini aks ettiruvchi, shuningdek, O'zbekiston hududida ming yillar davomida sodir bo'lgan tarixiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan voqealar va shaxslar to‘g'risida hikoya qiluvchi ko'rsatuvlami sotib olish, o'zbek tiliga tarjima qilishni tashkillashtirish va milliy teleradiokanallar efirlarida joylashtirishga ko'maklashish borasidagi vazifalarni amalga oshirishda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix Instituti, O'zbekiston Milliy Universiteti, Sharqshunoslik Universiteti, Toshkent Davlat pedagogika universiteti tarixchi olimlari, shuningdek, O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi mas'ul markaz sifatida yaqindan ko'mak berib kelmoqda.

#### Mavzuning asosiy tushunchalari:

**GLOBALLASHUV** (lotincha globus – yer shari) – aynan bu so‘zni “dumaloqlashuv”, “kurrelashuv” deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining fantexnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlataladi. Insoniyat taraqqiyoti ayni vaqtida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi jarayonidir. Bu jarayon asrdan asrga, ming-ming-yillar davom etgan. Insoniyat jamiyatni, ayniqsa, XVI-XX asrlarda XV asrgacha

<sup>1</sup> Qarang: Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. Asarlar 3-jild. -T.: "O'zbekiston". 2020. 24-25 b.

bo'lgan uch million-yillik tarixida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarga nisbatan ko'proq ne'matlarni yaratdi.

Globallashuvning ijobiy tomoni shundaki, u xalqlarning davlatlarning, milliy madaniyat va iqtisodiyotlarning yaqinlashuvini tezlashtiradi, ularning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Uning salbiy tomoni shundaki, ko'p ming-ming mayda, qoloq etnik guruhlar va millatlarning madaniyati, tili, rasm-rusumlari jahon bo'ylab kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlarida katta millatlar yirik milliy madaniyatlар, boy tillar bilan raqobatlasha olmay o'z-o'zidan faol ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotdan chetga chiqib qolmoqda. Bunday sharoitda har bir ongli fuqaroning vazifasi o'z millatining raqobatbardoshligini ko'rsatish, buning uchun uning faol siyosati, iqtisodiyoti, madaniyatida salmoqli yutuqlari uchun kurashishdir.

Globalashuv davrida bugungi mustaqil O'zbekiston fuqarosi hozirgi zamon amaliyoti talab qilayotgan to'rt sifatga ega bo'lishi shart: 1) zamonaviy mutaxassis bo'lishi; 2) o'zbek davlat tili, rus tili, ingлиз tillarini mukammal bilishi; 3) doim o'z bilim doirasini yangilab borishi; 4) tadbirdor-tashabbuskor bo'lishi.

**METODOLOGIYA** (yun. methodos – yo'l, usul, logos – ta'limot) – insonning amaliy va nazariy faoliyatini to'g'ri yuushtirish va tuzish to'g'risidagi ta'limot. Boshqacha qilib aytganda 1) ilmiy bilish metodlari va usullari to'g'risidagi ta'limot; 2) inson faoliyatining biron bir sohasiga qo'llaniladigan metod, usullar majmuasi.

**SOTSIALIZM** (lotincha "socialis" – ijtimoiy) – xususiy mulkni ijtimoiy (umumiyl) mulkka aylantirish orqali erkinlik va tenglikka, baxt va farovonlikka erishish mumkin deb hisoblovchi ta'limot. Sotsializm tarafdarları ana shu yo'l bilan qurilgan ijtimoiy tuzumni ideal (barchaga manzur, oqilona) jamiyat deb hisoblaganlar. Sotsializmda inson xususiy mulkdan tamomila ajratiladi. Oqibatda inson o'z individual xususiyatlaridan ham mahrum etiladi. U "omma"ga aylanib, o'z "meni"ni ham yo'qotadi. Jamiyatda zo'ravonlik, tobek kuchayadi.

**TOTALITARIZM** (lotincha "totalis" – butun, hammasi, to'la) – davlatni boshqarish shakllaridan biri. Bir shaxs, ijtimoiy sınıf yoki guruhning (masalan: harbiylar guruhi) yakkahokimligiga so'zsiz bo'ysunishga asoslangan, vaqtincha va o'tkinchi siyosiy tartib. Totalitar davlat boshqaruv shakli joriy qilingan mamlakatlarda jamiyat hayotining barcha sohalari ustidan davlat hokimiyyat organlari to'liq nazorati o'matiladi. Siyosiy erkinliklar bo'g'ilib, ommaviy axborot vositalariga senzura (davlat nazorati) o'matiladi. Erkin fikr ta'qilanganadi va qatag'on qilinadi.

**XRONOLOGIYA** (yun. xronos – vaqt, logos – fan) – 1) tarixiy voqealarning davriy tadrijiyligi; 2) vaqt o'ichovi haqidagi fan. Tarixiy X. – yordamchi tarix fani; turli xalqlar va davlatlar yil hisobi tizimi va taqvimlarini o'rganadi, tarixiy voqealar sodir bo'lgan sanalarni va tarixiy manbalari yaratilgan vaqtini aniqlashga yordam beradi. X. taraqqiyot bosqichlarining vaqtini aniqlash demakdir.

**O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANINING PREDMETI** – mustabid sovet tuzumining inqirozi boshlangan XX asrning 80-yillari oxiridan boshlab to bugungi kunga qadar O'zbekistonda kechgan tarixiy jarayonlar Vatanimizning tarixini, bu zaminda ko'p ming yillar davomida yashab taraqqiy etib, jahon sivilizatsiyasi hazinasiga o'zining munosib xissasini qo'shib kelgan bunyodkor

xalqimizning istiqlol yillaridagi tarixini xolisona organish. Shuningdek, ushbu fan predmeti doirasiga o'zbek xalqining millat bo'lib shakillanish jarayoni, xalqimizning mustaqillik yillarida milliy huquqiy davlatchilik qurilishi, fuqarolik jamiyatni va erkin bozor iqtisodiyotini shakillantirish jarayonlarini o'rganish ham kiradi.

**O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANINING MAQSADI** – Yoshlarni Vatanimiz hududida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilishga o'rgatish; Mazkur jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlar, sabab va oqibatlarini tushunish hamda oshib berish orqali yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ularning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatlarini yuksaltirish, ajdodlar merosiga sadoqat, Vatanga muhabbat va davlat hamda jamiyat oldidagi mas'uliyat ruhiyatini shakllantirish.

**O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANINING VAZIFALARI** – 1) Jahondagi ilg'or, taraqqiyatparvar demokratik kuchlar hamda davlatlarning tajribalarini umumlashtirish asosida xalqimizda yangicha ijtimoiy-siyosiy dunyoqarash madaniyatini shakllantirish; 2) Taraqqiyotning umume'tirof etilgan tamoyillariga asoslangan yo'llarni to'g'ri belgilab olishga ko'maklashish, o'trnish xatolarini takrorlamaslik, ulardan zarur saboqlar chiqarish; 3) Taraqqiyotga, millat kelajagiga xavf soluvchi asosiy omillarni oldindan ko'ra bilish va ularni o'z vaqtida bartaraf etish; 4) Qo'shni va dunyo xalqlari bilan himjihatlikda, tinch-totuv yashash tamoyillarini shakllantirish.

**O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANINI O'RGANISHNING METODOLOGIK TAMOILLARI** – 1) Ilmiylik, tarixiylik, xolislik; 2) Tarixiy tahlil va qiyosiy taqqoslash; 3) Mantiqiy davomiylik va uzviylik; 4) Vorisiylik va izchillik; 5) Kuzatish, solishtirish, umumlashtirish; 6) Manbalar bilan asoslanganlik; 7) Xronologik ketma-ketlik; 8) G'oyaviylik va Vatanparvarlik; 9) Voqeal-hodisalarga dialektik yondoshuv.

**2-MAVZU: MUSTAQILLIKKA ERISHISHI ARAFASIDA  
O'ZBEKISTONNING IJTIMOIY-SIYOSIY VA IQTISODIY  
AHVOLI**

**Reja.**

1. "Qayta qurish" siyosati va uning barbod bo'lishi.
2. Mustaqillik arafasida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.
3. Farg'ona, Bo'ka, Parkent va Namangan voqealari.
4. O'zbekistonda "Paxta ishi" va uning oqibatlari.

**Tayanch tushunchalar:** "Afg'on urushi", "Qayta qurish", "Kadrlar to'dasi", "Paxta ishi" ("O'zbek ishi"), Inflyatsiya, Oshkoraliq, Fargona voqealari, Milliy munosabatlar, Milliy uyg'onish.

**1. "Qayta qurish" siyosati va uning barbod bo'lishi.**

Ma'lumki, XX-asr insoniyat tarixiga fan-texnika inqilobi, murakkab ijtimoy-iqtisodiy o'zgarishlar, ko'lami jihatidan misli ko'rilmagan jahon urushlari asri bo'lib kirdi. XX-asr shuningdek, murkakkab g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar davri sifatida jahon siyosatida tub burilishlar ro'y bergan davr bo'ldi. Ushbu asming muhim voqeligidan biri jahon tarixida "Qizil imperiya" nomi bilan yuritilgan mustabid Sovet ittifoqining tashkil topishi va o'tmish tarixdagi imperiyalar singari barbod bo'lishi davri bo'ldi. 1922-yilda jahon siyosiy xaritasida paydo bo'lgan Sho'rolar davlati 30-yillarda qatag'oni, 1939-1945-yillardagi ikkinchi jahon urushi, 50-60-yillardagi urush vayronalarini bartaraf etish, 70-yillarda turg'unlik yillarini boshidan o'tkazib, 1991-yilgacha jahonning hududiy jihatdan eng katta davlati sifatida yashab keldi.

1925-yilda Moskvadagi bolsheviklar yo'riqnomasi va andozasi asosida tashkil etilgan O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi esa Sobiq Ittifoqning 15 ta ittifoqdosh respublikasidan biri sifatida qog'ozda mustaqil, amalda qaram respublika sifatida mavjud bo'ldi. O'zbekiston tarixinining 1917-1991-yillari esa tarixshunoslikda o'z mazmun-mohiyatiga mos ravishda "qaramlik" yillarini deb nomlandi.

O'tgan asming 70-80-yillarda sovet rahbariyatining noto'g'ri yuritilgan ichki va tashqi siyosati, oxir oqibat ushbu ulkan imperiyaning davlat sifatida barham topishiga zamin tayyorladi.

Iqtisodiy-xo'jalik yuritilishining ekstensiv xarakteri, mamlakat iqtisodiyotining energoresurslar eksportiga tamomila bog'lanib qolganligi va juda chigal ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan tizimi 70-yillar sovet iqtisodiyotining juda nozik bo'g'ini bo'lgan edi.

1979-yil dekabrda Sovet qo'shinlarining Afg'onistonga kiritilishi, kreml siyosatchilarining tashqi siyosatda qimmatga tushgan navbatdagi xatolaridan biri bo'lgan edi. Butun xalqaro hamjamiyat SSSRni tajovuzkor (aggressor) mamlakat deb e'lon qildi va 1980-yilda AQSH boschchiligidagi G'arb mamlakatlari Moskva olimpiadasini boykot qildi. Ikkinchi jahon urushida ulkan ma'naviy obro' bilan chiqqan Sovet ittifoqi 80-yillarga kelib xalqaro maydonda yakkalanib qoldi. "Sovuq

930903

17

Nizomiy nomli  
T D P U

urush" munosabatlari davom etayotgan ushu davrda Sovet ittifoqining azalij harbiy-siyosiy va iqtisodiy raqobatchisi bo'lgan G'arb mamlakatlari Sovet ittifoqiga nisbatan iqtisodiy sanksiyalami joriy eta boshladilar. 80-yillarda jahon yoqilg'i-energetika bozorida neft narxining keskin tushib ketishi, SSSRning yagona daromad manbaidan mosuvu qildi. Keng xalq iste'moli va oziq-ovqat maxsulotlari taqchilligi yuzaga keldi.

1985-yilda hokimiyatga kelgan M.S.Gorbachev hukumati mamlakat iqtisodiy jihatdan tang ahvolda ekanligini tushunib yetdi va mamlakatni inqirozdan olib chiqishga qaratilgan "Qayta qurish" dasturini joriy eta boshladi. Ammo, puxta o'ylab chiqilmagan islohotlar dasturi yarim asrlik chuqur ildiz otgan ma'muriy buyruqbozlik tizimi, yakkapartiyaviy boshqaruvi tizimi hamda eski nomenklatura sarqitlari islohotlar yo'liga to'g'anoq bo'ldi. "Qayta qurish" siyosati tamomila teskari natija berdi. 80-yillar oxiriga kelib butun Ittifoq respublikalarida mavjud ijtimoiy-siyosiy tizimdan norozilik kayfiyatini yuzaga keltirdi.

## **2. Mustaqillik arafasida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.**

1988-1990-yillarda O'zbekiston barcha asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'sratsatichlar bo'yicha sobiq Ittifoqdagi o'ttacha darajadan anche orqada bo'lib, oxirgi o'tinlardan birini egallar edi. Markaz bosim o'tkazayotgan tahlikali sharoitda o'sha davrning og'ir va ayanchli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy manzarasiga to'g'ri va xolis baho bergan inson Islom Karimov bo'lди. Shu o'rinda Prezidentning 1990-yil 4-iyunda bo'lib o'tgan O'zbekiston Kompartiyasining XXII syezdida so'zlagan nutqidan parcha keltirish maqsadga muvofiq:

"Shu narsa shak-shubhasiz va ochiq-oydindirki, respublika barcha asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ham ancha orquda bo'lib, mamlakatda oxirgi o'rinnlardan birida turibdi. Biz bu raqamlarni ilgari ham necha marjalab aytganmiz, ammo bugun ularni yana bir bor idrok etmoq kerak. O'zbekiston har kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatda 12-o'rinda turibdi, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha ko'rsatkich esa Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ikki hissa past.

Sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan respublika mamlakatdan 40 foiz, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa ikki barobar orqada qolmoqda. Respublikada aholi jon boshiga xalq iste moli mollari ishlab chiqarish o'rtacha Ittifoq darajasining atigi 40 foizini tashkil etadi. Biz daromad darajasi, asosiy turdagи mahsulotlarni iste mol qilish jihatidan ittifoqdosh respublikalar orasida eng oxirgi o'rnlardan birida turibmiz.

O'zbekiston aholisi o'rta hisobda go'sht mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlarini, tuxumni, umuman, mamlakat aholisiga nisbatan ikki barobar kam iste'mol qilmoqda. Oyiga o'rta hisobda 75 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi SSSRda 12 foizdan sal ko'proq bo'sa, bizning respublikamizda 45 foizga boradi. Bir millionga yaqin kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda o'zining qo'lidan keladigan ishni topa olmayapti.

*Ijtimoiy infrastruktura tarmoqlari: sog'lqni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha ta'lim muassasalarini juda og'ir ahvolga tushib qolgan. Maktab va kasalxonalarning*

60 foizi nobop binolarda joylashdirilganini aytishning o'zi kifoya. Juda o'tkir iqtisodiy va ijtimoiy muammlolar ro'yxatini yana davom ettirish mumkin. Buni avvalo, shundan ko'rsa bo'ladika, insonning har tomonlama uyg'un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma'naviy rivojlanishi u yoqda tursin, ko'pincha yashash uchun kerak bo'lган eng oddiy narsalar ham yetishmayapti.

Bunday ahvol vujudga kelganining boisi nimada?

Shu qadar katta boyliklarga, ishlab chiqarish va fan-texnika imkoniyatlariiga, qulay tabiiy-iglim sharoitlariga ega bo'lган respublikamiz asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'satkichlar bo'yicha mamlakatda oxirgi o'rnlardan biriga haqli ravishda inqiroz holati, deb atalgan ahvolga tushib qolganining sababi nimada?

Respublikaning taqdiri, uning kelajagi uchun qayg'urayotgan, yosh avlod taqdiri uchun kajunayotgan sog'lom fikrli har bir kishi hozir o'ziga o'zi shu savolni bermoqda.

Nazarimda, buning javobi shunday bo'lmog'i kerak: 30-yillarning boshlarida iqtisodiyotga rahbarlik qilishning ma'muriyatichilik, buyruqbozlik usullari g'alaba qozonib, O'zbekistonni, uning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirishga yaroqsiz yondashuvlar tobora qaror topib bordi. Xo'sh, bu illatlar nimalarda namoyon bo'ldi? Avvalo shundaki, bizning respublikamiz, asosan, xom ashyo bazasi, sanoat ministrliliklari va idoralarining mo'may xom ashyo manbai deb hisoblanar edi. O'lkanning mahalliy, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariiga ba'zan yetarlicha, ba'zan mutlaqo baho berilmadi, ba'zan esa bu xususiyatlar pisand ham qilinmadi. Iqtisodiy va ijtimoiy sohani kompleks, jadal rivojlantirishning, umumittifoq mehnat taqsimotida O'zbekiston SSRning mavqeい va o'mini o'zgartirishning muqobil yo'llari e'tiborga olinmadi".

Boltiqbo'yи respublikalarida o'sha davrda yiliga aholi jon boshiga go'sht va go'sht mahsulotlari iste'mol qilish 110 kilogrammni tashkil qilganligini ham misol tariqasida keltirish mumkin.

Bunday holni keltirib chiqargan asosiy sabab barcha mahsulotlarni taqsimlashning o'ta markazlashganligi edi. Shu yerda bir holat kishi e'tiborini o'ziga jalb qiladi. O'zbekiston aholi jon boshiga 64,4 kilogramm meva va rezavorlar yetishtirilgani holda, uning iste'moli Ittifoq bo'yicha 41 kilogrammga, O'zbekistonda esa 27 kilogrammga teng bo'lган. O'sha davrda oziq-ovqat mahsulotlari taqsimotidan kelib chiqqan bunday nomutanosiblik O'zbekiston aholisining haqli e'tirozini keltirib chiqargan.

Mustaqillikka qadar mamlakatimizda sug'oriladigan maydonlarning kattagina qismi paxta bilan band bo'lib, meva-sabzavot va chorvachilik mahsulotlari kam yetishtirilishi natijasida aholi iste'mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismini don va don mahsulotlari tashkil etgan. G'allaning 90 foizi respublikamizga tashqaridan (ittifoqdosh respublikalardan) olib kelgingan.

Respublikamiz uchun o'sha paytlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-siyosiy vaziyat ham chigallashgan davr bo'ldi, bu ijtimoiy keskinlikni kuchaytirishi mumkin edi. Mamlakat juda katta oziq-ovqat muammosiga duch kelgan, murakkab vaziyat girdobida qolgan edi.

<sup>3</sup> Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: "O'zbekiston", 2011. 166-168 b.

Shu o'rinda I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli: "... *Juda og'ir ahvolga tushib, naqd ocharchilik ostonasida turibmiz ... Xalqimizni, iqtisodiyotimizni ta minlash masalasida juda katta xavf tug'ildi...*"

Bu gaplar ortida Vatan, xalq taqdiri yotardi.

Ana shunday murakkab sharoitda Islom Karimov oziq-ovqat ta'minotida uzilishlar yuz bermasligi uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rdi. Xorijdan sotib olingan g'alla mamlakatimizga yetib kelishi uchun ma'lum vaqt talab qilinar edi.

Vaziyat juda qaltis, ya'ni mamlakatimiz g'alla zahirasining "tagi" ko'rinish qolgan ana shu yillarda Islom Karimov tashabbusi va rahbarligida mamlakat aholisini o'zimizda yetishtirilgan don bilan ta'minlash yuzasidan maxsus dastur ishlab chiqildi. Uning bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlashi natijasida bir qator muammolar o'z yechimini topdi. Jumladan:

- aholini kafolatlangan tarzda don mahsulotlari bilan ta'minlash imkoniyati yuzaga keldi;
- dehqonlar uchun yangi ish joylari va qo'shimcha daromad manbai yaratildi;
- paxta maydonlarining bir qismi qisqartirilib, bu maydonlarga g'alla ekilishi hisobiga ekinlarni almashib ekish va tuproq unumdorligini saqlab qolish imkoniyati yaratildi;
- g'alladan bo'shagan yerlarga takroriy ekin ekish hisobiga sabzavot yetishtirish hajmi ko'paydi, bu ham dehqonlarga qo'shimcha daromad olish imkonini berdi;
- chetdan g'alla sotib olish uchun sarflanadigan valyuta tejab qolindi;
- O'zbekiston don va don mahsulotlari bo'yicha o'zga davlatlarga qaramlikdan qutuldi;
- chorva mollarining ozuqa bazasi yanada mustahkamlandi.

Kezi kelganda, o'sha vaqtarda birlirilgan ba'zi fikr-mulohazalarni ham eslash joiz. Bir qator iqtisodchi olimlar va xorijiy davlatlar vakillari "O'zbekistonning o'zida g'alla yetishtirish shartmi? Undan ko'ra, ko'proq paxta yetishtirib, tolani eksport qilish hisobiga g'allani arzon narxlarda chetdan sotib olgan ma'qul emasmi? Axir, paxta yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi yuqori-ku", deya e'tiroz ham bildirishgan edi. Ammo ularning da'volari asossiz ekanligini ijtimoiy hayotning o'zi ko'rsatdi, endilikda mustaqil yurtimiz o'z g'allasiga ega bo'ldi.

Ma'lumki, 1960-1990-yillarda mamlakatimizda o'tkir ijtimoiy muammolar tufayli millatimizning genofondi yomonlashib, ayniqsa, nimjon va kasalmand bolalar soni ortib ketgani xalqimizda qattiq tashvish uyg'otar edi. I.A.Karimov O'zbekistonning ko'plab hayotiy muhim manfaatlariiga yetkazilgan ziyon haqida afsus va nadomat bilan O'zbekiston Kompartiyasining XXII syezdida so'zlagan ma'rzasida quyidagilarni bayon etgan edi: "*Paxta yakkahokimligi, ilmiy asoslangan almashlab ekishlar buzilganligi, yerning tinka-madori qurib ketganligi, suv manbarining inikoniylari tobora kamayib borganligi qishloq xo'jaligiga halokatli ta'sir ko'rsatdi. Natijada oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish cheklab qo'yildi va aholini shu mahsulotlar bilan ta'minlash muammolari keskinlashdi. Orol dengizining falokati Qoraqalpog'iston janubi uchun borib turgan ekologik kulfat bo'ldi, endi Orolni qutqarib qolish uchun zudlik bilan favqulodda chora-tadbirlar ko'riliishi*"

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-j. -T.: "O'zbekiston". 1996. 3-4 b.

### *kerak<sup>1</sup>*

Inson taqdiri, uning hayotiga daxldor bo‘lgan, uning munosib turmush sharoitiga ega bo‘lishi bilan bog‘liq talablar aynan Islom Karimovning rahbarlik faoliyatining ilk kunlaridan qat’iy qo‘yildi. Kremlning jazavalariga qaramasdan, haqiqiy mustaqillikka qaratilgan yo‘lni mardonavor turib himoya qildi. KPSS MQning 1989-yil sentabrida Moskvada bo‘lib o‘tgan plenumida Islom Karimov dadillik bilan “*Biz markaz bilan respublikaning xuquqlari va vazifalarini belgilab olish va chegaralashni qat’iy yoqlaymiz, biz respublika mustaqilligining har tomonlama mustahkamlanishi tarafdrorimiz*”<sup>2</sup> deganini O‘zbekiston taraqqiyotining mustaqil yo‘li tamoyillari ishlab chiqish borasidagi tashlangan qat’iy qadamning amaliy ifodasi, deb aytish shart.

### **3. Farg‘ona, Bo‘ka, Parkent va Namangan voqealari.**

80-yillarning oxirida butun Ittifoqda kuzatilganidek, O‘zbekistonda ham so‘z erkinligi, inson huquqlari uchun demokratik harakatlar, mavjud og‘ir ahvoldan qiyngagan oddiy mehnatkash xalqning norozilik chiqishlari yuzaga keldi. Bu esa 1989-1990-yillarda Farg‘ona, Bo‘ka, Parkent va Namangan voqealari (fojealari)ga sabab bo‘ldi.

Farg‘ona vodiysida XX-asrning 80-yillarida o‘ziga xos murakkab demografik vaziyat hukm surardi. Aholining tabiiy o‘sish darajasining tezlashuvi natijasida mintaqada siyosiy-iqtisodiy va etnodemografik muammolar keskinlashuvi ma’lum darajada o‘ziga xos chigal ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik muxitni yuzaga keltirdi.

Farg‘ona voqealari etnik va maishiy asosda (turli millat vakillarining restoranlarda o‘zaro mushlashuvi) bilan boshlangan bo‘lishiga qaramasdan, fojeaning chuqur ildizlari vodiya yashayotgan aholining og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bilan bog‘liq edi. Markazning O‘zbekistonda olib borayotgan siyosati, bu siyosatni izchil amalga oshirgan mahalliy partiya, sovet va xo‘jalik organlarining tub aholi manfaatlariga pisandsiz qarashi, hokimiyatning boshqaruvi organlarida poraxo‘rlik va korrupsiyaning avj olishi, jinoyatchilikning kuchayishi o‘n yillar davomida to‘plangan muammolarni yana ham keskinlashtirgan edi.

Ma’lumki, Ikkinchiji jahon urushi davrida I.V.Stalining 1944-yil 14-noyabrdagi qaroriga ko‘ra, 120 ming nafar mesxeti turklari Gruziyadan O‘rta Osiyo respublikalariga ko‘chirilgan edi. Deportatsiya qilingan mesxeti turklarining eng ko‘p qismi (106 ming 700 kishi) O‘zbekistonga joylashtirilgan. Shulardan 17 ming nafari Farg‘ona oblastiga joylashtiriladi. Ular viloyatning asosan, Quvasoy, Komsomolsk (hozirgi Yangi Marg‘ilon) posyolkalarida, Oxunboyev, Quva, Rishton, Farg‘ona, Kirov (hozirgi Beshariq) rayonlarida yashar edilar.

1989-yilda Quvasoy rayonida 58 400 kishi yashagan bo‘lsa, boshqa 47 ta millatlar orasida mesxeti turklarining soni 4340 tani tashkil qilgan. Quvasoyda 1989-yil may oyida bo‘lgan bir qancha bezoriliklar, ayniqsa mesxeti turk yoshlарining tartibsizliklarni keltirib chiqarishlari Farg‘ona voqealarining boshlanishiga turki vazifasini o‘tadi. Bu xolatdan mesxeti tuklari vaziyatni keskinlashtirib, o‘z tarixiy vatanlariga qaytishni tezlashtirish yo‘lida foydalanmoqchi bo‘lishadi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: “O‘zbekiston”, 2011. 172 b.  
<sup>2</sup> Tarix shohidligi va saboqlari // Mas‘ul muharrir D.A. Alimova. -T.: “Sharq”, 2001. 130 b.

Quvasoyda yashovchi mesxeti turklarining aksariyati savdo muassasalarida, maishiy xizmat va boshqa shu kabi sohalarda faoliyat olib borishar, shaharda ko‘pgina daromadli jabhalarda ham ushbu xalq vakillari xizmat qilar, natijada bu yerda juda ko‘p yer uchastkalari va qurilish obyektlari ularning xissasiga to‘g‘ni kelar edi. Quvasoyda mesxeti turklarining iqtisodiy ahvoli boshqa millatlarniga qaraganda yaxshi edi. Xullas, “tadbirkor va uddaburon” mesxeti turklari mahalliy hokimiyat organlari bilan yaxshi munosabatda bo‘lib, iqtisodiy jihatdan ularni “ta‘minlab” ham turishgan.

Quvasoyda hukm surgan ijtimoiy tanglik bu yerda yashovchi turli millatlar, jumladan o‘zbeklar va mesxeti turklari o‘rtasida janjalni yuzaga keltirib, jiddiy to‘qnashuvlarni keltirib chiqargan. Bu qarama-qarshilik butun may oyi davom etgan. Lekin bunga mahalliy sovet va partiya idoralari yetarli darajada e’tibor qaratishmagan. Mayda bezorilar o‘z vaqtida jazolanmagan. Voqealar tafsiloti sovet hokimiyyati tomonidan odatdagidek xalqdan sir tutilgan. Voqealardan bir oy o‘tib matbuotda e’lon qilingan materiallarda esa mesxeti turklari jabrdiyda qilib ko‘rsatilgan va markaziy gazetalarda ayb o‘zbek xalqiga yuklanib ularga nisbatan noto‘g‘ri qarash shakllantirilgan.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra birinchi bo‘lib mesxeti turklari mahalliy aholiga nisbatan sovuq quroq ishlatganlar. Xatto miliitsiya xodimlari mesxeti turklariga murojaat qilib, “o‘zbeklarga tegmanglar, ularni o‘tqazib yuboringlar” deyishlariga qaramay, ular katta to‘qnashuvlarni keltirib chiqarishgan. Natijada 72 nafar o‘zbek, tojik, qirg‘iz millatiga mansub kishilar, bir necha miliitsiya xodimlari og‘ir yarador holatda shifoxonaga keltirilgan. Vaziyat 1989-yilning 24-may kuni kechqurun nihoyatda keskinlashgan.

25-may kuni Quvasoy shahriga Respublika Ichki ishlari qo‘srimcha kuchlari olib kelinadi, Respublika Ichki ishlari ministri Uchqun Raximov, DXQning o‘rinbosari va respublika prokurorlari kelishdi. Voqealar haqidagi axborotning yetishmovchiligidan har xil talqinlar paydo bo‘ladi. Tartibsizliklarning tashkilotchilari vaziyatni sun‘iy ravishda keskinlashtirishdan ustalik bilan foydalandilar. Quvasoydagi “vahshiyliklar” haqida “noma'lum kishilar” tomonidan maxsus laboratoriyalarda ataylab tayyorlangan fotomontajlardan, turli vahimali mish-mishlar va bo‘htonlardan foydalaniildiki, bularning hammasi ko‘p o‘tmay oblastning boshqa tumanlarida to‘qnashuvlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi.

Farg‘ona oblastidagi birinchi katta qonli to‘qnashuv Marg‘ilon shahrining shimoliy-sharqida joylashgan Toshloq rayonida yuz berdi. Toshloqda 20 ga yaqin millat yashagan bo‘lsa ular orasida mesxeti turklari 2300 nafarni tashkil qilgan. Fojealar 3-iyunda boshlangan. Rasmiy ma’lumotlarga qaraganda bir guruh mahalliy yoshlar Intematsional ko‘chasi bo‘ylab yurib, yo’llarida uchragan mesxeti turklarini ura boshlashgan, uylarining deraza-eshiklarini sindirishgan. 3000 nafar yoshlarning bezorligi o‘z vaqtida bartaraf etilmadi. To‘qnashuvda 10 kishi (ulardan 4 nafari mesxeti turklari) o‘lgan.

3-iyunda Respublika Ministrler Sovetining raisi G‘.Q.Qodirov raisligida hukumat komissiyasi tuzildi. Biroq 16 kishidan iborat hukumat komissiyasining to‘liq tarkibi faqat 6-iyunda shakllantirildi. Bu vaqtga kelib fojealar Farg‘ona

viloyatining boshqar rayonlariga ham tarqalib ulgargan edi.

4-iyun kuni Qo'qon shahridan miliitsiya xodimlari Toshloqqa tashlandi. Bu paytda rayonda vaziyat boshqarib bo'lmaydigan darajada izdan chiqib ketdi. Turli xil narsalar bilan qurollangan bezorilar ko'chalarda faoliik qilishardi. Raykom binosi oldida to'plangan 1000 nafar odam raykomga 2 qismdan iborat quyidagi talabnomani topshirishgan:

1. Ushlanganlar ozod qilinsin.

2. Mesxeti turklari Farg'onadan zudlik bilan ko'chirilsin.

Talabnoma rad qilingach, olomon raykom binosiga hujum qiladi. Miliitsiya xodimi olomonga qarata avtomatdan o'q uzadi. 2 kishi xalok bo'lgan 5-6 kishi yaralangan va olomon chekingan. Lekin olomon shaharning boshqa joylarida to'palonlarni davom ettirishgan.

Toshloqdagi fojealar oqibatida 5-iyunga qadar tumanda 16 nafar kishi (11 nafari mesxeti turklari va 5 nafar o'zbek), keyinroq yana 2 nafar kishi xalok bo'ldi. 46 kishi turli tan jarohatlari bilan shifoxonaga murojaat qilgan, 57 ta uy yondirildi va 121 ta uyg'a shikast yetkazildi. Rayon xo'jaligiga 0,5 mln. rubl zarar yetkazildi.

4-iyunda O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining Farmoni bilan Farg'ona oblastining mesxeti turklari zinch yashaydigan hududlarida komendantlik soati joriy qilinadi. Hukumat komissiyasining raisi G'.Qodirov komissiya a'zolari bilan maslahatlashmasdan Farg'ona viloyatida harbiy holat joriy qilish to'g'risida iltimosnomasi bilan Markazga murojaat qiladi. U o'zining bu qarorini ekstremistlarning Farg'ona oblastidagi harakatlari sovet hokimiyatini qulatishga qaratilgan deb asoslamoqchi bo'ldi. Markaz butun bunyo nigohi Moskvada o'tayotgan SSSR xalq deputatlari 1-syezdiga qaratilgan paytda Farg'onada harbiy holat joriy etishga jur'at qilmagan bo'lsada, SSSR Ichki ishlar ministrligiga bo'y sunuvchi general-polkovnik Y.Shatalim boshchiligidagi IVning ichki qo'shinlarini Farg'onaga jo'natdi. Iyun oyi davomida Farg'onaga ittifoqning markaziy rayonlaridan jami 13 000 nafar harbiylar keltirildi.

5-iyunda Marg'ilon shahrida O'zbekiston KP MK birinchi sekretari R.Nishonov, O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi raisi M.Ibrohimov, O'zSSR Ministrlar Soveti raisi G'.Qodirov, SSSR Ichki ishlar ministri V.Bakatin, O'zSSR Ichki ishlar ministri U.Raximov, Farg'ona obkomi SH.Yo'ldoshev ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda R.Nishonov quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Fojealar natijasida 93 kishi xalok bo'ldi. Shundan 64 kishi mesxeti turklari, 17 nafar o'zbek, qolganlari millati aniqlanmoqda. Ichki ishlar ichki qo'shinlarining 178 harbiy xizmatchisi, 57 nafar miliitsiya xodimi yarador bo'ldi. 1 ta miliitsiya xodimi vafot etdi. Oblastda 700 dan ko'proq uy va boshqa imoratlarga, 168 ta transport vositasiga o't quyildi".

6-iyunda Marg'ilon shahrida ruxsat berilmagan 2 ta miting bo'ldi. Bu mitingda "Birlik" harakati raisi Abduraxmon Po'latov, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining kotibi Muhammad Solih va diniy ulamolar qatnashib aholini tinchlantirishga harakat qilishdi. Miting qatnashchilari mesxeti turklarini tarixiy vatanlariga qaytishini hamda hibsga olingan namoyishchilarni ozod qilishni talab qildilar. Shu kuni Quvasoya ham shu talablar bilan miting bo'lib o'tdi.

7-iyunda Oxunboyev, Toshloq, Oltiariq, Rishton, Bog'dod, Buvayda

tumanlari va Marg'ilon shahridan xar xil narsalar bilan qurollangan asosan 16-25 yoshlardagi yigitlar avtobus va yuk mashinalarda Qo'qon shahriga kirib kela boshladilar. Ular Qo'qon shahri yoshlarini o'zlariga qo'shilishni talab qildilar. Qo'qon shahri markazidagi Lenin maydoniga to'planib, bir kun avval hibsga olingan yoshlarni ozod qilishni talab qildilar. Shu payt militsiya xodimlaridan biri to'pponchadan o'q uzib 16 yashar o'smirni o'ldirdi. To'qnashuv boshlanib ketadi. Militsiya xodimlari va askarlar maydonda to'plangan aholini o'qqa tutadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra shu yerning o'zida 20 kishi xalok bo'ldi, 77 nafar kishi yaralandi.

Namoyishchilarning o'qqa tutilishi barcha qo'qonliklarning g'azabini keltirdi. 8-iyun kuni Qo'qonda 5000 nafardan ziyod mahalliy aholi shahar rahbarlariga o'z noroziliklarini bildirish uchun shahar partiya komiteti binosi oldiga to'planishib, 6 banddan iborat quyidagi talabnomaga bilan chiqishadi:

1. Yangi Qo'qon ximiya kombinati yopilsin. 2. Ishsizlar ish bilan ta'minlansin.
3. Yosh oilalar alohida uy bilan ta'minlansin. 4. Oylik maoshlar oshirilsin. 5. 7-iyunda aholiga o'q uzganlar javobgarlikka tortilsin. 6. Paxta plani kamaytirilsin va xarid narxi oshirilsin.

Shahar obkomi X.Xojimatov va partkom X.Musabekovlar namoyishchilar oldiga chiqib 6 ta talabnomani tushuntirayotgan paytida katta leytinant Maksimovich avtomatlardan o'q uzishni buyuradi. X.Musabekov va uning yonidagilar hech narsa demasdan gorkom binosiga kirib ketishadi. Askarlar yig'ilganlarni o'qqa tutishda davom etadi. Osmondan turib 2 ta harbiy vertolyot olomonga o'q yog'diradi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra bu yerda 8 kishi xalok bo'lgan. 10 dan ziyod kishi yaralangan.

O'zbekistonda 11-iyun motam kuni deb e'lon qilindi. Shu kuni Farg'ona viloyatining butun hududida osoyishtalik saqlanib turdi.

Biroq tadbirlarga qaramay fojealar Farg'onadan qo'shni hududlarga ham tarqaldi. 12-iyunga o'tar kechasi Namangan shahrida 16-30 yoshlardagi 300 dan ortiq yshlar tartibsizlik uyuştirishdi.

O'zbekistonda mesxeti turklarini RSFSRga evakuatsiya qilish 9-iyundan boshlanadi. Farg'ona oblastidan jami 16 ming 289 nafar mesxeti turklari ko'chirildi. Evakuatsiya qilish 18-iyunga kelib yakunlandi. Lekin mesxeti turklari Rossiyada qolishni istamadilar va o'zlarining tarixiy vatanlariga qaytarilishlarini talab qildilar. Ammo bu talablar sovet rahbariyati tomonidan turli bahonalar bilan bajarilmadi. Ma'lumotlarga ko'ra, Farg'onadan ko'chirilgan mesxeti turklarining ko'pchiligi keyinchalik O'zbekistonga qaytib kelgan.

15-iyun kuni Toshkentda respublika partiya-xo'jalik faollarining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda R.Nishonov "Farg'ona oblastidagi millatchilik ko'rinishlari va partiya, sovet, ma'muriy organlarning respublikadagi vaziyatni barqarorlashtirish vazifalari to'g'risida" ma'nuz qilib, unda Farg'onada bo'lib o'tgan yoshlarning harakatini "millatchilik" kayfiyatlar bilan quyidagicha bog'laydi: "Boshboshoqlik millatlararo tusda bo'libgina qolmay, tobora sovetlarga qarshi tus ola boshlaydi". Ushbu yig'ilishda Farg'ona fojealariga siyosiy jihatdan to'g'ri baho berilmadi. Mahalliy aholining harakatlari "millatchilik va buzg'unchilik" sifatida qoralandi. O'zbekiston SSR rahbariyati ham Markazdan kelgan "nufuzli rahbarlar"ning barcha fikrlariga

qo'shib, o'zbek xalqi manfaatlariga hamda tarixiy adolat va haqiqatga zid qarorlar qabul qilishdi.

1989-yil 23-iyunda respublika rahbari etib saylangan Islom Karimov 24-iyun kuni O'zbekiston SSR Ministrler Sovetida katta majlis o'tkazdi va unda nutq so'zldi. Ushbu nutq Islom Karimovning O'zbekiston rahbari sifatidagi birinchi nutqi edi. Islom Karimovning mazkur chiqishida siyosiy yetakchiga xos xarakteri namoyon bo'ldi.

Islom Karimov 1989-yilning 25-iyun kuni Farg'onaga yo'l oladi. Odamlar bilan chin dildan, hech narsani yashirmasdan ochiq gaplashadi. Bu insonlaming shu vaqtga qadar hech kim eshitmagan oxu nolalarini tinglab, yurakdan chiqqan samimiy va haqqoniyoq so'zlarini bilan bamisol ularning qalbidagi jarohatlarga malham qo'ygandek bo'ladi, ko'ngillarida yaxshi kunlarga umid uchqunlarini uyg'otadi. Tartibsizliklar, qon to'kilishining oldini olish bo'yicha butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, aniq chora-tadbirlar ko'radi.

Islom Karimov lavozimga kirishganiga ikki kun bo'lar-bo'lmas og'ir muammo bilan to'qnashadi. 1989-yil 25-iyunda Farg'onada vaziyat keskinlashadi. O'zbekiston SSR Ministrler Sovetining Raisi to'polon bo'layotgan joyga desantchilarni tashlash to'g'risida ko'rsatma bergani bois, ko'chalarda BTRlar turgan, avtomatchilar odamlarni tekshirib o'tkazayotgan bir paytda Islom Karimov o'sha yerga yetib boradi. Bunday sharoitda, avvalo, odamlarni tinchlantirish, buning uchun ular ko'ngliga vahima solib turgan qurolli kuchlarni olib ketish zarurligini tushungan Islom Karimov desantchilarni joyiga qaytarish haqida topshiriq beradi. Shu kuni xavfsizlik xizmatining qattiq qarshiligiga qaramay, Qo'qonga yetib keladi. Yo'l yo'lakay bir-ikki joyda odamlarning ro'y berayotgan voqealar haqidagi fikrini o'rganadi.

Natijada shu narsa ayon bo'ladiki, odamlar hech kimga va hech narsaga davlatga ham, adolatga ham ishonmay qo'ygan, niroyatda alamzada ahvolda edi. Shunda Islom Karimov ularga: "Men sizlar bilan birkaman muammolarni birgaliqda hal etamiz, lekin sizlardan iltimosim, faqat hamma joyda tinchlik, tartib-qoida bo'lishi kerak", deydi.

Farg'onasi oblastlarini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish, mintaqadagi ijtimoiy muammolar haqida ochiq-oydin va oshkora gapiradi, mavjud keskin ahvoldan chiqish yo'li sifatida aholining turmushini yaxshilash, jumladan, odamlarni ish bilan, tomorqa va uy-joy uchun yer uchastkalari, chorva mollari bilan ta'minlash masalalarini birinchi bor amaliy nuqtai-nazardan kun tartibiga jiddiy qo'yib, tegishli vazirlilik va idoralar, oblast va rayon rahbarlariga aniq topshiriqlar beradi.

Islom Karimovning bevosita tashabbusi bilan fashizmga qarshi urush yillarda Vatanidan quvib chiqarilgan qator xalqlarga o'z yurtiga qaytishlarida yordam berish to'g'risida Deklaratsiya qabul qilindi va SSSR Oliy Kengashiga taqdim etildi. Aytish mumkinki, o'z vaqtida katta siyosiy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan bunday hujjat (u qanday hal etilganidan qat'i nazar) faqat O'zbekistonda qabul qilindi<sup>1</sup>. Bu harakat respublika rahbariyatining jonkuyarligi va adolatparligidan dalolat berardi.

Davlatimiz rahbarining turli chiqishlarida aytgan, millionlab kishilar ko'ngliga

<sup>1</sup> Жӯраев Н. Агар огоҳсан. Портретга чизгилар. Сиёсий эссе. -Т.: "Езувич", 1998. 25 6.

ishonch, bilagiga kuch baxsh etgan so'zları, ya'ni "O'zbekistonda millatlar o'tasida qon to'kilmaydi", "Farg'ona voqealari boshqa qaytarilmaydi", deya bergen va'dasi uning ham lafzi qat'iy rahbar, ham ulkan shaxs ekanini namoyon etdi. Hayotda inson uchun oilasi, umr yo'ldoshi, farzandlari, uy-joyi, mol-mulki, obro'-e'tibori, sog'lig'i qanchalar qadrli bo'lsa, shularning barchasidan u millatlararo janjal, qon to'kishlar sabab ayrilib qolishi mumkin.

Agar o'sha yillar tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, Farg'ona voqealari haqida shov-shuv ko'targanlar, shunday qonli fofija hisobidan obro' topish, o'z g'arazli manfaatlariga erishish, xalqimizni badnom qilishga uringan kimsalar ko'p bo'lgan. Islom Karimov bu borada kuyib-yonib, asl haqiqatni katta dard va jasorat bilan bayon qiladi, fofija oqibatlarini bartaraf etishning amaliy yechimlarini ishlab chiqadi va izchil amalga oshiradi.

Islom Karimov Farg'ona oblastida ijtimoiy keskinlikni keltirib chiqargan sabablar haqida quyidagilarni bayon etgan edi: "*Boz ustiga, keyinchalik ma'lum bo'lishicha, ko'pgina amaldor shaxslar, jumladan voqealar o't-olovdek chaqnab ketgan Toshloq rayonidagi ana shunday shaxslar qonun-qoidalarni buzishgan, poraxo'rlik qilishgan. Ular, avvalo, o'zları va qarindosh-urug'lariiga yakka tartibda uylar qurish uchun yer uchastkalari ajratib berishgan, ssudalar olishgan, holbuki, yer va qarz olishga muhtoj bo'lgan 400 nafar oddiy mehnatkashga rad javobi berilgan edi.*"

*Sotish uchun 319 ta avtomashina ajratilganida, shulardan 236 tasi rayonda yashamaydigan, jumladan, boshqa respublikalarda istiqomat qiladigan kishilarga g'ayriqonuniy tarzda taqsimlangan. uy-joy taqsimlash tartibi qo'pol tarzda buzilgan, gazlashtirish, suv ta'minoti, ishga joylashtirish masalalari necha yillar mobaynida hal bo'lmay qolavergan*<sup>1</sup>

I.A.Karimov O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining 1989-yil 19-avgustdagи XVI plenumida, keyinchalik Moskvada bo'lib o'tgan katta anjumanlarda, shuningdek, matbuotdagи chiqishlarida bu masalada qat'iy pozitsiyada turib, quyidagi fikrlarni alohida ta'kidlaydi: "*O'zbek xalqining vijdoni pok. Farg'ona voqealari o'zbek xalqining irodasi bilan sodir bo'lmadi. Bu voqealarga tuturiqsiz va g'arazli maqsadlarni ko'zlab, kim qanday bo'yoq bermasin, tarix, albatta, o'ziningadolatli hukmini chiqaradi. Baynalmilalchilik, mehmondo'stlik, yaxshilik, qalb saxovati hamisha o'zbek xalqiga xos fazilat bo'lib keldi. Xalqimiz hech qachon boshqa xalqlarga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo'lmagan. Bu qadimiy va hozirgi tariximizdan olingan ko'pgina misollar bilan isbotlangan*".

I.A.Karimov Farg'ona fojjalari haqida shunday degan edi: "*Farg'ona voqealari, shuningdek, keyingi paytlarda ro'y bergan boshqa tartibsizliklar bularning barchasi turli millat odamlarida bir-biriga ishonchszilik paydo qildi. Shunday bo'lishiga kim sababchi? Men hozir aniq-ravshan qilib aytaman: jamiki noma'qulchiliklar respublikamiz chegarasidan tashqaridadir.*"

Farg'onadagi voqealar tugaganidan so'ng ham har xil mish-mishlar natijasida Toshkent viloyatining Parkent va Bo'ka tumanlarida ba'zi kimsalar tomonidan noxush voqealar uyuştirildi. Masalan, 1990-yil 3-mart kuni Parkentning markazida

<sup>1</sup> Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O'zbekiston. 2011. 179-180 b.

ommaviy tartibsizliklar tufayli shu yerlik M. Mirtursunov halok bo'ldi. Ushbu holat aholining kayfiyatiga salbiy ta'sir etib, noroziliklarni kuchaytirdi.

1990-yilning avgust-sentabr oylarida Toshkent viloyatining Bo'ka tumanida janjal-to'polonlar bo'lib o'tadi. Islom Karimov ushbu tumanga kelganida ayanchli manzaraning guvohi bo'ladi yo'l yoqasida mashinalar yonar, junbushga kelgan yoshlari to'polon qilishar edi. Yangi rahbar ularning yoniga borib, o'zini tanishtiradi. Otga minib, xaloyiq orasiga kiradi. Ularga murojaat qilib: "Nima talablaring bo'lsa, menga aytinqlar, hammasiga e'tibor bilan qarab, hal qilib berishga harakat qilaman", deydi. Markaz haqida o'zining dangal fikrini aytadi. Yangi rahbardan bunday javobni sira kutmagan xaloyiq bo'shashib qoladi.

1990-yil 3-5-dekabr kunlari Namangan shahrida ichki qo'shnilar harbiy xizmatchilari bilan mahalliy yoshlari o'tasida kelib chiqqan janjal natijasida 5 nafar harbiy xizmatchi va 3 nafar mahalliy millatga mansub fuqaro halok bo'ldi.

#### 4. O'zbekistonda "Paxta ishi" va uning oqibatlari.

O'tgan asming 80-yillari boshlanga kelganda sovet rejimi siyosiy tizimi va xo'jalik yuritish usullarining rivojlanish imkoniyatlari kamayib bordi.

O'zbekistonda sovet rejimi tomonidan amalga oshirilgan kompaniyalarning eng oxirgisi "Paxta ishi" sifatida tarixga kirdi. "Paxta ishi" ("O'zbek ishi") mustabid sovet hokimiyati tomonidan 1983-1990-yillarda o'zbek xalqiga qarshi uyuştirilgan navbatdagi qatag'on siyosati bo'lgan edi.

Sovet Ittifoqining yangi rahbari Y.V. Andropov tashabbusi bilan 1983-yil fevral oyida KPSS MK Siyosiy byurosiga O'zbekistonda paxtachilik sohasidagi ko'zbo'yamachilik bo'yicha tekshirishlar o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilib, bu vazifani bajarish uchun SSSR prokuraturasida maxsus tergov komissiyasi tuzishni topshirdi. 1983-yil aprelda T.X. Gdlyan va N.V. Ivanov rahbarligida ana shunday maxsus tergov guruhi tuzildi. Gdlyan-Ivanov guruhi 1983-yil avgustida ish boshladidi. Ular keyinchalik Markazdan respublikamizga kelgan "desantchilar" ("kadrlar to'dasi"): partiya, sovet va xo'jalik rahbarlariga tayanib, O'zbekistonda keng miqyosli sud-tergovni amalga oshirishga kirishdilar.

Ulkan mamlakatni qamrab olgan inqiroziy holatlarni sovet rejimi mavjud tizim negizida emas, balki yuzaga kelgan salbiy illatlarda deb hisoblagan Markaz bu davorda O'zbekistoni tajriba-sinov maydoni sifatida tanlab oldi. Respublikada "tozalash ishlari"ni olib borishdan ko'zlangan maqsadni faqat iqtisodiy jinoyatchilikni fosh etish emas, balki mamlakat hayotidagi umumiy salbiy xolatlarni to'xtatish, "temir partiyaviy intizom" bilan milliy kadrlami jilovlab, erkin fikrlaydigan ziyorilar va boshqa mutaxassis kadrlarni jilovlash, ittifoqdosh respublikalarda yuzaga kelayotgan milliy ijtimoiy-siyosiy unsurlarni bo'g'ib tashlash, milliy ong va kishilarning faoliyatini ham mahkam ushlab turishdan iborat edi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, SSSR miqyosida xom ashyo yetkazish sohasida qo'shib yozish 2-25 % atrofida bo'lgan. Bu xolat O'zbekistonga nisbatan boshqa respublikalarda avvaldan mavjud bo'lib, ko'lami ham ancha katta bo'lgan. Biroq Markazning yangi rahbariyati tomonidan 1983-yili O'zbekiston SSRda qatag'onning yangi bosqichi boshlanib, go'yoki Sovet Ittifoqidagi barcha jinoyatlar faqat O'zbekistonda sodir qilindi, uni faqat o'zbeklar amalga oshirdi, degan fikr

jamoatchilik ongiga singdirish maqsad qilindi.

O'zbekistonda paxta tayyorlash va uni qayta ishlash bilan bog'liq jarayonlardagi qo'shib yozish, o'g'irlik, poraxo'rlik aybi bilan respublikadagi jamaoa xo'jaliklari raislari va sovxozi direktorlarining 60 foizi, qishloq xo'jaligi yetakchi mutaxassislarining 45 foizi, paxtachilik brigada boshliqlarining 35 foizi, shuningdek, O'zbekiston paxta tozalash sanoati vazirligi tizimidagi ko'plab rahbarlar, viloyatlar va tumanlar partiya komiteti kotiblari, respublika miqyosidagi partiya, sovet va xo'jalik rahbarlari o'z vazifalaridan olib tashlandi va ularga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atildi. Ayrim rahbarlar qamoqqa tushmaslik uchun o'z jonlariga qasd qilishdi.

1983-1986-yillarda sovet jamoatchiligi T.X.Gdlyan rahbarligidagi gurux faoliyatidan butunlay bexabar edi. Tergov guruhi ishi jamoatchilikdan sir tutildi. Ammo 1987-yildan boshlab OAV guruh ishini keng ko'lama va ayni vaqtida bir xil ijobiy yorita boshladi. Gdlyan-Ivanovlarning nomlari, ayniqsa, 1988-yildan butun SSSRda va chet ellarda mashxur bo'lib ketdi.

Gdlyan gruppasining g'ayriqonuni hatti-harakatlari to'g'risida birinchi shikoyat Moskvaga 1983-yoldayoq yuborilgan edi. 1987-yildan bu shikoyatlar tobora ko'payib boraverdi. 1989-yil 25-aprelda "Xint ishi" bo'yicha T.X.Gdlyan faoliyati keskin tanqid ostiga olinganidan so'ng shikoyatlar avj oldi. 1989-yil may oyida KPSS Markaziy Komiteti huzuridagi Partiya kontrol komiteti va SSSR Oliy Soveti Prezidiumi maxsus komissiyasi tuzildi. Mazkur komissiya qisqa muddatda xulosalar chiqarib, Gdlyan va Ivanov sotsialistik qonunchilikni qo'pol tarzda buzdilar, deb so'zsiz tasdiqladilar. 1989-yil 25-mayda SSSR Xalq deputatlari birinchi syezdi ochilgan kuni Gdlyan boshliq tergov guruhi yuzasidan jinoiy ish qo'zg'atildi. Ammo Gdlyan bilan Ivanovlar SSSR xalq deputati ekanliklari (dahlsizlik maqomi) dan foydalanim, ozodlikda qolishdi.

Maxsus komissiya 1989-yilning iyun oyidan dekabr oyiga qadar jamoatchilik fikrini eshtib va sud-tergov xujjalarni o'rgandi. 1989-yilning 12-24-dekabrdagi bo'lib o'tgan SSSR Xalq deputatlarining 2-syezdida 23-dekabr kuni "SSSR prokuraturasining T.X.Gdlyan boshchilik qilgan tergov gruppasi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan metariallarni tekshiruvchi komissiya axboroti" tinglandi. Xisobotda tergov gruppasining jinoyatda ayblangan kishilarning oila a'zolarini, qarindoshlarini, jumladan, betoblarni, keksa yoshdagisi kishilarni, ko'p bolali onalarni qamab qo'yish amaliyoti keng qo'llanilganligi ochiq aytildi. Sudlanganlardan, ayblanuvchilardan va ularning qarindoshlaridan tushgan shikoyatlarda tergovchilarning g'ayriqonuniy harakatlari, "otib tashlayman", deb dag'dag'a qilishgani va boshqa yo'sundagi qo'rqiitishlari, grajdamlarning haqoratlanishi, ularning sha'ni va qadr-qimmati yerga urilgani, jismoniy kuch ishlatalgani o'z tasdiqini topganligi e'tirof etildi.

Gdlyan-Ivanovlar 1990-yil 19-aprelda SSSR prokuraturasidagi o'z vazifasidan chetlashtirildi. Biroq SSSR prokuraturasining mas'ul xodimi 2-darajali adliya maslahatchisi V.Ilyuxin rahbarligidagi Gdlyan-Ivanov guruhi qarshi qo'zg'atilgan ish ham to'xtatib qo'yildi. Chunki V.Ilyuxin xujjalami puxta o'rganib, nafaqat bu ikki tegovchiga qarshi, balki SSSR Prezidenti M.S.Gorbachevga qarshi ham ish qo'zg'atib, uni jinoiy javobgarlikka tortish masalasini qo'ygan edi.

Islom Karimov respublika rahbarligiga kelgach, 1989-yil sentabrda "paxta

ishi”ni chuqur o’rganish bo'yicha O’zbekistonda maxsus taftish komissiyasi tuzildi. Qamoqqa olingen kishilarning ming jiddan ortiq “ish”lari qayta ko’rla boshlandi. Komissiya faoliyatiga Ministrlar kabineti raisining birinchi o’rinbosari I.H.Jo’rabekov raislik qildi. O’zSSR Oliy sudi raisi vazifasini bajaruvchi A.A.Polvonzoda unga o’rinbosar bo’ldi. Komissiya tomonidan “paxta ishi”da nohaq jabrlangan minglab kishilar avf etildi va oqlandi.

1990-yilda O’zbekiston SSR Oliy sudi raisining birinchi o’rinbosari (A.Polvonzoda), respublika prokurori o’rinbosari (Rashid Qodirov), O’zbekistondan saylangan SSSR Xalq deputatlari (Erkin Yusupov, Axmadjon Muxtorov va boshq.) Markazdan Gdlyan-Ivanov ishini ko’rib chiqishni O’zbekistonga ko’chirishni talab qilishdi. Biroq SSSR Bosh prokurori N.Trubin ayrim siyosiy kuchlarning tazyiqi bilan 1991-yil 30-avgustda “Gdlan va Ivanov harakatlarida jinoyat alomatlari yo’qligi hamda siyosiy vaziyatning o’zgarganligi uchun jinoiy ishni to’xtatish to‘g’risida” qaror qabul qildi. Xolbuki, Gdlyan-Ivanov ustidan maxsus tekshirish ishini olib borayotgan tergovchilar hali ishni tugatmagan edilar.

Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda O’zbekistonda “Paxta ishi” (“O’zbek ishi”) “jinoyat” ishi bo'yicha 1983-1990-yillarda jami 40 000 kishi tergovga tortilgan. Ularning aksariyati tergov izolyatorlarida prokuror sanksiyasisiz o’tirdi. 4018 kishi noqonuniy sud qilinib, turli muddatlarga ozodlikdan mahrum etilgan.

O’zbekistonda “paxta ishi” degan soxta kompaniya qatag’on siyosati ta’sirida nohaqlik va adolatsizlik avjiga chiqqan, partiya, sovet va davlat idoralari, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida aynish boshlangan, turli buzg’unchi kuchlar, diniy niqobdagagi radikal oqimlar bosh ko’targan, bu ham yetmaganidek, hukmonron sobiq Markazdagi ikkiyuzlamachi matbuot tomonidan xalqimizning boshiga yog’dirligan bo’hton va tuxmatlar odamlarimizning ruhi va kayfiyatini tushirgan. Xalq o’rtasida ertangi kun ishonchiga jiddiy putur yetgan edi.

O’zbekistonning yangi rahbari I.A.Karimov (1938-2016) 1990-yil 4-iyul kuni KPSS XXVIII syezdida so’zlagan nutqida “O’zbeklar ishi” degan haqoratli gapga chek qo'yishni talab qiladi. 1990-1991-yillarda “Paxta ishi” bilan nohaq qamalganlar ichida afv etilganlar soni 1600 kishidan oshib ketdi.

Yaqin o’tmishda boshimizdan kechirgan ana shunday mash’um kунларни eslar ekanmiz, bugungi erkin va ozod hayotimizni asrash, uning qadriga yetish, hozirgi o’ta notinch va tahlikali zamonda doimo hushyor, ogoh va sergak bo’lib yashash zarurligini yanada chuqur anglaysiz.

#### Mavzuning asosiy tushunchalari:

**AFG’ON URUSHI** – “Sovuq urush” davri munosabatlari yuzaga keltingan mintaqaviy muammolardan biri. Sobiq Sovet Ittifoqining Afg’oniston milliy-tarixiy an’analari va shart-sharoitlarini hisobga olmasdan 1978-yilda hokimiyatga kelgan Afg’oniston Xalq demokratik partiyasini qo’llab-quvvatlash bahonasida ushbu mamlakat ichki ishlariiga qo’pol ravishda aralashuvidan kelib chiqqan urush.

SSSR qo’shinlarining 1979-yil 25-dekabrda Afg’onistonga kiritilishi dunyodagi barcha taraqqiyparvar kuchlar tomonidan keskin qoralandi. Ko’p yillik urush

mamlakat xo‘jaligiga 20 mldr. dollar zarar yetkazdi. 1 mln. afg‘on halok bo‘ldi. 4 mln. kishi chet ellarga bosh olib chiqib ketdi. Xalqaro hamjamiyat talabi bilan Sovet Ittifoqi o‘z qo‘sishinlarini 1989-yil 15-fevraldan Afg‘onistondan olib chiqib ketishga majbur bo‘ldi. 1990-yil SSSR Xalq Deputatlari syezdi Afg‘on urushini jinoiy va noqonuniy deb e‘lon qilgan.

Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra Sovet Ittifoqidan bu urushda 543 ming 255 askar va ofitser ishtirok etib, ulardan, 14 ming nafari vafot etgan, 312 ta harbiy asirga tushgan, 50 ming askar yarador bo‘lgan. Bu askar-jangchilarning ko‘pchiligi asosan O‘rta Osiyo respublikalari va O‘zbekiston farzandlari edi.

**AGITATSIYA** (lotincha “agitatio” – harakatga keltirish) – og‘zaki, yozma, matbuot yoki boshqa faoliyat orqali ommanning siyosiy faolligini uyg‘otish. O‘zaro muloqotlar, namoyishlar, gazeta va jurnallarda ommaviy nashrlar, radio va televidenieda chiqishlar agitatsiya (propaganda) vositasi bo‘lishi mumkin.

**AGRESSIYA** (lotincha “agressio” – hujum) – bir davlatning ikkinchi davlat suvereniteti va chegara dahlsizligini noqonuniy ravishda buzib, uning hududiga bostirib kirishi. Agressiya aksariyat hollarda qurolli harakat tarzida uyushtiriladi. Bir davlatning ikkinchi davlatga qurolli hujumi tinchlik va xavfsizlikka qarshi eng og‘ir xalqaro jinoyatchilik hisoblanadi.

**ANARXIYA** (yunoncha “anarchia” – boshliqsiz, hokimiylatsiz) – bir yoki bir necha shaxslar guruhining hokimiyatga boysunmasligi natijasida kelib chiqadigan tartibsizlik. Sobiq Sho‘rolar davlatida 80-yillarning oxirida ijtimoiy-siyosiy inqiroz natijasida xuddi shunga o‘xhash hokimiylatsizlik va boshboshoqlik vujudga kelgan edi. 1989-yil iyul oyidan I.A. Karimov O‘zbekiston rahbari etib tayinlangach jamiyatimizdagi ana shu illatlarga asta-sekin barham berila boshlandi.

**BYUROOKRATIYA** (fransuzcha “bureau” – kanselyariya, devonxona, yunoncha “kratos” – hukmronlik) – davlat va jamiyatni xalqdan ajralgan holda u bilan hisoblashmasdan ma’muriy buyruqbozlik yo‘li bilan boshqarish usuli. Byurokratik boshqaruvda xalqqa berilgan va’dalar faqat qog‘ozda qolib ketib, u hech qachon amalda bajarilmay qoladi. Ana shu qog‘ozbozlik va to‘rachilik ma’muriy boshqaruv tuzilmalardan tortib ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga kirib boradi. Hukumat va yuqori tashkilotlarning buyruq-ko‘rsatmalari amalda bajarilmagan bo‘lsa ham qog‘ozda bajarilgan qilib ko‘rsatiladi. Qog‘ozda aks ettilnigan ko‘rsatkichlar va yutuqlar hayotga tadbiq etilmaydi.

Sobiq Sho‘rolar davlatida byurokratizm bu kapitalistik jamiyatga xos xususiyat, sotsialistik tuzumda byurokratizmga yo‘l qoyilmaydi deb balandparvoz shiorlar ilgari surilgan bo‘lsada buyurokratiyaning asl ko‘rinishlari aynan sho‘rolar jamiyatida gullab yashnadi.

**DEPORTATSIYA** (lot. deportatio – quvg‘in qilmoq, surgun qilmoq) – majburiy ko‘chirish, badarg‘a qilish. Jinoiy yoki majburiy jazo chorasi sifatida davlatdan majburan chiqarib yuborish, haydash. 1920-40-yillarda sobiq Ittifoqda amalga oshirilgan ommaviy qatag‘onlar davrida ko‘plab xalqlar deportatsiyaga duchor bo‘lgan edilar.

Ikkinci jahon urushining dastlabki yilidayoq Stalin boshliq sovet rahbariyati Volgaboyi nemislarini «bosqinchilarga yordam berishi mumkin», degan gumon bilan yashab turgan joylaridan mahrum etib, Sibir va Qozog'istonga ko'chirib yuboradi.

O'zbekistonga 175 mingdan ortiqroq chechenlar, 157 ming ingushlar, 150 mingdan ortiqroq qrim tatarlari, 4500 bolqarlar, o'n minglab mesxeti turklari, greklar ko'chirib keltirildi. O'zbek xalqi ularni beg'araz kutib oldi, yashash uchun uy-joy, oziq-ovqatlar bilan yordam berdi. Mahally hokimiyat ularga hosildor yerlardan tomorqa yer, uy qurish va xo'jalik yuritish uchun mablag'lar ajratdi.

1989-yilda SSSR Xalq deputatlari syezdi deportatsiya siyosatini noqonuniy deb e'lon qildi va majburuy ko'chirilgan xalqlarga o'z ona Vatanlariga qaytishlariga ruxsat berildi.

**"KADRLAR TO'DASI" ("DESANTCHILAR")** – 1980-yillarning o'rtalari va ikkinchi yarmida O'zbekistonga Markaz tomonidan Respublika partiya va davlat rahbarlik lavozimlariga yuborilgan kadrlar. 400 ga yaqin kelgindi "mutaxassislar" O'zbekistonni o'z bilganlaricha boshqara boshladilar. O'zbekiston Kompartiyasi va Respublika Ministrlar Kengashi amalda ular tomonidan boshqarildi. Birinchi lavozimda o'tirgan mahalliy kadrlar ularning qo'lida qo'g'irchoq bo'lib qoldilar. Natijada respublikada shakllangan m'muriy-xo'jalik va davlat boshqaruv tizimi izdan chiqib chuqur inqirozli holat (anarxiya) yuzaga keldi. "Desantchilar"ning so'nggi vakillari respublikani 1990-yillar oxiri – 1991-yil boshlarida tark etishga majbur bo'lishdi.

**MONOKULTURA** (yunoncha "monos" – bir, "cultura" – ishov bermoq, haydamoq) – yerga faqat bir turdag'i ekinni ekish va xo'jalikni faqat shu ekinni yetishtirishga ixtisoslashtirilishi. Sho'rolar davrida O'zbekistonda paxta monokulturasi joriy qilingan edi. Ekin maydonlariga faqat g'o'zaning ekilishi tuproq strukturasining buzilib, tuproq eroziyasiga, yerlarning sho'rланishiga, kimyoiy o'g'itlarni haddan oshiq ishlatalishi unumdarlikning keskin pasayib, xatto aholi orasida zaharlanishiga olib kelgan edi.

**"PAXTA ISHI" ("O'ZBEK ISHI")** – Mustabid sovet hokimiyati tomonidan 1984-1989-yillarda o'zbek xalqiga qarshi uyushtirilgan navbatdagi qatag'on siyosati. "Paxta ishi" ("O'zbek ishi") "jinoyat" ishi bo'yicha jam'i 25 mingga yaqin kishi qynoq ostiga olinib, so'roq qilindi. 4018 kishi noqonuniy sud qilinib, turli muddatlarga ozodlikdan mahrum etilgan.

Butun SSSRda bo'lganidek, O'zbekistonda ham kamchiliklar, qo'shib yozishlar, poraxo'rlik illatlari va boshqa jinoyatchiliklar bor edi, albatta. Lekin bu illatlarni o'zbek xalqi emas, balki sovet hokimiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi keltirib chiqargan edi.

**QAYTA QURISH** – XX asming 80-yillari o'rtalarida keng iste'molga kirgan tushuncha; SSSRda totalitar tizimmi isloq qilish yo'li bilan o'zgartirishga qaratilgan harakat. Qayta qurish siyosatining maqsadi va vazifasi mamlakatda to'planib qolgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va masifikativ sohalardagi muammolarni "qayta qurish" yo'li bilan hal etishdan iborat bo'lgan. M.S.Gorbachev boshchiligidagi KPSS rahbariyatining bir qismi tomonidan boshlangan bu siyosat mamlakat hayotida va umuman, jahonda ma'lum o'zgarishlarga sabab bo'ldi (oshkoraliq, siyosiy

plyuralizm, "sovuv urush"ning tugashi, Germaniyaning birlashuvi va b.). Qayta qurishni amalga oshirishdagi qarama-qarshilik va noizchilliklar natijasida 80-yillarning oxiri 90-yillarning boshidan mamlakat hayotining barcha sohalarida bo'htonlar kuchayib ketdi.

Qayta qurish sobiq SSSRda to'planib qolgan muammolarni to'la hal etishga xizmat qilmadi. Mustaqillik, demokratiya va erkinlik g'oyalariga to'g'ri kelmaganligi tufayli ham amaliy samara bermadi. Oxir-oqibat KPSSning halokati va SSSRning parchalanishiga turki bo'ldi.

**"QIZIL IMPERIYA"** – 1917-1991-yillarda mavjud bo'lgan sobiq Sovet Ittifoqiga nisbatan tarixchilar, badiiy ijod ahli va ilmiy ziylolar tomonidan ishlatalidigan atama. Sho'rolar davlatining bayrog'i qizil rangda bo'lganligi uchun shunday nomni oлган. G'arb ommaviy axborot vositalarida bu davlat "xalqlar turmasi" deb ta'riflangan bo'lsa, AQSH prezidenti R.Reygan (1980-1992) Sovet Ittifoqini "Yovuzlik imperiyasi" deb atagan edi. "Imperiya" so'zi lotincha so'z bo'lib, mutlaq hokimiyatga ega hokimni, mahkumlar, mazlumlar ustidan cheklanmagan huquqqa ega, jabr-zulm va ezishga asoslangan idora etish va boshqarish usulini, mustamlakalarga egalik qiluvchi va qaram xalqlarni asoratga solib shafqatsiz ekspluatatsiya qiluvchi yirik tajovuzkor davlatni bildiradi.

#### Mavzuga oid muhim sanalar:

|                   |  |
|-------------------|--|
| 1983-1990-yillar  | O'zbekistonda sovet rejimi tomonidan amalga oshirilgan navbatdagi qatag'on siyosati – "Paxta ishi" ("O'zbek ishi").  |
| 1983-yil fevral   | Y.V.Andropov tashabbusi bilan KPSS MK Siyosiy byurosi O'zbekistonda paxtachilik sohasidagi ko'zbo'yamachilik bo'yicha tekshirishlar o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilib, bu vazifani bajarish uchun SSSR prokuraturasida maxsus tergov komissiyasi tuzishni topshirdi. |
| 1983-yil aprel    | O'zbekistonda paxtachilik sohasidagi ko'zbo'yamachilik bo'yicha tekshirishlar o'tkazish maqsadida T.X.Gdlyan va N.V.Ivanov rahbarligida maxsus tergov guruhi tuzildi.  |
| 1983-yil avgust   | T.X.Gdlyan va N.V.Ivanov rahbarligida maxsus tergov guruhi O'zbekistonda o'z jinoiy faoliyatlarini boshlashdi.   |
| 1983-1986-yillar  | Sovet jamoatchiligi O'zbekistonda T.X.Gdlyan rahbarligidagi gurux faoliyatidan butunlay bexabar edi. Tergov guruhini ishi jamoatchilikdan sir tutildi.   |
| 1985-yil 23-aprel | KPSS Markaziy Komitetining plenumida noxush tendensiyalar yig'ilib, SSSR tanglik vaziyatiga tushib qolganligini ilk bor e'tirof etildi. Mazkur plenum jamiyatni "qayta qurish" orqali iqtisodiyotni ko'tarish, xalqning turmushini yaxshilash siyosatini belgiladi.        |
| 1985-1991-yillar  | M.S.Gorbachev tomonidan inqirozdan chiqish uchun ishlab chiqilgan "Qayta qurish" siyosati tamomila teskari natija berib, butun ittifoq, jumladan O'zbekistonda ham ijtimoiy  |

|                              |   |
|------------------------------|---|
|                              | muammolar battar chuqurlashib bordi.  |
| 1985-1986-yillar             | Markazdagi rahbariyat tomonidan jiddiy o'zgarishlar qilish zarurligi anglandi. Biroq ahvolning nihoyatda murakkabligi hali to'la idrok etilmagan edi.   |
| 1987-yil                     | Mavjud siyosiy tuzumni va iqtisodiyotga partiyaviy rahbarlikni saqlab qolgan holda xo'jalik mexanizmini isloh qilish yo'lidagi urinish ham samara bermadi. Iqtisodiy islohotlar tez orada qotib qolgan ijtimoiy-siyosiy sistemaga urilib barbob bo'ldi.                   |
| 1988-yil 12-yanvar           | Rafiq Nishonovich Noshonov O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy komitetining birinchi sekretari qilib saylandi.   |
| 1988-yil 15-may              | Sovet qo'shinlarini Afg'onistondan olib chiqish boshlandi. Ular Amudaryo orqali Termizga olib o'tilib, dastlab Toshkent oblastining Chirchiq shahriga joylashtirildi.   |
| 1988-yil 16-noyabr           | "Birlik" xalq harakati tashkil topdi.   |
| 1988-yil noyabr              | O'zbekiston yoshlarning erkin uyushmasi tashkil topdi.  |
| 1989-yil<br>12-19-yanvar     | O'zbekistonda butun ittifoqda bo'lgani kabi aholini ro'yxatga olish tadbiri o'tkazildi. Bu paytda O'zbekistonda 19.906.000 kishi yashagan.  |
| 1989-yil 15-fevral           | Afg'onistondan so'nggi sovet jangchilar olib chiqib ketildi.  |
| 1989-yil 26-mart             | SSSR Xalq deputatligiga saylovlar bo'lib o'tdi.   |
| 1989-yil may                 | KPSS Markaziy Komiteti huzuridagi Partiya kontrol komiteti va SSSR Oliy Soveti Prezidiumi maxsus komissiyasi tuzildi. Mazkur komissiya Gdlyan va Ivanov guruxi sotsialistik qonunchilikni qo'pol tarzda buzdilar, deb so'zsiz tasdiqladilar.                              |
| 1989-yil<br>20-24-may        | Quvasoy (Farg'ona oblasti)da tub aholi bilan shu yerda istiqomat qiladigan mesxeti turklari yoshlarning tartibsizliklarni keltirib chiqarishlari Farg'ona voqealarining boshlanishiga turki bo'ldi.   |
| 1989-yil 25-may              | Quvasoy shahriga O'zSSR Ichki ishlar qo'shimcha kuchlari olib kelindi. Voqealar haqidagi axborotning yetishmovchiligidan aholi orasida har xil talqinlarning paydo bo'lishi ko'p o'tmay viloyatning boshqa tumanlarida to'qnashuvlarning kelib chiqishishga sabab bo'ldi. |
| 1989-yil 25-may –<br>10-iyun | Moskvada SSSR xalq deputatlari birinchi syezdi bo'lib o'tdi.  |
| 1989-yil 25-may              | SSSR Xalq deputatlari birinchi syezdi ochilgan kuni Gdlyan boshliq tergov guruhi yuzasidan jinoiy ish qo'zg'atildi. Ammo T.X.Gdan va N.V.Ivanovlar SSSR xalq deputati ekanliklari (dahlsizlik maqomi)dan foydalaniib, ozodlikda qolishdi.                                 |
| 1989-yil 3-iyun              | Marg'ilon shahrining shimoliy-sharqida joylashgan Toshloq rayonida katta qonli to'qnashuv yuz berdi.  |
| 1989-yil 3-iyun              | Farg'ona viloyatining Oxunboyev rayonidagi Surxtepa qishlog'ida xunrezliklar sodir bo'ldi. Natijada jami 20 kishi   |

|                 |  |
|-----------------|--|
|                 | xalok bo'ldi. Mesxeti turklarining uylari, shuningdek, 5 nafar o'zbeklarning hovlisi ham yoqib yuborildi.  |
| 1989-yil 3-iyun | O'zSSR Ministrlar Sovetining raisi G'.Q.Qodirov rahbarligida hukumat komissiyasi tuzildi. Biroq 16 kishidan iborat hukumat komissiyasining to'liq tarkibi faqat 6-iyunda shakllantirildi. Bu vaqtga kelib fojealar Farg'ona viloyatining boshqar rayonlariga ham tarqalib ulgurgan edi.  |
| 1989-yil 4-iyun | Qo'qon shahridan militsiya xodimlari Toshloqqa tashlandi. Bu paytda rayonda vaziyat boshqarib bo'lmaydigan darajada izdan chiqib ketdi.  |
| 1989-yil 4-iyun | O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining Farmoni bilan Farg'ona viloyatining mesxeti turklari zich yashaydigan hududlarida kommendantlik soati joriy qilinadi. Iyun oyi davomida Farg'onaga ittifoqning markaziy rayonlaridan jami 13 000 nafar harbiylar keltirildi.   |
| 1989-yil 5-iyun | Marg'ilon shahrida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi sekretari R.N.Nishonov, O'zR Oliy Soveti Prezidiumi raisi M.Ibrohimov, O'zSSR Ministrlar Soveti raisi G'.Qodirov, SSSR Ichki ishlар ministri V.Bakatin, O'zSSR Ichki ishlар ministri U.Raximov, Farg'ona obkomi Sh.Yo'idoshev ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi. |
| 1989-yil 6-iyun | Marg'ilon shahrida ruxsat berilmagan 2 ta miting bo'ldi. Miting qatnashchilari mesxeti turklarini tarixiy vatanlariga qaytarilishini hamda hibsga olingan namoyishchilarini ozod qilishni talab qildilar. Shu kuni Quvasoya ham shunday talablar bilan miting bo'lib o'tdi.  |
| 1989-yil 6-iyun | Moskvada SSSR xalq deputatlari birinchi syezdida R.N.Nishonov SSSR Oliy Soveti Millatlar Sovetining raisi qilib saylandi.  |
| 1989-yil 7-iyun | Farg'ona oblastining Oxunboboyev, Toshloq, Oltiariq, Rishton, Bog'dod, Buvayda rayonlari va Marg'ilon shahridan xar xil narsalar bilan qurollangan asosan 16-25 yoshlardagi yigitlar avtobus va yuk mashinalarda Qo'qon shahriga kirib kela boshladilar. Ular Qo'qon shahri yoshlarni o'zlariga qo'shilishni talab qildilar.             |
| 1989-yil 8-iyun | Namoyishchilarining o'qqa tutilishidan g'azablanib tinch namoyishga chiqqan Qo'qonliklarning sobiq Ittifoq Ichki ishlар vazirligining ichki qo'shinlari tomonidan o'qqa tutilishi narijasida rasmiy ma'lumotlarga ko'ra 8 kishi xalok bo'lgan. 10 dan ziyod kishi yaralangan.  |
| 1989-yil 9-iyun | O'zbekistonda yashovchi mesxeti turklarini RSFSRga evakuatsiya qilish boshlanadi. Farg'ona oblastidan jami 16.289 nafar mesxeti turklari ko'chirildi. Evakuatsiya qilish 18-iyunga kelib yakunlandi.   |

|                         |  |
|-------------------------|--|
| 1989-yil 11-iyun        | O'zbekistonda motam kuni deb e'lon qilindi. Shu kuni Farg'ona oblastining butun hududida osoyishtalik saqlanib turdi.  |
| 1989-yil 12-iyun        | Namangan shahrida 16-30 yoshlardagi 300 dan ortiq yoshlar tartibsizlik uyuştirishdi.   |
| 1989-yil<br>12-13-iyun  | SSSR Ministrler Sovetining raisi N.I.Rijkov, KPSS MK sekretari V.M.Chebrikov va O'zSSR KM MK birinchi sekretari, SSSR Oliy Soveti Millatlar Sovetining raisi R.Nishonovlar Farg'ona oblastida bo'lib, joylardagi avholni o'z ko'zlar bilan ko'rishdi.                      |
| 1989-yil 15-iyun        | Toshkentda respublika partiya-xo'jalik faollarining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilishda Farg'ona fojealariga siyosiy jihatdan to'g'ri baho berilmadi.   |
| 1989-yil 23-iyun        | O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining XIV plenumi bo'lib o'tdi. Unda Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitetining birinchi sekretari va Byuro a'zosi etib saylandi.  |
| 1989-yil 24-iyun        | O'zbekiston SSR Ministrler Sovetida Farg'ona vodiyisidagi oblastlarni iqtisodiy va sotsial rivojlantirishni jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan katta majlis bo'lib o'tdi. Kengashda Islom Karimov O'zbekiston rahbari sifatida birinchi tarixiy nutq so'zladi.     |
| 1989-yil 25-iyun        | Islom Karimov Farg'ona oblastidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol bilan tanishish maqsadida ushbu oblastda bo'lди.   |
| 1989-yil 30-iyun        | Islom Karimov Namangan oblastiga keldi. Ikki kun davomida oblastdagi vaziyat bilan tanishib, mehnatkashlar va shu jumladan mesxeti turklari vakillari bilan uchrashuv o'tkazildi. Oblastdagi vaziyatni tezroq izga tushirish bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi.     |
| 1989-yil<br>iyun-dekabr | KPSS Markaziy Komiteti huzuridagi Partiya kontrol komiteti va SSSR Oliy Soveti Prezidiumi maxsus komissiyasi Gidlyan-Ivanov guruxi faoliyati bo'yicha jamoatchilik fikrini eshtib, sud-tergov xujjalatini o'rgandi.  |
| 1989-yil 21-iyul        | Farg'ona oblast partiya komitetining plenumi bo'lib o'tdi. Unda Farg'ona oblastidagi fojeali voqealar hamda partiya, sovet, huquqni muhofaza qilish organlarining mas'uliyati to'g'risidagi masalalar muhokama qilindi. Plenum ishida I.A.Karimov qatnashib nutq so'zladi. |
| 1989-yil 23-iyul        | Sirdaryo oblast Guliston rayonidagi Lenin nomli kolxozda bir gurux yoshlar mesxeti turklarining xonardonlariga shikast yetkazadilar.   |
| 1989-yil 23-iyul        | O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Soveti Prezidiumi va Ministrler Sovetining respublika aholisiga Farg'ona fojealari bilan bog'liq murojaatnomasi e'lon qilindi.   |

|                           |  |
|---------------------------|--|
| 1989-yil<br>24-26-27-iyul | Islom Karimov Sirdaryo, Qoraqalpog'iston va Qashqadaryo oblastlari partiya komiteti plenumlarida ishtirok etib nutq so'zladi.  |
| 1989-yil 29-iyul          | O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining XV plenumi bo'lib o'tdi. Unda O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi M.I.Ibrohimovning Farg'ona oblastidagi voqealar tafsilotlarini o'rganish yuzasidan tuzilgan komissiyaning ishi to'g'risidagi hisoboti eshtildi. Plenumda O'zMKning ikkinchi sekretari qilib V.P.Anishchev o'mniga A.S.Yefimov saylandi. |
| 1989-yil 19-avgust        | O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining XVI plenumida I.A.Karimov Farg'ona fojealariga to'xtaldi.   |
| 1989-yil 3-sentabr        | Xalqaro Qo'shilmaslik harakatining Belgrad shahrida bo'lib o'tadigan konferensiyasida ishtirok etish uchun borayotgan Afg'oniston Respublikasining Prezidenti Najibullo Toshkentda to'xtab o'tdi.  |
| 1989-yil 8-sentabr        | Qirg'iziston poytaxti Frunze (Bishkek) shahrida O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalarining oziq-ovqat masalalariga bag'ishlangan seminar-kengashi bo'lib o'tdi. Unda respublikalar Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi sekretarlarning axborotlari tinglandi.   |
| 1989-yil sentabr          | Islom Karimov tashabbusi bilan "paxta ishi"ni chuqr o'rganish bo'yicha O'zbekistonda maxsus taftish komissiyasi tuzildi.   |
| 1989-yil 2-noyabr         | SSSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida I.A.Karimov ishtirok etib nutq so'zladi.   |
| 1989-yil 21-noyabr        | I.A.Karimov O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetida Farg'ona oblastida ro'y bergan qonli fojealar sabablarini atrofchiga o'rganishga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda ishtirok etib nutq so'zladi.   |
| 1989-yil<br>12-24-dekabr  | Moskvada SSSR Xalq deputatlarining 2-syezdi bo'lib o'tdi.  |
| 1989-yil 23-dekabr        | SSSR Xalq deputatlarining 2-syezdida SSSR prokuraturasining T.X.Gdlyan boshchilik qilgan tergov gruppasi faoliyati bilan bog'liq bo'lган metariallarni tekshiruvchi komissiya axboroti tinglandi.  |
| 1990-yil boshlari         | Markaz rahbariyati tomonidan bozor iqtisodiyotiga o'tish zarariyati anglandi, dasturlar tuzildi, qarorlar qabul qilindi.   |
| 1990-yil 19-fevral        | Toshkent oblastining Bo'ka rayonidagi "Oktabr 40-yilligi" kolxozida o'zbek va mesxeti turklari vakillarining guruhlari o'rtasida to'qnashuv bo'ldi. Voqeal yuz bergan joyga respublika rahbarlari borishdi.  |
| 1990-yil 26-fevral        | O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumi va Ministrlar Sovetining mesxeti turklari vakillari ishtirokida majlisи bo'lib o'tdi.  |
| 1990-yil 3-mart           | Toshkent viloyati Parkent tumani markazida ommaviy   |

|                         |   |
|-------------------------|---|
|                         | tartibsizliklar tufayli qurbanlar bo'ldi. Ushbu holat aholining kayfiyatiga salbiy ta'sir etib, noroziliklarni yanada kuchaytirdi.  |
| 1990-yil 19-aprel       | Gdlan va Ivanov SSSR prokuraturasidagi o'z vazifasidan chetlashtirildi.   |
| 1990-yil 4-iyun         | O'zbekiston Kompartiyasining XXII syezdida nutq so'zlagan I.A.Karimov O'zbekiston har kishi boshiga yalpi ijtimoiy maxsulot ishlab chiqarish bo'yicha Ittifoqda 12-o'rinda, daromad darajasi, asosiy turdag'i mahsulotlarni iste'mol qilish jihatidan ittifoqdosh respublikalar orasida eng oxirgi o'rinnlardan birida turganligimizi qayd qildi. |
| 1990-yil 4-iyul         | I.A.Karimov KPSS XXVIII syezdida so'zlagan nutqida "O'zbeklar ishi" degan haqoratlari gapga chek qo'yishni talab qiladi.  |
| 1990-yil avgust-sentabr | Toshkent viloyatining Bo'ka tumanida tartibsizliklar bo'lib o'tdi.  |
| 1990-yil 2-5-dekabr     | Namangan shahrida ichki qo'shinlar harbiy xizmatchilari bilan mahalliy yoshlar o'ttasida kelib chiqqan janjal natijasida 5 nafar harbiy xizmatchi va 3 fuqaro halok bo'ldi, 25 kishi jarohatlandi. O'zbekiston hukumat rahbarlari Namanganda bo'lishdi.   |

### **3-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING E'LON QILINISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI**

**Reja:**

- 1. O'zbekistonning davlat mustaqilligi tomon yo'l tutishi.**
- 2. O'zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va umumxalq tomonidan ma'qullanishi.**
- 3.Mustaqil O'zbekiston davlatining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida Islom Karimovning o'rni va roli.**

**Tayanch tushunchalar:** *Davlat tili to'g'rishdagi qonun. Referendum. Prezidentlik instituti, Navruz, Milliy qadriyatlar, Mustaqillik Deklaratsiyasi, GKCHP (Favqulodda holat). Davlat suvereniteti, "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonun.*

#### **1. O'zbekistonning davlat mustaqilligi tomon yo'l tutishi.**

Insoniyat tarixi shuni ko'rsatadiki, adolatsizlik, zo'ravonlik va mustabid boshquruv tizimiga asoslangan har qanday davlatning umri qisqa bo'ladi. Ushbu xulosa aynan mustabid Sovet Ittifoqiga ham bevosita taalluqlidir. XX-asrning 80-yillari oxiriga kelib, totalitar ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruviga asoslangan, jamiyat tarixiy taraqqiyot qonunlarini inkor etib, hayoliy sotsializm va kommunistik jamiyat qurishni e'lon qilgan Sovet davlati o'z umrining so'ngi kunlarini sanayotgan edi.

Ishsizlik, narx-navoning keskin ko'tarilishi, pulning qadrsizlanishi, oddiy nonga navbatning turnaqator bo'lib ketishi butun Sovet ittifoqida va jumladan O'zbekistonda ham 1989-yilga kelib real hayotiy voqelikka aylangan edi. Turmushdagi qiychiliklar, moddiy-xo'jalik hayotining nochor ahvolga kelib qolishi tabiiy ravishda xalqda norozilik kayfiyatini yuzaga keltirgan edi. Xalqning Ittifoq rahbariyatiga bo'lgan ishonchi sarobga aylanib, umidsizlik va tushkunlik kayfiyati ortgan edi.

Ana shundan murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatda oldingi mavzuda ta'kidlab o'tilganidek, 1989-yil 23-iyunda muqaddam Qashqadaryo oblasti Partiya komiteti rahbari bo'lib ishlab kelgan I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi rahbari etib tayinlanadi. Ammo voqealar rivoji shuni ko'rsatdiki, markazdagi rahbarlar respublika rahbarligiga kadr tanlashda taktik xatoga yo'l qo'yanliklarini tushunib yetishdi. Darhaqiqat O'zbekistonga endi ilgarigi rahbarlar singari itoatkor, mo'min-qobil xizmatkor emas, o'zbek xalqining dardi bilan yashaydigan, yig'ilib qolgan muammolarni qalbidan his qiladigan, millatning ertangi kuni, tinchligi va barqarorligini o'ylaydigan va xalqning milliy manfaatlari nuqtai-nazaridan siyosat yurgizadigan mustaqil fikrli rahbar kelgan edi.

1989-yilning ikkinchi yarmida I.A.Karimov boshchiligidagi respublika rahbariyati millatlararo kelishmovchiliklar va og'ir iqtisodiy inqiroz ko'chasiga kirib

qolgan respublikani meros qilib olgan edi. Yangi rahbariyat pespublikani tezroq oyoqqa turg'azish, oziq-ovqat taqchilligidan betalofat chiqish hamda respublikani fuqarolar urushi bo'sag'asidan chiqarib olish uchun harakatini boshladi. Albatta muammolarni bartaraf etilishida markazdagi komunistlar bilan ham zimdan va oshkora kurash olib borishga to'g'ri keldi.

Ma'lumki azaldan yer bilan hamnafas yashagan bobodehqonlar avlodni o'zbek xalqi o'tgan asming 30-yillardagi jamoalashtirish siyosati tufayli yerdan mosuvo qilingan edi. 1989-yil avgust oyida O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining "Kolxozchilar, sovxozlarning ishchilari, grajdamlaming shaxsiy yordamchi xo'jaliklarini va yakka tartibda uy-joy qurilishini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Qarorga ko'ra davlat yerlari hisobidan aholiga tomorqa yeri (tekinga) ajratib berila boshlandi. Maqsad, respublika aholisining turar-joy, oziq-ovqat va g'allaga bo'lgan ehtiyojlarini qisman bo'lsada qondirish edi. Ushbu qaror respublika xalqi tomonidan juda katta ko'tarinkilik bilan kutib olindi. Xalqda yangi O'zbekiston rahbariyatiga ishonch paydo bo'ldi.

Bundan tashqari aynan 1989-yildan "O'zbek ishi" ("Paxta ishi") bilan nohaq ayblanib, turli muddatlarga qamalgan minglab aybsiz aybdorlarning sud-ekpertiza xujjatlarini qayta taftish qilish jarayoni boshlandi va bu jarayon o'ta murakkab va chigal bo'lganligi uchun butun 1989-1991-yillarda davom etdi.

Bu davrda milliy masala, til va milliy qadriyatlar kun tartibidagi yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri edi. Respublika jamoatchiligi talabi va hohish istaklari asosida 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili moqomi berilishi, milliy o'zlik va qadriyatlarimizni tiklash yo'lidagi katta qadam bo'lgan edi.

1990-yil fevralda O'zbekiston SSRning qonun chiqaruvchi organi – **Oliy Kengashning** yangi tarkibi (XII-chaqiriq) saylandi. Oliy Kengashning 1990-1994-yillardagi 5 yillik faoliyati O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining huquqiy asoslarini yaratish va milliy davlatchilik poydevorini mustahkamlashdagi faoliyatni zalvorli bo'ldi.

Garchand O'zbekistonning davlat mustaqilligi yuridik tarzda 1991-yil 31-avgustdan e'tirof qilinsa-da, mustaqillik uchun intilish, kurash ancha avvalroq boshlangan edi. U bir necha bosqichlarda amalga oshdi, deyish mumkin.

Birinchi bosqich 1990-yil 24-martda mustaqillik yo'lidagi juda muhim hamda mas'uliyatli qadam qo'yildi. Shu kuni XII-chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Kengashining 1-sessiyasida Ittifoqdagi respublikalar orasida birinchi bo'lib O'zbekistonda Prezidentlik lavozimi joriy etildi. Bu tarixiy voqeа edi. Shu o'rinda aytish joizki, bundan o'n kun oldin, ya'ni 14-mart kuni SSSR xalq deputatlarining navbatdan tashqari uchinchi syezdida SSSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish to'g'risidagi qonun qabul qilinib, Mixail Sergeyevich Gorbachev bu vazifaga saylangan edi.

SSSR tarkibida (hududida) ikkinchi Prezidentning paydo bo'lishini Markaz va uning rahbariyati qanday qabul qilganliklarini bugun tasavvur qilish qiyin emas, albatta.

1990-yil bahorida Islom Karimov Gorbachyovcha qayta qurish boshi berk ko'chaga kirib qolganini anglab yetdi. O'sha vaqtida SSSR siyosatchilari orasida

bunday odamlar kamdankam edi. Rossiya va boshqa ittifoqdosh respublikalarda tobora kuchayib borayotgan tartibsizliklar O'zbekistonda ham yuz berishiga yo'l qo'ymaslik uchun qatiy choralar ko'rish kerak edi. O'zbekistonda hokimiyatning ozgina bo'lsa-da zaiflashuvi respublika ichida millatlararo nizolar yangidan boshanishi, ijtimoiy portlashlarga olib kelishi mumkin edi. Shu sababli 1990-yil martida, Gorbachyov va uning atrofidagilar norozi bo'lishiga va qarshilik ko'rsatishiga qaramay. O'zbekiston Oliy Kengashi respublika Prezidenti lavozimini ta'sis etdi va unga Islom Karimovni sayladi. Mamlakat ahli o'sha vaqtida harakati tobora susayib, cho'kayotgan kemaga o'xshab qolgan KPSSga bundan buyon ko'rko'rma ergashmasligini, ko'p millionli xalq kommunistik mafkura tazyiqiga uchramasdan, o'zining mustaqil davlatida yashashni istayotganligini o'z Prezidenti Islom Karimov orqali ochiq-oydin aytди.

1990-yil 18-iyun kuni XII-chaqiriq respublika Oliy Kengashining 2-sessiyasi ochildi. Deputatlarning taklifi bilan O'zbekistonning Mustaqillik deklaratsiyasini qabul qilish masalasi sessiya kun tartibiga kiritildi. Oliy Kengashning doimiy komissiyalari, faol deputatlar va huquqshunos mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan **Mustaqillik deklaratsiyasi** matni sessiyada qizg'in muhokama qilindi va 20-iyun kuni qabul qilindi.

Mustaqillik deklaratsiyasi 12 moddadan iborat bo'lib, bu moddalarda xalqimizning xohish-irodasiga to'la mos keladigan quyidagi muhim tartib-qoidalar belgilab qo'yildi:

"O'zbekiston SSR Oliy Kengashi:

-o'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analarini;

-har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashdan iborat oliy maqsad haqi;

-har bir kishining farovon hayot kechirishini ta'minlashni oliy maqsad deb bilgan holda;

-O'zbekiston xalqlarining kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etgan holda;

-xalqaro huquq qoidalariiga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qiladi".

O'zbekiston SSR ning davlat mustaqilligi:

• O'zbekiston SSR demokralik davlatining o'z hududida, barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligidir.

• O'zbekiston SSRning davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo'yilmay turib, o'zgartirilishi mumkin emas.

• SSSR Oliy Soveti qabul qiladigan qarorlar O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston SSR Oliy Kengashi tomonidan tasdiqlangandan keyingina O'zbekiston hududida kuchga ega bo'ladi.

• O'zbekiston SSR davlat hokimiyati vakolatiga O'zbekiston SSR ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi.

• O'zbekiston SSR xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini tan oladi, hurmat

qiladi va hokazo.

Mustaqillik deklaratsiyasining qabul qilinishi mamlakatimizning tom ma'nodagi, haqiqiy mustaqillikka erishish yo'lida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shundan e'tiboran mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotiga doir masalalar mustaqil tarzda hal etila boshlandi.

Mustaqillik deklaratsiyasi O'zbekistonning davlat mustaqilligi tomon qo'yilgan navbatdagi katta qadam bo'Igan edi

1990-yilga kelib Ittifoq tarkibidagi respublika rahbarlari umumxalq hohish irodasi bilan Markaz oldiga SSSR asosiy qonuniga o'zgartirish kiritish va respublikalar statusini qayta ko'rib chiqish talabini keskin qo'ya boshladilar. 1990-1991-yillar SSSRni saqlab qolish va SSSRni davlat sifatida tarqatib yuborish tarafdarlari o'rtasida keskin kurashlar bilan o'tdi. Markazni ham, respublikalarni ham qoniqtiradigan Yangilangan Ittifoq shartnomasi loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu shartnomaning rasman imzolanishi 1991-yil 20-avgust sanasiga belgilandi. Yangi Ittifoq shartnomasining imzolanishi, bu ittifoqdoш respublikalariga mustaqillik berish, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini berish, Kreml vakolat va imtiyozlarining cheklanishi degani edi.

Moskvada markaziy hokimiyatni saqlab qolishga, respublikalar jilovini o'z qo'lida ushlab qolishga urinuvchilar tomonidan fitna tayyorlandi. Fitnachilar 1991-yil 18-avgust kuni tayyorlangan va 19-avgustda mathuotda e'lon qilingan "Sovet rahbariyatining Bayonoti"da M.S.Gorbachyovning salomatligi yomonlashdi, shu sababli uning SSSR Prezidenti vazifalarini ijro etish imkoniyati yo'q, degan soxta axborot bilan chiqdilar. Bayonotda Prezident vakolatlari vitse-prezident G.I.Yanayevga o'tkazilganligi e'lon qilindi. Aslida esa Prezident M.S.Gorbachyov sog'-salomat edi, ammo o'zini himoya qila olmadi. Fitnachilar uni mamlakatdan, xalqdan, dunyodan ajratib, barcha aloqa vositalarini uzib, 72 saat qamal qilib qo'yan edi. Fitnachilar tomonidan mamlakatni idora qilish uchun Favqulodda holat davlat qo'mitasi (FHDQ) tuzildi. O.D.Baklanov - SSSR Mudofaa Kengashi Raisining birinchi o'rinnbosari, V.A.Kryuchkov - SSSR Davlat xavfsizligi qo'mitasining raisi, V.S.Pavlov - SSSR Bosh vaziri, B.K.Pugo - SSSR ichki ishlar vaziri, V.A.Starodubsev - SSSR dehqonlar uyushmasi raisi, I.Tizyakov - SSSR sanoat, qurilish, transport va aloqa davlat korxonalari hamda inshootlari uyushmasining Prezidenti, D.T.Yazov - SSSR mudofaa vaziri, G.I.Yanayev - SSSR Prezidenti vazifasini bajaruvchi deb e'lon qilindi.

Butunittifoq doirasida mo'rtlashib qolgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat yanada taranglashdi. Mamlakatdagi siyosiy kuchlar vaziyatga turlicha munosabat bildirdilar.

Qalts vaziyatda 1991-yil 19-avgustda O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov Hindistonga qilgan rasmiy tashrifidan qaytib keldi va Toshkent shahri faollari bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda Prezident O'zbekistonning nuqtayi nazarini bildirib, respublikamizda favqulodda holat joriy etishga hojat yo'qligi, O'zbekistonda vaziyat barqarorligi, qonunga xi洛f ko'rsatmalar bajarilmasligini qat'iy ta'kidladi.

1991-yil 20-avgust kuni Toshkentda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati va O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog'iston, viloyatlar va Toshkent shahar rahbarlari ishtirokidagi qo'shma majlisи bo'lib o'tdi.

Majlis mamlakatda vujudga kelgan vaziyatni muhokama qilib **Bayonot qabul qildi**. Bayonotda O'zbekiston Respublikasi tinch vaqtda kuch, avvalo, harbiy kuch ishlatisiga qarshi ekanligi ta'kidlandi. Unda tinchlik, osoyishtalikni saqlash va mustahkamlash, har qanday ig'vogarona harakatlarning oldini olish, hamma joyda qattiq intizom va tartibni saqlash, mish-mishlar va ehtiroslarga berilmaslik vazifalari ilgari surildi. Bayonotda O'zbekiston Davlat mustaqilligi to'g'risidagi deklaratasiya qoidalarini og'ishmay va izchil amalga oshirish yo'lidan boraveradi, deb ko'rsatildi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov 1991-yil 20-avgust kuni respublika aholisiga o'zining murojaatini e'lon qildi: "*Hozircha mamlakatning hokimiyat doiralari qanday yo'l bilan, nimalar orqali, qanday siyosat orqali bu maqsadlarga erishish mumkinligi haqida to'liq, hozircha batafsil ma'lumot bergenicha yo'q. Bu ma'lumotlar bilan chuqur tanishganimizdan keyingina bo'layotgan o'zgarishlarga o'zimizning munosabatimizni albatta bildiramiz*". Prezident xalqqa: "*Biz birovning gapiga kirib ish tutmaymiz, biz o'zimiz tanlagan yo'limizdan va belgilab olgan maqsadimizdan qaytganimiz yo'q. Ishonamanki, bu og'ir sinovlardan ham esonomon o'tamiz*", – deb murojaat qildi. Xalqni og'ir sinovlardan o'tayotgan bir paytda sabr-toqatli, bardoshli va vazmin bo'lishga, tinchlikni saqlash maqsadida jipslashishga chaqirdi.

1991-yil 21-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z farmoni bilan O'zbekiston hududida hokimiyat va boshqaruvi idoralari, korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalarning qabul qilgan barcha qarorlari va ularning ijrosi SSSR va O'zbekiston SSR Konstitutsiyalariga hamda qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlariga va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga so'zsiz mos kelishi kerak, deb belgilab qo'ydi.

Fitnachilarining qonunga xi洛f ravishda urinislari natijasida 1991-yil 19-21-avgust kunlari Moskvada fojiali hodisalar ro'y berdi. Rossiya Federatsiyasi rahbariyati tashabbusi bilan demokratik kayfiyatdagい Moskva aholisi tomonidan fitna bostirildi. Fitnani uyuştiruvchilar qamoqqa olindi. M.S.Gorbachyov Prezidentlik lavozimiga qaytib keldi. Biroq mamlakatdagi siyosiy vaziyat tang ahvolga tushib qoldi. Markaziy hokimiyat falaj bo'lib qoldi. Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi ham halokatga uchradi.

## **2. O'zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va umumxalq ulq tomonidan ma'qullanishi.**

1991-yil 25-avgustda O'zbekiston Prezidentining maxsus farmoni e'lon qilindi. Farmonga binoan Respublika ichki ishlari vazirligi va Davlat xavfsizlik qo'mitasi O'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi.

Q'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Kengash Rayosatiga juda qisqa muddatda Respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonun loyihasini tayyorlash va uni Oliy Kengashning navbatdan tashqari sessiyasi muhokamasiga taqdim etishni taklif qildi.

Respublika Oliy Kengashining Rayosati 1991-yil 26-avgust kuni O'zbekistonning Davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyihasini tayyorlash haqida farmoyish chiqardi. 1991-yil 28-avgustda O'zbekiston Oliy Kengashining Rayosati "Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasini 1991-yil 31-

avgust kuni chaqirish haqida qaror” qabul qildi va sessiyada O’zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi haqidagi masalani muhokama qilish belgilab qo’yildi.

**1991-yil 31-avgust** kuni O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi bo’lib o’tdi.

Sessiyada O’zbekiston Prezidenti I.A.Karimov nutq so’zlab, sobiq Ittifoqda so’nggi paytlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni, davlat to’ntarishiga antikonstitutsiyaviy uringish oqibatlarini tahlil qilib, ular O’zbekiston taqdiriga, xalqimiz taqdiriga bevosita daxldor ekanligini har tomonlama asoslab berdi.

Prezident I.A.Karimov O’zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e’lon qildi va uni mustaqillik to’g’risidagi qonun bilan mustahkamlashni taklif etdi.

Sessiyada “**O’zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to’g’risida**” Oliy Kengash Bayonoti qabul qilindi. O’zbekiston Respublikasi, – deb ta’kidlanadi Bayonotda, – to’la davlat hokimiyatiga ega, xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, oldindan hech qanday shart qo’ymagan holda barcha sheriklar bilan teng huquqi, o’zaro manfaatli bitimlar hamda shartnomalar tuzish uchun o’zini ochiq deb e’lon qiladi.

O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 7-sessiyasi 1991-yil 30-sentabr kuni “**O’zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asosları to’g’risida**”gi Qonunga Konstitutsiyaviy qonun maqomini berishga qaror qildi. Qarorda O’zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi moddaları “**O’zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asosları to’g’risida**”gi Qonunning moddalariga zid kelgan hollarda mazkur qonunga amal qilinsin, deb belgilab qo’yildi.

O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil noyabrda bo’lgan 8-sessiyasi davlat mustaqilligi masalasi bo’yicha referendum o’tkazish haqidagi masalani ko’rib chiqdi. Oliy Kengash sessiyasi 1991-yil 18-noyabr kuni “**O’zbekiston Respublikasi referendummini o’tkazish to’g’risida**” Qaror qabul qildi. Qarorda **1991-yil 29-dekabr**, yakshanba kuni O’zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to’g’risidagi masala bo’yicha referendum o’tkazish belgilandi.

**“O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e’lon qilingan O’zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini ma’qullaysizmi?”**

Referendumda ovoz berish byulleteniga kiritilgan savol ana shunday ta’riflangan edi.

Referendumga puxta tayyorgarlik ko’rildi. Markaziy saylov komissiyasi, 13 saylov okrugi, 7 ming uchastka saylov komissiyasi tuzildi. 1991-yil 29-dekabr kuni bo’lib o’tgan referendumda 9.898.707 kishi yoki saylov ro’yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi qatnashdi. Ovoz berishda qatnashganlarning 98,2 foizi referendumda qo’yligan savolga “Ha”, ya’ni, O’zbekiston Respublikasi mustaqilligini ma’qullaymiz, deb ovoz berdi.

Markaziy saylov komissiyasi “**O’zbekiston Respublikasi referendumni to’g’risida**”gi Qonunning 26-moddasiga asosan, O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e’lon qilingan O’zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi umumxalq tomonidan ma’qullandi, deb topdi.

Shunday qilib, xalqimizning asriy orzusi ro’yobga chiqdi. Mamlakatimiz,

xalqimiz siyosiy qaramlikdan, asoratdan qutuldi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil, to'la huquqli, suveren davlat – **O'zbekiston Respublikasi** paydo bo'ldi.

Davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi o'zbek xalqining hayotida muhim tarixiy voqeа bo'ldi. Mustaqillik xalqimizga o'z taqdirini o'zi belgilash, o'zlar uchun munosib turmush yaratish erkinligini berdi.

O'zbekistonning yangi tarixi ibtidosini bevosita buyuk tarixiy shaxs Islom Abdug'aniyevich Karimov nomi bilan boshlash tarixiy haqiqat. Yuqorida qayd qilib o'tilganidek, aynan 1989-yil iyun oyidan respublika rahbariyatiga kelgan Islom Karimov o'zbek xalqining milliy manfaatlaridan kelib chiqqan xolda o'zining ijtimoiy-siyosiy faoliyatini boshlagan edi. 1989-yil respublikamizni og'ir ijtimoiy-iqtisodiy bo'xronдан olib chiqishda, milliy qadriyat va an'analarining xalqqa qaytarlishida Islom karimovning tarixiy xizmatlari beqiyos. Jumladan **1989-yil 21-oktabrda** o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning asriy orzularining ro'yobi edi.

Boshlangan xayrli ishlarni yanada samarali davom ettirish maqsadida sobiq ittifoq miyisosida birinchi bo'lib O'zbekistonda **1990-yil 24-martda** Prezidentlik lavozimi joriy qilindi. Respublika Oliy Kengashi tomonidan Islom Karimov O'zbekistonning birinchi Prezidenti etib saylandi. Shu sanadan boshlab O'zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, demokratik tizimini shakllantirishga kirishildi.

O'zbekiston davlat mustaqilligi e'lon qilingach, demokratik huquqiy davlat barpo etish yo'lini tanlagan O'zbekiston uchun tabiiy ravishda davlat boshlig'i – Prezidentning umumxalq tomonidan saylanishini ta'minlash zarur edi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrdan bo'lgan 8-sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Mazkur qonunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga 35 yoshdan kichik bo'limgan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin deb belgilab qo'yildi.

Oliy Kengashning 8-sessiyasida shuningdek, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlash to'g'risida" Qaror ham qabul qilindi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi 1991-yil 29-dekabr, yakshanba kuniga belgilandi.

Markaziy saylov komissiyasi 1991-yil 22-noyabrdan O'zbekiston Prezidentligiga O'zbekiston xalq demokratik partiyasi va kasaba uyushmalari Federatsiyasidan ko'rsatilgan I.A. Karimov hamda "Erk" demokratik partiyasidan ko'rsatilgan Salay Madaminov nomzodlarini ro'yxatga oldi va yashirin ovoz berish byulleteniga kiritdi.

O'ta muhim siyosiy jarayonga qizg'in tayyorgarlik ketayotgan bir paytda 1991-yil dekabr oyida Namanganda xavotirli voqealar ro'y berdi.

1991-yilning 9-dekabrida Namangan shahrida bir guruh qo'poruvchi kuchlar viloyat ijroiya qo'mitasi binosini egallab olib, O'zbekistonni Islom davlatiga aylantirishni da'vo qilib chiqishadi va respublika rahbari bilan uchrashuvni talab

qilishadi. Islom Karimov prezidentlikka nomzod sifatida ertasi kuni tongda Namanganga yetib keladi va ongi aqidaparastlik g'oyalari bilan zaharlangan, jazavaga tushgan olomon orasiga soqchi va hamrohlarsiz, bir o'zi, hech ikkilanmasdan, shijoat va shiddat bilan kirib boradi. Respublika rahbarini kurishgach, aqidaparastlar bir oz dovdirab qolishadi. Yurtboshimiz vazminlik bilan so'z boshlaydi va ularning barcha da'volarini aniq faktlar bilan rad etadi.

Shuni aytish kerakki, Islom Karimovning qatiyati va jasorati binoni boshiga kutarib baqir-chaqir qilayotgan minglab ashaddiy ekstremistlarni ham sarosimaga solib qo'yadi. Mamlakatimiz rahbari hayajonga berilmasdan, ular talab qilayotgan yo'l qonunga mutlaqo zid ekani va hech qachon yaxshilikka olib kelmasligini uqtiradi, salobati va irodasi bilan vaziyatni yurnshatishga muvaffaq bo'ladi.

1991-yil 29-dekabrda demokratik meyor va tartiblarga mos ravishda, umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri saylash huquqi asosida tarixda birinchi marta O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga muqobillik asosida umumxalq saylovi bo'lib o'tdi. Saylovda 9 mln 900 ming 958 kishi yoki ovoz berish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarning 94,2 foizi ishtirok etdi.

I.A. Karimov nomzodi uchun 8 mln 514 ming 136 saylovchi yoki saylovda qatnashganlarning 86 foizi ovoz berdi.

1991-yil 30-dekabr kuni Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalarini majlis bayonlarini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi qonunning 35-moddasiga asosan I.A.Karimovni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi.

1992-yil 4-yanvarda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari 9-sessiyasida O'zbekiston Prezidenti saylovi yakunlari haqidagi masala ko'rib chiqildi va mazkur masala bo'yicha Markaziy saylov komissiyasining qarori tasdiqlandi.

Oliy Kengashning mazkur sessiyasida I.A.Karimov Prezidentlik qasamyodini o'qib eshittirdi. Ushbu sanadan O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning yigirma besh yillik islohotchilik faoliyati davri boshlandi.

### **3.Mustaqil O'zbekiston davlatining yuzaga kelishi va mustabkamlanishida Islom Karimovning o'rni va roli.**

O'zbekiston xalqi istiqlol yillarda erishilgan barcha olamshumul yutuqlar va natijalarni mamlakatimizning birinchi Prezidenti nomi va faoliyati bilan uzviy bog'liq deb biladi. U haqli ravishda demokratik talablar va xalqaro mezonlarga to'la javob beradigan O'zbekiston Konstitutsiyasining mualliflaridan biridir. Islom Abdug'aniyevich Karimov iqtisodiy mustaqillikka erishmasdan turib, siyosiy mustaqillikni ta'minlash mumkin emas degan fikrning qat'iy tarafдори edi. Aynan shuning uchun I.A.Karimov tomonidan O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan taraqqiyotning beshta tamoilini – taraqqiyotning "O'zbek modeli" deb nom olgan islohotlar dasturini ishlab chiqdi va hayotga samarali tadbiq etdi. Birinchi Prezidentimizning xalqimiz, davlatimiz uchun amalga oshirgan buyuk xizmatlari

haqida qancha gapirsak, shuncha oz. I.A.Karimov ayniqsa millat farzandlarini qalbdan yaxshi ko'rardi. Hamisha yosh avlodning kelajagi uchun qayg'urardi.

I.A.Karimov "**farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, dono va albatta baxtdi bo'lishlari shart**" degan egz maqsaddan kelib chiqqan xolda millatimiz yoshlari kamoloti yo'lida juda ulkan va xayirli ishlarni amalga oshirdi.

U nafaqat O'zbekiston balki jahon miqyosida tinchlik uchun, o'z xalqi va mamlakati uchun butun borlig'ini fido qila oladigan, katta xurmat va obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan ulkan shaxs va arbob sifatida tanildi.

Prezidentimiz SH.Mirziyoyev 2017-yil 15-yanvar kuni Vazirlar Mahkamasida bo'lib o'tgan yig'ilishdagi nutqlarida Islom Karimovni xotirlab shunday degan edilar: "*Barchamiz uchun qadrli bo'lgan xurmatli Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov bugun oramizda yo'q. Biroq Birinchi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning "O'zbek modeli"ni amalga oshirish va zamонавиъи давлат барпо этиш борасидаги стратегик тамоилларга биз о'з ишмизда доимо суюнамиз. Бу тамоиллар О'zbekistonda bundan buyon ham siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy о'згаришларни та'minlashning mustahkam poydevori hisoblanadi*".

#### **Islom Abdug'aniyevich Karimov hayot yo'li.**

1938-yil 30-yanvarda Samarqand shahrida xizmatchi oilasida tug'ilgan. Millati – o'zbek. Oliy ma'lumotli, O'rta Osipo politexnika va Toshkent xalq xo'jaligi institutlarini tugatgan. Muhandis-mexanik va iqtisodchi mutaxassisliklariga ega. Mehnat faoliyatini 1960-yilda Toshkent qishloq xojaligi mashinasozligi zavodida boshlagan.

1960-yildan 1966-yilgacha V.P.Chkalov nomidagi Toshkent Aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida muhandis, yetakchi muhandis-konstruktur bo'lib ishladi.

1966-yilda O'zbekiston SSR davlat reja komitetiga ishga o'tib, bosh mutaxassislikdan Respublika davlat reja komiteti raisining birinchi o'rinnbosarigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi.

1983-yilda I.A.Karimov O'zbekiston SSR Moliya vaziri, 1986-yilda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti Raisining o'rinnbosari, Respublika davlat reja komitetining raisi etib tayinlanadi.

1986-1989-yillar mobaynida Qashqadaryo viloyati partiya komitetining birinchi kotibi, 1989-yilning iyundan boshlab O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi lavozimlarida ishladi.

1990-yil 24-mart kuni O'zbekiston SSR Oliy Kengashining sessiyasida I.A.Karimov O'zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi.

1991-yil 31-avgust kuni I.A.Karimov tarixiy voqeasi – O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi.

1991-yil 29-dekabridan muqobillik asosida o'tkazilgan umumxalq saylovida I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

1994-yil I.A.Karimovga "O'zbekiston Qahramoni" unvoni va "Oltin Yulduz" medali berildi.

1994-yil I.A.Karimov O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi etib saylandi.

1995-yil 26-martida bo'lib o'tgan umumxalq referendumi yakunlariga ko'ra

I.A.Karimovning Prezidentlik vakolati 2000-yilga qadar uzaytirildi.

1996-yil I.A.Karimovga "Mustaqillik" ordeni berildi.

1998-yil I.A.Karimov "Amir Temur" ordeni bilan mukofotlandi.

2000-yil 9-yanvarda bo'lib o'tgan saylovda I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylandi.

2002-yil 27-yanvarda bo'lib o'tgan referendumda uning prezidentlik vakolati 5-yildan 7-yilga uzaytirildi.

2007-yil 23-dekabrda bo'lib o'tgan saylovda I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.

2015-yil 29-mart Islom Karimov to'rtinchı marta o'tkazilgan Prezident saylovlarida 90,39 % ovoz bilan O'zbekiston Prezidenti etib saylandi.

2016-yil 2-sentabr Islom Karimov vafot etdi.

2017-yil 25-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning xotirasini abadiylashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-2744) qabul qilindi. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan "Toshkent shahridagi xalqaro aeroportga O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov nomini berildi. 2017-yil 31-avgust kuni Toshkent shahrida, 2-sentabrdan Samarqand shahrida Islom Abdug'aniyevich Karimov haykali ochildi.

2018-yil 30-yanvar Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov tavalludining 80-yilligi munosabati bilan Qarshi shahrida I.A.Karimov haykali, Samarqand shahrida esa I.A.Karimov maqbara majmuasining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

#### **Mavzuning asosiy tushunchalari:**

**DAVLAT SUVERENITETI** (fransuzcha "souverainite" – oliv hokimiyat) – quyidagi mazmunlarda ishlatalidi:

1) Davlat suvereniteti – hozirgi davlatshunoslik fanida davlatning ichki va tashqi siyosatidagi to'la mustaqilligi sifatida talqin etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidada davlat suvereniteti masalasiga alohida bob ajratilgan bo'lib, uning 1-moddasida "O'zbekiston – suveren demokratik respublika" deyilgan. 2) Xalq suvereniteti – xalqning davlatni boshqarishdagi to'la hukmronligi, xalq hokimiyati, xalq boshqaruvi ma'nolarini anglatadi.

**DEKLARATSIYA** (fransuzcha "deklaration" – bayonot) – alohida siyosiy-yuridik hujjalarning ularga tantanali xususiyat berish, ularning tegishli davlat taqdiri uchun katta ahamiyatini ta'kidlash maqsadiga ega bo'lgan nomi. Normativ-huquqiy hujjat bo'lmish deklaratsiyaning o'ziga xos jihat shundaki, ulardagi qoidalar umumiyligiga nomuayyan xususiyatga ega bo'lib, qo'shimcha ravishda qonun bilan tartibga solishni talab etadi.

Xalqaro huquqda esa deklaratsiya – tomonlar bilan kelishilgan qoidalar va maqsadlarni ifodalovchi tantanali hujjat. Majburiy xususiyatiga ega emas. Odatga aylanganligi sabablari davlatlar uchun majburiy bo'lib qolgan 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi bundan mustasno.

**PREZIDENT** (lotincha “praesidens” – oldinda o’tiruvchi) – Respublika boshqaruvi shaklidagi davatlarda davlat va hukumat rahbari. Odatda Prezident ijo etuvchi hokimiyat boshlig‘i hisoblanib, davlatning ichki va tashqi siyosatida xalq nomidan ish yuritadi. Jahonda birinchi prezidentlik boshqaruvi XVIII asr oxirida AQShda joriy qilingan. O’zbekistonda prezidentlik boshqaruvi ilk bor 1990-yil 24-martda joriy qilingan bo’lib, O’zbekiston Prezidenti butun O’zbekiston fuqarolari tomonidan umumiyl, teng va to’g’ridan to’g’ri saylov prinsipi asosida saylanadi.

**REFERENDUM** (lotincha “referendum” – e’lon qilinishi lozim bo’lgan xabar) – jamiyatni demokratik boshqarish jarayonida qo’llaniladigan tadbirlardan biri. Ba’zi muhim masalalarni umumxalq ovoziga, umumxalq so’roviga, xalq muhokamasiga qoyib hal etish.

O’zbekiston Respublikasida referendum o’tkazishning huquqiy asoslari yaratilgan bo’lib, u 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasining Referendumi to’g’risida”gi qonuni bilan mustahkamlangan.

O’zbekiston Respublikasida referendum ilk bor 1991-yil 29-dekaborda “Davlat mustaqilligini ma’qullaysizmi?”, ikkinchi marotaba esa 1995-yil 26-martda “O’zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatini 1997-yildan 2000-yilga qadar uzaytirishga rozmisiz?” va 2002-yil 27-yanvarda “Siz kelgusi chaqiriq O’zbekiston Respublikasi Parlamenti ikki palatali qilib belgilanishiga rozmisiz?”, hamda “Siz O’zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddati 5 yildan 7 yil qilib o’zgartirilishiga rozmisiz?” kabi mavzularda umumxalq referendumlari o’tkazilgan.

**RESPUBLIKA** (lotincha “res” – ish, “publicus” – xalq, jamoatchilik) – davlat boshqarish usullaridan biri bo’lib, bunda davlat organlari xalq tomonidan saylab qoyish orqali shakllantiriladi. Hozirgi vaqtida dunyoda 230 ga yaqin davlat mavjud bo’lsa, shulardan yarmi respublika shaklida boshqariladi.

#### Mavzuga oid muhim sanalar:

|                     |   |
|---------------------|---|
| 1989-yil 17-avgust  | O’zbekiston SSR Ministrlar Sovetining “Kolxozchilar, sovxozlarning ishchilari, grajdnlarning shaxsiy yordamchi xo’jaliklarini va yakka tartibda uy-joy qurilishini yanada rivojlantirish to’g’risida”gi Qarori matbuotda e’lon qilindi. |
| 1989-yil 20-sentabr | Moskvada bo’lib o’tgan KPSS Markaziy Komiteti plenumi bo’lib o’tdi.   |
| 1989-yil 21-oktabr  | O’zbek tiliga davlat tili maqomi berildi.   |
| 1990-yil 10-yanvar  | I.A.Karimov KPSS MK plenumi qatnashchilari guruhi tarkibida Litva SSRda vujudga kelgan muammolarni bartaraf etishga bag’ishlangan yig’ilishda ishtirok etish uchun Vilnyus shahriga bordi.  |
| 1990-yil 18-fevral  | O’zbekiston SSRning qonun chiqaruvchi organi – Oliy Kengashning yangi tarkibi (XII-chaqiriq) saylandi. U 1990-1994-yillarda faoliyat ko’rsatdi.   |
| 1990-yil boshlari   | “Birlik” harakati faollarining Muhammad Solih boshliq bir guruhi siyosiy partiya tuzishga kirishdilar.  |

|                     |   |
|---------------------|---|
| 1990-yil bahor      | Boltiqbo'yidagi Latviya, Litva, Estoniya Respublikalari, keyinroq Gruziya va Ozarbayjon Respublikalari Ittifoq tarkibidan chiqqanligini e'lon qildilar.   |
| 1990-yil 12-15-mart | Moskvada SSSR xalq deputatlarining navbatdan tashqari uchinchi syezdi bo'lib o'tdi.   |
| 1990-yil 14-mart    | SSSR xalq deputatlarining navbatdan tashqari uchinchi syezdida <b>SSSR Prezidenti</b> lavozimini ta'sis etish to'g'risidagi qonun qabul qilinib, Mixail Sergeyevich Gorbachev ushbu vazifaga saylandi.  |
| 1990-yil 21-mart    | O'zbekistonda <b>Navruz</b> milliy bayram sifatida dam olish kuni deb e'lon qilindi.  |
| 1990-yil 24-31-mart | Toshkentda XII-chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Kengashining 1-sessiyasi bo'lib o'tdi.<br>Oliy Kengashda yashirin ovoz berish yo'li bilan Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston Prezidenti etib saylandi.  |
| 1990-yil 26-mart    | O'zSSR Oliy Kengashining raisi etib Mirzaolim Ibrohimovich Ibrohimov saylandi. Ministrler Sovetining raisi etib Shukrullo Raxmatovich Mirsaidov tayinlandi.   |
| 1990-yil 27-mart    | Oliy Kengashning 1-sessiyasida Ministrler Sovetining raisi SH.R.Mirsaidov "O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash yo'o'lida" nomli ma'ruza qildi.  |
| 1990-yil 17-aprel   | O'zbekiston SSR Prezidenti I.A.Karimov Indoneziyaning kooperatsiya ishlari ministri B.Arikon boshchiligidagi hukumat delegatsiyasini qabul qildi.   |
| 1990-yil 18-aprel   | O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov Moskvada M.S.Gorbachev raisligida o'tgan SSSR Federatsiya Kengashi bilan Prezidentlik kengashining qo'shma majlisida mamlakat iqtisodiyotini boshqarib turiladigan bozor xo'jaligiga o'tkazish imkoniyatlari va yo'llari muhokamasida so'zga chi qidi. |
| 1990-yil 30-aprel   | "Erk" demokratik partiyasining ta'sis qurultoyi bo'ldi. Qurultoy "Erk" partiyasi tuzilganligi haqida qaror qabul qildi, partiyaning dasturi va nizomi qabul qilindi.  |
| 1990-yil 2-may      | Andijon shahridagi "Spartak" stadionida ommaviy tartibsizliklar boshlanib, u shahar ko'chalarida davom etdi.  |
| 1990-yil 4-may      | Navruz bayramini qayta tiklash to'g'risida Prezident Farmoni e'lon qilindi.   |
| 1990-yil 2-iyun     | "Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga haj qilishi to'g'risida"gi Prezident farmoni e'lon qilindi.   |
| 1990-yil 4-6-iyun   | O'zbekiston Kompartiyasining XXII-syezdi bo'lib o'tdi.  |
| 1990-yil 15-iyun    | Qozog'iston SSR Prezidenti Nursulton Nazarboyev O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 1990-yil 16-iyun    | O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetida respublikaning iqtisodiy mustaqillikka va boshqariladigan  |

|                     |  |
|---------------------|--|
|                     | bozor iqtisodiyotiga o'tish masalalariga bag'ishlangan kengash bo'lib o'tdi.   |
| 1990-yil 18-iyun    | XII-chaqiriq O'zbekiston Oliy Kengashining 2-sessiyasi ochildi.  |
| 1990-yil 20-iyun    | Oliy Kengashining XII-chaqiriq 2-sessiyasida 12 moddadan iborat <b>Mustaqillik deklaratsiyasi</b> qabul qilindi.   |
| 1990-yil 21-23-iyun | Olma-otada O'rta Osiyo davlatlari boshliqlarining Birinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi va unda respublika rahbarlarining qo'shma bayonoti imzolandi.   |
| 1990-yil iyun       | "Birlik" xalq harakati asosida "Birlik" partiyasi tuzildi.   |
| 1990-yil iyul       | Moskvada markaz vakillari bilan respublikalar delegatsiyalari yangi shartnomaga matnini tayyorlashga kirishdilar.  |
| 1990-yil 2-13-iyul  | Moskvada KPSS XXVIII syezdi bo'lib o'tdi. Unda 4-iyul kuni O'zbekiston SSR Prezidenti I.A.Karimov ma'ruza qildi.   |
| 1990-yil 25-iyul    | O'zbekiston SSR Prezidenti I.A.Karimov Hindiston Bosh ministri Vishvanatx Pratap Singxni qabul qildi.  |
| 1990-yil 6-avgust   | M.S.Gorbachevning "Yangi Ittifoq Shartnomasi asosi sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tishning Ittifoq Dasturi Konsepsiyasini tayyorlash haqida"gi Farmoni e'lon qilindi.   |
| 1990-yil avgust     | Ittifoqni yangilash dasturi ishlab chiqildi. Dasturda respublikalar o'z hududlaridagi butun milliy boyliklarga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqiga ega ekanligi ta'kidlangan edi. Ammo shartnomaga bunday yondashuv markazdagilarga yoqmadidi. SSSR Oliy Soveti mazkur dasturni qabul qilmadi. |
| 1990-yil 4-sentabr  | SSSR Oliy Soveti Kengashining IV sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda N.Rijkov "Boshqariladigan bozor iqtisodiga o'tishga tayyorgarlik va mamlakat xalq xo'jaligida barqarorlikni vujujudga keltirish haqida" ma'ruza qildi.   |
| 1990-yil 4-sentabr  | "Jumhuriyat yoshlanini armiyaga chaqirishni va ularning harbiy xizmatni o'tashini takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident Farmoni e'lon qilindi. Unga binoan 1990-yil kuzgi chaqinidan boshlab o'zbekistonlik yigitlarni O'zbekistondan tashqarida joylashgan harbiy qismlariga chaqirish to'xtatildi.      |
| 1990-yil 20-sentabr | I.A.Karimov KPSS MQ plenumida ishtirot etib, yangi ittifoq shartnomasini ishlab chiqish to'g'risida fikr bildirdi.   |
| 1990-yil 24-sentabr | SSSR Oliy Soveti "Xalq xo'jaligini barqarorlashtirishning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari"ni muhokama qilib, Hukumat Dasturi va S.Shatalin Dasturidan iborat yagona Dastur ishlab chiqishni buyurdi.   |
| 1990-yil 1-oktabr   | O'zbekiston SSR Prezidenti Kengashi ta'sis etilib, shu kuni Kengashning birinchi majlisini bo'lib o'tdi.   |
| 1990-yil 17-oktabr  | "O'zbekiston xalq xo'jaligini sog'lomlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy prinsiplari" umumxalq  |

|                       |  |
|-----------------------|--|
|                       | muhokamasiga qo'yildi.   |
| 1990-yil 18-oktabr    | SSSR Oliy Soveti "Bozor iqtisodiyotiga o'tish jahon amaliyotidan kelib chiqqan zarurat, ammo u iqtisodiyotning sotsialistik yo'nalishiga ziyon yetkazmaydi" – deb xulosa berdi.  |
| 1990-yil 20-oktabr    | O'zbekiston Oliy Kengashining 3-sessiyasida "O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchilar kiritish to'g'risida"gi masala muhokama qilindi.   |
| 1990-yil 31-oktabr    | O'zbekiston SSR Ichki ishlar vazirligi respublikaga bo'y sunuvchi vazirlilikka aylantirildi.   |
| 1990-yil 1-noyabr     | O'zbekistonda Prezidentlik hokimiyati bilan Ministrler Sovetining ijroiya boshqaruv hokimiyati qo'shib yuborildi. O'zSSR Ministrler Soveti O'zSSR Prezidenti huzuridagi <b>Vazirlar Mahkamasiga</b> aylantirildi. O'zbekistonda Vitse-prezident lavozimi ta'sis etildi (Bu lavozim 1992-yil 4-yanvarda tugatildi).   |
| 1990-yil 25-noyabr    | Yangi Ittifoq shartnomasi loyihasi O'zbekiston matbuotida e'lon qilindi.   |
| 1990-yil 7-8-dekabr   | O'zbekiston Kompartiyasi XXII-syezdining ikkinchi bosqichi o'tkazildi.   |
| 1990-yil 11-dekabr    | Moskvada bo'lgan KPSS MK Plenumida "Ittifoq shartnomasining konsepsiysi va partiya tashkilotlarining vazifalari to'g'risida"gi masala ko'rildi.  |
| 1990-yil 17-27-dekabr | Moskvada SSSR xalq deputatlarining IV-syezdi bo'lib o'tdi. Unda SSSR Oliy Soveti Millatlar Sovetining raisi R.N.Nishonov "Yangi ittifoq shartnomasining umumiy konsepsiysi va uni tuzish tartibi haqida" ma'ruza qildi. Syezdda "Umumxalq ovoz berishi (SSSR referendumi) to'g'risida" Qonun qabul qilindi. G.I.Yanayev SSSR vitse-prezidenti etib saylandi. |
| 1991-yil 1-yanvar     | O'zbekiston Oliy Kengashining rasmiy organi – "Xalq so'zi" gazetasining ilk soni chiqdi.   |
| 1991-yil 16-yanvar    | "Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqini saqlab qolish to'g'risida" SSSR Oliy Soveti qaror qabul qildi.  |
| 1991-yil 22-yanvar    | "SSSR Davlat bankining 1961-yil nusxasidagi 50 va 100 rubllik pul belgilarini to'lov uchun qabul etishni to'xtatish hamda fuqarolarning omonatlaridan naqd pul berishni cheklash to'g'risida" SSSR Prezidenti Farmoni e'lon qilindi.   |
| 1991-yil 14-fevral    | O'zbekiston SSR Oliy Kengashining navbatdan tashqari 4-sessiyasi bo'lib o'tdi.   |
| 1991-yil fevral-mart  | Ittifoq shartnomasi loyihasi ustida ishlashning ikkinchi bosqichi bo'lib o'tdi. Unda Boltiqbo'yli respublikalari, Gruziya, Armaniston, Moldova vakillari qatnashmadi, Ozarbayjon kuzatuvchi bo'lib qatnashdi.  |

|                      |   |
|----------------------|---|
| 1991-yil fevral      | SSSR Oliy Soveti Ittifoq shartnomasini o'zgartirish, SSSRni teng huquqli respublikalar Federatsiyasi sifatida yangilash xususida referendum o'tkazishga qaror qildi.  |
| 1991-yil 20-fevral   | O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati ham referendum o'tkazishni ma'qulladi va SSSR Oliy Soveti tomonidan tayyorlangan byulleten bilan birga yana bitta qo'shimcha byulletenem ovozga qo'yishga qaror qildi.<br><i>Qo'shimcha byulletenga "Siz O'zbekistonning mustaqil teng huquqli respublika sifatida yangilangan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida qolishiga rozimisiz?" degan savol qo'yildi.</i> |
| 1991-yil 1-mart      | Vazirlar Mahkamasi farmoyishi bilan "O'zbekiston Respublikasi Xotin qizlar qo'mitasi" tashkil etildi.   |
| 1991-yil 12-mart     | O'zbekiston Kommunistik Partiyasi Markaziy Qomitasining IV-plenumi bo'lib o'tdi.  |
| 1991-yil 13-14-mart  | Bishkekda I.A.Karimov va Qиргизiston Prezidenti A.Akayev bilan uchrashdi. Ikki respublika o'rtaida Do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma imzolandi.   |
| 1991-yil 17-mart     | SSSRda birinchi marta umumxalq referendumi o'tkazildi. Unda "Teng huquqli mustaqil respublikalarning yangilangan hamda har qanday millatga mansub kishining huquq va erkinliklariga to'la darajada kafolat beriladigan federatsiya sifatida SSSRni saqlab qolish zarur deb hisoblaysizmi?" degan masala ko'rildi.   |
| 1991-yil 17-mart     | O'zbekistonda "Siz O'zbekistonning mustaqil teng huquqli respublika sifatida yangilangan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida qolishiga rozimisiz" degan savol qoyilgan referendum o'tkazildi.   |
| 1991-yil 16-aprel    | O'zbekistonda Ro'za hayiti (amazon hayiti) kuni fuqarolar ilk marta ishga chiqmadilar.  |
| 1991-yil aprel       | Kiyevda Ukraina, Rossiya, Belarus, O'zbekiston, Qozog'iston Respublikalari rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda mustaqil respublikalar manfaatlariga mos keladigan Ittifoq shartnomasini tuzishga yondashish yo'llari ishlab chiqildi va tegishli bayonot imzolandi.   |
| 1991-yil 19-21-aprel | I.A.Karimov boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi Turkmanistonda bo'ldi. Ikki mamlakat o'rtaida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma hamda hukumatlararo 1992-1995-yillarda iqtisodiy va madaniy hamkorlik qilish to'g'risida bitim imzolandi.   |
| 1991-yil 23-aprel    | Moskva yaqinidagi Novo-Ogoryovoda SSSR Prezidenti M.S.Gorbachyovning 9 respublika rahbarlari bilan uchrashuvi bo'ldi. Ishtirokchilar tomonidan "Mamlakatdagi vaziyatni barqarorlashtirish va tanglikni bartaraf etishga doir kechiktirib bo'lmaydigan choralar to'g'risida qo'shma Bayonet"   |

|                          |   |
|--------------------------|---|
|                          | imzolandi. Bu hujjat “9+1” (9 respublika + markaz) degan nomni oldi. Bayonotda yangi ittifoq shartnomasi xujjati loyihasini tayyorlash ishini yaqin vaqt ichida tugallash ta’kidlandi.  |
| 1991-yil 3-iyun          | Novo-Ogoryovoda SSSR Oliy Soveti vakillari bilan Respublika rahbarlari o’rtasida uchrashuv bo’ldi. Mulk, til va yangi shartnomani tasdiqlash tartibi to‘g’risida keskin munozara bo’ldi. “Mustaqil davlatlar ittifoqi to‘g’risida shartnoma” loyihasi ishlab chiqildi. Loyiha barcha Respublikalar Oliy Kengashlariga muhokama uchun jo‘natildi.  |
| 1991-yil 13-iyun         | “Mustaqil davlatlar ittifoqi to‘g’risida shartnoma” loyihasi O‘zbekiston Oliy Kengashi 5-sessiyasida muhokama qilindi. Kengash Federatsiya tamoyillari asosida Mustaqil davlatlar ittifoqini tuzish tarafdoni ekanligini bildirdi. Shu bilan birga respublikalar vakolatlarini yanada kengaytirishga doir takliflarni ilgari surdi.   |
| 1991-yil 28-iyun         | “Mustaqil Davlatlar Ittifoqi to‘g’risidagi shartnoma” loyihasi O‘zbekiston matbuotida e’lon qilindi.  |
| 1991-yil 23-iyul         | Novo-Ogoryovoda yangi shartnoma loyihasini uzil-kesil tayyorlash uchun markaz vakillari va respublika rahbarlarining uchrashushi bo’ldi. Markazni ham, respublikalar rahbarlarini ham qanoatlantiradigan “Mustaqil davlatlar ittifoqi to‘g’risida shartnoma” loyihasi tayyorlandi Ammo hamma rozi bo‘lgani holda “Mustaqil davlatlar ittifoqi to‘g’risidagi shartnoma”ni imzolash 1991-yil 20-avgust kuniga qoldirildi. |
| 1991-yil<br>13-15-avgust | Toshkentda O’rta Osiyo davlat rahbarlarining Ikkinch uchrashushi bo‘lib o’tdi. O’rta Osiyo respublikalari va Qozog‘iston respublikalararo Maslahat kengashini tuzish to‘g’risida Bitim imzolandi.   |
| 1991-yil<br>17-19-avgust | I.A.Karimov Hindiston Respublikasiga rasmiy tashrif bilan bordi.  |
| 1991-yil<br>19-21-avgust | Moskvada markaziy hokimiyatni saqlab qolishga, respublikalar jilovini o‘z qo‘lida ushlab qolishga urinuvchilar tomonidan fitna tayyorlandi. Fitnachilar tomonidan mamlakatni idora qilish uchun SSSRda Favqulodda holat davlat qo‘mitasi (FHDQ) tuzildi. Rossiya Federatsiyasi rahbariyati tashabbusi bilan demokratik kayfiyatdagi Moskva aholisi tomonidan fitna bostirildi. Fitnani uyuştiruvchilar qamoqqa olindi.  |
| 1991-yil 19-avgust       | O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov Hindistonga qilgan rasmiy tashrifidan qaytib keldi va Toshkent shahri faollari bilan uchrashuv o’tkazdi. Uchrashuvda Prezident O‘zbekistonning nuqtayi nazarini bildirib, respublikamizda favqulodda holat joriy etishga hojat yo‘qligi, O‘zbekistonda   |

|                    |   |
|--------------------|---|
|                    | vaziyat barqarorligi, qonunga xilof ko'rsatmalar bajarilmasligini qat'iy ta'kidladi.  |
| 1991-yil 20-avgust | Toshkentda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati va O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog'ston, viloyatlar va Toshkent shahar rahbarlari ishtirokidagi qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Majlis mamlakatda vujudga kelgan vaziyatni muhokama qilib Bayonot qabul qildi. Bayonotda O'zbekiston Davlat mustaqilligi to'g'risidagi deklaratsiya qoidalarini og'ishmay va izchil amalga oshirish yo'lidan boraveradi, deb ko'rsatildi.   |
| 1991-yil 20-avgust | O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov respublika aholisiga o'zining murojaatini e'lon qildi va xalqni og'ir sinovlardan o'tilayotgan bir paytda sabr-toqatli, bardoshli va vazmin bo'lishga, tinchlikni saqlash maqsadida jipslashishga chaqirdi.  |
| 1991-yil 21-avgust | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z farmoni bilan O'zbekiston hududida hokimiyat va boshqaruvi idoralari, korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalarning qabul qilgan barcha qarorlari va ularning ijrosi SSSR va O'zbekiston SSR Konstitutsiyalariga hamda qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlariga va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga so'zsiz mos kelishi kerak, deb belgilab qo'yidi. Farmonda SSSRda favqulodda holat davlat qo'mitasining SSSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga, O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan farmonlari va qarorlari haqiqiy emas, deb belgilab qo'yildi. |
| 1991-yil 25-avgust | O'zbekiston Prezidentining maxsus farmoni e'lon qilindi. Farmonga binoan Respublika ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik qo'mitasi O'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi. Respublika hududida joylashgan SSSR ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston Prezidentiga bo'ysundirildi.  |
| 1991-yil 26-avgust | Respublika Oliy Kengashining Rayosati O'zbekistonning Davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyihasini tayyorlash haqida farmoyish chiqardi.  |
| 1991-yil 28-avgust | O'zbekiston Oliy Kengashining Rayosati "Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI-sessiyasini 1991-yil 31-avgust kuni chaqirish haqida qaror" qabul qildi va sessiyada O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi haqidagi masalani muhokama qilish belgilab qo'yildi.   |
| 1991-yil 28-avgust | O'zbekiston Kompartiyasi MQ va Markaziy nazorat komissiyasining qo'shma plenumi bo'lib o'tdi. Plenumda Prezident I.A.Karimovning mamlakatda 19-21-avgust kunlari sodir bo'lgan voqealar va respublika partiya tashkilotlarining   |

|                     |  |
|---------------------|--|
|                     | vazifalari to'g'risidagi axboroti tinglandi va muhokama qilindi. Plenum Respublika Kompartiyasini KPSS MQ bilan har qanday aloqalarni to'xtatishga, KPSSning barcha tuzilmalaridan chiqishga, uning markaziy organlaridagi o'z vakillarini chaqirib olishga qaror qildi.   |
| 1991-yil 31-avgust  | O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI-sessiyasi bo'lib o'tdi.<br>Sessiyada Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qildi va uni mustaqillik to'g'risidagi qonun bilan mustahkamlashni taklif etdi.<br><b>"O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida"</b> Oliy Kengash Bayonoti va <b>"O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida"</b> Qaror qabul qildi. Qarorda 1991-yildan boshlab 1-sentabr <b>O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb e'lon qilindi.</b><br>17 moddadan iborat <b>"O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asosları to'g'risida"</b> Qonun qabul qilindi. |
| 1991-yil 5-sentabr  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent shahridagi V.I.Lenin nomili maydonni <b>Mustaqillik maydoni</b> deb qayta nomlash haqidagi Farmoni e'lon qilindi.   |
| 1991-yil 30-sentabr | O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VII sessiyasida <b>"O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asosları to'g'risida"gi</b> Qonunga Konstitutsiyaviy qonun maqomini berildi.   |
| 1991-yil 18-noyabr  | O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII-sessiyasida <b>"O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida"</b> Qaror qabul qildi. Qarorda 1991-yil 29-dekabr, yakshanba kuni O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi masala bo'yicha referendum o'tkazish belgilandi.  |
| 1991-yil 18-noyabr  | <b>"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"</b> Qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga 35 yoshdan kichik bo'Imagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan.   |
| 1991-yil 22-noyabr  | Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Prezidentligiga O'zbekiston xalq demokratik partiyasi va kasaba uyushmalan Federatsiyasidan ko'rsatilgan I.A.Karimov hamda "Erk" demokratik partiyasidan ko'rsatilgan Salay Madaminov nomzodlarini ro'yxatga oldi va yashirin ovoz berish byulleteniga kiritdi.  |
| 1991-yil 8-dekabr   | Belorusiyaning Belovej pushchasida Rossiya (B.Yelsin),   |

|                    |  |
|--------------------|--|
|                    | Ukraina (L.Kravchuk) va Belorus (S.Shushkevich) rahbarları o'zaro bitim imzolab, SSSR tugatilganligini va <b>Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi</b> (MDH) tashkil etilganligini rasman e'lon qildilar.  |
| 1991-yil 9-dekabr  | Namangan shahrida bir guruh qo'poruvchi kuchlar viloyat ijroiya qo'mitasi binosini egallab olib, O'zbekistonni Islom davlatiga aylantirishni da'vo qilib chiqishadi va respublika rahbari bilan uchrashuvni talab qilishadi. Islom Karimov prezidentlikka nomzod sifatida 10-dekabr kuni Namanganga yetib keladi va ongi aqidaparastlik g'oyalari bilan zaharlangan namoyish rahbarlari bilan uchrashadi.  |
| 1991-yil 16-dekabr | Turkiya xalqaro miqyosda O'zbekiston Respublikasini suveren davlat deb tan olgan dastlabki davlat bo'ldi.  |
| 1991-yil 21-dekabr | Olma-ota shahrida Boltiqbo'yı respublikaları va Gruziyadan tashqari 11 ta sobiq ittifoqdosh respublikalar rahbarlarının uchrashuvி bo'lib o'tdi. <b>Olma-ota deklaratsiyasi imzolandi</b> . O'zbekiston MDHga a'zo bo'ldi.   |
| 1991-yil 25-dekabr | SSSR Prezidenti M.S.Gorbachev markaziy televideniye orqali so'nggi marta xalqqa murojaat qildi. SSSR davlati xalqaro huquq subekti sifatida barham topdi.  |
| 1991-yil 29-dekabr | O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi masala bo'yicha referendum o'tkazildi. Unda "Siz O'zbekistonning SSSRdan ajralib mustaqil bo'lishini istaysizmi?" degan savol qo'yildi. Referendumda 9.898.707 kishi yoki saylov ro'yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi qatnashdi. Ovoz berishda qatnashganlarning 97 foizi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini ma'qullah ovoz berdi.  |
| 1991-yil 29-dekabr | Demokratik meyor va tartiblarga mos ravishda, umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri saylash huquqi asosida tarixda birinchi marta <b>O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga muqobililik asosida umumxalq saylovi bo'lib o'tdi</b> . Saylovda 9 mln 900 ming 958 kishi yoki ovoz berish huquqiga ega bo'lgan fuqarolaming 94,2 foizi ishtirok etdi. I.A.Karimov nomzodi uchun 8 mln 514 ming 136 saylovchi yoki saylovda qatnashganlaming 86 foizi ovoz berdi. |
| 1991-yil 30-dekabr | Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis bayonlarini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi qonunning 35-moddasiga asosan I.A.Karimovni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi.  |
| 1992-yil 4-yanvar  | O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari IX-sessiyasida O'zbekiston Prezidenti saylovi yakunlari haqidagi masala ko'rib chiqildi va mazkur masala bo'yicha Markaziy saylov komissiyasining qarori tasdiqlandi.  |

#### **4-MAVZU: O'ZBEKISTON TANLAGAN MUSTAQIL RIVOJLANISH YO'LI VA UNING AHAMIYATI**

**Reja:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlarining qabul qilinishi.**
- 2.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – mustaqil davlatning asosiy qonuni.**
- 3.Mustaqil taraqqiyotning dastlabki davridagi muammolar, taraqqiyotning "O'zbek modeli" va uning o'ziga xos xususiyatlari.**

**Tayanch tushunchalar:** *Davlat bayrog'i, Davlat gerbi, Davlat madhiyasi, Konstitutsiya, Referendum, Taraqqiyotning "O'zbek modeli", Reforma.*

##### **1.O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlarining qabul qilinishi.**

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e'lon qilinishi o'zbek davlatchiligi tarixida yangi bir davrni boshlab berdi. Darhaqiqat, mustaqillik bu – ajdodlarimiz tomonidan ming yillar davomida orzu qilingan, ayniqsa, milliy ma'rifatparvarlarimiz bo'lmish jadid nomoyondalarining ushalmay qolgan orzularining ro'yobi edi. Galdagi muhim vazifa anashu mustaqil davlatning milliy davlat ramzlarini yaratish bo'lgan edi.

Ma'lumki, xalqimizning milliy mustaqillik uchun intilishi va amaliy harakatlar davlat mustaqilligi e'lon qilinishadan ancha ilgari boshlangan edi. Xususan, 1990-yil iyun oyida bo'lib o'tgan Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida Respublika Prezidenti I.A.Karimov raisligida O'zbekistonning nülliy davlat ramzlarini yaratish bo'yicha maxsus komissiya tuzilgan edi. Mazkur komissiya o'zining ikki yarim yillik faoliyati davomida ko'lami jihatidan juda katta tarixiy missiyani amalga oshirdi.

1991-yil 18-noyabrda dastlabki milliy davlat ramzlarimizdan biri – "**O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida**"gi qonun qabul qilindi. 13 moddadan iborat ushbu qonunga 1992, 1999, 2004 va 2010-yillarda qator qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi.

Tarixiy-milliy qadriyat va an'analarimizni o'zida aks ettirgan O'zbekiston Davlat bayrog'i ranglarining o'ziga xos jilosi va uyg'unligi bilan ajralib turadi. Chunki, milliy bayrog'imizda uzoq tarixiy o'tmishimiz, milliy davlatchiligimiz va qadriyatlarmiz timsollarini o'zida mujassamlashtirgan.

Bayrog'imizdagи *moviy rang* – mangu osmon va musaffo suv ramzidir. Yaxshilikni, donishmandlikni, shon-shuhratga sadoqatni bildiruvchi moviy rang Sharqda azaldan qadrlanadi. Turkiy xalqlarda moviy rang tangrichilik (ko'ktangri) e'tiqodi bilan uzviy bog'liq. O'z vaqtida sohibqiron Amir Temuring bayrog'i ham moviy rangda bo'lган.

*Oq rang* – tinchlik va poklik timsolidir. Bayrog'imizdagи oq rang yo'limizning musaffo va charog'on bo'lishi uchun yaxshi niyat ramzidir.

*Qizil yo'llar* – har bir tirik jonning qon tomirida urib turgan hayotiy kuch, tiriklik ramzidir.

*Yashil rang* – serme'mat va orombaxsh tabiat timsoli. Hozirgi vaqtida butun dunyoda atrof-muhitni muhofaza qilish harakatlari keng yoyilmoqda, uning ramzi ham yashil rangdir. Shuningdek, ushbu rang muslimmonchilik ramzi bo'lib, payg'ambar Muhammad ibn Abdulloh (s.a.v.)ning bayrog'i shu rangda bo'lgan.

*Yarim oy* – O'zbekiston xalqining ko'p asrlik an'analariga muvofiq keladi. Yarim oy va yulduzlar – musaffo osmonning va tinchlikning, yangi mustaqil davlatimizning tug'ilishi ramzidir.

Bayrog'imizda 12 yulduz tasviri o'lkamizda qadimdan buyon barkamollik, mukammallik timsoli hisoblanadi.

"O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonunning 2-moddasida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ramzidir deb belgilangan.

Mazkur qonunning 3-moddasiga binoan, bayrog'imiz xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining timsoli bo'ladi. Bayrog'imiz xalqaro maydonda O'zbekiston Respublikasi delegatsiyalarining xorijiy mamlakatlarga safari chog'ida, xalqaro tashkilotlarda, konferensiyalarda, jahon ko'rgazmalarida, sport musobaqalarida ko'tarilib, yurtimizni ulug'laydi. Qonunida bayroq ko'tariladigan joylar va uning ko'tarilish vaqtлari aniq va ravshan belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i qonunda belgilangan tegishli joylarda doimiy ravishda ko'tarilgan holda turadi. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i unga nisbatan lozim darajadagi hurmat ta'minlangan holda umummilliy bayramlar va tantanali tadbirlar vaqtida ko'tarilishi mumkin.

Qonun bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'inining tasviri tushirilgan belgilar: O'zbekiston Respublikasi Fuqaro havo kemalari davlat reyestri yoki O'zbekiston Respublikasi Davlat havo kemalari reyestriga kiritilgan havo kemalariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Aviatsiya ma'muriyatি hisobida turuvchi eksperimental havo kemalariga; qonun hujjatlarida belgilangan hollarda avtomototransport vositalari va ular tirkamalarining davlat ro'yxatidan o'tkazish raqam belgilariga; O'zbekiston Respublikasining asosiy chegara belgisiga qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'inining tasviri tushirilgan belgilardan O'zbekiston Respublikasiga tegishlilikni belgilash maqsadida predmetlarda, o'quvtarbiya jarayonida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotlarining elementi sifatida foydalanishi mumkin.

Shuni yodda tutish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'inining elementlarini nodavlat tashkilotlari hujjatlarining rekvizitlari yoki reklama materiallariga kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'inining tasviri tushirilgan belgilardan ishlab chiqarilayotgan yoki realizatsiya qilinayotgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) o'tkazish uchun tijorat maqsadlarida foydalanish mumkin emas. Ayni vaqtida, nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzları mamlakatimiz Davlat bayrog'iga o'xshash bo'lishi mumkin emas.

Qonunda bayrog'imizning qanday shakl va ko'rinishda bo'lishi ham aniq ko'rsatilgan. Chunonchi, qonunning 4-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i - bayroqning butun uzunligi bo'ylab o'tgan to'q

moviy rang, oq rang va to'q yashil rangli uchta endan tarkib topgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi matodir. Bayroqning uzunligi 250 sm.ga, kengligi 125 sm.ga teng. Moviy rang, oq rang va yashil rangli enlarining kengligi bir xil. Har bir en 40 sm.ga teng. Bayroqning o'ttasidagi oq rangli enning chetlaridan kengligi 2,5 sm.ga teng qizil hoshiyalar o'tgan.

Qonunda Davlat bayrog'ining qachon, qanday voqealar munosabati bilan, qay vaqtida, soat nechadan nechagacha, qanday tartibda ko'tarilishi aniq ko'rsatib qo'yilgan. Bunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i bayram kunlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlarining qarorlari bilan belgilangan markaziy ko'chalarda, maydonlarda, boshqa jamoat joylarida va obyektlarda soat 6 da ko'tariladi va soat 22 da tushirib qo'yiladi. Bayroq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi deputatlari, Senati a'zolari, xalq deputatlari Kengashlarining deputatlari saylovi yoki referendum kunlarida – ovoz berish o'tkazilayotgan binolar va xonalarda ovoz berish yoki referendum o'tkazish davrida ko'tarib qo'yiladi. U xorijiy davlatlar davlat va hukumat boshliqlarining, boshqa rasmiy delegatsiyalarining xalqaro huquq normalariga, diplomatik protokol qoidalariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida bo'lishining tasdiqlangan dasturiga muvofiq, transport vositalarida, vokzallarda, aeroportlarda, yurish yo'nalishi bo'yicha va boshqa tashrif obyektlarida xoniji davlatlar davlat va hukumat boshliqlarining, boshqa rasmiy delegatsiyalarining tashrif buyurishidan 24 soat oldin ko'tariladi va ular jo'nab ketganidan keyin 24 soat mobaynida tushirib qo'yiladi.

Komil ishonch bilan aytish mumkinki, bugungi kunda O'zbekiston davlat bayrog'i har bir O'zbekiston fuqarosida milliy g'urur va Vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otadigan, millatimizni birlashtiradigan ramzlardan biriga aylandi.

1992-yil 2-iyun sanasida navbatdagi davlat ramzi – O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasdiqlandi. Unga 1999-yil 15-aprelda, 2003-yil 25-aprelda, 2004-yil 3-dekabrda va 2010-yil 24-dekabrda qo'shimchalar kiritilgan. "Gerb" so'zi nemischa "erbo" so'zidan olingan bo'lib, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud va boshqa nasldan-naslga meros qoluvchi mulk belgisini anglatadi. Umuman, gerb qaysi davlatga tegishli bo'lsa, o'sha davlatning tarixiy an'analarini ifodalovchi ramziy ahamiyatga ega bo'lgan tasvirlar va timsollar majmuasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi davlatimizning siyosiy, milliy, xo'jalik, geografik, etnik va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini hamda boy tarixiy an'analarini o'zida mujassamlashtirgan. "O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida"gi qonunga binoan, O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi respublika davlat mustaqilligining ramzidir.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi quyidagi ko'rinishga ega: tog'lar, daryolar va so'l tomoni bug'doy boshoqlaridan, o'ng tomoni esa chanoqlari ochilgan g'o'za shoxlaridan iborat chambarga o'ralgan gullagan vodiylar uzra quyosh zarnin nurlarini sochib turadi. Gerbning yuqori qismida respublika hurligining ramzi sifatida sakkizburchak tasvirlangan bo'lib, uning ichki qismida yarim oy va yulduz

tasvirlangan. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi – qanotlarini yozgan Humo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida respublika Davlat bayrog'ini ifoda etuvchi chambar lentasining bandida "O'zbekiston" deb yozib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviridan O'zbekiston Respublikasiga tegishlilikni belgilash maqsadida predmetlarda, o'quv-tarbiya jarayonida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi davlat mukofotlarining elementi sifatida foydalanish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining elementlarini nodavlat tashkilotlari hujjatlarining rekvizitlari yoki reklama materiallariga kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan belgilardan ishlab chiqarilayotgan yoki realizatsiya qilinayotgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) o'tkazish uchun tijorat maqsadlarda foydalanish mumkin emas. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ramzları O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbiga o'xshash bo'lishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek, O'zbekistonda turgan boshqa shaxslar O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbini hurmat qilishlari shart. O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi. Shu tarqa, O'zbekistonning davlat gerbi ham davlat mustaqilligining ramzi bo'lib, respublikaning rasmiy belgisi sifatida faqat qonunda ko'rsatilgan obyektlarga tushiriladi.

Madhiya – grekcha "hymnos" so'zidan olingan bo'lib, u dasturiy xarakterdag'i she'mi tantanali qo'shiq qilib tarannum etilishi ma'nosida qo'llaniladi. Madhiyalarning bir necha turlari mavjud. Masalan, davlat, inqilob, harbiy, diniy va hokazo madhiyalar bor. Bularning ichida eng asosiyasi davlat madhiyasi hisoblanadi.

O'zbekistonning davlat madhiyasi atoqli shoir Abdulla Oripov (1941-2016) tomonidan yozilgan, unga san'at arbobi Mutal Burxonov (1916-2002) kuy bastalangan. Dadil aytish mumkinki, madhiyamizda o'zbek xalqining shodiyona fikr-o'yłari va his-tuyg'ulari bekamu ko'st o'z ifodasini topdi. 1992-yil 10-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"gi qonunga binoan, O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi O'zbekiston Respublikasi davlat suverenitetining ramzidir. O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasiiga zo'r ehtirom bilan qarash O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining vatanparvarlik burchidir. O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi qonunda belgilangan vaqt va marosimlarda ijro etiladi.

Qonunga ko'ra O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi vokal hamda vokal-cholg'u asboblari bilan ijro etilgan taqdirda to'liq ijro etiladi, cholg'u asboblarining o'zida ijro etilgan taqdirda esa madhiya qisman ijro etilishiga yo'l qo'yiladi. Ashulaning boshlanishi va naqarat bir martadan aytildi. O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi madhiyaning ushbu Qonun bilan tasdiqlangan matni va musiqaviy tahririga aynan muvofiq holda ijro etilmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi ko'pchilik huzurida ijro etilganda, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, hozir bo'lgan kishilar madhiyani tik turib va o'ng qo'l kaftini ko'krakning chap tomoniga

qo'yib, harbiy yoki davlatning boshqa xizmatidagi maxsus kiyimdagisi shaxslar esa qo'lini bosh kiyirmiga qo'yib tinglaydi.

Agar O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining ijro etilishi O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining ko'tarilishi bilan birlashtiruvchi amalga oshirilsa, hozir bo'lgan kishilar unga vuzi bilan buriladi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi esa millatimizni birlashtiruvchi o'ziga xos ma'naviy-ruhiy kuchdir. Chunki davlat madhiyasi bu xalqimizning tarixiy o'tmish xotiralari, ezu orzu-umidlarining milliy ohanglarda aks ettirilishidir.

Darhaqiqat, milliy istiqlol yillarida jahon arenalarida o'zbek sportchilarining g'alabalari va shaxsupaga O'zbekiston bayrog'ini baland ko'targan qahramonlarimizning milliy madhiyamiz ohanglari ostida taqdirlanishi har bir vatandoshimiz qalbida milliy g'urur va hech kimdan kam emaslik tuyg'ularini junbushga keltiradi va sha ma'noda milliy davlat ramzlarimiz millatimizni birlashtiruvchi katta bir ma'naviy-ruhiy kuch ekanligi shubhasizdir.

## **2.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – mustaqil davlatning asosiy qonuni.**

Konstitutsiya – davlatning xalq irodasini ifodalovchi, davlat tuzilishi va boshqaruvi shakli asoslarini mustahkamlovchi, hokimiyat idoralari faoliyatining tashkil etilish tartibi va prinsiplarini belgilovchi asosiy qonuni hisoblanadi. Konstitutsiya lotincha "constitutio" – tuzilish degan ma'noni anglatib, bugungi o'zbek tiliga mazmunan o'girganda eski turkiy tildagi "tuzmoq" fe'li asosida yuzaga kelgan "tuzuk" so'ziga to'g'ri keladi. "Amir Temur tuzuklari" ham o'ziga xos bir Konstitutsiya hisoblanadi.

Konstitutsiya shaxs, jamiyat va davlat o'rtaida vujudga keladigan eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, oliy yuridik maqomga ega normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Shu jihatdan Konstitutsiya o'z mazmun - mohiyatiga ko'ra jamiyat va davlatning rivojlanish qonuniyatlarini o'zida namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilish tarixi davlat mustaqilligini e'lon qilinishidan bir necha yil oldin boshlangan edi. 1990-yil 20-iyunda O'zbekiston Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasida respublika Prezidenti I.A.Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya komissiyasi tuzildi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi loyihasini ishlab chiqishga oid barcha tayyorgarlik ishlari muvofiqlashtirishini ta'minlash maqsadida Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari, shuningdek, yetakchi olimlar va mutaxassislar ishtirotida 32 kishidan iborat ishchi guruhi tuzildi.

1991-yilning noyabr oyigacha Konstitutsiya loyihasining 158-moddadan iborat birinchi varianti tayyorlandi. Loyihaning bu varianti mazmuni va shakli jiddiy tahlildan o'tkazildi. Loyihaning ikkinchi varianti 149-moddadan, uchinchi varianti 137 moddadan tashkil topdi. Matbuotda e'lon qilish oldidan loyiha yana bir bor diqqat bilan o'rganib chiqilib, 127 moddaga keltirildi.

Konstitutsiyaviy komissiyaning qarori bilan loyiha 1992-yil 26-sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Muhokama davomida Konstitutsiyaviy komissiyaga uning asosiy bo'limlari, boblari va moddalarini yuzasidan 6 mingdan ortiq takliflar kelib tushdi.

Konstitutsiya loyihasi BMT, YXHT kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar va AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya kabi demokratik davlatlar mutaxassislarining sinchkov ekspertizasidan o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi 1992-yil 21-noyabrda yana bir bor matbuotda e'lon qilindi. Konstitutsiyaviy komissiyaga kelib tushgan ko'p sonli takliflar, mulohazalar, fikrlar har tomonlama o'rGANilib, Konstitutsiya loyihasiga deyarli 80 yaqin o'zgartish, qo'shimcha va aniqqliklar kiritildi.

Konstitutsiyamiz loyihasi ustida taxminan ikki yil davomida ishlaniib, ikki yarim oy mobaynida umumxalq muhokamasidan o'tdi va shu vaqt mobaynida u xalqning fikr xazinasi durdonalari bilan boyitildi.

Nihoyat mustaqil O'zbekiston davlatining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 12-chaqiriq XI-sessiyasida qabul qilindi. Konstitutsiyamiz muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat quyidagi tarkibga ega:

**Birinchi bo'lim  
ASOSIY PRINSIPLAR**

- I **bob.** Davlat suvereniteti (1-6 moddalar)
- II **bob.** Xalq hokimiyyatchiligi (7-14 modda)
- III **bob.** Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi (15-16 modda)
- IV **bob.** Tashqi siyosat (17-modda)

**Ikkinchi bo'lim  
INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI,  
ERKINLIKHLARI VA BURCHLARI**

- V **bob.** Umumiyoq qoidalar (18-20 modda)
- VI **bob.** Fuqarolik (21-23 modda)
- VII **bob.** Shaxsiy huquq va erkinliklar (24-31 modda)
- VIII **bob.** Siyosiy huquqlar (32-35 modda)
- IX **bob.** Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar (36-42 modda)
- X **bob.** Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari (43-46 modda)
- XI **bob.** Fuqarolarning burchlari (47-52 modda)

**Uchinchi bo'lim  
JAMIYAT VA SHAXS**

- XII **bob.** Jamiyatning iqtisodiy negizlari (53-55 modda)
- XIII **bob.** Jamoat birlashmalari (56-62 modda)
- XIV **bob.** Oila (63-66 modda)
- XV **bob.** Ommaviy axborot vositalari (67-modda)

**To'rtinchi bo'lim**

**MA'MURIY-HUDUDIY VA DAVLAT TUZILISHI**

- XVI **bob.** O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi (68-69 modda)

- XVII **bob.** Qoraqalpog'iston Respublikasi (70-75 modda)

**Beshinchi bo'lim**

**DAVLAT HOKIMIYATINING TASHKIL ETILISHI**

- XVIII **bob.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis (76-88 modda)

**XIX bob.** O'zbekiston Respublikasining Prezidenti (89-97 modda)

**XX bob.** Vazirlar Mahkamasi (98-modda)

**XXI bob.** Mahalliy davlat hokimiyati asoslari (99-105 modda)

**XXII bob.** O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati (106-116 modda)

**XXIII bob.** Saylov tizimi (117-modda)

**XXIV bob.** Prokuratura (118-121 modda)

**XXV bob.** Moliya va kredit (122-124 modda)

**XXVI bob.** Mudofaa va xavfsizlik (125-126 modda)

#### **Oltinchi bo'lim**

#### **KONSTITUTSIYAGA O'ZGARTIRISH KIRITISH TARTIBI.** (127-128 modda)

Har qanday jamiyatda ijtimoiy munosabatlar rivojlanib borishi natijasida davlat va jamiyat hayotida muhim o'zgarishlar qilish zaruriyati vujudga keladi. Konstitutsiyamizning 127-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan qonun yoki O'zbekiston Respublikasining referendumi orqali o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritiladi.

Islohotlarimizning huquqiy asosi bo'lgan asosiy qonunimizga quyidagi yillarda o'zgartirishlar kiritildi:

1.1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitusyaning 77-moddasi 1-qismidagi "150 nafar deputatdan" degan so'zlar "deputatlardan" degan so'z bilan almashtirildi;

2.2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumi natijalari hamda uning asosida 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan Qonuniga muvofiq, Konstitusyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan;

3.2007-yil 11-apreldagi Qonun bilan Konstitusyaning 89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritilgan;

4.2008-yil 25-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitusyaning 77-moddasi birinchi qismiga o'zgartish kiritilgan;

5.2011-yil 18-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitusiyasining 78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan;

6.2011-yil 12-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitusyaning 90-moddasi ikkinchi qismiga tuzatish kiritilgan;

7.2014-yil 16-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitusyaning 32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan;

8.2017-yil 6-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitusyaning 80, 81, 83, 93, 107, 110 va 111-moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan;

9.2017-yil 31-mayda qabul qilingan Qonun bilan Konstitusyaning 80, 93, 108, va 109-moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan;

10.2017-yil 29-avgustda qabul qilingan Qonun bilan Konstitusyaning 99 va 102-moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan;

11.2018-yil 15-oktabrda qabul qilingan Qonun bilan 105-moddaning birinchi qismidagi “ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini” degan so‘zlar “raismi (oqsoqolni)” degan so‘zlar bilan almashtirilgan;

12.2019-yil 18-fevralda qabul qilingan Qonun bilan 80 va 93-moddalariga o‘zgartirish kintilib, Milliy xavfsizlik xizmati Davlat xavfsizlik xizmati deb yuritila boshlandi;

13.2019-yil 5-martda qabul qilingan Qonunga asosan 79, 93 va 98-moddalarga o‘zgartirishlar kiritilgan;

14.2019-yil 4-sentabrda qabul qilingan Qonunga asosan saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan 96 va 117-moddalarga o‘zgartirishlar kiritildi;

15.2021-yil 8-fevralda qabul qilingan Qonunlar bilan 117-moddaga saylovlami oktabr oyida o‘tkazishga oid, shuningdek, 7, 33, 85, 86, 93, 98, 100-moddalarga qonunchilik hujjatlari tushunchasi bilan bog‘liq, 107-moddaga sud tizimi islohotlari bilan bog‘liq o‘zgartirishlar.

Konstitutsiyamizning eng muhim mohiyati shundan iboratki, unda fuqarolar manfaatining ustunligi qonuniy ravishda mustahkamlangan va kafolatlangan, inson huquqlari, uning kamoloti uchun zarur bo‘lgan shaxsiy daxlsizlik, siyosiy erkinlik, ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarga erishish uchun umid qilgan va intilgan umuminsoniy g‘oyalari yo‘lida erishilgan qoidalarni o‘ziga singdirgan.

Mustaqil davlatimiz Konstitutsiyasi asosida respublikamizda demokratik huquqiy jamiyat asoslari faol rivojlanmoqda. Avvalgi partiyaviy yakkahokimlik tizimining illatlari qat’ian tugatilib, ko‘ppartiyaviylik, g‘oyalari va fikrlar xilmashilligiga yo‘l ochildi. Yagona mafkuraning yakkahokimligiga barham berildi. Umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi, chinakam demokratiya, inson erkinliklari va huquqlarining butun dunyo tan olgan meyor va qoidalari tobora mustahkam qaror topmoqda.

### **3.Mustaqil taraqqiyotning dastlabki davridagi muammolar, taraqqiyotning “O‘zbek modeli” va uning o‘ziga xos xususiyatlari.**

Istiqlolning dastlabki yillarida milliy taraqqiyot yo‘limizning belgilab olinishi va hayotga joriy etilishi borasida ham mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tishga to‘g‘ri keldi. Fikrlar va g‘oyalar qarama-qarshiligi jadal kechgan 1992-1993-yillarda barchani biday qanoatlaniradigan va eng to‘g‘ri yo‘lni tanlash O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning davlat va millat rahnamosi sifatidagi tarixiy xizmatlari bilan bog‘liq bo‘ldi. Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning “Beshta tamoili” jamiyat va davlat qurilishi, ijtimoiy-ma’naviy islohotlar dasturi sifatida tarixan qisqa yillar ichida o‘zining ijobiy samaralarini ko‘rsatdiki, bu jahon jamoatchiligi tomonidan taraqqiyotning “O‘zbek modeli” sifatida e’tirof etilishiga asos bo‘ldi.

Islom Karimov respublikaning birinchi rahbarligiga saylanganidanoq Markaz bilan o‘ziga xos, ya ni teng munosabatga kirishdi. Ochiqroq aytganda, uning qat’iyatliligi, u yoki bu tomoniga og‘masdan o‘z mustaqil fikriga egaligi va o‘z yo‘liga sobitligi “ulug‘ og‘a” larga yoqmadni. “Millat manfaatiga ko‘proq yon bosgani, respublika ichki hayotidagi vaziyatga chuqurroq kirib borgani sayin KPSS Markaziy Komiteti Siyosiy Byurosida ham, SSSR Oliy Kengashi va Ittifoq idoralarida ham

unga nisbatan munosabat keskinlasha boshladi. Ayniqsa, yurtimizni abgor qilib, Markazga “qochib” borgan bir guruh “sobiqlar” bunday “qulay” fursatdan foydalanib qolish uchun turli-tuman hiylayu nayranglarni ishga solishdi. Qator markaziy nashrlarda O’zbekiston va uning rahbariyatiga nisbatan ig‘vogarliklar uyuştiirildi. Bunday og‘ir, ziddiyatli bir sharoitda ishslash respublika rahbaridan alohida asab, nihoyatda vazminlik, po‘latdek mustahkam iroda talab etardi”<sup>1</sup>.

Alohida ta’kidlash joizki, mustaqillik yo‘li – haqiqat va ezzulik yo‘li, inson haquqlari tengligi yo‘li, ma’naviy barkamollik va yuksak madaniyat yo‘li, bir so‘z bilan aytganda, boy insoniy fazilatlar majmui. Shuning uchun ham 1989-1991 yillarda Islom Karimov o‘z tanlagan yo‘lining to‘g‘riligiga qat’iy ishondi va millionlab yurtdoshlarimizni bunga ishontira oldi. Mustaqillikning ikkinchi yilda “Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik” degan mavzuda O’zbekiston Respublikasi Olyi Kengashining 12-sessiyasida (1993-yil 6-may) quyidagi purma’no fikrlarini muhurladi: “...Bizni tanlagan yo‘limizdan hech kim, hech qachon qaytara olmaydi. Zotan, Vatanga bo‘lgan mchru muhabbat har qanday muanmoni yechishga qodirdir. Endi ortga yo‘l yo‘q. O’zbekiston istiqbolini sobitqadamlik bilan barpo etmog‘imiz zarur. Bu yo‘lda ikkilanmoq, manfaatparastlikning mayda-chuyda tashvishlariga o‘ralashmoq – Vatanga, xalqqa, kelajak avlodga xiyonat bo‘ladi! Istiqboldagi O’zbekiston Vatan ozodligi nasib etmagan bobolarimizga ulug‘vor haykal bo‘lajak! O’zbekistonning shuhratiga shuhrat qo‘suvchi farzandlarimizga muqaddas beshik bo‘lajak”<sup>2</sup>.

Har bir jamiyat o‘zining yuksak taraqqiyotiga erishishi uchun mustaqil bo‘lishi hamda milliy davlatchilikning haqiqiy demokratik jarayonlarini vujudga keltirishi zarur. Bu jarayonlar mamlakatimizda istiqlol yillari amalga oshirilib, umume’tirof etilgan demokratik normalar va milliy manfaatlarimizga mos keluvchi demokratik huquqiy milliy davlat barpo etildi.

Milliy davlatchiligidizning demokratik prinsiplari O’zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi va amalga oshirildi. I.Karimovning ta’kidlashicha, “Istiqlol biz uchun taraqqiyotning butunlay yangi, keng ufqlarini ochdi. O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan yaratadigan bo‘ldik. Hayotimiz va umumiyy xonadonimizni milliy manfaat va qadriyatlarimizni umume’tirof etilgan demokratik mezonlarga monand qilib qurishdek noyob tarixiy imkoniyatga ega bo‘ldik”, degan purma’no fikrlari milliy davlatchilikning rivojlanish muammolarini belgilaydi.

Shuni alohida e’tirof etish lozimki, insoniyat tarixiga nazar solsak, demokratik jarayonlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan, milliy davlatlamining ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy-siyosiy-huquqiy taraqqiyoti asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan. Har bir xalq demokratiyanı o‘z mentaliteti, o‘z ko‘nikmaları, qadriyatlariga munosib tarzda u yoki bu darajada hayotga joriy qiladi. Umuminsoniy mohiyat va mazmunga ega bo‘lgan tamoyillar har bir davlatning taraqqiyot darajasi, boshqaruv tizimi, siyosiy muhit, xalq ommasi ijtimoiy ongingin faolligi bilan bog‘liq holda joriy qilinadi. Xuddi shu va boshqa ijtimoiy rivojlanish sur’atlarini belgilovchi

<sup>1</sup> Jo‘rayev N. Agar ogoh sen... – T.: Yozuvchi, 1997. 34-b.

<sup>2</sup> Karimov I.A. O’zbekiston: milliy istiqlol. iqtisod. siyosat. maslaka. -T.: O’zbekiston. 1993. 182-b.

omillar ta'sirida davlatning demokratik jarayonlarini joriy qilish sur'atlari jadallahshadi yoki sustlashadi. Demak, demokratiyanı yuqorida majburan joriy etish mumkin emas.

Demokratiya - xalq ijodi, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi natijasida qo'lga kiritiladigan boshqaruv tizimi. Demokratiya doimo xalq ommasining pok va halol harakati, o'z huquqlari, ehtiyojlarini qondirish uchun olib borgan mashaqqatli kurashlari, faol mehnati natijasida qo'lga kiritilgan. Islom Karimov har doim, milliy davlatlarda demokratik tamoyillarni hayotga joriy qilish turli yo'llar vositasida amalga oshirilishi, lekin uning asosiy talabi va omili doimo shaxsnинг huquq va erkinliklari, shu jumladan, erkin fikrlash hamda mulohazalarini bemalol erkin bayon qilish huquqini ta'minlash bo'lib, har qanday davlatning demokratik jarayonlarini amalga oshirishda ma'lum muddat talab qiluvchi holatdir, deb ta'kidlaydi. Avvalambor, demokratianing huquqiy asoslari barpo qilinishi shart. Ushbu jarayonlarni sun'iy ravishda jilovlab turish yoki sur'atlarini jadallashtirish ijobji natijalarga olib kelmaydi.

Hozirgi paytda huquqiy demokratiya yo'llini tanlab jadal sur'atlarda rivojlanayotgan milliy davlatimiz uchun insoniyat tarixining turli davrlarida demokratik davlatlarning shakllanishi va amaliyotini tahlil qilishi, qiyosiy o'rghanishi muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, dunyo davlatlari demokratiyaga ma'naviy-ma'rifiylashgan jamiyatga xos tamoyillar bilan munosabatda bo'lishlari va baholash madaniyatini egallab olishlari, hatto ba'zi manfaatlardan voz kechishi ham mumkin. Masalan, hayot kechirish G'arb turmush tarziga mos bo'lsa va uni targ'ib etsa, ya'ni demokratik qarashlar bizning mentalitetimizga to'g'ri kelmasa, qarash bir tomonlama yondashuv hisoblanib, o'zini qadrlagan, hurmat qilgan xalq uchun xavfli hamda tahdidli bir holatdir. Turli xalqlar, turli madaniyatlar, manfaatlarning yonma-yon yashashi, yashay olishi faqat haqiqiy milliy demokratik sharoitdagina amalga oshadi. Buni biz istiqbolli milliy davlatimiz miqyosida ko'rib turibmiz!

Bugungi dunyo davlatlari demokratik jarayonlarni kafolatlovchi omillarga ega. O'zbekiston ham undan chetda emas. Shu o'rinda haqiqiy demokratianing soxta demokratiyadan farqini anglash bilan bog'liq fuqarolik madaniyatiga ega bo'lish; demokratiya niqbobi ostidagi "demokratik o'yinlar"ning, qarashlarning, chiqishlarning orqasidan ergashmaslik; taqlid qilish yoki qilmaslikning qaysi milliy manfaatga to'g'ri kelishi yoki kelmasligini solishtirib ko'rishga yetadigan uyg'oq ong va tafakkurga ega bo'lish; aholining asosiy qismi demokratiyaga tayyor bo'lishi, unga befarq bo'imasligi, demokratik ong va madaniy saviyada dunyo va milliy taraqqiyot talablaridan orqada qolmasligi kerak.

To'g'ri va haqiqiy bunyodkorlik g'oyasini faqat milliy davlatning demokratik qarashlari orqali amalga oshirish mumkin! Hozirgi davrda jahon davlatlari erishayotgan yutuqlardan orqada qolmaslik, yangi texnologiyalarni egallab, uni ishlab chiqarishga joriy etish uchun izlanish, yangi-yangi ixtiolar qilishga qodir bo'lish, mustaqillikni mustahkamlash va uni rivojlantirish milliy davlatimizning muhim yo'nalishlarini tashkil etadi. O'zligini anglagan xalq mustaqillikka, o'z taqdiriga, farzandlarining kelajagiga istiqbol ko'zi bilan qaraydi! Jahonda o'ziga xos o'ringa va

nufuzga ega bo'layotgan O'zbekiston davlati ana shunday milliy demokratik yo'ldan bormoqda,- deb ta'kidlagan edi Islom Karimov.

Yigirmanchi astr jahon sivilizatsiyasida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan katta iz goldirdi. Jahon urushlari, fan-texnika taraqqiyoti, turmush tarzida muayyan darajada farovonlik va hokazolami aytish mumkin. Lekin mammuniyat bilan qayd qilish kerak, XX asming so'nggi o'n yilligi O'zbekiston milliy davlatchiligi uchun ulkan tarixiy-inqilobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu o'n yillik mamlakatimizda mustaqillikni ham iqtisodiy, ham siyosiy-ijtimoiy, ham huquqiy-ma'naviy, ham xalqaro munosabatlarda tikladi, takomillashtirdi.

Mustaqillikning birinchi o'n yilda o'zbek o'zligini tanidi, jahondagi nufuzli millatlardan biriga aylandi. Muhibi istiqlol masifikurasi shakllandi, millatimiz, xalqimiz o'z g'oyasi va imyon-e'tiqodiga qaytdi. Ajqdodlarimizning boy merosi tiklandi va tiklanmoqda. Biz ularning vorislari sifatida dunyo ma'naviy-ilmiy jamoatchiligi oldida qarzdormiz. Chunonchi, Muhammad al-Xorazmiy, Muhammad az-Zamaxshariy, al-Hakim, at-Termiziyy, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Axror Valiy va boshqa o'nlab alloma-avliyolarning teran ilmiy xulosalari va amallarini uchinchi ming yillikda va hamisha jahon ahliga yetkazib, osoyishta va farovon, tinch-totuv yashashimizga katta va munosib hissa qo'shmag'imiz kerak.

Albatta, har qanday milliy davlat iqtisodiyotining asosini energetika va tabiiy boylik zahiralari tashkil etadi. Shuning uchun ham jahondagi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar to'qnashayotgan hozirgi energetika yetishmovchiligi sharoitida O'zbekistonning muhim ustunligi mamlakat iqtisodiyotining ushbu yo'nalishda dunyodagi juda kam sonli davlatlar singari I.Karimovning qaf'iy say-harakatlari bilan to'la mustaqillikka erishganligidadir. Ba'zi davlatlar esa uzoqni ko'zlamay, faqat joriy yilga mo'ljallangan byudjetni hisoblab chiqib, eng kam jahon sarmoyasi bahosiga o'tishmoqda. Bu esa inqirozni bartaraf qilishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston o'zining qo'shimcha tarzda gaz, neft, ko'mir va uran zahiralariga ega bo'lib, ularni sof holda eksport qilish bo'yicha jahonning o'nta davlati safiga kiradi. Mamlakatning umumiy energetika zahiralari yana kamida 100 yil davomida iqtisodiyot ehtiyojlarini qondirish uchun yetadi. Buning o'ziyoq milliy davlatimizning boy imkoniyatlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, davlat va milliy davlatchilik muammosi, uning hozirgi globallashuv davridagi rivojlanish davom etmoqda. Prezident Islom Karimov asos solgan milliy davlatchiligidan bundan keyin ham uzoqni ko'zlagan dastur asosida ravnaq topaveradi.

#### **Mavzuning asosiy tushunchalari:**

**DAVLAT GERBI** – davlatning rasmiy emblemasi bo'lgan farqlovchi belgisi. Bayroq, pul belgilari, muhrlar va ba'zi bir rasmiy hujjalarda aks ettililadi. Davlat gerbining mazmuni konstitutsiya yoki maxsus qonun bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan, Davlat gerbi Oliy Kengashning 1992-yil

2-iyul kuni bo'lgan X sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida"gi qonunni qabul qilish bilan tasdiqlangan.

**DAVLAT MADHIYASI, GIMN** – (yunoncha hymnos – xudolar va qahramonlar madhiga bag'ishlangan qo'shiq) – tantanavor qo'shiq, madhiY. Davlatning ramzlaridan biri. Yunonistonda dastlab, afsonaviy xalq qahramonlari, xudolar sha'niga maqtovlar (hamdlar) tarzida vujudga kelgan. Keyinchalik shaxslar, hukmdorlar, davlatlar, voqe va hodisalarga bag'ishlangan gimnlar paydo bo'lgan.

**DAVLAT MUSTAQILLIGI RAMZLARI** – davlatning timsollari, uning suverenitetini, milliy va iqtisodiy ko'rsatkichlarini, siyosiy-ijtimoiy tuzumini, asosiy mafkura va hayot qoidalarini ko'rsatuvchi belgilari, eng muhim xujjatlar, g'oyalar va tushunchalar.

Davlat ramizi – bu mustaqil davlat belgisidir. U davlat bayrog'i, davlat gerbi, davlat gimni, mamlakat milliy valyutasi va mamlakat konstitutsiyasida o'z ifodasini topadi.

**KONSTITUTSIYA** – davlatning xalq irodasini ifodalovchi, davlat tuzilishi va boshqaruva shakli asoslarini mustahkamlovchi, hokimiyat idoralari faoliyatining tashkil etilish tartibi va prinsiplarini belgilovchi asosiy qonun.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda, Oliy Kengashning XII chaqiriq 11-sessiyasida qabul qilingan.

**MILLIY VALYUTA** – mamlakatimiz hududida barcha tovar va xizmatlar uchun narxlarini ifodalash vazifasini o'tovchi va qonuniy himoyalangan yagona to'lov vositasi.

1994-yil 1-iyuldan boshlab, O'zbekiston hududida yagona to'lov vositasi sifatida "so'm" muomalaga kiritildi.

**REFORMA** (fransuzcha reforme – qayta qurmoq, tubdan o'zgartirish) – ijtimoiy-siyosiy hayotni yaxshilash maqsadida analga oshirilgan tub islohot – qayta qurishlar.

#### **Mavzuga oid muhim sanalar:**

|                   |  |
|-------------------|--|
| 1990-yil 20-iyun  | O'zbekiston Oliy Kengashining XII-chaqiriq 2-sessiyasida Respublika Prezidenti I.A.Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash komissiyasi tuzildi. Komissiya tarkibiga davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining taniqli arboblari, xalq deputatlari va fan vakillari kiritildi. Bu komissiya 2,5-yil ishladi. |
| 1991-1993-yillar  | O'zbekiston sobiq Ittifoqdan meros qolgan <b>rubl</b> zonasida bo'lib turdi.   |
| 1991-yil 12-aprel | Konstitutsiya loyihasini tayyorlash komissiyasi yig'ilishida 32 kishilik ishchi guruh tuzildi. Konstitutsiya bo'limlarini tayyorlash bo'yicha 50 kishidan iborat 6 ta kichik guruh tuzildi.  |
| 1991-yil oktabr   | O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining 158-moddadan iborat birinchi varianti tayyor bo'ldi.   |
| 1991-yil          | O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII-chaqiriq 8-   |

|                      |  |
|----------------------|--|
| 18-21-noyabr         | sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda "Prezident saylovi to'g'risida"gi, "Referendum to'g'risida"gi, "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risida"gi, "Nogironlami ijtimoiy muhofazalash to'g'risida"gi va "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilindi.                     |
| 1991-yil 18-noyabr   | O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII-chaqiriq 8-sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunga 1992, 1999, 2004 va 2010-yillarda qator qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi.  |
| 1992-yil 2-3-iyul    | O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII-chaqiriq 10-sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda: "O'zbekiston fuqaroligi to'g'risida"gi, "Mudofaa to'g'risida"gi, "Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi, "Muqobil xizmat to'g'risida"gi, "Ta'lif to'g'risidagi to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilindi.         |
| 1992-yil 2-iyul      | O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi XII-chaqiriq 10-sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Unga 1999-yil 15-aprelda, 2003-yil 25-aprelda, 2004-yil 3-dekabrda va 2010-yil 24-dekabrda qabul qilingan Qonunlarga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. |
| 1992-yil 26-sentabr  | 127 moddadan iborat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi.   |
| 1992-yil 26-noyabr   | O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining loyihasi ikkinchi marotaba matbuotda e'lon qilindi.   |
| 1992-yil 8-10-dekabr | O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII-chaqiriq 11-sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda: "Prokuratura to'g'risida"gi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilindi.   |
| 1992-yil 8-dekabr    | O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII-chaqiriq 11-sessiyasida <b>O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi.</b>  |
| 1992-yil 10-dekabr   | O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII-chaqiriq 11-sessiyasida <b>O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi tasdiqlandi.</b>   |
| 1993-yil 1-noyabr    | O'zbekistonda so'm-kupon muomalaga kiritildi.  |
| 1994-yil 16-iyun     | "O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida"gi Prezident farmoni e'lon qilindi.  |
| 1994-yil 1-iyul      | O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'm muomalaga kiritildi.  |

**S-MAVZU: O'ZBEKISTONDA HUQUQIY SIYOSIY  
ISLOHOTLARNING AMALGA OSHIRILISHI,  
DEMOKRATIK JAMIYATNI SHAKLLANTIRISH  
YO'LIDAGI ISLOHOTLAR**

Reja:

1. O'zbekistonda siyosiy islohotlar. Milliy davlat boshqaruv tizimining yaratilishi.
2. Sud hokimiyati islohotlari.
3. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashkil etilishi.
4. Ko'ppartiyaviylik tizimi. Jamiatning demokratlashuvida siyosiy partiylar, nodavlat va jamoat tashkilotlarining roli.
5. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinlashtirilishi va rivojlantirish istiqbollari.
6. Inson huquqlari, erkinliklari kafolatlarining va demokratik saylov tizimining yaratilishi.

**Tayanch tushunchalar:** *Prezident, Vazirlar Mahkamasi, Parlament, Oliy Majlis, Senat, Siyosiy plyuralizm, Ombudsman, Demokratiya, Senzura, Huquqiy davlat, Fuqarolik jamiyati, Siyosiy partiylar, Jamoat birlashmalari, Nodavlat tashkilotlari.*

**1. O'zbekistonda siyosiy islohotlar. Milliy davlat boshqaruv tizimining yaratilishi.**

1989-1990-yillar boshida kechgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, nafaqat Sovet ittifoqi, balki, milliy respublikalarda ham davlat boshqaruv tizimini isloh qilish lozimligini kun tartibiga qo'ygan edi. 1990-yil 14-martda Sobiq Ittifoqda Prezidentlik lavozimi joriy etilib M.S.Gorbachev ushbu lavozimga tayinlangan birinchi va oxirgi shaxs bo'lgan edi. Oradan o'n kun o'tgach, 24-may sanasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1-sessiyasida ittifoqdosh respublikalar ichida birinchi bo'lib O'zbekistonda ham Prezidentlik lavozimi ta'sis etildi. Rivojlanish tarixi XVIII asr oxirlariga borib taqaluvchi Prezidentlik boshqaruvining O'zbekistonda ham joriy etilishi tarixiy zaruriyat edi. Chunki, parokandalik va boshboshoqlikka yuz tutgan sovet boshqaruv tizimi sharoitida respublikada boshqaruv tizimini izga solish kechiktirib bo'lmaydigan masalaga aylangan edi.

O'zbekistonda bosqichma-bosqich prezidentlik boshqaruv tizimining huquqiy-meyoriy asoslari yaratildi. Jumladan, 1991-yil 18-noyabrda "Prezidentlik saylovi to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, ushbu qonun asosida 1991-yil 29-dekabrda O'zbekiston tarixida birinchi marotaba muqobillik asosida prezidentlik saylovlari o'tkazildi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyamizning XIX-bobi Prezidentlik institutining huquqiy maqomiga bag'ishlangan bo'lib, unda O'zbekistonda oxirgi o'n yil muqim yashagan, o'zbek tilini mukammal biladigan, 35 yoshdan kichik bo'limgan O'zbekiston fuqarolari 5 yil muddatga O'zbekiston

Respublikasi Prezidentligiga o'z nomzodlarini ko'rsatishlari mumkinligi belgilab qo'yildi. 1995-yil 26-martda jamoatchilik tashabbusi bilan Prezidentning vakolat muddatini 1997-yildan 2000-yilgacha cho'zish bo'yicha umumxalq referendumi o'tkazildi. Ovoz berishda qatnashganlarning 99,6 % mazkur savolga o'z roziliklarini bildirishdi. 2000-yil 9-yanvar sanasida navbatdagi ikkinchi Prezidentlik saylovları o'tkazildi va unda I.A.Karimov xalq ishonchi asosida 7 yil muddatga O'zbekiston Prezidenti etib saylandi. 2007-yil 23-dekabrda navbatdagi uchinchi Prezidentlik saylovları o'tkazildi va I.A.Karimov 2015-yilgacha Prezidentlikka sayandi. 2011-yil 12-dekabrda Konstitutsiyamizga o'zgartirish kiritilib, yangi qabul qilingan qonunga ko'ra Prezident vakolati muddati 7 yildan 5 yilga o'zgartirildi. 2015-yil 29-martda bo'lib o'tgan Prezidentlik saylovlarida I.A.Karimov yangi qabul qilingan qonun asosida 5 yil muddatga O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi. 2016-yil 2-sentabrdan O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning bevaqt vafot etishi tufayli 2016-yil 4-dekabrda navbatdagi beshinchi Prezidentlik saylovları o'tkazilib, unda SH.M.Mirziyoyev 5 yil muddatga O'zbekiston Respublikasining ikkinchi Prezidenti etib saylandi.

O'tgan davr mobaynida Prezidentlik boshqaruv tizimida ham qator islohotlar amalga oshirildi. Konstitutsiyamizda belgilangan Prezidentlik vakolatlari bosqichma bosqich Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatiga hamda Bosh vazirga o'tkazildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki o'tish davrida Prezident vakolatlari nisbatan kengroq bo'lsa bugungi davlat boshqaruv sohasidagi islohotlar konsepsiyasiga ko'ra ijro hokimiyyati tizimidagi tuzulmalarning konstitutsiyaviy vakolatlari kengatirib borildi.

Istiqlol yillarda Parlament islohotlari ham davlat boshqaruv sohasidagi muhim islohotlardan biri bo'ldi. Ma'lumki, 1925-yilda O'zbekiston SSR tashkil etilgach, uning qonun chiqaruvchi organi Oliy Sovet deb nomlangan edi. 1989-yilda o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi tufayli 1990-yil fevralda saylangan parlamentimiz Oliy Kengash deb nomlanib, 1990-1994-yillarda shu nom bilan faoliyat yuritdi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyamizning XVIII-bobi Oliy Majlis deb nomlandi va 1994-yil dekabrda Oliy Majlisga saylovlar o'tkazildi. 1995-2005-yillarda 250 nafar deputatdan iborat milliy parlamentimiz bir palatali tizimda faoliyat olib bordi. 2002-yil 27-yanvarda O'zbekistonda ikki palatali parlament tizimiga o'tish bo'yicha umumxalq referendumi o'tkazildi. Referendumda xalqimiz ikki palatali parlament tizimiga o'tishni qo'llab ovoz berdi. 2004-yil dekabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylovlar bo'lib o'tdi. 2005-yil 27-yanvardan 150 deputatdan iborat Qonunchilik palatasi va 100 ta senatordan iborat Oliy Majlis Senati o'z faoliyatini boshladi. Shu tariqa O'zbekistonda professional Parlament tizimiga o'tildi.

Hokimiyyatning ikkinchi bo'g'ini bo'lmish Ijro etuvchi hokimiyat – Vazirlar Mahkamasining tashkil etilishi ham istiqlolning dastlabki yillaridan boshlangan edi. Ma'lumki, 1925-1990-yillarda O'zbekiston SSRda iroiya hokimiyyat tuzulmasi dastlab Xalq Komissarlari Soveti, keyinchalik Ministrlar Soveti deb yuritib kelgingan edi. 1990-yil 1-noyabrdan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida iroiya va boshqaruv hokimiyyatining tuzilishini takomillashtirish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi

Qonuni qabul qilindi. Unga ko'ra, Prezidentlik hokimiyati bilan Ministrlar Sovetining ijroiya-boshqaruv hokimiyati qo'shib yuborildi. O'zbekiston Respublikasi Ministrlar Soveti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi.

Konstitutsiyamizning XIX-bobi Vazirlar Mahkamasini deb nomlanib ushbu bobda uning vakolatlari belgilab berilgan.

Vazirlar Mahkamasini iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni ta'minlaydi. Vazirlar Mahkamasini davlat boshqaruv idoralari tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvni muassasalariga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan faoliyat ko'rsatishini, hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlarning ijrosini ta'minlaydi.

2005-yilda Vazirlar Mahkamasini rahbari – Bosh vazir lavozimi joriy etildi. 2007-yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mamlakat Prezidenti bir vaqtning o'zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i, ya'ni Vazirlar Mahkamasining raisi ekanini belgilaydigan norma chiqarib tashlandi. Vazirlar Mahkamasining raisi lavozimi tugatildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasida eng ko'p deputatlik o'miga ega bo'lgan siyosiy partiyaning rahbari Bosh vazir lavozimini egallashi qonunchilik asosida belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasini faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi. Mustaqillik yillarda Vazirlar Mahkamasini tarkibi parlament saylovlari o'tkazilgach (har 5 yilda bir marta) yangidan tasdiqlanadi. 1993-yil 6-mayda qabul qilingan, 1993-yil 29-avgustda yangi tahrirda joriy etilgan "Vazirlar Mahkamasini to'g'risida"gi Qonunga ko'ra Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi 1995-yil 23-fevral, 2000-yil 11-fevral, 2005-yil 4-fevral, 2010-yil 12-mart va oxirgi marta 2016-yil 14-dekabrda shakkllantirildi.

Bugungi kunda Vazirlar Mahkamasini Bosh vazir, Bosh vazirning 6 ta o'rinnbosari, vazirlar, Davlat qo'mitalarining raislari, Davlat inspeksiyalari va Agentliklardan iborat tarkibda faoliyat yuritmoqda.

## 2. Sud hokimiyati islohotlari.

Konstitutsiyamizning 11-moddasida O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi belgilab berilgan. Sudlarning alohida hokimiyat sifatida belgilanishidan maqsad O'zbekiston Respublikasida shaxs huquqi va erkinliklarining xolis organ sifatida faqat sud orqali ta'minlanishiga erishish va sudni avvalgi jazolovchi organdan shaxs huquq va erkinliklarini to'laqonli himoya qila oladigan organga aylantirishdir.

Asosiy qomusimizning XXII-bobi Sud hokimiyati deb nomlanib, 106-116-moddalarda sud hokimiyatining konstitutsiyaviy normalari belgilab qo'yildi. 1993-yilda "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

Sud islohotlarining ikkinchi davri asosiy xususiyati Prezident SH.Mirziyoyevning 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni asosida amalga oshirilmoqda.

Mazkur farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ish yurituvi sohasidagi sud hokimiyatining yagona oliy organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay'ati, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy sudlar shtat birliflari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tizimiga o'tkazildi.

### **3. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashkil etilishi.**

Istiqlol yillarda mahalliy davlat hokimiyati tizimida ham tub islohotlar amalga oshirildi. Konstitutsiyamizning XXI bobi "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari" deb nomlanib, uning 99-105-moddalarida mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy maqomi belgilab berilgan.

1993-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi, 1994-yil 5-mayda "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylovlar to'g'risida"gi Qonunlari qabul qilindi.

Asosiy qonunimizning 99-moddasida viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'y sunadigan shaharlardan tashqari) hokimlar boschchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar, deb belgilab qo'yildi.

Konstitutsiyada mahalliy hokimiyatning ikki mustaqil organga – vakillik va ijro hokimiyat organlariga bo'linishi belgilandi.

"Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonunga ko'ra vakillik organlariga 21 yoshga to'lgan fuqarolar saylanadi. Saylovlar ko'ppartiyaviylik, muqobililik asosida o'tadi. Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga 60 tadan ko'p bo'limgan, tuman va shahar Kengashlariga esa 30 tadan ko'p bo'limgan deputatlar 5 yil muddatga saylanadi.

Mustaqillik yillarda 1994-yildan e'tiboran har 5 yilda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga ko'ppartiyaviylik, muqobililik asosida saylovlar o'tkazib kelinmoqda. 2019-yil 22-dekabrda navbatdagi Xalq deputatlari tuman, viloyat va shahar Kengashlari deputatligiga saylovlar bo'lib o'tdi.

1992-yil 4-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunga muvofiq respublikamizning hamma hududida mahalliy ijro hokimiyati organi sifatida **hokim** lavozimi ta'sis etildi. Toshkent shahrida va 12 ta viloyatda, 159 ta qishloq tumani va 18 ta shahar tumanida hamda 120 ta shaharda hokimlar tayinlandi.

Hokimning vakolat muddati 5 yil bo'lib, u tegishli hudduda vakillik organiga ham, ijro hokimiyatiga ham boschchilik qiladigan mansabdar shaxs qilib belgilandi.

Viloyat hokimlari O'zbekiston Prezidenti tomonidan, tuman va shahar hokimlari viloyat hokimi tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda bu masalalar tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Shahar tarkibidagi tumanlarda va tumanga bo'y sunuvchi shaharlarda ham hokimiyatlar tashkil etildi. Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Prezidentining shu joylardagi vakili hisoblanadi. Toshkent shahar tumanlari hokimlari esa Toshkent shahar hokimining vakillari hisoblanadi.

Mahalliy hokimiyat organlari vakolatiga kirdigan masalalar va vazifalar Konstitutsiyamizning 100-101-moddalarida aniq belgilab qo'yilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;
- mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implami belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshirish;
- xalq deputatlari quyisi Kengashlari faoliyatiga rahbarlik qilish, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashish.

Hokim mahalliy ahamiyatga molik barcha masalalarni fuqarolarning manfaatiga mos ravishda hal qilish bilan shug'ullanadi. Shu maqsadda barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qildi. Hokimlar o'zlarini rahbarlik qilayotgan organlarning qarorlari va faoliyati uchun shaxsan javobgardir.

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot tarixi guvohlik beradiki, ayrim hokimlar o'z faoliyatida jiddiy xatolarga yo'l qo'yamoqdalar. O'zlariga yuklatilgan mas'uliyatli vazifalarni bajarishni uddalay olmagan, o'z lavozimini suiiste mol qiluvchi hokimlar ham uchrab turadi. Bunday hollarda ular vakolat muddatidan oldin hokimlik lavozimidan chetlashtirilmoqda.

Mahalliy davlat hokimiyati organliri faoliyatini takomillashtirishda 2017-yil 7-iyunda qabul qilingan "Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-5075) hamda "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-3042) muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga o'qib eshittirgan Murojaatnomasida Mahalliy davlat hokimiyati tizimini o'zgartirish borasida amalga oshirilgan islohotlarga to'xtalib, mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas'uliyatini qayta ko'rib chiqish, ularning mustaqilligini yanada oshirish lozimligini qayd qilarkan, hududlarni rivojlantirishga oid masalalarni hal etishda aksariyat hokimlarda mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, mustaqil qaror qabul qilish va tashabbuskorlik yetishmayotganligiga e'tibor qaratdi.

2018-yilda Toshkent shahrida eksperiment tariqasida davlat boshqaruvining yangi tartibi joriy etilib, shahar hokimi va tuman hokimlariga moliya, iqtisodiyot, investitsiya, qurilish, uy-joy va kommunal xizmat sohalari rahbarlarini tayinlash

vakolati berildi. 30 dan ortiq komissiya va kengashlar tugatilib, ularning vakolatlari tegishli hududiy organlarga berildi. Samarasiz ishlayotgan 12 ta davlat unitar korxonasi tugatildi.

Davlat byudjetiga tushadigan mablag'larining bir qismini mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldirish tartibi o'rnatilgani tufayli Toshkentda soliq tushumi prognozga nisbatan 2 trillion so'mga ko'paydi.

Davlat boshqaruvi sohasida ijobji natija berayotgan ana shu eksperiment boshqa hududlarda ham joriy etila boshlandi.

Prezidentimiz ushbu Murojaatnomada shuningdek, kelgusida hokimning ayni vaqtida Xalq deputatlari kengashi raisi sifatida faoliyat ko'rsatishiga doir tartib bekor qilinishi, mahalliy davlat hokimiyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi tuman, shahar va viloyat hokimlarini bevosita xalq tomonidan saylash tizimiga o'tish lozimligini ta'kidladi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda xalq bilan muloqotning yangi tizimi yo'lga qo'yildi. Prezidentimizning 2020-yil 24-yanvarda Parlamentga Murojaatida aytilganidek, Virtual va Xalq qabulxonalariga yiliga 1 milliondan ziyod murojaat kelib tushayotgani xalq bilan muloqotni yangi bosqichga olib chiqishni talab etadi.

2020-yildan boshlab davlat idoralari rahbarlari va hokimlarning ushbu murojaatlarni qay darajada hal etayotgani bo'yicha hisobotini parlament va xalq deputatlari kengashlarida muntazam eshitish tizimi yo'lga qo'yildi.

Prezidentimizning qayd qilishicha amaldagi qonun hujjatlarida hokimliklarning 300 ga yaqin vazifa va funksiyalari nazarda tutilgan. Shundan 175 tasi, mazmun-mohiyatiga ko'ra, hokimlarning asosiy vazifalari toifasiga kirmaydi va turli idoralaming funksiyalarini takrorlaydi. Bu esa, ish sifati va ijro intizomiga salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy.

Shu sababli hozirda hokimlarning vakolatlarini qayta ko'rib chiqish va ularga xos bo'limgan hamda bir-birini takrorlaydigan funksiyalarni tegishli organlarga o'tkazishni ta'minlash bo'yicha islog'tlar o'tkazilmogda.

O'zbek jamiyatida jamoa bo'lib yashashning eng oliv shakli **mahalladir**. O'zini o'zi boshqarishning mazkur shakli asrlar osha yashab kelmoqda.

Mahalla mamlakatimizda ko'p asrlardan buyon mavjud bo'lsa-da, O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan keyingina u munosib ijtimoiy-huquqiy maqomga ega bo'ldi.

1992-yil 12-sentabrda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning Farmoni bilan "Mahalla" Respublika xayriya jamg'armasi tashkil etilgani, 1993-yil 2-sentabrda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilinganining o'ziyoq mahalla institutining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgaligining yorqin dalilidir.

Jamiyat taraqqiyoti takomillashgan sari hamda bozor munosabatlariiga o'tish davrida, ayniqsa, fuqarolik jamiyatini shakllantirishga oid yangi ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi bilan ushbu Qonunni ma'lum normalar bilan to'ldirish ehtiyoji sezildi. Shu boisdan 1999-yil 14-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" yangi

tahirdagi Qonuni, 2017-yil 3-fevralda “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni (PF-4944) qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4602-sonli Qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo‘mitasi tugatilib uning o‘rnida “Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi” tashkil etildi.

O‘zbekistonda 2021-yil 10-aprel holatiga ko‘ra jami fuqarolar yig‘inlari soni 9 ming 216 tani tashkil etdi.

Yurtimizdag‘i tinchlik va osoyishtalikni, xalqimizning xotirjam mehnat qilishini ta‘minlashda mahallaning xizmati katta. Mahalla oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, oilalarni mustahkamlash, odamlarni loqaytdilik, boqimandalik kabi illatlardan foriq‘ etish, aholini tom ma‘nadi fuqarolik jamiyatini barpo etishga safarbar qilish hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mahalla xalqqa huquq va erkinliklardan foydalanish yo‘lini ochadi, shuningdek, unga osoyishta hayotdan bahramand bo‘lishni o‘rgatadi. Mahalla taqdiri mamlakat taqdiri bilan chambarchas bog‘liq. Mahalla obod bo‘lsa, yurt obod, mahalla tinch bo‘lsa, yurt tinch bo‘ladi.

#### **4. Ko‘ppartiyaviylik tizimi. Jamiyatning demokratlashuvida siyosiy siy partiyalar, nodavlat va jamoat tashkilotlarining roli.**

Ko‘ppartiyaviylik – hozirgi zamon jamiyatining ajralmas belgisi, uning demokratiyalashuvi darajasining muhim poydevor ko‘rsatkichi hisoblanadi. Ko‘ppartiyaviylikning o‘ziga xos belgisi, bu – siyosiy xilma-xillik, jamiyatda bir necha siyosiy partiyaning mavjudligidir. Siyosiy partiyalar fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini parlament, davlat hokimiyati, mahalliy vakillik idoralari, aholining o‘zini-o‘zi boshqarish uyushmalari orqali ifoda etish, hamda ro‘yobga chiqarish maqsadida faoliyat ko‘rsatuvchi kishilar birlashmasidir.

Partiyalar o‘z dastur va siyosatlarini jamiyatga taklif etish orqali ularni ro‘yobga chiqarishga harakat qiladilar va hokimiyat uchun kurash olib boradilar. Rivojlangan mamlakatlarining tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, siyosiy partiyalar jamiyatning siyosiy peshqadam a‘zolari sifatida namoyon bo‘ladilar.

O‘zbekiston mustaqilligi e‘lon qilinganidan buyon ko‘ppartiyaviylikning to‘laqonli harakat qilishi, jamiyatda turli siyosiy partiyalar faoliyati uchun huquqiy makon asoslari yaratildi. Bugungi kunda O‘zbekistonda quyidagi siyosiy partiyalar faoliyat yuritmoqda:

- 1) Xalq Demokratik Partiyasi (XDP) (1991-yil 1-noyabrda tashkil etilgan).
  - 2) “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi (1995-yil 18-fevralda tashkil etilgan)
  - 3) “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi (1995-yil 3-iyunda tashkil topgan).
  - 4) O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (2003-yil 15-noyabrda tashkil topgan).
  - 5) O‘zbekiston Ekologik partiyasi (2019-yil 8-yanvarda tashkil topgan).
- Mustaqillik yillarda mamlakatimizda o‘tkazilgan Prezidentlik va parlament saylovlarida siyosiy partiyalarga teng huquqlilik asosida ishtiroy etishlari uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratib berildi.

1991-yil 29-dekabrda O'zbekistonda ilk bor muqobillik asosida o'tkazilgan Prezidentlik saylovlarida ikkita siyosiy partiya – O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi va "Erk" demokratik partiyasi o'z nomzodlari bilan ishtirok etishgan bo'lsa, 2000-yil yanvar oyidagi saylovarda Xalq demokratik partiyasi va "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasi, navbatdagi uchinchи prezidentlik saylovlarida esa (2007-yil 23-dekabr) uchta siyosiy partiya (O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi va Xalq demokratik partiyasi), 2015-yil 29-mart hamda 2016-yil 4-dekabr saylovlarida to'rtta siyosiy partiya (O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi, Xalq demokratik partiyasi va "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi) o'z nomzodlari bilan ishtirok etishdi.

Ma'lumki, 2021-yil 24-oktabrda mamlakatimizda navbatdagi oltinchi Prezidentlik saylovlari bo'lib o'tadi. Saylovga puxta tayyorgarlik ko'rish va uni konstitutsiyaviy tamoyillar asosida o'tkazish maqsadida 2021-yil 2-fevral kuni Prezident Sh.M. Mirziyoyev mamlakatimizdagи siyosiy partiylar rahbarlari bilan uchrashuv o'tkazdi. Ochiq mulqot chog'ida partiyalarning jamiyatimiz siyosiy-ijtimoiy hayotidagi o'rni va rolini oshirish masalalari, bugungi kunda ular oldida turgan asosiy vazifalar haqida atroficha fikr almashildi.

Siyosiy partiyalarning O'zbekistonda o'tkazilgan parlament saylovlaridagi ishtiroki ham yildan yilga faollashib bordi. Partiyalarning parlament saylovlaridagi ishtirokini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

| O'zbekistonda Parlament saylovları |                         |  |
|------------------------------------|-------------------------|--|
| Nº                                 | Saylov o'tkazilgan sana | Saylovlarda nomzod ko'rsatgan partiyalar   |
| 1.                                 | 1994-yil 25-dekabr      | XDP, Vatan taraqqiyoti, Hokimiyatning vakillik organlari va Tashabbuskor guruxlar.   |
| 2.                                 | 1999-yil 10, 19-dekabr  | "Adolat", "Milliy tiklanish", "Vatan taraqqiyoti", "Fidokorlar", XDP, Hokimiyatning vakillik organlari, Saylovchilar tashabbuskor guruhlari. |
| 3.                                 | 2004-yil 26-dekabr      | O'zLiDeP, XDP, "Fidokorlar", "Adolat", "Milliy tiklanish".   |
| 4.                                 | 2009-yil 29-dekabr      | O'zLiDeP, XDP, "Milliy tiklanish", "Adolat", Ekologik harakat.   |
| 5.                                 | 2014-yil 21-dekabr      | O'zLiDeP, "Milliy tiklanish", XDP, "Adolat", Ekologik harakat.   |
| 6.                                 | 2019-yil 22-dekabr      | O'zLiDeP, "Milliy tiklanish", XDP, "Adolat", Ekologik partiya.   |

##### 5. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinlashtirilishi va rivojlantirish istiqbollari.

Har qanday jamiyatda demokratik boshqaruv tizimining joriy etilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni muhim

hisoblanadi. Chunki ijtimoiy fikrlarning xilma xilligi siyosiy plyuralizmni ayni ommaviy axborot vositalarilari ta'minlaydi. Konstitutsiyamizning XV-bobi Ommaviy axborot vositalari deb nomlanib, uning 67-moddasida ommaviy axborot vositalari erkendir va qonun asosida ashlaydi. Ular axborotning to'g'riliqi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar, deb belgilab qo'yilgan.

2007-yil 15-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Sohada malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida 2018-yil 24-mayda O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etildi. 2019-yil 2-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti adminstratsiyasi huzurida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar Agentligi taskil etildi.

Mamlakatimizda matbuot erkinligi va ochiqlik, shaffoflik va jamoatchilik nazoratining turli shakllariga keng imkoniyatlar yaratib berilmoxda. Amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirish hamda ommaviy axborot vositalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, jurnalistlar va blogerlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularga huquqiy, tashkiliy, texnik yordam ko'rsatish maqsadida 2020-yil 2-fevralda O'zbekistonda Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tashkil etildi.

2020-yilda O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 9,8 mln. kishidan oshib ketdi. uz. domenida 16 mingdan ziyod vebssaytlar faoliyat olib bormoqda. 200 dan ortiq vebssayt ro'yxatdan o'tgan. 2021-yilda o'zining 65 yillik yubileyini nishonlagan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi 26 ta tele va 16 ta radiokanalni birlashtirgan. Bugungu kunda respublikamizda 1893 ta OAV va 122 ta nashriyot faoliyat yuritmoqda.

Hozirgi vaqtida (2021-yil) elektron OAV, xususan, internet jurnalistikasi hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda. OAVda tanqidiy chiqishlarga vazirlik va idoralar, hokimliklarning axborot xizmatlari orqali tezkor munosabat bildirish amaliyoti shakllanmoqda. Xususan, 2018-yilda davlat idoralarini tomonidan tanqidiy materiallarga javob qaytarish ko'rsatkichi 12 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yil yakuniga ko'ra bu 90 %ga yetdi.

#### **6. Inson huquqlari, erkinliklari kafolatlarining va demokratik saylovlov tizimining yaratilishi.**

Mustaqillik yillarda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash borasida ham qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Konstitutsiyamizning II-bo'limi "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlanib, unda shaxsiy huquqlar (VII-bob), siyosiy huquqlar (VIII-bob), ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar (IX-bob), Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari (X-bob) va Fuqarolarning burchlari (XI-bob) alohida belgilab berilgan. O'tgan davr mobaynida sohaga oid o'nlab qonunlar qabul qilinib, inson huquqlariga doir qator xalqaro konvensiyalar parlamentimiz tomonidan ratifikatsiya qilindi. Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz va Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha maxsus vakili – Ombudsman instituti joriy qilindi.

2019-yilda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish

to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha 200 dan ortiq innovatsion maktablar tashkil etildi. Erkaklar va ayollar uchun nikoh tuzishning minimal yoshi 18 yosh etib belgilandi.

2021-yil 28-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati qarori bilan 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida **Gender tenglikka erishish strategiyasi** qabul qilindi (SQ-297-IV-son). Boshqaruv tizimida ayollarning ulushi 33 % ga yetkazildi. 1,5 mingga yaqin xotin-qizlar turli darajadagi rahbarlik lavozimlariga tayinlandi. "Ayollar daftari" joriy etilib, 2020-2021-yillarda 400 ming nafarga yaqin xotin-qizlaming bandligi ta'minlandi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda so'z va matbuot erkinligi, vijdon erkinligini ta'manlash borasida yangi O'zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilgan islohotlar jahon hamjamiyati tamonidan e'tirof etilmoqda. Xususan, O'zbekiston 2021-2023-yillarda BMTning inson huquqlari bo'yicha Kengash a'zosi sifatida qabul qilinishi ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlarning amaliy natijasidir.

Davlat hokimiyatining birdan bir manbayi xalqdir. Demokratik huquqiy davlatda xalq hokimiyatchiligi, asosan, hokimiyat organlari umumxalq tomonidan saylab qo'yish orqali amalga oshiriladi. Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim masalalar xalq muhokamasiga taqdim etiladi, referendumga qo'yiladi.

Demokratiyaning bosh talabi bu erkin va adolatlari saylovlardir. O'zbekistonda xalqaro huquq andozalari va talablariga, ilg'or chet el tajribasiga mos saylov qonunchiligi yaratildi. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yilida "O'zbekiston Respublikasining referendumni to'g'risida"gi (1991-yil 18-noyabr) va "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi (1991-yil 18-noyabr) Qonunlari qabul qilindi. Konstitutsiyamizning XXIII-bobi Saylov tizimi deb nomlanib. Unga ko'ra O'zbekistonda Prezident saylovi, hokimiyatning vakillik organlari saylovi umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 117-modda.)

O'zbekistonda saylovlarni tashkil etish uchun mustaqil Markaziy saylov komissiyasi tuziladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisiga saylov o'tkazuvchi okrug va uchastka saylov komissiyalari tuziladi. Saylov uchastkalari kamida 20 nafar va ko'pi bilan 3000 nafar saylovchidan iborat etib tuziladi.

Respublika saylov tizimi saylov kunigacha 18 yoshga to'lgan har bir fuqaroning ovoz berishda bevosita ishtirok etishini ta'minlaydigan demokratik tamoyillarga asoslanadi. Sud tomonidan huquqiy muomalaga layoqatsiz deb topilgan yoki sud hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar saylovlargacha qatnasha olmaydilar.

O'zbekistonda saylov natijalari eng demokratik majoritar usulda aniqlanadi. Saylov natijasida saylovda qatnashganlarning 50 foizi + 1 ovoz olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Agar saylovchilarning ro'yxitiga kiritilgan saylovchilarning yarmidan kami saylov yoki referendumda ishtirok etgan bo'lsa, saylov yoki referendum o'tmagan deb hisoblanadi.

2019-yil 25-iyun kuni saylov qonunchiligidagi yana bir o'zgarish bo'ldi. O'zbekiston tarixida ilk bor Saylov kodeksi qabul qilindi.

Ushbu kodeks bilan tarqoq holdagi 5 ta qonun ("O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida", "Fuqarolarning saylov huquqlari kafolatlari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida", "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylov to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi) va Markaziy saylov komissiyasining saylovlarni tashkil etish va o'tkazishga oid o'nlab qaror va yo'riqnomalari o'z kuchini yo'qotdi.

Shuningdek, 2021-yilda Saylov kodeksiga tegishli o'zgartishlar kiritish to'g'risidagi qonun bilan Prezident saylovlari bo'lib o'tadigan kun dekabr oyidan oktabr oyiga ko'chirildi.

| <b>O'zbekiston Respublikasida o'tkazilgan Referendumlar va ularda qo'yilgan masalalar</b>  |
|--|
| <b>1990-yil 17-mart</b><br>“Siz O'zbekistonning mustaqil teng huquqli respublika sifatida yangilangan Ittifoq tarkibida qolishiga rozimisiz?”<br>- Ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning 93% mazkur savolga “HA” deb javob berdi.  |
| <b>1991-yil 29-dekabr</b><br>“O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligini ma'qullaysizmi?”<br>- Ovoz berishda qatnashganlarning 98,2 % mazkur savolga “HA” deb javob berdi.   |
| <b>1995-yil 26-mart</b><br>“O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirishga siz rozimisiz?”<br>- Ovoz berishda qatnashganlarning 99,6 % mazkur savolga “HA” deb javob berdi.  |
| <b>2002-yil 27-yanvar</b><br>1) “Siz O'zbekiston Prezidentining vakolat muddatini 5 yildan 7 yilga uzaytirishga rozimisiz?”<br>2) “Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamenti ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?”<br>- Ovoz berishda qatnashganlarning 93,65 % mazkur savolga “HA” deb javob berdi. |

#### **Mavzuning asosiy tushunchalari:**

**AXBOROT ERKINLIGI** – fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan bin bo'lib, so'z, matbuot va boshqa axborotni olish va qonuniy asosda olingan axborotlarni tarqatish huquqi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan, ommaviy axborot vositalari erkendir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riliги учун belgilangan tartibda javobgardirlar, senzuraga yo'l qoyilmaydi (67-modda).

**BIR PALATALI PARLAMENT** – palatalarga bo'linishni istisno etuvchi umumxalq vakillik tashkiloti – parlament tuzilishi. Bunday parlamentlar "bir palatali" deb ham ataladi. Dunyodagi mamlakatlardan ko'pchiligi (60 % ga yaqini) bir palatali parlament tizimiga ega. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi (1990-1994-yillarda) va Oliy Majlisi 1995-2004-yillar mobaynida bir palatali parlament shaklida faoliyat ko'rsatgan edi.

**DEPUTAT** – davlat hokimiyati vakillik organlarida ish olib boruvchi xalq vakili. U saylov yo'li bilan tanlanib, xalqdan tegishli organlarda ish olib borish uchun vakolat oladi. Deputat ma'lum muddatga saylanadi. Respublikamizda Oliy Majlis va mahalliy kengashlarga deputatlar besh yil muddatga saylanadilar. Oliy Majlis deputatligiga 25 yoshga, mahaliy kengash deputatligiga 23 yoshga to'lgan O'zbekiston fuqarolari saylanadilar. Deputatlikka nomzodlar siyosiy partiyalar, vakillik hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan ko'rsatiladilar.

**FUQAROLIK** – shaxsnинг biron bir davlatga huquqiy va qonuniy jihatdan tegishliligini bildiruvchi atama. Muayyan davlatning fuqarosi ushbu davlat hududidagi xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan o'z huquqiy mavqeiga ko'ra farq qiladi. Chunonchi, konstitutsiya va qonunlarda belgilangan siyosiy huquq va erkinliklar faqat fuqarolarga tegishlidir. Demak, shaxs fuqarolikni olishi bilan ushbu davlatdagi siyosiy huquqlardan foydalanish imkoniyatini ham oladi.

**FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI** – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga xizmat qiladigan nodavlat, notijorat tashkilotlari, jamiyat birlashmalari, oila, mahalla, ijtimoiy harakatlar va boshqa tuzilmalar majmuidir.

**HOKIM** – mustaqillik yillarda tashkil etilgan yangi lavozim. O'zbekistondagi mahalliy ma'muriyat boshlig'i. Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Hokimlar o'ziga berilgan vakolatlar doirasida tegishli hududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, shuningdek, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar chiqaradi.

Hokimlarning vakolat muddati 5 yil.

**IJROIYA HOKIMIYATI** – hokimiyatlarning bo'linishi tamoyiliga ko'ra, davlatdagi mustaqil ommaviy hokimiyatlardan biri.

O'zbekistonda Vazirlar Mahkamasи, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimliklari, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa Vazirlar Kengashi va tuman (shahar) hokimliklari ijroiya hokimiyati organlari hisoblanadi.

**IKKI PALATALI PARLAMENT** – umummilliy vakillik muassasasi – parlamentning tuzilishi. Bunda parlament odatda har xil tarzda shakllantiriladigan va turli vakoatlarga ega bo’lgan ikkita palatadan iborat bo’ladi.

Ikki palatali parlament hozirgi vaqtida federativ davlatlarda ham, unitar davlatlarda ham mavjud. Parlamentning quyi palatasi doimo aholi tomonidan bevosita saylanadi. Yuqori palata turli mamlakatlarda turli usulda shakllantiriladi. U ba’zi mamlakatlarda bevosita saylov yoki bilvosita saylov orqali shakllantirilsa, ba’zan meros bo'yicha shakllantiriladi, yohud ularning a'zolarini davlat rahbari taynlaydi. Bir qator holatlarda yuqori palata aralash usulda shakllantiriladi: a'zolarining bir qismi saylanadi, bir qismi tayinlanadi. Ba’zi mamlakatlarda quyi palatadan farqli ravishda yuqori palata uchun vakolatlar muddati belgilanmagan, ularning tarkibi qismlab yangilanadi.

**JAMOAT BIRLASHMALARI** – O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiya-sining 56-moddasiga binoan, qonunda belgilangan tartibda royxatdan o’tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalari, omnaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari. Jamoat birlashmalari haqidagi konstitutsiyaviy qoidalar O’zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-noyabrdagi “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonunda rivojlantirilib, uning 1-moddasida jamoat birlashmalari deb, o‘z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda royobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning hohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilmaga aytildi.

**KO'PPARTIYAVIYLIK** – hozirgi zamon jamiyatining ajralmas belgisi, uning demokratiyalashuvি darajasining muhim poydevor ko'rsatkichi. Ko'ppartiyaviylikning o'ziga xos belgisi, bu – siyosiy xilma-xillik, jamiyatda bir necha siyosiy partyaning mavjudligidir. Siyosiy partiyalar fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini parlament, davlat hokimiyati, mahalliy vakillik idoralari, aholining o'zini-o'zi boshqarish uyushmalari orqali ifoda etish, hamda royobga chiqarish maqsadida faoliyat ko'rsatuvchi kishilar birlashmasidir.

Partiyalar o'z dastur va siyosatlarini jamiyatga taklif etish orqali ulami royobga chiqarishga harakat qiladilar va hokimiyat uchun kurash olib boradilar. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, siyosiy partiyalar jamiyatning siyosiy peshqadam a'zolari sifatida namoyon bo'ladir.

**“MENING FIKRIM”** – O’zbekistonda fuqarolarning O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи palatalari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga elektron jamoaviy murojaat qilish tizimi. Ushbu maxsus veb-portal O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi PQ-5308-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Davlat dasturining 34-bandiga muvofiq tashkil etilgan.

**NODAVLAT TASHKILOTLARI** - jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqaruvchi tashkilotlar. Bugungi kunda mamlakatimizda 9

mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari, 29 ta xalqaro va xorijiy nohukumat tashkilotlarining filial va vakolatxonalar faoliyat yuritmoqda.

**PARLAMENT** (fransuzcha parler – so'zlashmoq, gapirmoq) – demokratik davlatlarda oliy vakillik va qonunchilik organining nomi. Ilk bor XIII asrda Angliyada davlat hokimiyatining vakillik organi sifatida vujudga kelib, keyingi asrlarda boshqa mamlakatlarda ham tashkil etildi.

Parlament qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. U qonun bo'yicha belgilangan sondagi deputatlardan ibrat bo'lib, hududi saylov okruglari bo'yicha, odatda, ko'ppartiyaviylik asosida belgilangan yoshta to'lgan fuqarolardan saylanadi. Parlament turli davlatlarda turlicha nomlanadi. Rossiyada – Davlat Dumasi, Ukraynada – Rada, Serbiyada – Skupshina, Shvetsiyada – Rikstag, AQSHda – Kongress, Isroilda – Knessel, Mo'g'ulistonda – Xalq Xurali, Afg'onistonda – Xalq Jirg'asi, Ozarbayjonda – Milliy Majlis, O'zbekistonda esa Oliy Majlis (1925-1989-yillarda Oliy Sovet, 1990-1994-yillarda Oliy Kengash deb yuritilgan).

**PLYURALIZM** (lotincha pluralis – ko'pchilik, xilma-xillik) – jamiyatda va siyosiy hayotda fikrlar, qarashlar hamda g'oyalarning xilma-xilligiga asoslanuvchi demokratik jamiyat belgilardan biri. Plyuralizm bo'lmagan jamiyatda demokratiyaning tarkib topish jarayoni ham qiyin kechadi. Plyuralizm siyosiy partiyalarning hokimiyat uchun o'zaro raqobatida va saylovlarda muxolifatning mavjudligida ko'proq namoyon bo'ladi. Tom ma'noda plyuralizm demokratiyani harakatga keltirib turuvchi omildir.

**SENAT** (lotincha senex – keksa, oqsoqol) – 1) Qadimgi Rim respublikasi davri (mil.avv. 509-49 y.y.)da oliy davlat organi – oqsoqollar kengashi; 2) ikki palatali parlamentga ega bo'lgan davlatlarda parlamentning yuqori palatasi. Bunda aksariyat hollarda senat a'zolari (senatorlar) quyi palata deputatlari singari befosita fuqarolar tomonidan saylanmasdan, vakolatli muassasa tomonidan qonunchilik asosida tayinlab qoyiladi.

**SENZURA** (lotincha "sensura" – davlat nazorati) – hokimiyat tomonidan zararli deb topilgan g'oyalarni tarqalishiga yo'l qoymaslik yoki cheklab qo'yish maqsadida bosma mahsulotlar, sahna asarlari va hokazolar mazmun-mundarijsi ustidan nazorat o'matish.

**VAKILLIK HOKIMIYATI** – ma'lum bir muddatga xalq irodasini ifoda etuvchi parlamentga o'z vakillarini saylash, xalq manfaatlarini ifoda etish orqali hokimiyatni tashkil etish. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasiga asosan, Oliy Majlis oliy davlat vakillik organi hisoblanadi va u qonun chiqaruvchilik hokimiyatni amalga oshiradi.

**VAKILLIK ORGANLARI** – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 99-moddasiga muvofiq, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari hisoblanadi. Vakillik organlari davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab, o'z vakolatlari doirasidagi masalalarni hal etadilar.

**Mavzuga oid muhim sanalar:**

|                           |  |
|---------------------------|--|
| 1990-yil 18-fevral        | O'zbekiston SSR Oliy Kengashining XII-chaqirig'iga saylovlari o'tkazildi.  |
| 1990-1994-yillar          | O'zbekiston Respublikasi Parlamenti – Oliy Kengashning XII-chaqirig'i faoliyat ko'rsatdi.<br>Oliy Kengashga dastlab Sh.M.Yo'ldoshev (1993-yil 29-dekabrgacha) keyinchalik Erkin Xalilov (1993-yil 29-dekabr – 1995-yil 23-fevral) raislik qilishdi. 250 deputatdan iborat Oliy Kengash o'zining 5-yillik faoliyati davomida jami 16 ta sessiya o'tkazib, 200 ga yaqin qonun, 500 dan ziyod qarorlar qabul qildi.   |
| 1990-yil 24-mart          | Oliy Kengashining XII-chaqiriq 1-sessiyasida <b>Islom Abdug'aniyevich Karimov</b> yashirin ovoz berish yo'li bilan O'zbekiston Prezidenti etib saylandi.   |
| 1990-yil 1-noyabr         | O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida ijroiya va boshqaruv hokimiyatining tuzilishini takomillashtirish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Unga ko'ra, Prezidentlik hokimiysi bilan Ministrler Sovetining ijroiya-boshqaruv hokimiysi qo'shib yuborildi. O'zbekiston Respublikasi Ministrler Soveti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirildi. |
| 1991-yil 15-fevral        | "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.   |
| 1991-yil 1-mart           | Vazirlar Mahkamasining farmoishi bilan O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo'mitasi tashkil etildi. 2020-yil 18-fevralda mazkur qo'mita tugatilib "Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi" tashkil etildi.  |
| 1991-yil 14-sentabr       | Toshkent shahrida O'zbekiston Kommunistik Partiyasining so'ngi favqulorra XXIII-quriloyi bo'lib o'tdi. Unda KPSS tarkibidan chiqish va sifat jihatdan yangi siyosiy tashkilot – O'zbekiston Xalq demokratik partiyasini tuzish to'g'risidagi Bayonet qabul qilindi.  |
| 1991-yil 17-sentabr       | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika davlat hokimiysi va boshqaruv idoralarini hamda xalq ta'limi sistemasini partiyadan xoli etish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.   |
| 1991-yil<br>oktabr-dekabr | O'zbekiston Respublikasi viloyatlarini viloyat partiya komiteti (obkom)ning binnchi kotibi o'miga xalq deputatlari viloyat Kengashining raisi boshqardi. Bu xolat mos ravishda tuman va shahar boshqaruviga ham jori.  |

|                     |  |
|---------------------|--|
|                     | qilindi.   |
| 1991-yil 1-noyabr   | O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi tashkil topdi. "O'zbekiston ovozi", "Голос Узбекистана" gazetasi va "Muloqot" jurnali ushbu partiyaning nashri etib belgilandi.  |
| 1991-yil 18-noyabr  | Oliy Kengashining XII-chqiriq 8-sessiyasida " <b>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida</b> "gi va " <b>Referendum to'g'risida</b> "gi Qonunlar qabul qilindi.  |
| 1991-yil 18-noyabr  | O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining "O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahri maqomi va davlat hokimiyati organlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq Toshkentda <b>hokimlik lavozimi</b> joriy etildi.  |
| 1991-yil 29-dekabr  | <b>O'zbekistonda ilk bor muqobililik asosida prezidentlik saylovlari bo'lib o'tdi.</b><br>Prezidentlikka O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi va O'zbekiston Kasaba uyunshmalari federatsiyasidan I.A.Karimov, "Erk" demokratik partiyasidan Muhammad Solih Madaminov nomzodlari ko'rsatildi.   |
| 1992-yil 4-yanvar   | O'zbekistonda <b>Vitse-prezident</b> lavozimi tugatilib <b>Bosh Vazir</b> lavozimi ta'sis etildi.<br>O'zbekiston Respublikasining Bosh vazirlari:<br>Abduxoshim Mutalov (1992-yil 13-yanvar – 1995-yil 21-dekabr), O'tkir Sultonov (1995-yil 21-dekabr – 2003-yil 10-dekabr), Shavkat Mirziyoyev (2003-yil 10-dekabrdan 2016-yil 9-sentabrgacha), Abdulla Oripov (2016-yil 9-sentabrdan)   |
| 1992-yil 4-yanvar   | " <b>O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida</b> "gi Qonun qabul qilindi. Mazkur qonunga muvofiq respublikaning hamma hududida mahalliy ijro hokimiyati organi sifatida <b>hokim</b> lavozimi ta'sis etildi.<br>1992-yilda Toshkent shahrida va 12 ta viloyatda, 159 ta qishloq tumani va 18 ta shahar tumanida hamda 120 ta shaharda hokimlar tayinlandi va tasdiqlandi, ularning apparati – <b>hokimiyatlar</b> tuzildi. |
| 1992-yil 24-may     | O'zbekiston " <b>Vatan taraqqiyoti</b> " partiyasi tashkil etildi. (2000-yil 14-aprelda ushbu partiya " <b>Fidokorlar</b> " milliy-demokratik partiyasi bilan birlashdi).  |
| 1992-yil 12-sentabr | " <b>Mahalla</b> " xayriya jamg'armasi tashkil etildi.   |
| 1993-yil 6-may      | " <b>O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi</b> to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.   |
| 1993-yil 2-sentabr  | "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida", "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" va "Sudlar to'g'risida"gi (2000-yil 14-dekabrdan yangi tahrirda) Qonunlar qabul qilindi.  |
| 1994-yil 5-may      | "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga   |

|                        |  |
|------------------------|--|
|                        | <b>saylovlar to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.</b><br>Qonunga ko‘ra saylanish yoshi 21 yosh qilib belgilandi. Viloyat va Toshkent shahar kengashlariga 60 tadan, tuman va shahar kengashlariga 30 tadan ko‘p bo‘limgan deputat 5-yilga saylanadigan bo‘ldi.  |
| 1994-yil 25-dekabr     | O‘zbekistonda ilk bor ko‘ppartiyaviylik asosida <b>Oliy Majlisga saylovlar bo‘lib o‘tdi.</b>   |
| 1995-1999-yillar       | <b>Oliy Majlis</b> deb yuritila boshlangan O‘zbekiston Respublikasi Parlamentining I-chaqirig‘i faoliyat ko‘rsatdi. Oliy Majlisning 5-yillik faoliyatiga E.Xalilov raislik qildi. Oliy Majlisning I-chaqirig‘ida jami 15 ta sessiya o‘tkazildi. Unda 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur, 145 ta qonun, 452 ta qaror qabul qilindi. Amaldagi 216 ta qonunga o‘zgartirish kirildi. 70 ta xalqaro shartnoma ratifikatsiya qilindi. 58 ta xalqaro konvensiyaga qo‘silish haqida qaror qabul qilindi. |
| 1995-yil 18-fevral     | O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi tuzildi. Nashri “Adolat” gazetasi.   |
| 1995-yil 23-fevral     | O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1-sessiyasida Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili ( <b>ombudsman</b> ) lavozimi ta’sis etildi. Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili – Ombudsmanlar: S.Sh.Rashidova (1995-2015), U.N.Muhammadiyev (2015-2021), F.R.Eshmatova (2021-yildan).  |
| 1995-yil 26-mart       | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolat muddatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirish masalasida umumxalq <b>referendum</b> bo‘lib o‘tdi. Referendumda qatnashgan fuqarolarlarning 99,6 % mazkur tashabbusni qo‘llab ovoz berdilar.   |
| 1995-yil 3-iyun        | O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi tashkil topdi.   |
| 1996-yil 31-oktabr     | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan <b>Inson huquqlari bo‘yicha milliy markaz</b> tashkil etildi.  |
| 1996-yil 25-dekabr     | <b>“Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.</b>   |
| 1997-yil 26-aprel      | <b>“Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.</b>  |
| 1998-yil 28-dekabr     | O‘zbekiston Respublikasi “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi tashkil topdi. (2008-yil 20-iyunda “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi va “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi yagona “Milliy tiklanish” partiyasiga birlashdi).   |
| 1999-yil 14-aprel      | Yangi tahrirdagi <b>“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.</b>  |
| 1999-yil 10, 19-dekabr | Oliy Majlis ikkinchi chaqirig‘iga saylovlar bo‘lib o‘tdi.  |

|  |  |
|--|--|
| 2000-2004-yillar                             | Bir palatali O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II-chaqirig'i faoliyat ko'rsatdi.<br>Oliy majlisning ikkinchi chaqirig'i davomida jami 16 ta sessiya o'tkazildi. 446 dan ortiq qonun, 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur, mingdan ortiq qarorlar qabul qilindi.   |
| 2000-yil 9-yanvar                            | <b>O'zbekistonda ikkinchi Prezidentlik saylovlarini bo'lib o'tdi.</b> "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasidan I.A.Karimov, XDPdan A.Jalolov nomzodlari ko'rsatildi. Saylovchilarning 4, 17 foizi A.Jalolov, 91,90 foizi I.A.Karimov nomzodini qo'llab ovoz berdi.<br>I.A.Karimov 5 yil muddatga (2005-yilgacha) Prezident etib saylandi.   |
| 2002-yil 27-yanvar                           | O'zbekistonda ikki palatali parlament tizimga o'tish hamda O'zbekiston Prezidentining vakolat muddatini 5-yildan 7-yilga uzaytirish masalasida <b>umumxalq referendumi</b> o'tkazildi. Referendumda "Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamenti ikki palatali qilib saylanishiga rozmisiz?" degan birinchi savolga ovoz berishda ishtirok etgan fuqarolarning 93,65 foizi ushbu sovolni yoqlab ovoz berdi.<br>"Siz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan yetti yil qilib o'zgartirishga rozmisiz?" degan ikkinchi savolga ovoz berishda ishtirok etgan fuqarolarning 91,78 foizi yoqlab ovoz berdi. |
| 2000-yil 14-aprel                            | "Vatan taraqqiyoti" partiyasi va "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasi yagona "Fidokorlar" milliy-demokratik partiyasiga birlashdi.   |
| 2002-yil 12-dekabr                           | "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasini to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilindi.  |
| 2003-yil 25-aprel                            | "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.  |
| 2003-yil 15-noyabr                           | O'zbekiston ishbilarmon va tadbirkorlar harakati <b>Liberal-demokratik partiyasi (O'zLiDep)</b> tashkil topdi. Nashri: "XXI asr" gazetasi.   |
| 2004-yil 26-dekabr<br>(2005-yil<br>9-yanvar) | O'zbekiston Qonunchilik palatasi deputatligiga saylovlar bo'lib o'tdi.   |
| 2005-yil 27-yanvar                           | O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.<br>Qonunchilik palatasining spikerlari dastlab E.Halilov (2002-yil 27-yanvardan 2008-yil 22-yanvargacha) keyinchalik  |

|                    |   |
|--------------------|---|
|                    | D Toshmuhammedova (2008-yil 23-yanvardan) bo'ldi.   |
| 2005-yil 27-yanvar | <b>O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.</b><br>Dastlab Murod Sharifxo'jayev, 2006-yil 24-fevraldan I.Sobirov Senat Raisi etib saylandi.   |
| 2005-yil 28-yanvar | <b>O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi.</b><br><b>O'zbekistonda ikki palatali professional parlament tizimiga o'tildi.</b>   |
| 2007-yil 15-yanvar | O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi " <b>Ommaviy axborot vositalari to'g'risida</b> "gi Qonuni qabul qilindi.   |
| 2007-yil 23-dekabr | <b>O'zbekistonda uchinchi Prezidentlik saylovlari bo'lib o'tdi.</b><br>Saylovlarda "Adolat" SDPdan nomzodi ko'rsatilgan D.Toshmuhammedova 2,9 foiz, XDPdan A.Rustamov 3,17 foiz, Tashabbuskor guruhdan A.Saidov 2,85 foiz va O'zLiDEPdan nomzodi ko'rsatilgan I.A.Karimov 88,1 % ovoz oldi.<br>I.A.Karimov 7-yil muddatga O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qilib saylandi. |
| 2008-yil 1-yanvar  | O'zbekistonda o'lim jazosi bekor qilindi.   |
| 2008-yil 17-aprel  | <b>"Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"</b> gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.  |
| 2008-yil 20-iyun   | O'zbekiston " <b>Fidokorlar</b> " milliy demokratik partiyasi va " <b>Milliy tiklanish</b> " demokratik partiyasi yagona O'zbekiston " <b>Milliy tiklanish</b> " demokratik partiyasiga birlashdi.  |
| 2008-yil 2-avgust  | Toshkent shahrida O'zbekiston ekologik harakatining ta'sis anjumani bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston ekologik harakati tashkil qilindi.   |
| 2009-yil 29-dekabr | <b>O'zbekiston Qonunchilik palatasiga saylovlari bo'lib o'tdi.</b>  |
| 2010-yil 22-yanvar | <b>O'zbekiston Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi majlisi bo'lib o'tdi.</b><br>D.Toshmuhammedova Qonunchilik palatasining spikeri etib saylandi.   |
| 2010-yil 26-yanvar | <b>Oliy Majlis Senatining birinchi majlisi bo'lib o'tdi.</b><br>I.M.Sobirov Senat Raisi etib saylandi.  |
| 2010-yil 12-noyabr | O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida I.A.Karimov " <b>Mamlakatimzda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlangirish Konsepsiysi</b> "ni bayon etdi.   |
| 2011-yil 19-aprel  | "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish  |

|   |   |
|---|---|
|   | to‘g‘risida”gi Qonuni bilan Konstitutsiyamizning Prezident vakolatlariga bag‘ishlangan 93-moddasi 8, 15-bandlari, 98-moddasiga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritilib, “ <b>ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi</b> ” degan so‘zlar olib tashlandi.  |
| 2011-yil 12-dekabr                        | O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga tuzatish kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Unga ko‘ra, Prezidentning saylanish muddati yetti yildan besh yilga o‘zgartirildi.   |
| 2014-yil 3-dekabr                         | “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni tasdiqlandi.  |
| 2014-yil 21-dekabr<br>(2015-yil 4-yanvar) | O‘zbekiston Qonunchilik palatasi deputatligiga saylovlar bo‘lib o‘tdi.<br>Saylov natijalariga ko‘ra, parlament quyi palatasiga 150 nafar deputat, shu jumladan, Liberal-demokratik partiyasidan 52, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan 36, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 27, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan 20 nafar deputat saylandi. 15 nafar deputatlik o‘rnii O‘zbekiston Ekologik harakati vakillariga ajratildi. Saylangan deputatlarning 24 nafari (16%) xotin-qizlardan iborat bo‘ldi.   |
| 2015-yil 4-fevral                         | O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tashkil etildi.   |
| 2015-yil 29-mart                          | <b>O‘zbekistonda navbatdagi to‘rtinchchi Prezidentlik saylovlari bo‘lib o‘tdi.</b><br>“Milliy tiklanish” partiyasidan ko‘rsatilgan nomzod A.Saidov 2,92 foiz, XDPdan X.Ketmonov 2,92% foiz, “Adolat” SDPdan N.Umarov 2,05 foiz va O‘zLiDEPdan ko‘rsatilgan nomzod I.A.Karimov 90,39 foiz ovoz to‘plashdi.<br>I.A.Karimov 5-yil muddat (2015-2020-yillar)ga O‘zbekiston Prezidenti etib saylandi.  |
| 2016-yil 2-mart                           | Hukumat qarori bilan “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari” tasdiqlandi. Unga ko‘ra, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda davlat xizmatchisi o‘z rahbarini darhol xabardor qilishi, bu to‘g‘risidagi ma'lumotni olgan rahbar uni tartibga keltirish bo‘yicha o‘z vaqtida choralar ko‘rishi shartligi belgilandi. Shuningdek, davlat xizmatchilarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi taqiqlandi. Qonunchilikda davlat xizmatchilar o‘z rahbarini tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etishi to‘g‘risida xabardor qilishi shartligi |

|                    |  |
|--------------------|--|
|                    | ham belgilab qo'yildi.   |
| 2016-yil 21-oktabr | <b>"Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"</b> gi Prezident Farmoni qabul qilindi. Farmon asosida <b>Sudyalar oliv kengashi</b> tashkil qilindi, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, Oliy sud faoliyati takomillashtirildi. Sudya lavozimida bo'lishning ilk marotaba besh yillik, keyin o'n yillik muddati va muddatsiz davri belgilandi. Oliy sudning Harbiy hay'ati tugatilib, Oliy sudning ma'muriy ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tashkil etildi. |
| 2016-yil 4-dekabr  | <b>O'zbekistonda beshinchisi Prezidentlik saylovlari bo'lib o'tdi.</b><br>XDPdan ko'rsatilgan nomzod X.Ketmonov 3,73 foiz, "Adolat" SDPdan N.Umarov 3,46 foiz, "Milliy tiklanish" partiyasidan S.Otamurodov 2,35 foiz va O'zLiDEPdan ko'rsatilgan nomzod SH.Mirziyoyev 88,61 foiz ovoz oldi.<br>SH.Mirziyoyev 5-yil muddatga O'zbekiston Respublikasining ikkinchi Prezidenti etib saylandi.   |
| 2016-yil 28-dekabr | <b>"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"</b> gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-4904) qabul qilindi. Unga ko'ra 2017-yildan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, shahar va tumanlarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining <b>Xalq qabulxonalari</b> va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi tashkil etildi.  |
| 2017-yil 7-yanvar  | Prezident SH.Mirziyoyev Prokuratura xodimlari va fahriylari bilan uchrashuv o'tkazdi.  |
| 2017-yil 3-fevral  | <b>"Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"</b> gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-4944) qabul qilindi. Farmonga ko'ra mahalla fuqarolar yig'ini Kengashi tarkibiga fuqarolar yig'ini raisining o'rinosarlari, profilaktika inspektorlarini, ta'lif muassasalarini va qishloq vrachlik punktlari rahbarlarini kiritish va ularning o'z faoliyati yuzasidan yilning har choragida fuqarolar yig'iniga hisobot taqdim qilish amaliyoti joriy qilindi.   |
| 2017-yil 1-aprel   | Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning avtomatlashtirilgan tizimi ishga tushirildi. Bu ro'yxatga olish tartib-taomillarini 30 daqiqaga qisqartirish imkonini berdi.   |
| 2017-yil 21-fevral | "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-   |

|                   |  |
|-------------------|--|
|                   | tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-4966) qabul qilindi.   |
| 2017-yil 10-aprel | O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sudlar faoliyatini ta'minlash departamenti tashkil etildi (PQ-2872). "O'zbekiston Respublikasi Sudalar oliv kengashini shakllantirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-5006) qabul qilindi.  |
| 2017-yil 18-aprel | "Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlami amalga oshirish, mamlakatni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlashda prokuratura organlarining rolini kuchaytirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-5019) qabul qilindi.   |
| 2017-yil 7-iyun   | "Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-5075) qabul qilindi.<br>"Mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-3042) qabul qilindi.  |
| 2017-yil 12-iyun  | "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-3051) qabul qilindi.   |
| 2017-yil 13-iyun  | SH.Mirziyoyev Sud organlari xodimlari bilan uchrashuv o'tkazdi.  |
| 2017-yil 12-iyul  | O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.Mirziyoyev Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiylar hamda O'zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi. Sohada nazoratni kuchaytirish maqsadida yuqori palata huzurida maxsus komissiyalar tashkil etildi. Komissiya a'zolari har oyda joylarga chiqib, mavjud muammolarni tahlil qildi va ularni bartaraf etish bo'yicha bir qator amaliy chora-tadbirlarni amalgga oshirdi. Senatorlar birinchi marta II Vning mamlakatda jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbazarlikning oldini oli bo'yicha qilinayotgan ishlar haqidagi hisobomi eshitdilar. |
| 2017-yil 18-iyul  | "Odil sudlov saroyi" kompleksini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi (F-4997) qabul qilindi.  |
| 2017-yil 8-avgust | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " <b>Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash to'g'risida</b> "gi Qarori (PQ-3182) qabul qilindi. Unga asosan,  |

|                     |  |
|---------------------|--|
|                     | hududlarni kompleks rivojlantirish bo'yicha yangi tizim - sektorlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hududlari tegishlicha hokimlar, prokurorlar, ichki ishlar va davlat soliq xizmati rahbarlari boshchilik qiladigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha <b>4 ta sektorga</b> bo'lindi.   |
| 2017-yil 8-sentabr  | Prezident qarori bilan O'zbekiston Respublikasining <b>Ma'muriy islohotlar konsepsiysi</b> (PF-5185) qabul qilindi. Konsepsiya doirasida bir qator vazirlik va idoralar faoliyatining institusional va tashkiliy-huquqiy asoslar, shuningdek, ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalarini va funksiyalari hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari takomillashtirildi. Jumladan, Prezident devoni, hukumat apparati ijro etuvchi tuzilmasi qayta ko'rib chiqildi. 18 ta vazirlik hamda idoraning funksiyalari takomillashtirildi, 24 ta davlat xo'jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar qayta tashkil etildi. |
| 2017-yil 11-sentabr | " <b>Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida</b> "gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (O'RQ-445-son) qabul qilindi.   |
| 2017-yil 28-sentabr | "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi vakolatli vakili lavozimini joriy etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-3294) qabul qilindi.  |
| 2017-yil 12-dekabr  | " <b>Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida</b> "gi Prezident Farmoni qabul qilindi.<br>Farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida <b>Davlat xizmatlari agentligi</b> tashkil etildi. 2018-2020-yillarda bosqichma-bosqich joriy etiladigan " <b>yagona darcha</b> " tamoyili bo'yicha faqat Davlat xizmatlari markazlari orqali ko'rsatiladigan 58 ta davlat xizmatlari to'xhati tasdiqlandi. Bu " <b>Bu fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi</b> " degan tamoilni hayotga tadbiq etilishi edi.                                    |
| 2018-yil 22-yanvar  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5308-soni Qarori bilan tasdiqlangan Davlat dasturining 34-bandiga muvofiq " <b>Mening fikrim</b> " maxsus veb-portali tashkil etildi. Ushbu portal orqali fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи palatalari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga elektron jamoaviy murojaat qilish tizimi joriy etildi.  |
| 2018-yil 1-fevral   | O'zbekiston Respublikasi <b>Transport vazirligi</b> tashkil etildi (PQ-4143).  |
| 2018-yil 19-fevral  | O'zbekiston Respublikasi <b>Axborot texnologiyalari va</b>   |

|                       |  |
|-----------------------|--|
|                       | <b>kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tashkil etildi (PQ-3549).</b>   |
| 2018-yil 1-aprel      | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida <b>Davlat xizmatlari agentligi</b> tashkil etildi. Dastlab xizmat turlari 37 ta bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib ular soni 157 taga yetdi.                    |
| 2018-yil 2-aprel      | O'zbekiston Respublikasi <b>Qurilish vazirligi</b> tashkil etildi (PQ-3646).   |
| 2018-yil 12-aprel     | O'zbekiston Respublikasining " <b>Jamoatchilik nazorati to'g'risida</b> "gi Qonuni qabul qilindi (O'RQ-474).   |
| 2018-yil 17-aprel     | O'zbekiston Respublikasi <b>Suv xo'jaligi vazirligi</b> tashkil etildi (PQ-3672).<br>O'zbekiston Respublikasi <b>Qishloq xo'jaligi vazirligi</b> tashkil etildi (PQ-3671).                                       |
| 2018-yil 4-may        | "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyatni institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-5430) qabul qilindi. |
| 2018-yil 24-may       | <b>O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti</b> tashkil etildi (PQ-3737).  |
| 2018-yil 4-iyul       | "Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-3837) qabul qilindi.                              |
| 2018-yil 13-iyul      | "Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-5482) qabul qilindi.          |
| 2018-yil 6-avgust     | "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining hududiy filiallarini tashkil etish to'g'risida" Prezident Qarori (PQ-3901) qabul qilindi.                                      |
| 2018-yil 18-avgust    | <b>Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiysi</b> tasdiqlandi.  |
| 2018-yil 15-oktabr    | "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-499) qabul qilindi.   |
| 2018-yil 14-noyabr    | O'zbekiston Respublikasining " <b>Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun</b> " ko'krak nishoni ta'sis etildi (PQ-4017).  |
| 2018-yil 22-23-noyabr | Samarqandda Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi bo'lib o'tdi.  |
| 2019-yil 8-yanvar     | <b>O'zbekiston Ekologik partiyasi</b> tashkil topdi.   |
| 2019-yil 9-yanvar     | "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-5618) qabul qilindi.                               |

|   |  |
|---|--|
| 2019-yil 1-fevral                         | O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tashkil etildi.   |
| 2019-yil 2-fevral                         | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzurida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tashkil etildi.   |
| 2019-yil 27-may                           | "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-5729 qabul qilindi).   |
| 2019-yil 21-iyun                          | SH.Mirziyoyev Oliy Majlis Senatining 20-yalpi majlisida ishtirok etib nutq so'zladi.   |
| 2019-yil 25-iyun                          | O'zbekiston tarixida ilk bor Saylov kodeksi qabul qilindi.   |
| 2019-yil 3-oktabr                         | "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (PQ-4472) qabul qilindi.  |
| 2019-yil 30-oktabr                        | "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-4501) qabul qilindi.  |
| 2019-yil 22-dekabr<br>(2020-yil 5-yanvar) | <b>O'zbekistonda Xalq deputatlari tuman, viloyat va shahar Kengashlariga hamda Qonunchilik palatasi deputatligiga saylovlar bo'lib o'tdi.</b><br>Saylovda 50 ga yaqin davlat hamda 10 ta xalqaro tashkilotdan 825 ta kuzatuvchi ishtirok etdi.<br>Saylov natijalariga ko'ra, parlament quyi palatasiga 150 nafar deputat, shu jumladan, Liberal-demokratik partiyasidan 53, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan 36, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 22, "Adolar" sotsial-demokratik partiyasidan 24, O'zbekiston Ekologik partiyasidan 15 nafar deputat saylandi.<br>Saylangan 150 nafar deputatlarning 48 nafari (32%)ni xotin-qizlar tashkil etdi. |
| 2020-yil 20-yanvar                        | Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Oliy Majlis Senatining birinchisi majlislarida nutq so'zladi.   |
| 2020-yil 21-yanvar                        | Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisida nutq so'zladi.  |
| 2020-yil 24-yanvar                        | Toshkentda " <b>Yangi O'zbekiston</b> " gazetasining ilk soni chiqdi.  |
| 2020-yil 2-fevral                         | <b>O'zbekistonda Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tashkil etildi.</b> Mazkur jamoat fondining maqsadi ommaviy axborot vositalarining moddiy-teknik bazasini mustahkamlash, jurnalistlar va blogerlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularga huquqiy, tashkiliy, texnik yordam ko'rsatishdir.  |

|                    |  |
|--------------------|--|
| 2020-yil 17-fevral | Birlashgan Arab Amirliklari (Dubay)da bo'lib o'tgan Butunjahon ayollar forumida O'zbekiston delegatsiyasi ham ishtirok etdi.   |
| 2020-yil 18-fevral | <b>O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo'mitasi o'mida "Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi"</b> tashkil etildi (PQ-4602).   |
| 2020-yil 18-fevral | O'zbekistonda birinchi marta ayol kishi – Dilfuza Uralova Sirdaryo viloyatining Boyovut tumani hokimi sifatida tanishtirildi. Undan keyin Bo'ston, Olot, Qarshi, To'raqo'rg'on tumanlari va Kattaqo'rg'on shahriga ayol hokimlar tayinlandi.             |
| 2020-yil 26-aprel  | "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasini tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-5980) qabul qilindi.  |
| 2020-yil 22-iyun   | <b>Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi</b> (PF-6012) qabul qilindi.  |
| 2020-yil 29-iyun   | "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon asosida <b>Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi</b> tashkil etildi. |
| 2020-yil 28-avgust | Yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududi tuzilishi to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-635) qabul qilindi.   |
| 2021-yil 26-fevral | Oliy Majlis Senati Raisi T.Norboyeva raisligida <b>O'zbekiston Xotin-qizlar jamoatchilik kengashi</b> tashkil etildi.  |
| 2021-yil 28-may    | Oliy Majlis Senati Qarori bilan " <b>2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi</b> " (SQ-297-IV) qabul qilindi.   |

## **6-MAVZU: O'ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLARNING AMALGA OSHIRILISHI, BOZOR MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI**

**Reja:**

- 1. Bozor munosabatlariiga o'tishning milliy modeli: evolyutsiyasi, xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlari.**
- 2. Iqtisodiyotdagi muhim tarkibiy o'zgarishlarning amalga oshirilishi va sanoatning rivojlanishi.**
- 3. Qishloq xo'jaligida yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tishning asosiy yo'nalishlari va bosqichlari.**
- 4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning shakllanishi hamda rivojlanishi.**
- 5. Zamonaviy transport-kommunikatsiya tizimining shakllanishi.**

**Tayanch tushunchalar:** Taraqqiyotning "O'zbek modeli", Bozor iqtisodiyoti, O'tish davri, Xususiy lashtirish, Biznes, Renta, Kichik biznes, Xususiy tadbirkorlik, Makroiqtisodiyot, Menejment, Infratuzilma, Investitsiya, Yoqilg'i-energetika mustaqilligi, Oziq-ovqat mustaqilligi, Sanatsiya, Stagnatsiya, Diversifikatsiya, Agrar islohotlar, Konvertatsiya, Klasterlar.

- 1. Bozor munosabatlariiga o'tishning milliy modeli: evolyutsiyasi, xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlari.**

O'zbekiston deyarli 70 yil mobaynida Sovet tuzumiga nafaqat siyosiy balki iqtisodiy qaram xolatda yashadi. Yillar davomida O'zbekistonning chinakam manfaatlari, o'ziga xos sharoti va imkoniyatlari hisobga olinmasdan iqtisodiy siyosat yurgizildi. Natijada xalq xo'jaligining nuqsonli, bir tomonlama xom ashyo yetishtirishga ichtisoslashgan iqtisodiy tuzilmasi shakllandi. Respublika ayrim xom ashyo turlarini, yoqilg'i, asbob-uskunalar va texnologiyanigina emas, balki hayotiy muhim oziq-ovqat mahsulotlarini, xalq iste'moli mollarini ham chetdan keltirishga majbur bo'ldi. Mustamlakachilik siyosati oqibatida O'zbekiston iqtisodi zaif bo'lgani holda, o'z yeridagi boyliklarni o'zi tasarruf etish huquqidam ham mahrum edi. Oltin, qimmatbaho va rangli metallar, strategik ahamiyatga ega materiallar, jahon bozorida o'ta xaridorgir bo'lgan boshqa qimmatbaho mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishdan keladigan foyda O'zbekiston xazinasiga tushmas edi.

1991-yilning oxiri va 1992-yilning boshida respublikamiz iqtisodiyoti juda og'ir ahvolga bo'lib, naq ocharchilik ostonasida turardik. O'zbekistonni bunday iqtisodiy tanglikdan taraqqiyot yo'liga chiqarish uchun mamlakat iqtisodiy tizimini yangilash, eski mustabid-rejali iqtisoddan yangi bozor iqtisodiga o'tish taqozo etilardi. O'zbekistonning eng yangi tarixida mamlakatning aniq va puxta rivojlanish strategiyasi mustaqillikka erishilganidan so'ng ishlab chiqildi va izchilik bilan amalga oshirila boshlandi. Yangi iqtisodiy tizimga o'tish modelining asosiy tamoyillari, uni amalga oshirish yo'llari, bosqichlari O'zbekistonning Birinchi

Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi va u ilmiy asoslangan mashhur besh tamoyilda o'z aksini topdi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat bo'ldi:

Birinchidan, iqtisodiyotni mafkuradan batamom xoli qilish;

Ikkinchidan, davlatning o'zi eski tuzumdan yangi tuzumga o'tish davrida bosh islohotchi bo'lishi zarur;

Uchinchidan, Qonunning ustuvorligi, yangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanmog'i zarur;

To'rtinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tishda kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, davlatning aholini ijtimoiy nochor guruhlarini qo'llab-quvvatlash borasida mas'ul bo'lishidir;

Beshinchidan, islohotlarni, bozor munosabatlarini shakllantirishni puxta o'ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim.

Taraqqiyotning milliy modeli tanlanishida mamlakatimizning iqtisodiy ijtimoiy sharoiti va salohiyatidan, xalqimizning tarixi, milliy urf-odatlari, diniy e'tiqodidan kelib chiqildi. Bunda ko'plab rivojlangan davlatlar tajribasi mukammal o'rjanildi va inobatga olindi.

Istiqlol yillarda mulkchilik tarkibida tub o'zgarishlar yuz berdi, amalda ko'p ukladli iqtisodiyot shakllandı. Uning tarkibida xususiy mulk salmoqli o'rın egalladi. Taraqqiyotning dastlabki o'n yilliklarida yalpi ichki maxsulot tarkibida nodavlat sektorining ulushi 80 foizdan oshishiga erishildi.

## 2. Iqtisodiyotdagi muhim tarkibiy o'zgarishlarning amalga oshirilishi va sanoatning rivojlanishi.

Sobiq ittifqodosh respublikalar orasida faqat O'zbekistonda 1996-yildan boshlab izchil iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlandi. Agar 1996-2003-yillarda o'rtacha o'sish sur'ati 4,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2004-yildan boshlab bu jarayon yangi bosqichga ko'tarilib, yuqori darajada yiliga o'rtacha 7,5-9 foiz o'sishni tashkil etdi.

Istiqlol yillarda Buxoro neftni qayta ishslash zavodi, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi, Qo'ng'irot soda zavodi, Dehqonobod kaliyli o'gitlar zavodi, Asakadagi yengil avtomobillar, Samarqanddagi yuk avtomobili va avtobuslar ishlab chiqaradigan zavodlar, yuzlab zamонави yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari ishga tushirildi.

2017-yil 7-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining uchinchi ustivor yo'nalishi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallasshtirishning ustuvor yo'nalishlari" deb belgilanib, 2017-2021-yillarda quyidagi yo'nalishlarda faol islohotlar amalga oshirildi:

Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish;

Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish;

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy

tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institusional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish;

Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish.

Harakatlar strategiyasiga muvofiq valyuta bozorini liberallashtirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan kompleks chora tadbarlar amalga oshirilib, 2017-yil 5-sentabrda milliy valyuta – so'mning erkin konvertatsiyasiga ruxsat berildi.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlarini rejadan tashqari tekshirish bekor qilinib, ularga davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibi soddalashtirildi. Prezident huzurida tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil instituti (Ombudsman) ta'sis etildi.

2017-yilda mamlakatimizda 12 ta erkin iqtisodiy va 45 ta sanoat zonasining faoliyati yo'lga qo'yildi. Shular hisobidan 336 mingdan ziyod yangi ish o'rinnari tashkil etildi. Mazkur yilda 2,5 trln. so'm investitsiya o'zlashtirildi, 510 mlrd. so'mlik 1021 ta investitsiya loyihalari amalga oshirildi.

2021-yil holatiga ko'ra mamlakatimizda 23 ta erkin iqtisodiy va 348 ta kichik sanoat zonasasi faoliyat yurita boshladi. Erkin iqtisodiy zonalarda umumiy qiymati 2,6 mlrd. dollarlik 453 ta loyiha amalga oshirilib, 36 mingga yaqin ish o'mni yaratildi. Kichik sanoat zonalarida esa 5 trillion so'mlik 1 ming 497 ta loyiha ishga tushirilib, 36 mingdan ziyod kishining bandligi ta'minlandi.

2018-yilda mamlakatimizning yalpi ichki maxsuloti o'sishi 5,4 % (406,6 trln. so'm)ni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich mos ravishda 5,6 % (511,8 trln. so'm)ni tashkil etdi.

2019-yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalgan xorijiy investitsiyalar 4,2 mlrd. dollami tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 3,1 mlrd. dollarga yoki 3,7 barobar o'sdi. Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 37 foizga yetdi. Sanoatning 12 ta yetakchi tarmog'ida modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish dasturlari jadal amalga oshirila boshlandi. Natijada 2019-yilda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, eksport 28 foizga ko'paydi. Oltin-valyuta zaxiralarimiz 2019-yil davomida 2,2 mlrd. dollarga ortib, 28,6 mlrd. dollarga yetdi.

Iqtisodiyotdagi tizimli o'zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi 2018-yilda 35 foizni tashkil etgan bo'lsa 2019-yilda bu ko'rsatkich 37 foizga oshirildi.

Milliy iqtisodiyotning rivojiga jiddiy turtki beradigan sohalarni rivojlantirish maqsadida 2019-yilda zargarlik sohasini rivojlantirish, Atom energetikasini rivojlantirish, Kimyo sanoatini yanada isloh qilish, sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan maxsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, elektrotexnika sanoatini rivojlaantirish hamda eksport salohiyatini oshirish bo'yicha bir qator Prezident qaror va farmonlari qabul qilindi.

Davlat statistika qo'mitasi uy xo'jaliklari tanlama kuzatuvlari ma'lumotlari ko'ra 2019-yilda o'rtacha har 100 ta uy xo'jaligiga 47 ta yengil avtomobil to'g'ri kelgan. Shuningdek, 100 ta uy xo'jaligiga to'g'ri keladigan televizorlar soni 160 ta, kompyuterlar soni esa 55 tani tashkil etgan. 100 ta uy xo'jaligidagi aholiga 282 ta telefon apparati to'g'ri kelgan.

2019-yil 24-yanvarda President Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi 2012-yilda tuzilgan **Xususiy lashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlanтирish davlat qо'mitasi** o'nida xususiy lashtirilgan korxonalarga ko'maklashish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish va raqobat muhitini rivojlanтирish maqsadida **Monopoliyaga qarshi kurashish qо'mitasi** tashkil etildi. Qarorga ko'ra, qо'mita o'z faoliyatini barcha davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdon shaxslardan mustaqil ravishda amalga oshiradi va o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziriga hamda qonun hujjatlarda nazarda tutilgan alohida masalalar bo'yicha bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi va hisobot beradi.

Amalga oshirayotgan islohotlarimiz jahon hamjamiyati tomonidan munosib baholanmoqda. Xususan, dunyodagi nufuzli nashrlardan biri – "Ekonomist" jumali O'zbekistonni 2019-yilda islohotlarni eng jadal amalga oshirgan davlat sifatida "Yil mamlakati" deb e'tirof etdi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev to'g'ri ta'kidlaganlaridek, bunday baho barchamizga cheksiz g'urur, iftixor va kuch bag'ishlaydi, yangi marralarga ruhlantiradi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga 83 mlrd. dollar investitsiya kiritildi. 2,4 mln ga yaqin yangi ish o'rinnari yaratildi. 2020-yil pandemiya shroitida 206 ta yangi yirik quvvatlar ishga tushirildi. Jumladan, Sho'rtan gaz-kimyo kompleksida sintetik suyuq yoqilg'i, "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyatida azot kislotasi, ammiak va karbamid ishlab chiqarish quvvatlari barpo etildi, Yangi Toshkent metallurgiya zavodi, Toshkent metrosining Sirg'ali tarmog'i, yer usti halqa yo'lining birinchi bosqichi ishga tushirildi.

### 3. Qishloq xo'jaligida yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tishning asosiy yo'nalishlari va bosqichlari.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, xalq xo'jaligining barcha sohalarida tub islohotlar o'tkazish jarayoni boshlandi. Bu, tabiiyki, qishloq xo'jaligi sohasiga ham xos bo'lib, natijada sohada yangi istiqbolli xo'jalik yuritish shakllari paydo bo'ldi.

1990-yillarning boshida O'zbekiston aholini oddiy turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari bilan ham ta'minlay olmaydigan darajaga tushib qolgan edi. Ma'lumotlarga qaraganda, 1990-yilda aholi iste moli uchun zarur bo'lgan g'allaning 82 foizi, kartoshka, go'sht va go'sht mahsulotlarining 50 foizi, sut va sut mahsulotlarining 60 foizga yaqini chetdan keltirilar edi. Mamlakat importi tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 70 foizdan ortiqni tashkil qilgan.

Albatta, respublika qishloq xo'jaligining holati bosqichma-bosqich, keng qamrovli, islohotlarning bevosiga mavjud shart-sharoitlar hisobga olingan holda amalga oshirilishini taqozo etar edi.

Shu nuqtai nazardan ham qishloq xo'jaligida islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

1991-1997-yillarda rivojlanishning "O'zbek modeli" asosida olib borilgan islohotlarning huquqiy poydevorini yaratishga katta e'tibor qaratildi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini samaralari tashkil qilish va rivojlanтирish borasida yangi qonunlar va normativ hujjatlar qabul qilindi. 1996-yil 26-noyabrda Qishloq va Suv xo'jaligi vazirligi tashkil etildi.

2004-yilda “Fermer xo’jaligi to‘g’risida” yangi tahrirdagi qonun qabul qilindi.

2008-2009-yildan fermer xo’jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonlarini yanada maqbullashtirish ishlari boshlandi. Germaniya, AQSH, Italiya, Fransiya va Rossiya davlatlari bilan tashkil etilgan va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan qo’shma korxonalarda bir necha turdagи yangi qishloq xo’jaligi traktorlari va mashinalari ishlab chiqarilib, mashina-traktor parklari va fermer xo’jaliklariga yetka-zib berildi.

2016-2017-yildan boshlab mamlakatimizda qishloq xo’jaligi sohasiga tamomila yangicha yondoshuvdagi islohotlar joriy qilina boshlandi. Mavjud muammolar ro‘yrost aytilib, uni bartaraf qilish choralar ko‘rila boshlandi.

“Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida” (PQ-2841, 16.03.2017), “Respublika ipakchilik tarmog‘i korxonalarini yanada qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g’risida” (F-4881, 24.03.2017), “Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida” (PQ-2939, 01.05.2017), “Moliya vazirligi huzurida Qishloq xo’jaligini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish to‘g’risida” (PF-5095, 27.06.2017), “Ilg‘or fermer”, “Mehnatkash dehqon” va “Na’munali tomorqachi” ko‘krak nishonlarini ta’sis etish chora-tadbirlari to‘g’risida” (PQ-3803, 26.06.2018), “Qishloq xo’jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g’risida” (PF-5853, 23.10.2019), “Respublika hududlarini qishloq xo’jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida” (PQ-4709, 11.05.2020)gi Prezident Qarorlari, Farmon va Farmoiyshlari qishloq xo’jaligidagi islohotlar samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilmoqda.

2017-yil holatiga ko‘ra mamlakatimizda 51 foizdan ziyod aholi qishloq joylarda yashasada qishloq xo’jaligi mahsulotlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 17 foizdan oshmagan. Agrar soha mahsulotlarini qayta ishlash hajmi esa 10 foizga ham yetmasdi. Holbuki, rivojlangan davlatlarda bu ko‘rsatkich 50 foizdan ortiqni tashkil etadi.

O‘zbekiston 2017-yilda 1,5-2 mld. Dollar miqdorida meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilgan. Lekin O‘zbekistonda ushbu sohada yiliga 10-15 mld. Dollar mahsulot eksport qilish imkoniyati mavjud.

So‘nggi yillarda qishloq xo’jaligi sohasida fermer va dehqonlarning manfaatdorligini oshirish maqsadida 2018-yildan sohaga ilg‘or texnologiyalar va klaster tizimi joriy etila boshlandi. 2020-yilda mamlakatimizning paxta-to‘qimachilik yo‘nalishidagi klasterlari soni 75 taga yetdi.

2019-yilda qishloq xo’jaligi xodimlari fidokorona mehnatlari tufayli respublikamizda 7 mln. 130 ming tonna g‘alla, 2 mln. 845 ming tonna paxta, 19 ming tonna pilla, 21 mln. Tonna meva-sabzavot, 400 ming tonna sholi, 2 mln. 600 ming tonna go‘sht va 11 mln. Tonna sut maxsulotlari 8,1 mld. dona tuxum yetishtirildi. Natijada qishloq xo’jaligi maxsulotlaridan 217 trln. 700 mld. so‘m yoki 2018-yilga nisbatan 12 % ko‘p foyda olindi. Paxta xosilining 73 % paxta-to‘qimachilik klasterlari hissasiga to‘g’ri keldi.

2019-yilda meva-sabzavot maxsulotlarining 3,5 mln. Tonnasi qayta ishlanib,

350 mln. Dollarlik tayyor maxsulot eksport qilindi. 2020-2022-yillarda eksportni 5 mlrd. dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

2019-yil 580 ming hektar tabiiy va 28 ming hektar sun'iy ko'llarda 200 ming tonna baliq yetishtirildi. Asalarichilik uyushmasi a'zolari soni 14 mingdan oshib, 2019-yil 19 ming tonna asal yetishtirildi.

Qishloq xo'jaligidagi islohotlardan maqsad iqtisodiy foyda ko'rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, xalq farovonligini oshirishdan iboratdir. Ana shu maqsadda "2019-2024-yillarda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash milliy dasturi" qabul qilindi.

Respublikamizning umumjahon xo'jalik tizimiga bosqichma-bosqich va samarali integratsiyalashuvni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan agrar siyosatning strategiyasi va taktikasini oqilona belgilashga ko'p jihatdan bog'liq. Shuningdek, agrar sohaning barqarorligi, samaradorligi va yangi iqtisodiy munosabatlarning joriy etilishi mamlakat kelajagi va uning iqtisodiy qudratini belgilashda muhim omil hisoblanadi.

#### **4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning shakllanishi hamda rivojlanishi.**

Mamlakatimizda o'tkazilgan islohotlarning bosqichma-bosqichlik tamoyilidan kelib chiqqan holda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bir necha bosqichda olib borildi.

Birinchi bosqich (1991-1996-yillar)da mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish hamda bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosi bo'lган kichik mulkdorlar sinfini shakllantirish boshlandi. Shu bilan birga, bu bosqichda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit, xususiy mulkni himoya qilishning konstitutsiyaviy huquq va kafolatlarini ta'minlovchi qonunlar qabul qilindi. Natijada, 1995-yil oxiriga kelib, kichik korxona va mikrofirmalar soni 42,4 mingtaga yetib, 1991-yilga nisbatan 4,5 barobar o'sdi.

Ikkinci bosqich (1996-2000-yillar)da keng qamrovli xususiylashtirish amalga oshirilib, iqtisodiyot sohalariga xususiy kapitalni jalb qilish imkoniyatlari kengaytirildi, dastlabki xususiy tijorat banklari va bankdan tashqari moliya institutlari (kredit uyushmalari) o'z faoliyatini boshladi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar nati-jasida kichik biznes subyektlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2000-yilda 31 foizga yetdi.

Uchinchi bosqich (2000-2010-yillar)da makroiqtisodiy jabha, shu jumladan, tadbirkorlik sohasida ham iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi. 2000-yilda "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

To'rtinchi bosqich (2010-2016-yillar) 2011-yilning "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi hamda Davlat dasturida iqtisodiyotning muhim sohasi va harakatlantiruvchi kuchi bo'lган kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojiga ustuvor ahamiyat berish bo'yicha avvalgi yillarda boshlangan ishlarning uzviy davomi edi.

Beshinchi bosqichda (2017-yildan) tadbirkor-fuqarolar soliqdan qochish emas, uni vaqtida to'lashdan manfaatdor bo'lishi kerak tamoyili asosida islohotlar

boshlandi. Jahon bankining biznes yuritish sohasidagi 2018-yilgi reytingida mamlakatimiz qurilish bo'yicha 134-o'rinni egallagan. Bu esa sohada ko'plab muammolar borligidan dalolat beradi.

2019-yildan boshlab joriy etilgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g'oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo'llashdir. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlarma qulay muhit yaratishga erishish mumkin.

So'nggi yillarda, xususan 2019-yilda yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirildi. Natijada rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko'paydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Buning hisobidan 2019-yili soliq to'lovchilar ixtiyoroda 2 trillion so'm qoldi.

So'nggi yillarda Jahon bankining "Biznes yuritish" reytingida eng yaxshi 50 ta mamlakat qatoriga kirish bo'yicha barcha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. 2019-yilda qabul qilingan yangi Soliq kodeksiga muvofiq, 2020-yildan boshlab soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi. Solqlarni to'lash muddatini uzaytirish yoki bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat berish bo'yicha yengillashtirilgan mexanizmlar joriy etildi.

Shunday qilib, kuchli raqobat sharoitida milliy korxonalarimizning jahon xo'jalik tizimiga izchil kirib borishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim ahamiyat kasb etdi. Aynan iqtisodiyotda tarkibiy qayta qurishning jadallahushi, modernizatsiyalash va barqaror uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashga erishish ko'p jihatdan kichik tadbirkorlik rivojiga bog'liqdir.

##### **5. Zamonaviy transport-kommunikatsiya tizimining shakllanishi.**

1991-2021-yillar davomida mamlakatimizda zamonaviy transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish soxasida ham qator islohotlar amalga oshirildi. Chunonchi, respublika mustaqillikka erishganidan keyin transportning iqtisodiyotga va aholiga xizmat ko'rsatish sifatini tubdan yaxshilash va sohani boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi (1992-yil 28-yanvar), "O'zbekiston avtomobil transporti" ("O'zavtotrans") davlat-aksiyadorlik korporatsiyasi (1993-yil 8-yanvar, 1998-yil 11-iyuldan O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentlti), "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksiyadorlik kompaniyasi (1994-yil 7-noyabr) kabi idoralar tashkil etildi. Mamlakatda transport korxonalarini davlat ishtirokidagi aksiyadorlik kompaniyalarini, korporatsiyalarini, ochiq turdagи aksiyadorlik va mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga, jamoa korxonalariga aylantirildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarda xalqaro talablarga javob beradigan avtomobil yo'llari qurish, mayjudlarini xalqaro andozalarga moslashtirish, yo'llarni saqlash va ta'mirlash, yangi barpo etilayotgan sanoat hududlarini xalqaro magistrallar bilan bog'laydigan yo'llar qurish masalalariga e'tibor kuchaydi. 1996-yildan Toshkent-Andijon-O'sh magistralining 100 km.dan ortiq tog'li uchastkalarida qurilish ishlari boshlandi. Qamchiq va Rezak tonellari foydalanishga topshirildi. Olmaota-Bishkek-Toshkent-Termiz va Samarqand-Buxoro-Ashxabod-Turkmanboshi avtomobil yo'li, Yevropani Kavkaz orqali Osiyo bilan bog'laydigan avtomobil yo'li (Yevropa-

**Kavkaz-Osiyo transport yo'lagi**ning respublika hududidan o'tadigan qismini ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. O'zbekistonni Qozog'iston orqali Rossiya Federatsiyasi bilan bog'laydigan 340 kilometrli Qo'ng'irot-Beynov avtomobil yo'li qurilishining birinchi bosqichi yakunlandi.

2020-yil noyabr xolatiga ko'ra mamlakativiz hududida 42 869 km. Uzunlikdagi avtomobil yo'llari mavjud. Shundan xalqaro ahamiyatdagi yo'llar 3 993 km., davlat ahamiyatdagi yo'llar 14 203 km. Va mahalliy ahamiyatdagi yo'llar 24 673 km. Ni tashkil qiladi.

O'zbekistonning yagona temir yo'l tarmog'ini vujudga keltirish bo'yicha 1994-2002-yillarda uzunligi 700 kilometrga yaqin Navoiy-Uchquduq-Sulton Uvaystog'-Nukus temir yo'li qurib bitkazildi. 1996-yil 13-may kuni uzunligi 295 km bo'lgan Tajan-Seraks-Mashhad temir yo'li qurilib ishga tushirildi. 2007-yil 24-avgustda "Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on" temir yo'li ochildi. 223 kilometrdan iborat bu yo'l qisqa davrda, hammasi bo'lib 33 oyda, muddatidan ikki yil oldin ishga tushirildi. 2011-yil 30-avgustda "Toshkent-Samarqand" yo'nalishida "Afrosiyob" tezyurar poyezdi ishga tushirildi. Poyezd 2015-yil 5-sentabrda Qarshiga, 2016-yil 15-sentabrda Buxorogacha yetib bordi. Bu esa Toshkentdan Buxorogacha bo'lgan 600 kilometrlik masofani 8 soatdan 3 soat 20 minutga qisqartirdi.

2016-yil 22-iyun kuni umumiyligi 123,2 km., tunel uzunligi 19,2 km. Bo'lgan, dengiz sathidan 1456 metr balandlikdan o'tgan Angren-Pop temir yoli ishga tushirildi.

1992-yil yanvarda tashkil etilgan "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi bugungi kunda dunyoming 25 dan ortiq mamlakatiga parvozlarni amalga oshirib, yiliga qariyb 75 ming tranzit yo'nalishini boshqarmoqda. Aviakompaniya tarkibida faoliyat ko'rsatayotgan, so'nggi avlod aviatsiya texnikalariga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash bo'yicha Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan markazning xizmatlaridan 320 ta xorijiy aviakompaniya samolyotlariga aeronavigatsiya xizmati ko'rsatilmoqda.

Istiqlol yillarda "O'zbekiston havo yo'llari" aviakompaniyasi tarkibida 11 ta (Toshkent, Nukus, Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, Qarshi, Namangan, Andijon, Farg'on, Navoiy) zamonaliv aeroportlar jahon andozalari darajasida modernizatsiya qilindi. Markaziy Osiyodagi eng yirik xalqaro aeroport hisoblangan Toshkent aeroportida 3 ta terminal qurib ishga tushirildi. Buxoro, Samarqand va Urganch aeroportlari xalqaro aeroport maqomini oldi.

Iqtisodiyotimizning qon tomiri bo'lmish transport-kommunkatsiya sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida 2019-yil 1-fevralda O'zbekiston avtomobil transporti agentligi negizida O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tashkil etildi.

#### **Mavzuning asosiy tushunchalari:**

**AGRAR** (lotincha agros – yer, dala) – yerga, yerdan foydalanishga, unga egalik qilishga oid munosabatlarda ishlataladigan so‘z.

**BIZNES** (inglizcha “business” – faoliyat, mashg‘ulot) – daromad keltiradigan yoki boshqa naf beradigan ho‘jalik faoliyati; sohibkorlik-tijorat ishlari bilan shug‘ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo‘lish. Biznes tovar ishlab chiqarish va uni sotish, xizmat ko‘rsatish, transport va boshqa sohalardagi faoliyatdir. Biznes xo‘jalik yuritish ko‘lamiga qarab yirik, o‘rtalik mayda turlarga bo‘linadi. Yirik biznesga asosan ishlab chiqarishda 500 dan ortiq kishi band bo‘lgan, o‘rtalik biznesda 20-500 kishi band bo‘lgan korxona va firmalar, mayda biznesga 10-20 va undan kam kishi ishlaydigan korxonalar kiradi.

**BOZOR IQTISODIYOTI** – ko‘pchilik xalqlarga manzur bo‘lgan va ular kelajagini ta‘minlovchi hozirgi davrga xos umuminsoniy iqtisodiyot. Bozor iqtisodiyoti iqtisodiy faoliyatda erkinlikka, xo‘jalik yuritishda oqilonalik tamoyillariga asoslangan demokratik iqtisodiyotdir.

Bozor iqtisodiyotining o‘ziga xos rivojlanish mexanizmi bor. U iqtisodiy stimullarga, ya‘ni kishilarning to‘q va xotirjam yashash, obro‘-e‘tiborga ega bo‘lish, hayotda o‘z o‘rnini topish kabi manfaatlarni yuzaga chiqarishga asoslanadi. Bozor mexanizmi iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmidir. Bozor iqtisodiyotiga xos belgilardan biri erkin, ya‘ni liberallashgan narxlarning bo‘lishi va hamisha narxni hisobga olib, foyda-zararni nazarda tutgan holda ishlashdir.

**DIVERSIFIKATSIYA** (lotincha “diversus” – turlicha, “facare” – qilmoq) – 1) iqtisodiyotda har tomonlama kengayish, qo‘sishma tarmoq yaratish, tarmoqlar sonini oshirish. Ya‘ni mavjud iqtisodiy sharoitdan kelib chiqib, korxonaning ilgarigi tovarlariga o‘xhash yoki ilgari ishlab chiqargan maxsulot xiliga texnologik aloqasi bo‘lмаган yangi maxsulotlarni ishlab chiqarishga o‘tish; 2) pedagogikada ta‘lim tizimini tashkil etish tamoyili. Ta‘lim muassasasini ko‘p variantli tarzda tashkil qilish imkonini beradi va ta‘minlaydi, bir tomonidan jamiyat va ishlab yaiqarish talablarini, shaxsnинг manfaati va ehtiyojlarini maksimal darajada qondiradi, ya‘ni yagona davlat ta‘lim tizimidan chetga chiqish imkonini beradi.

**DIVIDENT** (lotincha “dividens” – taqsimlanadigan narsa) – aksioner jamiyat foydasining aksiya egasiga tegadigan, binobarin, uning daromadiga aylangan qismi. Har yili foya aksionerlar o‘rtasida (soliqlar to‘planib, ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun mablag‘ ajratilganidan so‘ng) ularning qo‘lidagi aksiya miqdori va turiga qarab divident taqsimlanadi.

**INFLYATSIYA** (lotincha “inflatio” – bo‘rtish, shishish, qappayish) – narxnavo umumiylar darajasining oshishi, real tovarlar takliflariga nisbatan pul massasi ortib, pulning qadr-qimmati va xarid qobiliyatining pasayib ketishi. Iqtisodda vujudga keladigan muammolar pul bosib chiqarishni ko‘paytirish orqali hal qilinsa yoki qog‘oz pullar hajmi o‘zgarmagan holda tovar hajmi kamaysa inflyatsiya yuz beradi.

**INFRA TUZILMA** (lot. Infra – ostida) – nomoddiy ishlab chiqarish sektorini. Ishlab chiarish va tovar muomalasi, shuningdek, inson hayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan meyoriy sharoitni ta‘minlashga xizmat qiluvchi turli-tuman yordamchi xizmat ko‘rsatuvchi sohalar majmui. Infratuzilmaning ishlab chiqarish va ijtimoiy-maishiy turi mavjud. Ishlab chiqarish infratuzilmasiga ishlab chiqarishga xizmat

qiluvchi sohalar – yuk tashish transporti, elektr va issiqlik ta'minoti, yo'l xo'jaligi, suv xo'jaligi, ombor xo'jaligi, ilmiy konstrukturlik xizmati, axborot xizmati va boshqalar kiradi. Ijtimoiy-maishiy infratuzilmaga aholiga xizmat ko'rsatib, uning ehtiyojiga xizmat qiluvchi sohalar – maorif, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, maishiy xizmat va boshqalar kiradi.

**INVESTITSIYA** (nemischa "investition" – kiyintirmoq, yasantirmoq) – mablag'ni, ma'lum boylikni qo'shimcha daromad olish maqsadida ishlab chiqarish yoki boshqa sohaga joylashtirish. Mablag' sarflash.

**IPOTEKA** (yunoncha "hypothek" – garov) – ssuda, qarz olish maqsadida ko'chmas mulk (yer, imorat)ni garovga qoyish. Qishloq xo'jaligida va sanoatda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida maxsus ipoteka banklari tashkil etiladi.

**KLASTER** (ing. Cluster – bog'lam, tutam, shingil) – turli hududdagi bir tarmoq yoki sohaga oid bir nechta korxona yoki tadbirkorlarning kreativ yechim uchun o'zaro to'planib, uyg'unlashgan faoliyati. Klasterlar sanoat, qishloq xo'jaligi, ta'lim, tibbiyot va boshqa yo'nalishlarda tazilishi mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyotida klaster tizimiga 2017-yildan o'tila boshlandi. Bugungi kunda mamlakatimizda paxta yetishtirish va to'qimachilik, qorako'chilik, tibbiyot, toshni qayta ishlash, qurilish, chiqindini qayta ishlash, turizm kabi sohalarda klasterlar faoliyat yuritmoqda.

Masalan, paxtachilik sohasida 2017-yilda O'zbekistonda 1 dona klaster ishlagan bo'lsa, 2018-yilda ularning soni 15 taga, 2019-yilda 75 taga yetdi. 2020-yilda esa 100 dan ortiq klasterlar tashkil etildi. Paxtachilik klasteri bu – paxtani yetishtirishdan tortib, undan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi.

**KONSESSIYA** (lotincha "concessio" – ruxsat, yon berish) – davlatga tegishli tabiiy boyliklar, korxonalar va boshqa obyektlarni xorijiy davlatlarga, kompaniyalarga va ayrim shaxslarga ma'lum muddatga foydalanishga berish.

**KONYUNKTURA** – ahvol. Biror sohada yuzaga kelgan ahvol, vaziyat, mavjud sharoit; xalqaro ahvol; siyosiy ahvol; siyosiy sharoit.

**KOVORKING** (ing. Coworking) – yakka yoki guruh bo'lib idoraviy ishlar, startaplar yoki ta'lim uchun mo'ljallangan, zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan ta'minlangan joy.

**LIBERALIZATSIYA** – davlatning iqtisodiy hayotga aralashuvini cheklash. Bozorlarning va raqobatning ochilishi, bozorning amal qilishiga qoyilgan turli xil cheklashlarning olib tashlanishi, baholar, foizlarni ma'muriy yo'l bilan nazorat qilishning susayishi, markazlashgan holda dotatsiya berish, subsidiya shaklidagi kreditlarning kamayishi va shu kabilar.

**LIKVIDLIK** – moddiy boyliklarni va boshqa aktivlarni tez sotish va moliya vositalariga aylantirish. Bank tizimida banklarning to'lov qobiliyati. Ya'ni bank tomonidan o'z to'lov majburiyatlarini vaqtida va to'liq bajara olish qobiliyati.

**LITSENZIYA** (lotincha "licentia" – erkinlik, huquq) – maxsus vakolatlari davlat organi tomonidan amaldagi qonun hujjalariiga ko'ra litsenziyalanishi lozim bo'lgan faoliyat turi bilan muayyan muddat davomida shug'ullanish uchun beriladigan ruxsat.

**LIZING** (lotincha “lizing” – bog’layman) – ijaraga beruvchi shaxsnimoliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha ijarachi ko‘rsatgan mulkni (mashina, asbob-uskuna, transport, ombor kabilar) u ko‘rsatgan sotuvchidan sotib olishi va ijarachiga ushbu mulkni haq evaziga tadbirkorlik maqsadida egalik qilish va foydalanish uchun muayyan vaqtga berishi.

**LOFT** (ing. “loft” – chordoq so‘zidan) – turarjoy yoki idora uchun qayta jihozlangan sanoat, ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan eski ishchi maydon.

**LOGISTIKA** – aniq hisob-kitob qilish san’ati, oqilonqa boshqarish tizimi degan ma’noni anglatib, tadbirkorlik faoliyatiga ilmiy nuqtai-nazardan yondoshishdir. Eksport, import, yig’ish, yuklash, qadoqlash, qayta ishlash, saqlash, tovar va xom ashyoni yetkazib berish, bojxona xizmatlardan tortib, reklama va marketing ishlari bugungi zamoniaviy logistika markazlarining vazifalariga kiradi. Logistik xizmatlarning sifatli tashkil etilishi mamlakatda xususiy biznes va tadbirkorlikning rivojiga turki bo‘ladi. Logistika markazi ishlab chiqaruvchi korxonalarining sarf-xarajatlarini pasaytitirishga xizmat qiladi.

2008-yil 2-dekabrda Prezident Farmoniga asosan ilk bor Navoiy shahrida erkin industrial iqtisodiy hudud va xalqaro intermodal logistika markazi tashkil etildi.

**LOUKOSTER** (ing. Lowcoster) – nisbatan arzon chiptalar taklif etadigan aviakompaniya.

**MAKRO VA MIKRO IQTISODIYOT** – iqtisodiyotning turli darajalaridagi holatini tahlil qilishda ishlatalidigan tushuncha. Mikro iqtisodiyot bu – ayrim korxona, xo‘jalik yoki oila doirasidagi iqtisod. Makro iqtisodiyot – butun jamiyat, umum davlat va xalqaro miqyosidagi yoki milliy iqtisod, turli sohalar, tarmoqlar majmuidan iborat.

**MARKETING** (inglizcha “market” – bozor, sotish, ayrboshlash) – firma (korxona) ishini bozor sharoitiga moslashtirishga qaratilgan maxsus faoliyat. Marketing ishi bozomi o‘rganish, narxlarni shakllantirish, bozor talablariga monand ravishda tovarlarni ishlab chiqarish, ularni vaqtida bozorga yetkazish, reklama qilish va xaridorlarga xizmat ko‘rsatishni o‘z ichiga oladi.

**MENEJER** (inglizcha “manager” – boshqaruvchi) – korxona va qarz beruvchi tashkilot hamda uning quyi qatlaming boshqaruvchisi. Menejerlar maxsus tayyorgarlik ko‘rgan, boshqarishning sir-asorolarini, qonun-qoidalari chuqur biluvchi malakali mutaxassis-boshqaruvchilar hisoblanadi.

**MORATORIY** (lot. Moratorium – sekinlatuvchi, muddatni orqaga suruvchi) – muayyan majburiyat va harakatlarning ijro etish muddatini hukumat tomonidan ma’lum vaqtga uzaytirish, to‘xtatib qo‘yish. Moratoriylar favqulodda holat (masalan urush, tabiiy ofat) munosabati bilan ham e’lon qilinadi.

**SANATSIYA** (lotincha sanatio – davolash, sog‘lomlashtirish) – korxona va tashkilotlarning moliyaviy ahvolini, uning barbob bo‘lishi oldini olish yoki raqobatbardoshlilagini oshirish maqsadida davlat yoki boshqa manfaatdor tashkilotlar tomonidan moliyaviy yordam berish.

**STARTAP** (ing. Startup – “start oluvchi”, “boshlang‘ich”) – yosh tadbirkorlar amalga oshirmoqchi, tezda muvaffaqiyatga erishish niyatida bo‘lgan loyihalari. Dastlab 1973-yilda “Forbes” jurnalida ishlatilgan.

**TREND** – mavsum xiti, eng dolzARB, so'nggi urf.

**XAB** (ing. Hub – “markaz” ma’nosimi anglatadi) – ko’ptarmoqli tizim. 1.

Kompyuterlarni internet tarmog’iga ulovchi konseNtrator vositasi. 2. To’qnash keluvchi reyslarda yo’lovchilar almashuvchi aeropunkt.

#### Mavzuga oid muhim sanalar:

|                    |   |
|--------------------|---|
| 1989-yil 19-avgust | O’zbekiston hukumati tomonidan “Qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta’minalash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish haqida” Qaror qabul qilindi. Qarorda qishloqlarda yashovchi har bir kishiga o’ttacha 25 sotixdan yer ajratib berish va tomorqa maydonlarini qariyb 4,5 barobar ko’paytirish ko’zda tutilgan edi. Qaror doirasida 1989-1990-yillarda 700 ming oilaga yangi tomorqa yerlari berildi. |
| 1990-yilda         | O’zbekistonda aholi iste’moli uchun zarur bo’lgan g’allaning 82 foizi, kartoshka, go’sht va go’sht mahsulotlarining 50 foizi, sut va sut mahsulotlarining 60 foizga yaqini chetdan keltirilar edi. Respublika importi tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 70 foizdan ortiqni tashkil qilgan.   |
| 1990-yil oktabr    | O’zbekistonning yangi tarixida birinchi marta O’zbekiston Oliy Kengashi 3-sessiyasida “O’zbekiston xalq xo’jaligini barqarorlashtirishning asosiy yo’nalishlari va bozor iqtisodiga kirib borishning tamoyillari” deb nomlangan dastur qabul qilindi.   |
| 1990-2007-yillar   | O’zbekiston yalpi ichki maxsulotida nodavlat sektorining ulushi 38,1 % dan 76 % ga, sanoatda 10,4 % dan 80 % ga, qishloq xo’jaligida 65 % dan 100 % ga, chakana savdoda 51 % dan 100 % ga oshgan.   |
| 1991-yilda         | O’zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki maxsulotdag‘i salmog’i 1,5 % ni tashkil etardi.   |
| 1991-yil 1-yanvar  | Iste’mol bozorini himoyalash va mahsulotlarni faqat O’zbekiston fuqarolariga sotish uchun respublikamizda bir martalik kuponlar muomalaga kiritildi.  |
| 1991-yil 18-noyabr | “Davlat tusarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi.  |
| 1991-yil 21-dekabr | “Dehqon (fermer) xo’jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash to’g’risida”gi Prezident Farmoni e’lon qilindi.  |
| 1991-yil           | Markaziy Osiyoda birinchi bo’lib O’zbekistonda “MTS-O’zbekiston” (“O’ZDUNROBITA”) uyalı aloqa   |

|                    |   |
|--------------------|---|
|                    | kompaniyasi o'z faoliyatini boshladi.   |
| 1991-1992-yillar   | O'zbekiston tomonidan Rossiya va boshqa mamlakatlardan sotib olinadigan 6 mln. tonna neft maxsulotlari uchun 2 mln. tonna paxta (600 ming tonna tola) berilar edi.  |
| 1991-1996-yillar   | Respublikamizga don maxsulotini import qilish 4 mln. tonnadan 5,4 baravar qisqartirishga erishilib, milliy ishlab chiqarish hisobiga ichki extiyojni to'liq ta'minlashga erishildi.   |
| 1991-2000-yillar   | O'zbekistonda 58 ta tovar va xom ashyo birjası, 24 ta biznes inkubator, 496 ta auditorlik va konsalting firmalari tashkil etildi.   |
| 1991-2001-yillar   | O'zbekistonda 727 km. Uzunlikdagi avtomobil yo'llari, 460 ta ko'priklar va yo'l o'tkazgichlar, 4000 ga yaqin avtopavilyon qurildi.  |
| 1991-2000-yillar   | O'zbekiston importida oziq-ovqat maxsulotlari ulushi 73,8 % dan 15 % ga tushdi.   |
| 1991-2002-yillar   | O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan banklar soni 6 tadan 40 taga yetdi. Shundan 2 tasi davlat, 17 tasi xususiy, 4 tasi xorijiy sarmoya ishtirokida tashkil etildi. Shulardan 17 tasi eng nufuzli banklar bilan korrespondentlik aloqalari o'matgan. |
| 1991-2002-yillar   | O'zbekistonda 1872 ta yangi korxona qurildi. 9,5 mingdan ortiq yangi maxsulot turlarini ishlab chiqarish yo'liga qo'yildi.  |
| 1991-2008-yillar   | O'zbekistonda don yetishtirish 1,9 mln. Tonnadan 5,4 mln. Tonnaga, bug'doy yetishtirish 600 ming tonnadan 5 mln. Tonnaga o'sdi.   |
| 1991-2009-yillar   | O'zbekiston iqtisodiyotida davlat mulki ulushi 90 % dan 10 % gacha qisqardi. Aholining 77 % nodavlat sektorida ish bilan band bo'ldi.   |
| 1991-2013-yillar   | O'zbekistonda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3,4 barobar oshdi. Ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining saltanat 40 foizi eksport qilindi.   |
| 1991-2014-yillar   | O'zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokida korxonalar soni 30 tadan 4,7 mingtaga (156 baravardan ziyod) o'sdi.  |
| 1992-yil 28-yanvar | <b>"O'zbekiston havo yo'llari"</b> milliy aviakompaniyasi tashkil etildi.   |
| 1992-yil 3-iyul    | <b>"Dehqon (Fermer) xo'jaligi to'g'risida"</b> gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.  |
| 1992-yil 24-avgust | Toshkentda "DEUMotors" va "Avtoqishxo'jmash" konserni o'rtaida Asakada " <b>O'zDEUavto</b> " qo'shma korxonasi qurish to'g'risida shartnoma imzolandi.  |
| 1992-yil 5-noyabr  | Vazirlar Mahkamasi Asakada " <b>O'zDEUavto</b> " korxonasini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi. "DEUMotors" va  |

|                    |   |
|--------------------|---|
|                    | “O’zavtosanoat” uyushmasi ushbu qo’shma korxona ta’sischilari bo’lishdi.  |
| 1992-1995-yillar   | Davlat tasarrufidagi qishloq xo’jaligi korxonalarini xususiylashtirish, asosan, tugallandi. 1150 ta sovxozi, 1200 ta ferma xususiylashtirildi.  |
| 1993-yil 8-yanvar  | “O’zbekiston avtomobil transporti” (“O’zavtotrans”) davlat-aksiyadorlik korporatsiyasi (1998-yil 11-iyuldan O’zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi) tashkil etildi.  |
| 1993-yil mart      | “O’zDEUavto” qo’shma korxonasing qurilishi boshlandi.   |
| 1993-yil 7-may     | “Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g’risida”gi Qonun qabul qilindi.  |
| 1993-yil 15-noyabr | O’zbekistonda ichki bozomi ortiqcha rubl massasidan himoyalash, aholiga pul mablag’larini to‘lashni o’z vaqtida ta’minalash maqsadida o’tish davri valyutasi – so‘m-kupon muomalaga kiritildi.<br>So‘m-kuponlar 9,5 oy muomalada bo’lib, 1994-yilning 1-avgustiga qadar amal qildi. |
| 1993-yil           | Islom Karimovning “O’zbekiston: bozor munosabatlariiga o’tishning o’ziga xos yo‘li” nomli asari nashr etildi. Unda taraqqiyotning beshta tamoili “O’zbek modeli” asoslab berildi.   |
| 1993-1994-yillar   | Davlat ixtiyorida bo’lgan 1 mln.dan ortiq kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95% dan ortig‘i fuqarolarning xususiy mulki bo’lib qoldi.   |
| 1994-yil 8-aprel   | “Toshkent” Respublika tovar-xom ashyo birjasi faoliyati yo’lga qo’yildi.  |
| 1994-yil 1-iyul    | O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-iyundagi PF-870 sonli farmoniga binoan, ichki bozorda amalda bo’lgan so‘m-kuponga 1:1000 nisbatda milliy valyuta – so‘m muomalaga kiritildi.  |
| 1994-yil 7-noyabr  | “O’zbekiston temir yo‘llari” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tashkil etildi.  |
| 1994-2002-yillar   | Qiymati 38,9 mlrd. so‘nni tashkil etuvchi 633 km. uzunlikdagi Navoiy-Uchquduq-Sulton Uvaystog‘-Nukus temir yo‘li qurib ishga tushirildi.<br>Temir yo‘li qurilib ishga tushirilishi natijasida 1750 ta yangi ish o‘rnları yaratildi.   |
| 1995-yil           | O’zbekiston makroiqtisodiyotida barqarorlikka erishildi.  |
| 1995-yil 25-may    | “Zarafshon-Nyumont” qo’shma korxonasi ishga tushirildi.   |
| 1995-yil iyul      | Xususiy tadbirdorlik va kichik biznesni qo’llab-quvvatlash fondi (Biznes fond) tashkil etildi.  |
| 1995-yil 21-dekabr | “Kichik va xususiy tadbirdorlikni rivojlantirish to‘g’risidagi”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni qabul   |

|                    |   |
|--------------------|---|
|                    | qilindi.  |
| 1995-2005-yillar   | O'zbekistonda 2500 km. Umumiy foydalanishda avtomobil yo'llari qurildi, 1435 km. Avtomobil yo'llari rekonstruksiya qilinib, yuqori toifaga o'tkazildi, 47046 km Yo'l ta'mirlandi hamda 460 dan ortiq ko'priq qurildi.                   |
| 1995-2011-yillar   | O'zelistonda sanoatning yalpi ichki maxsulot tarkibidagi ulushi 17,1 foizdan 24 foizgacha o'sdi.  |
| 1995-2013-yillar   | O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi 6,6 mlrd. AQSH dollaridan 28,9 mln. AQSH dollar (4,4 baravar)ga o'sdi.   |
| 1996-yil mart      | <b>O'zbekiston tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi tashkil etildi.</b>   |
| 1996-yil mart      | "O'zDEUavto" qo'shma korxonasingin birinchi navbat ishga tushdi. Korxonada "DAMAS" avtomobili ishlab chiqarila boshlandi.   |
| 1996-yil 13-may    | Uzunligi 295 km bo'lgan <b>Tajan-Saraxs-Mashhad temir yo'li</b> ishga tushirildi.   |
| 1996-yil 25-iyun   | "UzDEUavto" qo'shma korxonasida "Tiko" va "Neksiya" avtomobillari ishlab chiqariladigan limiyalar ishga tushirildi.   |
| 1996-yil 19-iyul   | "O'zDEUavto" qo'shma korxonasingin rasmiy ochilish marosimi bo'ldi. O'zbekiston avtomobil ishlab chiqaruvchi 28 mamlakatdan biriga aylandi. 1996-yilda "O'zDEUavto" 25,3 mingta avtomobil ishlab chiqardi.                              |
| 1996-yil 26-noyabr | O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tashkil etildi.   |
| 1996-yil           | Sobiq ittifoqdosh respublikalar orasida faqat O'zbekistonda izchil iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlandi. O'zbekiston makroiqtisodiyotida ham o'sish kuzatila boshlandi.  |
| 1996-yil 30-noyabr | Toshkent viloyatining To'ytepa shahrida "Qobul-To'ytepa tekstil" O'zbekiston-Koreya Respublikasi qo'shma korxonasi ishga tushirildi.  |
| 1996-2001-yillar   | Janubiy Koreya bilan hamkorlikda "Kobul-O'zbek Ko" qo'shma korxonasiga birlashgan To'ytepa va Toshkent shahrining Ko'kcha mavzesida 2 ta yirik qo'shma korxona va Farg'ona viloyatida "Kobul-Farg'ona Ko" korxonasi ishga tushirildi.   |
| 1997-yil 14-iyul   | AQShning "Dresser" va "M.Y.Kollogg", Yaponianing "Nisho Ivali" kompaniyalari ishtirokida, yiliga 2,5 mlrd. kubometr gaz haydash quvvatiga ega bo'lgan Ko'kdumalop kompressor stansiyasi (Qashqadaryo) foydalanishga topshirildi.        |
| 1997-yil 22-avgust | <b>Qoravulbozor</b> (Buxoro viloyati) neftni qayta ishlash zavodi barpo etildi (Frasianing "Texnip" kompaniyasi va "Kredi kommersal de Frans", "Pariba" banklari, Yaponianing "Marubeni" va "Jey-Ji-Si" kompaniyasi va "Eksport-import" |

|                     |  |
|---------------------|--|
|                     | banki, AQShning "Cheyz Manxeten" banki, Turkiyaning "Gama" kompaniyalari hamkorligida). Zavod qurilishi jarayonida 262 mln. AQSH dollari o'zlashtirildi.   |
| 1997-yil            | O'zbekistonda 7,9 mln. tonna (1990-yilidan 2,8 baravar ko'p) neft ishlab chiqarildi. O'zbekiston neft import qiluvchi mamlakatdan neft eksport qiluvchi mamlakatga aylandi.  |
| 1998-yil            | O'zbekistonda Jamoa xo'jaliklari Qishloq xo'jalik shirkatlariiga aylantirila boshlandi.  |
| 1999-yil mart       | "SamKochavto" korxonasi ishga tushirildi. Shu yili 163 ta avtobus, 302 ta yuk avtomobili ishlab chiqarildi.  |
| 1998-yil 22-aprel   | "Dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Prezident Qarori qabul qilindi.  |
| 1998-yil 30-aprel   | "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2004-yilda yangi tahrirda) qabul qilindi.   |
| 1998-yil 30-sentabr | Xorazm viloyati Xazorasp tumanida "Xorazmshakar" O'zbekiston-Turkiya qo'shma korxonasi ishga tushirildi.   |
| 2000-yil            | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki maxsulotdagi salmog'i 30 % ni tashkil etdi.  |
| 2001-yil 23-mart    | <b>Navoiy-Uchquduq-Sulton Uvaystog'-Nukus</b> yo'nalishida dastlabki yuk poyezdlari harakati boshlandi.  |
| 2001-yil avgust     | "O'zDEUavto" zavodida " <b>Matiz</b> " avtomobili ishlab chiqarila boshlandi.  |
| 2001-yil avgust     | Toshkent metrosining 6 ta bekatdan iborat <b>Yunusobod liniyasi</b> ishga tushirildi.  |
| 2001-yil dekabr     | <b>Sho'rtan gaz-kimyo</b> majmuasi ishga tushirildi. Uning qurilishida 1 mlrd. AQSH dollari hajmida investitsiya o'zlashtirildi. U yiliga 125 ming tonna polietilen, 137 ming tonna suytirilgan gaz, 126 ming tonna gaz kondensati ishlab chiqaradi. |
| 2002-yil 22-avgust  | 633 km. Uzunlikdagi <b>Navoiy-Uchquduq-Sulton Uvaystog'-Nukus</b> yo'nalishida dastlabki yo'lovchi poyezdi harakatini boshladi.  |
| 2003-yil            | "O'zDEUavto"da " <b>Lasetti</b> " avtomobili ishlab chiqarila boshlandi.   |
| 2004-yil 12-mart    | Xorazm viloyati Xazorasp tumanida Amudaryo ustidan poyezd va avtomobilarni o'tkazishga mo'ljallangan " <b>Toshsaqa</b> " ko'prigi foydalananiga topshirildi.   |
| 2006-yil            | Samarqandda " <b>Isuzu</b> " avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqarila boshlandi.  |
| 2007-yil 1-yanvar   | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining yalpi ichki maxsulotdagi xissasi 42,1 % ni tashkil etdi.   |
| 2007-yil 24-avgust  | Uzunligi 223 km.dan iborat 1800 metr balandlikdagi tog'li hududlardan o'tuvchi " <b>Toshg'uzor-Boysun-</b>   |

|                    |   |
|--------------------|---|
|                    | <b>Qumqo‘rg‘on” temir yo‘li ishga tushirildi.</b>   |
| 2007-yil oktabr    | “O‘zDEUavto” negizida “Jeneral Motors” bilan hamkorlikda “ <b>GM Uzbekistan</b> ” qo‘shma korxonasi tashkil etildi.<br>Asakada “ <b>Kaptiva</b> ”, “ <b>Epika</b> ”, “ <b>Takuma</b> ” avtomobilari ishlab chiqarila boshlandi. |
| 2007-yil           | Shirkat xo‘jaliklarini tugatish ishlari nihoyasiga yetkazildi. Ularning negizida Fermer xo‘jaliklari tashkil etildi.  |
| 2007-yil           | O‘zbekistonda 6,25 mln. tonna g‘alla yetishtirildi. Sug‘oriladigan yerdarda hosildorlik 48 sentnerni tashkil etdi. Andijonda rekord 75 sentnerni tashkil etdi.  |
| 2008-yil 6-oktabr  | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fermer xo‘jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonini maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoyishi qabul qilindi.  |
| 2008-yil 2-dekabr  | Navoiy shahrida erkin industrial iqtisodiy hudud va xalqaro intermodal logistika markazi tashkil etildi.  |
| 2008-yil           | Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz boshlandi. “Inqirozga qarshi choralar dasturi” va unda ko‘zda tutilgan tadbirlar natijasida O‘zbekiston iqtisodiyoti inqirozdan jiddiy talofatsiz chiqishga erishdi.                          |
| 2009-yil 22-oktabr | “Fermer xo‘jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoyishi qabul qilindi.  |
| 2009-yil           | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki maxsulotdagi salmog‘i 50 % ni tashkil etdi. Aholining 65,5% (6,4 mln. Kishi) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida mehnat qildi.                                 |
| 2009-yil           | Samarqand shahrida “ <b>JV MAN avto-Uzbekistan</b> ” qo‘shma korxonasi tashkil etilib “MAN” yuk mashinalari ishlab chiqarila boshlandi.   |
| 2009-yil           | Angren shahrida Xalqaro logistika markazi qurilib, ishga tushirildi.  |
| 2010-yil 25-avgust | Toshkent shahrida “ <b>Chevrolet Spark</b> ” avtomobilining taqdimoti bo‘lib o‘tdi.   |
| 2011-yil 26-avgust | “Toshkent-Samarqand” yo‘nalishida “ <b>Afrosiyob</b> ” tezyurat poyezdi ishga tishirildi. Poyezd 2015-yil 5-sentabrdas Qarshiga, 2016-yil 15-sentabrda Buxorogacha yetib bordi.   |
| 2011-yil 28-avgust | Toshkent viloyatining Zangota tumanida avtomobil divigatellari ishlab chiqaradigan “ <b>General Motors Powertrain Uzbekistan</b> ” qo‘shma korxonasi ochildi.   |
| 2012-yil 13-aprel  | “Angren” maxsus industrial hududi tashkil etildi.   |
| 2012-yil           | “JM Uzbekistan” avtokorxonasida “ <b>Malibu</b> ” avtomobili ishlab chiqarila boshlandi.  |

|                          |   |
|--------------------------|---|
| 2013-yil 18-mart         | "Jizzax" maxsus industrial zonası tashkil etildi.   |
| 2014-yil 6-7-iyun        | Toshkentdagı simpoziumlar saroyida "O'zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zahiralari" mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.  |
| 2014-2016-yil<br>22-iyun | "Angren-Pop" temir yoli qurib ishga tushirildi (uzunligi 123,2 km., tunel uzunligi 19,2 km., dengiz sathidan 1456 m. Balandlikda).  |
| 2016-yil 1-iyun          | Shevrolet NEXIA-3 avtomobilining yangilangan varianti sotuvga chiqarildi.   |
| 2016-yil 1-sentabr       | Shevrolet MALIBU avtomobilining yangilangan varianti sotuvga chiqarildi.  |
| 2017-yil 2-sentabr       | "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birlamchi chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-5177)ga ko'ra 5-sentabrdan milliy valyuta – so'm erkin konvertatsiya qilina boshlandi.  |
| 2017-yil 14-dekabr       | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (PF-5285) qabul qilindi. Unda keng turdag'i sifatlari to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilishini tashkil etish, mahalliy lashtirishni chuqurlashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarining eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari belgilandi. 2019-yilda klaster usulida paxta yetishtirishni kamida 52 foizga yetkazish uchun 48 ta paxta-to'qimachilik klasterini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. |
| 2017-yil                 | Mamlakatimizda 161 ta yirik sanoat obyekti ishga tushirildi. 12 ta erkin iqtisodiy va 45 ta sanoat zonası faoliyatini yo'liga qo'yildi. Shular hisobidan 336 mingdan ziyod yangi ish o'rinnari tashkil etildi. Barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari 5,5 foizni tashkil etdi, eksport hajmi qariyb 15 foizga ko'paydi.   |
| 2017-yil                 | 51 foizdan ziyod aholi qishloq joylarda yashasada qishloq xo'jaligi mahsulotlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 17 foizdan oshmagan. Agrar soha mahsulotlarini qayta ishlash hajmi esa 10 foizga ham yetmagan. Holbuki, rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich 50 foizdan ortiqni tashkil etadi. O'zbekiston 2017-yilda 1,5-2 mlrd. dollar miqdorda mevasabzavot mahsulotlarini eksport qildi. Lekin O'zbekistonda ushbu sohada yiliga 10-15 mlrd. Dollar mahsulot eksport qilish imkoniyati mavjud.   |
| 2017-yil                 | Qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida "Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha  |

|                  |   |
|------------------|---|
|                  | chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2841 (16.03.2017), “Respublika ipakchilik tarmog‘i korxonalarini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-488 (24.03.2017), “Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2939 (01.05.2017), “Moliya vazirligi huzurida Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5095 (27.06.2017) Prezident Qarorlari va Farmonlari qabul qilindi. |
| 2017-2018-yillar | Sirdaryo viloyatining Yangiyer shahrida (30.03.2017), Toshkent shahrida (18.05.2017), Toshkent viloyatida (10.08.2017), Surxondaryo viloyatida (29.03.2018), Qashqdaryo viloyatida (29.03.2018), Navoiy viloyatida (05.06.2018), Namangan viloyatida (02.07.2018), Buxoro viloyatida (11.10.2018) kichik sanoat zonalari tashkil etildi.  |
| 2017-2018-yillar | “Zomin-farm”, “Kosonsoy-farm”, “Sirdaryo-farm”, “Boysun-farm”, “Bo‘stonliq-farm”, “Parkent-farm” (03.05.2017), “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon”, “Hazorasp” (12.01.2017), “Sirdaryo” (12.04.2018), “Buxoro-agro” (11.07.2018), “Namangan” (21.08.2018) va “Chiroqchi” (13.09.2019) erkin iqtisodiy zonalari tashkil etildi.   |
| 2017-2019-yillar | O‘zbekistonda yo‘l qurilishiga – 9,8 trillion so‘m, suv tarmoqlariga – 4,6 trillion so‘m, elektr tarmoqlariga – 18,2 trillion so‘m, tabiiy gaz ta‘minotiga – 1,2 trillion so‘m mablag‘ ajratilgan. Bu raqamlar ushbu tarmoqlar uchun so‘nggi 10 yilda sarflangan mablag‘lardan bir necha barobar ko‘pdir.   |
| 2018-yil         | 2018-yilga “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nom berilishi munosabati bilan barcha tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tekshirishga 2-yillik (2018-2019) maratoriy joriy qilindi.   |
| 2018-yildan      | Qishloq xo‘jaligi sohasida fermer va dehqonlarning manfaatdorligini oshirish maqsadida sohaga ilg‘or texnologiyalar va klaster tizimi joriy etila boshlandi. 2020-yilga kelib paxta-to‘qimachilik sohasida 97 ta, mevasabzavotchilik sohasida 149 ta, g‘allachilikda 65 ta, sholichilikda 35 ta va 7 ta dorivor o‘simliklar yetishtirishga ixtisoslashtirilgan agrosanoat klasterlari faoliyat ko‘rsatgan.  |
| 2018-yil         | “O‘zagrotex-sanoatxolding” aksiyadorlik jamiyatida 5 mingdan ko‘proq zamonaviy traktorlar, mingdan ziyod paxta terish mashinasi va 2 mingdan ortiq priseplar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.  |

|                    |   |
|--------------------|---|
| 2018-yil 18-fevral | O'zbekiston Respublikasi <b>Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi</b> tashkil etildi (PF-5349). Qurilish sohasi iqtisodiyotning muhim "drayver"laridan biriga aylandi. Sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2018-yilda 6 foizdan oshdi.  |
| 2018-yil 2-aprel   | O'zbekiston Respublikasi <b>Qurilish vazirligi</b> tashkil etildi (PF-5392).  |
| 2018-yil 19-aprel  | Buxoro viloyatida <b>Qandim gazni qayta ishlash majmuasi</b> ishga tushirildi.  |
| 2018-yil 26-iyun   | "Ilg'or fermer", "Mehnatkash dehqon" va "Namunali tomorqachi" ko'krak nishonlarini ta'sis etildi (PQ-3803).   |
| 2018-yil 1-avgust  | <b>"O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"</b> gi Prezident Farmoni qabul qilindi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga 10 mln. AQSH dollaridan ko'p bo'limgan ekvivalentda chet el investorlari bilan investitsiya shartnomalarini mustaqil tuzish huquqi berildi (ilgari investitsion shartnomalar faqat hukumat darajasida tasdiqlanar edi). |
| 2018-yil 27-noyabr | "O'zbekiston Respublikasining fuqaro aviatsiyasini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni qabul qilindi.<br>"O'zbekiston havo yo'llari" Milliy aviakompaniyasi negizida ikkita – <b>"Uzbekistan airways"</b> hamda <b>"Uzbekistan airports"</b> aksiyadorlik jamiyatlari tuzildi.   |
| 2018-yil 12-dekabr | O'zbekiston Respublikasi <b>Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi</b> tashkil etildi.   |
| 2018-yil           | Iqtisodiyotdagi tizimli o'zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi 35 foizni tashkil etdi.  |
| 2019-yil 24-yanvar | O'zbekiston Respublikasi <b>Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi</b> tashkil etildi (PQ-4126).   |
| 2019-yil 28-yanvar | Investitsiyalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat qo'mitasi va Tashqi savdo vazirligini qo'shish yo'li bilan <b>O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi</b> tashkil etildi (PF №5643).  |
| 2019-yil 1-fevral  | O'zbekiston avtomobil transporti agentligi negizida <b>O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi</b> tashkil etildi (PF-5647).<br>2020-yil noyabr xolatiga ko'ra mamlakativiz hududida 42 869 km. uzunlikdagi yo'llar mavjud. Shundan xalqaro ahamiyatdagi yo'llar 3 993 km., davlat ahamiyatidagi yo'llar 14 203 km. va mahalliy ahamiyatdagi yo'llar 24 673 km. ni tashkil qiladi.   |

|                    |  |
|--------------------|--|
| 2019-yil 1-fevral  | O'zbekiston Respublikasi <b>Energetika vazirligi</b> tashkil etildi (PF-5646).   |
| 2019-yil 25-fevral | O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qiymati 100 000 so'm bo'lgan yangi banknota muomalaga chiqarildi.  |
| 2019-yil 28-mart   | O'zbekiston Respublikasi <b>Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi</b> tashkil etildi.   |
| 2019-yil 23-oktabr | O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi tasdiqlandi (PF-5853).   |
| 2019-yil           | O'zbekistonda o'rtacha har 100 ta uy xo'jaligiga 47 ta yengil avtomobil, 160 ta televizor, 55 ta kompyuter, 282 ta telefon apparati to'g'ri kelgan.  |
| 2019-yil           | O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar 4,2 mlrd. dollami tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 3,1 mlrd. dollarga yoki 3,7 barobar o'sdi. Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 37 foizga yetdi. Iqtisodiy o'sish 5,6 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, eksport – 28 foizga ko'paydi. Oltin-valyuta zaxiralarmiz 2019-yil davomida 2,2 mlrd. dollarga ortib, 28,6 mlrd. dollarga yetdi. |
| 2019-yil           | Iqtisodiyotdagagi tizimli o'zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi 2018-yildagi 35 foizdan 37 foizga oshirildi. 93 mingta yoki 2018-yilga nisbatan qariyb 2 barobar ko'p yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi.  |
| 2019-yil           | Respublikamizda 7 mln. 130 ming tonna g'alla, 2 mln. 845 ming tonna paxta, 19 ming tonna pilla, 21 mln. tonna mevasabzovot, 400 ming tonna sholi, 2 mln. 600 ming tonna go'sht va 11 mln. tonna sut maxsulotlari 8,1 mlrd. dona tuxum yetishtirildi. Qishloq xo'jaligi maxsulotlaridan 217 trln. 700 mlrd. so'm (2018-yilga nisbatan 12 % ko'p) foyda olindi. Paxta xosilining 73 % paxta-to'qimachilik klasterlari hissasiga to'g'ri keldi.                       |
| 2019-yil           | "Ekonomist" jurnali O'zbekistonni 2019-yilda islohotlameng jadal amalga oshirgan davlat – "Yil mamlakati" deb e'tirof etdi. O'zbekiston Jahon bankining 2019-yilgi "Biznes yuritish reytingida 7 pog'ona ko'tarilib, biznesni ro'yxatga olish ko'rsatkichi bo'yicha dunyoning 190 ta davlati orasida 8-o'ranni egalladi va eng yaxshi islohotchi davlatlar qatoridan joy oldi.   |
| 2020-yil 17-fevral | O'zbekiston Respublikasining "Maxsus iqtisodiy zonalari"   |

|                    |   |
|--------------------|---|
|                    | to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-604) qabul qilindi.   |
| 2020-yil 26-mart   | O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi.  |
| 2020-yil 12-may    | 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining Bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘ Prezident Farmoni e’lon qilindi.  |
| 2020-yil 30-avgust | Toshkent metropoliteni ikkita yo‘nalishda kengaydi. Yer usti metrosining Mashinasozlar-Qo‘yliq bekti foydalanishga topshirildi. Yunusobod liniyasiga ikkita yangi “Axmad Donish” va “Turkiston” bektatlari qo‘sildi.  |
| 2020-yil 4-dekabr  | Toshkent shahrining Yangihayot tumanida Toshkent metallurgiya zavodi ishga tushirildi. Ushbu majmuada-yiliga 500 ming tonna rux va polimer qoplamalni listlar ishlab chiqariladi (ilgari bunday mahsulotlar asosan chetdan olib kelingan). Zavodda import o‘mini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarilib, yiliga 90 mln. dollarlik mahsulot eksport qilinishi rejalashtirilgan. Majmuada 700ga yaqin kishi ish bilan ta’mindandi. Turdosh tarmoqlar bilan birga 5 mingta yangi ish o‘rni yaratildi. |
| 2020-yil 26-dekabr | Toshkent yer usti metrosining Sergeli yo‘nalishi ishga tushirildi.  |
| 2020-yil           | Butun dunyo va malakatimizda joriy qilingan karantin chora-tadbirlariga qaramasdan O‘zbekistonda 206 ta yangi yirik quvvatlar ishga tushirildi. Jumladan, Sho‘rtan gaz-kimyo kompleksida sintetik suyuq yoqilg‘i, “Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyatida azot kislotasi, ammiak va karbamid ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi.   |
| 2020-yil           | Mamlakatimizda paxta-to‘qimachilik yo‘nalishidagi klasterlari soni 75 taga yetdi.   |
| 2021-yil aprel     | Mamlakatimizda 23 ta erkin iqtisodiy zona (EIZ) va 348 ta kichik sanoat zonalari faoliyat yuritdi.  |

## **7-MAVZU: IJTIMOIY SOHADA DAVLAT SIYOSATINING TAKOMILLASHIB BORISHI VA AHOI FAROVONLIGINI OSHIRISH TADBIRLARI**

**Reja:**

- 1. Faol ijtimoiy siyosat – aholini kuchli himoya qilish omili.**
- 2. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar.**
- 3. O'zbekistonda ekologik siyosat.**
- 4. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning ta'minlanishi.**

**Tayanch tushunchalar:** *O'tish davri, Ijtimoiy islohotlar, Kuchli ijtimoiy himoya, Ekoharakat, Millatlararo totuvlik, "Sog'lom avlod uchun", Yillarning nomlanishi, Kambag'allikka qarshi kurash, "Temir daftari", "Yoshlar davtari", "Ayollar daftari", Diniy ekstremizm, Diniy bag'rikenglik.*

### **1. Faol ijtimoiy siyosat – aholini kuchli himoya qilish omili.**

O'tgan asrning 80-yillari oxiriga kelib, O'zbekistonning davlat byudjeti defitsiti hamda inflyatsiya darajasining ortib borishi, xalq iste'moli tovarlarining yetishmasligi, ishlab chiqarish va mehnat samaradorligining pasayib ketishi kabi bir qator salbiy tendensiyalar mamlakatda xalq ijtimoiy ahvolining nochor axvolga tushib qolishiga olib kelgan edi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1989-1990-yillarda mamlakat aholisining 45 foizi daromadlari yashash minimumidan past darajada bo'lgan. Uy-joy, sog'liqni saqlash muassasalari, maktablar, bolalar bog'chalani, madaniyat obyektlari yetishmas edi.

Mana shunday og'ir ijtimoiy inqiroz sharoitida O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. Endi O'zbekistonning yangilanish va taraqqiyot yo'liga asos qilib olingan yetakchi tamoyillardan biri **kuchli ijtimoiy siyosatni** amalga oshirish qilib belgilandi.

Tub o'zgarishlarning boshlang'ich bosqichi bo'lgan 1991-1995-yillarda asosiy e'tibor oziq-ovqat maxsulotlari va nooziq-ovqat mollari iste'mol qilish keskin kamayishi, ommaviy ishsizlik paydo bo'lishining oldini olish, aholi turmush darajasining keskin tushib ketishiga yo'l qo'ymaslik, ijtimoiy sohalar, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan va madaniyat tarmoqlari doimiy ishlashini ta'minlashga qaratildi.

Islohotlarning bu bosqichida O'zbekiston ijtimoiy himoya siyosatining asosiy vazifasi imkon qadar yalpi ishsizlikka yo'l qo'ymaslik hamda narxlarning erkinlashtirilishi natijasida aholi daromadlaridagi "yo'qotishlari"ni kamaytirish bo'ldi.

Bu davr ichida O'zbekiston Respublikasi aholisining ijtimoiy ta'minoti hamda himoyasining huquqiy asoslari yaratildi. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida" (20.11.1991), "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida" (13.01.1992), "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida" (06.05.1993), "Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida" (07.05.1993), "Fuqarolarning

davlat pensiya ta'minoti to'g'risida" (03.09.1993) kabi bir qator ijtimoiy muhim ahamiyatga ega qonunlar qabul qilindi.

Aholining ijtimoiy himoyasi va moddiy-maishiy turmush tarzini yaxshilash borasida O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning beshta tamoyilidan biri "**O'tish davrida aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish**" deb belgilangan edi. Yillarning nomlanishi ("Qariyalarni qadrlash yili" (2001), "Obod mahalla yili" (2002), "Mehr-muruvvat yili" (2004), "Ijtimoiy himoya yili" (2007), "Yoshlar yili" (2008), "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" (2009), "Obod turmush yili" (2013), "Keksalarni e'zozlash yili" (2015) va qabul qilingan Davlat dasturlarida ham ushbu masalaga davlat ahamiyatiga molik masala sifatida e'tibor berilganligini ko'rshimiz mumkin.

1991-2000-yillarda qishloq aholisining tabiiy gaz bilan ta'minlanishi darajasi 17 foizdan 78 foizgacha, ichimlik suvi bilan ta'minlanishi esa 52 foizdan 77 foizgacha o'sdi. Aholi uchun 70 mln. m<sup>2</sup> turar joy binolari qurilib, foydalanishga topshirildi.

O'tgan davr mobaynida ma'lum yutuqlarga erishilgan bo'lsada, 2016-yildan ishga tushgan Bosh vazir virtual qabulxonasi va 2017-yildan faoliyat yurita boshlagan Prezident Xalq qabulxonalariga kelib tushgan murojaatlar aholini ish bilan ta'minlash, ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash, pensiya ta'minoti, kam ta'minlangan oilalar bilan ishslash, uy-joy va kommunal xizmatlar borasida yechimini kutayotgan muammolar yig'ilib qolganligini ko'rsatdi.

Ma'lumki, Prezidentimiz S.M Mirziyoyevning tashabbuslari bilan 2017-yildan boshlab davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari xodimlari uchun "**Xalq davlat idoralariiga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak**" degan g'oya davlat organlari ish faoliyatining bosh mezoniga aylantirildi. Davlat xodimlari, avvalo, birinchi rahbarlar faqat kabinetda o'tirmasdan, joylarga borib, aholini bezovta qilayotgan eng dolzarb muammolarning amaliy yechimi bilan shug'ullana boshladи.

Xalqimizning talab va istaklarini inobatga olib, 2017-yildan boshlab mamlakatimizda imtiyozli ipoteka kreditlari asosida arzon uy-joylar qurish loyihasi amalga oshirila boshlandi. 2017-yildan yurtimizda keyingi 25 yil davomida birinchi marta aholi uchun arzon, barcha qulayliklarga ega bo'lgan ko'pqavatlari uy-joylar qurish boshlandi. 2017-yilning o'zida 800 ming kvadrat metrdan ziyod ana shunday uy-joylar qurib foydalanishga topshirildi. Birgina Toshkent shahrining o'zida 2019-yilda 420 ming kvadrat metr ko'pqavatlari uy-joy fondi foydalanishga topshirildi. Bu 2018-yilga nisbatan qariyb 3 barobar ko'pdirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 16-avgustda "Yangi O'zbekiston" gazetasi muxbirli savollariga bergan intervusida qayd qilinishicha, so'nggi to'rt yilda mamlakatimizda avvalgi yillarga nisbatan 4-5 barobar ko'p uy-joylar barpo etilgan bo'lib, 2021-yilning o'zida 54 ming oilani yangi uy-joylar bilan ta'minlash bo'yicha keng ko'lamlari ishlari olib borilmoqda.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan amaliyotga joriy qilingan "Obod qishloq" (2018-yil 29-mart (PF-5386) va "Obod mahalla" (2018-yil 27-iyun (PF-5467) Davlat dasturlari xalqimiz tomonidan katta mammuniyat bilan kutib olindi. 2018-yilda 416 ta qishloq yangicha qiyofaga ega bo'ldi. Ushbu dasturlar doirasida 2019-yilda 479 ta qishloq va ovulda, shaharlardagi 116 ta mahallada keng ko'lamlari qurilish va

obodonlashtirish ishlari bajarilgan bolsa, 2021-yilda jami 7 ming 794 ta qishloq va mahallalarda umumi qiymati 20,8 trillion so'mlik qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi (Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi muxbirini savollariga bergan javobi. 2021-yil 17-avgust soni). Umuman, so'nggi 4 yil davomida qishloq joylarda 17 ming 100 ta, shaharlarda 17 ming 600 ta, jami 34 ming 700 ta yoki 2016-yilga nisbatan salkam 3 barobar ko'p arzon va shinam uylar qurildi.

Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek har qanday mamlakatda bo'lgani kabi bizda ham kam ta'minlangan aholi qatlamlari mavjud. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2019-2020-yillarda ular taxminan 12-15 % ni tashkil etadi. Bu yerda gap aholimizning 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda.

2020-yildan ijtimoiy hayot va vaqtli matbuotda kambag'allik tushunchasi muomalaga kiritilib, ushbu muammoning mavjudligi hukumatimiz tomonidan tan olindi. Kambag'allikni kamaytirish borasida manzilli chora-tadbirlar ishlab chiqila boshlandi. Jumladan aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinnari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish ishlari boshlandi.

2018-yildan pensiya va nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibini qayta ko'rib chiqish, pensiya tizimini tubdan isloq qilish boshlandi. 2019-yil 1-yanvardan boshlab, ishlaydigan barcha pensionerlarga pensiyalar to'liq miqdorda to'lana boshlandi.

Ayni vaqtida nogironligi bo'lgan bolalar va ularning oila a'zolarini, boquvchisini yo'qotganlarni o'n olti yoshgacha ijtimoiy muhofaza qilish masalasi doimo e'tibor markazida turdi. Umrini nogiron farzandiga qarash, uni parvarish qilishga bag'ishlagan onalar uchun alohida ijtimoiy nafaqa turi joriy etildi.

2018-yilda og'ir turmush sharoitida yashab, ish bilan ta'minlanmagan xotin-qizlar 13 ming nafardan ziyodni tashkil etgan. 2019-yilda turmush sharoiti og'ir bo'lgan 1 ming 600 nafar xotin-qizlarni imtiyozli kreditlar asosida arzon uy-joylar bilan ta'minlandi.

Uzoq vaqt fuqarolikka ega bo'lmay kelgan insonlar bugungi kunda o'zlarini to'laqonli O'zbekiston fuqarolari deb his etmoqda. O'tgan yigirma besh yilda 482 nafar shaxsga fuqarolik berilgan bo'lsa, 2020-yilda 50 mingdan ziyod kishi shu huquqqa ega bo'ldi. Bu esa BMTning fuqaroligi bo'Imagan insonlar sonini kamaytirishga qaratilgan chaqirig'iga munosib javobdir.

2018-2019-yillarda Toshkent shahri va Toshkent viloyatida ko'chmas mulk sotib olish bilan bog'liq cheklolvar bekor qilingani tufayli 40 mingdan ortiq fuqaro poytaxt mintaqasida sotib olgan uy-joylarini o'z nomiga rasmiylashtirish imkoniga ega bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, tanlangan kuchli ijtimoiy siyosat tufayli islohotlar arafasida eng noqulay boshlang'ich shart-sharotlarga, ijtimoiy ziddiyatlarga ega bo'lgan O'zbekiston ijtimoiy mojarolarni chetlab o'tishga muvaffaq bo'ldi. Oldindan ko'rilgan oqilona ijtimoiy chora-tadbirlar mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minladi.

## 2. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritishi bilan mamlakat sog'liqni saqlash

infratuzilmasini rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarish, aholi sog'lig'ini himoya qilish tizimidagi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish vazifasi yuzaga keldi. Chunki, aholi salomatligi mamlakatning barqaror iqtisodiy taraqqiyoti va sog'lom ishchi kuchi manbaidir. Qisqacha aytganda sog'lom millat davlatga iqtisodiy foyda, nosog'lom millat mamlakatga iqtisodiy zarar (byudjetdan ortiqcha xarajat) demakdir.

1996-yilning 29-avgustidan "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonun kuchga kirdi, unda davlat siyosatining sog'liqni saqlash tizimiga yangicha yondashuvli ifodalandi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida tibbiyot muassasalarini xususiylashtirish tadbirdari amalga oshirildi. 2001-yilda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan faoliyat yuritish uchun litsenziya (ruxsatnomalar) olgan nodavlat muassasalar va firmalar soni 1700 taga shaxsxiy tibbiy xizmat ko'rsatuvchi subyektlar soni 4000 taga yetdi.

Yillarning nomlanib maxsus Davlat dasturlari ishlab chiqilishida ham ushbu sohaga alohida e'tibor qaratildi ("Sog'lom avlod yili" (2000), "Ona va bola yili" (2001), "Sihat-salomatlilik yili" (2005), "Homiyalar va shifokorlar yili" (2007), "Sog'lom bola yili" (2014), "Sog'lom ona va bola yili" (2016).

Sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida O'zbekistonda mustaqillik yillarda umr ko'rish davomiyligi 1990-yildagi 67,2 yoshdan 2012-yilda 72,9 yoshga o'sdi. Ushbu ko'rsatkich erkaklarda 70,7 yosh, ayollarda 75,2 yoshni tashkil etib, MDH davlatlarining ko'rsatkichlariga qaraganda ancha yuqoridir.

Davlat ijtimoiy-iqtisodiy holatining muhim indikatorlaridan biri, bu ona va bola salomatligi ko'rsatkichidir. O'zbekistonda ona va bola sog'lig'i muhofazasi bo'yicha xalqaro standartlarni hayotga tadbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ona va bolaning reproduktiv salomatligi bo'yicha olib borilayotgan ishlar XSST hamda BMTning UNISEF va UNFPA agentliklari tomonidan yuqori baholangan. Xalqaro "Save children" (Buyuk Britaniya) tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda, ayollar uchun yaratilgan shart-sharoitlar borasida O'zbekiston jahondagi 125 ta davlat o'rtaida 19-o'rinni, onalikni himoya qilish bo'yicha esa 27-o'rinni egallaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan profilaktik va epidemiyalarga qarshi faoliyat natijasida ko'p kasalliklarning ko'rsatkichlari pasaydi, ayrimlari butunlay barham topdi.

"Sog'lom ona sog'lom bola" davlat dasturida emlanishga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu dastur XSST, YUNISEF hamda "O'zbekistonda ona va bola sog'lig'ini himoya qilish milliy modeli: "Sog'lom ona sog'lom bola" xalqaro Toshkent simpoziumining obro'li ishtirokchilari tomonidan yuqori baholangan. 2010-yilda mamlakatimizda mutlaq sog'lom bolalar soni ko'rsatkichi 62,6 foizga yetdi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan ishlar O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2019-yil 9-noyabrdagi sog'liqni saqlash xodimlari kuniga bag'ishlangan bayram tabrigida batafsil ko'rsatib o'tildi. Unda keltirilishicha, bugungi kungacha sohani isloq qilish bo'yicha respublikamizda 170 dan ziyod huquqiy hujjatlar qabul qilingan. 2019-2025-yillarda Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiysi va tegishli dasturi qabul qilindi. Jismoniy shaxslar eng ko'p murojaat qiladigan shoshilinch tez yordam yo'nalishida markazlashgan yaxlit tizim yaratildi. Tez yordam brigadalar soni 818

tadan 1666 taga yetkazildi. 1500 dan ortiq “Tez tibbiy yordam” mashinalari xarid qilindi. Joylarda allergologiya, onkologiya, nefrologiya va qator yo‘nalishlarda ixtisoslashgan markazlar soni 16 taga yetkazildi. Xududlarda 310 ta ixtisoslashgan bo‘limlar, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining 14 ta filiali ochildi. Tarmoqda xususiy sektor ulushi oshirilib, bu yo‘nalishdagi shifoxnalar soni 5300 tadan oshdi. Rivojlangan xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda 100 dan ortiq zamonaviy xususiy klinikalar ish boshladi. Ayni paytda mamlakatimizda 7 ta olyi tibbiy ta’lim dargohi, ularning 4 ta filiali, shuningdek, xorijiy nufuzli tibbiy-ilmiy muassasalar hamkorligida 22 ta xalqaro fakultetlar ochildi.

Sohaga davlat byudjetidan 2017-yilda 7,1 trln., 2019-yilda esa 12,1 trln. so‘m mablag‘ ajratildi. Bu o‘tgan yillarga qaraganda 1,6 barobar ko‘p demakdir. So‘nggi yillarda 1300 dan ortiq davolash muassasalarida qurilish-ta’mirlash ishlari olib borilib, 2019-yilda 100 min. dollarlik zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Mamlakatimizda 3 mingdan ortiq tibbiyot muassasasi bo‘lib, ularning faoliyatiga zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda. 423 ta birlamchi tibbiyot muassasasi “Elektron poliklinika” axborot tizimiga ulangan.

2017-2021-yillarda tez tibbiy yordam brigadalarini soni 2 marta, ixtisoslashtirilgan hududiy tibbiyot markazlar soni 16 taga ko‘paytirildi. Hududlarda 300 dan ziyod ixtisoslashgan bo‘lim, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining 14 ta filiali faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Hududlardagi 1,4 mingdan ortiq davolash muassasasi to‘liq ta’mirlandi. 1,8 mingta ayollar maslahatxonasi, qizlar salomatligi xonalari, ijtimoiy dorixonalar va xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda 100 dan ortiq zamonaviy xususiy klinikalar tashkil etildi.

2021-yil 18-may kuni SH.Mirziyoyev raisligida sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Qator amaliy ishlarga qaramasdan sohada yechimini kutayotgan muammolar hali ham mavjud bo‘lib, Prezidentimizning ta’kidlashicha, joylarda o‘tkazilgan so‘rovlarda bor-yo‘g‘i 13 foiz aholi tibbiyotdagi ijobjiy o‘zgarishlarni sezayotganini aytganligi qayd etildi. Bu esa sog‘liqni saqlash tizimidagi ishlarni yangicha tashkil etish va takomillashtirishni ko‘rsatadi.

### 3. O‘zbekistonda ekologik siyosat.

Sobiq ittifoq davrida tabiat ustidan hukmronlik qilishdek uzoq davom etgan nomaqbul siyosat natijasida ko‘plab, Hamdo‘slik mamlakatlari singari, O‘zbekistonda ham og‘ir ekologik vaziyat yuzaga keldi. Mustaqillikning dastlabki yillarida yoq mamlakatimizda tabiat obyektlari muhofazasini kuchaytirish orqali ekologik muammolarning oldini olish va bartaraf qilishga alohida e’tibor berildi.

Respublikada bugungi kunda tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik muammolarni hal etish maqsadida olib borilayotgan siyosatning huquqiy asoslari to‘la shakllantirilgan. Konstitutsiyamizning 50-moddasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar”, deb belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, asosiy qonunimizning 55-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv, o’simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir”, deb ko‘rsatilgan.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi talablari asosida

ushbu sohaga oid 40 ga yaqin qonun va mingga yaqin qonunosti hujjatlari qabul qilindi. "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" (1992), "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" (1993, 2009), "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida" (1996), "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" (1997), "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" (1997), Yer va Havo kodekslari (1998), "O'rmon to'g'risida" (1999), "Ekologik ekspertiza to'g'risida" (2000), "Yer osti boyliklari to'g'risida" (2002), "Chiqindilar to'g'risida" (2002), "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida" (2004), "Ekologik nazorat to'g'risida"gi (2013) qonunlarni shulardan eng muhimlari safatida ko'ratishimiz mumkin.

Bugungi kunda ushbu me'yoriy xujjalalar atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni hal qilish kabi muhim vazifalarni bajarishga qonuniy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ekologik muammolarni bartaraf qilish maqsadida olib borilgan ishlarning eng asosiyalaridan biri 2008-yil 2-avgustda mamlakatimiz ekolog olimlari, shu yo'nalishda ish olib borayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari va faol jamoatchilik ishtirokida tuzilgan O'zbekiston Ekologik harakatining tashkil etilishi bo'ldi.

2017-yil 21-aprelda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (PQ-2915) tashkil etildi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan 2019-yil 8-yanvarda O'zbekiston Ekologik partiysi tashkil topdi. 2019-yil 22-dekabrda bo'lib o'tgan parlament saylovlarida ilk bor mustaqil siyosiy partiya sifatida ishtirot etdi.

Hozirgi vaqtida Orol fojiasi tufayli 5,5 million gektardan ortiq maydonda Orlqum sahrosi paydo bo'ldi. Har yili 100 million tonna qum va tuz havoga ko'tarilmoqda. Bu esa Orol halokati global muammo ekanini yana bir bor tasdiqlamoqda.

O'zbekiston tashabbusi bilan 2018-yilda BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida "Trast fondi"ning tuzilishi, o'zbek diplomatiyasining katta yutug'i bo'ldi. Chunki ushbu fondni tuzish tashabbusi Prezident Sh.Mirzoyoyev tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan 72-sessiyasidagi so'zlangan nutqda ilgari surilgan edi.

Hozirda Orol dengizining suvsiz qolgan hududida yashil o'rmonlar barpo etishga alohida e'tibor berilmuoqda. Mustaqillik yillarda O'zbekiston bo'yicha jami 1 million 220 ming gektarga yaqin o'rmonzor yaratilgan bo'lsa, shundan 400 ming gektardan ortig'i aynan Orolbo'yi hududida barpo etilgan. Bu masalada qabul qilingan maxsus dasturga ko'ra, Orol dengizining suvsiz hududida 2019-yilda yana 500 ming hektar o'rmonzor barpo etildi.

2019-yil 30-oktabrda atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarim belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, respublika aholi punktlarining sanitariya va ekologik holati uchun davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror

rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlash maqsadida Prezident Farmoni (PF-5863) bilan O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiysi qabul qilindi.

Orolni qutqarish muammosi doim mamlakatimiz Prezidentlarining diqqat markazida bo'lib keldi. Jumladan 2020-yil 23-sentabr kuni Prezidentimiz SH.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 75 yillik videokonferensiyasida nutq so'zlab, dunyo jamoatchiligi diqqat-e'tiborini yana bir bor ushbu muammoga qaratdi.

Prezidentimiz o'z ma'rurasida Orolbo'yı mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hудуди, deb e'lon qilish haqida BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasini qabul qilishni taklif etdi. Shuningdek, ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani esa Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni sifatida nishonlash maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlab o'tildi. Shuni mammuniyat bilan ta'kidlash lozimki, Prezidentimizning ushbu muhim tashabbusi 2021-yil 18-may kuni BMT Bosh Assambleyasini tomonidan bir ovozdan ma'qullandi.

#### **4. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikning ta'milanishi.**

Respublikamizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashda millatlararo omillarning ahamiyati katta.

Qadimdan mamlakatimizda turli madaniyat va sivilizatsiyalar vakillari – turli xalqlar, etnik guruhlar aralashib, do'stlik va hamjihatlikda yashab kelgan. Chor Rossiysi, so'ngra esa sobiq Ittifoqning migratsiya siyosati aholining polietnik tarkibi yanada xilma-xil bo'lishiga olib keldi.

1989-yilda Madaniyat vazirligi qoshida Respublika millatlararo madaniyat markazi tuzildi. Mustaqillik yillarda yaratilgan imkoniyatlar tufayli bu jarayon tez rivoj topdi. Milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida 1992-yil yanvarda Respublika baynalmilal madaniy markazi tashkil qilindi. Mamlakatimizda 1992-yili o'n ikkita milliy-madaniy markaz faoliyat olib borgan bo'lsa, 2002-yilga kelib, viloyatlar bilan hisoblaganda, ularning soni 138 tani tashkil etdi.

1992-yil 7-martda Prezident Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida **Din ishlari bo'yicha qo'mita** tashkil etildi. Bu bilan mamlakatimiz ahlining diniy e'tiqodi erkinligiga kafolat berildi. Diniy-axloqiy mavzuda ko'plab kitoblar chop etildi, bu xayrli ish davom etmoqda. Respublikamizda kishilar ma'naviy kamolotida islom dinining katta ahamiyat kasb etayotgani inobatga olinib, diniy tashkilotlarning erkin faoliyat ko'rsatishi uchun keng shart-sharoitlar yaratib berildi.

Millatlararo totuvlikni ta'minlovchi huquqiy zaminlar yaratildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida "O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini tashkil etadi" (8-modda), "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, qonun otdida tengdirlar" (18-modda) deb belgilab qoyilgan.

2017-yil 19-mayda "Millatlararo munosabatlari va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (PF-5046),

2019-yil 15-noyabrda esa “Millatlararo munosabatlar sohasida O’zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-5876) qabul qilindi.

Bugunigi Yangi O’zbekistonda barcha millat va elat vakillari O’zbekistonni o‘zining umumiy uyi, Vatani deb bilib, uning ravnaqi yo‘lida sidqidildan xizmat qilmoqda. Bu O’zbekistonda yuritilayotgan oqilonha milliy siyosatning mevasidir.

#### **Mavzuning asosiy tushunchalari:**

**“AYOLLAR DAFTARI”** – ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo’llab-quvvatlashga, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyobi bor bo‘lgan ishsiz xotin-qizlardan shakllantiriladigan ro‘yxat. Ushbu tizimni joriy etish masalasi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 20-avgust kuni o’tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ko‘rib chiqildi. Yig‘ilishda ishsiz xotin-qizlar bandligini ta’minlash masalasiga alohida ahamiyat qaratilib, Bosh vazir o‘rinbosariga xotin-qizlarni talab yuqori bo‘lgan kasblar va tadbirkorlikka o‘qitish, shu asosda biznesini yo‘lga qo‘yishda moliyaviy qo’llab-quvvatlash tartibini jony etish vazifasi yuklatildi. Bu ishlarni tizimli amalga oshirish maqsadida, mamlakatimizda joriy etilgan “temir daftari” singari, ishsiz va boquvchisiz xotin-qizlar bo‘yicha alohida “Ayollar daftari” ro‘yxatlari shakllantirildi.

**BANDLIK** – fuqarolarning ijtimoiy foydali faoliyati. Aholining mehnat faoliyatida, shu jumladan o‘qish, harbiy xizmatda bo‘lish, uy xo‘jaligini yuritish, yosh bolalar va keksalarga qarashda qatnashishi. Bandlik odatda faoliyatda bo‘luvhiga ish haqi keltiradi.

**DINİY BAG‘RIKENGLIK** – bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlami, o‘zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini xurmat qilish va to‘g‘ri tushunish. Diniy bag‘rikenglikni ilm, samimiyat, ochiq muloqot hamda hurfikr, vijdon va e’tiqod vujudga keltiradi.

**DINİY EKSTREMİZM** (lotincha extremus – o‘ta, keskin) – siyosatda va mafkurada ashaddiy, favqulodda harakat va qarashlarga asoslanib faoliyat yuritish. Ekstremizmning siyosiy va diniy ko‘rinishlari farqlanadi. Siyosiy ekstremizm namoyandalari o‘zlarining g‘arazli maqsadiga erishish uchun kuch ishlatish usullaridan foydalaniib, mavjud siyosiy tuzumning barqaror faoliyat yuritishini buzish va yo‘gotishga harakat qilib, har qanday murosa va kelishuvlarni rad qiladilar. Millatchilik va separatizm siyosiy ekstremizmning ko‘rinishlaridan hisoblanadi. Diniy ekstremizm, avvalo, boshqa din va konfessiyalarga, ularning vakillariga nisbatan toqatsiz bo‘ladi. Diniy tashkilotlardan dunyoviy davlatga qarshi kurashda foydalananadi.

**IJTIMOIY HUQUQLAR** – insonga davlat va jamiyatdan muayyan moddiy yordam olishga imkon beruvchi va shaxsnинг ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yordam deruvchi huquqlar (ijtimoiy ta’mot, ijtimoiy yordam olish, uy-joy olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalish, bilim olish, ilmiy-texnikaviy faoliyat erkmligi). Inson va fuqarolarning ijtimoiy huquqlari O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bob, 39-42 moddalarida belgilab berilgan.

**IJTIMOIY SOHA** – kishilarning turmush tarzi va darajasi, ularning farovonligi, ehtiyojlarini belgilovchi tarmoqlar, korxonalar, tashkilotlar majmui, maxsulot ishlab chiqarmaydigan sohalar. Ijtimoiy sohaga avvalo xizmat ko'rsatish, ta'lim, madaniyat, sog'lioni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya umumovqatlanish, kommunal xizmat, yo'lovchi transporti, aloqa sohalari kiradi.

**FUQAROLIK** – shaxsning biron bir davlatga huquqiy va qonuniy jihatdan tegishlilagini bildiruvchi atama. Muayyan davlatning fuqarosi ushbu davlat hududidagi xonijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'Imagan shaxslardan o'z huquqiy mavqeiga ko'ra farq qiladi. Chunonchi, Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan siyosiy huquq va erkinliklar faqat fuqarolarga tegishlidir. Demak, shaxs fuqarolikni olishi bilan ushbu davlatdag'i siyosiy huquqlardan foydalanan imkoniyatini ham oladi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining VI bobi "Fuqarolik" deb nomlanib, uning 21-moddasida "O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganlikdan qat'i nazar, hamma uchun tengdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtida O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi" - deb belgilab qo'yilgan.

Asosiy qonumimizning 8-moddasida esa "O'zbekiston xalqini, millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi" - deb belgilangan.

O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilish O'zbekiston Respublikasining Prezidenti vakolatiga kiradi. 1992-2016-yillarda jami 482 kishi O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilingan bo'lsa, 2017-2021-yillar mobaynida 66 ming 147 kishiga O'zbekiston fuqaroligi berildi.

BMTning qochoqlar masalalari bo'yicha agentligining 2014-yildan keyingi davrga tegishli ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 2014-yildan so'ng 108 ming 535 kishi fuqaroligi yo'q shaxs sifatida istiqomat qilib kelgan. 2020-yil 1-yanvar holatida bu raqam 93 ming 950 kishini tashkil etgan.

**KAMBAG'ALLIK** – hayotiy, tirikchilikka zarur narsalaming yetishmaslik xolati. Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham kam ta'minlangan aholi qatlamlari mavjudligi 2020-yil yanvardagi Prezident Murojaatnomasida ilk bor e'tirof etilib, shu yil 26-martda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi.

Kambag'allikni aholiga pul tarqatib emas, balki aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rnlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish orqali bartaraf etish mumkin.

**KONFESSIYA** – lot. Confessio – dinlar va uning shaxobchalari, tarmoqlari, mazhab, oqim va yo'nalishlarini ifodalovchi umumiy tushuncha. Bugungi kunda O'zbekistonda 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritmoqda.

**"TEMIR DAFTAR"** – karantin sharoitida ishsiz, daromadsiz qolgan ehtiyojmand, yordamga muxtoj oilalarning mahallada, tegishli sektorlar tomonidan shakllantiriladigan shaffof ro'yhati. Unga ishga yoki yordamga muxtoj oilalarning barchasi kiritildi.

“Temir daftar”ga ehtiyojmand oilalarning 7 toifasi kiritiladi. Bular kam ta’minlangan, nogironligi bo’lgan, ijtimoiy himoyaga muxtoj oilalar, yakka-yolg’iz keksalar, doimiy ishsiz fuqarolar, karantin tufayli ishsiz qolgan fuqarolar, og’ir epidemiologik hududlardan qaytarib kelingan fuqarolarning oilalari.

“Temir daftar” ro’yxati tayyor bo’lgach, tuman hokimligiga taqdim etiladi. Shundan so’ng sektor rahbari, tuman xalq deputatlari kengashi vakili va mahalla oqsoqoli birgalikda joylarga chiqib, oilalar holatini o’rganib chiqadi. Umumiy xulosa asosida shakllantirilgan ro’yxat tuman xalq deputatlari kengashi muhokamasiga qo’shiladi. Kengash tasdig’idan o’tgan oilalar “Temir daftar”ga kiritiladi.

2020-2021-yillarda mamlakatimizda ushbu tizim orqali yuz minglab fuqarolarning bandligi ta’minlandi, qariyb 5 millionta oiladagi muammolar hal qilindi.

**TOLERANTLIK** (lotinchcha “tolerantia” – chidam) – o’zgalaming turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg’ulari, fikr-mulohazalari, g’oyalari va e’tiqodlariga nisbatan chidamlilik va bag’rikenglik.

**URBANIZATSIYA** (lotinchcha urbanus shaharga oid) – shaharlashish. Aholi va sanoatning yirik shaharlarda to’planish jarayonida mamlakat umumiy aholisi hisobida shahar aholisi salmog’ining ortib borishi. Urbanizatsiya jarayoni industrial (sanoatlashgan) jamiyat uchun xos xususiyat hisoblanadi.

Bugungi kunda O’zbekistonda urbanizatsiya darajasi 35,5 foizni tashkil etib, 2030-yilgacha bu ko’rsatkichni 60 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

**“YOSHLAR DAFTARI”** – ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo’llab-quvvatlashga, bilim va kasb o’rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bor bo’lgan yoshlar bilan tizimli va manzilli ishslash ro’yxati. Ushbu tizimni joriy etish masalasi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 20-avgust kuni o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida ko’rib chiqildi. Yig’ilishda ishsiz yoshlar bandligini ta’minalash masalasiga alohida ahamiyat qaratilib, Bosh vazir o’rinbosariga yoshlarni talab yuqori bo’lgan kasblari va tadbirkorlikka o’qitish, shu asosda biznesini yo’lga qo’yishda moliyaviy qo’llab-quvvatlash tartibini joriy etish vazifasi yuklatildi. Bu ishlarni tizimli amalga oshirish maqsadida, mamlakatimizda joriy etilgan “temir daftar”lar singari, ishsiz yoshlar bo’yicha alohida “Yoshlar daftari” ro’yxatlari shakllantirildi.

“Yoshlar daftari” – har bir sektor hududi kesimida istiqomat qilayotgan, 18 yoshga to’lgan 30 yoshdan oshmagan ishsiz yoshlarning manzilli ro’yxati qayd etiladigan elektron dastur hisoblanadi. Uni sektor kotibi va Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo’limi boshlig’i yuritadi. “Yoshlar daftari”ga yoshi, jinsi, kasbga layoqati bo’yicha: bitiruvchi yoshlar, hozirda ishsiz bo’lgan yoshlar, ishga muxtoj nogiron yoshlar, xorijdan qaytgan yoshlar, JIEM ozod etilgan yoshlar, harbiy xizmatdan qaytgan yoshlar kiritiladi. Sektor rahbari tomonidan ishchi guruhi bilan birgalikda mahallalar kesimida ishsiz yoshlar xatlovdan o’tkaziladi va “Yoshlar daftari”ga ro’yxatga olinadi. Bunda, ta’lim muassasalari o’z bitiruvchilarini, Mahalla va Yoshlar agentligi ishsiz yoshlarni, IIB xorijdan qaytgan va JIEM ozod etilgan yoshlarni aniqlashga ko’maklashadi. Xatlov natijasida sektorlar kesimida

shakllantirilgan ro'yxatlar sektorlar kotibi va Yoshlar ishlari agentligi tomonidan maxsus dasturga ("Yoshlar daftari"ga) kiritiladi.

**YILLARNING NOMLANISHI** – mustaqillik yillarda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ma'lum yo'nalishida davlat dasturlari qabul qilish orqali yil davomida islohotlarni samarali amalga oshirishni ko'zlovchi maqsadli davlat chora-tadbirlari tizimi. Ushbu an'ana 1997-yildan boshlangan bo'lib, yilning nomlaninishi odatda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlangan tadbirda mamlakatimiz Prezidentini tomonidan e'lon qilinib kelinmoqda.

Yurtimizda 1997-yil – "Inson manfaatlari yili", 1998-yil – "Oila yili", 1999-yil – "Ayollar yili", 2000-yil – "Sog'lom avlod yili", 2001-yil – "Onalar va bolalar yili", 2002-yil – "Qariyalarni qadrash yili", 2003-yil – "Obod mahalla yili", 2004-yil – "Mehr va muruvvat yili", 2005-yil – "Sihat-salomatlik yili", 2006-yil – "Homiyalar va shifokorlar yili", 2007-yil – "Ijtimoiy himoya yili", 2008-yil – "Yoshlar yili", 2009-yil – "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili", 2010-yil – "Barkamol avlod yili", 2011-yil – "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili", 2012-yil – "Mustahkam oila yili", 2013-yil – "Obod turmush yili", 2014-yil – "Sog'lom bola yili", 2015-yil – "Keksalarni e'zozlash yili", 2016-yil – "Sog'lom ona va bola yili", 2017-yil – "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili", 2018-yil – "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili", 2019-yil – "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili", 2020-yil – "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili", 2021-yil – "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb e'lon qilingan.

**O'TISH DAVRI** – muayyan makon va zamonda jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy negizlarining tubdan o'zgarishi va yangilanishini o'z ichiga olgan hamda mamlakatni yangi negizlarda mustaqil demokratik taraqqiyot yo'lida rivojlanishi uchun talab etiladigan orqaliq vaqt, davr. Mustaqil O'zbekiston tarixida ushbu bosqich 1991-2000-yillarni o'z ichiga oladi.

#### Mavzuning eng muhum sanalari:

|                  |  |
|------------------|--|
| 1989-yil         | Madaniyat Vazirligi qoshida <b>Respublika millatlararo madaniyat markazi</b> tashkil etildi.   |
| 1990-2012-yillar | O'zbekistonda umr ko'rish davomiyligi 67 yoshdan 73 yoshga o'sdi. Ushbu ko'rsatkich MDH davlatlarning ko'rsatkichlariga qaraganda ancha yuqori hisoblanadi.  |
| 1991-yil 14-iyun | O'zbekiston Respublikasining "OITS bilan kasallanishning oldini olish to'g'risida"gi va "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilindi.   |
| 1991-yil         | O'zbekistonda 120 dan ortiq millat va elat yashardi.   |
| 1991-1993-yillar | Aholini ijtimoiy himoya qilishning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratildi. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida" (1991-yil 20-novabr), "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida" (1992-yil |

|                    |  |
|--------------------|--|
|                    | 13-yanvar), “O’zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g’risida” (1992-yil 2-iyul), “Ta’lim to‘g’risida” (1992-yil 2-iyul), “Mehnatni muhofaza qilish to‘g’risida” (1993-yil 6-may), “Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g’risida” (1993-yil 7-may), “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g’risida” (1993-yil 3-sentabr) kabi bir qator ijtimoiy muhim ahamiyatga ega Qonunlar qabul qilindi.   |
| 1991-1994-yillar   | Respublika byudjeti hisobidan 30 ta soha va yo‘nalishlar bo‘yicha ijtimoiy himoya, moddiy yordam amalga oshirildi. Maktab muallimlari, bolalar uylari, maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalar tarbiyachilar, oliy va o‘rtta maxsus o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy, ijodiy va tibbiyot xodimlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat kvartiralari ularga tekin berildi, kvartira haqi va kommunal to‘lovlardan imtiyozlar berildi. |
| 1991-1996-yillar   | 249 ta tish protezlash muassasalarini va stomopoliklinikalar, 28 ta tibbiy ko‘rik poliklinika, jami 342 ta tibbiyot muassasasi xususiylashtirildi.   |
| 1991-1999-yillar   | O’zbekistonda 1000 ta tug‘ilgan bolaga o‘lim xolati 51,4 tadan 20,2 taga yoki 2,5 baravarga kamaydi. Onalar o‘limi har 100 ming tirk bolaga nisbatan 65,3 tadan 31 taga yoki 2,1 marta kamaydi.  |
| 1991-2001-yillar   | O’zbekistonda 19,5 ming o‘rinli shifoxonalar, 95,7 ming tashrifli poliklinikalar qurib foydalanishga topshirildi.  |
| 1991-2001-yillar   | Shifoxonalar soni 1300 tadan 1500 taga yetdi. Ambulatoriya poliklinikalar soni 3 mingdan 4,8 mingtaga yetdi (1,6 baravar ko‘paydi). Qishloq joylarida 3000 dan ortiq vrachlik punkti tashkil etildi.   |
| 1992-yil 13-yanvar | Millatlararo madiniyat markazi <b>Respublika Baynalmilal madaniyat markaziga aylantirildi</b>  |
| 1992-yil 7-mart    | Prezident Farmoni bilan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzurida <b>Din ishlari bo‘yicha qo‘mita</b> tashkil etildi.   |
| 1992-yil 3-iyul    | O’zbekiston Respublikasining “Davlat sanitariya nazorati to‘g’risida”gi Qonuni qabul qilindi.  |
| 1992-2002-yillar   | O’zbekistonda milliy-madaniy markazlar soni 12 tadan 138 taga yetdi.   |
| 1993-yil 23-aprel  | Hukumatga qarashli bo‘limgan <b>“Sog‘lom avlod uchun”</b> xalqaro hayriya jamg‘armasi tashkil etildi.  |
| 1993-yil           | “O’zfarmsanoat” davlat aksionerlik jamiyatini tuzildi.   |
| 1993-yil 7-may     | O’zbekiston Respublikasida dastlabki davlat ordenlaridan biri <b>“Sog‘lom avlod uchun”</b> ordeni ta’sis etildi. Ushbu orden bilan onalik va balalikni muhofaza qilish, sog‘lom avlodni kamol toptirish uchun eng yaxshi moddiy sharoit va   |

|                         |  |
|-------------------------|--|
|                         | axloqiy muhitni ta'minlashda alohida xizmat ko'rsatgan shaxslar mukofotlanadilar.  |
| 1994-yil 24-avgust      | "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni e'lon qilindi.  |
| 1994-yil                | Ijtimoiy himoyaning asosiz tenglashtirish tizimidan aniq maqsadli va aholining aniq tabaqalarini qamrab oladigan tizimga o'tildi. Mahalla orqali bolalar, keksalar va kam daromadli oilalarga moddiy yordam beriladigan bo'ldi.  |
| 1994-yil                | "Dori-darmon" davlat aksionerlik uyushmasi tashkil etildi. Davlat tasarrufidagi 2525 ta dorixonalarining ko'pchiligi xususiylashtirildi.   |
| 1995-yil 20-dekabr      | "Ahollining omonatlardagi va davlat sug'urta bo'yicha pul mablag'larini indeksatsiya qilish to'g'risida"gi Prezident Farmoni e'lon qilindi. Unga ko'ra, 1992-yilga qadar banklarda pul qo'ygan 3 mln. Dan ortiq omonatchilarining 35 mld. so'mga teng bo'lgan omonatlari indeksatsiya qilindi. |
| 1996-yil 29-avgust      | "Fuqarolar salomatligini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.   |
| 1996-yil<br>9-13-noyabr | Toshkent va O'rta Osiyo eparxiyasining 125-yillik yubileyiga bag'ishlangan tantanalar bo'lib o'tdi va bu tantanalarda Butunrossiya va Moskva patriarxi Aleksey II qatnashdi.   |
| 1996-yil                | O'zbekiston iqtisodiyotida yuksalish boshlandi. Bu o'z navbatida aholi daromadlari o'shining tabiiy manbaiga aylandi.  |
| 1997-yil 25-aprel       | "Dori vositalari va farmasevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.   |
| 1997-2003-yillar        | Aholining real pul daromadlari – yillik o'rtacha 22 foizdan o'sib bordi.<br>Aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi, xususan, qishloq joylarda 36,8 foizdan 47 foizga, tabiiy gaz bilan ta'minlash 69 foizdan 78,3 foizga yetdi.  |
| 1998-yil 30-aprel       | "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.<br>2020-yilga kelib O'zbekistonda 2100 ta islomiy tashkilot, 191 ta islomiy bo'Imagan diniy tashkilot faoliyat ko'rsatgan.   |
| 1999-yil 7-aprel        | Prezident Farmoniga binoan <b>Toshkent Islom Universiteti</b> tashkil etildi.  |
| 2001-yil 13-fevral      | Mehnat Vazirligi va Ijtimoiy ta'minot vazirligi negizida O'zbekiston Respublikasi <b>Mehnat va ijtimoiy himoya vazirligi</b> tuzildi.  |

|                      |   |
|----------------------|---|
| 2001-yil mart        | Sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli I-klinik shifoxona negizida <b>Respublika shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish ilmiy markazi</b> barpo etildi. Qurilish ishlariiga 4 mlrd. so'm sarflandi.<br>Markazda 760 o'rinni 8 ta jarrohlik markazi kecha-kunduz shoshilinch tibbiy xizmat ko'rsatmoqda.   |
| 2002-yil             | Respublikamizda dori-darmon ishlab chiqaruvchi korxona va qo'shma korxonalar soni 61 taga yetdi.  |
| 2002-yil             | Respublikamizda 120 ta milliy madaniyat markazlari faoliyat ko'rsatdi.  |
| 2004-2012-yillar     | Aholi daromadlarining real o'sishi 20 foizni tashkil etdi.  |
| 2005-yil 21-iyul     | Toshkent Tibbiyot akademiyasi tashkil qilindi.  |
| 2010-yil             | Qishloqlarda namunaviy uy-joylar qurish dasturi boshlandi.  |
| 2010-yil 17-iyun     | "Qishloq joylarida namunaviy loyihalari asosida xususiy uy-joy qurilishini kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Qarori qabul qilindi.   |
| 2013-yil 16-17-aprel | Toshkentda "Zamonaviy uy-joy qurilishi – qishloq joylarini kompleks rivojlantirish va qiyofasini o'zgartirish hamda aholi hiyotining sifatini yaxshilash omili" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiya nufuzli xalqaro tashkilotlar va oltmishdan ziyod davatlardan 300 dan ortiq olim va mutaxassis-ekspertlar ishtirok etdi. |
| 2013-yil 27-dekabr   | <b>"Ekologik nazorat to'g'risida"</b> gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.   |
| 2014-yil 22-iyul     | <b>Toshkent davlat stomatologiya instituti</b> tashkil etildi.  |
| 2016-yil 22-noyabr   | "2017-2020-yillarda shaharlarda arzon ko'p kvartirali uylarmi qurish va rekonstruksiya qilish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori (PQ-2660) qabul qilindi.   |
| 2017-yil 13-mart     | "Pensiylar va nafaqalar to'lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-2826) qabul qilindi.  |
| 2017-yil 17-mart     | "Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-4985) qabul qilindi.  |
| 2017-yil 18-aprel    | <b>Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi</b> tashkil etildi (PQ-2900).  |
| 2017-yil 21-aprel    | O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi o'mida <b>"Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi"</b> tashkil etildi (PQ-2915).  |
| 2017-yil 19-may      | "Millatlararo munosabatlari va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-5046) qabul qilindi.   |

|                    |   |
|--------------------|---|
|                    | Toshkent shahridagi "Bobur" bog'i " <b>Do'stlik</b> " bog'i deb<br>qayta nomlandi.  |
| 2017-yil 24-may    | O'zbekiston Respublikasi Mehnat va ijtimoiy <b>himoya vazirligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga</b> aylantirildi (PQ-3001).   |
| 2017-yil 30-may    | O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi <b>Majburiy ijro byurosi</b> tashkil etildi (PQ-3016).   |
| 2017-yil 14-iyul   | <b>"Ezgu maqsad"</b> xalqaro xayriya jamoat jamg'armasini tuzildi. Uning faoliyatini aholining ijtimoiy nochor qatlamlari sog'lig'ini himoya qilish, yetim bolalar va "Mehribonlik" uylari tarbiyalanuvchilariga, "Muruvvat" va "Sahoval" uylarida yashovchilarga yordam ko'rsatishga yo'naltirildi.  |
| 2017-yil 14-iyul   | <b>"Mehnat fahriysi"</b> ko'krak nishoni ta'sis etildi.   |
| 2017-yil 12-dekabr | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi <b>Davlat xizmatlari agentligi</b> tashkil etildi (PQ-3430).   |
| 2017               | Mamlakatimizda keyingi 25-yil davomida birinchi marta aholi uchun arzon, barcha qulayliklarga ega bo'lgan ko'p qavatli uy-joylar qurishni boshlandi. Shu yilda 800 ming kvadrat metrdan ziyod ana shunday uy-joylar qurib foydalanishga topshirildi.<br>Bu 2007-yilga nisbatan 20 barobar, namunaviy uy-joylar qunish dasturi boshlangan 2010-yilga nisbatan 3,5 barobar, 2014-yilga nisbatan esa 2 barobar ko'p uy-joy qurilgani demakdir. |
| 2018-yil 2-феврал  | Vazirlar Mahkamasi huzurida " <b>Oila</b> " ilmiy-amaliy tadqiqot markazi tashkil etildi.   |
| 2018-yil 29-mart   | <b>"Obod qishloq"</b> dasturi qabul qilindi (PF-5386).  |
| 2018-yil 16-aprel  | "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoniga ko'ra <b>Toshkent Islom Akademiyasi</b> tarkibida Qoraqalpog'iston, Samarqand, Namangan va Surxondaryo mintaqaviy filiallari tashkil etildi.  |
| 2018-yil 16-aprel  | O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon asosida " <b>Vaqf</b> " xayriya jamoat fondi tashkil etildi.  |
| 2018-yil 8-may     | Samarqand Veterinariya meditsinasi instituti tashkil etildi.  |
| 2018-yil 5-8-июн   | Toshkentda <b>Markaziy Osiyo xalqaro ekologiya forumi</b> o'tkazildi.   |
| 2018-yil 27-iyun   | O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiysi tasdiqlandi (PQ-3808).  |
| 2018-yil 27-iyun   | <b>"Obod mahalla"</b> Davlat dasturi qabul qilindi (PF-5467).   |
| 2018-yil 7-dekabr  | "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan   |

|                          |   |
|--------------------------|---|
|                          | takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-5590) qabul qilindi.   |
| 2018-yil 12-dekabr       | O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi qabul qilindi.  |
| 2018-yil                 | Mamlakatimizda urbanizatsiya darajasi 35,5 foizni tashkil etdi.   |
| 2019-yil 1-yanvar        | Ishlaydigan barcha pensionerlarga pensiyalar to'liq miqdorda to'lana boshlandi. Shuningdek, pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdorini eng kam oylik ish haqining 8 barobaridan 10 barobarigacha oshirish bo'yicha yangi tizim joriy etildi.  |
| 2019-yil 8-yanvar        | <b>O'zbekiston ekologik partiyasi</b> tashkil topdi va 2019-yil 22-dekabrda bo'lib o'tgan parlament saylovlariда beshinchi mustaqil siyosiy partiya sifatida ishtirot etdi.   |
| 2019-yil 19-may          | "Millatlararo munosabatlari va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-5046) qabul qilindi.   |
| 2019-yil 3-oktabr        | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi <b>Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi</b> tashkil etildi (PQ-4472).  |
| 2019-yil 30-oktabr       | Prezident Farmoni asosida (PF-5863) O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan davrda <b>Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiysi</b> qabul qilindi.   |
| 2019-yil<br>11-16-noyabr | O'zbekistonda " <b>Bag'rikenglik haftaligi</b> " doirasida " <b>Xalqaro bag'rikenglik kuni</b> "ga bag'ishlangan tadbirlar majmuasi bo'lib o'tdi. Haftalik davomida festival, rassomlar asarlari ko'rgazmasi, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlarining forumi, san'at ustalari va milliy madaniy markazlar qoshidagi badiiy jamoalarining konsertlari o'tkazildi. |
| 2019-yil 15-noyabr       | <b>Millatlararo munosabatlari sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiysi</b> tasdiqlandi (PF-5876).  |
| 2019-yil 28-dekabr       | Toshkent shahrida propiskasiz bo'lish muddati 5 kundan 10 kunga uzaytirildi.  |
| 2019-yil                 | Qishloqlarda 17 ming 100 ta, shaharlarda 17 ming 600 ta, jami 34 ming 700 ta yoki 2016-yilga nisbatan salkam 3 barobar ko'p arzon va shinam uylar qurildi.  |
| 2019-yil                 | Respublikamizda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish ko'rsatkichi 2018-yilgi 65 % dan 75 % ga yetkazildi.  |
| 2019-yil                 | Mamlakatimizda turmush sharoiti og'ir bo'lgan 1 ming 600 nafar xotin-qizlar imtiyozli kreditlar asosida arzon uy-joylar   |

|                     |   |
|---------------------|---|
|                     | bilan ta'minlandi.  |
| 2019-2020-yillar    | Respublikamizda kam ta'minlangan aholi qatlamlari taxminan 12-15 % ni tashkil etdi. Bu 4-5 million aholi demakdir.  |
| 2020-yil 24-yanvar  | O'zbekiston Prezidentining Parlamentga yo'llagan navbatdagi uchinchi Murojaatnomasida mamlakatimizda kambag'allik mavjudligi rasman e'tirof etildi. Kambag'allik darajasi 2000-yildagi 28 %dan 2019-yilga kelib, 7,4 % gacha tushgan.   |
| 2020-yil 17-fevral  | O'nga yaqin Xususiy bandlik agentliklari firibgarlikka qo'urgach, qonunchilikka o'zgartish kiritildi.   |
| 2020-yil 18-fevral  | <b>O'zbekiston Xotin-qizlar qu'mitasi tugatildi va Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi.</b>   |
| 2020-yil 26-mart    | "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-5975) qabul qilindi. Farmonga ko'ra Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi.             |
| 2020-yil 22-aprel   | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Doimiy propiska qilish hamda turgan joyi bo'yicha hisobga olish tartibini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.  |
| 2020-yil 26-may     | "Salomatlik" ordeni ta'sis etildi (O'RQ-620).   |
| 2020-yil 26-may     | "Sog'lom turmush" medali ta'sis etildi (O'RQ-621).  |
| 2020-yil 26-may     | "Mehr-saxovat" ko'krak nishoni ta'sis etildi (PF-5999).   |
| 2020-yil 23-sentabr | O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 75-yillik videokonferensiyasida nutq so'zlab, Orolbo'yini mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etdi. |
| 2020-yil 3-dekabr   | "Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutini tashkil etish to'g'risida"gi Prezident Farmoni elon qilindi.  |

## **8-MAVZU: MA'NAVIY HAYOTDAGI O'ZGARISHLAR, MADANIY TARAQQIYOT MUAMMOLARI**

**Reja:**

- 1. Ma'naviyat va ma'rifat – davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi.**
- 2. Mustaqillik yillarda tarixiy xotira, moddiy va ma'naviy merosimizning tildanishi.**
- 3. Mustaqillik yillarda madaniy hayot.**
- 4. Istiqlol yillarda jismoniy tarbiya va sport ravnaqi.**
- 5. O'zbekistonda xalqaro va ichki turizmni rivojlantirish istiqbollari.**

**Tayanch tushunchalar:** *Qadriyat, Milliy qadriyatlar, Madaniy meros, Mafkura, "Shahidlar xotirasi", "Xotira va qadrlash kuni", "Navro'z", "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi, "Oltin meros", Davlat tili, Milliy istiqlol g'oyasi, Korazm "Ma'mun akademiyasi", Ma'rifat markazi, "O'zbeknavo", "Sharq taronalari", Xunarmandchilik festivali, Baxshichilik festivali, "Umid nihollari", "Sog'lom avlod", "Universiada", Milliy olimpiya qo'mitasi, O'zbek kurashi, Ekoturizm.*

### **1. Ma'naviyat va ma'rifat – davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi.**

Har qanday jamiyat taraqqiyoti, uning darajasi fuqarolar ma'naviyati, turmush tarzi, kishilarning ma'naviy-moddiy, ijtimoiy ehtiyojlar hamda ularning qay darajada qondirilishiga bog'liq. Mustaqillik davrida ma'rifiy-ma'naviy islohotlar davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishiga aylandi. Ma'naviyati yuksak millat va davlatning kelajagi buyuk bo'lishi mumkinligi omma ongiga singdirildi. Tarixiy, madaniy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga jamiyatni poklantiruvchi, keljakni ma'naviy jihatdan mustahkamlovchi omil, deb qarala boshlandi.

Ma'naviyat jamiyat a'zolarini ruhan poklantiruvchi, ma'nan yuksaltiruvchi, inson ichki dunyosiga, irodasiga kuch-quvvat beruvchi, millat vijdonini uyg'otuvchi kuchdir.

1994-yil 23-aprelda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi tashkil etildi. Ushbu markaz xalqimizning boy ma'naviy merosini o'rganish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida mamlakat va millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalami yuzaga chiqarish bo'yicha katta ishlami amalga oshirdi. 1996-yil 9-sentabrda "Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Prezident Farmoniga asosan, 1997-yildan boshlab 1-oktabr "O'qituvchilar va murabbiylar kuni" deb e'lon qilindi, "Ma'naviyat" nashriyoti tashkil etildi, "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi qoshida "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasi tuzildi.

Istiqlol yillarda O'zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish, ayniqsa, uning moddiy-tehnik bazasini mustahkamlashga katta e'tibor berildi. Istiqlol Sobiq Ittifoq davrida qarovsiz ahvolda qolgan noyob obidalarni saqlash, ularni kelgusi avlodlarga bekamu ko'st yetkazish imkonini berdi. Faktlarga e'tibor qaratadigan bo'ilsak, sobiq

tuzum davrida 6700 dan ortiq madaniy va tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash ishlari<sup>ga</sup> 1990-yilda 12,4 mln. so'm ajratilgan bo'lsa, 1992-yilda respublika byudjetidan bu maqsadga ajratilgan mablag'lar 65,4 mln. so'mni tashkil etdi.

Sovetlar mustabid tuzumi sharoitida o'zbek milliy madaniyatni ko'p zarar ko'rdi. Barcha mustamlakachilar kabi kommunistik mafkura namoyonlari ham o'zbek xalqini qul qilish uchun, eng avvalo, uning milliy madaniyatini yo'q qilishga urindilar.

O'zbek xalqi katta yo'qotishlarga qaramasdan, o'zligini, o'z milliy madaniyatini saqlab qola bildi. Bu esa mustamlakachilar davrida yo'qotilgan, toptalgan madaniyerosni tiklash, o'zligini anglash imkonini berdi.

Bugungi kunda O'zbekiston "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati ta'lif-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda.

2019-yil 3-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori (PQ-4307) qabul qilindi. 2019-yil 23-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va jamiyatda o'qituvchi mavqeini oshirish" masalalariga bag'ishlangan videoselektor majlis bo'lib o'tdi. Majlisda belgilangan vazifalarni hayotga tadbiq qilish, yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarini yoshiba mos, bosqichma-bosqich shakllantirish maqsadida 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzlusiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi" qabul qilindi. Konsepsiya doirasida 2020-2021-oq'uv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lif muassasalarida I-XI sinflar uchun bir-birini takrorlaydigan "Odobnama", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari", "Dinlar tarixi" fanlarini birlashtirgan holda "Tarbiya" fani joriy qilindi.

## 2.Mustaqillik yillarda tarixiy xotira, moddiy va ma'naviy merosimizning tiklanishi.

Ma'lumki sho'rolar davrida o'zbek xalqi azaldan ardoqlab, avaylab-asrab kelgan milliy urf-odat, an'ana, qadriyatlar, ayniqsa, milliy bayramlariga qarshi sobiq markazning asossiz kurashi boshlandi. Ko'plab milliy marosimlar cheklandi. Avvallari nishonlangan "Hosil bayrami", "Qovun sayli", "Gul bayrami" va boshqa xalq bayramlari unutilib, "Navro'z" bayrami ta'qilab qo'yildi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'z faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab jamiyatni ma'naviy poklantirish, milliy madaniyatlarning o'zaro uyg'un rivojlanishiga erishish, xalqimizning an'ana, urf-odat va qadriyatları, marosimlarini tiklashga alohida e'tibor bera boshladı.

1990-yil 2-mayda e'lon qilingan Prezident Farmoni bilan mamlakatimizda Navro'z an'anaviy bayrami qayta tiklandi, tarixiy haqiqat vaadolat qaror topdi.

O'zbekiston Prezidentining 1990-yil 2-iyundagi "Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga Haj qilishi to'g'risida"gi Farmoniga binoan xalqimiz tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. 1992-yil 7-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Bu bilan

mamlakatimiz ahlining diniy e'tiqodi erkinligiga kafolat berildi. 1992-yil 27-martda Prezident farmoni bilan **Ro'za-ramazon hayitining** bиринчи куни дам олиш куни деб е'лон qilindi. Diniy-axloqiy mavzuda ko'plab kitoblar chop etildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va 1998-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan "**Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida**"gi Qonunda davlatning din va dindorlar vakillariga munosabati huquqiy jihatdan aniq belgilab berildi.

1999-yil 7-aprelda tashkil etilgan Toshkent Islom universitetida (2018-yil 16-apreldan Xalqaro Islom Akademiyasi) bugungi kunda minglab talaba yoshlar tahsil olmoqda.

Qaramlik davrida tahqirlangan diniy qadriyatlarimiz mustaqillik sharofati bilan qayta tiklandi, islomshunos allomalarimizning ulug' nomi o'z o'mniga qo'yildi. 1993-yil 16-sentabrda Buxoroda mashhur shayx Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi tantanalari bo'lib o'tdi. Yubiley munosabati bilan **Buxorodagi Naqshband** nomi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy yodgorliklar qaytadan tiklandi, uning ijodiga bag'ishlangan qator risolalar chop etildi.

1998-yil 23-oktabrda Samarcandda buyuk mutafakkir Imom al-Buxoni tavalludining 1225 yilligi nishonlandi. Shu kuni Xartang qishlog'ida **Imom al-Buxoriy** yodgorlik majmuyi ochildi. Yubiley munosabati bilan Ismoil al-Buxoriyning 4 jiddlik "A1-Jomi' as-Sahih" kitobi nashr etildi.

2000-yil 16-17-noyabr kunlari Marg'ilonda islom huquqining asoschilaridan biri **Burhoniddin al-Marg'inoniy** tavalludining 910 yilligi, Samarcandda islomshunos olim **Imom Abu Mansur al-Moturidiy** tavalludining 1130 yilligi nishonlandi va ular xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari ochildi. Burhoniddin al-Marg'nonyning islom huquqiga bag'ishlangan "**Hidoya**" kitobi nashr etildi. Keyingi yillarda islom olamining taniqli allomalari **Imom Abu Iso at-Termiziyning** 1200 yilligi, **Mahmud az-Zamaxshariyning** 920 yilligi, Abduxoliq G'ijduvoniyning 900 yilligi, **Najmiddin Kuhroning** 850 yilligi, **Xoja Ahror Yaliy** tavalludining 600 yilligi keng ko'lamma nishonlandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev davrida ham malakatimizda vijdon erkinligining kafolatlanishi va diniy konfessiya vakillarining hamjihatlikda faoliyat ko'rsatishlariga xizmat qiluvchi qator islohotlar davom ettirildi. 2017-yil 17-fevralda Prezident Farmoni bilan Termiz shahrida **Imom at-Termiziy nomidagi Xalqaro Islom tadqiqot markazi** tashkil etildi. 2018-yil 16-aprelda "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni e'lon qilinib, unga ko'ra Toshkent Xalqaro Islom Akademiyasi va uning tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarcand, Namangan va Surxondaryo mintaqaviy filiallari tashkil etildi.

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilishning, milliy-axloqiy qadriyat hamda an'analarning, o'mi va ahamiyati katta Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mazkur madaniy merosni tiklash va uni xalqqa yetkazish bo'yicha jiddiy ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, 1991-yilning "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilinishi katta ijtimoiy-madaniy ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, 1994-yilda ulug' olim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bekning 600 yilligi keng nishonlandi, 1996-yil mashhur sarkarda, davlat arbobi Amir Temur nomi bilan

bog'landi. Shuningdek, Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yilligi, afsonaviy sarkarda Jaloliddin Manguberdining 800 yilligi, "Alpomish" dostonining 1000 yilligi Xorazmda "Avesto" kitobibniq 2700 yilligi keng nishonlandi.

1997-yilda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, 2004-yilda Qarshi (Naxshab) shahrining 2700 yilligi, 2007-yilda Samarcand shahrining 2750 yilligi va Marg'ilon shahrining 2000 yilligi, 2002-yilda Termiz shahrining 2500 yilligi va Shahrisabz shahrining 2700 yilligi nishonlandi.

1999-yilda Toshkent shahrida Ikkinchı jahon urushi yillarda fashizmga qarshi Vatan ozodligi uchun jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasi abadiylashtirish maqsadida "**Xotira maydoni**" majmuasi barpo etildi va shu yili 9. may kuni uning ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

2009-yil 1-sentabrda "O'zbekiston" anjumanar saroyida Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag'ishlangan majlis bo'lib o'tdi. I.A.Karimov Toshkent shahriga "**Mustaqillik**" ordenimi topshirdi.

Toshkent shahrining Bo'zsuv kanali bo'yida qatag'on davri qurbanlari xotirasi abadiylashtirish maqsadida "**Shahidlar xotirasi**" yodgorlik majmuyi buniyod etildi va uning ochilish marosimi 2000-yil 12-may kuni bo'lib o'tdi. Mazkur majmua qoshida "**Qatag'on qurbanlari xotirasi**" muzeyi qurilib, 2002-yil 27-avgust kuni foydalanimsga topshirildi.

2020-yil 9-mayda pandemiya shroitiga qaramasdan fashizm ustidan erishilgan g'alabaning 75 yilligi munosabati bilan Toshkent shahrining Olmazor tumanida "**Galaba bog'i**" majmuasi barpo etildi. Mamlakatimzda har yili 9-may an'anaviy ravishda "**Xotira va qadrlash kuni**" sifatida nishonlanmoqda.

2019-yil 21-oktabr kuni poytaxtimizda Prezidentimiz SH.Mirziyoyev ishtirokida O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi. Shu kuni "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Farmoni (PF-5850) e'lon qilindi. Farmonga ko'ra Vazirlar Mahkamasi huzurida **Davlat tilini rivojlantirish departamenti** tashkil etildi.

2017-yil 18-aprelda Prezident Qarori (PQ-2894) asosida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i hududida Adiblar xiyobonini barpo etish sihlari boshlandi va 2020-yilda ushbu go'zal xiyobon qurilishi yakunlandi.

2017-yil 6-noyabrda Sharof Rashidovning 100 yillik yubileyi munosabati bilan Jizzax shahrida yodgorlik majmuasi ochildi.

Xullas, mustaqillik yillarda urf-odat, milliy qadriyatlar, umuman, madaniy merosni tiklash yo'lida amalga oshirilgan ishlar mamlakat va jamiyat ma'naviy qiyofasini o'zgartirdi, xalqimizda milliy o'zlikni anglash jarayonini yanada chuqurlashtirdi.

### **3. Mustaqillik yillarda madaniy hayot.**

Mustaqillik sharofati bilan badiiy ijodiyot, badiiy adabiyot sinfiylik, partiyaviylik, kommunistik mafkuraviylik kabi aqida hukmronligidan, illatlardan ozod bo'ldi. Badiiy adabiyotda milliylik, ming yillik tarixiy ijodiy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar, erkin fikr yuritish tamoyillari tiklandi.

Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Xurshid Davron, To'ra Mirzo kabi ijodkorlarimizning tarixiy roman, pyesa va qissalarida ulug' bobokalonlarimiz, sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa buyuk zotlar siymlari yangicha badiiy-falsafiy nuqtayi nazardan yoritildi.

Shukrulloning "Kafansiz ko'milganlar", To'lepbergen Qayipbergenovning "U dunyoga, bobomga xat", Nazar Eshonqulovning "Qora kitob", O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrilar", Xudoyberdi To'xtaboyevning "Qasoskorning oltin boshi", Oygul Muhammad qizining "Jannat qushi", Tog'ay Murodning "Otandan qolgan dalalar" kabi asarlarida mustabid sovet davrida yuritilgan shovinistik siyosatning qatag'onlik, zo'ravonlikka asoslangan mohiyati, xalq boshiga solingan tashvish-u kulfatlar, g'am-g'ussa alamlari tasvirlab berildi.

Tohir Malikning "Shaytanat" (4 kitob), Hojiakbar Shayxovning "Tutash olamlar" asarlarida insonni imon va vijdondan ozdirishga, razolat va qabohat ummoniga botirishga urinuvchi yomonlik dunyosi, mafiya olami shaytonlari fosh qilinadi, ularga nisbatan nafratlanish tuyg'ulari o'z aksini topgan.

2017-2019-yillarda Toshkent shahridagi Milliy bog' hududida muhtasham Adiblar xiyoboni, Yozuvchilar uyushmasining yangi binosi, Qoraqalpog'istonda va bir qator viloyatlarimizda ulug' adiblarimizning nomlari bilan atalgan ijod maktablari barpo etildi. Yoshlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish borasida qator tadbirlar amalga oshirildi.

Mustaqillik yillarida teatr san'ati ham rivojlandi. 1993-yilda foydalanishga topshirilgan "Turkiston" san'at saroyi Vatanimizning va xorijlik atoqli teatr arboblarining, ijodiy guruhlarning sahna asarlari namoyish etiladigan dargohga aylandi. Andijonda jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar teatri davlat tasarrufiga olinib, Abbas Bakirov nomli yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi.

"O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (1995-yil 20-oktabr) va "O'zbekistonda teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi (1998-yil 26-mart) Prezident farmonlari asosida teatrlar davlat budjeti hisobiga qo'llab-quvvatlandi. Farmonga binoan "O'zbekteatr" ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. O'tish davri qiyinchiliklariga qaramasdan biron ta teatrnинг yopilishiga yo'l qo'yilmadi. Teatr binolari ta'mirlandi, ichki jihozlari yangilandi.

2001-yilda Hamza nomidagi O'zbek akademik drama teatri binosi muhtasham koshona shaklida qayta qurildi, zamonaliv teatr uskunlari va mebellar bilan jihozlandi. 2001-yil 21-sentabrda unga Milliy teatr maqomi berilib, O'zbekiston Milliy akademik drama teatri deb nomlandi.

Milliy akademik drama teatri va Qashqadaryo musiqali drama teatri jamoalari "Sohibqiron", Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatri "Jaloliddin Manguberdi", Abror Hidoyatov nomli O'zbek davlat teatri "Buyuk ipak yo'li" kabi tarixiy dramalarni sahnaga qo'ydi.

O'zbekistonda Respublika va xalqaro teatr festivallari bo'lib o'tdi. 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan festivalda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston teatrlarining 15 ta eng yaxshi tarixiy sahna asarları

namoyish etildi. 1997-yil oktabrda Toshkentda bo'lib o'tgan "Teatr: Sharq-G'arb" xalqaro festivalida Yaponiya, Hindiston, Syangan, Turkiya, Rossiya, Buyuk Britaniya teatr san'atkorlarining chiqishlari bo'ldi. O'zbekiston teatr ustalari Germaniya, Fransiya, Slovakiya, Hindiston, AQSH, Belgiya, Misr, Rossiya teatr festivallarda qiziqarli spektakllar bilan ishtirok etdilar.

2019-yil 30-avgustdan boshlab Toshkentda Xareografiya oliy maktabi yangi zamonaviy binoda o'z ishini boshladi.

Mustaqillik yillarda kino san'ati ham rivojlandi. Kino san'atining ijodkor ustalar – Shuhrat Abbosov, Yo'ldosh A'zamov, Elyor Eshmuhamedov, Ali Hamrayev, Rashid Malikov, Jahongir Fayziyev, Sharof Boshbekov va boshqalar zamonaviy kinofilmlar yaratish ishlariда peshqadamlik qildilar.

1996-yil 29-aprelda "O'zbekkino" davlat aksionerlik kompaniyasi tuzildi. Uning qoshida Respublika kino arboblari ijodiy assotsiatsiyasi ta'sis etildi. Kino sohasining iqtidorli yoshlari uchun xorijiy kino akademiyalari va o'quv markazlarida o'qish, malakasini oshirish ishlari amalga oshirildi.

Istiqlol yillarda O'zbekiston kinostudiylarida yuzdan ortiq badiiy filmlar va teleseriallar suratga olindi. "Temir xotin", "Ko'zlarim yo'lingda", "Dallol", "Sharif va Ma'rif", "Tilla bola", "Buyuk Amir Temur", "Yulduzingni ber, osmon", "Kenja singil", "Voiz", "O'tkan kunlar", "Piyoda odam", va boshqa filmlarda milliylik va yangi, zamonaviy ijodiy erkinlikning an'anaviy badiiy uslub bilan uyg'unligi yaqqol namoyon bo'ldi. Ayniqsa keyingi 2018-2020-yillarda yaratilgan "Qoqon shamoli", "Maxmudxo'ja Behbudiy", "Abdulla Avloniy", "Islomxo'ja", "Isxoqxon Ibrat", "Ilhaq" nomli tarixiy kinofilmlar o'zining chuqur g'oyaviy-falsaviy mazmuni bilan xalqimiz hamda ilmiy jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'ldi.

2021-yilning 28 sentabr – 3-oktabr kunlari Toshkentda "Ipak yo'li durdonasi" XIII Toshkent xalqaro kinofestivali bo'lib o'tdi. O'zining 50 yildan ziyod tarixi va an'analariga ega bo'lgan Toshkent xalqaro kinofestivali qayta tiklanib, "Ipak yo'li durdonasi" degan yangi nom bilan "Tinchlik, ma'rifikat va taraqqiyot uchun" shiori ostida o'tkazildi. Ushbu anjumanda dunyoning qariyb 50 mamlakatidan 300 dan ziyod san'at ustalari, jahon kino yulduzлari ishtirok etdi.

Istiqlol yillarda tasviriy san'at ham rivojlandi, rassomchilik yangi ma'mozmun bilan boyidi. 1997-yilda Prezident farmoniga muvofiq O'zbekiston Badiiy akademiyasining tashkil qilishi va "Tasviriy oyna" respublika ijodiy uyushmasining tuzilishi, ularning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi tasviriy san'at rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Iste'dodli yoshlarni izlab topish, yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash ishlari yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston xalq rassomlari Malik Nabihev, Bahodir Jalolov, qobiliyatli mo'yalam sohibi Zayniddin Faxriddinov va boshqalar xalqimiz ongida milliy g'urur, istiqlol va Vatanga sadoqat tuyg'ularini uyg'otuvchi qator san'at asarlarini yaratdilar. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Mobur, fan va ma'naviy-ma'rifiy sohada dunyoga mashhur bobokalonlarimizning portretlari yaratildi.

Mustaqillik yillarda milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati rivojlandi. Musiqa va qo'shiqchilik san'atini, havaskorlik va folklor jamoalari faoliyatini rivojlantirish,

unutilgan xalq ohanglarini tiklash maqsadida turli xil ko'rik-tanlovlari, festivallar tashkil etildi. 1992-yilda Toshkentda "Asrlarga tengdosh navolar" va "Boqiy ovozlar", Xorazm viloyatida folklor jamoalar, askiya, qiziqchi va masxarabozlarning, Qo'qonda katta ashula, lapar va yalla ijrochilarining ko'rik-tanlovlari o'tkazdi. 1994-yil may oyida Parijda bo'lib o'tgan "Sharq musiqasi" festivalida Munojot Yo'Ichiyeva va Shavkat Mirzayevlar ishtirok etib, o'zbek milliy qo'shiqchilik san'atini jahonga namoyish etdilar.

"O'zbekiston – Vatanim manim" ko'rik tanlovi qo'shiqchilik san'atini rivojlantirishga ijobiyligi ta'sir ko'rsatdi. 1996-yil barcha viloyat, shahar va tumanlarda "O'zbekiston – Vatanim manim" qo'shiq tanlovingin birinchi bosqichi bo'lib o'tdi, unda 54 mingdan ziyod qo'shiqchilar qatnashdi. Tanloving yakunlovchi bosqichi avgust oyida o'tdi. 700 ta qo'shiqchi qatnashdi, ulardan 10 tasi mukofotlandi. Prezident farmoni bilan (1996-yil 27-avgust) bunday ko'rik tanlov har yili avgust oyida o'tkaziladigan bo'ldi. Bu tanlov jarayonida yuzlab Vatan, mustaqillikni e'zozlovchi yangi qo'shiqlar yaratildi. "O'zbekiston – Vatanim manim", "Men seni sevaman – O'zbekiston", "Vatan yagonadir", "Mustaqillik gullari", "Ona yurtim", "O'zbekiston askarlari" qo'shiqlari shular jumlasidandir.

Respublika hukumati tomonidan 1997-yil 11-martda qabul qilingan "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivalini o'tkazish to'g'risida"gi Qarori musiqa san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish rivojlantirishda dasturulamal bo'lib xizmat qildi. 1997-yil 25-avgust – 2-sentabr kunlari Samarqand shahrida "Sharq taronalari" birinchi Xalqaro festivali bo'lib o'tdi. Unda dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidan ijrochilar, san'atshunoslar, jamoal arboblari ishtirok etdilar. 1999-yildan boshlab har ikki yilda Samarqandda "Sharq taronalari" Xalqaro festivalini o'tkazish an'ana aylandi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda musiqa madaniyati saviyasini yangi bosqichga ko'tarish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Sohaning qonunchilik bazasi mustahkamlandi va zamona viylashtirildi. Jumladan:

2017-yil 20-iyul kuni Xorazmda O'zbekiston xalq artisti Komiljon Otaniyozov tavalludining 100 yillik bayrami nishonlandi. 2017-yil 15-avgustda "O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" Prezident Qarori (PQ-3212) e'lon qilindi.

2018-yil 6-10-sentabr kunlari Shahrisabzda Xalqaro maqom san'ati anjumani bo'lib o'tdi. 2019-yil 6-10-aprel sanasida Surxondaryoda Xalqaro baxshichilik san'ati festivali o'tkazildi.

Umuman, bugungi kunda O'zbekistonda 100 ta davlat va 1200 dan ortiq jamoatcnilik muzeylari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda ajdodlarimiz tarixi, betakror madaniyatini aks ettiruvchi nodir buyumlar – eksponatlar saqlanmoqda va namoyish dilinmoqda. Bundan tashqari respublikamizda 50 ta teatr, 91 ta kinoteatr, 72 ta konsert tashkiloti, 192 ta madaniyat va istirohat bog'lari, 833 ta madaniyat markazlari, 3 ta hayvonot bo'g'i, O'zbek davlat sirkasi va botanika bog'i xalqimizning ma'naviy-madaniy ehtiyojlari uchun xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizning me'moriy yodgorliklarga boy 10 ta shahri tarixiy shaharlar ro'yxatiga kiritilgan. 2500 ta me'moriy obida, 2700 ta arxeologik yodgorlik, 1800

monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlaridagi 3 ta muzey-qo'riqxonalarida butun dunyoda eng nodir tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar, monumental san'at asarlari saqlanib qolgan, davlat muhofazasida yangidan chiroy ochayotgan muzeylar sifatida e'tirof etilgan.

#### **4. Istiqlol yillarida jismoniy tarbiya va sport ravnaqi.**

Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy-tarbiyaviy xususiyati shundaki, u inson salomatligini mustahkamlash, yosh avlodning jismoniy barkamolligi hamda sport mahoratini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Qolaversa, hech bir soxa mamlakatni sportchalik tez dunyoga tanita olmaydi. Respublikamizda MDHga a'zo davlatlar ichida birinchilardan bo'lib, 1992-yil 14-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida xalqaro sport hamjamiyatiga a'zo bo'lib kirish maqsadida 1992-yil 21-yanvarda Milliy Olimpiya qo'mitasi (MOQ)ni tashkil etdi. 1993-yilda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining 101-sessiyasida O'zbekiston XQQ a'zosi sifatida tan olinib, xalqaro sport hamjamiyatining to'laqonli subyektiga aylandi.

1996-yil avgustda Toshkentda "Olimpiya shon-shuhrati" muzeyi ochildi. Unda mamlakatimiz sport tarixi, Olimpiya harakati, sportchilar erishgan yutuqlar o'z ifodasini topdi.

2017-yil ayniqsa o'zbek milliy kurashi tarixida yorqin sahifa bo'ldi. Sentabr oyida Turkmanistonda bo'lib o'tgan Osiyo olimpiya kengashi Bosh assambleyasini yig'ilishida ushbu milliy sport turini Osiyo o'yinlari dasturiga kiritish haqida qaror qabul qilindi. 2018-yil Indoneziyada bo'lib o'tgan XVIII-Osiyo o'yinlarida qit'amiz sportchilari o'zbek milliy kurashi bo'yicha ham o'zaro bellashdilar.

2019-yil 16-martda poytaxtimizda "Humo" muz sporti saroyi, shuningdek, Toshkent viloyatida Amirsoy zamonaviy sport dam olish maskani ishgaga tushitildi.

2021-yil Yaponiya poytaxti Tokio shahrida bo'lib o'tgan yozgi olimpiya o'yinlarida o'zbekistonlik sportchilar 3 ta oltin va 2 ta bronza madalini qo'lgaga kiritdilar. O'zbekistonlik sportchilar umumjamoa hisobida jahonda 32, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari orasida uchinchi va Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida birinchi o'rinni egallashga muvaffaq bo'lishdi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O'zbekistonda jismoniy madaniyat va sport ishlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur ishlarni amalga oshirish uchun yetarli darajada huquqiy-meyoriy hujjatlar ishlab chiqilib, ular asosida sportni rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda qatnashish bilan birga, milliy sport turlarini targ'ib qilish faollashdi. Yuqorida aytib o'tilgan qaror va farmonlarning amalda bajarilishi natijasida sport davlat siyosatining muhim yo'nalishi ekanligini, uning tobora yuksalib borayotgan o'mini yurtimizda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, insonlarning yoshi, jinsi, millatidan qat'i nazar, sportga jalb etish, sportdagi erishilgan yutuqlar milliy g'ururning oshishiga xizmat qilayotganini ko'rishimiz mumkin.

#### **5. O'zbekistonda xalqaro va ichki turizmni rivojlantirish istiqbollari.**

Ma'lumki, bugungi kunda turizm jahoning 83 foiz mamlakatida davlat byudjetiga eng katta daromad keltiradigan 5 ta muhim sohalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston esa sayyohlik ko'lami va tarixiy qadamjolari ko'pligi bo'yicha dunyoning 10 ta yetakchi mamlakati qatorida turadi.

Istiqlol yillarda mamlakatimizda qadimiy yodgorliklarni rekonstruksiya qilish, mahalliy turoperatorlarni qo'llab-quvvatlash, ularga o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, joylarda sohaga oid infratuzilmani barpo etish, shuningdek, turizmning boshqa yo'nalishlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan yurtimiz betakror osori-atiqalari, urf-odatlaru milliy taomlari, go'zal tabiatini butun dunyoga namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Bu esa boy tarixga ega va zamon bilan hamnafas yashayotgan O'zbekistonni o'z ko'zi bilan ko'rmoqchi bo'lgan sayyohlar sonining yildan-yilga orib borishiga xizmat qilyapti. Xususan, 1990-yillarda mamlakatimizga bir yilda 150 ming sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2013-yilda bu ko'rsatkich 1,2 million nafardan ortdi. Ammo, potensial imkoniyatlarimizdan kelib chiqib qaralsa bu qoniqarli ko'rsatkich emas.

Shu maqsadda 2016-yildan boshlab turizm industriyasini rivojlantirishga katta e'tibor berila boshlandi. Jumladan, 2016-yil 2-dekabr kuni "Turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Farmoni (PF-4861) asosida Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etildi (PQ-2666).

Yurtimizda 8 ming 300 ta madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Mamlakatimizning betakror tabiat, go'zal dam olish zonalari imkoniyatlaridan foydalaniib, yangi turistik yo'nalishlar ochish, bu sohaga jahon brendlарini faol jalb etgan holda, ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizmni rivojlantirish istiqbolari mavjud.

2018-yildan Samarcand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo'lgan "kichik haj" dasturini rivojlantirish va jadallashtirish ishlari boshlab yuborildi. Sohaga malakali kadrlar tayyorlash maqsadida 2018-yil 28-iyun sanasida Samarcand shahrida "Ipak yo'li" turizm xalqaro universiteti tashkil etildi.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks choralar ko'rish dolzarb masala hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek bizda turizm ko'pincha qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda. Vaholanki, mamlakatimizning betakror tabiat, milliy qo'riqxonalar, tog'li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta tutki beradi.

So'nggi yillarda sohani rivojlantirish borasida qator islohotlar amalga oshirila boshlandi. 2019-yilda 86 ta davlat fuqarolariga vizasiz va 57 ta davlat fuqarolariga soddalashtirilgan viza rejimi joriy etilishi natijasida mazkur yilda yurtimizga 6,7 million nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurdi. Bu 2016-yilga nisbatan 4,7 million nafarga yoki 3,3 barobar ko'p demakdir.

Shu munosabat bilan 2019-yilda 2019-2025-yillarda Turizmni rivojlantirish milliy konsepsiysi ishlab chiqildi. 2021-yilda 1,7 million xorijiy, 7,5 million mahalliy sayyohlarni jalb qilish, turizm xizmatlari eksportini 370 million dollarga

yetkazish maqsad qilingan. Bu borada eng enn manba, avvalo, ziyorat turizmidir. Yurtimizda islom diniga oid ko'plab ziyoratgohlar, yahudiylik, buddaviylik yodgorliklari bor. Bu imkoniyatdan foydalaniib, 700 ming ziyoratchini jalg qilish va 130 million dollarlik xizmatlar eksportini ta'minlash mumkin.

2021-yil 6-aprelda Prezident Sh.Mirziyoyev "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Farmonga muvofiq. Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi negizida "**Turizm va sport vazirligi**" tashkil etildi.

Turizm va sport vazirligi turizm, jismoniy tarbiya, sport va madaniy meros sohalarida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi etib belgilandi.

#### **Mavzuning asosiy tushunchalari:**

**MAFKURA** – muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlar, maqsad-muddaolari, manfaatlari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassamlashtirgan g'oyalar tizimi.

**MA'NAVIYAT** – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezoni.

**"MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT" MARKAZI** – Respublikamizda madaniyat-ma'rifat ishini olib boruvchi jamoatchilik tashkiloti. 1994-yil 23-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni bilan tashkil etilgan. 1999-yilda "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi ishiga bevosita rahbarlik qilish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar, Toshkent shahar va boshqa shahar va tumanlarda bo'limlari bo'lgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi tashkil etildi. Oliy organi – konferentsiya. Asosiy shiori – "Jaholatga qarshi ma'rifat". Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining nashri sifatida "Tafakkur", "Jahon adabiyoti" jurnallari chop etiladi, "Ma'naviyat" nashriyoti, "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasi faoliyat yuritadi.

**METSENATLIK** – madaniyat va san'at, shuningdek ilm-fan, ta'lim, ma'rifat hamda madaniyat va san'atni rivojlantirish bilan bog'liq boshqa faoliyat sohasida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan xomiylilik faoliyati.

Metsenatlik faoliyatining asosiy maqsadlaridan biri O'zbekiston Respublikasi madaniy meros obyektlarini saqlash, muhofaza qilish va ularidan faydalinish uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek madaniyat va san'at sohasidagi arboblar va yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Metsenatlik to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-571) 2019-yil 16-oktabrda qabul qilingan.

**MILLIY G'OYA** – muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui. U millatning o'tmishi, buguni va kelajagini o'zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlari va maqsadlarini o'zida ifodalaydi.

**MILLIY OLIMPIYA QO'MITASI** – O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, olimpiya harakati va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkiloti. 1992-yil 21-yanvarda tashkil etilgan. 1993-yilning 21-yanvarda Xalqaro Olimpiya qo'mitasining 101-sessiyasida mazkur tashkilotga teng huquqli a'zo sifatida qabul qilingan.

**NAVRUZ** (f. – yangi kun) – bahorgi kun va tun tengligi paytida O'rta Osiyo va Sharq xalqlari nishonlaydigan qadimiy an'anaviy bayram. Shamsiya (quyosh)-yil hisobida-yilning birinchi kuni (21 yoki 22-mart). Navro'z dehqonchilik ishlarini boshlash bayrami hisoblanadi. Dastlab, navro'z bayramini o'tkazish o'troq dehqon aholisi orasida rasm bo'lgan, keyinchalik ular orqali yarim o'troq va ko'chmanchi turkiy xalqlarning ham urf-odatlariiga aylangan.

**QADRIYAT** (ar – qiymat, ahamiyat; qimmatbaho buyumlar, xalq boyligi) – 1) borliqdagi muayyan hodisalarning ijtimoiy, madaniy va insoniy mazmunini ko'rsatish uchun ilmiy adabiyotlarda keng foydalaniладиган ibora. Odatda, guruhga oid (ijtimoiy) va shaxsga oid qadriyatlar, shuningdek moddiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qadriyatlar bir-biridan farqlanadi; 2) inson uchun ahamiyatli, uning uchun qimmatli va muhim bo'lgan, uning faoliyatida mo'ljal hisoblanuvchi narsa-hodisa.

**UCH BOSQICHLI SPORT MUSOBAQALARI** – mamlakatimizda o'quvchi va talaba yoshlar o'rtasida sportga bo'lgan xavas va intilishni qo'llab-quvvatlash, jamiyatda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yosh iqtidorli sportchilarni tanlab olish, ularda professional mahorat va ko'nikmalarni rivojlantirish, sport turlari bo'yicha mamlakat terma jamoalariga sport zahirasini tayyorlash maqsadida tashkil etilgan sport musobaqalari tizimi.

"Umid nihollari" sport musobaqasi 7-18 yoshgacha, ya'ni umumiy o'rta ta'lim mabtableti va akademik litseylarning I-II kurs o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladi. "Umid nihollari" sport o'yinlari ilk marotaba 2002-yil Farg'onada, 2003-yili Xorazmda, 2006-yili Qarshida, 2009-yili Gulistonda, 2012-yili Navoiyda, 2015-yili Xorazm viloyatida yuqori saviyada tashkil etildi.

"Barkamol avlod" sport musobaqasi kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning 17-20 yoshdagi o'quvchilari ishtirokida o'tkaziladi. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 10 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish to'g'risida"gi Qarori (2001-yil, 19-yanvar) asosida tashkil etilgan hamda "O'quvchi va talaba yoshlami sportga jalb qilishga qaratilgan uzuksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to'g'risida"gi (2003-yil, 3-iyun) Qaroriga binoan saralash musobaqalari o'quv yurti, tuman, shahar va viloyatlarda, respublika final bosqichi bitta hududda tantanali ravishda tashkil etiladi. Respublika final bosqichlari ilk bor Jizzax (2001), so'ngra Andijon (2003) va uchinchisi Toshkent (2005) viloyatlarida bo'lib o'tdi.

"Universiada" sport musobaqasida oliy ta'lim muassasalari bakalavriat bosqichining I-VI kurs hamda magistratura bosqichining I-II kurs 17-28 yoshdagi talabalari qatnashadi.

Uch bosqichli sport musobaqasida yoshlar 28 sport turi bo'yicha bellashadi.

**XORAZM "MA'MUN AKADEMIYASI"** – 1004-yilda Xorazmning qadimiy poytaxti Gurganjda Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'mun tomonidan tashkil etilgan

akademiY. Bu akademiya ("Ma'mun akademiyasi") ning asosini Abu Nasr ibn Iroq (X a.-1034), Abulhayr ibn Hammor (991-1048), Abu Sahl Masihiy (970-1011), Abu Rayxon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037) va boshqalar tashkil etgan 1017-yilda Mahmud G'aznaviy Xorazmni bosib olgach "Ma'mun akademiyasi" o'z faoliyatini to'xtatgan. Olimlarning ko'pchiligi G'azna shahriga majburan olib ketilgan.

1997-yil 11-noyabrdan O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning "Xorazm Ma'mun akademiyasini tiklash to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilinib, mazkur farmonga binoan, bu akademiya tarkibida arxeologiya, til va adabiyot, biologiya bo'limlari tashkil qilindi va ajdodlarimizning ismi va ruhiga loyiq ish olib borish kabi hayrli ishlarni boshladi.

YUNESKO tashkiloti O'zbekiston Respublikasining taklifi bilan 2005-yilda Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi anjumanini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi va bu yurtimizda tantanali ravishda keng nishonlandi.

**"XOTIRA VA QADRLASH KUNI"** – O'zbekistonda ikkinchi jahon urushi yillarda fashizmga qarshi kurashib halok bo'lganlarning, mamlakatimiz ozodligi va mustaqilligi uchun jon bergan yurtimizning barcha o'g'lonlari xotirasini abadiylashtirish hamda bugun ham saflarimizda turib Vatan obro'-e'tiborini yuksaltirishga yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga hissa qo'shayotgan barcha kishilarining hurmatini joyiga qo'yish maqsadida ta'sis etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "9-mayni Xotira va qadrlash kuni deb e'lon qilish to'g'risida"gi 1999-yil 2-mart Farmoni (PF-2243)ga binoan Toshkent shahrining "Mustaqillik" maydonida 1999-yil may oyida Xotira maydoni yodgorlik majmuasi barpo etildi. Majmua ikkinchi jahon urushida ishtirot etgan vatandoshlarimizning viloyatlar kesimida joylashtirilgan xotira ro'yxati joylashtirilgan ayvon va "Motamsaro ona haykali"ni o'z ichiga oladi.

**XOTIRA VA QADRLASH MAYDONI** – Toshkent shahridagi yodgorlik majmuasi. Ikkinchi jahon urushi yillarda fashizmga qarshi janglarda jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini tiklash va abadiylashtirish maqsadida bunyod etilgan.

1999-yil 2-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "9-mayni Xotira va qadrlash kuni, deb e'lon qilish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. 1999-yil 9-may kuni ushbu majmuuning ochilish marosimi bo'lib o'tdi va O'zbekiston Respublikasida birinchi bor 9-may Xotira va qadrlash kuni sifatida nishonlandi.

Xotira va qadrlash maydoni Mustaqillik maydonining shimoliy tomonidagi xiyobonda, mangu alanga yodgorligi atrofida joylashgan bo'lib, maydonning to'rida Motamsaro ona haykali o'matilgan (haykaltarosh I.Jabborov). Xiyobonning shimol va janub tomonida ayvonlar qad ko'targan. Ayvonlar tokchalariga o'matilgan metall taxtalarga ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan barcha o'zbekistonlik jangchilarining ismi-shariflari viloyat va tumanlar kesimida yozib qoyilgan. Xuddi shunday me'moriy inshootlar respublikamiz viloyatlari markazlarida ham bunyod etilgan.

**"SHAHIDLAR XOTIRASI" YODGORLIK MAJMUUI** – o'tgan asming 30-40-yillarda sho'rolar tomonidan millatimizning ilg'or vakillari qatl qilingan qatlga

o'mida barpo etilgan yodgorlik majmuasi. Toshkent shahrining Yunusobod tumani Bo'zuv kanali bo'yida 2000-yilda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan bunyod etilgan. 2002-yilda majmua tarkibiga kiruvchi "Qatag'on qurbanlari xotirasi" muzeyi tashkil etildi.

**"SHARQ TARONALARI"** – O'zbekistonda har ikki yilda bir marotaba o'tkaziladigan xalqaro musiqa festivali. Ushbu festavalni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad xalqlar o'rtaida do'stlik rishtalarini mustahkamlash, dunyo tinchligi, xalqlar o'rtaida do'stlik va ahillikni keng targ'ib etish; mamlakatimiz musiqa san'atining jahon hamjamiyatidagi nufuzini yanada oshirish, boy tarixiy va betakror madaniyatimizni keng targ'ib etish; Sharq xalqlari musiqa san'atini rivojlantirish va uning ahamiyatini yanada oshirish, o'zbek hamda boshqa xalqlarning musiqa san'ati an'analarini qamrab olish, ular bilan yaqindan ilmiy va ijodiy muloqot va hamkorlik qilish; yosh avlodni Sharq xalqlari musiqa san'atiga, ayniqsa, o'zbek milliy musiqasiga bo'lgan qiziqishlarini qanoatlantirish; Sharq mamlakatlari musiqa san'atining an'analarini asrash, madaniy muloqotni yanada rivojlantirish; Sharq xalqlarining an'anaviy musiqa san'ati sohasidagi ilmiy o'rganish va izlanishlarni hamkorlikda amalga oshirish, o'zaro tajriba almashish, davra suhbatlari, taqdimot va mahorat darslarini tashkil etish xisoblanadi.

1997-yil 26-avgust – 2-sentabr kunlari Samarqandda birinchi "Sharq taronalari" xalqaro festivali o'tkazildi. Unda dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidan ijrochilar, san'atshunoslar, jamoal arboblari ishtirot etdilar.

#### Mavzuga oid muhim sanalar:

|                     |   |
|---------------------|---|
| 1989-yil 17-sentabr | O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti 1994-yilda Abdulla Qodiriy tavalludining 100-yilligi nishonlanishi munosabati bilan ushu tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida qaror qabul qildi. Qarorda shoir nomidagi bog' loyihasini ishlab chiqish, Toshkent madaniyat instituti va Jizzax pedagogika institutiga adibning nomini berish nazarda tutildi. |
| 1990-yil 2-may      | "Navruz" bayramini qayta tiklash to'g'risida Prezident Farmoni e'lon qilindi.   |
| 1990-yil 2-iyun     | O'zbekiston Prezidentining "Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga Haj qilish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. O'zbekiston xalqi tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariiga ega bo'ldilar.  |
| 1990-yil 15-sentabr | Imom at-Termiziy tavalludining 1200-yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjuman bo'lib o'tdi.   |
| 1991-yil 12-fevral  | O'zbekiston SSR Prezidenti I.A.Karimov "Respublikada Navruz umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish haqida"gi farmonga imzo chekdi.  |
| 1991-yil 28-sentabr | <b>Alisher Navoiyning 550-yillik yubileyi</b> mamlakatimizda  |

|                        |   |
|------------------------|---|
|                        | keng nishonlandi. Toshkentda Alisher Navoiy haykali ochildi.  |
| 1991-2013-yillar       | Mamlakatimizga bir yilda tashrif buyurgan sayyoqlar soni 150 ming kishidan 1,2 million kishiga ortdi.   |
| 1992-yil 2-mart        | Muqimiy teatrda <b>Mukarrama Turg'un boyevan</b> ing 80-yilligi nishonlandi.  |
| 1992-yil 7-mart        | Prezident Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи huzurida <b>Din ishlari bo'yicha qo'mita</b> tashkil etildi. Uning tasarrufida Xalqaro islom tadqiqot instituti va o'ndan ortiq madrasa faoliyat ko'rsata boshladi. |
| 1992-yil 27-mart       | O'zbekiston Prezidentining farmoni bilan <b>Ro'za - Ramazon hayitining</b> birinchi kuni dam olish kuni deb e'lon qilindi.  |
| 1992-yil 22-may        | Alisher Navoiy teatrda <b>Mashrabning</b> 350-yillik yubileyi nishonlandi va Toshkentda Mashrabxonlik kunlari boshlandi.  |
| 1992-yil 23-may        | Namanganda Mashrab muzeyi va haykali ochildi.   |
| 1992-yil avgust        | Mustaqillik maydonidagi Lenin haykali o'mniga <b>Mustaqillik monumenti</b> o'matildi.   |
| 1992-yil noyabr        | Sharof Rashidovning 75-yilligi nishonlandi.   |
| 1992-yil 19-dekabr     | Nukus shahrinining 60-yilligi nishonlandi.  |
| 1992-yil               | Andijon shahrida Bobur milliy bog'i – "Bog'i Bobur" yodgorlik majmuasi barpo qilindi.   |
| 1993-yil 31-avgust     | Toshkentda Amir Tumur haykali ochildi.  |
| 1993-yil 1-sentabr     | Toshkentda Mirzo Ulug'bek haykali ochildi.  |
| 1993-yil 3-sentabr     | O'zbekiston Respublikasining " <b>Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida</b> "gi Qonuni qabul qilindi.   |
| 1993-yil 4-sentabr     | Toshkentda " <b>Turkiston</b> " san'at saroyi ochildi   |
| 1993-yil 16-sentabr    | Buxoroda <b>Bahouddin Naqshbandiyning</b> 675-yilligi nishonlandi.  |
| 1993-yil 18-dekabr     | Andijonda Boburning 510-yilligi munosabati bilan haykal o'matildi.  |
| 1993-yil               | Xoja Axror Valining 600-yilligi nishonlandi.  |
| 1994-yil 23-aprel      | Respublika <b>Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi</b> tashkil etildi.   |
| 1994-yil avgust        | Ajiniyozning 170-yilligi munosabati bilan Qo'ng'irotda shoirga yodgorlik o'matildi.   |
| 1994-yil 24-25-sentabr | Xorazmda <b>Feruz tavalludining</b> 150-yillik yubileyi nishonlandi.  |
| 1994-yil 13-15-oktabr  | Toshkent va Samarqandda <b>Mirzo Ulug'bek tavalludining 600-yillik yubileyi</b> nishonlandi.  |
| 1994-yil 6-dekabr      | Toshkentda <b>Abdulla Qodiriyning</b> 100-yilligi nishonlandi.  |
| 1995-yil noyabr        | Toshkentda Maxmud Zamashariy 920-yilligi  |

|                                |   |
|--------------------------------|---|
|                                | bag'ishlangan ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi.  |
| 1995-yil 1-dekabr              | Toshkentdagi San'atshunoslik ilmiy tadqiqot institutida Kamoliddin Behzodning 540-villigiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.   |
| 1995-yil 21-dekabr             | O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi <b>"Davlat tili to'g'risida"</b> gi Qonuni qabul qilindi.   |
| 1995-yil                       | Iso at-Termiziyning 1200-yilligi nishonlandi.   |
| 1995-yil                       | Najmiddin Kubroning 850-yilligi nishonlandi.  |
| 1996-yil aprel                 | Turkiston saroyi, "Bahor" dastasi va boshqa ijodiy konsert tashkilotlari negizida <b>"O'zbeknavo"</b> gastrol-konsert birlashmasi tashkil etildi.   |
| 1996-yil 16-aprel              | Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda YUNESKO rahbarligida Amir Temur tavalludining 660-yilligi tadbirlari o'tkazildi.   |
| 1996-yil 21-24-aprel           | Parijda Amir Temurning 660-yilligiga bag'ishlangan madaniyat xafataligi bo'lib o'tdi.   |
| 1996-yil 9-sentabr             | "Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Prezident Farmoni e'lon qilindi. Ushbu Farmonga ko'ra 1997-yildan boshlab 1-oktabr <b>"O'qituvchilar va murabbiylar kuni"</b> deb e'lon qilindi, "Ma'naviyat" nashriyoti tashkil etildi, "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi qoshida <b>"Oltin meros"</b> xalqaro xayriya jamg'armasi tuzildi. |
| 1996-yil 18-oktabr             | Toshkentda <b>Temuriylar tarixi davlat muzeyi</b> ochildi. Samarqand va Shahrisabz shaharlarda Amir Temur haykali ochildi.  |
| 1996-yil 28-noyabr             | Xiva shahrida shoir <b>Mahtumquli</b> haykali ochildi.  |
| 1997-yil 11-mart               | Respublika hukumatining <b>"Sharq taronalari"</b> xalqaro musiqa festivalini o'tkazish to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.   |
| 1997-yil 22-29-may             | Toshkentda jahoning 32 ta davlati va 8 ta xalqaro tashkilotning madaniyat va san'at arboblari ishtirokidagi "Umuminsoniy qadriyatlar va milliy taraqqiyot" shiori ostida XII-xalqaro Toshkent kinofestivali bo'lib o'tdi.   |
| 1997-yil 16-iyun               | Parijda Buxoro va Xiva shaharlaring 2500-yillik yubileyi nishonlandi.   |
| 1997-yil 25-avgust - 2-sentabr | Samarqand <b>"Sharq taronalari"</b> birinchi Xalqaro festivali bo'lib o'tdi. Har ikki yilda Samarqandda "Sharq taronalari" Xalqaro festivalini o'tkazish an'anaga aylandi.  |
| 1997-yil 19-oktabr             | Mamlakatimizda Buxoro shahrining 2500-yillik yubileyi nishonlandi.  |
| 1997-yil 20-oktabr             | Xiva shahrining 2500-yillik yubileyi nishonlandi.   |
| 1997-yil 11-noyabr             | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining <b>"Xorazm</b>  |

|                       |  |
|-----------------------|--|
|                       | <b>Ma'mun akademiyasini qayta tashkil etish to'g'risida"gi</b><br>Farmoni e'lon qilindi.   |
| 1997-yil 28-noyabr    | Mamlakatimizda <b>Abdulhamid Cho'ponning 100-yilligi</b> nishonlandi.  |
| 1997-yil dekabr       | Toshkentda akademik Yunus Rajabiy tavalludining 100-yilligi nishonlandi  |
| 1998-yil 26-iyun      | Islom Karimov bir gurux tarixchi-olimlar bilan uchrashuv o'tkazib " <b>Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q</b> " mavzusida nutq so'zladi.   |
| 1998-yil 3-iyul       | Amaliy va tasviriy san'at xalq ustalarining qo'lida bajariladigan qadimiy san'atini yanada rivojlantirish, ijodiy-ishlab chiqarish faoliyatini uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida Madaniyat ishlari vazirligi huzurida " <b>Usto</b> " maxsus-ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. |
| 1998-yil 27-iyul      | Vazirlar Mahkamasining " <b>O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida</b> "gi Qarori qabul qilindi.  |
| 1998-yil 23-oktabr    | Samarqandda Imom al-Buxoriyning 1225-yillik yubileyi nishonlandi. Kartang qishlog'ida <b>Imom al-Buxoriy</b> yodgorlik majmuasi ochildi.   |
| 1998-yil 24-oktabr    | Quva shahrida <b>Axmad al-Farg'oniyning 1200-yilligi</b> nishonlandi.  |
| 1998-yil 13-14-noyabr | Termiz shahrida birinchi " <b>Alpomish o'yinlari</b> " festivali o'tkazildi.   |
| 1998-yil              | Berdaq tavalludining 170-yilligi nishonlandi.  |
| 1998-yil              | Termiz shahrida Surxondaryo viloyati arxeologiya muzeyi tashkil etildi.  |
| 1999-yil yanvar       | Xorazmda <b>Pahlavon Mahmudning 750-yillik yubileyi</b> nishonlandi.   |
| 1999-yil 10-iyun      | <b>Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti</b> ta'sis etildi.   |
| 1999-yil 7-aprel      | Prezident Farmoniga binoan <b>Toshkent Islom Universiteti</b> tashkil etildi.  |
| 1999-yil 9-may        | Toshkent shahrida " <b>Xotira-maydoni</b> " majmuasi ochildi.  |
| 1999-yil 12-oktabr    | " <b>Oltin meros</b> " xalqaro hayriya jamg'armasi tashkil etildi.   |
| 1999-yil 5-noyabr     | Urganch shahrida <b>Jaloliddin Manguberdining 800-yilligi</b> nishonlandi.   |
| 1999-yil 6-noyabr     | Termizda " <b>Alpomish</b> " dostonining 1000-yilligi nishonlandi.   |
| 1999-yil 17-dekabr    | Ogahiy tavalludining 190-yilligi nishonlandi.  |
| 1999-yil 18-dekabr    | Nukusda Ajiniyoz Qasiboy o'g'lining 175-yilligi nishonlandi.   |
| 2000-yil 12-may       | Toshkentda " <b>Shaxidlar xotirasasi</b> " yodgorlik majmuasi ochildi.   |
| 2000-yil 25-avgust    | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan   |

|                     |   |
|---------------------|---|
|                     | iste'dodli yosh ijrochilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Nihol" mukofoti ta'sis etildi.   |
| 2000-yil 16-noyabr  | Marg'ilonda <b>Burxoniddin Marg'iloniyning</b> 910-yilligi nishonlandi.   |
| 2000-yil 17-noyabr  | Samarqandda <b>imom Al-Motirudiyning</b> 1130-yilligi nishonlandi.  |
| 2001-yil 21-sentabr | Hamza nomidagi O'zbek akademik drama teatriga Milliy teatr maqomi berilib, <b>O'zbekiston Milliy akademik drama teatri deb ataldi.</b>  |
| 2001-yil 3-noyabr   | Xorazmda "Avesto"ning 2700-yilligi nishonlandi.   |
| 2001-yil 30-avgust  | "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.  |
| 2002-yil 2-aprel    | Termiz shahrining 2500-yilik yubileyi nishonlandi.  |
| 2002-yil 27-avgust  | Toshkentda " <b>Qatag'on qurbanlari xotirasi</b> " muzeyi ochildi.  |
| 2002-yil 1-noyabr   | Shahrisabz shahrining 2700-yillik yubileyi nishonlandi.   |
| 2003-yil 10-may     | Toshkentda <b>G'ofur G'ulom</b> tavalludining 100-yilligi nishonlandi.  |
| 2003-yil 13-sentabr | Nukus shahrining 70-yilligi nishonlandi va shahar "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlandi.   |
| 2003-yil 27-noyabr  | Buxoroda <b>Abduxoliq G'ijdivoniyning</b> 900-yilligi nishonlandi.  |
| 2004-yil 17-mart    | <b>"O'zbekkino"</b> milliy agentligi tashkil etildi.  |
| 2004-yil 23-mart    | Toshkent shahrida ozarbayjon shoiri va mutafakkin <b>Nizomiy Ganjaviy</b> haykalining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Marosimda Ozarbayjon Prezidenti I.Aliyev ishtirok etdi. |
| 2005-yil 27-may     | <b>Oybek</b> tavalludining 100-yilligi nishonlandi.   |
| 2005-yil 30-avgust  | Toshkent shahrining Eski shahar hududida Abdulla Qodiriy nomidagi madaniyat va istiroxat bog'i qayta ochildi.   |
| 2005-yil 1-sentabr  | Toshkent shahrida Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'atshunoslik institutining binosi foydalanishga topshirildi.  |
| 2005-yil 1-sentabr  | Mustaqillik maydonida <b>Ezgulik arkasi</b> qurib bitkazildi.   |
| 2005-yil 28-dekabr  | Toshkent shahrining Mustaqillik maydonida " <b>Baxtiyor ona</b> " haykali ochildi.  |
| 2006-yil 3-fevral   | Toshkent shahridagi Mustaqillik obidasi va " <b>Baxtiyor ona</b> " haykali " <b>Mustaqillik va ezgulik monumenti</b> " deb nomlandi.  |
| 2006-yil 30-avgust  | Toshkentda Tasviriy san'at galereyasini ochildi.  |
| 2006-yil 27-oktobr  | Qarshi shahrining 2700-yilligi nishonlandi. Qarshida " <b>El-yurt tayanchi</b> " monumenti ochildi.   |
| 2006-yil 2-noyabr   | Xivada Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000-yilligi nishonlandi.  |

|                     |  |
|---------------------|--|
| 2007-yil yanvar     | Islom konferensiysi tashkiloti ISESKO (AYSESKO) tomonidan <b>Toshkent shahri Islom madaniyatining 2007-yildagi poytaxti</b> deb e'lon qilindi.   |
| 2007-yil 5-iyun     | Toshkent shahrida qayta ta'mirlanib obodonlashtirilg'an Xazrati Imom majmuasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.  |
| 2007-yil 25-avgust  | Samarqand shahrining 2750-yilligi nishonlandi.   |
| 2007-yil 7-sentabr  | Marg'ilon shahrining 2000-yilligi nishonlandi.   |
| 2008-yil 1-mart     | Toshkentda shoira <b>Zulfiya haykali</b> ochildi.  |
| 2008-yil 12-sentabr | O'zbekiston Respublikasining "Muzeylar to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.  |
| 2009-yil 1-3-may    | Toshkent shahri va viloyatida " <b>Asrlar sadosi</b> " ikkinchi an'anaviy madaniyat festivali o'tkazildi.  |
| 2009-yil 28-avgust  | <b>"O'zbekiston" anjumanlar saroyi</b> ochildi.  |
| 2009-yil 1-sentabr  | "O'zbekiston" anjumanlar saroyida Toshkent shahrining 2200-yilligiga bag'ishlangan majlis bo'lib o'tdi. I.A.Karimov Toshkent shahriga "Mustaqillik" ordenini topshirdi.                |
| 2009-yil 13-oktabr  | O'zbekiston Respublikasining "Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.  |
| 2010-yil 30-avgust  | Buxoroda " <b>Ko'xna va Boqiy Buxoro</b> " monumenti ochildi.  |
| 2010-yil 13-sentabr | Samarqandda Mirzo Ulug'bek haykali va muzeyi ochildi.  |
| 2011-yil 28-may     | Toshkent shahrida yozuvchi, O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad va Saida Zununovalarga haykal o'matish haqidagi Prezident Qarori e'lon qilindi.   |
| 2011-yil 16-noyabr  | Toshkent shahrida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi va Simpoziumlar saroyini o'z ichiga olgan " <b>Ma'rifat markazi</b> " majmuasi ochildi.                       |
| 2012-yil 4-iyun     | <b>O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti</b> tashkil etildi.  |
| 2014-yil 15-may     | Samarqand shahrida " <b>O'rta asr Sharq allomalarining tarixiy merosi, uning zamonaliviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati</b> " mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. |
| 2014-yil 1-3-oktabr | Samarqand shahrida BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Ijroiya kengashining 99-sessiyasi bo'lib o'tdi.  |
| 2014-yil 28-noyabr  | Mamlakatimizda O'zbek Milliy akademik drama teatrining 100 yilligi nishonlandi.  |
| 2016-yil 2-dekabr   | Prezident Farmoni (PF-4861) bilan <b>Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi</b> tashkil etildi.  |
| 2017-yil 15-fevral  | O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi negizida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil etildi.   |

|                    |   |
|--------------------|---|
| 2017-yil 17-fevral | Prezident SH.Mirziyoyev Farmoni bilan Termiz shahrida Imom at-Termizi nomidagi <b>Xalqaro Islom tadqiqot markazi</b> tashkil etildi.  |
| 2017-yil 18-aprel  | “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i hududida <b>Adiblar xiyobonini</b> barpo etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-2894) e‘lon qilindi.   |
| 2017-yil 24-may    | “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qarori (PQ-2995) qabul qilindi.   |
| 2017-yil 20-iyun   | Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistonga oid xorijdag‘ madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi tashkil etidi (PQ-3074).   |
| 2017-yil 20-iyul   | Urganch shahrida <b>Komiljon Otaniyozovning</b> 100-yillik yubileyi nishonlandi.  |
| 2017-yil 9-avgust  | “O‘zbekiston ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash “Ilhom” jamoat fondini tashkil etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-3184) e‘lon qilindi.   |
| 2017-yil 31-avgust | Toshkent shahrida Islom Karimov haykali ochildi.  |
| 2017-yil 2-sentabr | Samarqand shahrida Islom Karimov haykali ochildi.   |
| 2017-yil 8-sentabr | Toshkentda eng katta palov tayyorlanib Guinnessning rekordlar kitobiga kiritildi.   |
| 2017-yil 6-noyabr  | Toshkent va Jizzaxda Sharof Rashidovning 100-yillik yubileyi nishonlandi. Jizzax shahrida SH.Rashidov haykali ochildi.  |
| 2017-yil 5-dekabr  | “Chorvoq” erkin turistik zonasini tashkil etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-5273) qabul qilindi.   |
| 2017-2020-yillar   | Fuqarolaridan yurtimizga viza talab etilmaydigan mamlakatlar soni 9 tadan 86 taga yetkazildi, 53 ta davlat uchun “elektron viza” tizimi joriy etildi.   |
| 2018-yil 28-noyabr | “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlanтиrish konsepsiysi tasdiqlandi (PQ-4038).   |
| 2018-yil 30-yanvar | Qarshi shahrida Islom Karimov haykali ochildi.  |
| 2018-yil 30-yanvar | Samarqand shahrida Islom Karimov maqbara majmuasi ochildi.  |
| 2018-yil 5-mart    | O‘zbekiston Respublikasi <b>Jismoniy tarbiya va sport vazirligi</b> tashkil etildi.   |
| 2018-yil 16-aprel  | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5416-sonli Farmoniga muvofiq, Toshkent islam universiteti va O‘zbekiston islam akademiyasi negizida <b>O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi</b> tashkil etildi. |

|                        |  |
|------------------------|--|
| 2018-yil 27-iyun       | “O‘zbekiston Respublikasi Oila intitutini mustahkamlash Konsepsiysi” tasdiqlandi.  |
| 2018-yil 28-iyun       | Samarqand shahrida “Ipak yo‘li” turizm xalqaro universiteti tashkil etildi (PQ-3815).  |
| 2018-yil 29-iyun       | “O‘zbekiston davlat filarmoniyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident Qarori (PQ-3813) qabul qilindi.  |
| 2018-yil 7-avgust      | Toshkentda “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzab masalalari” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.  |
| 2018-yil 6-9-sentabr   | Shahrisabzda Xalqaro maqom san‘ati anjumani bo‘lib o‘tdi.  |
| 2018-yil 1-noyabr      | “Xalqaro baxshchilik festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori e’lon qilindi. Unga ko‘ra mazkur festival har ikki yilda bir-marta, 5-10-aprel sanasida o‘tkazish belgilandi. |
| 2019-yil 5-yanvar      | “2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiysi” qabul qilindi (PF-5611).  |
| 2019-yil 6-10-aprel    | Surxondaryoda Xalqaro baxshchilik festivali bo‘lib o‘tdi.  |
| 2019-yil 3-may         | “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Qarori (PQ-4307) qabul qilindi.  |
| 2019-yil 11-iyul       | “O‘zbekiston tarixi” telekanalni tashkil etildi. Telekanal 1-sentabrdan o‘satuvalarini efiga uzata boshladi.   |
| 2019-yil 18-iyul       | O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-549) qabul qilindi.   |
| 2019-yil 13-avgust     | “O‘zbekiston Respublikasida Turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qarori qabul qilindi.  |
| 2019-yil 23-avgust     | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev huzurida “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va jamiyatda o‘qituvchi mavqeini oshirish” masalalariga bag‘ishlangan videoselektor majlisи bo‘lib o‘tdi.    |
| 2019-yil 30-avgust     | Toshkentda Xareografiya oliy maktabi yangi zamonaviy binoda o‘z ishini boshladi.   |
| 2019-yil 14-15-sentabr | Qo‘qon shahrida Birinchi xalqaro xunarmandchilik festivali bo‘lib o‘tdi.   |
| 2019-yil 16-oktabr     | O‘zbekiston Respublikasining “Metsenatliz to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-571) qabul qilindi.  |
| 2019-yil 18-oktabr     | Surxondaryo (Sherobod tumani)da Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tashkil etildi.   |
| 2019-yil 21-oktabr     | Poytaxtimizda O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30-yilligiga bag‘ishlangan tantanali   |

|                    |  |
|--------------------|--|
|                    | marosim bo'lib o'tdi. Shu kuni "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-5850) e'lon qilindi. Farmonga ko'ra Vazirlar Mahkamasi huzurida <b>Davlat tilini rivojlantirish departamenti</b> tashkil etildi. |
| 2019-yil 30-oktabr | "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni ta'sis etildi.   |
| 2019-yil 19-dekabr | BMT Bosh Assambleyasi yalpi majlisida Prezident SH.Mirziyoyev tomonidan taklif qilingan " <b>Markaziy Osiyo barqaror turizm va barqaror rivojlanish</b> " maxsus rezolyutsiyasini qabul qildi.   |
| 2019-yil 31-dekabr | Yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirish maqsadida " <b>Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi</b> " qabul qilindi.   |
| 2019-yil           | 86 ta davlat fuqarolariga vizasiz va 57 ta davlat fuqarolariga soddalashtirilgan viza rejimi joriy etilishi natijasida mazkur yilda yurtimizga 6,7 million nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurdi. Bu 2016-yilga nisbatan 4,7 million nafarga yoki 3,3 barobar ko'p demakdir.  |
| 2020-yil 9-may     | Toshkent shahrining Olmazor tumanida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning 75-yilligi munosabati bilan " <b>G'alaba bog'i</b> " majmuasi ochildi.   |
| 2020-yil 26-may    | "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'mini va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbarlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni e'lon qilindi.  |
| 2020-yil 21-oktabr | O'zbek tili bayrami kuni sifatida butun mamlakatimiz miqyosida keng nishonlandi.   |
| 2020-yilda         | <b>Mahmudxo'ja Behbudi</b> ning 145-yillik tavallud sanasi keng nishonlandi.   |
| 2021-yil 21-mart   | Mamlakatimizda Abdulla Oripovning 80-yilligi nishonlandi.  |

#### SPORT

|                    |  |
|--------------------|--|
| 1991-yil noyabr    | Avstraliyada boks bo'yicha o'tkazilgan jahon championatida Artur Grigoryan kumush medalga sazovor bo'ldi.  |
| 1992-yil 14-yanvar | Respublikamizda MDHga a'zo davlatlar ichida birinchilardan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining " <b>Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida</b> "gi Qonuni qabul qilindi. |
| 1992-yil 21-yanvar | O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasi (MOQ) tashkil etildi.   |
| 1992-yil may       | Toshkent shahrida kurash bo'yicha 1-jahon championati  |

|                      |  |
|----------------------|--|
|                      | o'tkazildi.  |
| 1992-yil             | <b>Barselonada</b> (Ispaniya) o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarida respublikamiz sportchilari MDH terma jamoasi tarkibida ishtirok etib 3 ta oltin, 2 ta kumush va 1 ta bronza medallarini olib kelishga muvaffaq bo'ldilar (O.Chusovitina, R.Galiyeva sport gimnastikasi, M.Shmonina yengil atletika, A.Asraboyev miltiqdan o'q otish, S.Sirpov og'ir atletika, V.Zaxarevich qilichbozlik). |
| 1993-yil sentabr     | Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining 101-sessiyasida O'zbekiston XOQ a'zosi sifatida tan olinib, xalqaro sport hamjamiyatining to'laqonli subyektiga aylandi.  |
| 1994-yil fevral      | <b>Lillixammer</b> (Norvegiya)da bo'lib o'tgan XVII-qishki Olimpiya o'yinlarida respublikamiz sportchilari mustaqil ravishda birinchi marotaba qatnashib unda chang'ida akrobatik sakrash bo'yicha hamyurtimiz <b>L.Cheryazova</b> oltin medal sohibi bo'ldi.  |
| 1994-yil 2-avgust    | Toshkent shahrida "Yunusobod" sport majmuasi ochildi (1-navbat 1994-yil, 2-navbat 1997-yil, suv havzasi 2001-yilda qurib bitkazilgan). Hozirda u " <b>O'zbekiston</b> " sport <b>majmuasi</b> deb ataladi.   |
| 1994-yil 8-sentabr   | Doxa (Katar)da bo'lib o'tgan o'smirlar bo'yicha Osiyo championatida <b>Rustam Qosimjonov</b> oltin medalni qo'lga kiritdi.   |
| 1994-yil 2-15-oktabr | Yaponiyaning <b>Xirosima</b> shahrida bo'lib o'tgan XII-Osiyo o'yinlarida futbol bo'yicha mamlakatimiz terma jamoasi final uchrashuvida xitoylik futbolchilar ustidan g'olib kelib Osiyo championi bo'lishdi. Sportchilarimiz ushbu o'yinlarda jami 40 ta medalni (10 ta oltin, 11 ta kumush, 19 ta bronza) qo'lga kiritdi.  |
| 1994-2002-yillar     | Yunusobod tennis saroyida O'zbekiston Prezidenti kubogi uchun jami 9 marta xalqaro tennis musobaqalarini o'tkazildi.   |
| 1995-yil 2-8-sentabr | Toshkentda <b>Markaziy Osiyo o'yinlari</b> o'tkazildi. Tantanali ochilish marosimida XOQ Prezidenti <b>X.A.Samaranch</b> tabrik so'zi bilan qatnashdi.   |
| 1996-yil 6-fevral    | XOQ Prezidenti X.A.Samaranch O'zbekistonning olimpiya harakatiga qo'shayotgan ulkan hissasini yuqori baholab, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining bosh shtabi Lozanna (Shveysariya)da Islom Karimovga "Olimpiya oltin ordeni"ni tantanali ravishda topshirdi.   |
| 1996-yil 16-aprel    | Gamburg shahrida (GFR) professional boks tarixida birinchi bor o'zbekistonlik boksci <b>Artur Grigoryan</b> jahon championi bo'ldi.  |
| 1996-yil 1-sentabr   | Toshkentda Osiyoda yagona bo'lgan <b>Olimpiya shuhhrati muzeysi</b> ochildi.   |

|                                |  |
|--------------------------------|--|
| 1996-yil 19-iyul – 4-avgust    | Atlanta (AQSH)da o'tgan XXVI-yozgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston sportchilari mustaqil jamoa sifatida ilk bor qatnashdi. Unda 76 nafar sportchi ishtirok etib, 13 sport turi bo'yicha bellashuvlarda qatnashdilar. O'zbekiston medallar soni bo'yicha 197 mamlakat ichida 58-o'rinni egalladi. A.Bagdasarov dzyudo bo'yicha kumush medalga, K.To'laganov boks bo'yicha bronza medaliga sazovor bo'ldi.  |
| 1998-yil 2-22-dekabr           | Bankok shahrida (Tailand) bo'lib o'tgan XIII-Osiyo o'yinlarida respublikamiz sportchilari 21 ta sport turi bo'yicha bellashib, umumiy hisobda 10-o'rinni egalladilar (6 ta oltin, 22 ta kumush, 12 ta broza).  |
| 1998-yil may                   | Xalqaro Kurash assotsiatsiyasi tuzildi.  |
| 1999-yil 1-2-may               | Toshkentda 50 dan ortiq mamlakat o'rtasida kurash bo'yicha 1-jahon championati bo'lib o'tdi. Keyingi 2-championat Antalya (2000-yil 13-17-iyul), 3-championat Budapesht (2001-yil 25-26-avgust), 4-championat Yerevan (2002-yil 30-avgust-2-sntabr), 5-championat Toshkent (2005-yil 26-27-noyabr), 6-championat Ulan-Bator (2007-yil 25-29-oktabr), 7-championat Alushta (Ukraina, 2009-yil 9-10-oktabr) va 8-championat Termiz (2011-yil 22-23-oktabr) shaharlarda o'tkazildi. |
| 1999-yil iyul                  | Londonda o'tgan tennis bo'yicha yoshlar xalqaro "Uimblodon" tumirida Iroda To'laganova g'olib chiqib, kumush kubokning kichraytililgan nusxasini qo'lga kiritdi.   |
| 1999-yil avgust                | Xyoston (AQSH)da boks bo'yicha jahon championati bo'lib o'tdi. O.Haydarov va M.Abdullayevlar jahon championi unvoniga sazovor bo'ldilar. O'zbekiston bokschilari umumjamoa hisobida jahonda 3-o'rinni egalladilar.   |
| 1999-yil 23-30-oktabr          | Toshkentda boks bo'yicha XX-Osiyo championati bo'lib o'tdi. Unda D.Yo'idoshev, A.Rahimov, T.Turgunov, S.Mixaylov, R.Chagayev, R.Saidovlar oltin medalga sazovor bo'lishdi.   |
| 1999-yil                       | Germaniyada yoshlar o'rtasida karate bo'yicha bo'lib o'tgan jahon championatida 200 mamlakatdan 900 ishtirokchi orasida O'zbekistonlik karatechilar 3-o'rinni egalladilar.   |
| 2000-yil 15-sentabr – 1-oktabr | Sidney (Avstraliya) shahridagi XXVII-Olimpiya o'yinlari O'zbekistondan 77 nafar sportchi sportning 13 turi bo'yicha qatnashdi. Umumiy medallar soni bo'yicha O'zbekiston 41-o'rinni, Osiyo mintaqasidagi davlatlar orasida esa 7-o'rinni egalladi. Boks bo'yicha   |

|                                 |   |
|---------------------------------|---|
|                                 | M.Abdullayev oltin, erkin kurash bo'yicha A.Taymazovga kumush medali, Sergey Mixaylov va Rustam Saidov bronza medallari sohibi bo'ldilar.   |
| 2000-2001-yillar                | O'quvchi va talaba yoshlarning "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" sport musobaqalarini uch bosqichda o'tkazish an'ana tusini oldi  |
| 2002-yil 29-sentabr – 14-oktabr | <b>Pusan</b> (Janubiy Koreya)da o'tkazilgan XIV-Osiyo o'yinlarida sportchilarimiz sportning 24 turi bo'yicha qatnashib, 15 ta oltin, 12 ta kumush, 24 ta bronza medallarini qo'lga kiritib, qirqdan ortiq mamlakatlar orasida beshinchı o'rinni egalladilar.  |
| 2002-yil 24-oktabr              | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi.  |
| 2002-yil oktabr                 | <b>Xalqaro kurash assotsatsiyasi</b> Xalqaro sport federatsiyasi a'zoligiga qabul qilindi.  |
| 2003-yil 24-yanvar              | Osiyo Olimpiya kengashining Quvaytda bo'lib o'tgan XXII-Bosh assambleyasida o'zbek kurashi Osiyo o'yinlari dasturiga kiritildi.   |
| 2004-yil 18-iyun – 13-iyul      | Liviya poytaxti Tripoli shahrida bo'lib o'tgan shaxmat bo'yicha jahon championatida 56 mamlakatdan 128 nafar shaxmatchi qatnashdi. Hamyurtimiz, xalqaro grossmeyster <b>Rustam Qosimjonov</b> jahon championi bo'ldi.   |
| 2004-yil 4-26-avgust            | <b>Afina</b> (Gretsiya)da o'tkazilgan XXVIII-Olimpiya o'yinlarida A.Doktorashvili oltin (yunon-rum kurashi), A.Taymazov oltin (erkin kurash), M.Ibragimov bronza (erkin kurash), B.Sultonov kumush (boks), O.Haydarov bronza (boks) medallariga sazovor bo'lishdi. O'zbekiston terma jamoasi 202 ta davlat orasida 34-o'rinni egalladi.   |
| 2006-yil 1-15-dekabr            | <b>Doxa</b> (Qatar)da o'tkazilgan XV-Osiyo o'yinlarida mamlakatimiz terma jamoasi umumjamoa hisobida 7-o'rinni egalladi.  |
| 2007-yil 14-aprel               | <b>Shtutgart</b> (GFR)da professional bokschimiz <b>R.Chagayev</b> N.Valuevni yengib WBA yo'nalishida jahon championi bo'ldi.   |
| 2008-yil 8-24-avgust            | <b>Pekinda</b> o'tkazilgan XXIX-yozgi Olimpiya o'yinlarida 205 davlatdan 10500 sportchi qatnashdi. Mamlakatimiz sharafini 15 sport turi bo'yicha 58 nafar sportchi himoya qilib, umumjamoa hisobida 40-o'rinni egalladilar. A.Taymazov ikki karra Olimpiya championi unvoniga sazovor bo'lib, oltin medalni qo'lga kiritdi. Soslan Tigiyev kumush, Rishod Sobirov bronza (dzyudo), Anton Fokin bronza (sport gimnastikasi), Yekaterina Xilko bronza |

|                            |  |
|----------------------------|--|
|                            | (trampolin) medali sohiblari bo'ldilar.  |
| 2010-yil 16-20-fevral      | Toshkentda badiiy gimnastika bo'yicha qizlar o'rtasidagi Osiyo championatida O'zbekiston terma jamoasi qizlari jamoaviy bellashuv bo'yicha Osiyo championi bo'lishdi.  |
| 2010-yil 11-iyun           | JARda boshlangan Futbol bo'yicha XIX-jahon championatining ochilish uchrashuvini Osiyoning 2007, 2009 va 2010-yillardagi eng yaxshi hakami FIFA referisi <b>Ravshan Ermatov</b> boshqardi.                   |
| 2010-yil 10-avgust         | Andijon shahrida futbolga ixtisoslashtirilgan maktab-internat ochildi.   |
| 2010-yil 9-13-sentabr      | <b>Tokio</b> (Yaponiya)da o'tkazilgan dzyudo bo'yicha 26-jahon championatida <b>Rishod Sobirov</b> 60 kg vaznda jahon championi bo'ldi.  |
| 2010-yil 16-24-oktabr      | Argentinada bo'lib o'tgan futbol bo'yicha nogironlar o'rtasidagi jahon championatida O'zbekiston terma jamoasi ikkinchi marta jahon championi bo'lishdi.   |
| 2010-yil 12-17-noyabr      | <b>Guanchjoy</b> shahrida (Xitoy) bo'lib o'tgan XXI-Osiyo o'yinlarida O'zbekiston terma jamoasi 11 ta oltin, 22 ta kumush, 23 ta bronza medallarini qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida 8-o'ranni egallashdi. |
| 2011-yil 7-29-yanvar       | Qatarda futbol bo'yicha XV-Osiyo championatida final o'yinini <b>Ravshan Ermatov</b> boshqardi.  |
| 2011-yil 6-7-aprel         | <b>Abu-Dabi</b> (BAA)da bo'lib o'tgan dzyudo bo'yicha Osiyo championatida <b>A.Tangriyev</b> va <b>R.Saidovlar</b> oltin medalni qo'lga kirtidilar.  |
| 2011-yil 18-iyun – 10-iyul | Meksikada futbol bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi jahon championatida O'zbekiston terma jamoasi chorak finalga chiqib, jahoning kuchli sakkizligidan joy oldi.   |
| 2011-yil 23-28-avgust      | Parij shahrida bo'lib o'tgan dzyudo bo'yicha jahon championatida <b>R.Sobirov</b> ikkinchi marta jahon championi bo'ldi.   |
| 2011-yil 29-oktabr         | Qarshining "Nasaf" futbol jamoasi Qarshi shahrida "Quvayt" SK futbol jamoasini 2:1 hisobida mag'lub etib O'zbekiston futboli tarixida birinchi marta OFK kubogini qo'lga kirdi.                              |
| 2011-yil 1-noyabr          | Tyumen shahrida bo'lib o'tgan dzyudo bo'yicha jahon championati finalida <b>A.Tangriyev</b> g'alaba qozonib, jahon championi bo'ldi.   |
| 2012-yil 16-may            | FIFA Prezidenti Yozef Blatter O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2012-yil iyul              | <b>London</b> shahrida bo'lib o'tgan XXX-yozgi Olimpiada oyinlarida erkin kurashchimiz <b>A.Taymazov</b> uch karra Olimpiya championi unvoniga sazovor bo'ldi.   |
| 2012-yil 28-sentabr        | " <b>Bunyodkor</b> " sport majmuasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.  |

|                      |   |
|----------------------|---|
| 2016-yil iyul-avgust | <b>Rio-De-Janeyro</b> shahrida bo'lib o'tgan yozgi olimpiya o'yinlarida o'zbekistonlik sportchilar 4 ta oltin, 2 ta kumush va 7 ta bronza madalini qo'lga kiritib umumjamoa hisobida jahonda 21, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari orasida 3 va Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 1-o'rinni egallahsga muvaffaq bo'lishdi. |
| 2017-yil 3-iyun      | "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-3031) qabul qilindi.  |
| 2017-yil 17-sentabr  | Turkmanistonda bo'lib o'tgan Osiyo olimpiya kengashi Bosh assambleyasi yig'ilishida kurash milliy sport turini Osiyo o'yinlari dasturiga kiritish haqida qaror qabul qilindi.   |
| 2018-yil 3-yanvar    | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi <b>Milliy antidoping agentligi</b> tashkil etildi.   |
| 2018-yil yanvar      | Xitoyda bo'lib o'tgan futbol bo'yicha 23 yoshgacha bo'lgan yoshlari o'rtasida Osiyo championatida O'zbekiston yoshlari terma jamoasi g'olib bo'ldi.   |
| 2018-yil 5-mart      | <b>Jismoniy tarbiya va sport vazirligini</b> tashkil etildi (PQ-3583).  |
| 2018-yil             | <b>Jakarta</b> shahri (Indoneziya)da XVIII-Osiyo o'yinlari bo'lib o'tdi. Unda qit'amiz sportchilari o'zbek milliy kurashi bo'yicha ham o'zaro bellashdilar.   |
| 2019-yil 16-mart     | Toshkentda ko'p tarmoqli " <b>XUMO ARENA</b> " sport kompleksi ochildi.   |
| 2019-yil 23-28-aprel | Toshkent shahrida "Asian Cycling Championships" musoboqlari o'tkazildi.   |
| 2019-yil 7-may       | Samarqand shahrida Rossiya davlat <b>jismoniy tarbiya, sport, yoshlari va turizm universiteti</b> Samarqand filiali tashkil etildi.   |
| 2021-yil 6-aprel     | Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi negizida " <b>Turizm va sport vazirligi</b> " tashkil etildi.  |
| 2021-yil 24-31-may   | Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida bo'lib o'tgan boks bo'yicha Osiyo championatida O'zbekiston terma jamoasi a'zolari umumjamoa hisobida 1-o'rinni egallahdi.   |
| 2021-yil iyul-avgust | <b>Tokio</b> shahrida bo'lib o'tgan yozgi olimpiya o'yinlarida o'zbekistonlik sportchilar 3 ta oltin va 2 ta bronza madalini qo'lga kiritib umumjamoa hisobida jahonda 32, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari orasida 3 va Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 1-o'rinni egallahsga muvaffaq bo'lishdi.                       |

## **9-MAVZU: KADRLAR TAYYORLASH VA TA'LIM SOHASINI ISLOH QILISH**

**Reja:**

- 1. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati.**
- 2. O'zbekistonda ta'lif va kadrlar tayyorlash tizimining takomillashuvi.**
- 3. Ilm-fan va ilmiy texnika sohasining rivojlanishi.**
- 4. Ta'lif sohasida xalqaro hamkorlikning yo'lgaga qo'yilishi: yutuqlar va muammolar.**

**Tayanch tushunchalar:** Yoshlar siyosati, "El-yurt umidi" jamg'armasi, "Kamolot", Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lif to'g'risidagi qonun, Ta'lif islohotlari, Korrupsiyasiz ta'lif, "Temurbeklar maktabi", Prezident maktablari, Kredit-modul tizimi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, Yoshlar ishlari Agentligi.

### **1. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati.**

Har qanday mamlakatning asosiy boyligi uning menaral xom ashyo resurslari emas, balki uning xalqi hisoblanadi. 35 mln aholisi bo'lgan O'zbekiston esa bu jihatdan katta istiqbolga ega mamlakatlardan biridir. Hozirgi kunda O'zbekiston aholisining ijtimoiy-demografik holatiga nazar tashlansa, unda yoshlar asosiy ijtimoiy-siyosiy kuch ekanligini ko'rish mumkin. Chunki mamlakatda yoshlarning aholi tarkibidagi salmog'i 60 foizni tashkil qiladi. Har yili 500 mingdan ziyod butunlay yangicha shart-sharoit va muhitda kamol topgan yosh avlod vakillari katta hayotga yo'llanma olayotganining o'zi O'zbekiston yoshlar davlati ekanligini ko'rsatib turibdi.

Yoshlarning bilim olishi, ta'lif-tarbiyasi, kasbiy tayyorgarligi masalalari O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab shaxsni har tomonlama kamolga yetkazish va rivojlantirish masalasiga alohida g'amxo'rlik ko'rsatilib, yoshlarga oid qonun, qaror va davlat dasturlari qabul qilindi hamda izchillik bilan hayotga tatbiq etildi. Bu siyosatning mazmun-mohiyati, asosiy yo'nalishlari, yoshlarga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy kafolatlar O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 20-noyabrda qabul qilingan "**O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida**"gi Qonunda belgilab qo'yildi. Ushbu huquqiy hujjat bosh islohotchi bo'lgan davlatning yoshlar masalasiga doir asosiy strategik yo'nalishlarini izchil va tizimli ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirishga imkoniyat yaratib berdi.

Ushbu Qonunga ko'ra, yoshlar masalasi O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning bilim olishi, ta'lif-tarbiyasi, kasbiy tayyorgarligi, ijtimoiy-siyosiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidorining to'liq ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ulami kafolatlashdan iborat.

Mamlakat yoshlarini birlashtirish uchun 1991-yilda “Yoshlar ittifoqi” tashkilot tuzilgan edi. 1996-yil aprel oyida I.A.Karimov farmoni bilan “Kamolot” jamg’armasi tuzilib, 2001-yilda jamg’arma Yoshlar ijtimoiy harakatiga aylantirildi.

2016-yildan mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalgaga oshirishda tub burilish davri boshlandi. 2016-yil 14-sentabrdan iborat “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Qonunda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari, asosiy yo‘nalishlari belgilah berildi.

2017-yil 30-iyunda O‘zbekiston Prezidenti SH.Mirziyoyev “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining 4 quriltoyida ishtirok etdi. Prezidentimiz o‘z ma’ruzasiда harakatning 16 yillik faoliyatini tahlil qilib, o‘tgan davrdagi faoliyatiga tanqidiy baho berdi va uni yangi mazmundagi tashkilotga – **O‘zbekiston yoshlar ittifoqisi** aylantirishni taklif qildi. Ma’ruzada shuningdek, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutini tashkil etish, “Eng kitobxon maktab”, “Eng kitobxon mahalla”, “Eng kitobxon oila” kabi yo‘nalishlarda tanlovlari o’tkazish, “Yoshlar nashriyot uyi”ni tashkil etish, yoshlarga harbiy ta’lim-tarbiya beradigan kursantlar maktabiga “Temurbeklar maktabi” deb nom berish, turli soha va tarmoqlarda katta natijalarga erishib kelayotgan yigitlar uchun “Mard o‘g‘lonlar” nomli Davlat mukofotini ta’sis etish, jamoat ishlarida faol yigit-qizlarimizni taqdirlash maqsadida “Kelajak bunyodkor” medalini ta’sis etish va har yilning 30-iyun sanasini “Yoshlar kuni” deb e’lon qilish taklif etildi.

Yoshlarning turli sohalardagi manfaatlarini himoya qilish maqsadida Yosh olimlar kengashi, Yosh ijodkorlar kengashi, Yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish markazi, Imkoniyati cheklangan bolalar va yoshlar markazi kabi o‘ttizdan ortiq nodavlat, notijorat tashkilotlari tashkil etildi.

2018-yil 27-iyunda “Yoshlar-kelajagimiz” Davlat dasturi qabul qilindi. 2018-2021-yillar davomida ushbu davlat Dasturi doirasida yoshlarning 8 ming 705 ta biznes loyahalariga jami 1 trillion 858 millard so‘m imtiyozli kredit ajratish orqali 42 ming 421 dan ortiq yangi ish o‘rinni yaratildi.

Qilmishidan chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan 985 nafar yoshlar “Yoshlar ittifoqi kafilligi” asosida sud zalidan qamoq bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo turini qo‘llash orqali ozodlikka chiqarildi.

O‘tgan davrda yoshlarning fermerlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 456 ming 350 nafar yoshlarga 166 ming 96 hektar yer maydonlari ajratildi.

2019-yil 19-martda O‘zbekiston Prezidenti SH.Mirziyoyev tomonidan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta tashhabbus ilgari surildi.

Yoshlar bilan ishslash masalasi, ularni tadbirkorlikka keng jalb etish, ularning bandligini ta‘minlash maqsadida “Yoshlar – kelajagimiz” jamg’armasi faoliyati yanada kengaytirildi.

2020-yil 30-iyunda Vazirlar Mahkamasi huzurida Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Agentlikning asosiy vazifalaridan biri – yoshlar bilan bog‘liq soha va

yo'nalishlarda yagona davlat siyosatini, strategik yo'nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish etib belgilandi.

2020-yil 25-26-dekabr kunlari tariximizda birinchi marta Toshkentdagi "Humo arena" majmuasida Respublika yoshlarining forumi bo'lib o'tdi. Shavkat Mirziyoyev forum doirasida yoshlar bilan uchrashib, muloqot qildi. Uchrashuvda yoshlarni qiynatotgan muammolar yechimiga oid rejalar bayon qilindi, vazifalar belgilandi.

2021-yilning 13-aprel sanasida SH.Mirziyoyev raisligida yoshlar bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Yig'ilishda 2021-yil 1-maydan boshlab yoshlami ishga qabul qilgan korxona va kompaniyalarga ushbu xodimlar uchun to'langan ijtimoiy soliq qaytarib berish amaliyoti joriy etiladigan bo'ldi. Shuningdek, 1-iyundan boshlab, "yoshlar daftari"ga kirgan talabalar korxona va kompaniyalarda amaliyot o'taganda, ularga 500 ming so'mgacha subsidiya ajratiladi. Birinchi marta ishga kirgan kasb-hunar markazi bitiruvchilar 6 oygacha daromad solig'i to'lashdan ozod etiladi.

Yig'ilishda talabalarning yashash sharoitlari masalasiga alohida to'xtalib o'tildi. Bugungi kunda 130 mingdan ziyod talaba ijarada yashamoqda. Bu masala bo'yicha hukumat tomonidan alohida dastur tayyorlanmoqda. Unga ko'ra, bunday yoshlarga 2021-yil 1-maydan boshlab ijara to'lovingning yarmi davlat tomonidan qoplab beriladi. Dastlabki bosqichda ushbu tizim orqali 60 ming nafar yoshlar qamrab olinadi. Shu bilan birga, ehtiyojmand talabalarga ushbu xarajatlar hokimliklar va oliyohollar mablag'i hisobidan ham qoplab beriladigan bo'ldi.

## 2. O'zbekistonda ta'limga kadrlar tayyorlash tizimining takomillashuvi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ta'limga sohasini isloh qilish mamlakat oddida turgan muhim yo'nalishlardan biri sifatida qabul qilindi. Ta'limga islohotlarning asosiy yo'nalishlari uning demokratik, insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish, xalqimizning tarixiy an'analari va pedagogikasi, shuningdek, jahon xalqlari pedagogikasining ilg'or yutuqlari asosida ta'limga mazmunini tubdan o'zgartirish, shu maqsadda o'qituvchilar, pedagogik jamoalarning tashabbuskorligiga keng imkoniyatlar o'chib berish va ularni har tomonlama rag'batlantirish, bilim va ko'nikmalarining puxtaligini ta'minlaydigan zamonaviy didaktik vositalar qo'llashni keng ko'lamda yo'lga qo'yish, shu asosda ta'limga mazmunini yaxshilashga erishishdan iborat bo'ldi.

Ta'limga isloh qilish Konsepsiysi 1997-yil 29-avgustda yangi taxrirda qabul qilingan "Ta'limga to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'z aksini topdi.

Mazkur qonun va Dastur asosida 1998-1999-yildan boshlab ta'limga kadrlar tayyorlash tizimida qator islohotlar boshlandi. 12-yillik ta'limga o'tish maqsadida respublikamizda 1500 dan ortiq akademik lesey va kasb-xunar kollejlari tashkil etildi. Ammo, sohaga juda katta mablag'lar sarflangan bo'lishiga qaramasdan mazkur 12 yillik ta'limga biz kutgan samaralami bermadi. Ta'limga moddiy-texnik bazasiga asosiy e'tibor berilib, ta'limga mazmuni va sifati e'tibordan chetda qolib ketdi. Yoshlarda bilim va ilmga bo'lgan intilish yildan yilga so'nib bordi. Bu esa islohotlar o'tkazish zarurligini kun tartibiga qo'ya boshladi.

Ta'lim sifatini zamon talablari darajasiga olib chiqish maqsadida 2020-yil 23-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni qabul qilindi. 11 ta bob va 75 ta moddadan iborat ushbu yangi qonunda umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim turidan keyin professional ta'lim turi kintildi.

Ta'lim olish shakllari sifatida ishlab chiqarishdan ajralgan xolda ta'lim olish (kunduzgi), ishlab chiqarishdan ajralmagan xolda ta'lim olish (sintqi, kechki, masofaviy), dual ta'lim, oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish, katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish, inkyuziv ta'lim, eksternat tartibidagi ta'lim, mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasda kadrlar tayyorlash kabi shakllariga ajratildi.

Ta'lim tashkilotlariga xorijiy muassasalar bilan qo'shma fakultet va o'quv markazlari tashkil qilishga ruxsat etildi. Shuningdek, o'qituvchilarga mualliflik dasturi va o'qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o'qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqi berildi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganidek, "biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik".

So'nggi yillarda mamlakatimizda **maktabgacha ta'lim** sohasiga katta e'tibor qaratila boshlandi. 2017-yil 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Qarori (PQ-3261) qabul qilinib, sentabr oyida **Maktabgacha ta'lim vazirligi** tashkil etildi. 2019-yil 8-mayda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlandi.

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish borasida boshlagan islohotlarimiz natijasida 2019-yili 5 ming 722 ta davlat, xususiy, oilaviy bolalar bog'chalari tashkil etildi. Shuning hisobidan farzandlarimizni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2016-2021-yillarda 27,7 foizdan 60 foizga yetkazildi. Bog'chalar soni esa 3 marta ko'payib, 14 mingdan oshdi (Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi muxbir savollariga bergen javobi. 2021-yil 17-avgust soni).

2017-yildan umumiy o'rta (xalq) ta'limi tizimida ham qator tub o'zgarishlar, islohotlar davri boshlandi. 2016-yilga qadar respublikamizda jami 72 ta yangi maktab qurilgan bo'lsa, 2017-2020-yillarda 134 ta yangi maktablar qurilib ishga tushirildi. Xususiy maktablar soni 170 tadan oshdi. Bugungi kunda mamlakatimizda 3174 ta maktab mavjud bo'lsa, shulardan 1638 tasi capital ta'mirlandi.

Ko'plab ota-onalar, o'qituvchilar hamda keng jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar asosida 2017-yil sentabrdan 11 yillik ta'lim qayta tiklandi. 2019-yildan boshlab mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi 4 ta Prezident maktabi, 9 ta ijod maktabi va 3 ta ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyati yo'ilga qo'yildi. Bugungi kunda ushbu maktablarda 3248 nafar o'g'il-qiz tahsil olmoqda.

2019-yil 29-aprelida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi qabul qilindi. O'qituvchilar ishini yengillashtirish va ularning salohiyatidan oqilonaga foydalanish uchun ta'limni raqamlashtirish,

“Onlayn maktab”, “Raqamli va xavfsiz maktab”, “Elektron darslik”, “Elektron kundalik” kabi tizimlar joriy etildi.

Ma'lumki, rivojlangan davlatlarning bugungi taraqqiyoti va zamonaviy iqtisodiyotini belgilab bergan bosh omillardan biri bu oly ta'lim hisoblanadi. Mamlakatimizda 1991-2016-yillarda Oly ta'lim tizimida qator islohotlar o'tkazildi. Respublikamizda oly o'quv yurtlari soni 37 tadan 77 taga yetkazildi.

Ammo, boshqa mamlakatlар bilan qiyoslanganda tizimda muammolar yetarli ekanligi yaqqol ko'rinish turardi. Masalan, maktab bitiruvchilarni OTM bilan qamrab olish Rossiyada 74 %, Janubiy Koreyada 96 % bo'lgani holda O'zbekistonda bu ko'rsatkich 2016-yil xolatiga ko'ra 7-9 % ni tashkil etardi.

So'nggi yillarda oly ta'lim tizimida ham katta o'zgarishlar boshlandi. 2016-2021-yillarda mamlakatimizda oly ta'lim muassasalarining soni 141 taga yetdi. Jumladan, davlat oly ta'lim muassasalari 96 ta, nodavlat oly ta'lim muassasalari 10 ta, xorijiy OTMlar va filiallari 33 tani tashkil etmoqda.

2021-yilga kelib bitiruvchilarni oly ta'lim bilan qamrab olish 28 % ga yetkazildi. Keyingi besh yilda OTMga qabul kvotasi 3 barobar oshirilib, 2021-yilda 182 ming nafar yoshlar uchun talaba bo'lish imkoniyati yaratildi. Davlat grantlari 21 mingtadan 47 mingtaga ko'paytirildi (Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston” gazetasi muxbir savollariga bergan javobi. 2021-yil 17-avgust soni).

4 yil ichida 71 ta OTMdagi sirtqi ta'lim, 18 tasida kechki ta'lim, shuningdek 134 ta bakalavriat ta'lim yo'naliishlari, 147 ta magistratura mutaxasisliklari joriy qilindi.

2019-yil 8-oktabrda O'zbekiston Respublikasida **Oly ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlanirish Konsepsiysi** qabul qilindi. Konsepsiya 2030-yilga qadar bitiruvchilarni oly ta'lim bilan qamrab olish darajasini 50 % dan oshirish; O'zMU va SamDUni mamlakatimiz oly ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantirish; respublikadagi kamida 10 ta OTMni xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining bininchi 1000 ta o'rindagi OTMlari ro'yxatiga, shu jumladan, O'zMU va SamDUni bininchi 500 ta o'rindagi oly ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish; OTMlarda o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish; o'quv dasturlarida nazary bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish; OTMlarning akademik mustaqilligini ta'minlash; OTMlarda texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish kabi muhim chora-tadbirlar belgilandi.

2021-yil 23-iyun kuni SH.Mirziyoyev mamlakatimizda navbatdagi oly o'quv yurti – **Yangi O'zbekiston universitetida** ta'lim jarayonini tashkil etishga oid taqdimot bilan tanishdi va Yangi O'zbekiston universitetini tashkil etishga oid qaromi imzoladi. Ta'limning zamonaviy shakllarini o'zida mujassamlashtiradigan ushbu universitet 2021-2022-o'quv yilidan o'z faoliyatini boshladi.

### 3. Ilm-fan va ilmiy texnika sohasining rivojlanishi.

Mamlakat va millat kelajagi ko'p jihatdan ilm-fan hamda jamiyatning intellektual salohiyatiga bog'liq. Eng zamonaviy ilmlami egallamasdan, mamlakat milliy manfaatlariga xizmat qiluvchi fan sohalarini rivojlanirmsandan, fundamental, nazary tadqiqotlar olib bormasdan jamiyatni taraqqiyit ettirish mumkin emas.

1992-yil yanvarda O'zbekistonda fan-texnika taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida Respublika Kengashi tashkil etildi. 1992-yil 18-fevralda O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika Davlat qo'mitasi tuzildi. Shuningdek, 1992-yil 31-martda Oliy Attestatsiya Komissiyasi (OAK) tashkil etildi.

Mamlakatimizda 2016-2017-yildan boshlab Prezidentimiz SH.Mirziyoyev tashabbusi bilan ilm fan va texnologiyalarni rivojlantirish borasida tub o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Sifat jihatidan yangicha mazmundagi qonun, qaror va farmon-farmoyishlar qabul qilindi. Xususan, 2017-yil 17-fevralda "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Qarori (PQ-2789) qabul qilindi. Shu yili 13-iyunda Toshkent shahrining Yashnobod tumanida innovatsiya texnoparki tashkil qilish to'g'risida maxsus Farmon (PF-5068) qabul qilindi va O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi. 29-dekabr sanasida "O'zbekiston Respublikasi Faning haqiqiy a'zolarini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident Farmoniga ko'ra 22 yillik tanafusdan so'ng 32 nafar yangi akademik saylandi.

Bugungi kun talabidan kelib chiqib 2018-yilning o'zida O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Ilg'or texnologiyalar markazi tashkil qilindi.

Ma'lumki, sayyoramizda mavjud yoqilg'i energetika resurslari cheklangan bo'lib, 30-40 yillik zahiralarga ega xolos. Zamonaviy iqtisodiyot va ilm-fan muqobil energiyalarni yaratishni taqozo etmoqda. Ana shu maqsadda mamlakatimizda ham amaliy ishlar boshlandi. 2019-yil 7-fevralda 2019-2029-yillarda O'zbekiston Respublikada atom energetikasini rivojlantirish Konsepsiysi tasdiqlandi.

Prezidentimiz SH.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlab o'tganlaridek, "O'zbekistoni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz.

Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik.

Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi.

Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!".

Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak".

Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi,

**zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida yurtimizda 2020-yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili", deb nom berildi.**

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda kuchli ilmiy-texnik va innovatsiya jarayonlari yuz berdi. Ilmiy-texnika va innovatsiya siyosati tufayli respublikada ilmiy salohiyat oshdi. Ilmiy salohiyat fundamental ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish shart-sharoitlari va resurslarining mujassami sifatida respublika ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy ravnagiga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatdi.

#### **4. Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi: yutuqlar va muammolar.**

O'tish davri muammolarini hal qilish uchun, eng avvalo, O'zbekiston xorijiy davlatlar bilan ilmiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikni yo'lga qo'yishi lozim edi. Shu maqsadda O'zbekiston rahbarining tashabbusi bilan 1992-yil 3-martda O'rta Osiyo, Qozog'iston va Ozarbayjon Fanlar akademiyasi Prezidentlarining uchrashuvi bo'ldi. Unda mazkur davlatlar Fanlar akademiyalarini Prezidentlari ilmiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risidagi shartnomaga imzo chekdirler.

1991-yilning oxirlarida AQSH, Kanada, Fransiya, Polsha va Portugaliyadan O'zR Fanlar akademiyasiga hamkorlik shartnomalarini imzolash bo'yicha takliflar keldi. 1992-yilda O'zR Fanlar akademiyasi 25 davlat bilan ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha hamkorlik qildi. AQSH, Kanada, Belgiya, Janubiy Koreya, Italiya, Germaniya bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'matildi. 1992-yil may oyida respublika Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti va Kanadaning "Triumf" yadro markazi o'rtasida ilmiy-texnikaviy hamkorlik shartnomasi imzolandi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi xorijilik sheriklar bilan fundamental tadqiqotlar asosida hamkorlikda qo'shma korxonalar va laboratoriylar qurishga ham e'tibor qaratdi.

2012-yil Toshkent shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiya ko'plab yirik xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari, jumladan, BMT, Osiyo Taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom Taraqqiyot banki vakillari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Xitoy, AQSH, Janubiy Koreya, Yaponiya, Rossiya kabi dunyoning 48 davlatidan ta'lim tizimi rahbarlari, 8 ta xalqaro tashkilot va ta'lim jamg'armalaridan 270 nafar vakil, olimlar hamda mutaxassislar ishtirok etib, uzlusiz ta'lim sohasini rivojlantirish va yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashning milliy modelini yaratishda O'zbekiston tajribasini o'rgandilar. Ular yurtimizda faol, intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma'naviy fazilatlarga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqr egallagan, bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lgan yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilganiga guvoh bo'ldilar.

2002-yildan boshlab mammakatimizda nufuzli xorijiy universitetlar bilan yaqin hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yila boshlandi. Jumladan, Toshkent shahrida G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining filiali (2002), Xalqaro Vestminster universiteti (2002), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti filiali (2006), I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti filiali (2007), Singapur Menejmentni rivojlantirish instituti (2007), Turin Politexnika universiteti (2009) tashkil etildi.

Ilm-fan va oliv ta'lim sohasidagi hamkorlik ayniqsa keyingi 4 yil davomida yanada jadallahdi. Toshkent shahrida Rossiya "MMFI" Milliy tadqiqot yadro universiteti filiali (2018), Hindistonning Amiti universiteti (2019), AQSH Webster universitetining ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazi (2019), "MEF" milliy tadqiqot universiteti" Federal davlat byudjeti oliv ta'lim muassasasining filiali (2019), D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-teknologiya universiteti Federal davlat byudjeti oliv ta'lim muassasasining filiali (2019), Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazirligining Moskva davlat xalqaro munosabatlari instituti Federal davlat avtonom oliv ta'lim muassasasining filiali (2019), "Toshkent Xalqaro ta'lim universiteti" (2020), Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti (2019), Turkiya Iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti filiali (2020), Britaniya menejment universiteti (2020), TEAM Xususiy tadbirkorlik universiteti (2020), "Sankt-Peterburg davlat universiteti" Federal davlat byudjeti oliv ta'lim muassasasi filiali (2021), A.I.Gertsen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Federal davlat byudjeti oliv ta'lim muassasasi filiali (2020), Yaponiya raqamli universiteti (2020), Janubiy Koreyaning Inha (2014), Puchon (2018), Adju (2018) va Yodju universitetlari (2019) tashkil etildi. Bundan tashqari Toshkent viloyatida Rossiyaning Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti "MISiS" ning Olmaliq shahri filiali (2018), Qibray turmanida Astraxan davlat universiteti filiali (2019), Andijon shahrida Sharda universiteti (Hindiston) (2019), Farg'onan shahrida Latvianing Axborot tizimlari menejmenti Oly maktabi filiali (2018) va Korea xalqaro universiteti (2019), Samarqand shahrida "Rossiya davlat jismoniy tarbiya, sport, yoshlar va turizm universiteti federal davlat byudjeti oliv ta'lim muassasasi filiali (2019), Urganch shahrida Malayziyaning xalqaro "Binary" universiteti filialilari (2020) tashkil etildi.

2021-yilga kelib respublikamizda 30 dan ortiq xorijiy oliv ta'lim muassasalarini faoliyat ko'rsata boshladi.

Ushbu davlat, nodavlat-xususiy oliv o'quv yurtlarida ta'lim, mashinasozlik, neft-gaz ishi, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va biznes boshqaruvi, moliyaviy menejment, tijorat huquqi kabi mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassislar tayyorlanmoqda va ularning bitiruvchilarini butun dunyoda tan olinadigan diplomilarga ega bo'lmoqda.

Mamlakatimizning yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoji asosida yangi zamonaviy yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlash ishlari boshlangani ham e'tiborga sazovor. Yurtimiz va xorijdagi o'quv yurtlarida yuzlab iqtidorli yoshlar ta'lim olmoqda va o'z malakasini oshirmoqda. Bunda xorijiy ta'lim muassasalarini bilan ikki tomonlama talaba va tajriba almashish yo'lga qo'yilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda nufuzli xalqaro tashkilotlar, chet ellik taniqli ekspert va mutaxassislar, tahvilchi va kuzatuvchilar ishtirokida ta'lim sifatini oshirishga doir ko'plab simpoziumlar, konferensiya va seminarlar o'tkazilmoqda. 2018-yil 25-sentabrda Vazirlar Mahkamasi huzurida Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi tashkil etildi.

2020-yildan matematika, kimyo-biologiya, geologiya kabi yo'nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlar faollashtirilib, olimlarga barcha shart-sharoitlar yaratib berila boshlandi. Shuningdek, ilm-fan sohasida fundamental va innovatsion tadqiqotlar uchun maqsadli grant mablag'larini ajratish mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqish boshlandi.

Prezident SH.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yavardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ilm-fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlamalar bazasini shakllantirish lozimligi, har bir oliy ta'lif va ilmiytadqiqot dargohi nufuzli chet el universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi shartligi qayd qilib o'tildi. Shuningdek 2020-yilda "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan 700 dan ziyod olimlar, professor-o'qituvchilar chet elga ilmiy izlanish va malaka oshirish uchun yuborilish, kelgusida grantlar miqdorini 2 barobar ko'paytirish va tadqiqot yo'nalishlari ko'lamini kengaytirish lozimligi belgilandi.

Soha uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda "1 million dasturchi" loyihasini amalga oshirish boshlandi.

#### **Mavzuning asosiy tushunchalari:**

**BILIM OLISH HUQUQI** – fuqarolarning ijtimoiy huquqi. Davlat tomonidan ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lif davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir" deb qayd etilgan. Shunga asosan 1997-yil 29-avgustda "Ta'lif to'g'risida"gi qonun va qonunni hayotga tadbiq etish uchun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ham ishlab chiqilgan.

**"EL-YURT UMIDI" JAMG'ARMASI** – xorijda yashayotgan va professional faoliyatini yuritayotgan vatandoshlarimiz, ayniqsa, katta ilmiy salohiyatga ega olimlar, mutaxassislar va iste'dodli yoshlar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek, O'zbekistonning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun zarur, jahon mehnat bozorida raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarni yetakchi xorijiy ta'lif muassasalarida hamda O'zbekistonda tayyorlash va malakasini oshirish orqali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida 2018-yil 25-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-5545-son) bilan tashkil qilingan jamg'arma. Jamg'arma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadi.

**GRANT** (ing. Grant – sovg'a, hayriya) – 1) ilmiy, madaniy va boshqa muassasa hamda tashkilotga pul mablag'ini bir yo'la ajratish yoki uskuna, xona in'om etish; 2) ta'lif muassasalari, ijodiy jamoalar, yakka olim, sport guruhlari va boshqalarga davlat va mahalliy mablag'lardan ma'muriy idoralar tomonidan beriladigan beg'araz mablag', subsidiya; 3) davlatga yoki mahalliy idoraga qarashli mablag'dan o'quvchilar va talabalarga to'lanadigan stipendiya.

**KREDIT-MODUL TIZIMI** – modulli o'qitish texnologiyalari va ECTS sinov kreditlari birligida amalga oshiriladigan o'quv jarayonini tashkil etish modeli.

**ECTS** (European Credit Transfer System) Yevropaning 45 davlati tomonidan ishlab chiqilgan, tekshirilgan va takomillashtirilgan kreditlarni taqsimlashning

Yevropacha tizimi. Modul – bu alohida individual o'quv fani. O'zida bilimga egalik qilish va kasbiy jihatlarini qamrab olgan bo'lib, ta'lim oluvchilarning o'quv dasturini o'zlashtirish natijasida shakllangan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanishi nazarda tutadi.

Kredit-modul o'qitish tizimi esa, har bir o'quv modulli tarkibini tuzishga asoslangan modulning o'quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orgali ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi o'quv dasturini o'zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" ga ko'ra, mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. 2020-21 o'quv yilining o'zida mamlakatimizdagi 33 dan ortiq yirik OTMlar kredit-modul tizimiga o'tdi.

Shuni qayd etish o'rinniki, kredit-modul tizimiga o'tish – davr talabi. Bu tizimda o'qituvchilarini talabalar tanlaydi. Tanlov fanlari soni ko'paytiriladi, ya'ni talaba o'z yo'nalishi bo'yicha tanlab o'rganishi mumkin bo'lgan fanlar soni ko'p bo'ladi. Ammo kredit-modul tizimida kerakli ballni yig'a olmagan talabalar OTMlarda uzoq yillar o'qishiga to'g'ri keladi.

**KWORKING MARKAZLARI** (ing. Coworking – hamkorlik) – har xil soha va kasblarda band bo'lgan kishilar mehnatni tashkil etish usuli. Innovatsion g'oya va takliflar ilgari surilib, amaliyotga joriy etishga mo'ljallangan jamoaviy ofis.

"Yoshlar kelajagimiz" davlat dasturi doirasida 2018-yildan O'zbekistonda tashkil etila boshlangan "Yosh tadbirkorlar" kovorking markazlari yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihibalarini amalga oshirishga ko'mak berish, biznes rejalar ishlab chiqish, maslahat, yuridik, buxgalteriya va boshqa xizmat turlarini ko'rsatish, forumlar, master-klasslar va seminarlar tashkil etish kabi vazifalarni amalgala oshiradi.

**PRESIDENT MAKTABLARI** – iqtidorli bolalarni aniqlash, tanlash va o'qitish, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek o'quvchilarining intellektual, ilmiy va ijodiy salohiyatini ochib berish, tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'rganish, xorijiy tillar, muhandislik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishni tashkil qilish, o'quvchilarining innovatsion g'oyalari va ishlamalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida tashkil etilgan zamонави мактаблар тизими.;

Prezident maktablari yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 20-fevraldagagi "Prezident maktablarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4199-son Qaroriga asosan dastlab 2019-2020 o'quv yilida Toshkent, Namangan, Nukus va Xiva shaharlarda tashkil etildi. Prezident maktablarini cheklangan miqdorda tashkil etilishi mazkur muassasalarini boshqarishning butunlay yangi modelini sinovdan o'tkazish bilan bog'liq. Ushbu sinov muvaffaqiyatlari o'tgandan so'ng keyingi yillarda Prezident maktablari respublikamizning boshqa barcha viloyatlarida tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

**TA'LIM TO'G'RISIDAGI QONUN** – ta'lism sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni nazarda tutuvchi huquqiy-meyoriy xujjat. Ta'lism oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lism va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ishlarni tizimli tashkil etish yo'riqnomasi.

11 ta bob va 75 moddadan iborat O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi yangi qonuni 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan. Unda ta'lism sohasining asosiy tamoyillari, ta'lism tizimi, turlari va shakkllari, ta'lism tizimini boshqarish, ta'lism tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi, ta'lism jarayoni ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari belgilab berilgan.

**"TEMURBEKLAR MAKTABI"** – bugungi va kelajak avlodlarga harbiy, ma'naviy merosini yetkazish, ajododlarimiz amalga oshirgan buyuk ishlarni to'g'risidagi bilimlarimizni chuqurlashtirish va rivojlantirish, zamona naviy ilmiy tafakkurni yanada jondlantirish va olingan bilimlarni kelajak avlodlarga yetkazish, o'quvchi-yoshlarimizga buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizni ibrat qilib ko'rsatish, u kishining harbiy sarkardalik mahorati, o'z ona Vatani ozodligi va ravnaqi yo'lidagi olamshumul ishlarni, davlatchilik kuch-qudratini o'rnatish, ulardek mard, qat'iyatli, bir so'zli, adolatparvar, teran fikrli avlodni tarbiyalash maqsadida tashkil etilgan harbiy bilim yurtlari.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 30-iyun kuni bo'lib o'tgan yoshlar Qurultoyida Respublikamizdagi barcha harbiy akademik litseylarini "Temurbeklar maktabi" deb nomlash tashabbusi ilgari surilgan edi. 2017-yil 5-iyuldagagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-sonli Prezident Farmoniga muvofiq, Respublikaning barcha harbiy akademik litseylariga "Temurbeklar maktabi" nomi berildi.

**"YOSHLAR — KELAJAGIMIZ" DASTURI** — Yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish va qo'llab-quvvatlash, band bo'lмагan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko'nikmalariga o'qitish, shuningdek, umuman yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish orqali ularning bandligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan davlat dasturi. 2018-yil 27-iyunda PF-5466-sonli Prezident Farmoni asosida qabul qilingan.

Dastur doirasida O'zbekiston yoshlar ittifoqi huzurida "Yoshlar — kelajagimiz" jamg'armasi hamda uning tuman va shahar filiallari tashkil etildi. Yoshlarning qayta tayyorlanishi va malaka oshirishini tashkil etish, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish, shuningdek, ularga biznes yuritish ko'nikmalarini singdirish chora-tadbirlari belgilandi.

#### Mavzuga oid muhim sanalar:

|                    |   |
|--------------------|---|
| 1991-yil 20-noyabr | "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. |
| 1992-yil 18-fevral | O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika Davlat qo'mitasi                                      |

|                    |  |
|--------------------|--|
|                    | tuzildi.   |
| 1992-yil 28-fevral | Prezident Farmoni bilan 8 ta viloyatdagi pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi.  |
| 1992-yil 31-mart   | O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi (OAK) tashkil etildi.   |
| 1992-yil 2-iyul    | Ilk bor O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun 1997 va 2020-yillarda yangi tahrirda qabul qilindi. |
| 1993-yil 5-noyabr  | O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 50-yillik yubileyi nishonlandi.  |
| 1996-yil 17-aprel  | O'zbekiston Respublikasi yoshlarining "Kamolot" jamg'armasi to'g'risidagi Prezident Farmoni asosida yangi yoshlar tashkiloti tuzildi.              |
| 1997-yil 7-yanvar  | Iqtidorli yoshlarning chet ellarda o'qishini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Umid" jamg'armasi tashkil etildi.                                       |
| 1997-yil 29-avgust | Yangi taxrixdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrler tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi.   |
| 1997-yil 11-noyabr | Prezident farmoni bilan tarixiy Xorazm fanlar akademiyasi - "Ma'mun akademiyasi" qayta tiklandi.   |
| 1997-yil 1-oktabr  | O'zbekistonda 1-oktabr "O'qituvchilar va murabbiylar kuni" deb e'lon qilindi va rasman bayram sifatida nishonlana boshlandi.                       |
| 1997-2001-yillar   | "Umid" jamg'armasi yo'llanmasi bilan 785 ta yigit-qiz xorijiy davlatlar oliv o'quv yurtlariga o'qishga yuborildi.                                  |
| 1997-2010-yillar   | O'zbekistonda 1536 dan ortiq akademik litsey va kasb-hunar kollejlari barpo etildi.  |
| 1999-yil 7-aprel   | Prezident Farmoniga binoan Toshkent Islom Universiteti tashkil etildi.   |
| 2000-yil           | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan, Toshkent Davlat universitetiga "O'zbekiston Milliy universiteti" maqomi berildi.         |
| 2001-yil 25-aprel  | O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining ta'sis qurultoyi bo'lib o'tdi.  |
| 2002-yil 16-yanvar | Toshkent shahrida Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestminster universiteti tashkil etildi.   |
| 2002-yil 5-sentabr | Toshkent shahrida G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining filiali tashkil etildi.   |
| 2004-yil 27-mart   | Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tashkil etildi.  |
| 2005-yil 29-iyul   | Birinchi va ikkinchi Toshkent tibbiyot institutlari negizida Toshkent tibbiyot akademiyasi tashkil etildi.   |
| 2006-yil 24-fevral | Toshkent shahrida Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining filiali tashkil etildi.  |
| 2007-yil 12-yanvar | Toshkent shahrida I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti filiali tashkil etildi.  |

|                          |   |
|--------------------------|---|
| 2007-yil 5-sentabr       | Toshkent shahrida <b>Singapur menejmentni rivojlantirish instituti</b> tashkil etildi. O'quv jarayoni 2008-yil sentabrdan boshlandi.  |
| 2009-yil 28-aprel        | Toshkent shahrida Italiya bilan hamkorlikda <b>Turin politekhnika universiteti</b> tashkil etildi.  |
| 2012-yil<br>16-17-fevral | Toshkentda "Yuksak bilmili va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzuida xalqaro konferensiya o'tkazildi. Unda qariyb 1000 nafar ishtirokchi, jumladan, dunyoning 48 davlati, 8 xalqaro tashkilot va ta'lif jamg'armalaridan 270 nafar vakil ishtirok etdi. |
| 2012-yil 20-mart         | "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi-axborot resurs markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori e'lon qilindi.  |
| 2012-yil 4-iyun          | <b>O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti</b> tashkil etildi.   |
| 2013-yil 30-may          | O'zbekiston milliy teleradiokampaniyasining "Yoshlar" teleradiokanalı huzuridagi " <b>Bolajon</b> " bolalar raqamli telekanali tashkil etildi.  |
| 2013-yil 22-noyabr       | Toshkent shahridagi Simpoziumlar saroyida Osiyo quyosh energiyasi forumining oltingchi yig'ilishi o'z ishini boshladi.  |
| 2014-yil                 | Toshkent shahrida Janubiy Koreya bilan hamkorlikda <b>Inha Universiteti</b> tashkil etildi.   |
| 2016-yil 13-may          | "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Prezident Farmoni e'lon qilindi.  |
| 2016-yil 14-sentabr      | Yangi tahrirdagi " <b>Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida</b> "gi Qonun qabul qilindi.  |
| 2016-yil 30-dekabr       | Prezident SH.Mirziyoyev mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi vakillari bilan uchrashti va "Ilm-fan yutuqlari Vatanimiz ravnaqiga xizmat qilsin" deb nomlangan ma'ruba qildi.  |
| 2017-yil 14-fevral       | <b>Imom Termiziylar xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi</b> tashkil etildi (PQ-2774).  |
| 2017-yil 16-fevral       | "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" Prezident Farmoni (PF-4958) e'lon qilindi. Farmonga asosan 2017-yilning 1-iyulidan boshlab Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lifning ikki pog'onali tizimi (Tayanch doktorantura ( <b>PhD</b> ) va Doktorantura ( <b>Doktor of Science</b> ) joriy qilindi.                 |
| 2017-yil 17-fevral       | "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori (PQ-2789) qabul qilindi.  |

|                   |   |
|-------------------|---|
| 2017-yil 14-mart  | "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-2829) qabul qilindi. Ko'plab ota-onalar, o'qituvchilar hamda keng jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar asosida 2017-yil sentabrdan yurtimizda 11 yillik ta'lim qayta tiklandi. 2020/21 o'quv yilidan boshlab mamlakatimizda 340 ta kasb-hunar maktabi, 147 ta kollej va 143 ta texnikum, jami 630 ta professional ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi. Mazkur ta'lim muassasalarida 9000 ga yaqan kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlanishi ko'zda tutilgan. |
| 2017-yil 20-aprel | "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori (PQ-2909) e'lon qilindi.   |
| 2017-yil 13-iyun  | "Toshkent shahrinin Yashnobod tumanida innovatsiya texnoparkini tashkil qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-5068) qabul qilindi.  |
| 2017-yil 15-iyun  | "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Navoiy bo'limi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-3059) qabul qilindi.   |
| 2017-yil 29-iyun  | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Termiz filiali (PQ-3101) tashkil etildi.  |
| 2017-yil 30-iyun  | O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi tashkil etildi (PQ-3105).  |
| 2017-yil 27-iyul  | "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori (PQ-3151) qabul qilindi.  |
| 2017-yil 27-iyul  | Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti tashkil etildi (PQ-3152).  |
| 2017-yil 30-iyun  | Toshkentda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining 4 quriltoyi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Prezidenti SH.Mirziyoyev harakatning 16-yillik faoliyatini tahlil etib, uni yangi mazmundagi tashkilot – O'zbekiston yoshlar ittifoqiga aylantirishni taklif qildi.   |
| 2017-yil 5-iyul   | "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-5106) e'lon qilindi.  |
| 2017-yil 9-avgust | "Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika yo'nalishida maxsus sirtqi bo'limlarni tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-3183) qabul qilindi. Unga ko'ra respublikamizdagi 15 ta oliy ta'lim muassasalarida maxsus sirtqi bo'limlar tashkil etildi.  |

|                     |  |
|---------------------|--|
| 2017-yil avgust     | Chet elda ta'lim olayotgan va mehnat qilayotgan yoshlarni birlashtirish, huquq manfaatlarni himoya qilish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida <b>O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiyasi</b> tashkil etildi.   |
| 2017-yil 9-sentabr  | "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-3261) qabul qilindi.  |
| 2017-yil 14-sentabr | Prezident Qarori bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim mакtab-internati va "Astronomiya va aeronavtika" bog'i (PQ-3275) va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar (PQ-3274) tashkil etildi. |
| 2017-yil 30-sentabr | <b>Maktabgacha ta'lim vazirligi</b> tashkil etildi (PQ-3305). 2017-yilda maktabgacha ta'lim muassasalarining umumiyl soni 5 mingta bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib ularning soni 14 mingtadan oshdi.  |
| 2017-yil 16-noyabr  | "Respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-3389) e'lon qilindi.   |
| 2017-yil 21-noyabr  | <b>"Mard o'g'lon"</b> davlat mukofoti ta'sis etildi (PQ-3402).   |
| 2017-yil 29-noyabr  | O'zbekiston Respublikasi <b>Innovatsion rivojlanish vazirligi</b> tashkil etildi (PF-5264).  |
| 2017-yil 29-dekabr  | "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zolarini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident Farmoniga ko'ra 22 yillik tanafusdan so'ng 32 nafar yangi akademik saylandi (2017-yil O'zFAda 95 nafar akademik bor edi).  |
| 2017-yil            | Yangi tashkil etilgan institut va filiallar hisobidan yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalari soni 81 taga, hududlardagi filiallar 15 taga, xorijiy universitetlar filiallari 7 taga yetdi.  |
| 2018-yil 19-fevral  | O'zbekiston Respublikasi <b>Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi</b> tashkil etildi (PQ-3549).   |
| 2018-yil 5-aprel    | "Respublika oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-3655) qabul qilindi. 2018-yilda pedagog xodimlarning ish haqi so'nggi 10 yilda birinchi marta 50 foizgacha ko'paytirildi.           |
| 2018-yil 16-aprel   | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari   |

|                     |   |
|---------------------|---|
|                     | to'g'risida"gi PF-5416-sonli Farmoniga muvofiq, Toshkent Islom universiteti va O'zbekiston Islom akademiyasi negizida <b>O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi</b> tashkil etildi.  |
| 2018-yil 11-may     | Rossiya Federal davlat avtonom oliv ta'lim muassasasi "Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti "MISiS"ning Olmalig shahridagi filiali tashkil etildi.  |
| 2018-yil 5-iyun     | "Oliv ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovi islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Qarori (PQ-3775) qabul qilindi.  |
| 2018-yil 26-30-iyun | Toshkent va Samarcand shaharlarida Markaziy Osiyo yoshlari forumi o'tkazildi.   |
| 2018-yil 2-iyul     | Toshkent shahrida Janubiy Koreyaning <b>Puchon universiteti</b> tashkil etildi.   |
| 2018-yil 20-iyul    | Toshkent shahrida Rossiya Federatsiyasi " <b>MMFI</b> " Milliy tadqiqot yadro universiteti filiali tashkil etildi.  |
| 2018-yil 27-iyun    | "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi qabul qilindi (PF-5466).<br>2019-yilda jamg'arma uchun 2 trillion so'mdan ziyod mablag' ajratilib, shu orqali 50 mingdan ortiq yangi ish o'mni yaratildi.  |
| 2018-yil 28-iyun    | Samarqand shahrida " <b>Ipak yo'lli</b> " xalqaro turizm universiteti tashkil etildi (PQ-3815).   |
| 2018-yil 2-iyul     | Toshkent shahrida Koreya Respublikasining <b>Puchon universiteti</b> tashkil etildi.  |
| 2018-yil 19-iyul    | "O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-5484) qabul qilindi.   |
| 2018-yil 10-sentabr | Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida Islom Hamkorlik tashkilotining Fan va texnologiyalar bo'yicha birinchi sammitida SH.Mirziyoyev ishtirok etdi va "Ilmiy-ma'rifiy hamkorlikni kuchaytirish – davr talabi" nomli ma'ruba qildi.   |
| 2018-yil 25-sentabr | "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarini xonijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha " <b>El-yurt umidi</b> " jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" Prezident Farmoni (PF-5545) qabul qilindi.  |
| 2018-yil 26-sentabr | Farg'ona shahrida <b>Latvianing Axborot tizimlari menejmenti Oliy maktabi</b> filiali tashkil etildi.   |
| 2018-yil 16-oktabr  | Termiz shahrida O'rta Osiyo yoshlarining <b>Xalqaro "Do'stlilik" forumi</b> bo'lib o'tdi. Tadbir nihoyasida Markaziy Osiyo davlatlari tarixida ilk bor Afg'oniston, Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston delegatsiyasi a'zolari tomonidan yoshlar o'rtasida 11 banddan iborat memorandum imzolandi. |

|                    |  |
|--------------------|--|
| 2018-yil 24-oktabr | Prezident SH.Mirziyoyev "Oliy ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrler sifatini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish masalalari"ga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Unda bitiruvchilarni OTM bilan qamrab olish Rossiya Federetsiyasida 74 %, Janubiy Koreyada 96 %, O'zbekistonda 7-9 % ekanligi aytildi. |
| 2018-yil 30-noyabr | Toshkent shahrida Janubiy Koreyaning <b>Adju universiteti</b> tashkil etildi.  |
| 2019-yil 7-yanvar  | Toshkent shahrida <b>Amiti (Hindiston) universiteti</b> tashkil etildi.  |
| 2019-yil 7-fevral  | <b>2019-2029-yillarda O'zbekiston Respublikada atom energetikasini rivojlantirish Konsepsiysi tasdiqlandi (PQ-4165).</b>   |
| 2019-yil 12-fevral | Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazirligining <b>Moskva davlat xalqaro munosabdar instituti</b> Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasining Toshkent filiali tashkil etildi.   |
| 2019-yil 20-fevral | "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-4199)ga asosan 2020-2021-o'quv yilidan mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi 4 ta Prezident maktabi, 3 ta ijod maktabi ish boshladi.   |
| 2019-yil 19-mart   | O'zbekiston Prezidenti SH.Mirziyoyev tomonidan yoshlar ma'nnaviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha <b>5 ta tashabbus ilgari</b> surildi.   |
| 2019-yil 10-aprel  | Andijonda Hindistonning <b>Sharda xususiy universitetini</b> tashkil etish to'g'risidagi Prezident Qarori e'lon qilindi. Universitet 2019-2021-o'quv yilidan o'z faoliyatini boshladi.   |
| 2019-yil 29-aprel  | O'zbekiston Respublikasi <b>Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi</b> qabul qilindi (PF-5712).  |
| 2019-yil 8-may     | O'zbekiston Respublikasida <b>Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi</b> tasdiqlandi (PQ-4312).  |
| 2019-yil 8-may     | Samarqand shahrida " <b>Rossiya davlat jismoniy tarbiya, sport, yoshlar va turizm universiteti</b> " federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasining filiali tashkil etildi.  |
| 2019-yil 14-may    | "Oliy ta'lim muassasalarida test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-4319) qabul qilindi.   |
| 2019-yil 4-iyun    | Toshkent shahrida <b>Moskva Energetika Instituti (MEI) Milliy tadqiqot universiteti</b> filiali tashkil etildi.  |
| 2019-yil 7-iyun    | Toshkent shahrida <b>D.I.Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti</b> filiali tashkil etildi.   |

|                     |   |
|---------------------|---|
| 2019-yil 1-iyul     | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida <b>Intellektual multk agentligi tashkil etildi</b> (PQ-4380).  |
| 2019-yil 19-iyul    | <b>Astraxan davlat universitetining Toshkent viloyatidagi filiali tashkil etildi.</b>   |
| 2019-yil 5-avgust   | Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsatsiyasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.  |
| 2019-yil 17-avgust  | Qo'qon davlat universiteti tashkil etildi.  |
| 2019-yil 23-avgust  | Prezident SH.Mirziyoyev raisligida xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglar malakasini va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Prezidentimiz "Maktab ta'limi rivojlantirish biz uchun umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur" mavzuida maxsus ma'ruza qildi. |
| 2019-yil 23-avgust  | Farg'ona shahrida <b>Koreya xalqaro universiteti</b> tashkil etildi.  |
| 2019-yil 30-avgust  | Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkentda Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning ochilish marosimida ishtirok etdi.   |
| 2019-yil 9-sentabr  | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida <b>Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tashkil etildi</b> (PF-5815).   |
| 2019-yil 10-sentabr | Toshkentda Prezident maktabi ochildi.   |
| 2019-yil 30-sentabr | "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Qarori (PQ-4467) qabul qilindi.  |
| 2019-yil 8-oktabr   | O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi qabul qilindi (PF-5847).   |
| 2019-yil 18-oktabr  | SH.Mirziyoyev Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida tashkil etilgan <b>Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazining</b> ochilish marosimida ishtirok etdi.   |
| 2019-yil 19-oktabr  | Andijon shahrida <b>Sharda universiteti</b> (Hindiston) tashkil etildi.   |
| 2019-yil 29-oktabr  | O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-576) qabul qilindi.   |
| 2019-yil 1-noyabr   | Toshkentda AQShning O'zbekistonidagi birinchi – <b>Webster universiteti</b> ochilish marosimi bo'lib o'tdi.   |
| 2019-yil 20-noyabr  | Toshkentda Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti tashkil etildi.   |
| 2019-yil 26-noyabr  | "Zamonaviy maktab"larni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-4537) qabul qilindi.   |
| 2019-yil 16-dekabr  | O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya   |

|                       |   |
|-----------------------|---|
|                       | to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-591) qabul qilindi  |
| 2019-yil 17-dekabr    | Toshkent shahrida Janubiy Koreyaning <b>Yodju texnika universiteti</b> tashkil etildi.  |
| 2019-yil 27-dekabr    | SH.M.Mirziyoyev Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yo‘nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashgan Muhammad Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan uchrashib nutq so‘zladi.   |
| 2019-yil              | Toshkent shahrida zamonaviy infratuzilmaga ega bo‘lgan “ <b>IT-park</b> ” barpo etildi. Bunday “IT-park”lar 2020-2021-yillarda Nukus, Buxoro, Namangan, Samarqand, Guliston va Urganch shaharlarda ham tashkil etildi.  |
| 2020-yil 27-fevral    | “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qarori (PQ-4623) e’lon qilindi. Unga ko‘ra 5 ta universitet qoshida (SamDU, AndDU, BuxDU, TerDU, QarDU) pedagogika institutlari tashkil etildi. Toshkent davlat pedagogika universitetiga ilmiy unvon berish huquqi berilib, universitetda kredit-modul tizimi joriy etildi. |
| 2020-yil 18-aprel     | Toshkent shahrida TEAM Xususiy tadbirkorlik universiteti tashkil etildi.  |
| 2020-yil 7-may        | “Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiytadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PQ-4708) qabul qilindi.  |
| 2020-yil 8-may        | Toshkent shahrida Britaniya menejment universiteti tashkil etildi.  |
| 2020-yil 9-iyun       | “Fahriy murabbiy” ordeni ta’sis etildi (O‘RQ-622).  |
| 2020-yil 18-iyun      | <b>Turkiya Iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining</b> Toshkent shahridagi filiali tashkil etildi.   |
| 2020-yil 23-iyun      | <b>Toshkent Xalqaro ta‘lim universiteti</b> tashkil etildi.   |
| 2020-yil 30-iyun      | “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-6017) qabul qilindi. Unga ko‘ra 2020-yil 30-iyunda Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekiston Respublikasi <b>Yoshlar ishlari agentligi</b> tashkil etildi (PQ-4768).    |
| 2020-yil 10-avgust    | O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi xuzurida <b>Yoshlar parlamenti</b> tashkil etildi.   |
| 2020-yil 12-13-avgust | Xalqaro yoshlar kuni munosabati bilan Samarqand shahrida “Yoshlar 2020: global miyosdagi birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari” mavzusida Samarqand forumi bo‘lib o‘tdi.  |
| 2020-yil 31-avgust    | Prezident Shavkat Mirziyoyev mustaqilligimizning 29-yilligiga bag‘ishlangan nutqida O‘zbekistonda yangi bir   |

|                          |  |
|--------------------------|--|
|                          | uyg'onish – <b>Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratma</b> boshlanganligini e'lon qildi.   |
| 2020-yil 17-sentabr      | <b>Urganch shahrida Malayziya xalqaro "Binary" universiteti filiali tashkil etildi.</b>  |
| 2020-yil sentabr         | "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi" doirasida umumta'lim mакtablarida birinchi marta "Tarbiya" fani joriy etildi.  |
| 2020-yil 23-sentabr      | O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. 11 ta bob va 75 ta moddadan iborat ushbu qonunda umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lif turidan keyin professional ta'lif turi kiritildi.  |
| 2020-yil 30-sentabr      | Prezidentimiz SH.Mirziyoyev tomonidan "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tantanali yig'ilishida ta'lif sohasini, ayniqsa, umumiy o'rta ta'lif tizimini isloh qilish, o'qituvchi va muallimlarning hayotimizdagи nufuzi va mavqeini oshirish bo'yicha qator yangi taklif-tashabbuslar ilgari surildi. |
| 2020-yil 8-oktabr        | A.I.Gertsen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Federal davlat byudjeti olyi ta'lif muassasasining Toshkent filiali tashkil etildi.  |
| 2020-yil 6-noyabr        | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lif-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.   |
| 2020-yil 2-dekabr        | Toshkentda Yaponiya raqamli (nodavlat) universiteti tashkil etildi.  |
| 2020-yil<br>25-26-dekabr | Toshkent shahridagi "Xumo" arenada ilk bor Yoshlar forumi bo'lib o'tdi. Forumning birinchi kunida Toshkent shahri yoshlari bilan, ikkinchi kuni har bir tumandan saralab olingan 10 nafar yoshlar bilan Prezident SH.Mirziyoyevning uchrashuvi bo'lib o'tdi.   |
| 2021-yil 12-yanvar       | "Sankt-Peterburg davlat universiteti" Federal davlat byudjeti olyi ta'lif muassasasining Toshkent shahridagi filiali tashkil etildi.   |
| 2021-yil 13-aprel        | SH.Mirziyoyev raisligida yoshlar bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan videoelektor yig'ilishi o'tkazildi.   |
| 2021-yil 30-iyun         | Toshkent Botanika bog'ida Yoshlar kuni munosabati bilan O'zbekiston Yoshlari va talabalari forumi bo'lib o'tdi. Unda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ishtirot etib nutq so'zladi.  |

**10-MAVZU: MUSTAQILLIK YILLARIDA QUROLLI KUCHLAR,  
ICHKI ISHLAR VA DAVLAT XAVFSIZLIK,  
FAVQULOTDA VAZIYATLAR XIZMATLARI  
TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR.**

**Reja:**

- 1. O'zbekiston Respublikasining qurolli kuchlari tizimida amalga oshirilgan islohotlar.**
- 2. Xalq manfaatlariga xizmat qilish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar tizimi xodimlarining bosh maqsadi.**
- 3. Davlat xavfsizlik xizmati va favqulotda vaziyatlar tizimidagi islohotlar.**

**Tayanch tushunchalar:** *Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Vatan himoyachilari kuni, Ichki ishlar vazirligi, Qurolli kuchlar, Mudofaa Doktrinasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy xavfsizlik kengashi, Milliy gvardiya, Diniy ekstremizm, Fundamentalizm, Ijtimoiy barqarorlik.*

**1. O'zbekiston Respublikasining qurolli kuchlari tizimida amalga oshirilgan islohotlar.**

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, eng muhim dolzarb masalalardan biri davlat suverenetetining kafili bo'lgan qurolli kuchlar, mudofaa, ichki ishlar va boshqa harbiy tuzilmalarni qayta tashkil etish va mazmunan sifat bosqichiga olib chiqish bo'lgan edi. Chunki soha uchun kadrlar masalasi juda nochor ahvolda edi. Buni masalan, 1990-yilda mahalliy ofitserlar yurtimizdagi harbiy kadrlarning atigi 0,6 foizni tashkil etgani ham tasdiqlab turibdi.

O'zbekiston Prezidentining 1990-yil 4-sentabrdagi Farmoniga binoan 1990-yil kuzgi chaqiriqdan boshlab o'zbekistonlik yigitlami O'zbekistondan tashqarida joylashgan harbiy qurilish qismlariga chaqirish to'xtatildi.

1991-yil 19-21-avgust kunlari Moskva shahrida ro'y bergan davlat to'ntarishiga urinish (GKCHP) sharoitida O'zbekiston o'zi tanlagan mustaqillik yo'lini mustahkamlash, notinch siyosiy o'yinlar boshlangan bir paytda mamlakat hududiy yaxlitligi, aholi tinchligi va osoyishtaligini qurolli himoya qilish yo'lida yangi qadamlar tashladi. O'zbekiston Prezidentining 1991-yil 25-avgustdagи Farmoni asosida O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizligi komitetining respublika tasarrufiga o'tishi, SSSR Ichki ishlar vazirligining yurtimizdagi qo'shinlari respublika Prezidentiga bo'ysundirilishi, huquq-tartibot organlarida, Ichki ishlar vazirligining hamda Turkiston harbiy okrugining O'zbekistonda joylashgan qo'shinlarida partiya tashkilotlarining tugatilishi ana shunday birinchi qadamlardan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 6-sentabrdagi farmoniga asosan Mudofaa ishlari vazirligi tashkil qilindi. Mudofaa Vaziri ayni vaqtida Milliy gvardiya qo'mondoni etib tayinlandi. Shu yili Mudofaa ishlari vazirligining huquqiy maqomi, tuzilishi va nizomlari tasdiqlandi. Turkiston harbiy okrugi boshqaruv

organlari negizida Mudofaa ishlari vazirligi Bosh shtabi va boshqarmalari tuzildi.

O'zbekiston Oliy Kengashining 1992-yil 14-yanvardagi qaroriga binoan, so'iq SSSR Qurolli Kuchlarining respublika hududida joylashgan qismlari, qo'shilimalari birlashmalari, harbiy o'quv yurtlari, muassasalari, tashkilotlari va boshqa harbiy tuzilmalari qonuniy asosda O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasiga olindi. Mazkur qaror qabul qilingan kun 14-yanvar O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 29-dekabrdagi Qonuniga muvofiq "Vatan himoyachilari kuni" deb e'lon qilindi.

1992-yilda Respublika Milliy Xavfsizlik xizmati qoshida Chegara qo'shinlari boshqarmasi tashkil etildi. Ushbu yilda shuningdek, O'zbekiston hududida joylashgan havo desanti qo'shinlari, harbiy transport aviatsiyasi, razvedka qo'shinlari, ta'minot qismlari hamda havo hujumiga qarshi harbiy qismlar, kimyoiy harbiy qismlar respublika tasarrufiga olindi va sifat jihatidan takomillashtirildi. Mudofaa vazirligi tasarrufida quruqlikdagi qo'shinlar, harbiy havo hujumidan mudofaa qo'shinlari, harbiy havo kuchlari, maxsus va muhandislik quruvchilik qo'shinlari, Milliy gvardiya tashkil etildi. Ayni vaqtida har bir qo'shin turining aniq vazifalarini belgilandi.

O'zbekiston Qurolli Kuchlari faoliyatining huquqiy negizini yaratish maqsadida 1992-yil 3-iyulda "Mudofaa to'g'risida"gi, "Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi, "Muqobil xizmat to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Konstitutsiyamizning XXVI-bobi Mudofaa va xavfsizlik deb nomlanib, uning 125-moddasida: "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi, deb belgihanishi davlat Qurolli Kuchlarining asl maqsad va vazifalarini dunyo hamjamiyati oldida yana bir bor namoyon etdi. Konstitutsiyamizning 52-moddasida "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir" deb mustahkamlab qo'yildi.

Shu tarzda mustaqil mamlakat Qurolli Kuchlarini barpo etishning tashkiliy davri tugadi. Endi asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarini sifat jihatdan mustahkamlash va kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yishga qaratildi. 1993-yilda Toshkent elekroteknika va aloqa institutining maxsus fakulteti, 1994-yilda Jizzax aviatsiya oliy harbiy bilim yurti, 1995-yilda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi ochildi. 2000-2001-yillarda Markaziy va Toshkent harbiy okruglarida, Sharqiy va Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okruglarida, 2007-yilda Shimoli-g'arbiy harbiy okrugiда serjantlar tayyorlash maktablari tashkil etildi. Bu maktablarda Mudofaa, Ichki ishlar vazirliklari, chegara qo'shinlari uchun mutaxassislar tayyorlash yo'lga qo'yildi, zamonaviy uslublar asosida modellashtirish jarayonlarini o'z ichiga olgan yangi ta'lif usullari joriy etildi.

Sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida 2017-yil 24-yanvarda "O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarini isloq qilish va yanada rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Prezident Qarori (PQ-2738) qabul qilindi.

Qurolli Kuchlar tarkibidagi barcha qo'shin turlarining tuzilma va vazifalarini qayta ko'rib chiqildi. Armiya va xalq birligini ta'minlash maqsadida, barcha

hududlarda harbiy-ma'muriy sektorlar tashkil etildi. 2018-yil 9-yanvarda yangi tahrirda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi qonun globallashuv sharoitida xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka tahdidlar kengayib borayotgan vaziyatda geosiyosiy qarama-qarshilik, kuch ishlatalish, shu jumladan, ommaviy qirg'in qurolini qo'llash ehtimoli oshganligi, xalqaro terrorizm va ekstremizm faollashganligi, axborot makonida o'zaro kurash kuchayganligiga qarshi munosib tura olish masalalarini kafolatlaydi.

2016-2019-yillar davomida mamlakatimizdagi qator harbiy shaharchalar zamонавији qiyofaga ega bo'ldi. 8 mingdan ziyod harbiy xizmatchilar oilalarini qulay va shinam kvartiralar bilan ta'minlash uchun 275 ta ko'p qavatli uy-joy barpo etildi. Harbiy xizmatchilarning ayollari uchun qariyb 600 ta yangi ish o'rinnari yaratildi. 1 ming 900 nafar harbiy pensioner ishga joylashtirildi.

Amalga oshirilgan bu ishlar Qurolli Kuchlarni har tomonlama takomillashtirdi, unga jangovarlik baxsh etdi, shaxsiy tarkibni jipslashtirdi, harbiy xizmatchilarning mavjud harbiy-siyosiy vaziyatda mas'ul vazifalarni bajarishga qodirligini oshirdi, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirdi, kadrlar tayyorlash tizimini jahon andozalari darajasiga ko'tardi, armiyani mamlakatda hamda mintaqada tinchlik va barqarorlik kafolatiga aylantirdi.

## **2. Xalq manfaatlariга xizmat qilish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar tizimi xodimlarining bosh maqsadi.**

1980-yillarning oxiri - 90-yillar boshlarida ichki va tashqi xavfsizlikni ta'minlash tizimining parchalanishi natijasida jamiyatda huquqiy bo'shliq vujudga kelgani, millatlar va dinlararo, hududiy va turli guruhlar, urug'-aymoqlar o'rtasidagi ziddiyatlarning avj olib ketishi xavfi, radikal kayfiyatlarning, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kuchayishi g'oyat jiddiy xatarga aylangan edi. Tub ildizlari markazga borib taqaladigan ichki va tashqi mojarolardan mamlakatimizni asrab qolish talabi o'ta keskin bo'lib turar edi.

Ana shunday murakkab vaziyatda ichki ishlar idoralari mamlakat bo'ylab turli nizolar bo'lmasligi uchun barcha choralarни ko'rdi. Hamdo'stlikka kirgan mustaqil davlatlardan birinchi bo'lib Rossiya, Belarus va Qozog'istonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tezlashtirib yuborilgani, to'g'riroq'i, bu ishni har tomonlama uyg'unlashtirib olib bormay, narx-navolar ko'tarilgani xalqning mashaqqatli turmushini yanada og'irlashtirdi. Nisbatan arzonroq bahoda tovar xarid qilish maqsadida O'zbekistonga boshqa respublikalardan kelayotgan kishilar soni haddan ziyod ko'payib ketdi. Bu respublikaning ta'minot balansini izdan chiqardi. Bozor qimmatlashib, narx qisqa davr ichida 3-4 baravar oshib ketdi. Eng zarur mahsulotlar do'konlar peshtaxtalarida ko'rinxmay qoldi.

Bu vaqtda O'zbekistonda hufyona iqtisodiyotda savdo mafiyasi boshliqlarining, moddiy va moliya resurslarini taqsimlash tarmog'idagi nahanglarning, yashirin jinoiy guruh yetakchilarining "nufuzi" juda baland edi. Bu kuchlar birlashib, har lahzada har qanday jarayonga ta'sir o'tkazishi mumkin edi. Respublikada huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning qonuniy asoslari to'liq shakllanmagani edi. Masalan: "Bojxona", "Chegara qo'shinlari", "Prokuratura", "Mudofaa", "Sud", "Milliy xavfsizlik", "Milliy

gvardiya” to‘g‘risidagi hujjatlar qabul qilinmagan edi. Shu sababli respublika chegaralarini mustahkamlash va uni qo‘riqlash ichki ishlar idoralariga topshirildi.

Mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi ayovsiz kurash natijasida, 1993-yilda O‘zbekistonda oxirgi yillar ichida birlinchi marta jinoyatchilikning o‘sishini to‘xtatish va hatto uning umumiy sonini kamaytirishga erishildi. Ichki ishlar tizimidagi xodimlarning fidokorona mehnatlari tufayli mamlakatimizda yildan yilga tarib-intizom, fuqarolarning tinch-osuda yashashlari va eng muhimmi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ta’minlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida tizimni tubdan takomillashtirish, ichki ishlar organlarini aholiga o‘z vaqtida va sifatli yordam ko‘rsatadigan, har bir xodim tomonidan “Xalq manfaatlariga xizmat qilish”ni o‘z xizmat burchi deb biladigan ijtimoiy yo‘naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar davri boshlandi. 2016-yil 16-sentabrda mustaqil O‘zbekistonning 25 yillik tarixida ilk bor “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, unda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining yo‘nalish va tamoyillari belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi PF-5005-sonli farmonida keyingi yillarda ichki ishlar organlari faoliyatida to‘planib qolgan jiddiy kamchilik va muammolar tahlil qilinishi barobarida, ularni bartaraf etish, ichki ishlar organlari tizimini isloh qilishning eng muhim yo‘nalishlari hamda mamlakatimiz tarixida ilk bor ichki ishlar organlari rahbarlarining parlament, deputatlar va keng jamoatchilik oldida o‘z vazifalarining bajarilishi yuzasidan hisobot berish tartibi belgilab berildi. Farmon bilan “Ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilish kompleks chora-tadbirlar dasturi” ham tasdiqlandi.

Qabul qilingan farmon va qarorlar ijrosini ta‘minlash maqsadida qisqa davr ichida ulkan ishlar amalga oshirildi. Bunda, eng avvalo, huquqbazarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga faqatgina ichki ishlar yoki huquqi muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi deb emas, balki barcha davlat organlari va aholi qatlamlarining vazifasi, ya’ni umum davlat va umum xalq ishi sifatida qarash, bu borada barcha davlat va nodavlat tashkilotlari va keng jamoatchilikning kuch va imkoniyatlarini safarbar etish, aholining barcha qatlamlari huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda qonunga hurmat, qonun buzilishining har qanday ko‘rinishiga murosasizlik muhitini yaratish yo‘li bilan huquqbazarliklarning barvaqt profilaktikasi va oldi olinishini ta‘minlashga e’tibor qaratildi.

Jazoni o‘tayotgan shaxslarning haq-huquqlarini ta‘minlash borasidan ham ulkan ishlar qilindi. Bu borada ularning jazo o‘tash sharoitlari yaxshilandi. Zamonga mos kelmaydigan eski koloniyalar o‘rniga mahkumlar mehnat qilishlari uchun erkin iqtisod talablariga to‘la javob beradigan ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi, jamoatchilik o‘rtasida salbiy nom qozongan “Jasliq” koloniysi tugatildi. Ilg‘or xorijiy tajribalarga mos ravishda, shuningdek, Konstitutsiyamiz talablari asosida mahkumlarga parlament va joylardagi xalq deputatlarini saylash imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, mahkumlarga qarindoshlari bilan qo‘srimcha uchrashuvlar va telefon so‘zlashuvlarini amalga oshirish, ularning ijtimoiy sug‘urta va pensiya ta‘minotini

olish kabi huquqlari doirasi kengaytirildi. 2019-yilga kelib nomigagina faoliyat ko'rsatayotgan "Mahalla posboni" lavozimi tugatilib, uning o'mniga profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchisi lavozimi joriy etildi.

Bugungi kunda IIV tasarrufidagi o'quv muassasalari (O'zR IIV Akademiyasi, O'zR IIV Akademik litseylari, O'zR IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internati, O'zR IIV "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litsey) sohan professional kadrlar bilan ta'minlashda katta o'rinn tutadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida yuz berган o'zgarish va yangilanishlarda, yuksalishlarda ichki ishlар xodimlarining ham o'ziga xos o'mni va xissasi bor, albatta. Ichki ishlар idoralari huquq-tartibot xizmatlari bilan hamkorlikda el-yurt osoyishtaligi, bунyodkorlik mehnati, xaq-huquqi himoyasini mustahkam ta'minlab kelmoqda.

### **3. Davlat xavfsizlik xizmati va favqulotda vaziyatlar tizimidagi islohotlar.**

O'zbekiston Respublikasi mamlakat milliy xavfsizligini ta'minlash borasida davlat siyosatini amalga oshira borar ekan, mazkur sohaning eng ishonchli posboni bo'lgan idora tashkil etilishi zarurligini anglar edi. 1991-yilning 26-sentabrida sobiq Ittifoq Davlat xavfsizlik qo'mitasining O'zbekistondagi idorasi negizida O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati (MXX) tashkil etildi. Uning asosiy vazifasi davlat tuzumini himoya qilish, razvedka va kontrrazvedka faoliyati deb belgilandi. Xavfsizlik boshqarmasi zimmasiga iqtisodiy vazifalar ham yuklatildi. Idoraga general-leytenant G'ulom Aliyev rahbar etib tayinlandi. 1995-yilda MXXga G'ulom Aliyevning o'rinosari Rustam Inoyatov rahbar bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 24-martdagи Farmoni bilan Milliy xavfsizlik xizmati tasarrufida Chegara qo'shinlari boshqarmasi tashkil etildi.

1993-yil 26-aprelda davlat chegaralarini mustahkamlash, qo'shinlarni boshqarishni mukammallashtirish va ularning xavfsizligini oshirish maqsadida Boshqarma O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining chegara qo'shinlari Bosh boshqarmasiga aylantirildi va uning zimmasiga davlat chegarasini himoya qilish va qo'riqlash sohasidagi davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash vazifasi yuklandi.

1995-yilning may oyida davlat va jamiyat xavfsizligini ta'minlash, mamlakat milliy xavfsizlik strategiyasini shakllantirish va uni izchil hayotga tatbiq etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida **Milliy xavfsizlik kengashi** tuzildi.

1992-2010-yillar O'zbekiston uchun xavfsizlik borasida murakkab yillar bo'ldi. Bu davrda diniy-ekstremistik tashkilotlar va jinoiy guruhlarning rahbarlari asosiy e'tiborlarini O'zbekistonga qaratishgan edi. Ularning maqsadi O'zbekistondagi siyosiy va ijtimoiy vaziyatni keskinlashtirish, yurtimizni terroristik-ekstremistik guruhlarning makoniga aylantirish edi. 1992-1997-yillarda Tojikistondagi fuqarolar urushi, 1996-2002-yillarda Afg'onistondagi siyosiy jarayonlar, 1999-yil 16-fevralda Toshkent shahridagi terroristik harakatlar, shu yilning avgust oyida Qирғизистон va Tojikiston bilan tutashgan janubiy-sharqiy chegaralarimizdagi notinch vaziyat, 2000-yil avgust oyida Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumani tog'li hududlariga Tojikiston orqali jangarilar guruhining kirib kelishi, 2004-yilning 29-30-mart va 1-

aprel kunlari Buxoro viloyati va Toshkent shahrida portlashlar va 2005-yilning may oyida Andijon shahrida terroristik va diniy-ekstremistik kuchlar o'zlarining navbatdagi jinoyatkorona xatti-harakatlarini amalga oshirgan paytida mamlakatimiz milliy xavfsizlik xizmati va ichki ishlar hamda favqulodda vaziyatlar maxsus bo'limmalari yana bir bor sinovdan o'tdi.

Milliy xavfsizlik xizmati (MXX) tizimini isloh qilish haqida ilk bor president Sh.Mirziyoyev 2017-yil yakunlari bo'yicha mamlakat parlamentiga murojaatnomasida to'xtalgan edi. 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi umumiyligida bu rejali va oqilona qadam sifatida belgilab olindi. Bu tashabbauslar bilan davlatimiz rahbari qonunning qabul qilinishi zaruriyat va fursat yetib kelganini ta'kidlagan edi.

Shuni ta'kidlash joizki, sobiq ittifoq davrida Davlat xavfsizlik xizmati katta rol o'ynagan va ulkan vakolatlarga ega bo'lgan. SSSRda DXQ (KGB) 1954-yilda SSSR Ministrler kengashi qoshida tuzilgan edi. DXQ tarkibida tuzilmaning bosh boshqarmasi bilan birgalikda 21 boshqarma mavjud edi va butun mamlakat bo'ylab DXQning "birinchi bo'limi" faoliyat ko'rsatib, u korxona va muassasalarda ish olib borgan: jamoatchilik kayfiyati ustidan nazoratni vujudga keltirgan. Xalq o'rtasida DXQ "qilich va qalqon" tashkiloti deyilar, bunga idoranining ramzi asos bo'lgan edi. Ko'pincha tashkilot ishida "qalqon" emas, "qilich" tamoili ishga solinishi haqida gap so'zlar yurardi, bu holda tuzilmaning kuchishlalar uslublari va total ijtimoiy nazoratni qo'llashiga sha'ma qilishardi. DXQ hamma ish bilan shug'ullanardi – birinchi shaxsni qo'riqlashdan tortib, razvedkagacha.

MXXning faoliyati haqidagi nizom 26 yil muqaddam 1991-yil 2-noyabrda Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan bo'lib, MXX 2018-yilgacha sohaga oid qonunlarsiz, faqatgina ushbu matni jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan nizom asosida faoliyat yuritib kelgan. Sh.Mirziyoyevning baholashicha, bu davr ichida MXX o'z vakolatlari va faoliyat ko'rsatish sohasini asossiz ravishda kengaytirgan, garchi xizmat haqidagi qonun tuzilmasi o'zgarmagan bo'lsa ham. Hukumatning yangi strategiyasi shakllantirilishi jarayoni va tarixiy shart-sharoitlar inobatga olinib, idorani isloh qilish va qayta tashkil etish masalasi ko'ndalang bo'ldi. O'zining navbatdagi chiqishlaridan birida Shavkat Mirziyoyev MXXning "idora"ni ro'kach qilib xalq va vatan manfaatlarini mensimasdan barcha sohalarga aralashish vaqtin o'tganini bayon qildi.

2018-yil 10-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik Kengashining ilk bor kengaytirilgan, ochiq, videokonferensiya shaklidagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Qurolli Kuchlarining jangovar holatga shayligi ilgarigi 5 kundan bugungi kunda 3 soatga yetkazilganligi ta'kidlandi.

2018-yil yanvar oyining oxirlarida prezident MXX raisi general-polkovnik Rustam Inoyatovni ozod qilish haqidagi farmonni imzoladi. Davlat xavfsizlik xizmatiga respublikaning bosh prokurori bo'lib ishlab turgan Ixtiyor Abdullayev yangi rahbar etib tayinlandi. Ixtiyor Abdullayev sud tizimi – huquqni himoya qiluvchi va nazorat etuvchi organlar harakatlarini muvofiqlashtiruvchi, qonunchilikni monitoring etuvchi tizimda ishlagani inobatga olinsa, uning DXX raisi

lavozimiga tayinlanishini oqilona qaror deyish mumkin. Bosh prokuraturaning DXX faoliyati ustidan nazorat etishi tizimi yo'lga qo'yildi.

OAVga bergan intervularidan birida Ixtiyor Abdullayev 26 yil mobaynida xizmatning faoliyati qonun doirasida tartibga solinmagani, bu esa, o'z navbatida, juda ko'plab muammolarni keltirib chiqqarganini qayd etdi.

2018-yil 14-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5379 sonli Farmon asosida Milliy xavfsizlik xizmati **Davlat xavfsizlik xizmati** deb qayta nomlandi. Kadrlar borasida DXXda tarkibiy o'zgarishlar, islohotlar o'tkazildi. Ilgari MXX raisining birinchi o'rinosbosari va o'rinosbosarları MXN raisining tavsiyasiga ko'ra prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tayinlangan bolsa, endi DXX rahbari va uning o'rinosbosarlarini mamlakat prezidenti tayinlaydigan tizimga o'tildi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi prezidenti fuqarolar huquqlari va erkinliklari kafolati bo'lib xizmat qiladi hamda mamlakat suvereniteti va xavfsizligini himoya qilish bo'yicha zarur choralarni qo'llaydi.

2018-yil 5-aprelda "O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Qonun 9 bob va 48 moddadan iborat. Birinchidan qonuniy asosiy tushunchalari bu: davlat xavfsizligi, davlat manfaatlari, razvedka va kontrazvedka faoliyatidir. Faoliyatning asosiy yo'naliishi sifatida davlat xavfsizligini ta'minlash, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash, davlat sirlarini qo'riqlash, strategik tashabbuslarni amalga oshirishda ishtirok etish belgilandi.

Yangi qonunda fuqarolarning yordamiga tayanish va DXXga ko'mak ko'rsatish uchun rag'batlantirish, davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurash, madaniy-tarixiy va ma'naviy meroslarni himoya qilish kabi normalar kiritildi.

Qonunda jismoniy kuch, maxsus vositalar va qurollarni ishlatalish chegarasiga ham alohida e'tibor berildi. Masalan, insonning boshi, bo'yni, o'mrov sohasi, qoni, jinsiy a'zolari va yurak proyeksiyasi sohasiga rezina tayoq bilan urish taqilganadi. Ammo, fuqarolar va DXX xodimlarining hayotiga real tahdid tug'diruvchi qurolli qarshilik ko'rsatish va guruh bo'lib hujum qilish istisno etiladi.

DXX Oliy Majlis Senatining mudofaa va xavfsizlik masalalari bo'yicha qo'mitasiga o'z faoliyatining asosiy yo'naliishlari bo'yicha muntazam axborot berib turadi. DXX faoliyatida qonunlarning aniq va og'ishmasdan amal qilinishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasining bosh prokurori va unga bo'ysunadigan prokurorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Bunday ko'rinishdagi nazorat xizmat ishida qonuniylik principini ta'minlash uchun zarur. DXX to'g'risidagi qonunda Konstitutsiyaga rioya qilish meyorlari aniq yozib qo'yilgan. Binobarin, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya qilish ham. Yangi qonun bilan Davlat xavfsizlik xizmati O'zbekistonning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va manfaatlarini ichki va tashqi tahidlardan himoya qiluvchi maxsus vakolatli organi sifatida qayd etilgan.

Davlat mexanizmida muhim jihatlardan biri rivojlanishning barqarorligi va tinchlik ta'minlanishidir. Davlat va jamiyat uchun ham jahon, ham mintaqqa nuqtai nazaridan xavfsizlikka tahdid dolzarbligicha qolmoqda. Masalan ISHID

terrorchilarining faollashuvi, quroq-yarog' va narkotik moddalarni olib kirishga urinishning ko'payishi, turli ayirmachi kuchlarning din va madaniyatni dastak qilish, jamiyatga ta'sir o'tkazishga urinishi kabilar.

Jahon miqyosida davlatni beqarorlashtirishga "investitsiya" kiritish deb ataluvchi muammo ayniqsa dolzarb bo'lib turibdi. Bu legitim hokimiyatni ag'danib bo'yicha turli loyihamalar, davlatni ichidan yemiruvchi siyosiy ekstremizmdir. Bu masalalar MDH bo'yicha ayrim "qo'shi"larimizni chetlab o'tmadi. Davlat tizimi va iqtisodiyot puli to'lab qo'yilgan "siyosiy muxolifat", "rangli inqiloblar", diniy fanatiklar tomonidan vayron qilinadi. Barqarorlik va tinchlikka ushbu tahdidlarni hisobga olib, jamiyat va mamlakat xavfsizlik tashkiloti Davlat xavfsizlik xizmati faoliyati o'ta muhimdir.

2018-yil 2-oktabrda qabul qilingan qonunga ko'ra 5-aprel sanasi "Davlat xavfsizligi xodimlari kuni" etib belgilandi.

Fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar rahbarlar tarkibini tayyorlash bo'yicha Respublika markazi 1992-yili tashkil etilib, u 1996-yilgacha faoliyat ko'rsatgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning taklifiga binoan 1995-yil 16-avgust kuni Favqulodda Vaziyatlar Vazirligini tuzish haqida qaror qabul qilindi va 1996-yilning 4-martida "**O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida**"gi hukumat qarori qabul qilindi. Mazkur farmon bo'yicha vazirlikning vazifalari quyidagicha belgilandi:

- favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, aholi hayoti va salomatligini, moddiy va ma'naviy qadriyatlarini muhofaza qilish, shuningdek tinchlik va harbiy davrda favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollardagi harakatlarni boshqarishning davlat tizimi (FVDT)ni tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash;
- O'zbekiston Respublikasining fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish;
- Vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, hokimliklarning aholini va milliy boyliklarini muhofaza qilish, avariyalar, halokatlar va tabiiy ofatlar tufayli vujudga kelgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga doir faoliyatini muvofiqlashtirib borish;
- favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga, aholini, mamlakat hududini muhofaza qilishga hamda ular vujudga kelgan taqdirda xalq xo'jaligi obyektlari faoliyatining barqarorligini oshirishga, shuningdek aholini, mansabdon shaxslarni hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollardagi harakatlarni boshqarishning davlat tizimi tuzilmalarini tayyorlashga qaratilgan maqsadli va ilmiy-texnik dasturlarni ishlab chiqishni tashkil etish va amalga oshirish;
- favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun moliya, oziq-ovqat, tibbiyot va moddiy-texnika resurslarining davlat favqulodda zahira fondlarini tashkil etishga doir ishlarni muvofiqlashtirib borish va hokazo.

Favqulodsa hodisalar milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar sifatida baholanar ekan, shu tariqa hodisalar chog'ida aholi himoyasining samarali mexanizmlarini ishlab chiqish talab etilar edi. Bu esa o'z o'rnidagi favqulodda

hodisalar tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan dastur yaratilishi zarurligini kun tartibiga qo'ydi. 1995-2000-yillar oraliq'ida bu kabi ishlar muvaffaqiyatli amalga oshirildi va hayotga tatbiq etildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2000-yil 26-mayda "Fuqarolik himoyasi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

Bugungi kunda Favqulodda vaziyatlar vazirligi Markaziy apparati tarkibida quyidagi tuzilmalar faoliyat olib boradi:

-Qoraqalpog'iston, viloyatlar va Toshkent shahar favqulodda vaziyatlar boshqarmalari;

-Favqulodda vaziyatlarni boshqarish va bartaraf etish Milliy markazi;

-Yong'in xavfsizligi markazlari;

-Gidrometeorologik jarayonlarni nazorat qilish markazi;

-Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi;

-Fuqaro muhofazasi Instituti;

-Akademiya qoshidagi malaka oshirish va qayta tayyorlash markazi;

-Shaxrisabz harbiy-akademik litsey ("Temurbeklar maktabi");

-"Qamchiq" maxsus yong'in qidiruv-qutqaruv boshqarmasi;

-"Xavfsiz daryo" boshqarmasi;

-Respublika seismoprognoz monitoring markazi;

-Yong'in xavfsizligi va muammolari ilmiy-tadqiqot instituti;

-Maxsus muhandis-quruvchilik boshqarmasi;

-Respublika moddiy-texnik ta'minot markazi;

-Maxsus vazifalar bo'yicha respublika qutqaruv markazi.

2017-yil 1-iyulda tizimni isloq qilish borasida "Favqulodda vaziyatlarining oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-5066) qabul qilindi.

2020-yil aprel-may oylarida Buxoro viloyatining Olot tumanida yuz bergen kuchli shamol bo'roni va Sirdaryo viloyatining Sardoba tumanida ro'y bergen suv toshqinlari oqibatlarini bartaraf etishda O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar xodimlarining fidokorona mehnatlari ayniqsa xalqimiz e'tirofi va olqishlariga sazovor bo'ldi. Tabiiy ofatdan aziyat chekkan fuqarolarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatishda butun mamlakatimiz jamoatchiligi o'zining birdamligi va insoniylik fazilatini namoyon qildi.

Xulosa qilib aytganda Yangi O'zbekistonda Qurolli kuchlar, Davlat xavfsizlik xizmati hamda Ichki ishlar organlarining, binobarin, mamlakat xavfsizligini ta'minlashga mas'ul barcha idora va jamoat tashkilotlarining istiqlolimizning bardavomligini ta'minlash, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni, chegaralarimiz daxsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini saqlash, davlat qurilishi tizimini mustahkamlash, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi mavqelari kundan-kunga ortib bormoqda.

### **Mavzuning asosiy tushunchaları:**

**AMNISTIYA** (yunoncha amnestia – unutish, kechirish, avf etish) – jinoyat sodir etgan shaxslami jinoiy javobgarlikdan to‘liq yoki qisman jazodan ozod qilish shuningdek, ilgari sud tomonidan belgilangan jazoni o‘tab bo‘lgan shaxslardan sudlanganlikni olib tashlash. Amnistiya akti normativ xususiyatga ega, ya’ni amnistiya akti bilan belgilangan talablarga javob beradigan barcha shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

**DOKTRINA** – lotincha so‘zdan olingen bo‘lib, ta’limot, ilmiy yoki falsafiy nazariya, siyosiy tizim, bosh nazariy yoki siyosiy prinsip.

**INTERPOL** – Xalqaro Jinoyat politsiyasining qisqartirilgan nomi. Interpolni tashkil etish to‘g‘risidagi qaror 1914-yil Monakodagi konferensiyada qabul qilingan edi. Uning birinchi ustavi 1923-yilda qabul qilinadi. 1972-yildan boshlab, Interpolning shtab-kvartirasini etib Parij belgilangan. Interpol jinoyatchilarni ro‘yxatga olish xalqaro markazidir. Shuningdek, jinoyatlarning (gumon qilinuvchilarni, bedarak yo‘qolgan shaxslami, o‘g‘irlangan mollarni) xalqaro qidiruvini muvofiqlashtiradi. Hozirgi vaqtida 150 dan ortiq davlat Interpolning a’zosidir. O‘zbekiston 1994-yil 15-avgustda ushbu tashkilotga a’zo bo‘lgan.

**KOLLEKTIV XAVFSIZLIK SHARTNOMASI TASHKILOTI (KXSHT/ODKB)** – Rossiya, Belarus, Armaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonni o‘z ichiga olgan harbiy ittifoq. Tashkilotga 1992-yil 15-mayda Toshkentda asos solingenan. O‘shanda Armaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston va O‘zbekiston davlat rahbarlari kollektiv xavfsizlik to‘g‘risidagi shartnomani imzolagan edilar. 1993-yil 9-sentabrda Gruziya, 24-sentabrda Ozarbayjon va 31-dekabrda Belarus davlatlari ham shartnomaga qo‘sildilar. Shartnoma 1994-yil 20-apreldan kuchga kirgan. U 5 yilga mo‘ljallangan bo‘lib, uzaytinlishi ko‘zda tutilgandi.

KXSHTning maqsadi shartnomaga a’zo davlatlarning hududiy-iqtisodiy makonini har qanday tashqi siyosiy tajovuzlardan hamda yirik miqyosdagi tabiiy ofatlardan birgalikda armiya va boshqa yordamchi bo‘linmalar yordamida himoya qilish hisoblanadi.

1999-yil 2-aprelda Armaniston, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya va Tojikiston prezidentlari shartnomani yana besh yil muddatga uzaytirish to‘g‘risidagi protokolni imzoladi, ammo Ozarbayjon, Gruziya va O‘zbekiston shartnomani uzaytirishni istamadi va tashkilotdan chiqib ketdi.

2006-yil 16-avgustda O‘zbekiston KXSHT tarkibiga qaytadan kirdi. 2012-yilda “O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilinishi munosabati bilan 2012-yil 28-iyunda esa Toshkent KXSHTga a’zoligini to‘xtatib turishini bildirdi.

**KONTRABANDA** (lotincha contrata – qarshi, ital. bando – hukumat formoni) – mamlakatga olib kelish yoki olib ketish qonun bilan ta’qiqlangan maxsulotlar, qimmatbahoy yoki o‘g‘irlangan buyumlar, shuningdek sanoat mollarini chegaradan noqonuniy tarzda maxfiy ravishda o’tkazish.

**POLITSIYA** – dunyoning aksariyat mamlakatlariagi ichki ishlar organlarining umumiyl nomi. Ayrim mamlakatlarda militsiya deb yuritiladi. Lekin bu ikkita tushuncha o'rtasida farq mavjud. Militsiya ko'proq respublika markazidan turib yagona tizim orqali boshqarilsa, politsiya asosan mahalliy hokimiyat organlari tomonidan boshqariladigan hamda muammolarni pastki bo'g'indan boshlab hal qiladigan tuzilma xisoblanadi. Ya'ni politsiya nafaqat jinoyatchilikni jilovlash va unga qarshi kutash bilan shug'ullanadi, balki ijtimoiy prifilaktika bilan ham shug'ullanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ichki ishlar organlaridagi o'zgarishlar orqali politsiya tizimiga o'tish uchun muhum poydevor yaratildi. 2016-yil 16-sentabrda qabul qilingan "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonun politsiya tizimiga o'tish yo'lidagi birinchi qadam bo'ldi. Rossiyada 2011-yil 1-martdan, Tojikistonda esa 2019-yil yanvaridan militsiya deb atala boshlandi.

**PROFILAKTIKA** – turli xil xavflar, ya'ni texnogen, epidemiologik, tibbiy, diniy-ekstremistik tahdidlardan odamlarni muhofaza etish choralarini ko'rish, ekstremistik, ya'ni yot g'oyalardan muhofazalanishning eng samarali choralaridan bini – bu odamlarning bandligini kafolatli ta'minlash, dunyoqarashini boyitib o'zgartirish, hamkorlik qilish, pozitiv baholovchilik fazilatini shakllantirish orqali ulami ijtimoiy foydali hayotga integratsiya qilishdir.

**TERRORIZM** (lotincha "terror" – qo'rquv, dahshat) – o'z maqsadiga erishish yo'lida ayrim shaxs, shaxslar guruhi yoki g'ayridemokratik hukumat organlari tomonidan muholifat kuchlarini jismoniy kuch ishlatib qo'rqtishdan tortib ommaviy jismonan yo'q qilinishigacha boradigan umuminsoniy o'ta xavfli jinoyat turi.

#### Mavzuga oid muhim sanalar:

|                          |   |
|--------------------------|---|
| 1990-yil                 | Mahalliy ofitserlar O'zbekistondagi harbiy kadrlarning atigi 0,6 foizni tashkil etgan.  |
| 1990-yil 4-sentabr       | "Jumhuriyat yoshlarini armiyaga chaqirishni va ularning harbiy xizmatni o'tashini takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident Farmoni e'lon qilindi. Farmonga binoan 1990-yil kuzgi chaqiriqdan boshlab o'zbekistonlik yigitlarni O'zbekistondan tashqarida joylashgan harbiy qismlarga chaqirish to'xtatildi. |
| 1991-yil<br>19-21-avgust | Moskvada ro'y bergan davlat to'ntarishi sababli O'zbekiston o'zi tanlagan mustaqillik yo'lini mustahkamlash, notinch siyosiy o'yinlar boshlangan bir paytda mamlakat hududiy yaxlitligi, aholi tinchligi va osoyishtaligini qurollи himoya qilish yo'lida yangi qadamlar qo'ydi.                              |
| 1991-yil 25-avgust       | O'zbekiston Prezidentining Farmoni asosida O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizligi komiteti respublika tasarrufiga o'tkazildi. SSSR Ichki ishlar vazirligining yurtimizdagи qo'shinlari respublika Prezidentiga bo'ysundirildi, huquq-tartibot organlarida, Ichki ishlar                       |

|                     |   |
|---------------------|---|
|                     | vazirligining hamda Turkiston harbiy okrugining O'zbekistonda joylashgan qo'shinlarida partiya tashkilotlar tugatildi.  |
| 1991-yil 31-avgust  | "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunida "Davlat mustaqilligini, hududiy yaxlitligini, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqi va erkinligini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi va milliy gvardiya tuziladi. Respublika hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligi, SSSR Davlat xavfsizlik komiteti hamda Ichki qo'shinlar O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasiga olinadi" deb belgilab berildi. |
| 1991-yil 6-sentabr  | O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi tashkil qilindi.   |
| 1991-yil 10-sentabr | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan, Mudofaa Vaziri ayni vaqtida Milliy gvardiya qo'mondoni etib tayinlandi.   |
| 1991-yil 26-sentabr | Sobiq Ittifoq Davlat xavfsizlik qo'mitasining O'zbekistondagi idorasini negizida O'zbekiston Respublikasi <b>Milliy xavfsizlik xizmati (MXX)</b> tashkil etildi. MXXga 1991-1995-yillarda G. Aliyev, 1995-2018-yillarda R.Inoyatovlar raislik qilishgan. 2018-yil 14-martda Prezident Farmoni (PF-5379) bilan Milliy xavfsizlik xizmati <b>Davlat xavfsizlik xizmati</b> deb qayta nomlandi.  |
| 1991-yil 25-oktabr  | Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan, Mudofaa ishlari vazirligining huquqiy maqomi, tuzilishi va nizomlari tasdiqlandi. Turkiston harbiy okrugi boshqaruvi organlari negizida <b>Mudofaa ishlari vazirligi Bosh shtabi</b> va boshqarmalari tuzildi.  |
| 1991-yil 25-oktabr  | Vazirlar Mahkamasining 270-sonli Qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi.  |
| 1992-yil 10-yanvar  | O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi " <b>O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligining harbiy qismlari va o'quv muassasalarini O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga olish to'g'risida</b> "gi Qaror qabul qildi.  |
| 1992-yil 14-yanvar  | O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi " <b>O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o'quv muassasalarini to'g'risida</b> "gi qarorni qabul qildi.<br>Ushbu qarorlarga muvofiq, sobiq SSSR Qurolli Kuchlarining respublika hududida joylashgan qismlari, qo'shilmalan, birlashmalari, harbiy o'quv yurtlari, muassasalar.  |

|                    |   |
|--------------------|---|
|                    | tashkilotlari va boshqa harbiy tuzilmalari qonuniy asosda O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasiga olindi.   |
| 1992-yil 23-yanvar | Vazirlar Mahkamasining qarori bilan O'zbekiston Respublikasi <b>Milliy gvardiyasiga</b> asos solindi. Milliy gvardiyaning asosiy vazifasi – O'zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti va hududi yaxlitligini, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini muhofaza qilish deb belgilandi. Milliy gvardiya tarkibi fuqarolarni harbiy xizmatga majburiy va ko'ngilli ravishda chaqirish orqali tashkil etildi. |
| 1992-yil 24-mart   | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan Chegara qo'shinlari bo'linmalari haqida"gi farmon bilan Respublika Milliy Xavfsizlik xizmati tasarrufida <b>Chegara qo'shinlari boshqarmasi</b> tashkil etildi.   |
| 1992-yil 15-may    | Qo'shni Tojikiston va Afg'oniston hududida sodir bo'layotgan voqealar Toshkent shahrida MDH davlatlari o'rtaida <b>Kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi Sharhnomanining imzolanishiga</b> turki bo'ldi. (O'zbekiston 1999-yil 19-apreldan ushbu sharhnomadagi faoliyatini bir tomonlama to'xtatdi).   |
| 1992-yil 18-may    | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan havo desanti qo'shinlari, harbiy transport aviatsiyasi, razvedka qo'shinlari, ta'minot qismlari haqida"gi Farmoniga binoan mamlakatimiz hududida joylashgan mazkur turlardagi qo'shinlar respublika tasarrufiga olindi.   |
| 1992-yil 3-iyul    | O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida"gi, "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi va "Muqobil xizmat to'g'risida"gi Qonunlari qabul qilindi.  |
| 1992-yil 12-noyabr | "O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan havo hujumiga qarshi harbiy qismlar haqida"gi Prezident Farmoniga binoan mamlakatimiz hududida joylashgan mazkur turlardagi qo'shinlar respublika tasarrufiga olindi.   |
| 1992-yil 13-noyabr | "O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan kimyoviy harbiy qismlar haqida"gi Prezident Farmoniga binoan mamlakatimiz hududida joylashgan mazkur turdag'i qo'shinlar respublika tasarrufiga olindi.   |
| 1993-yil 12-fevral | Toshkent elektrotexnika va aloqa institutining maxsus fakulteti tashkil etildi.   |
| 1993-yil 26-aprel  | Respublika Milliy Xavfsizlik xizmati tasarrufidagi <b>Chegara qo'shinlari boshqarmasi</b> O'zbekiston Respublikasi <b>Milliy xavfsizlik xizmatining chegara qo'shinlari Bosh</b>  |

|                    |   |
|--------------------|---|
|                    | <b>boshqarmasiga aylantririldi.</b>   |
| 1993-yil 29-dekabr | O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan qonunga muvofiq <b>14-yanvar</b> – “ <b>Vatan himoyachilari kuni</b> ” deb e'lon qilindi.   |
| 1993-yil           | O'zbekistonda birinchi marta jinoyatchilikning o'sishini to'xtatish, haito uning umumiy sonini 1992-yilga nisbatan 3,9 foizga kamaytirishga erishildi. 1993-yilda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi 1992-yilga nisbatan 8,8 foizga jinoyatlarning og'ir turlari xisoblangan qotillik 0,6 foizga tanga og'ir shikast yetkazish 6 foizga, bosqinchilik 16 foizga, talonchilik 18 foizga, davlat va jamoat mulkini o'g'irlash 35,4 foizga, shaxsiy mulkni o'g'irlash 14,4 foizga kamaytirildi. |
| 1993-yil           | Toshkent shahrida Ichki ishlar vazirligi <b>Yong'in xavfsizligi oliy texnik maktabi</b> tashkil etildi.   |
| 1994-yil 18-mart   | <b>Jizzax aviatsiya oliy harbiy bilim yurti</b> tashkil etildi.   |
| 1994-yil 15-iyul   | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasini tashkil etish to'g'risida”gi qaron e'lon qilindi.  |
| 1994-yil           | O'zbekiston Respublikasi <b>Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi</b> tashkil etildi.  |
| 1994-yil 15-avgust | O'zbekiston Jinoyat politsiyasi xalqaro tashkiloti – <b>Interpolga a'zo bo'ldi</b> .  |
| 1995-yil may       | Davlat va jamiyat xavfsizligini ta'minlash, mamlakat milliy xavfsizlik strategiyasini shakllantirish va uni izchil hayotga tatbiq etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida <b>Milliy xavfsizlik kengashi</b> tuzildi. Milliy xavfsizlik Kengashi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi maslahatlashuv organi hisoblanadi.  |
| 1995-yil 30-avgust | <b>“O'zbekiston Respublikasining Harbiy Doktrinasi to'g'risida”gi</b> Qonun qabul qilindi.  |
| 1995-yil 2-sentabr | O'zbekiston Respublikasi <b>Qurolli Kuchlar Akademiyasi</b> o'z faoliyatini boshladi.   |
| 1996-yil 4-mart    | O'zbekiston Respublikasi <b>Favqulodda Vaziyatlar Vazirligi</b> tuzildi.  |
| 1996-yil 24-aprel  | “ <b>Milliy xavfsizlik to'g'risida</b> ”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.   |
| 1996-yil 9-oktabr  | Prezident Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat, Intizom, Garnizon qorovullik xizmatlari nizomlari tasdiqlandi.<br>Mudofaa vazirining buyrug'i bilan Saf Nizomi harbiy hayotga joriy etildi.   |
| 1997-yil 30-avgust | <b>O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiysi qabul qilindi.</b>  |
| 1999-yil 13-yanvar | Prezident Farmoni bilan chegara qo'shinlari Bosh shtabi   |

|                       |  |
|-----------------------|--|
|                       | negizida O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mita tashkil etildi. Milliy xavfsizlik xizmati tarkibidan chegara qo'shinlari chiqarilib, O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mita tasarrufiga berildi.   |
| 1999-yil 16-fevral    | Qurollangan bir necha terroristlar Toshkent shahrida portlashlarni amalga oshirdilar. Natijada 16 nafar begunoh inson hayotdan ko'z yumi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va qator davlat idoralari va tinch aholining turar-joy binolariga jiddiy shikast yetkazildi.   |
| 1999-yil 12-aprel     | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash Konsepsiysi to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.  |
| 1999-yil 20-avgust    | "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.   |
| 1999-yil avgust       | O'zbekiston Respublikasining Qirg'iziston va Tojikiston bilan tutashgan janubi-sharqiy chegaralarida yana notinch vaziyat yuzaga keldi. Terroristik guruhlar Botken va So'x tumanlari orqali O'zbekistonga suqulib kirishga urindilar.   |
| 1999-yil 15-16-noyabr | Bir necha terroristlar Angren tog' tizmalari orqali respublika ichkarisiga kirishga va bu yerda notinch vaziyatni yuzaga keltirishga urindilar.  |
| 2000-yil 21-aprel     | Toshkentda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston rahbarlari tomonidan "Terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik va mamlakatlarning xavfsizligi va barqarorligiga nisbatan mavjud bo'lgan boshqa tahdidlarga qarshi birqalikdagi xatti-harakatlar to'g'risida"gi Shartnoma imzolandi. Bu XXI asr boshlarida Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik tizimini shakllantirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. |
| 2000-yil 26-may       | O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik himoyasi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.  |
| 2000-yil avgust       | Surxondayro viloyatining Sariosiyo tumani tog'li hududlariga Tojikiston orqali jangarilar guruhi kirib kelgani aniqlandi. Ikki oy davom etgan qidiruv ishlari va o'tkazilgan harbiy operatsiyalar natijasida Sariosiyo va Uzun tumanlari hududiga joylashib olgan jangarilar guruhi yo'q qilindi.  |
| 2000-yil 18-avgust    | Toshkent viloyatining tog'li Bo'stonliq tumaniga jangarilar guruhi bostirib kirganligi aniqlandi. Ichki ishlar vazirligi qo'shinlarining Toshkent maxsus tezkor harakatlar batalyonini harbiylari tomonidan Bo'stonliq va Ohangaron tumanlarining tog'li hududlarida amalga oshirilgan operatsiyalar natijasida 15 nafar jangari yo'q qilinib, katta miqdordagi qurol-aslaha va o'q-dorilar qo'lga kiritildi.  |

|                              |   |
|------------------------------|---|
| 2000-yil 29-sentabr          | O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining <b>Birlashgan shtabi</b> tuzildi.   |
| 2000-yil 15-dekabr           | "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.  |
| 2001-yil 26-yanvar           | "Professional harbiy xizmatchilarni tayyorlashga ixtisoslashtirilgan serjantlar tayyorlash maktablariga asos solish haqida"gi Prezident Farmoni asosida Markaziy va Toshkent harbiy okruglarida, 2001-yili Sharqiy va Janubig'arbiy maxsus harbiy okruglarida, 2007-yilda Shimolig'arbiy harbiy okrugida serjantlar tayyorlash maktablarini tashkil etildi. |
| 2001-yil 11-may              | O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Mudofaa to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.   |
| 2002-yil 12-dekabr           | O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.   |
| 2003-yil 23-may              | Toshkentda <b>Oliy harbiy bojxona instituti</b> tashkil etildi.   |
| 2004-yil<br>28-mart, 1-aprel | Toshkent shahri va Buxoro viloyatida portlashlar sodir etildi. Bu mudhish terrorchilik harakatlari oqibatida 9 nafar ichki ishlari xodimi va 5 nafar fuqaro halok bo'ldi. O'tkazilgan tezkor-qidiruv va tergov harakatlari natijasida bir necha jinoyatchilar qo'lga olindi.  |
| 2004-yil 17-iyun             | Toshkentda Shaxsay Hamkorlik Tashkilotining navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi. Toshkent shahrida " <b>Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi</b> " ochildi.   |
| 2004-yil 30-iyul             | O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi binosi, AQSH va Isroi davlatlarining elchixonalari oldida portlashlar sodir etildi. Ushbu voqealar chog'ida bir necha kishi halok bo'ldi, Bosh prokuratura va elchixonalarga moddiy ziyon yetdi.  |
| 2004-yil sentabr             | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida ichki ishlari idoralarida mutaxassislar tayyorlovini takomillashtirish choralar to'g'risida"gi <b>Qarori</b> qabul qilindi.   |
| 2005-yil 12-13-may           | Andijon shahrida terroristik va diniy-ekstremistik kuchlar o'zlarining navbatdagi jinoyatkorona xatti-harakatlarini amalga oshirdilar. Ushbu voqealar natijasida 180 dan ziyod kishi qurban bo'ldi, ulardan 32 nafari harbiylar va militsiya xodimlari edi.   |
| 2005-yil 14-iyun             | O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzurida <b>Terrorizmga qarshi kurashish korpusi</b> tashkil etildi. U Respublika Qurolli Kuchlarining operativ birlashmasi bo'lib, mamlakat hududida qurolli tahdid, terrorizmning har qanday ko'rinishiga qarshi kurashish vazifalarini samarali hal etish.  |

|                     |  |
|---------------------|--|
|                     | mo'ljalangan.  |
| 2005-yil 31-oktabr  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga asosan Muddatli harbiy xizmatni o'tagan va tegishli tavsiyanoma olgan fuqarolar oliv o'quv yurtlariga o'qishga kirishda test sinovlarda toplash mumkin bo'lgan eng yuqori bo'lgan ballning 25 foizi miqdorida imtiyozli ballga ega bo'lish tizimi joriy qilindi.  |
| 2008-yil 10-iyul    | O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga qarashli Buxoro viloyati Kogon tumanida joylashgan harbiy qismning raketa artilleriya omborida portlash sodir bo'ldi.   |
| 2010-yil 12-yanvar  | Toshkentda " <b>Vatanga qasamyod</b> " monumenti ochildi.  |
| 2010-yil 10-15-iyun | Qирғизистон жаңубидаги Ош ва Жалолобод вилояттарда этнік мажаролар ро'y berdi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra то'qnashuvlarda 2500 dan ortiq o'zbek, shuningdek, rus, tojik, tatar va boshqa millat vakillari halok bo'ldi. Qирғизистонлик 400.000 nafardan ortiq qochoqlar O'zbekiston chegarasidan o'tdi. Qochoqlaming aksariyati o'zbeklar edi. Keyinchalik ular o'z uylariga qaytarildi. |
| 2012-yil 10-iyul    | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq Toshkent tibbiyot akademiyasi huzurida harbiy-tibbiy fakultet tashkil etildi.   |
| 2014-yil 14-may     | O'zbekiston Respublikasining " <b>Hуquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida</b> "gi Qonuni qabul qilindi.  |
| 2016-yil 16-sentabr | Mustaqil O'zbekistonning 25 yillik tarixida ilk bor " <b>Ichki ishlar organlari to'g'risida</b> "gi Qonun qabul qilinib, unda ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari, faoliyatining yo'nalish va tamoyillari belgilab berildi.   |
| 2016-2019-yillar    | O'zbekistondagi qator harbiy shaharchalar zamonaviy qiyofaga ega bo'ldi. 8 mingdan ziyod harbiy xizmatchilar oilalarini qulay va shinam kvartilalar bilan ta'minlash uchun 275 ta ko'p qavatlari uy-joy barpo etildi. Harbiy xizmatchilarning ayollari uchun qariyb 600 ta yangi ish o'rinnari yaratildi. 1 ming 900 nafar harbiy pensioner ishga joylashtirildi.                        |
| 2017-yil 24-yanvar  | "O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarini isloh qilish va yanada rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Prezident Qarori (PQ-2738) qabul qilindi.  |
| 2017-yil 10-aprel   | <b>Ichki ishlar organlari tizimini tubdan isloh qilish kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi (PF-5005).</b> Ichki ishlar vazirligi Tashkiliy-inspektorlik boshqarmasi negizida Tashkiliy-inspektorlik va axborot-tahlil bosh boshqarmasi tashkil etildi.  |
| 2017-yil 12-aprel   | "Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga   |

|                    |   |
|--------------------|---|
|                    | doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2883-son qarori bilan tizimning boshqaruv apparati 70 foizga maqbullashtirib, tuman-shahar ichki ishlar organlarining shtatlar soni to'rt barobarga oshirildi.<br>Ichki ishlar vazirligi to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi.  |
| 2017-yil 20-aprel  | "Ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika inspektorlarini xizmat uy-joyi bilan ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2906-son qarori bilan profilaktika inspektorlariga biriktirilgan xizmat hududlarida ularga xizmat uylari va imtiyozli kreditlar asosida shaxsiy avtomashinalar ajratilish tizimi yo'lga qo'yildi.    |
| 2017-yil 16-avgust | "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3216-son qarori bilan IIV Akademiyasida 7 ta yo'nalishlar bo'yicha o'qitish tizimi va 2 ta ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini yo'lga qo'yildi hamda joylarda 14 ta akademik litseylar joriy etildi. |
| 2018-yil 9-yanvar  | O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi <b>Mudofaa doktrinasi</b> qabul qilindi.  |
| 2018-yil 10-yanvar | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi <b>Xavfsizlik Kengashining</b> ilk bor kengaytirilgan, ochiq, videokonferensiya shaklidagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Qurolli Kuchlarining jangovar holatga shayligi ilgarigi 5 kundan bugungi kunda 3 soatga yetkazilganligi ta'kidlandi.  |
| 2018-yil 14-mart   | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (PF-5379) qabul qilinib, Milliy xavfsizlik xiznati <b>Davlat xavfsizlik xizmati</b> deb qayta nomlandi.   |
| 2018-yil 5-aprel   | "O'zbekiston Respublikasining Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-741) qabul qilindi.   |
| 2018-yil 23-iyun   | Davlat xavfsizlik xizmatining bayrog'i va emblemasi namunalari tasdiqlandi.   |
| 2018-yil 30-iyul   | O'zbekiston Respublikasining " <b>Ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida</b> "gi Qonuni (O'RQ-489) qabul qilindi.   |
| 2018-yil 24-dekabr | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining bayrog'i va emblemasi namunalarini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5602-son farmoni asosida IIVning bayroq va emblemasi tasdiqland.   |
| 2019-yil 9-yanvar  | " <b>Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida</b> "gi Prezident Farmoni (PF-5618) asosida  |

|                    |   |
|--------------------|---|
|                    | <p>“Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiysi” tasdiqlandi. Toshkentda “Xavfsiz shahar”, Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlarda “Xavfsiz turizm”, Parkent tumanida “Xavfsiz dam olish” loyihalari joriy etila boshlandi.</p>      |
| 2019-yil           | Nomigagina faoliyat ko'rsatayotgan “Mahalla posboni” lavozimi tugatilib, uning o'mniga profilaktika inspektorining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchisi lavozimi joriy etildi.   |
| 2019-yil           | Prezident Sh.M.Mirziyoyev topshirig'iga ko'ra “Mehr-1” va “Mehr-2” insonparvarlik aksiyalari o'tkazilib, 261 nafar O'zbekiston fuqarosi Yaqin Sharq va Afg'onistondagi qurolli mojarolar kechayotgan hududlardan o'z vatanlariga qaytarildi.              |
| 2020-yil 10-yanvar | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda SH.Mirziyoyev nutq so'zladi (Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish – dolzarb vazifamizdir).                                  |
| 2020-yil 18-noyabr | “O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.   |
| 2020-yil 8-dekabr  | “Mehr-3” operatsiyasi o'tkazilib, Suriyadan 98 nafar o'zbekistonlik ayollar va bolalar vatanga qaytarildi.  |
| 2021-yil 4-mart    | “Mehr 4” operatsiyasi amalga oshirildi.   |
| 2021-yil 15-aprel  | Milliy gvardiya Harbiy-texnik instituti <b>Jamoat xavfsizligi universiteti</b> etib qayta tashkil etildi (PQ-5077). Universitet IIV, Milliy gvardiya va Qurolli kuchlarning bir qancha yo'nalishlari uchun kadrlar tayyorlaydi.                           |
| 2021-yil 30-aprel  | “Mehr 5” operatsiyasi amalga oshirildi. Xorijiy mamlakatlardagi urush o'choqlaridan 93 ta vatandoshimiz (24 ta ayol, 69 ta bola) O'zbekistonga olib kelindi. “Mehr 1-5” operatsiyalari davomida jami 531 ta vatandoshimiz o'z oilasi bag'riga qaytarildi. |

## 11-MAVZU: MUSTAQILLIK YILLARIDA QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

### Reja:

1. O'zbekiston Respublikasi tarkibida mustaqil Qoraqalpog'iston davlatining barpo etilishi.
2. Qoraqalpog'istonda mustaqillik davri odimlari. Ijtimoiy-iqtisadiy taraqqiyot.
3. Qoraqalpog'iston Respublikasida ta'lif, fan va madaniyat.
4. Orol muammosi.

**Tayanch tushunchalar:** Davlat suvereniteti, Jo'qorg'i Kenges, Vazirlar Kengashi, "Orol va Amudaryoni himoya qilish uyushmasi", "EKOSAN", "Orol qizlari", "Amudaryo". Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi, Trast fond.

### 1. O'zbekiston Respublikasi tarkibida mustaqil Qoraqalpog'iston davlatining barpo etilishi.

Ma'lumki o'tgan asr boshlarida Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-siyosiy hayotida katta o'zgarishlar ro'y berdi. 1925-yil 16-fevralda Turkiston ASSRning Amudaryo viloyati va Xorazm Xlaq Respublikasining Xo'jayli hamda Qo'ng'iroq tumanlari hududida Qozog'iston ASSR tarkibida Qoraqalpog'iston Avtonom viloyati tashkil etiladi. Qoraqalpog'iston 1930-yil 20-iyuldan RSFSR tarkibiga o'tkaziladi. 1936-yil 5-dekabrdan Qoraqalpog'iston O'zbekiston SSR tarkibiga kirish bilan qoraqolpoq xalqining tarixi va taqdiri o'zbek xalqi bilan mushtarak rivojlandi.

1990-yil 14-dekabrdan Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Sovetining IV sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat suvereniteti to'g'risida Deklaratsiya" qabul qilindi. Mazkur Deklaratsiya 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunda o'zining huquqiy asosini topdi. Unda Qoraqalpog'istonning hududiy yaxlitligi va mustaqilligi e'tirof etildi.

1991-yil 11-noyabrda Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Soveti tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasining Prezidenti lovozimi joriy qilinadi. Ushbu lovozimni Davlatboy Shamshetov egalladi.

1992-yil 9-yanvarda Qoraqalpog'iston Respublikasi qayta tashkil etildi. 1992-yil 20-iyunda Qoraqalpog'iston Prezidenti lovozimi o'mida Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi Raisi lovozimi joriy qilindi.

Har ikki respublika o'rta sidagi siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining XVII bob, 70-75-moddalarida o'z aksini topdi. Natijada ikki tomonlarga hurmat asosida qoraqolpoq xalqining o'z taqdirini o'zi belgilash, mustaqil taraqqiyot hamda milliy davlatchilikni mustahkamlashdagi roli oshdi. Kelajakka qat'iy ishonch bilan qaraydigan, olis istiqbolni yaratishning kafolatini beradigan huquqiy maqomga ega bo'ldi.

Konstitutsiyamizning 21-moddasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarosi ayni paytda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi. Bu qoraqalpoq xalqiga O'zbekiston xalqlarining barcha huquqlaridan foydalanish imkonini beradi. Ulaming haq-huquqlari va erkinliklarni kafolatlaydi. Qoraqalpog'iston Respublikasi taraqqiyoti uchun qator huquqiy imkoniyatlar yaratildi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy vakilligi mayjud. O'zbekiston Konstitutsiyasining 86-moddasida mustahkamlab qo'yilganidek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining o'rinnbosarlaridan biri Qoraqalpog'iston Respublikasining vakili bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumati rahbari lavozimi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi. 107-moddaga binoan esa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasining xuddi shunday sud organlarining rahbarlari kiradi. Sud hujjatlari o'zbek tili bilan birga qoraqalpoq tilida ham olib boniladi (115-modda).

Konstitutsyaning 71-moddasida belgilab qo'yilganidek, Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z Konstitutsiyasiga ega bo'lmos'h i kerak. Ana shu huquqiy asosga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashi o'zining XII sessiyasida 1993-yil 9-aprelda Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hech qanday mone'lik qilmaydi, aksincha, uni bosh huquqiy asos sifatida biladi va Qoraqalpog'iston hududida to'la amal qilishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari Qoraqalpog'istonning butun hududida majburiy ekanligi e'tirof etilgan.

Qoraqalpoq milliy davlatchiligi o'z taraqqiyoti tarixida birinchi marta ana shunday insonparvar,adolatl, demokratik imtiyozlarga ega bo'ldi. Ayni paytda u suveren respublikaning barcha davlat ramzlariga ega. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 14-dekabrda bo'lib o'tgan XI sessiyasida Qoraqalpog'iston Davlat bayrog'i, 1993-yil 9-aprelda bo'lib o'tgan XII sessiyasida Davlat tamg'asi, 1993-yil 4-dekabrda bo'lib o'tgan XIV sessiyasida esa Davlat madhiysi tasdiqlandi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan 1994-yil 25-dekabrda Oliy Kengashning 75 deputatdan iborat yangi tarkibi muqobililik asosida saylandi. Respublika parlamenti Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deb ataldi. Jo'qorg'i Kengesning 1995-yil 11-yanvarda Nukus shahrida bo'lib o'tgan birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida Jo'qorg'i Kenges Raisi, uning o'rinnbosarlari, mandat komissiyasi, 8 ta qo'mita raislari va uning a'zolari saylandi. Ayni paytda deputatlar qo'mitalar raislari rahbarligida respublika qonunchilik tizimini yaratishda faol ishtirok etmoqdalar.

Xususan, demokratik jamiyat qurish, erkin bozor munosabatlarini shakllantirishga mo'ljalangan muhim qonun va qarorlar qabul qilindi. Jo'qorg'i Kenges Raisi qoshida doimiy harakatdagi Kengash tashkil qilingan bo'lib, uning

tarkibiga Jo‘qorg‘i Kenges Raisi, rais o‘rinbosarlari, Vazirlar Kengashi raisi, mandat komissiyasi va qo‘mitalar raislari kiradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijroiya hokimiyat organi Vazirlar Kengashi hisoblanadi. Uning tarkibiga rais, ikkita birinchi o‘rinbosar va 4 ta tarmoq o‘rinbosarlari kiradi. Shuningdek, ijroiya hokimiyat tarkibiga vazirliklar va qator tarmoq qo‘mitalari rahbarlari ham kiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Toshkent shahrida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida o‘zining ish olib boruvchi doimiy vakiliga ega.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan qator jamoat tashkilotlari bu yerda demokratik jarayonlarning tobora qaror topayotganidan dalolat beradi. Ayni paytda respublika hududida hukumatga qarashli bo‘limgan qator tashkilotlar, jumladan, “Orol va Amudaryoni himoya qilish uyushmasi”, “EKOSAN”, “Aral-808”, “Sog‘lom avlod uchun” singari bir qator xalqaro tashkilotlarning bo‘limlari ish olib bormoqda.

## **2. Qoraqalpog‘istonda mustaqillik davri odimlari. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot.**

O‘zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ko‘p millatlil Qoraqalpog‘iston xalqining, ana shu mo‘tabar yurt kishilarining ham munosib hissasi bor.

Sanoatida ishlov beruvchi va xom ashyo yetkazib beruvchi tarmoqlar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: elektroenergetika: yoqilg‘i sanoati; kimyo va neft kimyosi; mashinasozlik va metallsozlik; o‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz; unyorma va aralash yem; poligrafiya sanoatlari.

Taxiatosh issiqqlik elektr stansiyasi respublika va qo‘sni viloyatlarning elektr energiyasiga bo‘lgan talabini qondiradi (stansianing o‘rtacha yillik quvvati 443,4 MVt).

1993-yilda “Nukuskabel” ishga tushirilishi bilan kabel sanoati vujudga keldi. Mustaqillik yillarda Qo‘ng‘irot un zavodi (1993), “To‘rtko‘ldon” (1997), kichik novvoxonalar va makaron ishlab chiqarish korxonalarini bunyod etildi.

1996-yilda Qo‘ng‘irot tumanida “Ustyurtgaz” korxonasingning ishga tushirilishi bilan yoqilg‘i sanoati vujudga keldi. 2004-yilda respublika bo‘yicha 1697,1 mln. m<sup>3</sup> gaz va 30,4 ming t kondensat yetkazib berildi.

Yirik sanoat korxonalarini Amudaryo tumanida (paxta zavodi va ip yigiruv va to‘qimachilik fabrikasi), Beruniy tumanida (paxta, yog‘moy zavodlari, to‘qimachilik korxonasi), Qo‘ng‘irot tumanida (paxta, unyorma zavodlari, “Ustyurtgaz”), To‘rtko‘l tumanida (paxta un tortish zavodlari), Xo‘jayli tumanida (paxta, yog‘moy, ta‘mirlashmexanika va g‘isht zavodlari), Chimboy tumanida (paxta, yog‘moy, unyorma zavodlari), Ellikqal‘a tumanida (paxta zavodi, “Elteks” aksionerlik jamiyati va “Yuniver” qo‘sma korxonasi), shuningdek, Nukus shahrida (vino zavodi, poligrafiya kombinati, “Kateks”, “Nukus non”, “Daunt” korxonalarini, unyorma zavodi, 2 ta qurilish sanoati korxonasi) va Taxiatosh shahrida (ta‘mirtashmexanika va un-yorma zavodlari) faoliyat ko‘rsatadi.

Respublikada benzin, kerosin, dizel yonilg‘isi, ohaktosh, qoplama materiallar, yig‘ma temirbeton buyumlari, mebel, ip tolasi, paxta, tikkuvchilik mahsulotlari,

to'qimachilik galantereyasi, o'simlik moyi, go'sht va go'sht mahsulotlari, non, qandolatchilik va makaron mahsulotlari, un, yorma va boshqa ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Qoraqalpog'istoniga berilayotgan moliyaviy yordam miqdori ham o'sib bormoqda. Bugungi kunda O'zbekiston markazi byudjetidan Qoraqalpog'istoniga berilayotgan subvensiya, ya'ni moliyaviy yordam miqdori 9 mlrd.dan oshiq so'mni yoki butun Qoraqalpog'iston byudjeti xarajatlarining 75 foizini tashkil etmoqda. O'zbekiston hukumatining amaliy yordami hamda qoraqalpoq xalqining fidoiy mehnati tufayli keyingi yillarda Qoraqalpog'istonda aholi turmush sharoitini yaxshilash, tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish borasida qator ijobiy natijalarga erishildi. Eng avvalo, elda tinchlik va barqarorlik mustahkamlandi. Hamjihatlik bilan yurt istiqboli yo'lida mehnat qilishga sharoit yaratildi.

Yengil sanoat ishlab chiqarishining bazasi kengaya bordi. 1993-yilda Nukus shahrida "Kateks" to'qimachilik majmuasi, 1995-yilda Ellikqal'a tumanida ham "Elteks" nomli xuddi shunday to'qimachilik majmuasi foydalanishga topshirildi.

Nukus va Qo'ng'irot un kombinatlari, To'rtko'lda 3 million shartli banka konserva mahsulotlari ishlab chiqaradigan zavod, Ellikqal'a tumanida esa shunday quvvatga ega bo'lган konserva sexi foydalanishga topshirildi.

1995-yilda Qo'ng'irot tumanida Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan, yiliga 190 ming tonna kalsiyli soda ishlab chiqaradigan zavod qurilishi boshlandi. Zavod tarkibida kimyoviy yo'l bilan ekologik toza va energiya sarflanmaydigan kaustik soda ishlab chiqarish ham ko'zda tutilgan.

2016-yildan jahon neft-gaz sohasidagi eng yirik loyihalardan biri bo'lgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasi ishga tushdi. 2012-yilda Project Finance International xalqaro nashri mazkur loyihani neft-kimyo sektoridagi yilning eng muvaffaqiyatli loyihasi deb e'tirof etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga rahbarlik qilayotgan yillarda ham Qoraqalpog'istoning iqtisodiy salohiyatini ko'ratishtirish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan: 2017-yil Moliya vazirligi huzurida Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi tuzildi, 2017-yil 2-fevralda "O'zbekiston Respublikasining neft va gazga boy Ustyurt mintaqasida geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" (PQ-2755), 2017-yil 13-iyunda esa "Nukus shahrida elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish to'g'risida" Prezident Qarorlari (PQ-3055) qabul qilindi.

2018-yil 16-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazi tashkil etildi (PQ-3975). 2019-yil 29-iyunda "O'zRning Ustyurt mintaqasidagi Jel konini Mahsulot taqsimotiga oid bitim shartlari asosida o'zlashtirish to'g'risida" Prezident qarori (PQ-4376) e'lon qilindi. Shu yili 4-sentabrda esa Prezidentimiz Farmoni bilan "Nukus" erkin iqtisodiy zonasini tashkil etildi (PF-5809).

2019-yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra Respublikaning yillik YAMM o'sishi 6,8 % ni tashkil qilgan. Jumladan, qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliq xo'jaliklarda 106,7%, sanoatda 105,0%, qurilish sohasida 123,8%, xizmatlar sohasida 104,9% o'sish kuzatilgan.

Qoraqalpog'istonda mehnatga layoqatli aholining asosiy qismi qishloqda istiqomat qiladi. Qishloq xo'jaligi asosan, paxtachilik, g'allachilik (sholi va bug'doy yetishtirish) va chovachilik (go'sht, sut, qorako'lchilik)dan iborat. Qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti hajmida paxta 22,4%, g'alla ekinlari 22,1%, chovva mahsulotlari 36,4% ni tashkil etadi.

Chovachilik, asosan, go'sht-sut yetishtirishga ixtisoslashgan. 2005-yilda barcha toifadagi xo'jaliklarda 437,7 ming qoramol, 539,9 ming qo'y va echki, 844,7 ming parranda, 15,8 ming ot boqildi.

Mustaqillik yillarda boshqa sohalar qatorida agrar sektorda ham iqtisodiy qayta qurish, bozor munosabatlarga o'tish ro'y berdi. Qishloq xo'jaligi respublika iqtisodiyotining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. 1997-yil boshlarida respublikada 263 ta qishloq xo'jalik korxonasi faoliyat ko'rsatdi. Nodavlat sektorining jami ishlab chiqarilgan mahsulotdagi ulushi 98,3 foizni tashkil etdi.

Qoraqalpog'istonda dehqon-fermer xo'jaliklari tashkil etish bo'yicha birmuncha tajriba to'plandi. Masalan, Ellikqal'a tumanida dehqonlarga yer, ishlab chiqarish vositalari va yetishtirilgan mahsulotlarga egalik qilish imkonini berish maqsadida mavjud 14 ta jamoa xo'jaliklari dehqon-fermer xo'jaliklari uyushmasiga aylantirildi. Dehqonlarga meros qilib qoldirish huquqi bilan yerlar uzoq muddatga ijara berildi. O'zbekiston hukumati ana shu tajribani ma'qullab, uni boshqa viloyatlarda ham ommalashtirishni tavsiya etishga qaratilgan maxsus qaror qabul qildi. Xo'jalik yuritishning bu yangi usuli boshqa viloyatlarda yaxshi natija berdi. Lekin Qoraqalpog'istonning o'zida ana shu tajribani ommalashtirishga yetarli e'tibor berilmadi. Oqibatda respublika qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmida dehqon-fermer xo'jaliklarining hissasi kam bo'ldi. Buning asosiy sabablari fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar yaxshi ishlamadi, bo'rdoqichilik bazasi sust rivojlandi, zotdor hayvonlarni ko'paytirishga e'tibor berilmadi, xo'jaliklar moddiy-texnika va pul mablag'lari bilan yetarli darajada ta'minlanmadni, agrotexnik va zooveterinariya xizmati ko'rsatish to'g'ri tashkil etilmadi.

Keyingi 6 yil ichida investitsiya faoliyatida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Kapital qurilishda korxonalarining mablag'lari hisobidagi qurilishlar hajmi ko'payib, byudjet mablag'ining hissasi kamaydi.

2019-yil 7-noyabrda "Qoraqalpog'iston Respublikasida chovachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" (PQ-4512), 2020-yil 3-iyulda esa "Qoraqalpog'iston Respublikasida chovachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari (PQ-4776) qabul qilindi.

Respublikada istiqlol yillarda tashqi iqtisodiy aloqalarga ham katta e'tibor berildi. 1996-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdodagi asosiy sheriklarining hissasi quyidagicha bo'ldi: Rossiya - 11,4 foiz, AQSH - 14,1 foiz, Janubiy Koreya - 11,1 foiz, Shveysariya - 9,4 foiz, Niderlandiya - 7,2 foiz.

Xorijiy mamlakatlarga asosan paxta tolasi, toladan olingan mahsulotlar, qayta ishlangan neft mahsulotlari sotildi. Paxta tolasi jami eksport mahsulotlarining 95 foizini tashkil etdi.

Mustaqillik yillarda respublikada ijtimoiy sohalar rivojlanishiga e'tibor kuchaydi. Respublikada 70 ta tibbiy muassasa (9485 o'rin), 246 ambulatoriya poliklinika muassasasi, ularning tarkibida 20 qishloq uchastka vrachlik punkti, 6 shahar va mahalla vrachlik punkti, tuman markaziy poliklinika, 20 respublika va shahar hamda kasalxonalar bn birlashgan 20 poliklinika. 3 bolalar poliklinikasi, 2 respublika muassasalariga qarashli poliklinika bor. 1991-2005-yillarda 61 qishloq vrachlik punkti, Nukus shahrida Respublika akusherlik va ginekologiya institutining filiali, 2 poliklinika (100 bemorni qabul qilishga mo'ljallangan) qurildi.

Aholiga O'zbekiston Respublikasi shoshilinch tibbiy yordam markazining Nukus shahridagi filiali, shuningdek, 14 tuman markaziy kasalxonasi va Taxiatosh shahri kasalxonasi qoshidagi tez tibbiy yordam bo'limlari xizmat ko'rsatadi. Nukus shahrida 2 ta shahar poliklinikasi "oilaviy poliklinika" sifatida faoliyat yuritadi. Nukus shahrida 1998-yildan Skrining markazi, 2003-yildan esa bir smenada 100 o'smirmi qabul qilishga mo'ljallangan respublika o'smirlar markazi ishlab turibdi. Respublikada Toshkent pediatriya intining filiali, 4 tibbiyot kolleji mavjud. 9 ta sanatoriy-profilaktoriy (1200 o'rin) faoliyat ko'rsatadi.

Respublika tibbiyoti erishgan natijalardan eng muhimi - onalar o'limi soni kamaydi. "Homilador ayollarni va bolalar salomatligini mustahkamlash bo'yicha milliy dastur" hamda "Yosh avlodni sog'lomlashtirish kompleks dasturi" ning ishlab chiqilganligi va amalga oshirilganligi natijasida 1996-yilda onalar o'limi 1991-yildagiga nisbatan 4,4 marta, chaqaloqlar o'limi esa 1,8 martaga kamaydi. Homilador ayollarning 56 foizi statsionarlarda tug'ishgacha bo'lgan davolanishdan o'tkazildi.

Respublikada jarrohlik, maxsus davolash ambulatoriya markazlari tashkil topdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-yanvarda 2017-2021-yillarda Orolbo'y mintaqasini rivojlantirish Davlat dasturi qabul qilindi.

Moliya vazirligi huzuridagi Orolbo'y mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 2018-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi jami 224 ta (umumiyy qiymati – 149,3 mldr. so'm) obyektda qurilish, rekonstruksiya, kapital ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari olib borildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 20-avgust kuni Qoraqalpog'istonda bo'ldi. Prezidentning o'tgan yilgi tashrifi davomida berilgan ko'rsatmalar asosida hukumatning Mo'ynoq tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi qabul qilindigan. 2020-yilda "Mo'ynoq porloq teks" mas'uliyati cheklangan jamiyat tomonidan tikuvchilik korxonasi ishga tushirildi. 350 ta ish o'mi yaratildi.

### 3. Qoraqalpog'iston Respublikasida ta'lim, fan va madaniyat.

Hozirgi paytda respublikada 763 ta umumta'lim maktabi, 405 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 91 maktabdan tashqari ta'lim muassasasi (shundan 28 tasi bolalar sport maktabi) faoliyat ko'rsatmoqda.

Istiqlol yillarda Respublikada oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashga ham alohida e'tibor qaratildi. Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat Universitetida bugungi kunda 33 ta mutaxassislik bo'yicha bakalavrilar, 15 ta mutaxassislik bo'yicha esa magistrlar tayyorlanmoqda. O'ziga xos tarixga ega bo'lgan Ajiniyoz nomli Nukus Davlat pedagogika institutida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlanmoqda. O'lkada sog'liqni saqlash sohasidagi kadrlarni tayyorlash borasida ham muayyan ijobiy

o'zgarishlar yuz berdi. Respublika sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiyot xodimlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida 1991-yilda Nukusda Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining Qoraqalpog'iston filiali tashkil etildi. Bugungi kunda Respublikada Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent davlat agrar universiteti va San'atshunoslik institutlarining Nukus filiallari ham faoliyat yuritmoqda.

Istiqlol yillarda fan sohasida ham sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. 1992-yilda O'zbekiston Respublika Fanlar Akademiyasining Qoraqalpoq filialiga O'zbekiston Respublikasi FAning Qoraqalpoq bo'limi maqomi berildi. Uning tarkibida ilgari 3 ta institut mavjud bo'lga bo'lsa, yana ikkita institut qo'shildi. "Tarix, arxeologiya va etnografiya" hamda "Bioekologiya" institutlari ham shu bo'lim tarkibiga kirdi. Botanika bog'i bo'linmasiga esa bo'lim maqomi berildi. 1994-yilda esa Fanlar Akademiyasi tarkibiga O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli tajriba instituti va tibbiyot klinikasi ham kiritildi.

Qoraqalpoq tilida erishilgan yutuqlar hamda to'rt jildlik "Qoraqalpoq tilining izohli lug'ati"ni yaratishdagi xizmatlari uchun Fanlar Akademiyasining 4 nafer ilmiy xodimi (M.Qalandarov, R.Yesemuratova, T.To'raboyev, D.Qozoqboyev) 1996-yilda O'zbekiston Respublikasining Beruniy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandilar.

Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi va Vazirlar Kengashining "Erkin Qoraqalpog'iston", "Qoraqalpog'iston xabarları" gazetaları, yozuvchilar uyushmasining "Amudaryo" jurnali, "Respublika Fanlar Akademiyasining Qoraqalpoq bo'limi xabarları" ilgarigidek muntazam chiqarilmoqda. 1991-yildan respubikada hukumatga qarashli bo'limgan "Orol qizlan" jumali chop etila boshladi.

Istiqlol yillarda Nukus shahrining 60 yilligi, To'rtko'l shahrining 120 yilligi, Ajiniyoz Qosiboy o'g'lining 170 yilligi keng nishonlandi.

#### 4. Orol muammosi.

Ma'lumki, o'tgan asming 50-60-yillariga qadar Orol dengizi kattaligi jihatidan dunyoda to'rtinchı dengiz hisoblanar edi. Sovet davrida paxta yakkahokimligi tufayli suv resurslaridan nooqilona foydalanimishi, Amudaryo va Sirdaryo o'zanlariga suv omborlarining qurilishi va asosiy suv oqimining ekin maydonlariga sarflanishi tufayi 70-80-yillardan boshlab dengizning hududi keskin ravishda qisqarib keta boshladi. Shu tariqa ilmiy adabiyotlarda "Orol muammosi" atamasasi paydo bo'ldi. Orolning qurish tufayli mintaqaga flora va faunasini inqirozga uchrab, iqlim va atmosfera havosining buzilishi tufayli ekologik halokat yuzaga keldi. Hozirgi vaqtida Orol fojiasi tufayli 5,5 million getkardan ortiq maydonda Orolqum sahrosi paydo bo'ldi. Har yili 100 million tonna qum va tuz havoga ko'tarilmoqda. Bu esa Orol halokati global muammo ekanini yana bir bor isbotlamoqda.

1993-yil mart oyida Qizil O'rinda Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining Rossiya davlat delegatsiyasi ishtirokida anjuman bo'lib o'tdi va unda **Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi** ta'sis etildi.

Orolni qutqarish masalasiga mintaqadagi davatlardan O'zbekiston ayniqsa faol bo'ldi. Jumladan, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ikki marta (1993, 1995-yillarda) va hozirgi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevlarning ham ikki marta

(2017, 2020) BMT Bosh Assambleyasidagi nutqida xalqaro hamjamiyat diqqat-e'tiborini ushbu masalaga qaratdilar.

O'zbekiston tashabbusi bilan 2018-yilda BMTning Orolbo'yı mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida "Trast fondi"ning tuzilishi, o'zbek diplomatiyasining katta yutug'i bo'ldi.

Hozirda Orol dengizining suvsiz qolgan hududida yashil o'rmonlar barpo etishga alohida e'tibor berilmoqda. Agar mustaqillik yillarda O'zbekiston bo'yicha 1 million 220 ming gektarga yaqin o'rmonzor yaratilgan bo'lsa, shundan 400 ming gektardan ortig'i aynan Orolbo'yı hududida barpo etilgan.

Bu masalada qabul qilinayotgan maxsus dasturga ko'ra, Orol dengizining suvsiz hududida 2019-yilda yana 500 ming gektar o'rmonzor barpo etildi.

Aholining hayot sharoitini yaxshilash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va qishloqlarida yangi qunlislari amalga oshirildi. Xususan, 2018-yilda Mo'ynoq tumanida barcha zarur infratuzilmalarga ega bo'lgan zamonaviy shaharcha buniyod etildi.

Orolni qutqarish muammosi doim mamlakatimiz Prezidentlarining diqqat markazida bo'lib keldi. Jumladan 2020-yil 23-sentabr kuni Prezidentimiz SH.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 75 yillik videokonferensiyasida nutq so'zlab, dunyo jamoatchiligi diqqat-e'tiborini yana bir bor ushbu muammoga qaratdi.

Prezidentimiz o'z ma'rurasida Orolbo'yı mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasini qabul qilishni taklif etdi. Shuningdek, ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani esa Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni sifatida nishonlash maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlab o'tdi. Prezidentimizning ushbu muhim tashabbusi 2021-yil 18-may kuni BMT Bosh Assambleysi tomonidan bir ovozdan ma'qullandi.

#### Mavzuning asosiy tushunchalari:

**JO'QORG'I KENGES** – Qoraqalpog'iston Respublikasining bir palatali qonun chiqaruvchi organi nomi. Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi hududi saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan 75 nafar deputatdan iborat. Jo'qorg'i Kenges o'z faoliyatini bir yilda kamida bir marta chaqiriladigan sessiyalar ko'rinishida olib boradi.

**SAVITSKIY MUZEYI** - Qoraqalpog'iston poytaxti Nukus shaahrida joylashgan Davlat san'at muzeyi. Grafik rassom, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Qoraqalpog'iston xalq rassomi Igor Vitaliyevich Savitskiy (1915-1984) tashabbusi bilan 1966-yilda tashkil etilgan. Bugungi kunda muzey fondi 90 mingdan ortiq eksponatlardan tashkil topgan. "Sahro marvaridi" deb nom olgan ushbu muzey 2003-yilda zamonaviy jihozlangan yangi binoga ko'chirilgan. Mazkur muzey o'plab xorijiy turistlarni o'ziga jalb etadigan O'zbekistonning eng yirik muzeylardan biri hisoblanadi.

**TRAST FOND** – Orolbo'yı mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'psheriklik asosida tuzilgan fond. 2018-yil noyabrdha BMT shafeligidagi tashkil

etildi. Fondni tashkil etish tashabbusi esa O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surildi.

O'zbekiston trast fondi doirasida amalga oshirish uchun 60 mln dollarga yaqin mablag'dagi 19 ta loyihani tayyorladi. Ularning bir qismi Orol dengizining qurigani tubida o'rmonzorlarni barpo etishga yo'naltirish belgilandi.

2019-yil yanvar oyida O'zbekiston hukumati fondga 6,5 mln dollarlik birinchi transhni o'tkazdi. Norvegiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya va Shveysariya hukumatlari bilan mablag' ajratish to'g'risida kelishuvlarga erishildi. Fond besh yil davomida 2 mln.dan ziyod kishi istiqomat qilayotgan hududda yangi ish o'rinalini ochish, ijtimoiy va tabiiy sharoitlarni yaxshilash uchun 123,2 mln dollar jalb qilishni rejalashtirilgan.

**EKOSAN** – notijorat, nodavlat (nohukumat) tashkiloti. Ekologiya va salomatlik xalqaro jamg'armasining 1992-yili ta'sischilar konferensiyasida tashkil qilingan. Jamg'arma 14 mintaqaviy va 200 tuman (shahar) bo'limlariga ega. Korxona, tashkilot va o'quv muassasalarida qariyb 2,5 mln. jamg'arma faollari mavjud. Bir qator xorijiy mamlakatlarda (AQSH, Germaniya, Yaponiya, Pokiston, Shvetsariya, MDH mamlakatlari) jamg'arma bo'limlari tuzilgan.

"EKOSAN"ning asosiy vazifalari ekologik muammolarni har tomonlama o'rGANISH, bu borada ilmiy konsepsiya ishlab chiqishga va shu maqsadda barcha kuchlarni birlashtirishga ko'maklashish, ekologik madaniyat, ekologik tafakkumi tarbiyalash, aholini atrof-muhit to'g'risida xabardor qilish, buning uchun xalqaro uchrashuvlar, ko'rgazmalar, ekologik masalalar bo'yicha turli xalqaro tashkilotlar, kompaniyalar bilan aloqa o'matib ish olib borishdir. Jumladan, BMT, YEXHT, YUNISEF, Xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti, YUNESKO va boshqa tashkilotlar bilan EKOSAN yaqin hamkorlikni yo'lga qoysan.

Ushbu jamg'arma har yili "EKOSAN salomatlik poyezdi" tashkil qilinishi munosabati bilan, ekologik jihatdan og'ir ahvoldagi hududlarda 200 mingga yaqin kishiga malakali tibbiy yordam ko'rsatilmoqda, insonparvarlik yuklari yetkazib berilmuoqda. Har yili "Ekologiya va salomatlik kunlari" o'tkazilmoqda. "ASPERA" nomli tashkilot bilan hamkorlikda "Orol atrofida yashovchi onalar va bolalar"ga ekologik hamda mintaqaviy yordam berilmuoqda.

#### Mavzuga oid muhim sanalar:

|                          |   |
|--------------------------|---|
| 1924-yil                 | Qozog'iston ASSR tarkibida <b>Qoraqalpog'iston muxtor (avtonom) viloyati</b> tashkil qilindi. Viloyat 4 ta okrug (To'rtkul, Chimboy, Xo'jayli, Qo'ng'iroq) va volostlarga bo'lindi.   |
| 1925-yil<br>12-19-fevral | To'rtkul shahrida bo'lib o'tgan Muxtor viloyai Sho'rolarining 1-ta'sis quriloyida Qoraqalpog'istonning Qozog'iston ASSR tarkibiga kirganligi qonuniylashtirildi. Bu davrda aholining 38,5 % qoraqalpoqlar, 28,7 % o'zbeklar, 28,6 % qozoqlar, 1 % ga yaqini shaharlarda yashovchi ruslardan iborat edi. |

|                    |  |
|--------------------|--|
| 1932-yil 5-mart    | Qoraqalpog'iston viloyat Ijroiya Qo'mitasining IV-plenumi RSFSR tarkibidagi <b>Muxtor Sho'ro Sotsialistik Respublikasiga aylantish to'g'risida Qaror chiqardi.</b>   |
| 1932-yil 20-mart   | Butunittifoq MIK Prezidiumi Qoraqalpog'istonni Muxtor Sho'ro Sotsialistik Respublikaga aylantirib, RSFSR tarkibiga kiritdi.  |
| 1936-yil may       | Yangi tayyorlangan SSSR Konstitutsiyasida Qoraqalpog'iston ASSRni O'zSSR tarkibiga kiritish ko'zda tutilgan edi.   |
| 1936-yil 5-dekabr  | Butunittifoq Sho'rolarining VIII-quriltoyida SSSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi.   |
| 1937-yil 12-fevral | Yangi qabul qilingan O'zSSR Konstitutsiyasiga ko'ra Qoraqalpog'iston ASSR O'zSSR tarkibiga kiritildi.  |
| 1990-yil sentabr   | <b>Nukus davlat pedagogika instituti</b> qayta tashkil etildi.   |
| 1990-yil 5-oktabr  | Nukus shahrida "Orol tangligi: uning sabablari va hal qilish yo'llari" mavzuida xalqaro simpozium bo'lib o'tdi.  |
| 1990-yil 14-dekabr | Qoraqalpog'iston ASSR Oliy Soveti 4-sessiyasida " <b>O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat suvereniteti to'g'risida Deklaratsiya</b> " qabul qilindi.  |
| 1990-yil           | Qoraqalpoq Davlat qo'g'irchoq teatri tashkil topdi.  |
| 1991-yil 1-oktabr  | Nukusda Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Qoraqalpog'iston filiali ochildi.   |
| 1991-yil           | Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq tumanida <b>Sudochiye davlat ornitologiya buyurtma qo'riqxonasi</b> tashkil etildi.  |
| 1991-yil 11-noyabr | Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Soveti tomonidan <b>Qoraqalpog'iston Respublikasining Prezidenti lovozimi joriy qilinadi</b> . Ushbu lavozimni <b>Davlatboy Shamshetov</b> egalladi. Ammo bu lavozim 1992-yil 20-iyunda tugatilib uning o'mida Qoraqalpog'iston Oliy Kengashi Raisi lavozimi joriy qilindi.   |
| 1991-yil dekabr    | Qoraqalpog'istonda hukumatga qarashli bo'limgan " <b>Orol qizlari</b> " jurnali chop etila boshlandi.  |
| 1992-yil 9-yanvar  | Qoraqalpog'iston Respublikasining O'zbekiston Respublikasi tarkibida suveren respublika bo'lishi Nukus shahrida bo'lib o'tgan Oliy Kengash sessiyasida qonun yo'li bilan mustahkamlandi.<br>Maydoni – 166.600 km.kv. Aholisi 1 mln. 700 ming kishi.<br>16 ta qishloq tumani, 12 ta shahar, 18 ta shaharcha, 124 ta qishloq fuqarodlar yig'ini bor. Poytaxti Nukus shahri.<br>Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raislari:<br>Ubbiniyaz Ashurbekov (1992-1997)<br>Temur Kamolovich Kamolov (1997-2002) |

|                       |  |
|-----------------------|--|
|                       | Musa Tajetdinovich Yerniyazov (2002-2020)<br>Murat Qallibekovich Kamolov (2020-)   |
| 1992-yil 26-yanvar    | Qoraqalpoq davlat universitetiga <b>Berdaq</b> nomi berildi  |
| 1992-yil avgust       | I.A.Karimov tashabbusi bilan Nukusda Orol muommosiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazildi.  |
| 1992-yil 2-sentabr    | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi tabiyi ofatlarni bartaraf etish va ekologik muommolarni yechishni jadallashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qildi.  |
| 1992-yil 12-dekabr    | Nukus sharining 60 yilligi nishonlandi.  |
| 1992-yil 14-dekabr    | O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning 11-sessiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasining <b>Davlat bayrog'i</b> tasdiqlandi.   |
| 1992-yil              | O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston filialiga O'zR FA <b>Qoraqalpoq bo'limi</b> maqomi berildi. Uning tarkibida 2 ta institut bo'lgan bo'lsa, yana 2 ta – "Tarix, arxeologiya va etnologiya" va "Bioekologiya" institutlari ochildi.  |
| 1992-2003-yil         | Tuyamo'yun suv omboridan Qoraqalpog'iston Respublikasi aholi punktlariga 4 ming km.dan ortiq vodoprovod tarmog'i olib kelindi. Aholini toza suv bilan ta'minlash darajasi 66,2 % ga yetdi. 19,6 km kanalizatsiya va 5 000 ming km.dan ortiq gaz tarmoqlari yotqizildi. Aholini gaz bilan ta'minlash 91,7 % ni (shaharlarda 99,4 %, qishloqlarda 77,3 %) tashkil qildi. |
| 1993-yil 3-yanvar     | Toshkentda Markaziy Osiyo davlat boshliqlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda <b>Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi</b> tashkil etildi.   |
| 1993-yil 25-28-yanvar | Toshkentda Qoraqalpog'iston madaniyati kunlari bo'lib o'tdi.   |
| 1993-yil 30-mart      | O'rta Osiyo va Rossiya davlat boshliqlarining Qizil O'rda uchrashuvi. "Orol muommosi bo'yicha" birgalikda harakatlar bitimi tuzildi. Orolni qutqarish jamgarmasiga bir yilga N.Nazarboev Prezidentlik qildi.   |
| 1993-yil 9-aprel      | Oliy Kengashning 12-sessiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasi <b>Konstitutsiyasi</b> va <b>Davlat gerbi</b> qabul qilindi.   |
| 1993-yil may          | Nukusda Turkiya "YAZEKS" korporatsiyasi hamkorligida "KATEKS" to'qimachilik majmuasi ishga tushirildi.   |
| 1993-yil avgust       | Nukusda Orol muommolari bo'yicha Davlatlararo Kengash va Orolni qutqarish xalqaro jamgarmasining majlisi bo'lib o'tdi.   |
| 1993-yil 23-noyabr    | Qoraqalpog'istonning birinchi poytaxti – To'rtkul shahrining 120 yilligiga bag'ishlangan tantanalar bo'lib   |

|                        |  |
|------------------------|--|
|                        | o'tdi.   |
| 1993-yil noyabr        | Qoraqalpog'iston Respublikasida Toshkent madaniyati kunlari bo'lib o'tdi   |
| 1993-yil 4-dekabr      | Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining 14-sessiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasi <b>Davlat madhiyasi</b> qabul qilindi.  |
| 1993-2003-yil          | Qoraqalpog'iston Respublikasida aholining tabiiy gaz bilan ta'minlanganlik darajasi 59 % dan 91,7 % ga, toza ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi 52 % gan 66,2 % yetkazildi.                 |
| 1994-yil 11-yanvar     | Nukus shahrida Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Orol muommosiga bag'ishlangan uchrushuvi bo'lib o'tdi.   |
| 1994-yil 14-yanvar     | Nukusda buyuk alloma <b>Abu Rayxon Beruniy tavalludining 1020 yilligiga</b> bag'ishlangan ilmiy-nazariy konferensiya bo'lib o'tdi.   |
| 1994-yil 11-fevral     | Nukusda Orol muommosiga bag'ishlangan xalqaro anjuman bo'lib o'tdi.  |
| 1994-yil aprel         | Uzunligi 94 km bo'lgan <b>Gazli-Nukus</b> gaz quvurining birinchi navbati ishga tushirildi.  |
| 1994-yil may           | Nukus shahrida O'zFAning Qoraqalpog'iston bo'limi tarkibida <b>Bioekologiya ilmiy tekshirish instituti</b> ochildi.  |
| 1994-yil avgust        | Qo'ng'irot tumanida karbid ishlab chiqaruvchi zavod ishga tushirildi.  |
| 1994-yil avgust        | Qo'ng'irot shahrida Ajiniyozning 170 yilligi munosabati bilan shoirga yodgorlik o'matildi.   |
| 1994-yil 6-oktabr      | Nukusda <b>Mirzo Ulug'bek</b> haykali ochildi.   |
| 1994-yil noyabr        | Ellikqal'a tumanida " <b>Elteks</b> " to'qimachilik kombinati ishga tushirildi.  |
| 1994-yil 25-dekabr     | Qoraqalpog'iston Respublikasi <b>Jo'qorg'i Kengesi</b> - respublika parlamenti tashkil etildi. Bungacha oliy davlat hokimiyat organi Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashi deb atalgan.      |
| 1994-yil 25-dekabr     | Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashiga saylovlari bo'lib o'tdi va 75 deputatdan iborat tarkibi saylandi.  |
| 1995-yil 11-yanvar     | Nukusda Juqorg'i Kengesning birinchi chaqiriq 1-sessiyasi ochildi.   |
| 1995-yil 3-mart        | Turkmanistonning Tashxovuz shahrida Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Orol muommosiga bag'ishlangan yig'ilishi bo'lib o'tdi.  |
| 1995-yil 18-20-sentabr | Nukusda BMT rahnamoligidagi Orol dengizi havzasidagi davlatlarning barqaror rivojlanishi masalalariga bag'ishlangan xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Unda <b>Nukus Deklaratsiyasi</b> imzolandi. |
| 1995-yil 21-sentabr    | Qo'ng'irotda 37,4 mlrd. m.kub gaz va 739 ming tonna gaz kondensati zahirasiga ega " <b>URGA</b> " (Urg'in) koni  |

|                    |   |
|--------------------|---|
|                    | foydalinishga topshirildi.  |
| 1995-yil dekabr    | Mo'ynoqda Germaniya bilan hamkorlikda <b>Bioekologiya institutining ekologiya stansiyasi</b> ochildi.   |
| 1995-yil           | Xo'jayli shahrida <b>shisha idishlar zavodi</b> ishgga tushirildi   |
| 1996-yil 14-avgust | Nukus shahrida marmar ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma korxona ishgga tushirildi.  |
| 1996-yil 28-avgust | " <b>Miskin-To'rtko'l</b> " temir yo'li qurilishi tugallandi.   |
| 1996-yil dekabr    | Nukus shahrida Qoraqalpog'istonda birmchi biznes markazi ochildi.   |
| 1996-yil           | O'zbekiston hukumati Qoraqalpog'istonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun 10 mlrd. so'm mablag' ajratdi. Bu Qoraqalpog'iston Respublikasi milliy daromadining 55 % ni tashkil qiladi.  |
| 1996-yil           | O'zbekiston tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasiga berilayotgan moliyaviy yordam 1994-yilga nisbatan 18 barobar ko'paydi.<br>Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasiga berilayotgan moliyaviy yordam 9 mlrd.dan oshiq bo'lib Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining 75 % ni tashkil etmoqda. |
| 1996-yil           | Qoraqalpog'iston Respublikasida 51 ta mayda ulgurji tizim, 2 ta savdo uyi, 13 ta mayda ulgurji savdo do'konlari va omborlar, 17 ta ko'tara savdo bozorlari, 19 ta supermarket faoliyat ko'rsatdi.   |
| 1996-yil           | Fond birjalari filiallarda 191,6 mln. so'mlik aksiya sotildi.   |
| 1996-yil           | Qoraqalpog'istonda ishlab chiqarilgan maxsulotlar hajmi 11 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu 1995-yilga nisbatan 2,2 marta ko'pdir.  |
| 1996-yil           | Qoraqalpog'iston Respublikasida amaldagi narxlarda 10754,4 so'mlik sanoat maxsuloti ishlab chiqarildi.  |
| 1996-yil           | Qoraqalpog'iston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi 228,4 mln. dollarni tashkil qildi. Bu 1995-yilda qiga nisbatan 3,7 marta ko'p bo'ldi.  |
| 1996-yil           | Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdodagi asosiy sheriklar hissasi AQSH (14,1 %), Rossiya (11,4 %), Janubiy Koreya (11,1 %), Shvetsiya (9,4 %), Niderlandiya (7,2 %) davlatlariga to'g'ri keldi.   |
| 1996-yil           | Qoraqalpog'iston Respublikasi xoreografiyasini tarixida birinchi marta "Oyjamol" nomli qoraqalpoq baleti (N.Muhamedov musiqasi, T.Xodjayev asari) sahnalashtirildi.   |
| 1996-yil           | Ro'za Kutekeyeva "O'zbekiston Vatanim manim" tanlovida "Mustaqillik gullari" qo'shig'i bilan 2-o'rinni egalladi.  |
| 1996-yil           | Bozorboy Uzoqberganov Amir Temur rolining eng yaxshi  |

|                     |  |
|---------------------|--|
| 1997-yil yanvar     | ijrochisi tanlovida I-o'rinni egalladi.  |
| 1997-yil yanvar     | Xususiy lashtirishdan tushgan mablag'lar 330 mln. so'mni tashkil qildi. Uning 20 % o'lka ijtimoiy taraqqiyotiga, 50 % tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash kreditlariga ajratildi.  |
| 1997-yil yanvar     | Qoraqalpog'iston Respublikasida 318 ta aksionerlik jamiyatiro'yxatga olindi.   |
| 1997-yil yanvar     | Qoraqalpog'iston Respublikasida 263 ta qishloq xo'jalik korxonasi faoliyat ko'rsatdi. Nodavlat sektorining jami ishlab chiqarish maxsulotidagi ulushi 98,3 % ni tashkil qildi. Paxta yetishtirishda bu ko'rsatkich 97,9, donchilikda 98,1, kartoshkachilikda 99,7, sabzavotchilikda 98,8, polizchilikda 100, go'sht yetishtirishda 98,9, sut va tuxum ishlab chiqarishda 99,4, qorako'l teri va jun yetishtirishda 100 % ni tashkil qildi. |
| 1997-yil mart       | Olmaotada Orolbo'yi xalqlariga ijtimoiy muommolarni yengishda amaliy yordam berish uchun Markaziy Osyo Respublikalari kengashining yig'ilishi bo'lib o'tdi.  |
| 1997-yil 18-iyun    | <b>Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi</b> tuzildi.   |
| 1997-yil 17-iyul    | I.A.Karimov Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi sessiyasida ishtirok etdi. Unda qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati faoliyatidagi kamchiliklar taxlil qilindi.  |
| 1997-yil 11-sentabr | Nukusda "Qirqqiz" dostoni va turkiy xalqlar og'zaki ijodini o'rganish masalalariga bag'ishlangan xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.  |
| 1997-yil 11-sentabr | Toshkentda Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi boshqaruvining majlisи bo'lib o'tdi.   |
| 1997-yil 15-oktabr  | Toshkentda Orol dengizi havzasi muommolari bo'yicha xalqaro uchrashuv bo'lib o'tdi.  |
| 1998-yil 28-yanvar  | <b>"Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"</b> Qonun (yangi tahrirda) qabul qilindi.   |
| 1998-2000-yil       | Qoraqalpog'iston Respublikasida 3 ta akademik litsey va 33 ta kasb-xunar kolleji qurib foydalanishga topshirildi.  |
| 1999-yil 4-may      | O'zbekiston Prezidenti farmoniga ko'ra T.Qaipbergenov va I.Yusupovlar "El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlandilar.   |
| 1999-yil oktabr     | Nukusda <b>Onkologiya ilmiy markazi</b> ochildi.   |
| 1999-yil 17-dekabr  | Qoraqalpog'istonda 115 km. uzunlikdagi "Miskin-Sulton-Uvays" magistral temir yo'l izlarini tutashtirish ishlari nihoyasiga yetkazildi.   |
| 1999-yil 18-dekabr  | Nukusda shoir Ajiniyoz tavalludining 175 yilligi nishonlandi.  |
| 1999-yil            | Qoraqalpog'istonda mikrofirmalar soni 3755 ta, fermer xo'jaliklar soni 1823 tani tashkil qildi.  |
| 1999-yil            | Yaponiya fondining OYESG krediti bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi 9 ta shahar tumanlarida  |

|                       |   |
|-----------------------|---|
|                       | yangidan 306 km shisha tolali kabel o'rnatildi.   |
| 1999-yil              | Qoraqalpog'iston Respublikasiga Yaponiya granti bo'yicha bir necha xorijiy tibbiyot asbob-uskunalar o'matildi.  |
| 1999-yil              | Amudaryo ustiga Nukus va Xo'jayli shaharlarini birlashtiruvchi avtomobil yo'l ko'prigi qurildi.   |
| 2000-yil 6-mart       | Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtkul tumanida Rossiyaning Savvinovo fabrikasi bilan hamkorlikda yiliga 2750 tonna ip-kalava ishlab chiqaradigan qo'shma korxonalar qurildi.   |
| 2000-yil 24-mart      | Qoraqalpog'iston-Australiya arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari Xorazmning qadimiylari poytaxti Oqchaxonqal'a shahri qoldiqqlarini topdilar. Ushbu shahar qal'asi mil. avv. IV - milodiy VI asrlarda Xorazmshoxlar davlatining poytaxti ekanligi aniqlandi. |
| 2000-yil aprel        | Qoraqalpog'iston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasida 1999-yilda yaratilgan badiiy asarlar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.   |
| 2000-yil iyun         | Qoraqalpog'iston Respublikasida Toshkent va Xorazmdan kelgan madaniyat xodimlari ishtirokida madaniyat kunlari o'tkazildi.  |
| 2000-yil sentabr      | Orol dengizining qurib qolgan o'rnda o'rmon barpo etishga oid O'zbekiston-Germaniya qo'shma loyihasini amalga oshirishga kirishildi.  |
| 2000-yil 15-19-dekabr | Toshkentda Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniyat kunlari o'tkazildi.  |
| 2000-yil              | Qoraqalpog'istonda mikrofirmalar soni 5565 ta, fermer xo'jaliklari soni 2353 tani tashkil qildi.  |
| 2000-yil              | Qoraqalpog'istonda yalpi maxsulot yetishtirishda kichik va o'rta biznes ulushi 27 % ni tashkil qildi.   |
| 2000-yil              | Kichik va o'rta tadbirdorlik subektlariga byudjetdan tashqari jamg'armalar tomonidan 2,9 mlrd. so'm miqsadli kreditlar berildi. Natijada harakatsiz turgan korxonalar sonini 771 taga kamaytirish imkoniyati yaratildi.                                     |
| 2000-yil              | Qoraqalpog'iston Respublikasida 140 ta nodavlat va notijorat tashkilotlari faoliyat ko'rsatdi.  |
| 2001-yil 17-mart      | Miskin-Uchquduq temir yo'li (224 km) qurilishi yakunlandi.  |
| 2001-yil 21-mart      | Nukus tumanida "Qoraqalpoqtomat" korxonasi ishga tushdi.  |
| 2001-yil              | Qoraqalpog'iston Respublikasida Shoshilinch tibbiyot tez yordam markazi va Respublika akusherlik va genekologiya ilmiy tadqiqot Institutining Nukus filiali tashkil etildi.   |
| 2002-yil 2-may        | I.A.Karimov Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesi sessiyasida ishtirok etdi.   |
| 2002-yil avgust       | "Navoiy-Uchquduq-Miskin-Sulton-Uvaystog'" temir yo'li   |

|                     |   |
|---------------------|---|
|                     | ishga tushirildi.   |
| 2002-yil noyabr     | “Sharqiy berdaq” koni foydalanishga topshirildi. Bu kon 1 kunda 3 mln. m.kub gaz va 16 tonna gaz kondensati qazib olish quvvatiga ega.  |
| 2002-yil            | Qoraqalpog’iston Respublikasida 9 ta korxona davlat tasarrufidan chiqarildi.  |
| 2002-yil            | Qoraqalpog’iston Respublikasi 12 ta tumanida 21 ta qishloq xo’jaligi korxonalar negizida yangidan 901 fermer xo’jaliklari tuzildi. Faoliyat yuritib turgan 79 ta fermer xo’jaligiga qo’shimcha yerlar ajratilib 980 ta fermer xo’jalik tashkil qilindi. |
| 2002-yil            | Ustyurt-Orolbo’yi konlаридан 1,2 mlrd. m.kub gaz va 10,4 ming tonna gaz kondensati qazib olindi.  |
| 2002-yil            | Nukus aeroporti ta’mirdan chiqarildi va soatiga 200 nafar mijozga xizmat ko’rsatish quvvatiga ega bo’ldi.   |
| 2002-yil            | Qoraqalpog’iston Respublikasida ishlab chiqarilgan 26,1 mln. dollar miqdordagi tovar eksport qilindi.   |
| 2002-2003-yillar    | Qoraqalpog’iston Respublikasi 98 aholi punktlariga tabiiy gaz yetkazib berildi.   |
| 2003-yil 1-yanvar   | Qoraqalpog’iston Respublikasiga chet el kredit liniyalari orqali 6,5 mln. dollar miqdorda investitsiya, shu jumladan 5,6 mln. dollar miqdorda to‘g’ridan-to‘g’ri investitsiyalar jalb qilindi   |
| 2003-yil yanvar     | Qoraqalpog’istonning Kegeyli tumanida “Korrosselmarsh” O’zbekiston-Rossiya qo’shma korxonasi ishgga tushirildi.   |
| 2003-yil 12-sentabr | Nukus shahrining 70 yilligi nishonlandi va shahar “Do’stlik” ordeni bilan mukofotlandi.   |
| 2003-yil            | “URGA” konidan 1 kunda 3,2 mln. m.kub gaz, 24 tonna gaz kondensati qazib olindi.  |
| 2003-yil            | Qoraqalpog’iston Respublikasida aholining 91,7 % gaz, 66,2 % toza ichimlik suvi bilan ta’minlandi.  |
| 2003-yil            | Qoraqalpog’iston Respublikasida 568 tonna pilla, 9 ming 746 tonna g’alla yetishtirildi. Rejadagi 80 ming hektar o’rniga 91,5 ming hektar paxta, 55 ming hektar o’rniga 61 ming hektar yerga sholi ekildi.   |
| 2003-yil            | Qoraqalpog’iston Respublikasida ro’yxatdan o’tgan 43 ta qo’shma korxonadan ishlab chiqarish sohasida 32 ta, savdo sohasida 2 ta, xizmat ko’rsatish sohasida 4 ta, qishloq xo’jaligi sohasida 4 ta, transport sohasida 1 ta korxona faoliyat ko’rsatdi.  |
| 2003-yil            | Qoraqalpog’iston Respublikasida xorijiy investisiyalar ishtiroyidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan maxsulotlar hajmi 2,2 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Eksport qilingan tovarlar hajmi 122,9 mln. dollarga teng                                 |

|                        |  |
|------------------------|--|
|                        | bo'ldi. Uning tashqi savdo oborotidagi ulushi 53,8 % ni tashkil qildi. G'arb mamlakatlariga eksport qilingan xom ashyo 113,6 mln. dollar, MDH mamlakatlariga esa 9,3 mln. dollarni tashkil qildi.  |
| 2003-yil               | Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rta bo'g'indagi kadrlarini tayyorlash tizimida 71 ta o'quv yurti faoliyat ko'rsatdi Shundan 68 tasi kasb-xunar kolleji, 3 tasi akademik litsey. Mazkur o'quv yurtlarida 51 mingdan ortiq o'quvchi tahsil oldi.   |
| 2003-yil               | <b>Toshkent Agrar Universitetining Nukus filiali ochildi.</b>  |
| 2004-yil 3-aprel       | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Orolbo'y genofondini muhofaza qilish xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori chiqdi.  |
| 2005-yil noyabr        | Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'irot shahri yaqinida joylashgan "O'zkimyozanoat" DAK tarkibida Ustyurtdan qazib olinadigan xomashyo konlari negizida <b>Qo'ng'irot soda zavodi</b> ishga tushirildi. 60 hektar maydonni egallagan ushbu zavod yiliga 100 ming tonnagacha kalsiyashgan soda ishlab chiqarish quvvatiga ega. |
| 2005-yil noyabr        | Mo'ynoq tumanida yangi Sharqiy Berdaq gaz koni ochildi.  |
| 2007-yil 17-18-may     | I.A.Karimov Qoraqalpog'iston Respublikasida bo'ldi. Qo'ng'irot soda zavodi mehnatkashlari bilan uchrashib nutq so'zlandi.  |
| 2007-yil 3-dekabr      | I.A.Karimov Qoraqalpog'istonda bo'lib, saylovchilar bilan uchrashdi.   |
| 2008-yil<br>11-12-mart | Toshkentda "Orol muommolari, ularning aholi genofondi, o'simlik va hayvonot olamiga ta'siri hamda oqibatlarini yengillashtirish uchun xalqaro hamkorlik chora-tadbirlari" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.   |
| 2008-yil<br>17-21-may  | Nukusda "Barkamol avlod-2008" sport o'yinlari bo'lib o'tdi.  |
| 2009-yil 28-aprel      | Olmaotada Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlat rahbarlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi.  |
| 2010-yil 5-aprel       | BMT Bosh Kotibi Pan Gi Mun Orolboyi mintaqasiga tashrif buyurdi.   |
| 2010-yil 5-oktabr      | O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrif buyurdi.   |
| 2011-yil 24-avgust     | Prezidentlar I.A.Karimov va Li Myon Bak (Koreya Respublikasi) tashabbusi bilan Qoraqalpog'istondagi Surg'il koni negizida <b>Ustyurt gaz-kimyo majmuasi</b> qurilishi boshlandi.   |
| 2012-yil 5-6-may       | "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a  |

|                          |   |
|--------------------------|---|
|                          | tumanida “ <b>Asrlar sadosi-2012</b> ” an’anaviy madaniyat festivali bo‘lib o‘tdi.  |
| 2014-yil 25-aprel        | I.A.Karimov Qoraqalpog‘istonda Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda Surg‘il koni negizida buniyod etilayotgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasiga tashrif buyurib, bu yerda amalga oshirilayotgan qurilish ishlari bilan tanishdi.  |
| 2014-yil<br>28-29-oktabr | Urganchda “Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirish” mavzuida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.  |
| 2014-yil                 | Moynoq tumanida 1500 hektar maydonni egallagan saksovul o‘rmoni barpo etildi.   |
| 2016-yil                 | <b>Ustyurt neft-gaz-kimyo majmuasi</b> ishga tushdi. Loyihaning umumiy qiymati 3,9 mlrd. dollarni tashkil etib, majmua yiliga 4,5 mlrd. metr kub tabiiy gazni qayta ishslash hisobidan 3,7 mlrd. metr kub gaz, 387 ming tonna polietilen, 83 ming tonna propilen va 102 ming tonna prolez mazsulotlarini ishlab chiqarish quvvatiga ega.            |
| 2017-yil 18-yanvar       | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining <b>2017-2021-yillarda Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish Davlat dasturi</b> (PQ-2731) qabul qilindi.  |
| 2017-yil<br>20-21-yanvar | O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.Mirziyoyev Qoraqalpog‘iston Respublikasida bo‘ldi.   |
| 2017-yil                 | O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida <b>Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish jamg‘armasi</b> tuzildi.   |
| 2017-yil 15-dekabr       | O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.Mirziyoyev Qoraqalpog‘iston Respublikasida bo‘ldi.   |
| 2018-yil 16-avgust       | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Orolboyi mintaqasi bolalari uchun reabilitatsiya markaziga ega bo‘lgan davlat ixtisoslashtirilgan ko‘p tarmoqli maktabgacha ta‘lim muassasasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori (PQ-3909) qabul qilindi.  |
| 2018-yil<br>24-25-avgust | SH.Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti G.Berdimuhamedovning taklifiga binoan Turkmanboshi shahrida bo‘lib, <b>Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta’sischi davlatlar rahbarlari kengashi</b> majlisida ishtiroy etdi.<br>BMTning Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik asosida <b>Trast fondi</b> tuzildi. |
| 2018-yil 16-oktabr       | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida <b>Orolbo‘yi xalqaro innovatsiya markazi</b> tashkil etildi (PQ-3975).   |
| 2018-yil 16-noyabr       | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.Mirziyoyev Shimoliy-G‘arbiy harbiy okrugga qarashli Nukus gornizonida bo‘lib harbiylar uchun   |

|                               |  |
|-------------------------------|--|
|                               | yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi.  |
| 2018-yil                      | <b>Mo'ynoq</b> tumanida barcha zarur infratuzilmalarga ega bo'lgan zamonaviy shaharcha bunyod etildi.  |
| 2019-yil 19-fevral            | "Orol dengizining suvi qurigan tubida "yashil qoplamlar" – himoya o'rmonzorlari berpo etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining Qarori qabul qilindi.   |
| 2019-yil 2-avgust             | Prezident Shavkat Mirziyoyev Jasliq qo'rg'onida joylashgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 19-son ixtisoslashitirilgan jazoni ijro etish koloniyasini tugatish to'g'risidagi Qarorni imzoladi.  |
| 2019-yil 20-21-avgust         | SH.Mirziyoyev Qoraqalpog'iston (Mo'ynoq)da bo'ldi. Hukumatning Mo'ynoq tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi qabul qilindi.  |
| 2019-yil 4-sentabr            | <b>"Nukus" erkin industrial zonası tashkil etildi (PF-5809)</b>  |
| 2019-yil 24-oktabr            | Nukus shahrida BMT shafeligidagi " <b>Orolbo'y - ekologik innovatsiyalar va texnologiyasi hududi</b> " mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiya davomida BMT Bosh Assambleyasining Orol dengizi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risidagi <b>maxsus rezolyusiyasi loyihasi</b> ishlab chiqildi. |
| 2019-yil 7-noyabr             | "Qoraqalpog'iston Respublikasida chovchilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori (PQ-4512) qabul qilindi.  |
| 2019-yil 24-dekabr            | "Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda "yashil qoplamlar" – himoya o'rmonzorlari berpo etish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining Qarori qabul qilindi.   |
| 2019-yil kuz – 2020-yil bahor | Orol dengizining suvsiz hududida 743 ming hektar maydonda "yashil qoplamlar" – himoya o'rmonzorlari barpo etildi. 2018-yil qish - 2019-yil bahor mavsumida esa 461 ming hektar maydonga sho'rланishga chidamli o'simliklar ekildi.   |
| 2020-yil 1-avgust             | Nukus shahrida O'zbekiston Qahramoni <b>Musa Yerniyazov</b> (1947-2020)ning vafoti munosabati bilan ta'ziya marosimi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.Mirziyoyev ishtirok etdi.   |
| 2020-yil 23-sentabr           | Prezidentimiz SH.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 75 yillik videokonferensiyasida nutq so'zlab, dunyo jamoatchiligi diqqat-e'tiborini yana bir bor Orol muammosiga qaratdi.<br>Prezidentimiz o'z ma'rzasida <b>Orolbo'y mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi</b> , deb e'lon  |

|                    |  |
|--------------------|--|
|                    | qilish haqida BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etdi. Ma'ruzada shuningdek, ushu muhim hujjat tasdiqlangan sanani <b>Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni</b> sifatida nishonlash maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlandi.  |
| 2020-yil 2-oktabr  | SH.Mirziyoyev Qoraqalpog'istonda bo'ldi. Oqsoqollar kengashining qaroriga muvofiq, Jo'qorg'i Kenges Raisi lavozimiga <b>Kamalov Murat Qallibekovich</b> nomzodi tavsiya etildi.  |
| 2020-yil 11-noyabr | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida Qoraqalpog'iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. <b>Qoraqalpog'iston Respublikasini 2021-2023-yillarda kompleks rivojlantirish dasturi</b> ishlab chiqildi.  |
| 2021-yil 9-fevral  | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qoraqalpog'iston Respublikasida "Sudoche-Akpetki" davlat buyurtma qo'riqxonasini tashkil qilish to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.<br>Qarorga ko'ra, Mo'ynoq va Qo'ng'irot tumanlarida yuridik shaxs tashkil qilgan holda, umumiy maydoni 280 507 hektar bo'lgan davlat tabiatni muhofaza qilish muassasasi shaklidagi " <b>Sudoche-Akpetki</b> " davlat buyurtma qo'riqxonasi tashkil qilindi. |
| 2021-yil 9-mart    | Prezident Shavkat Mirziyoyev Qoraqalpog'iston Respublikasida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.  |

## 12-MAVZU: O'ZBEKISTONNING XALQARO ALOQALARI VA JAHON HAMJAMIYATIDAGI O'RNI

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari.
2. O'zbekiston Respublikasining nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini.
3. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan ko'ptomonlama hamkorlik munosabatlari.

**Tayanch tushunchalar:** Xalqaro munosabatlari, "Sovuq urush", Afq'oniston muammosi, Geosiyosat, Globallashuv, Tashqi siyosat tamoyillari, BMT, YEXHT, YUNESKO, YUNISEF, Yevropa Ittifoqi, SHHT, MDH, MOIH, Ratifikatsiya.

### 1. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari.

XX asming so'nggi o'n yilligida dunyo xalqaro munosabatlari tizimida tub o'zgarishlar yuz berdi. "Sovuq urush" munosabatlari payoniga yetib, mafkuraviy qarama-qarshiliklar, inson huquqlari, g'oyalari kurashi mazmun mohiyati tubdan o'zgargan ana shunday sharoitda O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritdi.

Mustaqillikning ilk yillarda O'zbekiston juda katta sinovlarga duch keldi. Mamlakat atrofida turli murakkab vaziyatlar, qurolli mojarolar, fojaviy voqealar to'xtovsiz yuz berib turgan bir paytda davlat va jamiyatni taraqqiyotga yetaklash, xalqning tinchligi va barqarorligini ta'minlash xalqaro hamjamiyatga qo'shilish va teng sheriklikka asoslangan diplomatik munosabatlarni o'rnatish juda katta mehnat va mashaqqatlarni talab qilardi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, yangi mustaqil davlatning jahon maydonidagi o'mini ikkinchi davlat tayyorlab bermaydi. Yosh davlat bu yo'lida qaysidir davlat tomonidan ko'rsatiladigan do'stona munosabat, qo'llab-quvvatlash bilan birga, jiddiy muammolarga, kutilmagan vaziyatlarga duch kelishi muqarrar. Chunki, xalqaro siyosat bu raqobat va kurash maydoni.

O'zbekiston tashqi siyosatining dastlabki tamoillari Mustaqillik deklaratsiyasi va "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonunda ilk bor belgilab berilgan edi. Konstitutsiyamizning "**Tashqi siyosat**" deb nomlangan IV-bobida mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy tamoillari qat'iy belgilab berildi va unda O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariiga aralashmaslik va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi", deya bayon etildi. 17-moddada "Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stiklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib **chiqishi mumkin**", deb belgilab qo'yildi.

1996-yil 26-dekabrdan "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi va unda milliy manfaatlarni sobitqadamlilik bilan ilgari surish, davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, Markaziy Osiyoda geosiyosiy muvozanatni saqlash; siyosiy, iqtisodiy, savdo-sotiq, transport va boshqa sohalardagi xalqaro aloqalarni keng yo'lga qo'yish O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi.

2012-yil 29-dekabrdan "O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyatni Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qonunga binoan, O'zbekiston Respublikasi harbiy-siyosiy bloklarda qatnashmaydi, shuningdek, o'z hududida xorijiy harbiy bazalar va obyektlarni joylashtirishga yo'l qo'ymaydi.

Bundan tashqari, "Mudofaa to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida mudofaa sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari qatorida "harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik" tamoyilli ko'rsatib o'tilgan.

Tashqi aloqalarning qonuniy asosini yaratish jarayoni bilan bir paytda xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlar o'rnatish va izchil rivojlantirib borish mexanizmlarini shakllantirishga kirishildi. O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi, chet ellardagi elchixonalari va konsullik xizmatlari tashkil etildi. Davlat uchun yangi bo'lgan xalqaro munosabatlar sohasini milliy kadrlar bilan muntazam ta'minlab borish maqsadida 1992-yil 23-sentabrda Toshkentda **Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti** ochildi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi 182 ta davlat tan olgan bo'lib, 120 dan ortiq davlatlar bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Mamlakatimiz 100 dan ziyod xalqaro tashkilotlarning to'laqonli a'zosi bo'ldi. 2018-yilga kelib chet ellarda mamlakatimizning 50 ta diplomatik vakolatxonasi faoliyat yuritdi. O'zbekistonda esa xorijiy mamlakatlarning 86 ta elchixona va savdo vakolatxonasi akkreditatsiya qilingan.

O'zbekiston o'z tashqi siyosatida bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik tamoyiliga amal qildi. O'zi ilgari surgan ilk xalqaro tashabbuslardo yoq O'zbekiston Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlashga va shu orqali global barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo'shish yo'lidan borishi aniq namoyon bo'ldi.

## **2. O'zbekiston Respublikasining nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari.**

O'zbekiston a'zo bo'lgan ilk xalqaro tashkilotlardan biri bu **Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi** bo'lgan edi. Ma'lumki, 1991-yil 8-dekabrdan sobiq SSSRning ucta respublikasi Rossiya, Belorus va Ukraina vakillari tomonidan Minskda MDHni tashkil etish haqidagi Bitim ushbu tashkilotning tuzilishiga asos bo'lgan edi. 1991-yil 21-dekabrdan 11 ta sobiq Ittifoq respublikalari tomonidan Olmaotada imzolangan Olmaota Deklaratsiyasi asosida tashkilotning tuzilishi rasmiy lashgan. Davlatlararo ixtiyoriy birlashma hisoblangan MDH Nizomi 1993-yil 22-yanvarda tasdiqlandi. Nizomga binoan hamdo'stlik maqsadi xalqlar va davlatlarning siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, fan, texnika, savdo-sotiq, insonparvarlik va boshqa sohalardagi teng huquqli va o'zaro foydali

hamkorlik qilish, keng axborot almashinuvi, o'zaro majburiyatlarni vijdonan va so'zsiz bajarishdan iborat.

MDH tashkil etilgandan beri o'tgan davrda umumiyoq sohalarga oid 1300 ga yaqin masalalar muhokama etilib, tegishli hujjatlar imzolandi. Hamdo'stik mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy aloqalari katta mashhaqqatlar va sekinlik bilan mustahkmlanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi MDH doirasida sun'iy ravishda joriy etiladigan integratsiyaga hamda davlatlardan yuqori turuvchi tuzilmalarni – parlament, ko'plab amaldorlar ishlaydigan ma'muriy idoralar, harbiy-siyosiy organlarni tashkil etishga qarshi. O'zbekiston mustaqillik va integratsiyani uyg'unlashtirish tarafdoni, MDHni haqiqiy mustaqil, suveren davlatlar integratsiyasi sifatida ko'rishni xohlaydi.

O'zbekistonning xalqaro maydondag'i nufuzi va mavqeining mustahkmlanishida **Birlashgan Millatlar Tashkiloti** bilan hamkorlik munosabatani muhim bosqich bo'ldi.

O'zbekiston o'zining xohish-irodasi va taklifiga ko'ra 1992-yil 2-martda BMTga qabul qilindi va mamlakatimiz jahon hamjamiyatining to'la teng huquqli a'zosi bo'ldi. 1993-yil 24-oktabrda Toshkentda BMTning vakolatxonasi ochildi.

Prezident I.A.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993-yil sentabrda bo'lgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda qilgan ma'ruzasi O'zbekistonni jahonga ko'hna va navqiron davlat sifatida namoyon etdi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 1995-yil 22-24-oktabrda bo'lgan BMTning 50 yilligi yubiley sessiyasidagi nutqida bu nufuzi xalqaro tashkilot faoliyatini yaxshilashga doir takliflarni bayon etdi. Umumjahon xavfsizligi mintaqaviy xavfsizlikka erishishdan boshlanadigan jarayon ekanligi, mintaqalar xavfsizligini ta'minlash yo'li bilangina jahon xavfsizligini ta'minlash mumkinligi alohida ta'kidlandi. Afg'onistonndagi urushga barham berish uchun unga tashqi kuchlarning aralashuvini bartaraf etish, quroq olib kirishni taqiqlash takliflari ilgari surildi.

1997-yil 15-16-sentabr kunlari Toshkentda "Markaziy Osiyo – yadro qurolidan xoli zona" mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Uning ishida 56 davlat va 16 xalqaro tashkilotdan vakillar ishtirok etdi.

O'zbekistonning BMTga yo'llagan afg'on muammosini tinch yo'l bilan hal qilish masalasida muloqot guruhi tashkil etish haqidagi taklifi asosida 1997-yilda BMT homiyligida "**6+2**" **guruhi** tashkil etildi. O'zbekiston guruuning asosiy ishtirokchisi bo'ldi. 1999-yilning 19-20-iyul kunlarida Toshkentda BMT homiyligida Afg'oniston bo'yicha "**6+2**" guruuning navbatdagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuv yakunida Afg'onistonndagi mojaroni hal etishning asosiy tamoyillari to'g'risida Toshkent Deklaratsiyasi imzolandi.

2000-yil 8-sentabrda I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasining sessiyasida qatnashdi. 150 dan ko'proq mamlakatning davlat va hukumat rahbarlari ishtirok etgan ushbu sessiyada I.A.Karimov nutq so'zladi.

Prezidentimiz 2010-yil 22-sentabrda BMT sammitida so'zlagan nutqida esa Afg'onistonda tinchlik o'matish bo'yicha ilgari tanlangan yo'l kutilgan natijani bermaganligini ta'kidladi. O'zbekiston tomonidan 2008-yilda taklif etilgan BMT

*shafeligida “6+3” muloqot guruhini tuzishini taklif etdi.*

O’tgan davr mobaynida BMT Bosh kotiblari **Kofi Annan** (2002-yil 18-20-oktabr), **Pan Gi Mun** (2010-yil 10-aprel va 2015-yil 11-iyun) va **Antoniu Guterrishlarning** (2017-yil 10-iyun) O’zbekistonga shaxsan tashrif buyurishlari mazkur tashkilot bilan hamkorlikni yangi bosqichga ko’tarishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 12-sentabrda Nyu-Yorkda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida chiqish qildi. Prezidentimiz o’z nutqida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari o’tkazishni yo’Iga qo'yish, BMTning “Ma’rifat va diniy bag’rikenglilik” maxsus rezolyusiyasini qabul qilish, BMTning Yoshlar huquqlari bo'yicha konvensiyasini ishlab chiqish, Orolbo’yi muammosiga e’tiborni oshirish va Afg'oniston muammosini hal etish kabi masalalarga oid 5 ta taklifni ilgari surdi. 2020-yilga kelib bu takliflardan 4 tasi amalga oshdi.

Jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari mintaqam o’tkazilmoqda. 2018-yil dekabrda BMT Bosh Assambleyası “Ma’rifat va diniy bag’rikenglilik” maxsus rezolyusiyasını tasdiqladi, shu yili Orolbo’yi mintaqasida insonlar xavfsizligi bo'yicha ko'p sheriklik asosidagi Trast fondi faoliyat boshladi. Ayni paytda BMTning Yoshlar huquqlari bo'yicha konvensiyasi loyihasi bo'yicha ishlar davom etmoqda, shu maqsadda inson huquqlari bo'yicha 2020-yil avgust oyida “Yoshlar 2020: global miqyosdagι birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari” mavzuida Samarqand forumi o’tkazildi. 2018-yil 26-27-martda Toshkentda Afg'oniston bo'yicha yuqori darajadagi xalqaro konferensiya tashkil etilib, uning yakunida Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi.

O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ishtirok etdi. Jahonda vujudga kelgan epidemiologik vaziyat tufayli sessiya BMT tarixida ilk bor videoanjuman shaklida o’tkazildi. Davlatimiz rahbari BMTda oliy minbaridagi ikkinchi marotaba chiqishida davlat tili – o’zbek tilida nutq so’zladi.

Mamlakatimiz rahbari SH.Mirziyoyev o’z nutqida mintaqada va global miqyosda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, barqaror taraqqiyot, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, konstruktiv muloqotni kengaytirish, shuningdek, iqlim o’zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi muammosi, qashshoqlikka barham berish va kambag'allikni qisqartirish masalalari kabi zamonaviy xatar va tahdidlarga qarshi qaratilgan qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Ularning eng muhimlari quyidagi takliflardan iborat bo’ldi:

-BMT shafeligida Pandemiylar davrida **davlatlarning ixtiyoriy majburiyatları to‘g’risidagi xalqaro kodeksni ishlab chiqish taklif etildi;**

-Bosh kotib Antoniu Guterrish janoblarining bugungi inqirozli vaziyatda **oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning dolzarb muammolariga bag’ishlangan sammitni o’tkazish bo'yicha taklifi ma'qullandi;**

-**Yoshlar huquqlari to‘g’risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish bo'yicha O’zbekiston tashabbusini qo'llab-quvvatlashga chaqirildi;**

-Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish va inson huquqlarini ta'minlashda parlamentlar rolini oshirish to'g'risidagi BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklif etildi;

-BMT shafeligidagi Transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish mintaqaviy markazini ochish taklif etildi;

-Mintaqaviy qo'shma rejaning 10 yillik natijalari va kelgusi istiqbollariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyanı o'tkazish taklif etildi;

-BMT huzurida afg'on xalqining dardu tashvishini tinglaydigan, doimiy faoliyat ko'rsatadigan qo'mita tashkil etish taklif etildi;

-Orolbo'yı mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklif etildi. Shuningdek, ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani esa Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni sifatida nishonlash maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlandi.

-Qashshoqliknı tugatish va kambag'allikkä qarshi kurashishni BMT Bosh Assambleyası navbatdagı sessiyasining asosiy mavzularidan biri sifatida belgilash hamda ushbu masalalarga bag'ishlangan global sammitni o'tkazish taklif etildi;

-O'zbekiston jahoning barcha mamlakatlari bilan keng ko'lamli va o'zaro manfaatl sheriklikni, BMT va uning institutlari bilan amaliy muloqotni rivojlantirish uchun doimo tayyorligi ma'lum qilindi.

Prezidentimiz shuningdek, 2021-yilda YUNESKO bilan hamkorlikda qadimiy Xiva shahrida "**Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrahäsida**" degan mavzuda xalqaro forumni o'tkazishga O'zbekiston tayyorligi ma'lum qildi.

Mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini yaxshilanayotgani, turizm va eksport salohiyati yuksalib borayotgani, Xalqaro mehnat tashkilotining standart va qoidalari hayotga faol tatbiq etilayotgani tufayli O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rni yil sayin yuksalmoqda.

2020-yil 14-oktabr kuni BMT Bosh assambleyasida O'zbekiston BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashiga ko'pchilik ovoz bilan tarixda birinchi marta uch yillik muddatga saylandi.

2021-yil 18-may kuni BMT Bosh Assambleyası 75-sessiyasining navbatdagı yalpi majlisи bo'lib o'tdi. Tadbir kun tartibiga birinchi masala sifatida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ilgari surilgan Orolbo'yı mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish to'g'risidagi rezolyusiyasi loyihasini ko'rib chiqish kiritilgan edi. Hujjat BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan ma'qullandi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvida BMT doirasidagi ixtisoslashgan tashkilotlar bilan hamkorligi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonning BMT homiyligida ta'lim, fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot - YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. 183 davlat a'zo bo'lgan YUNESKOning bosh maqsadi - barcha xalqlar kelajaginiň umumiyligi asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirish,

hozirgi zamон muammolarini yanada chuqurroq o'matishga ko'maklashishdan iborat.

1993-yil 29-oktabrda YUNESKOning Parijdagи qarorgohida O'zbekistonni YUNESKO a'zoligiga qabul qilish masosimi bo'lib o'tdi. Shu kuni vatandoshimiz, buyuk olim Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligini nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi. 1994-yil Parija Mirzo Ulug'bek haftaligi tantana bilan o'tdi.

YUNESKO qaroriga binoan 1995-yilda Samarqandda **Markaziy Osiyo tarixini tadqiq qilish xalqaro instituti** tashkil etildi. Ushbu xalqaro institutning ochilish masosimida YUNESKO Bosh direktori **Federiko Mayor** ishtirok etdi. YUNESKO Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qildi va 1996-yil oktabrda Parija Amir Temurga bag'ishlangan xalqaro anjuman bo'lib o'tdi.

O'tgan davr mobaynida YUNESKO homiyligida Buxoro va Xiva shaharlарining 2500 yilligi (1997), Imom al-Buxoriyning 1225 va Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yilligi (1998), "Alpomish" dostonining 1000, Jaloliddin Manguberdining 800 yilligi (1999-y), Burxoniddin Marg'iloniyning 910, imom Al-Motirudiyning 1130 yilligi (2000), "Avesto"ning 2700 yilligi (2001), Shahrisabz shahrining 2700, Termiz shahrining 2500 yilligi (2002), Abduholiq G'ijduvoniy tavalludining 900 yilligi (2003), Qarshi shahrining 2700 yilligi (2006), Samarqand shahrining 2750, Marg'ilon shahrining 2000 yilligi (2007) va Toshkent shahrining 2200 yilligi (2009) keng nishonlandi.

1998-yilning 6-noyabr kuni Parija ochilgan YUNESKO Ijroiya kengashi 155-sessiyasining yakunlovchi majlisi Toshkentda bo'lib o'tdi.

Bundan tashqari O'zbekiston BMTning ixtisoslashgan muassasalari – Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, Xalqaro bolalar jamg'armasi (UNISEF), Xalqaro pochta ittifoqi, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro Olimpiada qo'mitasi bilan hamkorlik qilmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga, uning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuviga xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar – Xalqaro valuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ham ko'maklashmoqdalar. Xalqaro savdo markazi (UNKTAD), Tariflar va savdo Bosh bitimi (GATT) bilan hamkorlik qilinmoqda.

O'zbekiston 1992-yil 26-fevralda tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha katta tadbirlarni amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro tashkilot – **Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotiga (YEXHT)** a'zo bo'lib kirdi. Islom Karimovning 1992-yil 9-10-iyulda bo'lib o'tgan YEXHTning majlisida ishtirok etishi, unda nutq so'zlashi va Kengashning 10-iyulda bo'lgan majlisida raislik qilishi O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallab borayotganligiga yana bir ishonchli dalil bo'ldi.

1999-yilning 18-19-noyabrida Istambulda YEXHTga a'zo 54 davlat boshliqlarining oliy darajadagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov xalqaro terrorchilikka qarshi kurashuvchi xalqaro markaz tuzish haqidagi taklifi ma'qullandi.

O'zbekiston tashqi siyosatining muhum yo'naliши Markaziy Osiyo Respublikalari bilan hamkorlikka qaratildi. 1994-yil 10-yanvar kuni O'zbekiston

bilan Qozog'iston o'rtaida, 1994-yil 16-yanvar kuni O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtaida yagona iqtisodiy makon to'g'risida shartnoma imzolandi. 1994-yil 30-aprelda **Cho'lponota** shahrida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtaida yagona iqtisodiy makon tuzish to'g'risida uch tomonlama shartnoma imzolandi.

Uch davlat Prezidentlarining 1994-yil iyul oyi boshida Olmaota shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvi ham bu uch qardosh mamlakatlar xalqlari o'rtaida munosabatlarni mustahkamlashda yana bir yangi qadam bo'ldi. Unda o'zaro integratsiyani kuchaytirish bo'yicha, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot bankini tuzish to'g'risida bitimlar imzolandi. Tomonlar dalvatlararo kengash hamda uning doimiy ijroiya organini, shuningdek, Bosh vazirlar kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Mudofaa vazirlari kengashini ta'sis etdilar. Shu tariqa **Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati (MOIH)** tashkil topdi.

Tashkilotning 1995-yil 14-aprel kuni Chimkentda, 1995-yil 15-dekabrda Jambulda, 1997-yil 9-10-yanvar kunlari Bishkekda (uch qardosh davlatlar o'rtaida abadiy do'stilik haqida shartnoma imzolandi), 1997-yil 12-dekabr kuni Qozog'iston Respublikasining yangi poytaxti – Astana shahrida, 2000-yil 20-21-aprel kunlari Toshkentda va 2000-yil 14-iyulda tashkilotga 1998-yilda a'zo bo'lgan Tojikiston poytaxti Dushanbeda bo'lib o'tgan kengashida iqtisodiy integratsiy muammolari hal etib borildi. Dushanbe Kengashida MOIHning 2002-yilgacha bo'lgan muddatda yagona iqtisodiy makonni yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi say-harakatlar dasturi to'g'risida, 2005-yilgacha bo'lgan muddatda integratsiyani rivojlantirish strategiyasi haqida qarorlar qabul qilindi.

**Yevroсио iqtisодиy hamjamiyati (YOIH).** 2005-yil 6-7-oktabr kunlari Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkiloti Davlat rahbarlarining kengashida o'tgan davrda qilingan ishlar sarhisob qilindi. Kengashda Markaziy Osiyo umumiy bozorini barpo etish konsepsiysi tasdiqlandi. MOHning bu galgi sammiti Yevrosiyoda integratsiyalashuv jarayonidagi burilish nuqtasi bo'ldi. O'zbekiston rahbarining tashabbusi bilan MOH va Yevroсио iqtisодиy hamjamiyati negizida yangi YOIHni shakllantirishga qaror qilindi. Negaki, bu ikki tashkilotning maqsad va vazifalari deyarli farq qilmas edi. Ikki tashkilotning qo'shilishi natijasida yirik geografik makonda yanada faol yangi integratsiya uchun keng yo'll ochildi. YOIH Rossiya, Belorus, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtaida 1995-yilda tuzilgan Bojaxona ittifoqi negizida tashkil topgan edi. YOIHning 2006-yil 24-25-yanvar kunlari Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan sammitida O'zbekiston unga a'zo bo'lib kirdi. Mazkur sammitda O'zbekistonning YOIHni ta'sis etish to'g'risidagi shartnomaga qo'shilishi to'g'risidagi protokol, "YOIHni ta'sis etish to'g'risida"gi shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qarorlar imzolandi.

YOIH tashkiloti unga a'zo mamlakatlar o'rtaida integratsiyani rivojlantirishga, yagona umumiy bozorning shakllanishiga, Bojaxona ittifoqiga, erkin savdo zonasining tashkil topishiga ko'maklashadi.

2020-yilga kelib O'zbekistonning tashqi savdoga chiqadigan yuklari 80 foizi Qozog'iston, Qirg'iziston va Rossiyaning tranzit yo'lklari orqali o'tdi. Shuningdek, tayyor mahsulotlarimiz eksportining 50 foizi, ayrim tovarlar bo'yicha esa 80 foizi Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston hissasiga to'g'ri keladi. Ana shu omillarni

inobatga olib hamda Rossiya va Qozog'istonga ishlash uchun borgan fuqarolarimizga qulay shart-sharoit yaratish maqsadida bugungi kunda O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlik qilish bilan bog'liq masalalar chuqurlashmoqda.

2021-yil 21-may kuni SH.Mirziyoyev videoanjuman shaklida o'tgan Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig'ilishida ishtirok etdi. O'zbekiston Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi huzuridagi kuzatuvchi davlat maqomini ushbu tashkilotning o'tgan yil 11-dekabrdagi sammitida olgan edi.

O'tgan davrda Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan hamkorlik to'g'risidagi memorandum va uni amalga oshirish bo'yicha uch yillik Chora-tadbirlar rejası imzolandi. Mamlakatimiz vakillari YEOIning ko'p tomonlama tadbirlarida ishtirok etmoqda. 2021-yil aprel oyida Toshkent shahrida birlashmaning Sanoat siyosati bo'yicha kengashi yig'ilishi va xalqaro "Innoprom" ko'rgazmasi o'tkazildi.

2017-yidan "**O'zbekistonning tashqi siyosatida Markaziy Osiyo – bosh ustuvor yo'nalish**" tamoyilini amalda tatbiq etishga kirishildi. Natijada mintaqamizda mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratildi, o'zaro ishonch va yaxshi qo'shnichilik asosidagi aloqlari mustahkamlana boshlandi.

Markaziy Osioning qoq o'tasida joylashgan, eng yirik inson salohiyati hamda barcha mintaqaga mamlakatlari bilan umumiy chegaraga ega yagona davlat – O'zbekiston. 2016-yil oxirigacha davlat chegaralari minalashtirilgan, suv va gaz zaxiralaridan oqilona foydalanish bo'yicha dahanaki tortishuvlar, o'zaro chetlab o'tish va tashqi siyosiy-iqtisodiy manfaatlarga qaram bo'lmasslikka yo'naltirilgan siyosat hamda temir yo'llar barpo etilishi natijasida mintaqada ishonchszilik kayfiyati keskinlashib ketgandi. Hatto qarindoshlar darajasidagi bordi-keldi tashriflari ham nihoyatda cheklangan edi.

Siyosiy muzlar ancha erib, 2017-yil 17-sentabrida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratishga erishilgani" va "bu tendensiyaning mustahkamlanishi Markaziy Osiyo davlatlari prezidentlari muntazam uchrashuvlar o'tkazishi uchun imkoniyat yaratishi" haqida dasturiy nutq qilgandi.

Undan avval, 2017-yil 7-fevralda tasdiqlangan 2017-2021-yillar uchun Harakatlar strategiyasining "Chuqur o'yangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar" deya tavsiflangan 5.2-bandida "O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish" tamoyili belgilab qo'yilgan.

So'nggi yillarda O'zbekiston tashqi siyosatining Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik va umumiy tashqi siyosat yo'nalishida qanday ishlar amalga oshirildi?

Birinchidan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini o'tkazish to'g'risidagi taklifi amalga oshdi. Ushbu tashabbus xalqaro miqyosda keng tan olindi va mintaqaga davlatlarining barcha rahbarlari qo'llab-quvvatladi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining birinchi maslahatlashuv uchrashuv 2018-yil 15-mart kuni Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida bo'lib o'tdi. Ikkinci uchrashuv 2019-yil 29-novabr kuni Toshkent shahrida o'tkazildi.

Shuningdek, Toshkent uchrashuvida keyingi yig'ilishni Bishkekda o'tkazishga kelishib olingan edi. Ammo koronavirus pandemiyasi sabab 2020 yilgi uchrashuv o'tkazilmadi. Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilarining navbatdagi maslahat uchrashivi 2021-yil 6-avgust kuni Turkmanistonning "Avaza" milliy turizm zonasida o'tkazildi.

Ikkinchidan, O'zbekiston va Markaziy Osyoning boshqa davlatlari o'rtaasida barqaror iqtisodiy va siyosiy aloqalar o'matildi.

**O'zbekiston-Turkmaniston munosabatlari.** Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston prezidenti sifatidagi ilk xorijiy tashrifini 2017-yil 6-7-mart kunlari Turkmanistonga amalga oshirgandi. Uchrashuvda transport sohasida zamonaviy infratuzilma yaratish bo'yicha hamkorlik davom ettirilishi bo'yicha kelishuvga erishilgandi. Bu hamkorlik Markaziy Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharq transport tizimlarini birlashtirishi ko'zda tutilgan. Turkmaniston prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov 2018-yil 23-aprel kuni davlat tashrifi bilan O'zbekistonga keladi va o'zaro hamkorlikni rivojlantirish doir 17 ta hujjat imzolaniadi. 2021-yilning 29-aprel kuni ikki davlat rahbarlari Ashxobod shahrida yana uchrashuv o'tkazishdi. Keyingi yillardagi o'zgarishlar sabab tovar ayirboshlash hajmi uch barobardan ziyodga ko'paydi va 2020-yil yakunlariga ko'ra 530 million dollarga yetdi, 150 dan ortiq qo'shma korxona tashkil etildi.

**O'zbekiston-Qozog'iston munosabatlari.** Dastlab Shavkat Mirziyoyev 2017-yilning 22-23-mart kunlari davlat tashrifi bilan Qozog'istonda bo'lgandi. Muzokaralar yakunida davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo 13 hujjat imzolaniadi. M-39 avtomobil yo'lida joylashgan va 2006-yilda yopib qo'yilgan "Oq oltin" va "Malik" avtomobil o'tkazish punktlari qayta ochiladi.

Qozog'iston Respublikasining prezidenti Qosim-Jo'mart To'qayev 2019-yilning 14-15-aprel kunlari davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Uchrashuvda ikki tomonlama savdo aylanmasi hajmini yaqin kelajakda 5 mld. dollarga yetkazishdan har ikkala tomon manfaatdor ekanligi ta'kidlanadi.

O'tgan davr mobaynida Sirdaryo va Jizzax viloyatlari hamda Qozog'istonning Turkiston viloyati chegaralari tutashgan uchastkalarda davlatlararo chegarani demarkatsiyalash bo'yicha bir nechta muzokaralar o'tkazildi. 2020-yil yakunlari bo'yicha ikki tomonlama tashqi savdo aylanmasi 3 mld. dollardan oshdi.

**O'zbekiston-Tojikiston munosabatlari.** 2017-2021-yillarda O'zbekiston-Tojikiston aloqalaridagi ko'p yillar davomida go'yoki yechimi bo'limgan, murakkab va nozik hisoblangan chegara va suv-energetika sohasidagi masalalar ham o'z yechimini topdi. Bu o'zgarishlarning barchasi oddiy fuqarolar hayotida sezilmoxda. Ko'p yillar davomida birinchi marta ular o'z qarindoshlari va do'stlarinikiga to'siqsiz, erkin tashrif buyurish imkoniyatiga ega bo'lishdi. 2021-yil xolatiga ko'ra, O'zbekiston-Tojikiston chegarasidan har kuni 20 mingga yaqin kishi o'tadi. 3-4 yil oldin esa bu ko'rsatkich bor-yo'g'i 3-3,5 mingni tashkil qilar edi. Toshkent va Dushanbe shaharlari o'rtaasida aviaqatnov yo'lga qo'yildi.

2018-yilda ikki tomonlama munosabatlar tarixida birinchi marta o'zaro davlat tashriflari bo'lib o'tdi. Umuman olganda, 2016-yil sentabr oyidan boshlab O'zbekiston va Tojikiston rahbarlari turli sammitlar doirasida taxminan 15 martadan ortiq uchrashishdi.

Ikki davlat rahbarlarining oxirgi uchrashuvi 2021-yil 10-11-iyun kunlari Dushanbeda bo'lib o'tdi. Uchrashuvda Zarafshon daryosida GES qurish loyihasi bo'yicha qo'shma aksiyadorlik jamiyati tashkil etish to'g'risida hamda yuklar tranziti to'g'risidagi bir qancha bitimlar imzolandi. Shuningdek, ikki mamlakat o'rtaida energetika, transport, avtomobilsozlik, elektrotexnika, tog'-kon va yengil sanoat, fan, ta'lif, sport va boshqa sohalarni qamrab olgan jami 35 ta hujjat imzolandi.

**O'zbekiston-Qirg'iziston munosabatlari.** O'zbekiston va Qirg'iziston munosabatlarda so'nggi 10 yil davomida ilk bor chegara masalarida ijobjiy natijalarga erishildi. Qirg'iziston prezidenti Sadir Japarov mamlakat yetakchisi sifatida ish boshlagach, uchinchi davlat tashrifini 2021-yil 11-12-mart kunlari O'zbekistonga amalga oshirdi. Bungacha Japarov Qozog'iston va Rossiyaga borgandi. Tashrif doirasida ko'p qirrali O'zbekiston-Qirg'iziston sherikligining deyarli barcha yo'nalişlarini qamrab olgan 22 ta hujjat imzolandi. Qirg'iziston bilan davlat chegaralari to'g'risidagi bitimning imzolanishi Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan katta qadam bo'ldi.

Bugungi kunga kelib, Markaziy Osiyo hukumatlari tomonidan sanoat va ilmiy-tehnikaviy hamkorlik, mintaqalararo hamkorlik, sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoya qilish, ta'lif-tarbiya hujjatlarini o'zaro tan olish to'g'risida shartnomalar imzolandi. O'zbekiston mashinasozlik, elektr, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati sohalarida ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hamkorlik uchun yaxshi istiqbollarni ko'rmoqda.

Hamkorlikni kengaytirishning muhim omili qo'shma va xorijiy korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishidir. Hozirgi kunda O'zbekistonda qozoq sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 200 dan ortiq korxona (83% qo'shma korxona va 100% qozoq sarmoyasi bilan 17% korxona) va qirg'iz sarmoyadorlari ishtirokida tuzilgan 96 ga yaqin kompaniya mavjud. O'z navbatida, Qozog'iston hududida 150 ga yaqin korxona, Qirg'izistonda esa keng turdag'i tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga tushoslashgan 200 dan ortiq qo'shma qirg'iz – o'zbek korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda.

Ko'plab ijobjiy o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa-da, Markaziy Osiyo mamlakatlari oldida bir qancha hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar mavjud:

**Chegara muammolari.** SSSR qulaganiga 30 yildan oshgan bo'lsa-da, Markaziy Osiyo mintaqasida chegaraviy muammolar to'la hal etilgani yo'q. So'nggi yillarda davlat chegaralarini huquqiy rasmiylashtirish hamda chegaradagi bahsli hududlar muammosini uzil-kesil hal etish borasida bir qancha amaliy harakatlar o'tkazildi. Xususan, Samarqand shahrida 2017-yil 10-11-noyabr kunlari BMT shafe'ligida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiyl kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiya O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston o'rtaсидаги bahsli nuqtalar bo'yicha kelishuvga erishildi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 9-martida Tojikistonga tashrifi vaqtida chegaralardagi muammolarni hal qilish borasidagi asosiy natijalar bo'yicha kelishuv imzolandi.

Shunday bo'lsa-da Qirg'iziston-Tojikiston chegarasidagi vaziyat keskinligicha qolmoqda. Bu esa mintaqada integratsiya jarayonlariga jiddiy ta'sir o'tkazadi. Markaziy Osiyoda chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilishda asosiy muammollardan biri – mintaqaning barcha mamlakatlari tomonidan tasdiqlanib, tartib-taomillaridan o'tgan huquqiy asos yo'qligidir. Yaqin kelajajakda mintaqaga mamlakatlari bu muammolarni ham hal qilishiga ishonamiz.

**Iqlim o'zgarishi.** Hozirgi paytda Markaziy Osiyodagi suv resurslarining 90 foizi sug'orma dehqonchilik uchun ishlatalmoqda. Suv qishloq xo'jaligining asosi hisoblanadi va bu tarmoq Markaziy Osiyodagi beshta mamlakat iqtisodiyotida ham muhim rol o'yaydi, chunki qishloq xo'jaligi sohasi bu mamlakatlar YAIMning 10 foizidan 45 foizigacha bo'lgan qismini tashkil etadi. Kelajakda Markaziy Osiyoda suv manbalarining kamayib borish tendensiyasi ro'y berish ehtimoli mavjud Xususan, muzliklar mintaqadagi suv resurslarining asosiy manbayi hisoblanadi va ularning eng katta qismi Tojikiston hududiga to'g'ri keladi. Bu yerdagi muzliklar Markaziy Osiyo suv resurslarining 60 foizigacha bo'lgan qismini tashkil etadi. Ob-havo o'zgarishi bilan Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarish va xavfsizligini ta'minlash masalalari muhim ahamiyat kasb etib boraveradi. Shu sabab mintaqaga mamlakatlari bu masalani oliv darajada qayta ko'rib chiqib, tegishli dastur va strategiya ishlab chiqishi kerak.

2018-2021-yillarda O'zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikda BMT Bosh Assambleyasining qator rezolyutsiyalari qabul qilindi. "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" (2018-yil 22-iyun), "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" (2018-yil 12-dekabr), "Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish" (2019-yil 19-dekabr) va "Orolbo'yи mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish to'g'risida"gi (2021-yil 18-may) rezolyutsiyalar shular jumlasidandir.

So'nggi yillarda O'zbekistonning **Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi** bilan hamkorlik munosabatlari yo'lga qo'yildi. Mazkur kengash 2009-yilning 3-oktabrida Ozarbayjonning Naxichevan shahrida Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkiya davlatlari ishtirokida tuzilgan bo'lib, u o'zining faoliyatida dastlab madaniy-gumanitar hamkorlik ustivor ahamiyat kasb etib kelgan bo'lsa, so'nggi yillarda tashkilotga a'zo mamlakatlar rahbarlari mintaqada tinchlik va havfsizlikni ta'minlash bo'yicha say harakatlarni muvofiqlashtirish, qolaversa, transport-kommunikatsiyalarni rivojlantirish istiqbollari, savdo va investitsiyalar hajmini oshirishga va iqtisodiy masalalarga ko'proq e'tibor qaratmoqda. 2018-yilning 3-sentabr kuni Qirg'izistonning Cho'lponota shahrida bo'lib o'tgan Turkiy Kengash sammitida Prezidentimiz SH.Mirziyoyev O'zbekiston nomidan il bor fahriy mehmon sifatida ishtirok etdi. 2019-yil 14-sentabrda esa Respublikamiz Naxichevan kelishuvini ratifikatsiya qildi va o'sha yilning 15-oktabrida bo'lib o'tgan sammitda O'zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining to'laqonli a'zosi sifatida qatnashdi.

SH.Mirziyoyev 2020-yil 10-aprelda bo'lib o'tgan Turkiy kengashning videokonferens shaklidagi navbatdan tashqari sammitida ishtirok etdi. Kengashning

2021-yil 31-mart kuni bo'lib o'tgan videokonferensiya shaklidagi norasmiy sammitida ushbu tuzulma doirasidagi ko'pqirrali munosabatlarni yanada kengaytirish hamda mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi. Sammitda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ishtirok etib, tashkilot doirasida qo'shma investitsiya jamg'armasi va taraqqiyot bankini tashkil etish bo'yicha harakatlarni kuchaytirishga chaqirdi. Prezidentimiz shuningdek, tashkilot doirasida Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'sis etish bo'yicha takliflarni ilgari surdi. Mazkur taklif nafaqat sammit ishtirokchilari balki butun xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etildi.

**Shanxay Hamkorlik Tashkiloti.** 1996-yilda Shanxayda, 1997-yilda Moskvada bo'lib o'tgan Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston davlat rahbarlarining sammitlarida harbiy sohada hamda chegara hududlarida o'zaro ishonchni mustahkamlash, qurolli kuchlarni qisqartirish to'g'risida shartnomalar imzolangan edi. Shu tariqa "Shanxay forumi" yoki "Shanxay beshligi" tashkiloti tuzilgan edi.

2001-yil 14-15-iyun kunlari Xitoyda navbatdagi Shanxay sammiti bo'lib o'tdi. Uning ishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov qatnashdi va O'zbekistonning "Shanxay forumi"ga to'la huquqli a'zo bo'lishi to'g'risida bayonot imzolandi.

O'zbekiston "Shanxay forumi"ga kirishi munosabati bilan uning nomi **Shanxay Hamkorlik Tashkiloti – SHHT**, deb o'zgartirildi. O'zbekiston uning asoschilaridan bin bo'ldi.

2001-yil iyunda bo'lgan sammit yakunida Shanxay Hamkorlik Tashkilotini tuzish to'g'risida deklaratсиya hamda terrorchilik, ayirmachihk va ekstremizmga qarshi kurash borasidagi Shanxay konvensiyasi imzolandi.

Deklaratsiyada Shanxay Hamkorlik Tashkilotining maqsadi a'zo mamlakatlarning bir-biriga o'zaro ishonchi, do'stlik va qo'shnichilikni mustahkamlash, ular orasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-teknikaviy, madaniy, ta'lim, energetika, transport, ekologiya va boshqa sohalardagi samarali hamkorlikni rag'batlantirishdan iborat ekanligi belgilab qo'yilgan.

2002-yil 6-7-iyun kunlari SHHT ga a'zo mamlakatlar davlat boshliqlarining Sankt-Peterburg shahrida navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi. Muzokaralar yakunida SHHTga a'zo davlatlar rahbarlarining Deklaratsiyasi, tashkilotning ta'sis hujjati – SHHT Xartiyasi, SHHTga a'zo davlatlar o'rtaida Mintaqaviy antiterror tuzilmasi haqidagi bitim imzolandi. Xartiya imzolanishi bilan SHHT doirasidagi tashkiliy-huquqiy ishlар nihoyasiga yetdi. SHHT ochiq tashkilot bo'lib, o'zaro ishonch, tenglik, manfaatdorlik, hamjihatlik tamoyillari asosida faoliyat yuritmoqda.

2003-yil 29-may kuni Moskvada bo'lib o'tgan sammitda SHHT ning doimiy amal qiluvchi idoralari – Pekinda Kotibiyyat va Toshkentda Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT) ijroiya qo'mitasini ishga tushirishga qaror qilindi. Bu tashkilotlar 2004-yil 1-yanvardan boshlab ish boshladilar.

2003-yil sentabrda Pekinda SHHT davlatlari hukumat boshliqlari (bosh vazirlar) Kengashi bo'lib o'tdi, uning qarori bilan ko'p tomonlama hamkorlikning uzoq muddatli dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. SHHT doirasida a'zo mamlakatlarning

tashqi ishlar vazirliklari, iqtisodiy va savdo vazirliklari, xavfsizlik kengashlari o'rtasida muntazam aloqalar yo'lga qo'yildi.

2004-yil 17-iyun kuni Toshkentda SHHT ga a'zo davlatlar rahbarlarining Sammiti bo'lib o'tdi. Unda ikki asosiy masala – xavfsizlik va savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha muzokaralar bo'ldi. Sammitda 2004-yil mart oyida O'zbekistonda sodir etilgan terrorchilik harakati nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida vaziyatni izdan chiqarishga qaratilganligi qayd etildi. Butun dunyoda terrorchilik kuchayib, yadroviy, kimyoviy, biologik, elektron terrorchilik xavfi paydo bo'lganligi, terrorchilarning bazalarini yo'qotish, odamlarning ongini zaharlaydigan, terrorchilikni moliyalashtiradigan markazlarga qarshi keskin kurash olib borish zarurligi ta'kidlandi.

2010-yil 11-iyun kuni Toshkentda SHHT Davlat rahbarlari kengashining navbatdagagi 10-majlisи bo'lib o'tdi. Davlat rahbarlari ko'p tomonlama va o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalar, muammolar bo'yicha fikr almashadilar. Kengashda kuzatuvchi va mehmon maqomidagi mamlakatlar delegatsiyalari rahbarlari – Turkmaniston, Pokiston va Mo'g'uliston Prezidentlari hamda Eron va Hindiston respublikalari tashqi ishlar vazirlari ishtirok etdilar. Sammitda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkam masalalariga alohida e'tibor berildi.

Muzokaralar yakunida SHHT Davlat rahbarlarining deklaratsiyasi, SHHTda yangi a'zolarini qabul qilish tartibi to'g'risida Nizom, SHHT MATT kengashining 2009-yildagi faoliyatiga doir hisoboti tasdiqlandi. SHHT Davlat rahbarlari kengashi 10-majlisи yakunlari to'g'risida axborot qabul qilindi. Shuningdek, SHHTga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasida qishloq xo'jaligi sohasida va jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik to'g'risidagi bitimlar imzolandi.

O'zbekiston tashqi siyosatida **Yevropa Ittifoqi** (YEI) bilan yaqin aloqalar o'matish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yevropa Ittifoqi, avvalambor, bugungi kunga kelib, a'zolari 27 Yevropa davlatidan iborat integratsiya birlashmasidir. Ushbu Ittifoq izchil ravishda imzolangan bir qator shartnomalarga asoslanib, ularning asosiy maqsadi urushdan keyingi Yevropada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash va a'zo-davlatlarni iqtisodiy integratsiya yo'li bilan birgalikda rivojlantirishdir.

O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi o'zaro manfaatlι hamkorlik munosabatlарining rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratdilar.

YEI bilan hamkorlik mamlakat tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining ustuvor yo'naliishi ekanidan kelib chiqqan holda O'zbekiston rahbariyati 1994-yilning mart oyida u bilan Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimni imzolash tashabbusi bilan chiqdi. Tomonlarning keng hamkorlik qilish bo'yicha eng asosiy hujjami imzolashga tayyorgarliklari yakuni 1996-yilning 21-iyunida Florensiyada (Italiya), "Forteza da Basso" qal'asida YEI a'zo-mamlakatlari davlat va hukumat rahbarlari uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimni imzolash marosimi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi kuchga kirgan sherklik va hamkorlik bitimi o'zining asosiy maqsadi sifatida O'zbekiston Respublikasi

mustaqilligi va suverenitetini qo'llab-quvvatlashni; O'Rning demokratiyani mustahkamlash, iqtisodiyot va bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi yutuqlarini rivojlantirish bo'yicha harakatlarini qo'llash; tomonlar o'rtasidagi siyosiy muloqotlar uchun tegishli ramkalarni ta'minlash; tomonlar o'rtasidagi savdo, investitsiyalar va uyg'un iqtisodiy munosabatlarga ko'maklashish va bu bilan mamlakatning barqaror iqtisodiy taraqqiyotini qo'llash; qonunchilik, iqtisodiyot, ijtimoiy, moliyaviy, fuqarolik, ilmiy, texnologik va madaniy sohalardagi hamkorlikning asoslarini yaratish; O'zbekistonda qonun ustuvorligiga asoslangan fuqarolik jamiyati qurishga ko'maklashishni biladi.

O'zbekiston uchun Yevropa Ittifoqi ishonchli sherik hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi bilan yaqinlashish va hamkorlikka intilar ekan O'zbekiston uning yordamida transport, energetika. Moliya sohasi, xususiy lashtirish, ilm-fan, ta'lim, atrof muhitni muhofaza qilish, shuningdek demokratiya va inson huquqlari sohasi bilan bog'liq keng qamrovli muammolarni hal etishga harakat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov boshchiligidagi ishlab chiqilgan O'zbekistonning tashqi siyosiy yo'lli, bu yo'lning xalqaro huquq normalariga mosligi, shuningdek, mamlakat tashqi siyosiy faoliyatining huquqiy asoslari va idoraviy tuzilmalarini shakllantirish bo'yicha boshlangan jarayon mustaqillikning birinchi yillardayoq dunyo hamjamiyati e'tiboriga tushdi. Buning dalili mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq uni xorijiy mamlakatlar tan olib, diplomatik munosabatlар o'mata boshlaganlarida ko'rish mumkin.

1991-yilning oxirigacha O'zbekiston Respublikasi bilan Ozarbayjon (19-oktabr), Rossiya Federatsiyasi (26-oktabr), Qirg'iziston (31-oktabr), Moldova (14-noyabr), Qozog'iston (7-dekabr) o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik prinsiplari to'g'risidagi kelishuvlar imzolandi. Shu vaqt orasida O'zbekiston Respublikasining Ukraina (28-oktabr) va Belarus (6-noyabr) bilan davlatlararo munosabatlari asoslari to'g'risidagi shartnomalarga imzo chekildi.

### **3. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan ko'ptomonlama hamkorlik munosabatlari.**

1992-1993-yillar davomida O'zbekiston Yevropa va Amerika, Osiyo va Afrika qit'asidagi mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlар o'matilib, teng huquqli o'zaro hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiya kiritishda, maxsulot eksporti va importida asosan G'arbiy Yevropa va Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan yaqin sheriklik munosabatlari o'matildi.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan O'zbekiston tashqi savdo faoliyatining 2019-yil yakunlarini tahlil qiladigan bo'lsak mamlakatimizning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarining bugungi jarajasini ko'rishimiz mumkin. Qayd etilishicha, 2019-yil yakunida O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi 42,2 mlrd. dollarni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,3 mlrd. dollarga o'sgan (o'sish sur'ati – 26,2 %).

Kususan, mahalliy tovarlar va xizmatlarning xorijiy mamlakatlarga eksporti 2018-yilga nisbatan 3,9 mlrd. dollarga yoki 15 %ga o'sgan va 17,9 mlrd. dollarni tashkil etgan.

O'zbekiston eksportida maxsulot turlari ulushi quyidagicha taqsimlangan:

| <b>№</b> | <b>Maxsulot turi</b>   | <b>dollarda</b> | <b>umumiyl<br/>eksportdagl<br/>ulushi</b> |
|----------|--|-----------------|---|
| 1.       | Qimmatbaho va yarm qimmatbaho metallardan tayyorlangan mahsulotlar | 5,1 mlrd.       | 28,5 %                                    |
| 2.       | Xizmatlar  | 3,6 mlrd.       | 19,9 %                                    |
| 3.       | Energiya tashuvchilar  | 2,5 mlrd.       | 14,1 %                                    |
| 4.       | To'qimachilik mahsulotlari   | 1,6 mlrd.       | 9,1 %                                     |
| 5.       | Oziq-ovqat mahsulotlari  | 1,5 mlrd.       | 8,5 %                                     |
| 6.       | Rangli metallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar                | 951,3 mln       | 5,3 %                                     |
| 7.       | Kimyoiy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar            | 876,9 mln       | 4,9 %                                     |
| 8.       | Qora metallar va undan tayyorlangan buvumlar                       | 349,6 mln       | 2 %                                       |

2019-yil davomida 2,700 ta yangi korxonalar eksport faoliyatiga jalg qilinib, ular hisobiga 1 mlrd. dollardan ortiq qo'shimcha eksport amalga oshirildi. Bundan tashqari, 42 ta mamlakatlar bozorlariga 206 ta yangi turdag'i mahsulotlar eksporti o'zlashtirildi.

Mazkur yilda Respublika import ko'rsatkichi 4,8 mlrd. dollarga o'sib, 24,3 mlrd. dollarga yetdi, bu esa 2018-yilga nisbatan 25 %ga ko'pdirdi.

#### **Import tarkibi:**

- 1.Asbob-uskunalar - 5,6 mlrd. dollar (jami importdag'i ulushi 23,1 %),
- 2.Transport vositalari va ehtiyyot qismlari - 2,6 mlrd. dollar (10,8 %),
- 3.Xizmatlar - 2,4 mlrd. dollar (10 %),
- 4.Qora metall va ulardan tayyorlangan mahsulotlar - 2,2 mlrd. dollar (9,1 %),
- 5.Elektr jihozlari - 1,3 mlrd. dollar (5,5 %),
- 6.Oziq-ovqat mahsulotlari - 1,2 mlrd. dollar (5,2 %),
- 7.Energiya tashuvchilar - 928,1 mln dollar (3,8 %),
- 8.Farmatsevtika mahsulotlari - 926,8 mln dollar (3,8 %),
- 9.Yog'och va undan tayyorlangan mahsulotlar - 903,7 mln dollar (3,7 %),
- 10.Kimyoiy mahsulotlar - 843,5 mln dollar (3,5 %),
- 11.Plastmassa va undan tayyorlangan mahsulotlar - 811,7 mln dollar (3,3 %) va boshqalar tashkil qiladi.

Vazirlik tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra O'zbekistonning tashqi savdo hamkorlari soni 2018-2019-yillarda 178 tani tashkil etgan.

#### **Tovar aylanmasi bo'yicha yetakchi davlatlar:**

- 1.Xitoy (7,6 mlrd. dollar yoki 18,1 %)
- 2.Rossiya (6,6 mlrd. dollar yoki 15,7 %),
- 3.Qozog'iston (3,3 mlrd. dollar yoki 8 %),
- 4.Koreya Respublikasi (2,7 mlrd. dollar yoki 6,5 %),
- 5.Turkiya (2,5 mlrd. dollar yoki 6 %),
- 6.Germaniya (980 mln dollar yoki 2,3 %),
- 7.Qirg'iziston (829 mln dollar yoki 2 %),
- 8.Afg'oniston (618 mln dollar yoki 1,5 %)
- 9.AQSH (596 mln dollar yoki 1,4 %)

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yil 1-yanvar holatiga respublikada ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 12,3 mingtani tashkil etib, ulardan 11,8 mingtasi faoliyat yuritmoqda. Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan 1 399 taga oshgan.

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston o'zining o'ttiz yillik tashqi siyosiy faoliyatida, nufuzli xalqaro tashkilotlar va jahonning rivojlangan mamlakatlari bilan ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy hamkorlik munosabatlarni yo'lga qo'yish bo'yicha asrlarga teng muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Xalqaro munosabatlarning faol a'zosi sifatida o'zining munosib o'mi va so'ziga ega bo'ldi.

#### **Mavzuning asosiy tushunchalari:**

**AKKREDITATSIYA (AKKREDITLASH)** – Xalqaro huquqda davlatning diplomatik vakolatxona boshlig'i yoki biron-bir xalqaro tashkilotda doimiy vakili lavozimiga tayinlash va lavozimini bajarishga kirishishi bilan bog'liq xatti-harakatlar majmui. Davlatning xalqaro tashkilotdagi doimiy vakili xalqaro tashkilotning vakolati organiga vakolat yorlig'ini topshirgan paytdan boshlab o'z vazifalarini bajarishga kirishgan hisoblanadi.

**ARALASHMASLIK QOIDASI** – boshqa davlatlar yoki xalqlarning ichki ishlari aralashmaslik to'g'risidagi qoida. Xalqaro huquqda tinchlikni saqlash va mustahkamlashning asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi.

**DEMARKATSIIYA** (fransuzcha "demarcation") – chegaralarni belgilash. Chegaradosh davlatlar o'rtasida o'zaro shartnoma va kelishuvlar asosida maxsus chegara belgilarini o'matish orqali davlat chegaralarini belgilab olish.

**GEOSIYOSAT (Geopolitika)** yunoncha geo – yer, politike – davlatni boshqarish san'ati. Davlat va jamiatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari va siyosiy taraqqiyot qonuniyatlarini geografik va tabiiy omillar asosida o'rganuvchi ta'limot.

**GLOBAL MUAMMOLAR** (fransuzcha "global" – umumiyl, lotincha "globus" – yer shari) – bitta davlat yoki mintaqaninggina emas, balki butun yer yuzi, insoniyat hayoti va kelajagiga dahldor umumbashariy muammolar. Yer yuzida tinchlikni saqlash, yadro urushining oldini olish, atrof muhitni muhofaza qilish, yer iqlimi isishining oldini olish, yoqilg'i-energetikaning yangi turlarini yaratish, azon qatlamin muhofaza qilish, xalqaro terrorizmning oldini olish kabi muammolar hozirgi paytdagi eng dolzarb global muammolar hisoblanadi.

Mustaqillik yillarda O'zbekiston 500 dan ortiq ikki tomonlama va ko'ptomonlama shartnomalar, bitimlar tuzdi, 80 dan ortiq muhim xalqaro konvensiya va shartnomalarga qo'shildi. O'zbekiston teng huquqlar asosida jahonning barcha obro'li va ta'siri kuchli xalqaro tashkilotlariga a'zo bo'lgan

**IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTI (IHT)** – xalqaro iqtisodiy tashkilot. 1985-yili Eron, Pokiston, Turkiya hamkorligida tuzilgan. 1992-yil fevraldan Ozarbayjon, O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston Respublikalari a'zo bo'lib kirgan. Tashkilot idorasi Tehron shahrida.

Ushbu tashkilot bugungi kunda nufuzli mintaqaviy birlashma hisoblanadi. Ushbu ko'p tomonlama tuzilmaning asosiy maqsadi savdo, investitsiyalar, innovatsiyalar, transport, kommunikatsiyalar, energetika, qishloq xo'jaligi va sanou'i kabi ustuvor yo'nalishlarda hamkorlikni rivojlanтирishdan iborat.

Bugungi kunda 10 ta davlat IHTga a'zo Bular – O'zbekiston, Turkiya, Eron, Pokiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon va Afg'oniston.

**ISLOM TARAQQIYOT BANKI** – islomiy moliyalashtirishga yo'naltirilgan ko'p tomonlama rivojlanishga qaratilgan moliya instituti. 1973-yilda **Islom konferensiysi tashkiloti** (hozirgi Islom hamkorlik tashkiloti) moliya vazirlari yig'ilishida Saudiya Arabiston tashabbusi bilan asos solingen va o'z faoliyatini 1975-yil 3-aprelda boshlagan. Qarorgohi Saudiya Arabistonning Jidda shahrida joylashgan. Bugungi kunda bankka 57 ta davlat a'zo bo'lib, ustav jamg'armasi 150 mlrd. dollarga teng.

O'zbekiston Islom taraqqiyot bankiga 2003-yilda a'zo bo'lgan. 2003-2021-yillarda ITB bilan hamkorlikda jami 2,5 mlrd. dollardan ortiq bo'lgan 30 ta yirik investitsiya loyihasi ma'qullangan. Ular doirasida maktablar, arzon uy-joylar, avtomobil yo'llari, elektr va ichimlik suvi tarmoqlari qurilib, sog'liqni saqlash muassasalari zamонави jihozlangan.

**MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi)** – sobiq SSSRning uchta respublikasi RSFSR, Belorus va Ukraina vakillari tomonidan 1991-yil 8-dekabrda Minskda imzolangan MDHni tashkil etish haqidagi Bitim, 1991-yil 21-dekabrda (Boltiq bo'yি respublikalari va Gruziyadan tashqari) 11 sobiq Ittifoq respublikalari tomonidan Olmaotada imzolangan Bitimga Protokol va shu sanada imzolangan Olmaota Deklaratsiyasi asosida tashkil qilingan davlatlararo ixtiyoriy birlashma. 1993-yil 22-yanvarda Minskda qabul qilingan MDH Ustavi O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan o'sha yili ratifikatsiya qilingan. Ustavga binoan Hamdo'stlik maqsadi xalqlar va davlatlarning siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, ta'lif, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, fan, texnika, savdo-sotiq, insonparvarlik va boshqa sohalardagi teng huquqli va o'zarlo foydalii hamkorlik qilish, keng axborot almashinuvi, o'zarlo majburiyatlarni vijdonan va so'zsiz bajarishdan iborat.

**VIZA** (fransuzcha "visa" – ko'rib chiqilgan) – biror bir shaxsning mamlakat hududiga kirishi yoki chiqishi uchun ruxsat beruvchi uning hujjatiga qoyiladigan belgi. Viza mazkur mamlakat hukumatni organlari tomonidan ma'lum bir muddatga beriladi.

**XALQARO VALYUTA FONDI** – 1944-yil Bretton-Wuds (AQSH)da o'tkazilgan Xalqaro konferensiya tashkil etilgan. BMTning ixtisoslashtirilgan tashkiloti maqomiga ega. Qarorgohi Washington shahrida joylashgan. Uning asosiy maqsadi a'zo davlatlar valyuta-moliyaviy siyosatini muvofiqlashtirish, a'zo davlatlar valyuta kursini, to'lov balansini qo'llab-quvvatlash, ularga qisqa muddatli va o'rta muddatli qarzlar berish kabilidan iborat.

1991-yilga kelib unga a'zo mamlakatlar soni 153 ta bo'lib, kapitali 120 mlrd. dollarni tashkil etgan.

O'zbekiston ushbu tashkilotga 1992-yil 21-oktabrda a'zo bo'lgan.

**SAMMIT** (ing. summit – cho'qqi, yuqoriga) – davlat raxbarlari yoki hukumat boshliqlarining oliv darajadagi uchrashuv-muzokalarari.

**SIMPOZIUM** (lot. symposium, yunoncha symposoin – bazm) – biron bir ilmiy masala yizasidan o'tkaziladigan yig'ilish yoki uchrashuv. Odatda simpozium xalqaro miqyosda o'tkaziladi.

**SHHT (Shanxay Hamkorlik Tashkiloti)** – tinchlik, havfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, o'zaro savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tuzilgan xalqaro hukumatlارaro tashkilot. 2006-yildan oltita davlatni (Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston) o'z ichiga oladi. SHHTning shakllanishi 1992-yildan Xitoy bilan chegaradosh beshta sobiq Sovet Ittifoqi respublikalarining o'zaro chegaralarni aniqlash bilan bog'liq muammolarni muhokama qilishdan boshlandi. 1996-yil Shanxayda, 1998-yilda Olmaotada, 1999-yilda Bishkekda o'tkazilgan besh davlat rahbarlarining sammiti chegaralarni mustahkamlash, chegara hududlarida qurolli kuchlarni qisqartirish kabi masalalarni kelishib hal etishga qaratildi. 2000-yil iyulida Dushanba sammitida O'zbekiston Prezidenti kuzatuvchi sifatida qatnashdi. 2001-yil 15-iyunda SHHTga oltinchi a'zo bo'lib O'zbekiston qo'shildi. 2003-yil 28-29-mayda Moskvada SHHTning tashkiliy organlari, ramzlari tasdiqlanib, 2003-yil sentabrida Pekinda "SHHTga a'zo davlatlarning 20 yilga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturi qabul qilindi. 2004-yil iyunidan tashkilot to'la ravishda ishga kirishdi. 2005-yil iyulida Ostona sammitida Eron, Pokiston va Hindiston, kuzatuvchi maqomidagi Mongoliyaga qo'shildilar.

**YUNESKO** – BMTning ta'lim, ilm-fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti. YUNESKO Ikkinci jahon urushidan so'ng, 44 ta davlat vakillari Londonda konferensiyaga yig'ilib, YUNESKOni ta'sis etuvchi Ustavni qabul qilishlari bilan tashkil topgan. YUNESKOning amaliy faoliyati 1946-yil 20-noyabrdan boshlangan. Qarorgohi Parijda. Tuzilish davrida 28 ta davlat a'zo bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda unga 186 ta davlat a'zo.

O'zbekiston Respublikasi 1993-yil 29-oktabrda ushbu tashkilotga a'zo bo'lgan. YUNESKOning maqsad va vazifalari: ta'lim, ilm-fan va madaniyat sohasida xalqaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga hissa qo'shish; qonunchilik va adolatilikka hurmat, irqi, jinsi, tili va dinidagi tafovutdan qat'iy nazar, inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilishni ta'minlash.

**YEXHT (Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti)** – Xalqaro mintaqaviy tashkilot. Uning ta'sis etuvchi hujjatlari 1975-yilda Xelsinkida imzolangan Yakunlovchi hujjat, 1990-yilda Parijda qabul qilingan Yangi Yevropa uchun Xartiya va unga qo'shimcha xujjat, 1992-yilda Xelsinkida qabul qilingan "O'zgarishlar vaqtichaqirig'i" Deklaratsiyasi hisoblanadi. Shunga muvofiq YEXHT ning asosiy faoliyat sohalari: xavfsizlik, qurolsizlanish, kelishmovchiliklarni bartaraf etish, iqtisodiyot, madaniyat, ekologiya, inson huquqlari va erkinliklari va boshqa masalalarda hamkorlik qilishdan iborat.

**YevrAzES** – Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi. 2000-yil 10-oktabrda Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya va Tojikiston davlat rahbarlari imzo chekkan shartnomasi asosida tuzilgan xalqaro tashkilot. 2005-yil 7-sentabrda Sankt-Peterburg

uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning taklifi bilan "Markaziy Osiyo hamkorligi" va YevrAzES ayni bir xil maqsad va vazifalarini oldiga qo'yanligini ko'zda tutib bu ikkala tashkilot birlashtirildi.

YevrAzES davlatlari rahbarlarining 2006-yil 24-yanvardagi Sankt-Peterburg sammitida O'zbekiston Respublikasi YevrAzES a'zoligiga rasmiy ravishda qabul qilindi. Ammo 2008-yil oktabr oyida YevrAzES tashkiloti ishida samaradorlik va izchillik kuzatilmayotganligi sababli O'zbekiston bu tashkilotdan chiqishini e'lon qildi. 2008-yil 12-noyabrda tashkilot O'zbekistonning YevrAzES ga a'zolikdan chiqqanligini rasmiy ravishda tasdiqladi. 2020-yil 11-dekabrdan bo'lib o'tg'an sammitida O'zbekiston ushu tashkilotning kuzatuvchi davlati maqomini oldi.

#### **Mavzuga oid muhim sanalar:**

|                          |  |
|--------------------------|--|
| 1990-yil iyun            | Olmaotada O'rta Osiyo davlatlari boshliqlarining birinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi.   |
| 1991-yil<br>13-15-avgust | Toshkentda O'rta Osiyo davlat rahbarlarining navbatdagi ikkinchi uchrashuvi o'tkazildi.  |
| 1991-yil 26-sentabr      | Toshkentda jahon o'zbeklari (turkistonliklar)ning xalqaro anjumanı o'tkazildi.   |
| 1991-yil 30-sentabr      | Oliy Kengashning Litva, Latviya va Estoniya mustaqilligini e'tirof etish to'g'risidagi Qarori va Murojaatnomasi qabul qilindi.   |
| 1991-yil 26-oktabr       | I.A.Karimov Moskvaga rasmiy tashrif buyurdi.   |
| 1991-yil 30-oktabr       | Kipr Prezidenti Georgios Vasiliu O'zbekistonga keldi.  |
| 1991-yil 6-noyabr        | Belorussiya Oliy Soveti raisi S.Shushkevich O'zbekistonga tashrif buyurdi. O'zbekiston va Belorussiya davlatlararo munosabatlарining asosiy prinsiplari to'g'risidagi shartnomasi imzolandi.   |
| 1991-yil 29-noyabr       | Eron tashqi ishlar vaziri Ali Akbar Viloyatiy O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 1991-yil 8-dekabr        | Rossiya (B.Yelsin), Ukraina (L.Kravchuk), Beloruss (S.Shushkevich) rahbarlari Belovej Pushehasida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini tuzish to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Uchta respublika o'rtaida 1922-yil 30-dekabrabrda SSSRni tuzish to'g'risidagi shartnomasi bekor qilindi. |
| 1991-yil 13-dekabr       | Ashxabodda O'rta Osiyo respublikalari rahbarlari uchrashuvi o'tkazilib, unda Minskda imzolangan shartnomani muhokama qildilar. Tajan-Saraxs temir yo'lini qurish bo'yicha bitim imzolandi.   |
| 1991-yil<br>16-19-dekabr | I.A.Karimov Turkiyada bo'lib Prezident Turg'ut O'zol va Bosh vazir S.Demirel bilan uchrashdi.  |
| 1991-yil 21-dekabr       | 11 ta davlat boshliqlari Rossiya (B.Yelsin), Ukraina (L.Kravchuk), Belorussiya (S.Shushkevich), Oozog'iston  |

|                       |   |
|-----------------------|---|
|                       | (N.Nazarbayev), O'zbekiston (I.A.Karimov), Qirg'iziston (A.Akayev), Tojikiston (I.Rahmonov), Turkmaniston (S.Niyazov), Ozarbayjon (A.Mutalibov), Armaniston (T.Petrosyan) va Moldova (M.Snegur) MDH muassislari sifatida <b>Olmaota deklaratsiyasini imzoladilar.</b> |
| 1991-yil 25-dekabr    | O'zbekiston Jahan intellektual mulk tashkilotiga (Jeneva) a'zo bo'ldi.  |
| 1991-yil 30-dekabr    | Minskda MDH davlat boshliqlarining kengashi bo'lib o'tdi.   |
| 1992-yil 2-3-yanvar   | Xitoy Xalq Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar va tashqi savdo vaziri Li Lanzin O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 1992-yil 15-yanvar    | I.A.Karimov "Nyumont-mayning korpoeyshn" direktori Gordon Parkemi qabul qildi. 1992-yilning fevral oyida "Zarafshon-Nyumont" qo'shma korxonasini tashkil to'g'risida shartnoma imzolandi.   |
| 1992-yil 26-yanvar    | O'zbekiston-Yaponiya o'rtaida diplomatik munosabatlar o'matildi.  |
| 1992-yil 2-fevral     | I.A.Karimov an'anaviy Davos (Shvetsariya) istisodiy anjumanida ishtirok etdi.   |
| 1992-yil 15-16-fevral | AQSH davlat kotibi Jeyms Beyker O'zbekistonga keldi. AQSH bilan diplomatik aloqalar o'matildi.  |
| 1992-yil 17-fevral    | O'zbekiston Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti – EKOga (Tehron) a'zo bo'ldi.  |
| 1992-yil 19-fevral    | I.A.Karimov Saudiya Arabistonni tashqi ishlar vaziri al-Faysal al-Saudni qabul qildi.   |
| 1992-yil 26-fevral    | O'zbekiston hukumati nomidan I.A.Karimov Xelsinkida <b>Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti</b> (YEXHT)ning Yakunlovchi aktini imzoladi. O'zbekiston ushbu tashkilotga a'zo bo'ldi.   |
| 1992-yil 2-mart       | O'zbekiston <b>BMTga</b> (Nyu-York) a'zo bo'ldi.  |
| 1992-yil 6-mart       | O'zbekiston Germaniya Federativ Respublikasi bilan diplomatik munosabatlar o'matdi.   |
| 1992-yil 12-14-mart   | I.A.Karimov Xitoy Xalq Respublikasida bo'ldi.   |
| 1992-yil 16-mart      | Toshkent shahrida birinchi bo'lib AQSH elchixonasi ochildi.   |
| 1992-yil 18-mart      | O'zbekiston Hindiston Respublikasi bilan diplomatik munosabatlar o'matdi.   |
| 1992-yil 20-mart      | O'zbekiston Rossiya Federatsiyasi bilan diplomatik munosabatlar o'matdi.  |
| 1992-yil mart         | O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtaida diplomatik aloqalar o'matildi.   |
| 1992-yil 22-mart      | O'zbekiston <b>Xalqaro olimpiya qo'mitasiga</b> (Lozanna) a'zo bo'ldi.  |
| 1992-yil 11-13-aprel  | I.A.Karimov Saudiya Arabistonida bo'ldi.  |
| 1992-yil 23-aprel     | I.A.Karimov Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Bishkek uchrashuvida ishtirok etdi.  |

|                       |  |
|-----------------------|--|
| 1992-yil 27-aprel     | O'zbekiston Yevropa rekonstruksiya va taraqqiyot bankiga (London) a'zo bo'ldi.   |
| 1992-yil 27-28-aprel  | Turkiya Respublikasi bosh vaziri Sulaymon Demirelning O'zbekistonga tashrifi.<br>O'zbekistonda Turkiya elchixonasi, Turkiyada O'zbekiston elchixonasi ochildi.   |
| 1992-yil 8-may        | Erkki Tilikaynen boshchiligidagi Finlandiya delegatsiyasi O'zbekistonga tashrif buyurdi.   |
| 1992-yil 9-10-may     | Ashxabodda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Eron, Turkiya, Pokiston davlat rahbarlari uchrashuvi bo'lib o'tdi. <b>Tajan-Seraxs-Mashxad</b> temir yo'lini qurish haqida bitim imzolandi. |
| 1992-yil 15-may       | MDHning Toshkent uchrashuvi bo'lib o'tdi. Kollektiv xavfsizlik shartnomasi (ODKB) imzolandi.   |
| 1992-yil 16-may       | Rossiya Federatsiyasi Prezidenti B. Yelsinning O'zbekistonga tashrifi.   |
| 1992-yil 22-may       | O'zbekiston Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST)ga (Jeneva) a'zo bo'ldi.  |
| 1992-yil 30-may       | I.A.Karimov Rossiya Federatsiyasida bo'ldi.  |
| 1992-yil 19-iyun      | I.A.Karimov Janubiy Koreyada bo'ldi.   |
| 1992-yil 24-iyun      | Turkiston shahrida O'zbekiston-Qozog'iston o'rtaсиda do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomasi imzolandi.  |
| 1992-yil 27-28-iyun   | Pokiston Bosh vaziri Navoz Sharif O'zbekistonda bo'ldi. Toshkentda Pokiston elchixonasi ochildi.   |
| 1992-yil 9-10-iyul    | I.A.Karimov YEXHTning Xelsinki shahrida bo'lib o'tgan majlisida ishtiroy etdi va tashkilotning 10-iyuldagisi raislik qildi.  |
| 1992-yil 10-iyul      | O'zbekiston Xalqaro elektraloqa ittifoqiga (Jeneva) a'zo bo'ldi.   |
| 1992-yil 13-iyul      | O'zbekiston Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)ga (Jeneva) a'zo bo'ldi.  |
| 1992-yil 22-iyul      | O'zbekiston Bojxona hamkorlik kengashiga (Bryussel) a'zo bo'ldi.   |
| 1992-yil 13-14-avgust | I.A.Karimov Pokiston Islom Respublikasida bo'ldi.  |
| 1992-yil 25-avgust    | I.A.Karimov Ukrainada bo'lib L.Kravchuk bilan uchrashdi. Davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomasi imzolandi.  |
| 1992-yil 1-sentabr    | O'zbekiston Qo'shilmaslik harakatiga (Jakarta) a'zo bo'ldi.  |
| 1992-yil 23-sentabr   | Toshkentda <b>Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti</b> tashkil etildi.   |
| 1992-yil 29-sentabr   | Qirg'iziston Prezidenti A.Akayev O'zbekistonda bo'ldi. O'zbekiston-Qirg'iziston o'rtaсиda do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnomasi imzolandi.  |

|                         |  |
|-------------------------|--|
| 1992-yil 1-2-oktabr     | Finlandiya Prezidenti M.Kayvisto O'zbekistonga tashrif buyurdi.  |
| 1992-yil 8-oktabr       | Tojikiston Prezidenti I.Raxmonov O'zbekistonga tashrif buyurdi.  |
| 1992-yil 13-oktabr      | Afgoniston Prezidenti B.Rabboni O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 1992-yil 21-oktabr      | O'zbekiston Xalqaro rekonstruksiya va taraqqiyot banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi tashkilotlariga (Vashington) a'zo bo'ldi.  |
| 1992-yil 29-oktabr      | Turkiy tilli davlatlamining Anqara uchrashuvi bo'lib o'tdi.  |
| 1992-yil 12-noyabr      | O'zbekiston Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotiga (Montreal) a'zo bo'ldi.  |
| 1992-yil 24-25-noyabr   | I.A.Karimov Eron Islom Respublikasida bo'ldi.  |
| 1993-yil 3-4-yanvar     | Toshkentda O'rta Osiyo davlat rahbarlari uchrashuvi bo'lib o'tdi. Markaziy Osiyo atamasi paydo bo'ldi. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasini tuzish haqida qaror qabul qilindi. |
| 1993-yil 21-yanvar      | O'zbekiston Xalqaro qizil xoch va qizil yarim oy qo'mitasiga (Jeneva) a'zo bo'ldi.   |
| 1993-yil 23-yanvar      | O'zbekiston Jahon meteorologiya tashkiloti (JMT)ga (Jeneva) a'zo bo'ldi.   |
| 1993-yil 1-fevral       | I.A.Karimov Davos xalqaro iqtisodiy anjumanida ishtirok etdi.  |
| 1993-yil 19-fevral      | Ukraina bosh vaziri L.Kuchma O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 1993-yil 19-mart        | B.Yelsin O'zbekistonda bo'ldi. Madaniyat, fan-texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot, sport va turizm sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar imzolandi.             |
| 1993-yil 30-mart        | Qizil O'rda shahrida Markaziy Osiyo va Rossiya davlat boshliqlari anjumani bo'lib o'tdi.   |
| 1993-yil 4-aprel        | Turkiya Respublikasi Prezidenti Turgut O'zol O'zbekistonga tashrif buyurdi.  |
| 1993-yil 14-15-aprel    | I.A.Karimov Turkmanistonda bo'ldi.   |
| 1993-yil 20-aprel       | Toshkentda Butunjahon iqtisodiy anjumani bo'lib o'tdi. Unda 30 dan ortiq mamlakatning milliy firma, bank va kompaniyalari rahbarlari ishtirok etdi.                              |
| 1993-yil 28-aprel-3-may | I.A.Karimov Germaniyada bo'lib, GFR Prezidenti Rixard fon Vayzenker va kansler Gelmut Kol bilan uchrashdi.   |
| 1993-yil 30-aprel       | Toshkentda Germaniya elchixonasi ochildi.  |
| 1993-yil 23-25-may      | Hindiston Bosh vaziri Narisamxa Rao O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 1993-yil 8-iyun         | I.A.Karimov Niderlandiya qirolligida bo'ldi.   |
| 1993-yil 17-iyun        | I.A.Karimov Shvetsariya Forum fondida ishtirok etdi.   |
| 1993-yil 5-iyul         | Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (EKO)ning Stanbul uchrashuvi bo'lib o'tdi.  |

|                        |   |
|------------------------|---|
| 1993-yil 17-19-iyul    | Buyuk Britaniya qirolichasining qizi malika Anna O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 1993-yil 28-iyul       | I.A.Karimov Olmaotada bo'ldi. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtaida 1994-2000-yillarda iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish chora tadbirlari to'g'risida bitim imzolandi |
| 1993-yil 14-avgust     | I.A.Karimov Qirg'izistonga tashrif buyurdi.   |
| 1993-yil 17-19-avgust  | I.A.Karimov Hindiston Respublikasida bo'ldi.  |
| 1993-yil 26-avgust     | Ko'kchatovda Qozog'iston, O'zbekiston va Qirg'iziston davlat rahbarlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi.  |
| 1993-yil avgust        | Nukusda Orol muammosi bilan shug'ullanuvchi Davlatlararo Kengash va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining go'shma majlisi bo'lib o'tdi.                                  |
| 1993-yil 26-28-sentabr | I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida ishtirok etib nutq so'zлади.   |
| 1993-yil 18-oktabr     | Eron Islom Respublikasi Prezidenti Ali Akbar Xoshimiyo Rafsanjoniy O'zbekistonga keldi.   |
| 1993-yil 24-oktabr     | <b>Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi.</b>  |
| 1993-yil 28-30-oktabr  | I.A.Karimov Fransiyada bo'lib, Prezident F.Mitteran bilan uchrashdi.  |
| 1993-yil 29-oktabr     | Parjida O'zbekiston YUNESKOga a'zo bo'ldi. Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligini nishonlash YUNESKO dasturiga kirtildi.  |
| 1993-yil 22-25-noyabr  | I.A.Karimov Buyuk Britaniyada bo'lib, qirolicha Yelizaveta II va Bosh vazir Jon Meyjor bilan uchrashdi.   |
| 1993-yil 16-dekabr     | Misr Arab Respublikasi Prezidenti X.Muborak O'zbekistonga keldi.  |
| 1993-yil 23-24-dekabr  | MDHning Ashxabod uchrashuvi. Gruziya MDHning 12-a'zosi bo'ldi.  |
| 1994-yil 3-5-yanvar    | I.A.Karimov Hindiston Respublikasida bo'ldi.  |
| 1994-yil 10-12-yanvar  | N.Nazarboyev O'zbekistonda bo'ldi. O'zbekiston va Qozog'iston o'rtaida yagona iqtisodiy makon barpo etish to'g'risidagi shartnoma imzolandi.                                |
| 1994-yil 11-yanvar     | Nukusda Orol muammosi bo'yicha Markaziy Osiyo va Rossiya Federatsiyasi (Y.Yakovlev Bosh vazir o'rinnbosari) konferensiya o'tkazildi.  |
| 1994-yil 15-yanvar     | O'zbekiston Xalqaro atom energiyasi agentligi - MAGATEga (Vena) a'zo bo'ldi.  |
| 1994-yil 16-yanvar     | I.A.Karimov Qirg'izistonda bo'ldi. O'zbekiston-Qirg'iziston o'rtaida yagona iqtisodiy makon tashkil etish to'g'risida shartnoma imzolandi.                                  |
| 1994-yil 27-31-yanvar  | I.A.Karimov Davos xalqaro iqtisodiy anjumanida ishtirok etdi.   |

|                        |   |
|------------------------|---|
| 1994-yil 11-fevral     | Nukusda Orol muommosiga bag'ishlangan xalqaro anjuman bo'lib o'tdi.   |
| 1994-yil 2-mart        | I.A.Karimov Rossiya Federatsiyasida bo'ldi.   |
| 1994-yil 13-aprel      | Xalqaro Olimpiya qo'mitasining raisi X.A.Samaranch Toshkentda bo'ldi.   |
| 1994-yil 18-20-aprel   | Xitoy Xalq Respublikasi davlat Kengashi raisi Li Pen O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 1994-yil 20-aprel      | O'zbekiston BMTning bolalar tashkiloti – YUNISEFga (Nyu-York) a'zo bo'ldi.  |
| 1994-yil aprel         | O'zbekiston BMTning sanoat taraqqiyoti bo'yicha tashkiloti (YUNIDO)ga a'zo bo'ldi.  |
| 1994-yil 25-27-aprel   | Fransiya Prezidenti F.Mitteran O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 1994-yil 30-aprel      | Cho'ponotada O'zbekiston-Qozog'iston-Qirg'iziston o'rtaida yagona iqtisodiy makon tuzish to'g'risidagi uch tomonloma shartnoma imzolandi.   |
| 1994-yil 16-19-may     | I.A.Karimov Yaponiyada bo'ldi. Yaponiya O'zbekistonga 156,1 mln. dollar beg'araz yordam berdi.  |
| 1994-yil 23-may        | Qozog'iston Prezidenti N.Nazarboyev Toshkentga keldi.   |
| 1994-yil 4-iyun        | Janubiy Koreya Prezidenti Kim Yen Sam O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 1994-yil 9-12-iyun     | I.A.Karimov Niderlandiyada bo'lib, qirolicha Beatriks va Bosh vazir Rudolf Lyubbers bilan uchrashdi.  |
| 1994-yil 23-iyun       | I.A.Karimov Turkiya Respublikasiga rasmiy tashrif bilan bordi.  |
| 1994-yil 8-iyul        | Olmaotada O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Prezidentlarining uchrashuvni bo'lib o'tdi. Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki ("T-sentrazbank") tashkil etildi. <b>Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati (MOIH)</b> tashkil topdi. |
| 1994-yil 1-sentabr     | Bonn shahrida (GFR) O'zbekiston Respublikasining Yevropadagi birinchi elchixonasi ochildi.  |
| 1994-yil 28-30-sentabr | Toshkentda YEXHTning umumiy masalalarga bag'ishlangan anjumani bo'lib o'tdi.  |
| 1994-yil 22-sentabr    | O'zbekiston Jinoyat politsiyasi xalqaro tashkiloti – Interpolga (Rim) a'zo bo'ldi.  |
| 1994-yil 3-oktabr      | BMT yordamida Toshkentda Jahon sayyohlik tashkilotining "Ipak yo'li" xalqaro konferensiysi ochildi. "Ipak yo'li bo'ylab sayyohlik bo'yicha Samarqand deklaratsiyasi" qabul qilindi.   |
| 1994-yil 8-oktabr      | Tojikiston Prezidenti I.Raxmonov Toshkentga keldi.  |
| 1994-yil oktabr        | Parijda Ulug'bek haftaligi bo'lib o'tdi. Xiva va Buxoro shaharlari YUNESKOning jahon madaniy qadriyatlarini ro'yxatiga kiritildi.   |
| 1994-yil               | Turkiy tilli davlatlarning Stanbul uchrashuvni bo'lib o'tdi.  |

|                          |   |
|--------------------------|---|
| 18-19-oktabr             |   |
| 1994-yil<br>24-25-oktabr | I.A.Karimovning Xitoy Xalq Respublikasiga ikkinchi safari.  |
| 1994-yil<br>10-11-noyabr | I.A.Karimov Ukrainianaga ikkinchi davlat safarini uyuştirdi.  |
| 1994-yil<br>21-22-dekabr | Beloruss Prezidenti A.Lukashenko O'zbekistonda bo'ldi. Davlatlar va hukumatlararo 18 ta hujat imzolandi.  |
| 1994-yil dekabr          | O'zbekistonda YUNESKO ishlari bo'yicha 49 kishidan iborat O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi tashkil etildi.   |
| 1995-yil 20-yanvar       | Toshkentda BMT vakolatxonasi bilan hamkorlikda O'zbekiston Taraqqiyotining strategik muommolariga bag'ishlangan seminar-kengash bo'lib o'tdi. Unda 31 davlat va 6 xalqaro tashkilotdan vakil ishtirok etdi. |
| 1995-yil 3-mart          | Tashxovuz shahrida Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Orol muommosiga bag'ishlangan yig'ilishi bo'lib o'tdi.  |
| 1995-yil 30-31-mart      | I.A.Karimov Moldova Respublikasida bo'lib M.Snegur bilan uchrashdi. O'zbekiston-Moldova o'rtaida do'stona hamkorlik to'g'risida shartnomma imzolandi.   |
| 1995-yil 6-aprel         | AQSH Mudofaa vaziri Uilyam Persi O'zbekistonga keldi. O'zbekistonning NATO Tinchlik yo'lida hamkorlik dasturida ishtiroki muhokama qilindi.   |
| 1995-yil 8-10-aprel      | Indoneziya Prezidenti Suxarto O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 1995-yil 14-aprel        | Chimkentda O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston prezidentlarining uchrashuvni bo'lib o'tdi.   |
| 1995-yil aprel           | Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Roman Gersog O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 1995-yil 6-8-may         | I.A.Karimov Latviyada bo'lib G.Ulmanis bilan uchrashdi. O'zbekiston Latviya o'rtaida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnomma imzolandi.  |
| 1995-yil 25-may          | Muruntovda "Zarafshon Nyumont" qo'shma korxonasining taqdimot marosimi bo'lib o'tdi.  |
| 1995-yil may,<br>noyabr  | Pokiston Bosh vaziri Benazir Bxutto O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 1995-yil 6-8-iyun        | I.A.Karimov davlat tashrifni bilan Latviya va Litva Respublikalarida bo'ldi.  |
| 1995-yil 20-21-iyun      | Ukraina Prezidenti L.Kuchma O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 1995-yil iyul            | YUNESKO Bosh direktori <b>Federiko Mayor</b> O'zbekistonga keldi. Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti ochildi.  |
| 1995-yil 25-avgust       | Toshkentda Hindistonning "TATA Projeks LTD" firmasi tomonidan buniyod etilgan 600 o'rni mehmonxona ochildi.   |
| 1995-yil 5-sentabr       | Gruziya davlat rahbari E.Shevarnadze O'zbekistonda bo'ldi. O'zbekiston-Gruziya o'rtaida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnomma imzolandi. 20 dan ortiq hukumat va                                     |

|                           |  |
|---------------------------|--|
|                           | muassasalararo bitimlar imzolandi.   |
| 1995-yil<br>15-16-sentabr | Toshkentda BMT rahnamoligida Markaziy Osiyoda havfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan seminar bo'lib o'tdi. Unda 31 davlat va 6 ta xalqaro tashkilotdan vakillar ishtirok etdi.         |
| 1995-yil 18-sentabr       | Nukusda BMT rahnamoligida Orol dengizi havzasidagi davlatlarning barqaror rivojlanishi masalalariga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ish boshladi.   |
| 1995-yil 20-sentabr       | I.A.Karimov tashabbusi bilan Nukusda Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Orol muommosiga bag'ishlangan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda <b>Nukus Deklaratsiyasi</b> qabul qilindi.                   |
| 1995-yil oktabr           | Jenevada "O'zbekistonda xususiylashtirish: hamkorlik uchun imkoniyatlar" mavzusida konferensiya bo'lib o'tdi.  |
| 1995-yil<br>22-24-oktabr  | I.A.Karimov BMTning 50-yubiley sessiyasida ishtirok etib nutq so'zladi. <b>Amerika-O'zbekiston savdo palatasи tuzildi.</b>   |
| 1995-yil 21-noyabr        | Toshkentda Markaziy Osiyo ziyolilari ishtirokida " <b>Qardosh xalqlar uchrashuvi</b> " mavzusida xalqaro quriltoy bo'lib o'tdi.  |
| 1995-yil noyabr           | Londonda "O'zbekistonda biznes" mavzusida konferensiya bo'lib o'tdi.   |
| 1995-yil 15-dekabr        | Jambulda O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Davlatlararo kengashi majlisi bo'lib o'tdi.  |
| 1995-yil                  | Rossiya, Belorus, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtaida Bojxona ittifoqi negizida <b>Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati</b> tashkil etildi.   |
| 1996-yil 16-yanvar        | I.A.Karimov Turkmaniston (Chorjuy)da bo'ldi. O'zbekiston-Turkmaniston o'rtaida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risida shartnomma imzolandi.  |
| 1996-yil 6-fevral         | Lozanna shahrida Xalqaro Olimpiada qo'mitasi qarorgohida Olimpiada harakatini rivojlantirishdagi alohida xizmatlari uchun O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovga Olimpiada oltin ordeni topshirildi. |
| 1996-yil 21-24-aprel      | I.A.Karimov Fransiyada bo'ldi. Parijda Amir Temuring 660 yilligiga bag'ishlangan madaniyat xafaaligi bo'lib o'tdi.   |
| 1996-yil 25-26-aprel      | Toshkentda YEXHTning "Markaziy Osiyo: YEXHT doirasida keng qamrovli xavfsizlik va mintaqaviy mojarolar" mavzuidagi simpoziumi bo'lib o'tdi.  |
| 1996-yil 12-may           | Ashhabodda "Tajan-Seraks-Mashxad" temir yo'lining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda 50 ta mamlakat vakillari ishtirok etdi.   |
| 1996-yil 23-may           | Latviya Prezidenti G.Ulmanis O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 1996-yil 27-may           | I.A.Karimovning Ozarbayjonga rasmiy tashrifi.  |
| 1996-yil 28-may           | I.A.Karimov Gruziyada bo'ldi. O'zbekiston-Gruziya o'rtaidagi hamkorlikni kengaytirish va chuqurlash to'g'risida  |

|                               |   |
|-------------------------------|---|
|                               | deklaratsiya imzolandi.   |
| 1996-yil 27-may               | I.A Karimov Ozarbayjonda bo'ldi. O'zbekiston-Ozarbayjon o'rtaida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi.   |
| 1996-yil 21-iyun              | Florensiyada O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtaida Sheriklik va hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi.  |
| 1996-yil iyun                 | "O'zavtosanoat" va "Kochxolding" o'rtaida "Samkochavto" qo'shma korxonasini qurish to'g'risida shartnoma imzolandi  |
| 1996-yil 23-28-iyun           | I.A.Karimov AQShda bo'ldi. Bill Clinton, Tennesi shtati gubernatori T.Sandvest, Kolorado shtati gubernatori R.Romer, "Nyumont-mayning" korporatsiyasi direktori R.Kembrialar bilan uchrashdi.   |
| 1996-yil 25-iyun              | AQShda O'zbekiston elchixonasi ochildi.   |
| 1996-yil<br>11-13-sentabr     | O'zbekiston tashabbusi bilan Toshkentda YEXHTning Demokratik muassasalar va inson huquqlari bo'yicha Byurosining "Inson huquqlari bo'yicha milliy muassasalar" mavzusida seminari bo'lib o'tdi. |
| 1996-yil 2-oktabr             | O'zbekiston Islom konferensiyasi tashkilotiga (Jidda) a'zo bo'ldi.  |
| 1996-yil oktabr               | Parijda Amir Temurga bag'ishlangan bir haftalik xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Shahrisabz YUNESKOning jahon madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi.  |
| 1996-yil 21-oktabr            | Toshkentda Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Turkiya hamda O'zbekiston rahbarlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi va unda Toshkent Deklaratsiyasi imzolandi.                     |
| 1996-yil 26-dekabr            | "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.   |
| 1997-yil<br>9-10-yanvar       | Bishkekda O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston prezidentlari uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uch qardosh davlat o'rtaida abadiy do'stlik haqida shartnoma imzolandi.                               |
| 1997-yil<br>14-17-yanvar      | I.A.Karimov Chexiya va Slovakiya Respublikalarida bo'ldi.   |
| 1997-yil 28-fevral            | Olmaota shahrida Markaziy Osiyo davdat rahbarlarining Orol muommosiga bag'ishlangan oliy darajadagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Olmaota Deklaratsiyasi qabul qilindi.                              |
| 1997-yil 31-mart –<br>2-aprel | I.A.Karimov Gretsya Respublikasida bo'ldi.  |
| 1997-yil 2-4-iyun             | I.A.Karimov Qozog'istonda bo'ldi. I.A.Karimov "Altin karan" (oltin burgut) ordeni bilan taqdirlandi.  |
| 1997-yil 18-19-iyun           | Ozarbayjon Prezidenti X.Aliyev O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 1997-yil 16-iyun              | Parijda Buxoro va Xiva shaharlарining 2500 yillik yubileyi bo'lib o'tdi.  |
| 1997-yil 24-iyul              | Qirg'izistonning Cho'lponota shahrida O'zbekiston,  |

|                                  |   |
|----------------------------------|---|
|                                  | Qozog'iston va Qirg'iziston Davlatlararo kengashining yig'ilishi bo'lib o'tdi.  |
| 1997-yil<br>15-16-sentabr        | Toshkentda "Markaziy Osiyo yadro qurolidan holi zona" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Unda 56 davlat va 16 ta xalqaro tashkilotdan vakillar ish etdi.  |
| 1997-yil 15-oktabr               | Toshkentda Orol dengizi havzasini muommolari bo'yicha xalqaro uchrashuv bo'lib o'tdi.   |
| 1997-yil 16-oktabr               | Nyu-York shahrida "6+2" guruxining birinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi.  |
| 1997-yil 29-oktabr –<br>1-noyabr | Vengriya Prezidenti Arpad Gents O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 1997-yil<br>12-13-novabr         | AQSH Prezidentining rafiqasi Xillari Clinton O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 1997-yil<br>17-19-novabr         | I.A.Karimov Turkiya Respublikasida bo'lib S.Demirel bilan uchrashdi.  |
| 1997-yil 12-dekabr               | Astana shahrida O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Prezidentlari uchrashuvi bo'lib o'tdi.   |
| 1998-yil 4-yanvar                | Tojikiston Prezidenti I.Rahmonov O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi.  |
| 1998-yil 5-6-yanvar              | Ashxabodda O'rta Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi.   |
| 1998-yil<br>18-20-fevral         | I.A.Karimov Ukrainada bo'ldi.   |
| 1998-yil 26-mart                 | Toshkentda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi.  |
| 1998-yil 5-7-may                 | I.A.Karimov Rossiya Federatsiyasiga tashrif buyurdi.  |
| 1998-yil 8-sentabr               | Boku shahrida Buyuk ipak yo'lini tiklashga bag'ishlangan Xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.   |
| 1998-yil<br>11-12-oktabr         | Rossiya Prezidenti B.Yelsinning O'zbekistonga tashrifi.   |
| 1998-yil 31-oktabr               | O'zbekiston va Qozog'iston o'rtaida abadiy do'stlik haqida shartnoma imzolandi.   |
| 1998-yil 6-noyabr                | Toshkentda YUNESKO Ijroiya kengashi 155-sessiyasining yakuniy yig'ilishi bo'lib o'tdi. YUNESKO Bosh direktori F.Mayor I.Karimovga Abu Ali ibn Sino nomidagi xalqaro oltin medalni topshirdi.                          |
| 1998-yil<br>17-18-dekabr         | Moldova Prezidenti Petru Luchinskiy O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 1999-yil 8-mart                  | Gruziya Prezidenti E.Shevardinadze O'zbekistonga keldi.   |
| 1999-yil 15-mart                 | Turkiya Prezidenti Sulaymon Demirel O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 1999-yil 24-aprel                | O'zbekistonning AQSHdagi elchixonasida O'zbekiston GUUAMga a'zo bo'ldi. (GUUAM 1997-yil Strasburgda Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon va Moldova davlatlari o'rtaida tashkil etilgan edi). 2002-yil iyun oyida O'zbekiston |

|                        |   |
|------------------------|---|
|                        | ushbu tashkilotdan chiqib ketdi   |
| 1999-yil 10-11-may     | I.A.Karimov EKOga a'zo mamlakat rahbarlarining Ol'maota uchrashuvida ishtirot etdi.   |
| 1999-yil 1-iyul        | O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtaida imzolangan "Sheriklik va hamkorlik to'g'risida bitim" kuchga kirdi  |
| 1999-yil 19-20-iyul    | Toshkentda "6+2" guruhining yig'ilishi bo'lib o'tdi va unda <b>Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi</b> .  |
| 1999-yil 14-17-sentabr | I.A.Karimov rasmiy tashrif bilan Isroilda bo'ldi.   |
| 1999-yil 20-21-sentabr | Toshkentda "Buyuk ipak yo'lli"ni tiklash bo'yicha xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.  |
| 1999-yil 4-6-oktabr    | I.A.Karimov Janubiy Koreyada bo'lib Kim De Jung bilan uchrashdi.  |
| 1999-yil 8-10-noyabr   | I.A.Karimovning Xitoya uchinchi safari amalga oshirildi.  |
| 1999-yil 18-19-noyabr  | YEXHTning Istambul sammiti bo'lib o'tdi va unda Yevropada xavfsizlik xartiyasi imzolandi. I.A.Karimov xalqaro terrorizmga qarshi kurashuvchi xalqaro markaz tuzish tashabbusi bilan chiqdi.   |
| 1999-yil 10-11-dekabr  | Rossiya Federatsiyasi Bosh vaziri V.Putin O'zbekistonda bo'ldi. "Harbiy va harbiy-tehnikaviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish to'g'risida" shartnoma imzolandi   |
| 2000-yil 24-25-yanvar  | MDH Moskva sammiti. V.Putin Davlat boshliqlari kengashi raisi etib saylandi.  |
| 2000-yil 20-21-aprel   | I.A.Karimov tashabbusi bilan Toshkentda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlari davlatlararo kengashi bo'lib o'tdi. "Terrorchilik, siyosiy va diniy ekstremizm, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash va mintaqqa davlatlariga tahdid soladigan boshqa xavf-xatarning oldini olishga qaratilgan hamkorlik to'g'risida shartnoma" imzolandi. |
| 2000-yil 1-3-may       | I.A.Karimov Hindistonda bo'ldi.   |
| 2000-yil 18-19-may     | Rossiya Prezidenti V.Putin O'zbekistonda bo'ldi. "O'zbekiston Respublikasi ma'muriy tuzilmalari bilan Rossiya Federatsiyasi subyektlari o'rtaida hamkorlikni kengaytirish to'g'risida", "Xalqaro avtomobil qatnovi to'g'risida" bitimlar imzolandi.   |
| 2000-yil 2-iyun        | I.A.Karimov YEXHTning raisi, Avstriya tashki ishlar vaziri Benito Ferrero Valdner boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.  |
| 2000-yil 14-iyul       | Dushanbeda MOIH prezidentlari uchrashuvi bo'lib o'tdi.  |
| 2000-yil 20-avgust     | Bishkek shahrida Markaziy Osiyo to'rt davlat rahbarlari uchrashuvi bo'lib o'tdi.  |
| 2000-yil 7-9-sentabr   | I.A.Karimov Nyu-Yorkda BMTning ming yillik sammitida  |

|                            |  |
|----------------------------|--|
|                            | ishtirok etdi va nutq so'zлади.  |
| 2000-yil 13-sentabr        | I.A.Karimov YUNESKO bosh direktori Konguro Matsuurini qabul qildi.   |
| 2000-yil<br>21-22-sentabr  | I.A.Karimov Turkmanistonda bo'ldi.   |
| 2000-yil 2<br>6-27-sentabr | I.A.Karimov Qirg'izistonda bo'ldi.   |
| 2000-yil 10-oktabr         | Sankt-Peterburgda Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati (YevrAzES)ni ta'sis etish to'g'risidagi shartnoma imzolandi.  |
| 2000-yil 12-oktabr         | Ukraina Prezidenti L.Kuchma O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2000-yil<br>16-17-oktabr   | Turkiya Prezidenti Axmad Nejded Sezer O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2000-yil<br>21-22-noyabr   | I.A.Karimov Italiya Respublikasida rasmiy tashrif buyurdi.   |
| 2001-yil 9-yanvar          | Toshkentda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari sammiti bo'lib o'tdi.  |
| 2001-yil 2-5-aprel         | I.A.Karimov Germaniya Federativ Respublikasida bo'ldi. Shu yili O'zbekiston-Germaniya-Rossiya hamkorligidagi "Namangan qog'oz" qo'shma korxonasi ishgaga tushirildi.   |
| 2001-yil 3-5-may           | I.A.Karimov Rossiya Federatsiyasida bo'ldi.  |
| 2001-yil 14-15-iyun        | Xitoyda "Shanxay forumi" sammitida O'zbekiston ushbu tashkilotga a'zo bo'ldi. Tashkilotning nomi "Shanxay Hamkorlik Tashkiloti"ga o'zgartirildi. Milliy muvofiqlashiruvchi Kengash tashkil etildi.                               |
| 2001-yil<br>16-17-noyabr   | I.A.Karimov Qozog'istonda bo'ldi.  |
| 2001-yil<br>29-30-noyabr   | Moskvada MDHning 10 yilligi yubiley uchrashuvi bo'lib o'tdi.   |
| 2001-yil 28-dekabr         | Toshkentda MOIH davlatlari kengashi yig'ilishi bo'lib o'tdi. MOIH tugatilib I.A.Karimov tashabbusi bilan uning o'mida <b>Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkilotini</b> tuzishga kelishib olindi.                                    |
| 2001-yil                   | O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Xavfsizlik Kengashining terrorizmga qarshi kurash bo'yicha maxsus qo'mitasiga ta'sis etildi.  |
| 2002-yil<br>18-20-fevral   | Litva Bosh vaziri A.Brazauskasning O'zbekistonga tashrifi.   |
| 2002-yil 28-fevral         | Olmaotada Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlari uchrashuvi. <b>Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkilotini</b> ta'sis etish to'g'risida shartnoma imzolandi. MOIH tashkiloti MOHga aylantirildi. MOH raisi etib I.A.Karimov saylandi. |
| 2002-yil 4-mart            | I.A.Karimov Afgoniston muvaqqat hukumati boshlig'i Xamid Karzoyni qabul qildi.   |
| 2002-yil 11-14-mart        | I.A.Karimov AQShda bo'ldi. I.A.Karimovga Amerika   |

|                        |   |
|------------------------|---|
|                        | jamoatchiligi tomonidan "Xalqaro miqyosdagi lider" mukofoti berildi.  |
| 2002-yil 6-7-aprel     | YEXHT Bosh kotibi Yan Kubish O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2002-yil 11-13-aprel   | Jahon Banki prezidenti J.Vulfensonning O'zbekistonga tashrifi.  |
| 2002-yil 24-aprel      | Olmaotada SHHT chegara xizmati rahbarlarining uchrashuvি bo'lib o'tdi.  |
| 2002-yil 26-aprel      | Eron Islom Respublikasi Prezidenti Muhammad Xotamiy O'zbekistonga keldi.  |
| 2002-yil 9-10-may      | GFR kansleri Gerhard Shryoder O'zbekistonda bo'ldi.<br>2003-yil O'zbekistonda germaniyalik sarmoyadorlar ishtirokida barpo etilgan 138 ta korxona faoliyat yuritdi. Ulardan 40 tasi 100 foizlik Germaniya kapitaliga ega. |
| 2002-yil 6-7-iyun      | SHHTning Sankt-Peterburg sammiti. <b>SHHT Xartiyasi va Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi</b> tashkil etildi.   |
| 2002-yil 28-31-iyul    | I.A.Karimov Yaponiyada bo'lib Bosh vazir J.Koidzumi va imperator Akixitolar bilan uchrashdi.  |
| 2002-yil 9-sentabr     | I.A.Karimov Astana shahrida bo'ldi. "O'zbekiston-Qozog'iston davlat chegaralarining alohida uchastkalari to'g'risida bitim" imzolandi.  |
| 2002-yil 23-25-sentabr | I.A.Karimov Litvada bo'ldi. Davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnomalar imzolandi.   |
| 2002-yil 5-6-oktabr    | Dushanbe shahrida MOH tashkilotiga a'zo davlat boshliqlari uchrashuvি bo'lib o'tdi.   |
| 2002-yil 18-20-oktabr  | BMT Bosh kotibi <b>Kofi Annan</b> O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2002-yil 20-oktabr     | Polsha Prezidenti A.Kwasshevskiy O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2002-yil 27-28-oktabr  | I.A.Karimov rasmiy tashrif bilan Vengriyada bo'ldi  |
| 2002-yil 21-22-noyabr  | I.A.Karimov NATO Yevroatlantika hamkorlik kengashining Praga sammitida ishtirok etdi.   |
| 2002-yil 19-dekabr     | Ukraina Prezidenti L.Kuchma O'zbekistonda bo'ldi  |
| 2002-yil 27-dekabr     | Astana shahrida MOH tashkilotiga a'zo davlat boshliqlari sammiti bo'ldi.  |
| 2003-yil 27-29-yanvar  | I.A.Karimov Ispaniyaga rasmiy tashrif buyurdi.  |
| 2003-yil 6-7-mart      | Slovakiya Prezidenti Rudolf Shuster O'zbekistonda bo'ldi  |
| 2003-yil 10-11-aprel   | Ukraina Prezidenti L.Kuchma O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2003-yil 21-23-aprel   | Ruminiya Prezidenti Ion Iliesku O'zbekistonga tashrif buyurdi.  |
| 2003-yil 28-29-may     | I.A.Karimov SHHTning Moskva sammitida ishtirok etdi. Unda Mintakaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya qo'mitasini Toshkentda tashkil etish to'g'risida kelishib olindi.  |

|                        |  |
|------------------------|--|
|                        | I.A.Karimov MDHning Sankt-Peterburg uchrashuvi va Sankt-Peterburg shahrining 700 yillik yubileyida ishtirok etdi.  |
| 2003-yil 17-18-iyun    | I.A.Karimov Eron Islom Respublikasiga rasmiy tashrif bilan bo'ldi.   |
| 2003-yil 5-6-iyul      | I.A.Karimov MOXTning Olmaota uchrashuvida ishtirok etdi.   |
| 2003-yil 10-12-iyul    | I.A.Karimov Polsha Respublikasiga rasmiy tashrif buyurdi.  |
| 2003-yil 6-avgust      | Samarqandda I.A.Karimov va V.Putin uchrashuvi bo'lib o'tdi.  |
| 2003-yil 7-10-sentabr  | Malayziya qiroli Yang Di Portuan Agong XII Jamanullayl O'zbekistonda bo'ldi.                                       |
| 2003-yil 9-10-oktabr   | I.A.Karimov Gruziyada bo'ldi.  |
| 2003-yil 18-20-oktabr  | BMT Bosh Kotibi <b>Kofi Annan</b> rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi.                                       |
| 2003-yil 1-noyabr      | Toshkentda SHHT mamlakatlari Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi kengashining birinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi.       |
| 2003-yil 24-26-novabr  | I.A.Karimov Bolgariyada bo'ldi.  |
| 2003-yil 18-20-dekabr  | Turkiya Bosh vaziri Rejep Tayib Erdogan O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2004-yil 1-yanvar      | Toshkentda SHHTning Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya qo'mitasi o'z faoliyatini boshladi.                   |
| 2004-yil 19-20-yanvar  | Quvayt amiri Jobir al Axmad al-Jobir al Sabox taklifiga binoan I.A.Karimov Quvaytda bo'ldi.                        |
| 2004-yil 2-fevral      | Toshkentda Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik masalalariga bag'ishlangan konferensiya bo'lib o'tdi.            |
| 2004-yil 4-fevral      | Toshkentda YETTB seminari bo'lib o'tdi.  |
| 2004-yil 21-fevral     | Polsha Prezidenti A.Kvasnevskiy O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2004-yil 24-fevral     | I.A.Karimov AQSH Mudofaa Vaziri Donald Ramsfeldni qabul qildi.   |
| 2004-yil 23-24-mart    | Ozarbayjon Prezidenti I.Aliyev O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2004-yil 7-8-aprel     | I.A.Karimov Litva Respublikasida bo'ldi  |
| 2004-yil 15-16-aprel   | I.A.Karimov Rossiya Federatsiyasida bo'ldi.  |
| 2004-yil 28-may        | I.A.Karimov MOXT davlatlari Ostona uchrashuvida ishtirok etdi.   |
| 2004-yil 14-18-iyun    | XXR Raisi Xu Szintao O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2004-yil 16-17-iyun    | Toshkentda SHHT sammiti bo'ldi. Unda ikkita asosiy masala ko'rildi: havfsizlik va savdo-iqtisodiy hamkorlik.       |
| 2004-yil 16-iyun       | O'zbekiston-Rossiya Federatsiyasi o'rtasida 15 moddalik <b>strategik sherikchilik to'g'risida bitim</b> imzolandi. |
| 2004-yil 12-14-sentabr | Chexiya Prezidenti Vatslav Klaus O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2004-yil 15-16-sentabr | MDH davlat rahbarlarining Ostona uchrashuvi bo'lib o'tdi.  |

|                       |  |
|-----------------------|--|
| 2004-yil 11-oktabr    | Afgoniston va Pokiston safaridan qaytayotgan Germaniya kansleri E.Shereder Termizda to'xtab O'zbekiston tashqi ishlar vaziri bilan uchrashdi.  |
| 2004-yil 17-18-oktabr | Dushanbe shahrida Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkiloti davlat rahbarlari uchrashuvni bo'lib o'tdi.   |
| 2004-yil 28-oktabr    | Toshkentda SHHT mintaqaviy aksilterror tuzulmasi kengashining majlisini bo'lib o'tdi.  |
| 2004-yil 19-noyabr    | Buxoroda I.A.Karimov va Turkmaniston Prezidenti S.Niyozov o'rtaida uchrashuvni bo'lib o'tdi.   |
| 2005-yil 4-yanvar     | I.A.Karimov Eron Islom Respublikasi vitse prezidenti Muxammad Rizo Orifni qabul qildi.   |
| 2005-yil 5-7-mart     | Pokiston Prezidenti Parviz Musharraf O'zbekistonga tashrif buyurdi.  |
| 2005-yil 15-17-mart   | I.A.Karimov Prezident Yanez Drnovshekning taklifi bilan Sloveniya Respublikasida bo'ldi.   |
| 2005-yil 30-mart      | Toshkentda SHHT Mintaqaviy aksilterror tuzulmasi kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.  |
| 2005-yil 4-6-aprel    | I.A.Karimov Bosh vazir Manmoxan Singxning taklifiga binoan Hindistonga rasmiy tashrif qildi.   |
| 2005-yil 7-8-may      | I.A.Karimovning Rossiya Federatsiyasiga rasmiy tashrif. MDHning Moskva norasmiy sammiti bo'lib o'tdi.  |
| 2005-yil 10-12-may    | Koreya Respublikasi Prezidenti No Mu Xyon O'zbekistonga tashrif buyurdi.   |
| 2005-yil 25-27-may    | I.A.Karimov Xitoy Xalq Respublikasi raisi Xu Szintao taklifi bilan XXRga tashrif buyurdi. O'zbekiston bilan XXR o'rtaida do'stilik va hamkorlikning sherkchilik munosabatlari to'g'risida shartnomaga imzolandi.   |
| 2005-yil 28-29-iyun   | I.A.Karimov amaliy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasida bo'ldi. "Strategik hamkorlik to'g'risida"gi shartnomaga imzolandi.  |
| 2005-yil 6-7-oktabr   | I.A.Karimov Sankt-Peterburgda bo'lib, unda O'zbekistonning YevrAzESga kirishi muhokama qilindi.  |
| 2005-yil 6-7-oktabr   | Sankt-Peterburgda MOH tashkilotiga a'zo davlat boshliqlari uchrashuvni. I.A.Karimov tashabbusi bilan MOH va Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati negizida yangi <b>Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatini shakllantirishga qaror qilindi</b> .   |
| 2006-yil 10-11-yanvar | I.A.Karimov Qozog'istonda bo'lib, N.Nazarboyevning Prezidentlikka qayta saylanish marosimida ishtirok etdi.  |
| 2006-yil 24-25-yanvar | Sankt-Peterburgda <b>Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati</b> sammitida O'zbekiston ushbu tashkilotga a'zo bo'ldi. Ammo 2008-yil oktabr oyida YevrAzES tashkiloti ishida samaradorlik va izchillik kuzatilmayotganligi sababli O'zbekiston bu tashkilotdan chiqishini e'lon qildi. 2008-yil 12-noyabrdagi tashkilot O'zbekistonning YevrAzESga |

|                       |  |
|-----------------------|--|
|                       | a'zolikdan chiqqanligini rasmiy ravishda tasdiqladi.   |
| 2006-yil 19-20-mart   | Qozog'iston Prezidenti N.Nazarboyev O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2006-yil 28-30-mart   | I.A.Karimov Prezident No Mu Xyon taklifi bilan Koreya Respublikasida bo'ldi.   |
| 2006-yil 2-3-may      | I.A.Karimov Pokiston Islom Respublikasida bo'ldi.  |
| 2006-yil 12-may       | I.A.Karimov Rossiya Federatsiyasining Sochi shahrida V.Putin bilan uchrashdi.  |
| 2006-yil 14-iyun      | I.A.Karimov Xitoyda bo'ldi va XXR Raisi Xu Szintao bilan uchrashdi. 15-iyun kuni I.A.Karimov Shanxayda SHHTning 5 yillik yubiley sammitida ishtirok etdi.  |
| 2006-yil 17-iyun      | I.A.Karimov Olmaota shahrida bo'lib o'tgan Osiyoda hamkorlik va ishonch choralar bo'yicha kengash sammitida qatnashdi.   |
| 2006-yil 23-iyun      | I.A.Karimov Minskda Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatining sammitida ishtirok etdi.  |
| 2006-yil 21-22-iyul   | I.A.Karimov MDHning Moskva sammitida ishtirok etdi.  |
| 2006-yil 15-16-avgust | I.A.Karimov Sochi shahrida YevrAzES mamlakatlari davlat rahbarlarining norasmiy uchrashuvida ishtirok etdi.  |
| 2006-yil 4-sentabr    | I.A.Karimov Qozog'istonda bo'ldi.  |
| 2006-yil 8-sentabr    | I.A.Karimov YUNESKO Bosh direktori Koichiro Matsuurani qabul qildi. I.A.Karimovga YUNESKOning "Barobidur" (Indoneziyadagi arxeologik yodgorlik nomidan) oltin medali topshirildi.  |
| 2006-yil 3-oktabr     | Qirg'iziston Prezidenti Kurmanbek Bakiyev O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2006-yil 1-noyabr     | I.A.Karimov GFR federal tashqi ishlar vaziri Frank Valter Shtaynmayerni qabul qildi.   |
| 2006-yil 28-noyabr    | I.A.Karimov MDH Minsk uchrashuvida ishtirok etdi.  |
| 2008-yil 5-6-fevral   | I.A.Karimov Rossiya Federatsiyasida bo'ldi.  |
| 2008-yil 22-fevral    | I.A.Karimov MDHning Moskvada bo'lib o'tgan norsmiy sammitida ishtirok etdi.  |
| 2008-yil 24-26-fevral | I.A.Karimov Koreya Respublikasida bo'ldi.  |
| 2008-yil 10-mart      | Turkmaniston Prezidenti Q.Berdimuhammedov O'zbekistonga keldi.   |
| 2008-yil 17-18-mart   | I.A.Karimov shayx Xalifa bin Zoid Ol Nahayon taklifi bilan Birlashgan Arab Amirliklarida bo'ldi.   |
| 2008-yil 26-31-mart   | O'zbekistonda Misr madaniyati kunlari bo'lib o'tdi.  |
| 2008-yil 27-mart      | Toshkentda SHHT MATT kengashining 11-majlisi bo'lib o'tdi.   |
| 2008-yil 3-4-aprel    | I.A.Karimov NATO Yevroatlantika hamkorlik kengashining Buxarest sammitida ishtirok etdi va Afg'oniston masalasida "6+2" guruuhini "6+3" guruhi (Afg'onistonga qo'shni 6 davlat va AQSH, Rossiya NATO)ga aylantirish tashabbusi |

|                        |   |
|------------------------|---|
|                        | bilan chiqdi.   |
| 2008-yil 22-23-aprel   | I.A.Karimov Qozog'istonda bo'ldi.   |
| 2008-yil 6-iyun        | I.A.Karimov Sankt-Peterburgda MDH davlat rahbarlarining norasmiy sammitida ishtirok etdi.   |
| 2008-yil 21-24-iyul    | Quvayt amiri shayx Saboh al-Ahmad al-Jobir as-Saboh O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2008-yil 8-9-avgust    | I.A.Karimov XXIX - Pekin yozgi olimpiadasining ochilish marosimida ishtirok etdi.   |
| 2008-yil 27-28-avgust  | I.A.Karimov SHHTning Dushanbe sammitida ishtirok etdi.  |
| 2008-yil 2-sentabr     | I.A.Karimov Rossiya Federatsiyasi hukumat boshlig'i Vladimir Putinni qabul qildi.   |
| 2008-yil 5-sentabr     | I.A.Karimov Moskvada Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (ODKB) sammitida ishtirok etdi.  |
| 2008-yil 11-12-sentabr | I.A.Karimov Ozarbayjonda bo'ldi.  |
| 2008-yil 5-7-oktabr    | Latviya Prezidenti Valdis Zagners O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2008-yil 9-10-oktabr   | I.A.Karimov Bishkekda bo'lib o'tgan MDH davlat rahbarlari kengashi va YevrAzES Davlatlararo kengashi majlisida ishtirok etdi.                                   |
| 2008-yil 5-8-noyabr    | Bolgariya Prezidenti Georgiy Parvanov O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2009-yil 22-23-yanvar  | Rossiya Federatsiyasining Prezidenti D.Medvedev O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2009-yil 4-fevral      | I.A.Karimov Moskvada Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (ODKB) Xavfsizlik Kengashining navbatdan tashqari sessisyasida ishtirok etdi.                  |
| 2009-yil 24-25-fevral  | Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2009-yil 28-aprel      | I.A.Karimov Olmaotada Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlat rahbarlarining kengaytirilgan tarkibdagi uchrashuvida ish etdi.                     |
| 2009-yil 10-12-may     | Koreya Respublikasi Prezidenti Li Myon Bak O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2009-yil 22-23-may     | Toshkentda "Jahon moliyaviy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralar" mavzusida xalqaro ilmiy amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. |
| 2009-yil 27-may        | Braziliyaga rasmiy safar bilan ketayotgan I.A.Karimov Ispaniyada to'xtab o'tib, Qirol Xuan Kartos bilan uchrashdi.  |
| 2009-yil 27-29-may     | I.A.Karimov Prezident Luis Inasius Lula da Silva taklifi bilan Braziliyada bo'ldi.  |
| 2009-yil 14-iyun       | I.A.Karimov Moskvada ODKB yig'ilishida ishtirok etdi.   |
| 2009-yil 15-iyun       | I.A.Karimov SHHT Yekaterinburg uchrashuvida ishtirok etdi.  |
| 2009-yil 31-iyul       | I.A.Karimov Cho'ponota (Qirg'iziston)da ODKB yig'ilishida   |

|                           |   |
|---------------------------|---|
|                           | ishtirok etdi   |
| 2009-yil 4-5-oktabr       | I.A.Karimov Ummom sultonligida bo'ldi. Tashkent va Maskatda elchixonalar ochishga kelishildi.   |
| 2009-yil 9-oktabr         | I.A.Karimov "Jeneral Motors" kompaniyasi ijrochi direktori Nik Raylini qabul qildi.   |
| 2009-yil<br>13-14-dekabr  | I.A.Karimov Turkmanistonda bo'ldi. Ashxabodda xalqaro gazaprovod yo'lining ochilish marosimida qatnashdi va Xitoy davlat rahbari Xu Szintao bilan uchrashdi.  |
| 2010-yil<br>10-12-fevral  | I.A.Karimov Koreya Respublikasiga tashrif buyurdi.  |
| 2010-yil 16-17-mart       | Qozog'iston Respublikasi Prezidenti N.Nazarkayev O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2010-yil 5-aprel          | BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun O'zbekistonda bo'ldi. BMT Kotibiyati va SHHT o'ttasida hamkorlik to'g'risida deklaratsiya imzolandi. BMT Bosh Kotibi Pan Gi Mun Orolboyi mintaqasiga tashrif buyurdi.  |
| 2010-yil 19-20-aprel      | D.Medvedev taklifiga binoan I.A.Karimov Rossiya Federatsiyasida bo'ldi.   |
| 2010-yil 10-11-iyun       | XXR Raisi Xu Szintao O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2010-yil 11-iyun          | Toshkentda SHHT davlat rahbarlari kengashining 10-majlisi bo'lib o'tdi.   |
| 2010-yil 10-15-iyun       | Qirg'iziston janubidagi O'sh va Jalolobod viloyatlarda etnik mojarolar ro'y berdi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra to'qnashuvlarda 2500 dan ortiq o'zbek, shuningdek, rus, tojik, tatar va boshqalar halok bo'ldi. Qirg'izistonlik 400.000 nafardan ortiq qochoqlar O'zbekiston chegarasidan o'tdi. Qochoqlarning aksariyati o'zbeklar edi. Keyinchalik ular o'z uylariga qaytishdi. |
| 2010-yil 19-sentabr       | I.A.Karimov Nyu-York safari paytida Londonda to'xtab o'tdi.   |
| 2010-yil<br>20-21-sentabr | I.A.Karimov BMTning sammitida nutq so'zlab Afg'onistonda tinchlikni saqlash borasida ilgari tanlangan yo'l samara bermaganligini ta'kidladi.  |
| 2010-yil<br>27-28-sentabr | Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2010-yil<br>19-20-oktabr  | I.A.Karimov Gurbanguli Berdimuxamedov taklifi bilan Turkmanistonda bo'ldi va Dashxovuzda o'zbek-turkman do'stligi festivalida ishtirok etdi.  |
| 2010-yil<br>16-17-noyabr  | Toshkent shahrida "O'rta Osiyoning transchegevaviy ekologik muammolari: ularni hal etishda xalqaro huquqiy mexanizmlarni qo'llash" mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Unda jahonning 30 ta davlatidan 60 dan ortiq xalqaro tashkilot va moliyaviy institutlar vakillari ishtirok etishdi.  |

|                        |  |
|------------------------|--|
| 2010-yil 2-dekabr      | I.A.Karimov Oqsaroya AQSH Davlat kotibi Xillan Klintonni qabul qildi. O'zbekiston-AQSH o'ttasida texnikaviy hamkorlik to'g'risida hukumatlararo bitim imzolandi.   |
| 2010-yil 10-dekabr     | I.A.Karimov Moskvada Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (ODKB) Kollektiv xavfsizlik kengashining majlisida ishtirok etdi va nutq so'zladı.  |
| 2011-yil yanvar        | I.A.Karimov Bryusselga tashrif buyurdi va Yevropa Ittifoq Komissiyasi Prezidenti J.M.Barrozo, NATO Bosh kotibi A.F.Rasmussen bilan uchrashuvlar o'tkazildi.  |
| 2011-yil 8-10-fevral   | I.A.Karimov Yaponiyada bo'lib, Bosh vazir Naoto Kan va imperator Akixito bilan uchrashdi.  |
| 2011-yil 24-mart       | I.A.Karimov Pokiston Bosh Vaziri Yusuf Rizo G'iloniyini qabul qildi.   |
| 2011-yil 19-20-aprel   | XXR rahbari Xu Szintao taklifiga binoan I.A.Karimov XXRda bo'ldi.  |
| 2011-yil 5-may         | Turkmaniston Prezidenti G.Berdimuxamedov O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2011-yil 17-18-may     | I.A.Karimov Hindistonda bo'ldi.  |
| 2011-yil 23-may        | I.A.Karimov Oqsaroya BMT Bosh kotibi o'ninbosari Xelen Klarkni qabul qildi.  |
| 2011-yil 13-14-iyun    | Rossiya Federatsiyasi Prezidenti D.Medvedev O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2011-yil 14-15-iyun    | I.A.Karimov SHHT uchrashuvida ishtirok etish uchun Qozog'istonda bo'ldi.   |
| 2011-yil 23-24-avgust  | Koreya Respublikasi Prezidenti Li Myon Bak O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2011-yil 22-oktabr     | AQSH Davlat Kotibi Xillari Clinton O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2011-yil 6-8-noyabr    | Vengriya Prezidenti Pal Shmit O'zbekistonga keldi.   |
| 2011-yil 20-dekabr     | I.A.Karimov Moskvada MDHning Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti yig'ilishiда ishtirok etdi.   |
| 2012-yil 15-may        | Moskvada Kollektiv xavfsizlik shartnomasi (ODKB) yubiley sessiyasi va MDH davlat rahbarlarining norasmiy uchrashuvi bo'lib o'tdi. Sessiya Kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi Toshkent-deklaratsiyasi imzolanganligining 20-yilligi va ODKB tashkil etilganligining 10-yilligi munosabati bilan tashkil etildi. |
| 2012-yil 4-iyun        | Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2012-yil 5-7-iyun      | XXRda SHHT davlat rahbarlarining 12-yig'ilishi o'tkazildi.   |
| 2012-yil 6-7-sentabr   | I.A.Karimov Qozog'iston Respublikasiga rasmiy tashrif buyurdi.   |
| 2012-yil 19-21-sentabr | I.A.Karimov Koreya Prezidenti Li Myon Bak taklifi bilan ushbu davlatda bo'ldi.   |

|                           |   |
|---------------------------|---|
| 2012-yil 1-2-oktabr       | I.A.Karimov K.Berdimuhamedov taklifiga binoan Turkmaniston Respublikasida bo'ldi.   |
| 2012-yil<br>11-12-oktabr  | I.A.Karimov Ozarbajjonda bo'ldi.  |
| 2012-yil 5-dekabr         | Ashxabodda MDH davlat boshliqlarining majlisi bo'lib o'tdi. Unda 12 ta davlat rahbari qatnashdi.  |
| 2012-yil 18-dekabr        | Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2013-yil 14-aprel         | I.A.Karimov Rossiya Federatsiyasida bo'ldi.   |
| 2013-yil 13-14-iyun       | Qozog'iston Prezidenti N.Nazarboyev O'zbekistonga keldi. Toshkentda Qozog'istonning yangi elchixonasi va Abay haykali ochildi.  |
| 2013-yil 25-avgust        | YUNESKO Bosh direktori Irina Bokova O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2013-yil<br>8-10-sentabr  | XXR raisi Si Szinpin O'zbekistonda bo'lib, Toshkent va Samarqand shaharlariga tashrif buyurdi. Samarqandda Konfusiy institutini tashkil etish bo'yicha bitim imzolandi. |
| 2013-yil<br>12-13-sentabr | I.A.Karimov Bishkekda SHOS yig'ilishida ishtirot etdi.  |
| 2013-yil 11-oktabr        | YEXHTning raisi, Ukraina Tashqi ishlar vaziri Leonid Kojar O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2013-yil<br>16-17-oktabr  | I.A.Karimov Litvada bo'ldi. Prezident Andris Berzinish bilan uchrashdi.   |
| 2013-yil<br>24-25-oktabr  | MDHning Minsk sammiti bo'lib o'tdi.   |
| 2013-yil<br>25-26-noyabr  | Turkmaniston Prezidenti K.Berdimuhamedov O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2013-yil 29-noyabr        | Toshkentda SHHT davlat rahbarlari kengashining 12-majlisi bo'lib o'tdi.   |
| 2014-yil 7-fevral         | I.A.Karimov Sochida bo'lib o'tgan XXII-qishki olimpiada musobaqalarining ochilish marosimida ishtirot etdi.   |
| 2014-yil 21-23-aprel      | Toshkentda O'zbekiston-Ispaniya biznes-forumi o'tkazildi.   |
| 2014-yil 20-21-may        | Shanxay shahrida 24 mamlakat a'zo bo'lgan Osiyoda ishonch va hamkorlik bo'yicha kengash tashkilotining 4-sammiti bo'lib o'tdi.  |
| 2014-yil 27-29-may        | Latviya Prezidenti Andris Berzinish O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2014-yil 16-18-iyun       | Koreya Respublikasi Prezidenti Pak Kin Xe O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2014-yil<br>19-20-avgust  | I.A.Karimov Xitoyda bo'ldi.   |
| 2014-yil<br>11-12-sentabr | SHHTning Dushanbe sammiti bo'lib o'tdi.   |
| 2014-yil 1-3-oktabr       | Samarqandda BMT Jahon sayyohlik tashkiloti ijroiya Kengashining 99-sessiyasi o'tkazildi.  |

|                       |   |
|-----------------------|---|
| 2014-yil 9-10-oktabr  | MDH Minsk uchrashuvi o'tkazildi.  |
| 2014-yil 17-oktabr    | BMT Bosh kotibining o'rribosari, BMT Taraqqiyot dasturining rahbari Xelen Klark O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2014-yil 23-24-oktabr | I.A.Karimov Turkmanistonda bo'ldi.  |
| 2014-yil 24-25-noyabr | I.A.Karimov Qozog'istonda bo'ldi.   |
| 2015-yil 1-may        | Koreya Respublikasi Bosh vaziri o'rribosari, strategiya va moliya vaziri Choy Kyong Xvan O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2015-yil 8-may        | I.A.Karimov Moskvada Ikkinci jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning 70-yilligi tantanalarini hamda MDH davlat rahbarlarining uchrashuvida ishtirok etdi.                           |
| 2015-yil 27-29-may    | I.A.Karimov Koreya Respublikasi Prezidenti Pak Kin Xening taklifiga binoan ushbu mamlakatga davlat tashrifi bilan bordi.  |
| 2015-yil 2-iyun       | Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o'rribosari, tashqi ishlar vaziri Rashid Meredov O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2015-yil 3-iyun       | Islom hamkorlik tashkiloti Bosh kotibi Iyad Amin Madaniy O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2015-yil 11-iyun      | BMT Bosh kotibi Pan Ge Mun O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2015-yil 15-iyun      | Xalqaro olimpiya qo'mitasi prezidenti Tomas Bax va Osiyo milliy olimpiya qo'mitalari assotsiatsiyasi va Osiyo olimpiya kengashi Prezidenti Shayx Ahmad al-Fahad al-Sabohlar O'zbekistonda bo'ldi. |
| 2015-yil 6-iyul       | Hindiston Respublikasining Prezidenti Narendra Modi rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ldi.   |
| 2015-yil 9-10-iyul    | Rossiyaning Ufa shahrida SHHTga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlari kengashining navbatdag'i majlisи bo'lib o'tdi.   |
| 2015-yil 15-iyul      | Rossiya Federasiyasi tashqi ishlar vaziri S.Lavrov O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2015-yil 2-3-sentabr  | I.A.Karimov Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan Pekin shahrida bo'ldi.   |
| 2015-yil 7-oktabr     | Turkmaniston Prezidenti K.Berdimuhammedov O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2015-yil 15-16-oktabr | Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida MDH Davlat rahbarlari kengashining majlisи bo'lib o'tdi.   |
| 2015-yil 24-oktabr    | Yaponiya Bosh vaziri Shindzo Abe rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2015-yil 1-noyabr     | I.A.Karimov Samarqand shahridagi Forumlar saroyida AQSH davlat kotibi Jon Kerri bilan uchrashdi.  |
| 2015-yil 17-noyabr    | Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Muhammad Navoz Sharif O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2015-yil 11-12-dekabr | I.A.Karimov Turkmaniston betarafligining 20 yilligiga bag'ishlangan tadbirlarda ishtirok etish uchun ushbu mamlakatda bo'ldi.   |

|                      |   |
|----------------------|---|
| 2016-yil 5-mart      | GFR tashqi ishlar vaziri, YEXHTning amaldagi raisi Frank Valter Shtaynmayer O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2016-yil 14-aprel    | SHHTga a'zo davlatlar Xavfsizlik kengashi rahbarlari, SHHT Bosh kotibi va SHHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi Ijroiya qo'mitasi direktori O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2016-yil 14-15-aprel | I.A.Karimov Qozog'istonda bo'ldi.   |
| 2016-yil 25-26-aprel | I.A.Karimov Rossiya Federasiyasiga tashrif buyurdi.   |
| 2016-yil 18-may      | Bolgariya Bosh vaziri Boyko Borisov O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2016-yil 20-may      | Koreya Respublikasi Bosh vaziri Xvan Gyo Ann O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2016-yil 24-may      | Rossiya Federasiyasi tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2016-yil 21-22-iyun  | Xitoy Xalq Respublikasining Raisi Si Szin Pin O'zbekistonda bo'ldi va Angren-Pop temir yo'li va Qamchiq tunelining ochilish marosimida ishtirok etdi.   |
| 2016-yil 21-24-iyun  | Toshkentda SHHT davlat rahbarlarining uchrashuvi o'tkazildi. Hindiston va Pokiston ushbu tashkilotning to'laqonli a'zosiga aylandi.   |
| 2016-yil 6-sentabr   | Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.Putin O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov xotirasiga hurmat bajo keltirish maqsadida Samarqand shahriga tashrif buyurdi.                              |
| 2016-yil 12-sentabr  | Qozog'iston Prezidenti N.Nazarboyev O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov xotirasiga hurmat bajo keltirish maqsadida Samarqand shahriga tashrif buyurdi.                                   |
| 2016-yil 22-sentabr  | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi SH.Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinnbosari Asqar Maminni qabul qildi.   |
| 2016-yil 6-oktabr    | Belarus Prezidenti A.Lukashenko O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov xotirasiga hurmat bajo keltirish maqsadida Samarqand shahriga tashrif buyurdi.                                       |
| 2016-yil 18-oktabr   | Toshkentda Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasi o'z ishini boshladi. Unda SH.Mirziyoyev ishtirok etib nutq so'zladi ("Ta'lim va ma'rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo'l") |
| 2016-yil 18-oktabr   | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchisi SH.Mirziyoyev Quvayt Bosh vazirining birinchi o'rinnbosari, tashqi ishlar vaziri shayx Saboh Xolid al-Hamad as-Saboh bilan uchrashdi.                   |
| 2016-yil 29-oktabr   | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi SH.Mirziyoyev AQSH Davlat kotibining siyosiy masalalar bo'yicha o'rinnbosari Tomas Shennonni qabul qildi.   |

|                     |   |
|---------------------|---|
| 2016-yil 12-noyabr  | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi SH.Mirziyoyev XXR tashqi ishlar vaziri Van Ini qabul qildi.   |
| 2016-yil 17-noyabr  | Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdo*g'on Samarqand shahriga tashrif buyurdi.   |
| 2016-yil 16-dekabr  | SH.Mirziyoyev Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi tashqi ishlar vazirining o'rinosi Alan Dunkanni qabul qildi.   |
| 2016-yil 23-dekabr  | "Samarqand, Buxoro, Urganch va Nukus shaharlarda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining konsullik bo'linmalarini ochish va Termiz shahridagi konsullik bo'linmasi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida" Prezident Farmoni qabul qilindi.  |
| 2016-yil 24-dekabr  | Qirg'iziston Prezidenti Almazbek Atambayev amaliy tashrif bilan Samarqandga keldi.  |
| 2017-yil 1-fevral   | SH.Mirziyoyev Amerika-O'zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemmni qabul qildi.  |
| 2017-yil 6-7-mart   | SH.Mirziyoyev Turkmanistonda bo'ldi. Turkmanobod shahrida I.A.Karimov haykali va Turkmanobod-Forob ko'prigining ochilishi marosimida ishtirot etdi.   |
| 2017-yil 16-mart    | SH.Mirziyoyev Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YETTB) prezidenti Suma Chakrabartini qabul qildi.  |
| 2017-yil 22-23-mart | SH.Mirziyoyev Qozog'istonda bo'ldi. Muzokaralar yakunida davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo 13 hujjat imzolanadi.   |
| 2017-yil 4-5-aprel  | SH.Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan ushbu mamlakarda bo'ldi.   |
| 2017-yil 26-aprel   | SH.Mirziyoyev AQSH Qurolli Kuchlari Markazi qo'mondonligi qo'mondoni, general Jozef Leonard Voteli qabul qildi.   |
| 2017-yil 26-aprel   | SH.Mirziyoyev Turkiya Respublikasi tashqi ishlar vaziri Mevlut Chavusho*g'luni qabul qildi.   |
| 2017-yil 29-aprel   | SH.Mirziyoyev Janubiy Qozog'iston viloyatiga tashrif buyurdi va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev bilan amaliy uchrashuv o'tkazdi.   |
| 2017-yil 10-12-may  | Zayd Raad al-Husayn boshchiligidagi BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari delegasiyasiga O'zbekistonda bo'ldi. Tashrif davomida delegatsiya vakillari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Oliy sud, Bosh prokuratura, Tashqi ishlar, Adliya, Ichiki ishlar vazirligi, Inson huquqlari milliy markazi, Xotin-qizlar qo'mitasi rahbariyati, Ombudsman bilan samarali uchrashuvlar o'tkazdi. |
| 2017-yil 12-15-may  | SH.Mirziyoyev Si Szingpinning taklifiga binoan Xitoyda bo'ldi va "Bir makon, bir yo'l" forumida ishtirot etib nutq so'zladi.  |

|                           |   |
|---------------------------|---|
| 2017-yil 18-may           | SH.Mirziyoyev Butunxitoy xalq vakillari kengashi Doimiy qo'mitasi raisining o'rinosini, bosh kotibi Van Chen rahbarligidagi Butunxitoy xalq vakillari kengashi delegatsiyasini qabul qildi. |
| 2017-yil 19-20-may        | SH.Mirziyoyev Turkmanistonda bo'ldi.  |
| 2017-yil 21-22-may        | SH.Mirziyoyev Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida bo'lib o'tgan arab-musulmon mamlakatlari va AQSH sammitida ishtirok etdi.  |
| 2017-yil 24-may           | SH.Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) tashqi ishlar va xalqaro hamkorlik vaziri Shayx Abdulla bin Zoid Al Nahayoni qabul qildi.   |
| 2017-yil 8-9-iyun         | SH.Mirziyoyev SHHT Ostona sammitida ishtirok etdi.  |
| 2017-yil 10-iyun          | Samarqand shahridagi Forumlar majmuasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev bilan BMT Bosh kotibi <b>Antoniu Guterrishning</b> uchrasuvni bo'ldi.                            |
| 2017-yil 11-iyul          | SH.Mirziyoyev Turkmaniston Vazirlar Mahkaması Raisining o'rinosini – tashqi ishlar vaziri Rashid Meredovni qabul qildi.   |
| 2017-yil 26-iyul          | SH.Mirziyoyev Turkiya Respublikasi milliy mudofaa vaziri Nurettin Janiklini qabul qildi.  |
| 2017-yil 23-avgust        | SH.Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi hukumati Raisining birinchi o'rinosini Igor Shuvalovni qabul qildi.   |
| 2017-yil 5-6-sentabr      | SH.Mirziyoyev Qirg'izistonda bo'ldi.  |
| 2017-yil<br>9-10-sentabr  | SH.Mirziyoyev Ostona shahrida Islom hamkorlik tashkilotining Fan va texnologiyalar bo'yicha birinchi sammitida ishtirok etib, Ashraf G'ani, R.Erdog'an va X.Ruxoniylar bilan uchrashdidi.   |
| 2017-yil<br>16-17-sentabr | Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2017-yil<br>17-sentabr    | SH.Mirziyoyev Turkmaniston poytaxti Ashxobod shahrida o'tkazilayotgan Yopiq inshootlarda va jang san'atlari bo'yicha V Osiyo o'yinlarining ochilish marosimida ishtirok etdi.               |
| 2017-yil<br>18-20-sentabr | SH.Mirziyoyev AQShda bo'ldi. BMT bosh kotibi A.Guterrish bilan uchrashti hamda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutq so'zladi.  |
| 2017-yil 25-sentabr       | SH.Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasining Tatariston Respublikasi Prezidenti Rustam Minnikonovni qabul qildi.   |
| 2017-yil 26-sentabr       | SH.Mirziyoyev Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi Spikeri Chon Se Gyunni qabul qildi.   |
| 2017-yil 27-sentabr       | SH.Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi parlamenti Senati Raisi Qasim-Jomart Toqayev boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.  |
| 2017-yil                  | Samarqand shahrida "Markaziy Osiyo: yagona tarix va   |

|                              |   |
|------------------------------|---|
| 10-11-noyabr                 | umumiyl kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Ushbu yirik xalqaro tadbirda 500 dan ortiq ishtirokchi, MDH, BMT, YEI, YEXHT, SHHT, YETTB kabi 10 dan ortiq xalqaro tashkilotlar rahbariyati, 100 ga yaqin taniqli xalqaro ekspertlar va O'zbekistonda akkreditasiyadan o'tgan diplomatik korpus a'zolari qatnashdi.  |
| 2017-yil<br>22-25-noyabr     | SH.Mirziyoyev Janubiy Koreyada bo'ldi va Prezident Mun Chje In bilan uchrashdi.   |
| 2017-yil 2-6-dekabr          | Afg'oniston Prezidenti Muhammad Ashraf G'ani O'zbekistonda, Buxoroda bo'ldi.  |
| 2017-yil<br>13-14-dekabr     | Qirg'iziston Prezidenti S.Jiyenbekov O'zbekistonda bo'ldi.  |
| 2017-yil 26-dekabr           | SH.Mirziyoyev Moskvada MDH davlat rahbarlari kengashining norasmiy uchrashuvida ishtirok etdi.  |
| 2018-yil 18-yanvar           | SH.Mirziyoyev Jahon banki bosh ijrochi direktori Kristalina Georgiyeva boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.   |
| 2018-yil 9-10-mart           | SH.Mirziyoyev Tojikistonda bo'ldi. Do'stlik va yaxshi qo'shnchilikni mustahkamlash to'g'risida qo'shma bayonot hamda O'zbekiston-Tojikiston davlat chegarasining alohida uchastkalari to'g'risidagi shartnomma imzolandi.   |
| 2018-yil 15-16-mart          | SH.Mirziyoyev Qozog'istonda bo'lib Oq o'rda qororgohida N.Nazarbayev bilan uchrashdi va Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi maslahatlashuv uchrashuvida nutq so'zladи.  |
| 2018-yil 26-27-mart          | Toshkentda Afg'oniston bo'yicha "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazildi. Konferensiya jami 25 davlat va yirik xalqaro tashkilotlar vakillari tashrif buyurdi. Afg'onistonda tinchlik o'mratish uchun "Toshkent deklaratsiyasi" qabul qilindi.<br>Prezident SH.Mirziyoyev Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Muhammad Ashraf G'ani bilan uchrashuv o'tkazdi. |
| 2018-yil 23-24-aprel         | Turkmaniston Prezidenti K.Berdimuhamedov O'zbekistonda bo'ldi. O'zaro aloqalarni izchil rivojlantirishga doir 17 ta hujjat imzolandi. Ikki mamlakat rahbari Xiva shahrida bo'lishdi.  |
| 2018-yil 30-aprel –<br>1-may | Turkiya Prezidenti Redjep Toyib Erdogan O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2018-yil 14-17-may           | SH.Mirziyoyev AQShda bo'lib Prezident D.Tramp bilan uchrashdi. Ikki mamlakat vazirlik va kompaniyalari o'ttasida turli sohalarga doir umumiy qiymati 4,7 mlrd. AQSH dollarini miqdorida 20 dan ortiq xujjatlar imzolandi.   |

|                          |   |
|--------------------------|---|
| 2018-yil 22-may          | SH.Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi mudofaa vaziri Sergey Shoyguni qabul qildi.   |
| 2018-yil 9-10-iyun       | SH.Mirziyoyev XXRning Sindao shahrida bo'lib o'tgan SHHTga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlari kengashining 18-majlisida ishtirok etdi va nutq so'zladı.   |
| 2018-yil 14-iyun         | SH.Mirziyoyev Moskvada bo'lib Futbol bo'yicha Jahon championatining ochilish marosimida ishtirok etdi.  |
| 2018-yil 22-iyun         | Prezident SH.Mirziyoyev tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining " <b>Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mantaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash</b> " rezolyusiyasi qabul qilindi.  |
| 2018-yil 26-30-iyun      | Toshkent va Samarqandda Markaziy Osiyo yoshlar forumi o'tkazildi.   |
| 2018-yil 5-6-iyul        | SH.Mirziyoyev Qozog'istonda bo'lib Ostona shahrining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirda ishtirok etdi.   |
| 2018-yil 13-iyul         | SH.Mirziyoyev Jahon bankining Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha vitse-prezidenti Siril Myuller boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.  |
| 2018-yil<br>17-18-avgust | Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon O'zbekistonda davlat tashrifini bilan bo'ldi. Strategik sheriklik to'g'risida shartnoma va ikki davlat rahbarlarining qo'shma bayonoti imzolandi. Turli sohalardagi hamkorlika oid 27 ta hujjat imzolandi.   |
| 2018-yil<br>24-25-avgust | SH.Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti G.Berdimuhamedovning taklifiga binoan Turkmanboshi shahrida bo'lib, <b>Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlar rahbarlari kengashi</b> majlisida ishtirok etdi.<br>BMTning Orolbo'yı mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida <b>Trast fondi</b> tuzildi.   |
| 2018-yil 3-sentabr       | Prezident SH.Mirziyoyev Qirg'izistonning Cho'lponota shahrida bo'lib o'tgan <b>Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi</b> sammitida O'zbekiston nomidan fahriy mehmon sifatida ishtirok etdi. 2019-yil 14-sentabrda esa Respublikamiz Naxichevan kelishuvini ratifikatsiya qildi va o'sha yilning 15-oktabrida bo'lib o'tgan sammitda O'zbekiston <b>Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining to'laqonli a'zosi</b> sifatida qatnashdi. |
| 2018-yil 4-sentabr       | Misr Prezidenti Abdulfatox as-Sisi O'zbekistonga keldi.   |
| 2018-yil 10-sentabr      | SH.Mirziyoyev Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida Islom Hamkorlik tashkilotining Fan va texnologiyalar bo'yicha birinchi sammitida ishtirok etdi.  |
| 2018-yil                 | Beloruss Prezidenti A.Lukashenko O'zbekistonda bo'ldi.  |

|                                   |  |
|-----------------------------------|--|
| 12-14-sentabr                     |  |
| 2018-yil<br>27-28-sentabr         | SH.Mirziyoyev Tojikistonda bo'lib MDH sammitida ishtirok etdi.   |
| 2018-yil 30-sentabr<br>– 2-oktabr | SH.Mirziyoyev Hindistonda bo'ldi.  |
| 2018-yil 8-9-oktabr               | SH.Mirziyoyev Fransiyada bo'ldi.   |
| 2018-yil 16-oktabr                | Termiz shahrida O'rta Osiyo yoshlarining Xalqaro "Do'stlik" forumi bo'lib o'tdi. Tadbir nihoyasida Markaziy Osiyo davlatlari tarixida ilk bor Afg'oniston, Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston delegatsiyasi a'zolari tomonidan yoshlar o'rtasida 11 banddan iborat memorandum imzolandi.   |
| 2018-yil<br>19-21-oktabr          | Rossiya Federetsiyasi Prezidenti V.Putin O'zbekistonda bo'ldi. 25 mldr. dollarlik investitsiyaviy hujjat imzolandi. "O'zbekiston-Rossiya" 1-hududlararo hamkorlik forumi bo'lib o'tdi. O'zbekistonda 79 ta qo'shma korxona barpo etildi.   |
| 2018-yil 25-oktabr                | "Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasidavlat siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3982-sonli qarori qabul qilindi.   |
| 2018-yil<br>22-23-noyabr          | Samarqand shahrida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 70-yilligiga bag'ishlangan <b>Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi</b> bo'lib o'tdi. Forumda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlash yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, <b>Samarqand deklaratasiysi</b> qabul qilindi.  |
| 2018-yil<br>26-27-noyabr          | SH.Mirziyoyev Qozog'istonda bo'lib, SHHT majlisida ishtirok etdi.  |
| 2018-yil 6-dekabr                 | Prezident SH.Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasida bo'ldi.  |
| 2018-yil 12-dekabr                | O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining maxsus "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi qabul qilindi. Rezolyutsiyaning asosiy maqsadi barchanining ta'lif olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berish hamda jamiyatda bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ulaming kamstilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan. |
| 2019-yil<br>12-13-yanvar          | Samarqand shahrida "Hindiston – Markaziy Osiyo" formatida tashqi ishlar vazirlari darajasidagi uchrashuv bo'lib o'tdi.   |
| 2019-yil 18-yanvar                | SH.Mirziyoyev Hindistonda bo'lib o'tgan "Jo'shqin Gujarat-2019" 9-xalqaro investitsiya sammitida ishtirok etib nutq so'zladi.  |
| 2019-yil                          | SH.Mirziyoyev Germaniyada bo'ldi.  |

| 21-23-yanvar                |   |
|-----------------------------|---|
| 2019-yil 3-5-mart           | O'zbekiston Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov amaliy tashrif bilan Qatar davlatida bo'ldi.   |
| 2019-yil 15-mart            | Toshkent shahrida O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston Respublikalari Bosh vazirlari o'rinoslarini ishtirotida birinchi <b>Markaziy Osiyo iqtisodiy forumi</b> o'tkazildi.  |
| 2019-yil 24-26-mart         | Prezident SH.Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirligida bo'ldi.  |
| 2019-yil 14-15-aprel        | Qozog'iston Prezidenti Kasim-Jo'mart Tokayev O'zbekistonga keldi. O'zbekistonda Qozog'iston yilining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.  |
| 2019-yil 18-21-aprel        | Janubiy Koreya Prezidenti Mun Chje In O'zbekistonga rasmiy tashrif bilan keldi.   |
| 2019-yil 26-27-aprel        | SH.Mirziyoyev XXR (Pekin)da bo'lib "Bir makon, bir yo'l" mavzusidagi 2-xalqaro konferensiya ishida ishtirot etib nutq so'zladi.   |
| 2019-yil 2-may              | SH.Mirziyoyev Rossiya Tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrovni qabul qildi.   |
| 2019-yil 3-may              | Toshkentda "Markaziy Osiyoda giyohvand moddalarni nazorat qilish sohasidagi mintaqaviy hamkorlik bo'yicha o'zaro anglashuv memorandumi" ishtirotchi davlatlamining 11-majlisi bo'lib o'tdi.   |
| 2019-yil 27-may             | Germaniya Prezidenti Frank Valter Shtaynmayer O'zbekistonda bo'ldi.   |
| 2019-yil 30-may             | SH.Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Hukumat Raisi Dmitriy Medvedevni qabul qildi.   |
| 2019-yil 10-iyun            | SH.Mirziyoyev Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining prezidenti Suma Chakrabarti boshliq delegatsiyani qabul qildi.  |
| 2019-yil 13-14-iyun         | SH.Mirziyoyev SHHTning Bishkek sammitida ishtirot etdi.   |
| 2019-yil 14-15-iyun         | SH.Mirziyoyev Osiyoda hamkorlik va ishonch choralar bo'yicha kengashning 5-sammitida ishtirot etish uchun Dushanbega keldi. Kengashga 27 ta davlat a'zo bo'lib, u 2007-yil oktabr oyida BMT Bosh Assambleyasini huzurida kuzatuvchi maqomini olgan. |
| 2019-yil 31-iyul – 1-avgust | SH.Mirziyoyev Beloruss Respublikasida bo'ldi.   |
| 2019-yil 2-oktabr           | SH.Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Federal Majilisi Federatsiya Kengashi raisi Valentina Matviyenkoni qabul qildi.   |
| 2019-yil 4-oktabr           | SH.M.Mirziyoyev Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi bosh kotibi va Turkiya savdo palatalari va tovar birjalari ittifoqi raisini qabul qildi.  |
| 2019-yil                    | SH.Mirziyoyev Ashxabod shahrida MDH Davlat rahbarlari   |

|                          |   |
|--------------------------|---|
| 10-11-oktabr             | kengashi majlisida ishtirok etdi. O'zbekiston 1 yil ushbu tashkilot Raisligini qabul qilib oldi. Yig'ilishda SH.Mirziyoyev nutq so'zladi.   |
| 2019-yil<br>14-15-oktabr | SH.Mirziyoyev Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining 7-sammitida kengashining to'laqonli a'zosi sifatida ishtirok etdi.  |
| 2019-yil 22-oktabr       | SH.M.Mirziyoyev Gudjarat shtati delegatsiyasini qabul qildi.  |
| 2019-yil 24-oktabr       | Nukus shahrida BMT shafeligidagi "Orolbo'yi – ekologik innovasiyalar va texnologiyasi hududi" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiya davomida BMT Bosh Assambleyasining Orol dengizi mintaqasini ekologik innovasiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risidagi <b>maxsus rezolyutsiyasi loyihasi</b> ishlab chiqildi.   |
| 2019-yil 1-noyabr        | SH.M.Mirziyoyev Beloruss, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston Bosh vazirlarini, Rossiya hukumati raisi va Xitoy Davlat kengashi Bosh vazirini qabul qildi.  |
| 2019-yil 2-noyabr        | Toshkentda SHHT mamlakatlari Hukumat rahbarlari kengashining yig'ilishi bo'lib o'tdi.   |
| 2019-yil 15-noyabr       | Toshkent shahrida xorijiy mamlakatlar ekspertlari va olimlari ishtirokida "Markaziy Osyo – umumiyy uymiz" mazusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.   |
| 2019-yil<br>11-16-noyabr | O'zbekistonda "Bag'rikenglik haftaligi" doirasida "Xalqaro bag'rikenglik kuni"ga bag'ishlangan tadbirlar majmuasi bo'lib o'tdi. Haftalik davomida festival, rassomlar asarlari ko'rgazmasi, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlarining forumi, san'at ustalari va milliy madaniy markazlar qoshidagi badiiy jamoalarining konsertlari o'tkazildi. |
| 2019-yil 28-noyabr       | Toshkentda O'zbekiston-Turkmaniston davlat rahbarlari uchrashuvi bo'lib o'tdi. Turkmaniston Prezidenti K.Berdimuhamedovga O'zFA Fahriy akademigi unvoni berildi.  |
| 2019-yil 29-noyabr       | SH.Mirziyoyev tashabbusi bilan Toshkentda <b>Markaziy Osyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi ikkinchi maslahatlashuv uchrashuvi</b> bo'lib o'tdi. Unda SH.Mirziyoyev nutq so'zladi.  |
| 2019-yil 14-dekabr       | Toshkentda tashqi ishlar vazirlari o'rinnbosarlari darajasida " <b>Markaziy Osyo - Afg'oniston</b> " forumi o'tkazildi.   |
| 2019-yil<br>17-20-dekabr | SH.Mirziyoyev Yaponiyada bo'ldi. Nagoya universiteti professor-o'qituvchilarini va talabalari bilan uchrashuv o'tkazib nutq so'zladi. SH.Mirziyoyevga Nagoya universitetining fahriy doktori unvoni berildi.  |
| 2019-yil 19-dekabr       | BMT Bosh Assambleyasini yalpi majlisida Prezident   |

|                       |   |
|-----------------------|---|
|                       | SH.Mirziyoyev tomonidan taklif qilingan “Markaziy Osiyo barqaror turizm va barqaror rivojlanish” maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi.   |
| 2019-yil 20-dekabr    | SH.Mirziyoyev Sankt-Peterburg shahrida bo‘lib o‘tgan MDH davlat rahbarlarining norasmiy sammitida ishtirot etdi.  |
| 2019-yil 23-dekabr    | SH.M.Mirziyoyev YEXHT Parlament assambleyasini qabul qildi.   |
| 2020-yil 16-yanvar    | SH.M.Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazin Sergey Lavrovni qabul qildi.  |
| 2020-yil 17-yanvar    | SH.M.Mirziyoyev Jahan Banki delegatsiyasini qabul qildi.  |
| 2020-yil 17-fevral    | Dubay (Birlashgan Arab Amirliklari)da bo‘lib o‘tgan Butunjahon ayollar forumida O‘zbekiston delegatsiyasi ham ishtirot etdi.  |
| 2020-yil 18-fevral    | SH.M.Mirziyoyev Vengriya delegatsiyasini qabul qildi.   |
| 2020-yil 19-20-fevral | SH.M.Mirziyoyev Turkiya Respublikasida bo‘ldi va Turkiya Respublikasi Prezidenti devoni Xalq kutubxonasining tantanali ochilishi marosimida ishtirot etib nutq so‘zladi.  |
| 2020-yil 5-mart       | SH.M.Mirziyoyev YETTB delegatsiyasini qabul qildi.  |
| 2020-yil 3-aprel      | O‘zbekistonning Jenevadagi BMT vakolatxonasi va boshqa xalqaro tashkilotlardagi doimiy vakillari Jahon savdo tashkiloti (JST) vakillari bilan O‘zbekistonning ushbu tashkilotga kirish masalalarini muhokama qilish uchun videokonferensiya o‘tkazdi. |
| 2020-yil 10-aprel     | Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashga bag‘ishlangan navbatdan tashqari sammiti videokonferensiysi bo‘lib o‘tdi. Unda SH.Mirziyoyev ishtirot etib nutq so‘zladi.                                     |
| 2020-yil 11-may       | Oliy Majlis Senatining 4-yalpi majlisida O‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi davlat maqomida ishtirot etish taklifi ma’qullandi. Ushbu masala bo‘yicha Senatning tegishli qarori qabul qilindi.                                |
| 2020-yil 12-may       | O‘zbekiston tashabbusi bilan videokonferensaloqa rejimida MDH davlatlari Tashqi ishlar vazirlari kengashi majlisi bo‘lib o‘tdi (2020-yil O‘zbekiston birinchi marta MDH raisligiga saylandi).   |
| 2020-yil 23-iyun      | Prezident SH.Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasida bo‘lib, fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaning 75 yilligi tantanalarida ishtirot etdi.  |
| 2020-yil 12-13-avgust | Xalqaro yoshlar kuni munosabati bilan Samarqand shahrida “Yoshlar 2020: global miyosdagi birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari” mavzusida Samarqand forumi bo‘lib o‘tdi.  |
| 2020-yil 23-sentabr   | SH.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining vedeokonferensiya shaklida o‘tkazilgan 75-sessiyasida   |

|                     |  |
|---------------------|--|
|                     | o'zbek tilida nutq so'zladi.   |
| 2020-yil 10-noyabr  | Shavkat Mirziyoyev Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining videoanjuman shaklida o'tkazilgan majlisida ishtirok etib nutq so'zladi.  |
| 2020-yil 11-dekabr  | Shavkat Mirziyoyev <b>Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining</b> videoanjuman shaklidagi yig'ilishida ishtirok etdi.   |
| 2020-yil 18-dekabr  | SH.Mirziyoyev raisligida MDH sammiti bo'lib o'tdi (O'zbekiston 2020-yilda MDHga raislik qildi).  |
| 2021-yil 22-fevral  | SH.Mirziyoyev BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashining Jenevada bo'lib o'tgan 46-sessiyasida onlayn ma'ruza qildi.  |
| 2021-yil 4-mart     | SH.Mirziyoyev <b>Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining</b> videoanjuman shaklida o'tkazilgan 14-sammiti ishtirok etib nutq so'zladi. 1985-yilda tashkil etilgan ushbu xalqaro tashkilotga bugungi kunda 10 ta davlat a'zo (Turkiya, Ozarbayjon, Eron, Afg'oniston, Pokiston, Turkmaniston, O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston).   |
| 2021-yil 11-12-mart | Sh.Mirziyoyevning taklifiga binoan Qirg'iziston Respublikasining Prezidenti Sadir Japarov davlat tashrifni bilan mamlakatimizda bo'ldi.  |
| 2021-yil 31-mart    | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining videokonferensiya shaklidagi norasmiy sammitida ishtirok etib, tashkilot doirasida qo'shma investitsiya jamg'armasi va taraqqiyot bankini tashkil etish bo'yicha harakatlarni kuchaytirishga chaqirdi. Prezidentimiz shuningdek, tashkilot doirasida Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'sis etish bo'yicha takliflami ilgari surdi. Mazkur taklif nafaqat sammit ishtirokchilari balki butun xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlandi. |
| 2021-yil 29-aprel   | Sh.M Mirziyoyev Turkmanistonda bo'ldi.   |
| 2021-yil 10-iyun    | Sh.M Mirziyoyev Tojikistonda bo'ldi.   |
| 2021-yil 15-16-iyul | Toshkent shahrida "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdid va imkoniyatlar" mavzusida yuqori darajali xalqaro konferensiya o'tkazildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan anjumanda Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlarning davlat rahbarlari, tashqi ishlar vazirlari, jami 44 ta mamlakat va 30 ga yaqin xalqaro tashkilot delegatsiyalari, nufuzli xorijiy ilmiy-tadqiqot va tahlil markazlari rahbarlari ishtirok etdi.   |
| 2021-yil 6-avgust   | Turkmanistonning "Avaza" milliy turizm zonasida Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilarining navbatdagi uchinchi maslahatlashuv uchrashuvu bo'lib otdi.  |

**13-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
SHAVKAT MIRZIYOYEV RAHBARLIGIDA  
YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON: MILLIY  
TIKLANISHDAN – MILLIY YUKSALISH SARI**

**Reja:**

- 1. Shavkat Mirziyoyev yangi O'zbekiston Prezidenti.**
- 2. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining sifat bosqichiga o'tishida Shavkat Mirziyoyev tashabbuslarining o'rni.**
- 3. O'zbekiston tashqi siyosatida yangi yo'l.**

**Tayanch tushunchalar:** *Bosh vazir virtual qabulxonasi, Xalq qabulxonalarini, "Yagona darcha", Davlat xizmatlari agentligi, Korrupsiyaga qarshi kurash, Harakatlar strategiyasi, Korrupsiyasiz meditsina, Korrupsiyasiz ta'lim. Ta'limda shaffoflik, Ochiq, shaffof ichki va tashqi siyosat. Matbuot erkinligi, Innovatsiya, Investitsiya, "Uchinchi renessans", Ichki va xalqaro turizm, Ziyorat turizmi, "Obod qishloq" dasturi, "Obod mahalla" dasturi.*

**1. Shavkat Mirziyoyev yangi O'zbekiston Prezidenti.**

Islom Abdug'aniyevich Karimov mustaqil O'zbekiston davlatining asoschisi, yurtimizni sobiq mustabid tuzum qaramligidan ozod qilib, uni zamonaviy asosda taraqqiy ettirish strategiyasini, dunyoda "O'zbek modeli" degan nom bilan tan olingen rivojlanish yo'lini ishlab chiqqan, jahon miqyosida katta obro'-e'tibor qozongan, buyuk davlat va siyosat arbobi sifatida Vatanimiz tarixida o'chmas va yorqin iz qoldirdi.

Xalqimiz o'zining chorak asr davomida erishgan barcha yutuq va marralarini synan O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov nomi bilan bog'laydi va shu ulug' insonning beqiyos xizmatlari deb biladi.

2016-yil 2-senyatbr kuni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovni so'nggi yo'lga kuzatdik. Bu judolik bir muddat xalqimizning ruhini tushirdi. Tashvishlar, g'amlar, quvonchlarning bari bir muddat unutilgan. Endi nima bo'ladi? degan savol hammani birdek o'yantirib qo'yan edi. Hattoki odamlar uyidagi kundalik yumushlarini unutib, respublika radio va televidiniyesidagi har bir xabarni favqulorra ziyaraklik bilan kuzatib borishardi.

O'zining yo'lboschisiga, O'zbekiston degan davlatni yo'q yerdan paydo qilib, bugun-butun dunyo davlatlari orasida tenglar ichra teng bo'lishiga erishgan, yuz yillar mobaynida mustamlakachilikda, arosatda, ta'bir joiz bo'lsa, qullikda yashagan xalqqa yorug' dunyonni, farovon hayotni taqdim qila olgan insonga bo'lgan hurmatini butun dunyo ko'rdi.

Albatta, bu o'zgarishlarning tepasida buyuk yo'lboschimizning munosib vorisi, ishonchli shogirdi shunday davlatni barpo etishda Islom Karimov bilan yelkama-yelka turib, har qanday og'irliklarni yengishda sabot va matonat bilan mehnat qilib kelayotgan Mirziyoyev Shavkat Miromonovich turgani xalqimizga dalda bo'ldi.

Xalqimizning oldida turgan oxiri yo'q savollarga javob va ertangi kunga ishonch paydo bo'ldi.

2016-yil 4-dekabrda bo'lib o'tgan Prezidentlik saylovlarida xalqimiz katta ishonch bilan birinchi Prezidentimiz ishlarining haqiqiy davomchisi bo'lgan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev nomzodini qo'llab ovoz berdi.

Shavkat Mirziyoyev xalqimiz uchun qiyin bo'lgan kunlarda (2016-yil sentabrnoyabr), saylovoldi uchrashuvlar va yig'ilishlarda tashabbuskor-islohotchi lider sifatida o'zini namoyon qila oldi va xalq ishonchini qozonib O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev mehnat faoliyatini 1981-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida kichik ilmiy xodimlikdan boshlab katta o'qituvchi, dotsent, o'quv ishlari bo'yicha prorektor lavozimigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. 1990-yili Respublika Oliy Kengashi deputatligiga saylanib, bir vaqtning o'zida Mandat komissiyasining raisi sifatida ham faoliyat ko'rsatdi. 1992-yilda Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumani hokimi lavozimiga tayinlandi. 1996-2001-yillarda Jizzax viloyati hokimi, 2001-2003-yillar mobaynida Samarqand viloyati hokimi lavozimlarida ishladi. Ayni vaqtida 1995-2003-yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputati sifatida ham faoliyat olib bordi. Shavkat Mirziyoyev 2003-yilda O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri etib tayinlandi va 2005, 2010, 2015-yillarda Oliy Majlis palatalari tomonidan ushbu lavozimga yana uch marta qayta tasdiqlandi.

2016-yil 2-sentabrda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning vafot etishi munosabati bilan Oliy Majlis Sh.Mirziyoyevni Birinchi Prezident dafn marosimini o'tkazish bo'yicha komissiyaga rais etib tayinladi. 2016-yil 8-sentabrda Prezident vazifasini bajaruvchi, Oliy Majlis Senati raisi Nig'matilla Yo'ldoshev mamlakat rahbari vazifasini vaqtincha bajarish mas'uliyatini o'zidan soqit qilib, o'z o'miga Sh.Mirziyoyev nomzodini tavsiya qildi.

2016-yil 19-oktabr kuni O'zbekiston Liberal Demokratik Partiyasining VIII syezdi bo'lib o'tdi. Unda partiya siyosiy kengashi a'zosi Sh.Mirziyoyev nomzodini Prezidentlikka nomzod sifatida tasdiqlash to'g'risidagi qaror qabul qildi.

2016-yil 4-dekabr kuni bo'lib o'tgan Prezident saylovlarida saylovchilarining 88,61 foiz ovozi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi va 2016-yil 14-dekabrdan rasman o'z vazifasini bajarishga kirishdi.

Shavkat Mirziyoyev o'zining ijtimoiy-siyosiy faoliyatidagi samarali mehnatlari uchun mamlakatimiz va qator xorijiy davlatlarning orden va mukofotlariga sazovor bo'lgan. Mehnat shuhrati ordeni (1998), Fidokorona xizmatlari uchun ordeni (2007), Danaker ordeni (Qirg'iziston, 2017), 1-darajali Do'stiq ordeni (Qozog'iston, 2018), AQSH-O'zbekiston savdo palatasining mukofoti (2017), Yevroсиyo oldidagi xizmatlari uchun mukofoti (2018), Osiyo jurnalistlar uyushmasining "Yil kishisi" mukofoti (2018), Nagoya universiteti faxriy doktori (2019) va Turk dunyosini tiklashga qo'shgan ulkan hissasi uchun mukofotilari shular jumlasidandir.

SH.Mirziyoyev yangilangan O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotining dolzarb masalalari va ulaming yechimiga qaratilgan qator nutq va asarlar muallifi. Prezidentimizning 2016-yildan bugungi kunga qadar quydagi asarları nash etilgan:

**1. Mirziyoyev Sh.M.** Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq) – Toshkent: O'zbekiston, 2016. -56 b.

**2. Mirziyoyev Sh.M.** Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak (Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza). 2017-yil 14-yanvar. –T.: O'zbekiston, 2017. -104 b.

**3. Mirziyoyev Sh.M.** Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza) 2016-yil 7-dekabr. –T.: "O'zbekiston", 2017. -48 b.

**4. Mirziyoyev Sh.M.** Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz (Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rinni o'rgan). –T.: "O'zbekiston", 2017. -488 b.

**5. Mirziyoyev Sh.M.** Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Asarlar 1-jild. –T.: "O'zbekiston". 2018.

**6. Mirziyoyev Sh.M.** Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Asarlar 2-jild. –T.: "O'zbekiston". 2018.

**7. Mirziyoyev Sh.M.** Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. Asarlar 3-jild. –T.: "O'zbekiston". 2019.

**8. Mirziyoyev Sh.M.** Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. Asarlar 4-jild. –T.: "O'zbekiston" 2020.

**9. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.** –Т.: "Ўзбекистон". 2021.

**2. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining sifat bosqichiga o'tishida Shavkat Mirziyoyev tashabbuslarining o'rni.**

Shavkat Mirziyoyev Prezident saylovlari oldidan bo'lib o'tgan saylovoldi uchrashuvlarida ilk bor o'zining islohotlar dasturini xalqimizga taqdim qilgan edi. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017-yildan boshlab mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy sohalarda keng ko'lamli islohotlar boshlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan "**2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi**" barcha islohotlarni tartibga soladigan asosiy hujjat va yo'il xaritasi bo'ldi.

Strategiyada mamlakat rivoji uchun muhim hisoblangan beshta yo'nalish belgilab olindi:

**Birinchi ustuvor yo'nalish** – Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish;

**Ikkinchı ustuvor yo'nalish** – Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloq qilish;

**Uchinchı ustuvor yo'nalish** – Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish;

**To'rtinchı ustuvor yo'nalish** – Ijtimoiy sohani rivojlantirish;

**Beshinchı ustuvor yo'nalish** – Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat olib borish.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev davrida Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni hayotga tadbiq etilishi bosqichlarini ana shu beshta ustuvor yo'nalishlar kesimida qisqacha tahlil qilsak.

**Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish borasida** 2017-yildan boshlab "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatni sari" konsepsiysi hayotga tadbiq etila boshlandi. Davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning roli oshirilib, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish va ijro hokimiyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlari yanada kengaytirildi. Deputat va senatorlar bevosita joylarga chiqib, xalqning turmush darajasidan xabardor bo'lish, odamlarni qiyinayotgan muammolarni tizimli tahlil qilish va hal etishda bevosita ishtirot eta boshladilar. Yoshlar masalalari hamda Oila va ayollar masalalari bo'yicha Parlament komissiyalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlis palatalaridagi doimiy vakili lavozimi ta'sis etildi. Toshkent shahrida tumanlar darajasida xalq deputatlari Kengashlari ta'sis etildi. Mahalliy kengashlarga hokimlarning hisobotlarini eshitish tizimi yangicha, xalqchil ko'rinishda yo'lga qo'yildi.

Davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish borasida bir qator yangi vazirlik va idoralar (Innovatsion rivojlanish (2017), Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish (2017), Maktabgacha ta'lim (2017), Qurilish (2018), Bandlik va mehnat munosabatlari (2018), Investitsiya va tashqi savdo (2019), Transport (2019), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish (2020), Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi (2020) Turizm va sport vazirligi (2021) tashkil etildi. Ma'muriy islohotlar konsepsiysi (2017-yil sentabr) qabul qilindi va unga ko'ra 100 dan ortiq davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini qayta ko'rib chiqildi.

Davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning roli kuchaytirildi. "Elektron hukumat" tizimi takomillashtirilib, davlat xizmatlari ko'rsatish sifati oshirildi. "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" g'oyasi ostida "Fuqarolar emas, xujjatlar harakatlanadi" degan tamovilni hayotga joriy etish maqsadida Adliya vazirligi huzurida Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi (2017-yil 12-dekabr). Davlat xizmatlari markazlari orqali 2018-2020-yillarda tadbirkorlar va fuqarolarga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha xizmatlar ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ro'yxati shakllantirildi.

O'tgan vaqt mobaynida agentlik tizimi takomillashtib, xizmat qamrovi kengayib bordi. Xususan, endi ish boshlangan paytda xizmat turlari 37 ta bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib ular 157 taga yetkazildi. Aholiga kuniga o'rtacha 57 mingtdan ortiq davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda.

Buning uchun 117 ta qonun hujjatlari ishlab chiqilib, soha isloq qilindi. 70 dan ziyod davlat xizmati soddalashtirildi. Talab etiladigan hujjatlar soni 221 tadan 95 taga, xizmat ko'rsatishning umumiyligi muddati qariyb 500 kundan 271 kunga qisqartirildi. Bularning barchasi aholiga katta qulaylik yaratmoqda.

Hududlarda davlat xizmatlari markazlari uchun 145 ta yangi bino va 115 ta filial barpo etildi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini arxividagi 60 million dona qog'oz shaklidagi ma'lumotlar to'liq raqamlashtirildi.

Mazkur yilda hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha yangi tizim – **sektorlar faoliyati** yo'lga qo'yildi. Ularga tegishli hudud hokimlari, prokurorlari, ichki ishlari va davlat soliq xizmati rahbarlari boshchilik qiladigan bo'ldi.

Mahalla institutini takomillashtirish borasida MFY xodimlari soni 2 baravariga oshirildi, Fuqarolar yig'ini raisining o'rinnbosari hisoblanuvchi yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi lovozimi joriy etildi, "Mahalla iftihori" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

Aholi murojaatlari bilan ishslash masalasida **Prezident Virtual va Xalq qabulxonalari** tashkil etildi. 1000 – "Ishonch telefonni" xalq e'tirofini qozondi.

2018-yilda **Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini** tasdiqlandi. Unga ko'ra qonunlar, Prezident va Vazirlar Mahkamasining qarorlarini qo'llash uchun qo'shimcha ichki idoraviy xujjatlar qabul qilish amaliyotiga barham berildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida **Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash masalalari** qo'mitasi tashkil etildi.

"O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni (2018-yil 1-avgust) bilan Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi Raisiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiga 10 mln. AQSH dollaridan ko'p bo'lmagan ekvivalentda chet el investorlari bilan investitsiya shartnomalarini mustaqil tuzish huquqi berildi. Hokimlar tomonidan yer uchastkasini muddatli ijaraga berish muddati 3-10 yildan 50 yilgacha berish huquqi berildi.

"**Mening fikrim**" jamoaviy murojaatlar portalini ishga tushirildi va fuqarolarga parlament va mahalliy kengashlarga elektron jamoaviy murojaat yollash imkoniyati yaratildi.

Prezidentning yangilangan Virtual qabulxonasi ishga tushirildi. "**Onlayn maslahatchi**" moduli yaratilib, jami 94 ta davlat tashkiloti va idoralari mazkur modulga birlashtirildi. Davlat xizmatlari agentligi faoliyati takomillashtirilib uning soni filiallar bilan birga 231 taga yetkazildi. Davlat xizmatlari markazlarida "**yagona darcha**" tamoyili asosida ko'rsatiladigan 58 ta davlat xizmati ro'yxati tasdiqlandi va ko'rsatilgan xizmatlar turi 100 taga yetdi.

2019-yilda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar qiritish to'g'risida"gi qonun qabul qilinib (2019-yil 2-mart), unga ko'ra:

-Bosh vazir o'rnibosarlari, vazirlar va davlat qo'mitalari raislari nomzodlarini Bosh vazir taqdimiga binoan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan ma'qullash va Prezident tomonidan tasdiqlash tartibi belgilandi;

-Hukumat a'zoligiga nomzodlarga sohani rivojlantirish bo'yicha istiqbolga mo'ljallangan harakat dasturi bilan deputatlar oldida chiqish tartibi joriy etildi;

-Viloyat, tuman va shahar davlat organlari rahbarlari tegishli xalq deputatlar Kengashlari tomonidan tasdiqlanadigan bo'ldi;

-Qonunchilik palatasida "**Hukumat soati**"ni o'tkazib borish amaliyoti yo'liga qo'yildi;

-Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasida alohida **Sud huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitalari** tashkil etildi;

2019-yil 1-avgustdan eksperiment sifatida qurilish va oliy ta'lim "**Korrupsiyasiz soha**" loyihasi amalga oshirila boshlandi. 1-sentabrdan yoshlarga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta'lim berila boshlandi.

5 ta qonun unifikatsiya qilinib 2019-yil 25-iyun kuni yaxlit **O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi** qabul qilindi. Unga muvofiq:

-Qonunchilik palatasida **O'zbekiston Ekologik harakati** vakillariga kvota ajratish tartibi bekor qilindi;

-siyosiy partiyalarga saylovda qatnashish huquqini beruvchi imzo yig'ish jarayonida saylovchilar tomonidan bir necha partiyalami qo'llab imzo qo'yishlari mumkinligi belgilandi;

-ijtimoiy xavfi katta bo'limgan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan saylovda ishtirok etishni chekllovchi normalar olib tashlandi;

-Markaziy saylov komissiyasi a'zolarining maqomi Parlament deputatları a'zolariga tenglashtirildi.

Hukumat islohotlari doirasida Bosh vazir o'rniboslarining bir vaqtning o'zida aksionerlik jamiyatlar, kompaniyalar va davlat ulushi mavjud boshqa tashkilotlarga rahbarlik qilish amaliyoti bekor qilindi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Xorijiy investorlar kengashi tashkil etildi.**

**Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish yo'nalishi** bo'yicha 2017-yilda Prezident huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlariga tavsiya etish borasida oliy malaka komissiyasi negizada sud hokimiyatining mustaqil organi sifatida **Sudyalar oliy kengashi** tashkil qilindi. Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, Oliy sud faoliyati takomillashtirildi.

**Qoraqalpog'ston Respublikasi va viloyatlar Xo'jalik sudlari Iqtisodiy sudlar** sifatida qayta tashkil etildi.

Sudya lavozimida bo'lishning ilk marotaba 5 yillik, keyin 10 yillik va muddatsiz davri belgilandi. Konstitutsiyaviy va Oliy sudlarning sudyalar uchun sudyalik lavozimida bo'lishning eng yuqori yoshi **70 yosh**, boshqa sudyalar uchun **65 yosh** etib belgilandi. Oliy sudning harbiy hay'ati tugatilib, Oliy sudning ma'muriy ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tashkil etildi. Sayyor sudlar tashkil etildi.

Bosh prokuratura huzurida **Majburiy ijro byurosi** tashkil etildi.

**“Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib (2017-yil 3-yanvar), 2017-2018-yillarda Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha** davlat dasturi tasdiqlandi.

Fuqarolik-prosessual, Iqtisodiy-prosessual va Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodekslar yangi tahrirda qabul qilindi. Jinoiy jazolar tizimidan “qamoq” jazosi chiqarilib, majburiy jamoat ishlari jazo turi joriy etildi. Sudlar faoliyatiga zamонави axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari joriy qilindi.

Jismoniy shaxslar uchun bojxona hududiga kirib kelish va uni tark etish bo‘yicha “yashil” va “qizil” yo‘lak tizimi joriy etildi. Hokimlarning, prokuratura va Ichki ishlar organlarining aholi va mahalliy Kengashlar deputatlari oldida hisobot berish tizimi joriy etildi.

2018-yilda sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash borasida islohotlar davom ettirilib, **Sudyalar oliy maktabi** tashkil etildi.

Mazkur yilda 1881 ta jinoyat ishi dalillar yetarli bo‘limganligi uchun tugatildi, 590 nafar shaxs sudlar tomonidan oqlandi. 5462 nafar shaxsga nisbatan tergov assosiz qo‘yilgan moddalar ayblovdan chiqarilib tashlandi, 2449 nafar shaxs sud zalidan ozod etildi. Qilmishidan chin dildan pushaybon bo‘lgan 993 nafar fuqaro Yoshlar ittifoqi, mahallalar va xotin-qizlar qo‘mitalari kafilligi bilan jazdan ozod etildi.

Ekstremistik guruhlarga aloqadar deb nazoratga olingan 20 ming fuqaro “maxsus hisoblar”dan chiqarildi.

Ilk bor “**Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida**”gi Qonun qabul qilindi. **Bosh prokuratura Akademiyasi** tashkil etildi. Tergov va vaqtincha saqlash hibxonalarini videokuzatuv vositalari bilan jahozlandi.

Fuqarolarga propiska va viza berishdagi qiynichiliklar bartaraf etildi. 39 ta mamlakat fuqarolariga elektron viza berish tartibi joriy qilinishi tufayli yurtimizga 4 mln. nafar sayyoh tashrif buyurdi. Turizmni rivojlantirish maqsadida yo‘l-patrul postlari qisqartirildi.

Uzoq yillar mamlakatimizda yashab kelayotgan shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi berildi.

2019-yilda sud islohotlari doirasida sudyalik lavozimiga ilk marotaba tavsiya etiladigan nomzodlar uchun amaldagi yosh senzi qayta ko‘rib chiqilib nomzodning yoshi kamida 35 yosh etib belgilandi. Sudyaning maxsus kiyimi joriy etildi.

Xorijiy tajriba va xalqaro standartlar asosida shaxsmi axloqan tuzatish va jamiyatga ijtimoiy moslashuvini ta’minlash maqsadida mahkumlarni rag‘batlantirishning adolatli mezonlari ishlab chiqildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining **Jasliq** qo‘rg‘onida joylashgan 19-son ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish koloniysi tugatildi.

Notarial rasmiylashtirish xujjalari qisqartirildi, keraksiz talablar soddalashtirildi va olib tashlandi. Xususiy notarial idoralarga ruxsat berildi.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy va vaqtincha propiska qilish tartibi soddalashtirildi. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarga “**Fahriy fuqaro**” maqomini berish tizimi joriy etildi.

**Uchinchi ustuvor yo‘nalish – Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberalallashtirish** borasida 2017-yilgi barcha islohotlar “Inson manfaatlari va farovonligi hamma narsadan ustun” degan tamoyilga asoslangan xolda amalga oshirildi.

2017-yil 5-sentabrdan **milliy valyuta** – so‘mnинг erkin ayriboshlanishi ta’minlandi. Valyuta mablag‘larini hech qanday to‘siksiz qonuniy sotib olish va sotish imkoniyati yaratildi. Bojxona to‘lov stavkalari 2 baravar pasaytirildi. Biznesga qulay sharoit yaratish “Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi” tamoyiliga asoslandi. Prezident huzurida tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish instituti (**Ombudsman**) ta’sis etildi.

Samarasiz obyektlar o‘rnida 45 ta yangi kichik sanoat zonalari tashkil etilib, ularning soni 75 taga yetkazildi. 11 ta yangi erkin iqtisodiy zona tashkil etildi. 7400 ta yangi sanoat korxonalarini foydalanishga topshirildi va ularda 150 dan ortiq yangi turdag‘ maxsulotlar ishlab chiqarila boshlandi. Qulay invstition muhit va tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish siyosati yurgizilib, eksport qo‘llab-quvvatlandi.

Mazkur yilda agrar islohotlar sohasida qishloq tumanlarida **hokimlarning qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rnbosari** lavozmi joriy etildi.

Qishloq xo‘jaligida 8,3 mln. tonna g‘alla, 2,9 mln. tonna paxta, 12,4 tonna pilla, 5,8 ming tonna sholi, 22 mln. tonna meva-sabzavot, 12,3 mln. tonna go‘sht-sut maxsulotlari, 100 ming tonna baliq yetishtirildi. O‘zbekiston asalarichilik uyushmasi tashkil etildi.

2018-yilda valyutani tartibga solsh sohasida xalqaro to‘lov kartochkalaridan xorijiy valyutani yechib olish mexanizmi joriy etildi, kechayu-kunzuz ishlaydigan avtomatlashtirilgan valyuta ayriboshlash shaxobchalarini yaratildi.

Soliq sohasida fuqarolar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining yagona stavkasi 12 % qilib belgilandi.

Turizmni rivojlantirish borasida barcha aeroportlarda ikki yo‘lakli (**qizil va yashil**) tizim joriy etildi, deklaratsiya to‘ldirish talablarini soddalashtirildi, 9 mamlakat uchun (jami 18 ta) vizasiz rejim tadbiq etildi. Kirish vizani soddalashtirilgan tartibda oluvchi mamlakatlar soni 12 tadan 51 taga yetkazildi. “**O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil**” dasturi bo‘yicha ichki turizmda 14 mln. fuqaro sayyohatlarni amalga oshirdi. Samarqand shahrida “**Ipak yo‘li**” turizm xalqaro universiteti tashkil etildi.

Qishloq xo‘jaligida meva-sabzavot ishlab chiqarishning **klaster** tizimiga o‘tildi va shu yo‘nalishda 47 ta klaster tashkil etildi.

Aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb chilish maqsadida “**Yoshlar – kelajagimiz**”, “**Har bir oila – tadbirkor**”, “**Obod mahalla**”, “**Obod qishloq**” Davlat dasturlari qabul qilindi.

Hududlarda 20 ta erkin iqtisodiy zona va 135 ta kichik sanoat zonasini tashkil etildi.

2019-yilda “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni qabul qilinib, unga ko‘ra qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 20% dan 15% ga tushirildi. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i 5% dan 2% ga pasaytirildi.

Oliy Majlis davlat byudjetini Qonun shaklida qabul qildi. O‘rta muddatli byudjet-soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlarini tasdiqlashni nazarda tutuvchi yangi

byudjet taqvimi joriy qilindi. Bu vazirlik va idoralarga dasturlar va investitsion loyihalarni o'rta muddatli rejalashtirish imkonini berib, investor va soliq to'lovchilarga o'zlarining biznes rejalarini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qildi.

Milliy iqtisodiyotning rivojiga turki beradigan Zargarlik tarmog'ini jadal rivojlantirish, Yoqilg'i-energetika sohasida o'zaro hisob-kitoblami yanada takomillashadirish va moliyaviy barqarorlikni oshirish, **Atom energetikasini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash**, To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilish va uning eksport salohiyatini kengaytirish, **Kimyo sanoatini yanada isloh qilish** va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish bo'yicha Prezident Farmonlari qabul qilindi.

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar natijasida O'zbekiston oxirgi 8 yilda qariyb 100 pog'onaga yuqorilab "Biznesni yuritish 2020" yillik reytingida 69-o'rinni egalladi va **islohotchi davlat sifatida top-20 talikka kirishga muvaffaq bo'ldi**.

96,7 mingta yangi korxona va tashkilotlar tashkil etildi (bu 2018-yilga nisbatan 1,8 marta ko'pdir). Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 398,1 mingtaga yetdi. YAIMda sanoat tarmog'i ulushi 2017-yildagi 22,2 % dan 2019-yilda 30 % ga oshdi. Ishlab chiqarilgan yuk avtomobilari soni 271,1 mingta, yengil avtomobillar soni 5,3 mingta, avtobuslar soni 1,5 mingtani tashkil etdi.

Klaster usulida qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarish paxta va to'qimachilik sohasida 62 % (jami 76 ta klaster), chovchachilikda 8 %, meva-sabzovotchilikda 7,5 % (jami 47 ta klaster) ni tashkil etdi.

Qishloq xo'jaligida 7,187 mln. tonna don, 2,9 mln. tonna kartoshka, 9,9 mln. tonna sabzovot, 2,7 mln. tonna meva va 1,5 mln. tonna uzum yetishtirildi.

**Ijtimoiy sohani rivojlantirish yo'nalishida** 2017-yilda amalga oshirilgan islohotlar "Hamma narsa inson manfaatlari uchun" tamoyili ostida olib borildi. Qishloq joylarida yangi na'munaviy loyihalar asosida 19.610 ta arzon uy-joylar qurildi. Shaharlarda 9 mingdan ziyod oila yangi kvartiralar bilan ta'minlandi. Har bir tuman va shaharda "**Toza hudud**" korxonasi tashkil etildi. Minglab kilometr ichki yo'llar qurilib ta'mirlandi. **Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi** tashkil etildi.

Sog'liqni saqlash sohasida 1373 ta qishloq vrachlik punkti qisqartirilib, o'miga 793 ta qishloq oilaviy poliklinikasi, 441 ta tez tibbiy yordam shahobchalari ochildi.

Ta'lim tizimida Maktabgacha ta'lism sohasini isloh qilishning 5 yillik dasturi qabul qilindi. **Maktabgacha ta'lim vazirligi** tashkil qilindi. 2017-yil sentabrdan maktablarda 11 yillik ta'lim joriy qilindi. Oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotasi 15 % ga oshirildi. Chirchiq padagogika instituti, Toshkent agrar universitetining Termiz filiali, Toshkent texnika universitetining 2 ta mintaqaviy filiali, San'at va madaniyat institutining Farg'ona filiali tashkil etildi.

Fan va texnologiyalar agentligi tashkil etildi. O'zFANing Navoiy shahrida bo'limi ochildi. Oliy ta'limdan keyingi ikki pog'onali tayanch doktorantura (**PhD**) va doktorantura (**DC**) tizimi joriy etildi.

Madaniyat va sport sohasida Madaniyat ishlari vazirligi negizida **Madaniyat hamda Jismoniy tarbiya va sport vazirligi** tashkil etildi. Vazirlik huzurida

**“O’zbekkonsert”** davlat muassasasi va **Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg’armasi** ta’sis etildi.

“**Xalqaro Islom sivilizatsiyasi markazi**” tashkil etilib, Toshkent shahrida keng ko’lamli qurilish ishlari boshlandi. Ijodkorlarni qo’llab-quvvatlash maqsadida “**Ilhom**” jamoatchilik fondi tashkil etildi.

Yoshlarga oid davlat siyosati bo'yicha “**O’zbekiston Yoshlar ittifoqi**” tashkil etildi. Barcha darajadagi davlat hokimiysi va boshqaruv organlarida, mahallalarda yoshlar masalalari bo'yicha o'sinbosar shtatlari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi qoshida **Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti** tashkil etildi. Faol yoshlar uchun “**Mard o'g'lon**” davlat mukofoti va “**Kelajak bunyodkori**” medali ta’sis etildi.

2018-yilda yangilangan namunaviy loyihalar asosida 53 mingdan ziyod arzon uy-joylar va kvartiralar qurildi. Turar-joy sharoitlarini yaxshilashga muxtoj 65 mingga yaqin oila uy-joy bilan ta'minlandi. Nogironligi bo'lgan, boquvchisini yo'qtgan, ehtiyojmand va nochor 21500 dan ziyod oila arzon uy-joylar bilan ta'minlandi. Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash jamg’armasi tashkil etildi.

“**Har bir oila – tadbarkor**”, “**Yoshlar – kelajagimiz**” Davlat dasturlari doirasida 2600 dan ortiq biznes loyiha amalga oshirildi. “**Obod qishloq**” va “**Obod mahalla**” Davlat dasturlari doirasida 416 ta qishloq butunlay yangi qiyofa kasb etdi.

Vaziralr Mahkamasi huzurida “**Oila**” ilmiy amaliy tadqiqot markazi tashkil etildi (2018-yil 2-fevral). “**Sog'lom oila – sog'lom jamiyat**” g'oyasini hayotga tadbiq etish, oila reproduktiv salomatligini kompleks o'rganish uchun uslubiy tavsiyalar ishlab siqish va samarali tadbiq etish, notinch va muammoli oilalarni aniqlash va ularning manzilli ro'yxatlarini tuzish, ma'naviy-ahloqiy muhitini sog'lomlashtirish, nizoli holatlarning oldini olish, milliy mentalitetga zid bo'lgan turli yet xavf-xatarlarga qarshi kurashish ushbu markazning asosiy vazifalari etib belgilandi.

2019-2025-yillarda **Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiysi** qabul qilindi. Respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining soni 16 taga yetdi, viloyatlarda markazlaming 10 ta filiali tashkil etildi, tumanlarda 306 ta ixtisoslashtirilgan bo'limlar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining soni 1400 taga ko'payib 6367 taga yetdi. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi xususiy maktabgacha ta'lim maskanlari 2 baravar ko'payib 568 tani tashkil etdi.

Maktab o'qituvchilarining ish yuklamasi aniqlashtirildi va ularga uy-joy, yer uchastkasi, maishiy texnika, avtomashina xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar ajratish tizimi yo'lga qo'yildi.

2017-2018-yillarda 5 ta yangi oliy ta'lim muassasasi hamda 12 ta xorijiy oliy o'quv yurtlarining filiallari tashkil etildi. Yetakchi xorijiy ta'lim muassasalarida qadrlar tayyorlash va malakasini oshirish uchun “**El-yurt umidi**” jamg’armasi tashkil etildi.

2019-yilda yirik loyihalarning amalga oshirilishi natijasida 266,3 mingta ish o'mi yaratildi. Ishsizlik darajasi bo'yicha respublika ko'rsatkichi 9,1% ni tashkil etdi.

**"Har bir oila – tadbarkor", "Yoshlar – kelajagimiz"** Davlat dasturlari doirasida 252,7 mingdan ortiq aboli tadbirkorlikka jalb qilindi.

Sog'liqni saqlash sohasida viloyatlardagi ko'p tarmoqli tibbiyot markazlari 14 ta statsionar va mobil raqamli rentgen, 8 ta MRT (1,5 tesla) bilan jihozlandi. Respublika hamda 6 ta hududiy onkologiya muassasasi 6,5 mln AQSH dollariga teng 2 turdag'i 15 ta gamma terapiya uskunalarini bilan jihozlandi.

2019-yilning 1-oktabr xolatiga ko'ra respublikamizda tibbiyot muassasalari soni 5 100 taga yetdi.

Mazkur yilda shuningdek, **Maktabgacha ta'limga tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi** qabul qilinib, 2030-yilgacha bolalarni MTM bilan qamrab olish 80,8% ga yetkazish belgilandi. Respublikada MTM soni 11 397 tani (5854 ta davlat, 5543 ta nodavlat) tashkil etilib, 2.701.462 nafar (52%) bola maktabgacha ta'limga qamrab olindi.

Xalq ta'limi tizimiga 12.871 nafar erkak o'qituvchi maktablarga qaytarildi hamda ulaming soni 133.320 nafarni (30%) tashkil etdi. Barcha maktablar 11 yillik ta'limga to'liq o'tdi. Toshkent, Nukus, Xiva va Namangan shaharlarida **Prezident maktablari** va 3 ta **ijod maktabi** o'z faoliyatini boshladи.

2019-yilda 19 ta yangi oliy ta'limga muassasasi (6 ta mahalliy, 9 ta xorijiy) tashkil etildi. Qabul parametrlari 120.518 nafarni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 20% ga ko'paytirildi. Maqsadli qabul tizimi joriy etildi.

Umuman, Shavkat Mirziyoyev Prezidenligi davrida mamlakatimizda tub iqtisodiy islohotlar va dinamik o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekiston xalqaro siyosiy va biznes doiralar, shu jumladan Forbes, The Wall Street Journal, Bloomberg kabi yetakchi chet el ommaviy axborot vositalari e'tiborini qarata boshladи. O'zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlar jarayoni va natijalari xalqaro media platformalar diqqat markazida bo'la boshladи va Toshkent Markaziy Osiyoda asosiy yangilik va xabarlar beruvchi shaharga aylandi.

Shu bilan birga xalqimizning mamlakatda bo'layotgan o'zgarishlarga bo'lgan munosabati ancha o'zgardi, fuqarolarning islohotlarga bo'lgan ishonchi kundan kunga orta boshladи. Bundan tashqari butun mamlakatni qamrab olayotgan siyosat va jamiyatda ro'y berayotgan jarayonlarni televideniyedagi har kungi ijtimoiy muhokamalar g'oyalar generatori bo'lib davlatning rivojiga o'z hissasini qo'sha boshladи.

### **3. O'zbekiston tashqi siyosatida yangi yo'l.**

Harakatlar strategiyasining beshinchı ustuvor yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar **O'zbekiston tashqi siyosatida Yangi yo'l bo'ldi**.

Ushbu yo'nalishda 2017-yil **Mudofaa sanoati davlat qo'mitasi** tuzildi. Davlat chegarasini muhofaza qilish va qo'riqlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks tashkiliy-amaliy choralar amalga oshirildi. Ichki ishlар tizimi tubdan isloh qilindi. Favqulodda vaziyatlar vazirligi qayta tashkil etildi. **"Armiya va xalq birligi"** tamoyiliga tayanib respublika barcha ta'limga muassasalarida o'ziga xos noyob –

uzluksız harbiy-vatanparvarlik ta'limining yaxlit tizimi yaratildi. **Qurolli Kuchlar Akademiyasi** butunlay yangidan shakllantirildi.

“Markaziy Osiyo – tashqi siyosatning bosh ustuvor yo‘nalishi” tamoyili bo‘yicha 2017-yil davomida O‘zbekiston Prezidenti tomonidan mintaqadagi davlat rahbarlari bilan 20 ta uchrashuv va muzokara, 8 ta davlat tashrifi va 4 ta amaliy tashriflar uyushtirildi. “Toshkent-Olmaota” yo‘nalishi bo‘yicha temir yo‘l qatnovi, **Toshkent va Dushanbe o‘rtasida avia qatnovlar yo‘lga qo‘yildi**.

2017-yil noyabr oyida Samarqandda BMT shafeligidagi **Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqaror taraqqiyot masalalariga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya** o‘tkazildi. Qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro do’stona siyosiy muhit, o‘zaro ishonch va do’stlik aloqalari mustahkamlandi.

Shavkat Mirziyoyev ilk bor O‘zbekiston Prezidenti sifatida **BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so‘zladidi**. BMT Bosh Assambleyasasi, SHHT, IHT, MDH sammitlari, Yevropa Ittifoqi va 21 ta xonijiy davlatlar bilan muzokaralar va Xitoyda bo‘lib o‘tgani “**Bir makon, bir yo‘l**” forumida O‘zbekistonning xalqaro xavfsizlik va mintaqaviy rivojlanishning dolzarb muammolarini hal etish yuzasidan ilgari surgan tashabbuslari xalqaro miqyosda keng qo‘llab-quvvatlandi.

2018-yilda O‘zbekiston Respublikasi **Mudofaa doktrinasi** qabul qilindi. **Mudofaa sanoati kompleksini rivojlantirish jamg‘armasi** tashkil etildi.

Toshkentda Afg‘oniston bo‘yicha xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi (2018-yil 26-27-mart). Unda 20 dan ortiq mamlakat va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtiroy etdi. Prezident SH.Mirziyoyev tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining “**Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta‘minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash**” rezolyutsiyasi qabul qilindi.

“Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. “**Maxsus hisoblar**”dan chiqarilgan 20 ming nafardan ziyod fuqaroning qariyb 16 ming nafari ijtimoiy reabilitatsiya qilindi.

Markaziy Osiyo mintaqasini barqaror rivojlantirish strategiyasini birgalikda shakllantirish va bu jarayonda davlat, xalqaro tashkilotlar, ilmiy doiralar va fuqarolik jamiyatni va biznes o‘rtasidagi mulqotni mustahkamlash maqsadida **Toshkentda Markaziy Osiyo xalqaro ekologiya forumi** o‘tkazildi (2018-yil 5-8-iyun).

Turkmanboshi (Turkmaniston) shahrida Orolni qutqarish xamlqaro jamg‘armasi ta’sischi davlatlar rahbarlarining kengashi bo‘lib o‘tdi. Unda SH.Mirziyoyev Orol fojeasi oqibatlarini bartaraf etish borasida Orolbo‘yini Ekologik innovatsiya va texnologiyalar zonasini deb e’lon qilish, Orolbo‘yi zonasida transchegaraviy tabiiy hududlar tashkil etish, cho‘l sharoitiga chidamli o‘simgilik ko‘chatlarini yetishtirish bo‘yicha mintaqaviy markaz tashkil etish kabi takliflarni ilgari surdi. Majlisda shuningdek, Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik asosida **Trast fond** tuzildi. Bundan tashqari ushbu yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Orolbo‘yi xalqaro innovatsiya markazi tashkil etildi.

O'zbekiston va Markaziy Osiyoda birinchi **atom elektr stansiyasining qurilishi** loyihasi analga oshirish boshlandi. "Rosatom" va "O'zatom" agentligi bilan hamkorlikda qurilish ishlari 2028-yilda yakunlanishi belgilandi.

2006-yildan buyon ilk marotaba O'zbekiston diniy sohadagi AQSH Davlat Departamentining "**alohida tashvishli mamlakatlar**" ro'yxatidan chiqarib tashlandi. 2018-yil 12-dekabrda O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining maxsus "**Ma'rifat va diniy bag'rikenglik**" rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Toshkent shahrida Islom sivilizatsiyasi markazi, **Samarqanda Imam Buxoriy va Termiz shahrida Imam Termizi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari** tashkil etildi. Viloyatlarda kalom, hadis, fiqh, aqida ilmi va tasavvufni o'rganishga ixtisoslashgan 5 ta ilmiy maktab ochildi.

O'zbekiston Islom akademiyasi va Toshkent Islom universitetlari negizida **O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi** tashkil etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida Akademiya tarkibidagi malaka oshirish Markazi hududiy filiallari tashkil etildi. O'zbekiston musulmonlari idorasi huzurida "**Vaqf**" hayriya jamoat fondi tashkil etildi.

2018-yil 22-23-noyabr kunlari Samarqand shahrida **Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi** bo'lib o'tdi. Anjuman yakunida Samarqand deklaratasiyasi qabul qilindi.

2019-yilda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash borasida "**Xalq baxshichilik san'ati festivali**" (5-10-aprel, Termiz), "**Sharq taronalari**" musiqiy festivali (26-30-avgust, Samarqand) va "**Birinchi xalqaro xunarmandchilik festivali**" (10-15-sentabr, Qo'qon), Toshkent shahrida "**Markaziy Osiyo – umumiy uyimiz**" mavzusidagi xalqaro konferensiya o'tkazildi.

Ayni paytda O'zbekistonda jami 2276 ta diniy tashkilot va 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda. Shulardan 2093 tasi musulmon, 166 tasi xirstian, 8 ta yahudiy tashkiloti, 6 ta Baxoiylik jamiyati, 1 ta krishna jamiyati, 1 ta budda ibodatxonasi va O'zbekiston konfessiyalararo Bibliya jamiyatlaridir.

O'zbekiston fuqarolari uchun "**Umra**" ziyoratlari kvotasi bekor qilindi. "Umra" qiluvchi fuqarolar soni 30 000 taga yetdi. "Haj" ziyoratchilar soni esa 5000 dan 7,200 taga ko'paydi. Masjidlar soni 2066 taga yetdi.

2019-2021-yillarda Prezident topshirig'iga ko'ra 5 ta "**Mehr**" 1-2-3-4-5 insonparvarlik aksiyalari o'tkazilib, 531 ta O'zbekiston fuqarosi Yaqin Sharq va Afg'onistondagi qurolli mojarolar kechayotgan hududlardan o'z vatanlariga qaytarildi.

Ashxaborda bo'lib o'tgan MDH sammitida O'zbekiston birinchi marta 2020-yil MDHga raislik qilishi haqida qaror qabul qilindi. 2019-yilda O'zbekiston **Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashining to'laqonli a'zosiga aylandi**.

Markaziy Osiyo respublikalari Bosh vazirlari o'rinnbosarlari ishtirokida birinchi **Markaziy Osiyo iqtisodiy forumi** o'tkazildi.

Rossiya va Qozog'istonda O'zbekiston konsullik muassasalarida mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha attashe lavozimi joriy qilindi. Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg, Qozon, Rostov-Don, Yekaterinburg, Vladivostok

va Qozog'istonning Aktau shaharlarida O'zbekistonning konsullik muassasalari o'z faoliyatini boshladi.

Mirziyoyevning islohotlari butun xalq tomonidan qo'llab-quvvatlandi. 2019-yilda "The Economist" haftalik jurnali dunyoning ikki yuzga yaqin davlati orasidan O'zbekistonni dunyoda eng ko'p yaxshi tarafga o'zgargan mamlakat sifatida "**Yilning mamlakati**", deb topdi. Darhaqiqat bunaqasi mustaqil O'zbekiston tarixida kuzatilmagan.

O'z o'mida ta'kidlash joiz, yaxshi qo'shnichilikka asoslangan mintaqaviy tashqi siyosati - Shavkat Mirziyoyev prezidentligining xalqaro miqyosda e'tirof etilgan, diqqat-e'tiborga sazovor eng muhim jihatlaridan biri bo'ldi.

Bu kabi o'zgarishlar aksariyat mintaqaviy tahlilchilar e'tirofida misli ko'rilmagan, deya baho topish bilan birga, O'zbekiston yangi prezidentining qat'iy siyosiy istak va irodasiga ham yo'yilgan.

Aholisi mintaqada eng yirigi (qariyb 35 million) bo'lgan O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish, asoslarini turfalashtirish va chetdan ko'proq sarmoya jalb etish SH.Mirziyoyev strategiyasining bosh yo'li bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda biznes muhitini yaxshilash masalasiga prezident darajasida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonning turli qit'alardagi ko'plab davlatlar va davlat uyushmalari bilan munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

Bojxona boshqaruvi sohasida bojxona to'lovlari stavkalari ikki barobarga kamaytirildi, 3 ming 550 ta mahsulot nomlariga va 1 ming 122 turdag'i mahsulotlarga aksiz solig'iga import bojlarining nol stavkalari qo'llana boshlandi.

2016-2020-yillarda barcha manbalar hisobidan asosiy kapitalga jami 89 mlrd. dollarlik investitsiya kiritildi, ulardan 19,5 mlrd. dollari to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlardir.

Shuningdek, 2016-2020-yillarda respublikaning umumiy eksporti 72,5 mlrd. dollarni tashkil etdi, shundan 2020-yilda 15,1 mlrd. dollarlik mahsulotlar eksport qilindi, bu esa 2016-yilga nisbatan 25 foizga ko'pdir.

2021-yil 15-mart holatiga ko'ra, fuqarolari uchun O'zbekistonda vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar soni 90 tani tashkil qiladi. Oxirgi uch yil ichida ushbu ro'yxatdagi davlatlar soni 10 barobardan oshiq ko'paytirildi. Bu esa ushbu davrda turistlar oqimi deyarli 4 baravar oshishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Shavkat Mirziyoyev 2020-yilni O'zbekistonda "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilib, kelasi besh yil ichida raqamli iqtisodga o'tish asosiy maqsad qilib belgilandi. Biznes yuritish muhiti bo'yicha dunyoning eng oldingi ellik davlati safiga kirish rejalashtirilgan.

Kambag'allikni tugatishga qaratilgan maxsus dasturning ishlab chiqilishi, shuningdek hali-hanuz mustaqil O'zbekistonning eng og'riqli nuqtalaridan biri bo'lgan korrupsiyaga qarshi kurashuvchi maxsus idora – Korrupsiyaga qarshi kurash agentligining tashkil etilishi eng muhim voqeliklardan biri sifatida e'tirof etilishi lozim. Chunki, aynan korrupsiya O'zbekiston iqtisodini taraqqiy toptirish, mamlakatga yirik miqdordagi chet el saromoyalarini jalb qilish va ularni harakatga

solist yo'lidagi eng asosiy to'siqlardan biri ekanligini har bir fuqaro anglab yetmoqda.

Xulosa o'mida eslatib o'tish joizki, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bunday keskin o'zgarishlar Toshkent bilan uning mintaqaviy va xalqaro hamkorlari o'rjasida o'zaro manfaatli hamkorlik uchun ishonchli poydevor yaratdi. O'zbekiston hukumati o'z innovatsion va samarali ichki va tashqi siyosatini tasdiqladi, bu nafaqat O'zbekiston uchun, balki barqaror va ravnaq topgan Markaziy Osiyo uchun manfaatdor xorijiy sheriklar uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston hukumati tasdiqlagan innovatsion va samarali ichki va tashqi siyosat nafaqat O'zbekiston uchun, balki rivojlanayotgan va barqaror Markaziy Osiyoga qiziqish bildirgan xorijiy hamkorlar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

#### **Mavzuning asosiy tushunchalari:**

**DAVLAT XIZMATLARI AGENTLIGI** – tadbirkorlik subyektlari va jismoniy shaxslarga markazlashtirilgan tartbda ro'yxatdan o'tkazish va ularga huquqiy va amaliy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan agentlik. Mamlakatimizda 2003-yildan boshlab tadbirkorlik subyektlarini "Yagona darcha" tamoyili asosida ro'yxatdan o'tkazish uchun shahar, tuman hokimliklari huzurida maxsus inspeksiyalar tashkil etilgan edi. 2016-yil 1-yanvardan boshlab esa ular negizida Davlat xizmatlari ko'rsatish markazlari tashkil etiladi.

2017-yil 1-fevraldan Yagona markazlarning tumanlar (shaharlar) hokimliklari tuzilmasidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tasartufiga o'tkazilishi mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha keyingi qadam bo'ldi. 2017-yil 12-dekabrda Prezident Farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi tashkil etildi va u 2018-yil 1-apreldan o'z faoliyatini boshladi.

2018-yilda davlat xizmat turlari 37 ta bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib ular soni 157 taga yetdi. 2021-yil 10-mayda Prezidentimiz davlat xizmatlari ko'rsatish sohasidagi ishlar natijasi bilan tanishish jarayonida davlat xizmatlari markazlari orqali ko'rsatiladigan xizmatlar sonini 200 taga yetkazish vazifasi belgilandi.

**ELEKTRON HUKUMAT** – davlat organlarining jismoniy hamda yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida davlat xizmatlari ko'rsatishga oid faoliyatini, shuningdek idoralar o'rjasida elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga yo'anltirilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi.

Elektron hukumatning faoliyatini rivojlantirish uchun axborot kommunikatsiya tizimlaridan foydalanish eng muhim omil xisoblanadi. Bundan tashqari elektron hukumatni davlat organlari ko'rsatayotgan hizmatlarning, ochiqligi, shaffofligi, shuningdek, samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalanish usuli deb tushunish ham mumkin.

Elektron xizmatlarning yana bir muhim jihat shundaki, ular davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash barobarida nafaqat shu

tashkilotning, balki butun mamlakatning umumiy imijini mustahkamlashga xizmat qiladi.

2015-yil 9-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-395) qabul qilingan.

**"HAR BIR OILA – TADBIRKOR" DAVLAT DASTURI – O'zbekistonda** har bir oilaning tadbirkorlik bilan shug'ullanishi va barqaror daromad manbaiga ega bo'lishi uchun sharoit yaratish maqsadida qabul qilingan davlat dasturi (2018-yil 7-iyun. PQ-3777).

Dasturning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

-Aholining tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish;

-Tadbirkorlik ko'nikmalarini yaratish;

-Qo'shimcha ish o'rinnari yaratish;

-Kasanachilik va kichik hajmda ishlab chiqaruvchi mikrofirmalarni tashkil etish;

-Mini-klasterlar joriy qilish;

-Oilaviy tadbirkorlikka ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lamini kengaytirish, bozor infratuzilmasi obyektlari, xizmat ko'rsatish va servis shahobchalarini barpo etish;

-Oilaviy tadbirkorlik subyektlarini yer uchastkalari bilan ta'minlash;

2018-yilda "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturlari doirasida joylarda 2 ming 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi. 2019-yilda esa ushbu davlat dasturi doirasida o'z biznesini boshlayotgan oilalarga 5,9 trillion so'm kreditlar ajratildi.

**KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH AGENTLIGI** – O'zbekistonda korrupsianing oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan maxsus vakolati davlat organi. 2020-yil 29-iyunda Prezident Farmoni asosida tashkil etilgan. Rasmiy sayti - [www.anticorruption.uz](http://www.anticorruption.uz).

Davlat va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaga qarshi kurashish standartlari va mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, jamiyatda korrupsianing barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish agentlikning asosiy maqsadi hisoblanadi. Agentlik O'zbekiston prezidentiga bo'y sunadi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari oldida hisobdordir. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori maqomi bo'yicha vazirga tenglashtirilgan.

**"OBOD QISHLOQ" DASTURI** – qishloq aholi punktlarining me'moriy qiyofasini tubdan yangilash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi hamda ijtimoiy soha obyektlarini barpo etish va shu asosda aholining turmush madaniyatini yuksaltirish va dunyoqarashini kengaytirish maqsadida qabul qilingan Davlat dasturi (2018-yil 29-mart. PF-5386).

Dasturda 2018-yilning 1-apreldidan boshlab respublikaning har bir tumani va shahrida, avvalambor olis va tabiiy-iqlim sharoiti og'ir hududlarda 2 tadan va kelgusi yillarda 3 tadan qishloq (mahalla)da aholining yashash sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush tarzi va darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlarni ta'minlashga, mazkur qishloq (mahalla)larning qiyofasini zamonaviylashtirishga va unda istiqomat qiluvchilar uchun ish o'rinnarini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi.

2018-yilda “Obod qishloq” dasturi doirasida qurilish va obodonlashtirish ishlariga 3 trillion, 2019-yilda esa 4 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Natijada 2018-yilda 416 ta qishloq, 2019-yilda esa 479 ta qishloq va ovulda, shaharlardagi 116 ta mahallada keng ko‘lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari bajarildi.

**“OBOD MAHALLA” DAVLAT DASTURI** - mahallalar hududini obodonlashtirish, mavjud infratuzilmani kompleks rivojlantirish, shuningdek, yo‘l-transport infratuzilmasi, muhandislik kommunikatsiyalari va ijtimoiy soha obyektlarini barpo etish hamda shu asosda aholining turmush sharoitini yuksaltirish maqsadida qabul qilingan davlat Dasturi (2018-yil 27-iyun. PF-5467).

“Obod mahalla” dasturi “Obod qishloq” dasturi bilan hamohang ravishda amalga oshirilib, 2018-2020-yillarda ushbu dasturlar doirasida 5 millionga yaqin aholi yashaydigan 1 ming 200 ta mahalla va qishloqlar qiyofasi tubdan o‘zgarib zamonaviy qiyofaga ega bo‘ldi.

**PORTAL** – lotincha “eshik”, “darvoza” degan ma’nolarni anglatadi. Ikkinchisi bir ma’nosini – yopiqqlik emas, hamisha ochiqlik ma’nosini, ya’ni ochiq turuvchi eshiklar ma’nosini ham anglatadi.

Ushbu atama Vatanimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning hozirgi davrida aholining muammolari, ariza va shikoyatlari, taklif va murojaatlarini doimiy ravishda qabul qilib oluvchi hamda munosabat bildiruvchi muassasa ma’nosini ham bildiradi.

**PREZIDENT VIRTUAL QABULXONASI** – har bir kishiga O‘zbekiston davlat rahbariga o‘z ariza, taklif yoki shikoyatini yuborishni osonlashtirish, yillar osha davlat rahbarlari va xalq o‘rtasida paydo bo‘lgan keng jarlikni qisqartirib, xalq bilan muloqotni amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan tizim.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Virtual qabulxonasi o‘z faoliyatini 2016-yil 24-sentabrdan boshlagan bo‘lib, 2016-yil dekabrdan u Prezident virtual qabulxonasiga aylantirilgan.

Davlat organlarida murojaatlar bilan ishlash samaradorligi va shaffofligini oshirish, bir-birini takrorlovchi tizimlarni qisqartirish, davlat organlariga kelib tushayotgan barcha murojaatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlami yagona tizim doirasida birlashtirishni ta’minalash maqsadida davlat organlarining rasmiy veb-saytlarida yaratilgan virtual qabulxona tizimlarining faoliyati 2018-yilning 25-fevralidan to‘xtatildi.

**STRATEGIYA** – ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning bosh yo‘nalishi, barcha say-harakatlarning poydevori, davlat va jamiyat hayotidagi tub burlish davri uchun xos bo‘lgan boshqaruv san‘ati mazmunini ifoda etadi. Strategiyaning bugungi kun uchun xos bo‘lgan ma’nosini hozirgi murakkab davrda O‘zbekistonning erkin va farovon davlat bo‘lishiga erishish, odamlar hayotini tubdan yaxshilash, baxtli turmushini, kafolatli tinchligini ta’minalash, har bir insonning ertangi kuniga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashdan iborat.

**“TARAQQIYOT STRATEGIYASI” MARKAZI** – 2017-yil 14-fevraldagagi Prezident Farmoyishi asosida, Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan tadbirlarning ekspertlik va jamoatchilik muhokamasini samarali tashkil etish borasidagi say-harakatlarni birlashtirish, ularni mukammal amalga oshirish, fuqarolik jamiyatini

institutlarini, ekspertlar va olimlarni mamlakatimizni demokratlashtirish hamda modernizatsiya qilish jarayonlariga faol jalg etish maqsadida tashkil etilgan markaz.

Markaz nodavlat notijorat tashkiloti bo'lib, Fuqarolik jamiyat shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, Savdo-sanoat palatasi, O'zbekiston advokatlar palatasi, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, O'zbekiston Elektron ommaviy axborot vositalari, Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsiyalari muassisligida tashkil etildi.

"Taraqqiyot strategiyasi" markazi Harakatlar strategiyasidagi islohotlarning mazmun-mohiyati, ahamiyati va natijalarini izchil muhokama qilish, davlat organlari va xalq o'rtaсидagi ochiq muloqotni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini samarali tashkil etishda o'ziga xos zamonaviy media-maydon vazifasini o'taydi.

**XALQ QABULXONASI** – fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashning o'ziga xos demokratik instituti. Aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni tashkil etish, murojaatlari bilan samarali ishlash, muammolarni aniqlash va hal qilish, jismoniy va yuridik shaxslaming huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoya qilishga qaratilgan ishlar tizimi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 28-dekabrdagi farmoni asosida tashkil etilgan.

Xalq qabulxonasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining fuqarolar huquqlarini himoya qilish, murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish masalalari bo'yicha maslahatchisi bo'linmalarini tuzilmasi tarkibiga kiradi. U yuridik shaxs hisoblanmaydi, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lmaydi, tadbirkorlik faoliyatini amalgalashish hamda o'z nomidan boshqa shaxslar bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishish huquqiga ega emas.

Ma'muriy, fuqarolik-prosessual, jinoyat-prosessual, jinoyat-ijroiya, iqtisodiy prossessual qonun hujjatlari va boshqa qonunlar bilan belgilangan murojaatlarni Xalq qabulxonasi ko'rib chiqmaydi.

Bugungi kunda Xalq qabulxonalari O'zbekistonda xalq bilan doimiy muloqot qilish, jismoniy va yuridik shaxslaming murojaatlari o'z vaqtida xolislik tamoyillari asosida ko'rib chiqlishida, mansabdar shaxslar mas'uliyatini oshirishda muhim o'rinni tutmoqda.

**"YOSHLAR – KELAJAGIMIZ" DAVLAT DASTURI** – yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish va qo'llab-quvvatlash, band bo'limgan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko'nikmalariga o'qitish, shuningdek, yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish orqali ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan davlat dasturi. 2018-yil 27-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5466-sonli Farmoni asosida qabul qilingan.

**Mavzuga oid muhim sanalar:**

|                     |  |
|---------------------|--|
| 2016-yil 2-sentabr  | O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov vafot etdi.   |
| 2016-yil 3-sentabr  | Oliy Majlis Senati raisi Nig'matilla Yo'idoshev O'zbekiston Prezidenti vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi.  |
| 2016-yil 8-sentabr  | Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Oliy Majlis Senati qo'shma majlisi bo'lib o'tdi va unda Shavkat Mirziyoyev "Miliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" mavzusida nutq so'zladi.<br>Majlisda Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi. |
| 2016-yil 24-sentabr | O'zbekiston Respublikasi <b>Bosh vazirining Virtual qabulxonasi</b> o'z faoliyatini boshladi.  |
| 2016-yil 18-oktabr  | Toshkentda Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda SH.Mirziyoyev ishtirok etib nutq so'zladi ("Ta'lim va ma'rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo'l")   |
| 2016-yil 19-oktabr  | SH.Mirziyoyev O'zLDP 8-syezdida ishtirok etib ma'ruza qildi ("Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash – xalqimiz uchun munosib hayot darajasini yaratish kafolatidir").  |
| 2016-yil 28-noyabr  | "Toshkent metropoliteni Sergeli yo'li qurilishi" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Prezident Farmoni qabul qilindi.  |
| 2016-yil 2-dekabr   | "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" Prezident Farmoni qabul qilindi.   |
| 2016-yil 4-dekabr   | <b>O'zbekistonda prezidentlik saylovlari bo'lib o'tdi.</b><br>O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan ko'rsatilgan nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 88,61 foiz ovoz to'plab O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi.   |
| 2016-yil 7-dekabr   | SH.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-yilligiga bag'ishlangan marosimda ishtirok etib nutq so'zladi ("Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi").   |
| 2016-yil 14-dekabr  | Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimiga kirish marosimi (inauguratsiyasi) bo'lib o'tdi va unda nutq so'zladi. Abdulla Oripov O'zbekiston Bosh vaziri etib tayinlandi.  |
| 2016-yil 23-dekabr  | "Samargand, Buxoro, Urganch va Nukus shaharlarda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining konsullik bo'linmalarini ochish va Termiz shahridagi konsullik bo'linmasi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"  |

|                    |   |
|--------------------|---|
|                    | Prezident Farmoni qabul qilindi.  |
| 2016-yil 28-dekabr | “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (PF-4904) qabul qilindi. Unga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, shahar va tumanlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining <b>Xalq qabulxonalarini</b> va Prezident <b>virtual qabulxonasi</b> tashkil etildi. |
| 2016-yil 29-dekabr | “2017-2021-yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident Farmoni qabul qilindi.   |
| 2016-yil 30-dekabr | SH.Mirziyoyev mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi vakillari bilan uchrashuv o‘tkazib unda nutq so‘zladi (“Ilm-fan yutuqlari vatanimiz ravnaqiga xizmat qilsin”).   |
| 2017-yil 5-yanvar  | SH.Mirziyoyev sog‘liqni saqlash sohasining bir guruh yetakchi xodimlari bilan uchrashdi (“Tibbiyot sohasini tubdan isloh qilish – kechiktirib bo‘lmaydigan eng muhim vazifamizdir”).  |
| 2017-yil 7-yanvar  | SH.Mirziyoyev Prokuratura xodimlari va fahriylari bilan uchrashuv o‘tkazdi (“Xalqimiz bizdan qonun va adolat ustuvorligini amalda ta‘minlashni kutmoqda”).  |
| 2017-yil 14-yanvar | SH.Mirziyoyev Vazirlar Mahkamasida 2016-yil yakunlari va 2017-yil ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi (“Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”).  |
| 2017-yil 24-yanvar | SH.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi baynalmilal madaniyat markazining 25-yilligiga bag‘ishlangan tadbirda ishtirok etib nutq so‘zladi (“Milliatlararo do‘stlik va hamjihatlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining hayotbaxsh manbai”).   |
| 2017-yil 7-fevral  | “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha <b>Harakatlar strategiyasi</b> to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni (PQ-4947) qabul qilindi.   |
| 2017-yil 9-fevral  | SH.Mirziyoyev Ichki ishlar organlari faoliyati, tizimda mavjud muammolarga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi (“Inson manfaatlarini ta‘minlash uchun avvalo uning huquq va erkinliklari ishonchli himoya qilinmog‘i lozim”).  |
| 2017-yil 14-fevral | <b>“Taraqqiyot strategiyasi”</b> markazi tashkil etildi.  |
| 2017-yil 15-fevral | O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi alohida vazirliliklarga ajratildi (PQ-2778).  |
| 2017-yil 17-fevral | Prezident SH.Mirziyoyev Farmoni bilan <b>Termiz shahrida Imam at-Termiziy nomidagi xalqaro Islom tadqiqot markazi</b> tashkil etildi.   |
| 2017-yil 10-mart   | O‘zbekiston markaziy banki tomonidan 10.000 so‘mlik   |

|                    |   |
|--------------------|---|
|                    | kupyura muomalaga kiritildi.  |
| 2017-yil 30-mart   | “O‘zbekiston-24” yangi milliy axborot-tahliliy teleradiokanalini tashkil etildi.  |
| 2017-yil aprel     | Xalqaro Press-klub jonli tarzda efirga uzatila boshlandi.   |
| 2017-yil 17-may    | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Millatlararo munosabatlari va xonijiy mamlakatlar bilan do’stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi.   |
| 2017-yil 25-may    | Jizzax shahrida “Barkamol avlod” sport o‘yinlari bo‘lib o‘tdi.  |
| 2017-yil 13-iyun   | SH.Mirziyoyev Sud organlari xodimlari bilan uchrashdi (“Qonun va adolat ustuvorligini ta’minlash – barcha ezgu maqsadlarimizga erishishning eng muhim sharti”).   |
| 2017-yil 15-iyun   | Toshkentda “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusida anjuman bo‘lib o‘tdi. Unda SH.Mirziyoyev nutq so‘zladi (“Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamnihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik”).     |
| 2017-yil 16-iyun   | Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrining Uchtepa tumanidagi 78-umumta’lim mакtabiga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari 11-yillik ta’lim tizimiga o‘tish haqida taklif bildirdi.  |
| 2017-yil 20-iyun   | OTM bakalavriat va magistratura bosqichiga talabalarni qabul qilishning yangi tartiblari belgilandi. Unga ko‘ra, “super kontrakt” shaklida o‘qishga qabul qilish qonuniy tasdiqlandi.   |
| 2017-yil 30-iyun   | SH.Mirziyoyev “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatning 4 qurultoyida ishtirok etib nutq so‘zladi (“Jismoniy va ma’naviy barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir”).  |
| 2017-yil 12-iyul   | SH.Mirziyoyev Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiylar hamda O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan uchrashuv o’tkazdi va nutq so‘zladi (“Parlamentimiz haqiqiy demokratiya mакtabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo‘lishi kerak”). |
| 2017-yil 3-avgust  | SH.Mirziyoyev O‘zbekiston ijodkor ziyyolilari bilan uchrashib nutq so‘zladi (“Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir”).   |
| 2017-yil 31-avgust | Toshkent shahrida I.A.Karimov haykalining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi va unda Prezident SH.Mirziyoyev nutq so‘zladi (“Elim deb, yurtim deb yonib yashagan inson”).   |
| 2017-yil 2-sentabr | Samarqand shahrida I.A.Karimov haykalining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.  |
| 2017-yil 5-sentabr | O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyuta erkin konvertatsiyasini amalga oshira boshladi. Yuridik shaxslar joriy xalqaro operatsiyalar bo‘yicha xonijiy valyutani tijorat   |

|                     |  |
|---------------------|--|
|                     | banklaridan cheklanmagan miqdorda xard qilishlariga ruxsat berildi.  |
| 2017-yil 29-sentabr | SH.Mirziyoyev Moskva va Butun Rus Patriarxi Kirillni qabul qildi.  |
| 2017-yil 30-sentabr | O'zbekiston Respublikasi <b>Maktabgacha ta'lif vazirligi</b> tashkil etildi.   |
| 2017-yil 8-sentabr  | Prezident qarori bilan O'zbekiston Respublikasining <b>Ma'muriy islohotlar konsepsiysi</b> (PF-5185) qabul qilindi. Konsepsiya doirasida bir qator vazirlik va idoralar faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslari, shuningdek, ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalari va funksiyalari hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari takomillashtirildi. Jumladan, Prezident devoni, hukumat apparati ijro etuvchi tuzilmasi qayta ko'rib chiqildi. 18 ta vazirlik hamda idoraning funksiyalari takomillashtirildi, 24 ta davlat xo'jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar qayta tashkil etildi. |
| 2017-yil 1-oktabr   | Toshkentda Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'zbekiston eparxiyasining 145-yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirlar bo'lib o'tdi.   |
| 2017-yil 18-oktabr  | Toshkentda "Islom hamjihatligi. O'zbekiston va Ozarbayjon misolida" mavzusidagi xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.   |
| 2017-yil 6-noyabr   | Jizzax shahrida Sharof Rashidov haykalining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.  |
| 2017-yil 17-noyabr  | "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qurori (PQ-3391) e'lon qilindi. (2018-yil 6-sentabr kuni Shahrisabzda Xalqaro maqom san'ati anjumani ochildi).  |
| 2017-yil 30-noyabr  | O'zbekiston Respublikasi <b>Innovatsion rivojlanish vazirligi</b> tashkil etildi (PF-5264).  |
| 2017-yil 12-dekabr  | Barcha davlat idoralari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni muvofiqlashtirib va nazorat qilib borish maqsadida yangi tuzilma – Adliya vazirligi huzurida <b>Davlat xizmatlari agentligi</b> tashkil etildi (PQ-3430).  |
| 2017-yil 15-dekabr  | Toshkent Islom Akademiyasini tashkil etish bo'yicha Prezident Farmoni qabul qilindi.   |
| 2017-yil 22-dekabr  | O'zbekiston tarixida birinchi marotaba Prezident SH.Mirziyoyev Oliy Majlisga <b>Murojaatnomasini</b> o'qib eshittirdi.   |
| 2017-yil 29-dekabr  | "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zolarini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident Farmoniga ko'ra 22-yillik tanafusdan so'ng 32 nafar yangi akademik saylandi.   |
| 2018-yil 3-yanvar   | O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи huzuridagi Milliy antidoping agentligi tashkil etildi.   |

|                       |  |
|-----------------------|--|
| 2018-yil 9-yanvar     | O'zbekiston Respublikasi <b>Mudofaa doktrinasi</b> qabul qilindi.  |
| 2018-yil 10-yanvar    | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda SH.Mirziyoyev nutq so'zladi ("Qurolli kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir").   |
| 2018-yil 12-yanvar    | Toshkentda Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixonalari faoliyatiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Yig'ilishda SH.Mirziyoyev nutq so'zladi ("O'zbekiston manfaatlарини xalqaro miqyosda qat'iy himoya qilish – diplomatik korpusimizning asosiy vazifasidir"). |
| 2018-yil 30-yanvar    | Qarshi shahrida I.A.Karimov haykalining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.  |
| 2018-yil 28-30-yanvar | Shavkat Mirziyoyev Qarshi tumanidagi Xonobod harbiy aerodromiga tashrif buyurdi. Bosh qo'mondon 1994-yilda asos solingan Jizzax oly harbiy aviatsiya bilim yurtini Qarshi shahrida qayta tashkil etish taklifini berdi.  |
| 2018-yil 30-yanvar    | Samarqand shahrida I.A.Karimov maqbara majmuasining ochilish marosibi bo'lib o'tdi.  |
| 2018-yil 5-mart       | O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tashkil etildi.   |
| 2018-yil 29-mart      | <b>"Obod qishloq"</b> dasturi (PF-5386) qabul qilindi.   |
| 2018-yil 1-aprel      | O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida <b>Davlat xizmatlari agentligi</b> tashkil etildi. Dastlab xizmat turlari 37 ta bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib ular soni 157 taga yetdi.  |
| 2018-yil 2-aprel      | O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tashkil etildi.  |
| 2018-yil 12-aprel     | O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi (O'RQ-474).  |
| 2018-yil 16-aprel     | "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoniga ko'ra Toshkent Islom Akademiyasi tarkibida Qoraqalpog'iston, Samarqand, Namangan va Surxondaryo mintaqaviy filiallari tashkil etildi.  |
| 2018-yil 7-iyun       | <b>"Har bir oila-tadbirkor"</b> dasturi qabul qilindi (PQ-3777).   |
| 2018-yil 26-30-iyun   | Toshkent va Samarqandda Markaziy Osiyo yoshlar forumi o'tkazildi.  |
| 2018-yil 27-iyun      | "O'zbekiston Respublikasi Oila intitutini mustahkamlash Konsepsiysi" tasdiqlandi.  |
| 2018-yil 6-sentabr    | Shahrisabzda Xalqaro maqom san'ati anjumani ochildi. Anjumanda SH.Mirziyoyev ishtirot etib "Maqom – musiqa san'ati durdonasi" mavzuida ma'ruza qildi.  |
| 2018-yil 20-sentabr   | Toshkentda "Markaziy Osiyo xalqaro transport yo'laklari tizimida: strategik istiqbollar va foydalanimagan imkoniyatlar" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.   |

|                        |  |
|------------------------|--|
| 2018-yil 22-noyabr     | Samarqandda <b>Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi</b> bo'lib o'tdi.   |
| 2018-yil 28-dekabr     | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev Oliy Majlisga navbatdagi ikkinchi Murojaatnomasini o'qib eshitirdi.  |
| 2019-yil 2-fevral      | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzurida <b>Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)</b> taskil etildi.  |
| 2019-yil 20-fevral     | Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmon e'lon qilindi.  |
| 2019-yil 5-10-aprel    | Surxondaryoda Xalqaro baxshichilik san'ati festivali bo'lib o'tdi. SH.Mirziyoyev "Folklor san'ati – insoniyatning bolalik qo'shig'i" nomli ma'ruza qildi.  |
| 2019-yil 3-may         | Toshkentda "Markaziy Osiyoda giyohvand moddalami nazorat qilish sohasidagi mintaqaviy hamkorlik bo'yicha o'zaro anglashuv memorandumi" ishtirokchi davlatlarning 11-majlisi bo'lib o'tdi.  |
| 2019-yil 27-may        | "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori e'lon qilindi.  |
| 2019-yil 21-iyun       | SH.Mirziyoyev Oliy Majlis Senatining 20-yalpi majlisida ishtirok etib nutq so'zladı.   |
| 2019-yil 2-avgust      | Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 19-son ixtisoslashtirilgan Jasliq jazoni ijro etish koloniyasi tugatildi.   |
| 2019-yil 26-avgust     | SH.Mirziyoyev "Sharq taronalari" 12-xalqaro musiqa festivalining ochilish marosimida ishtirok etdi va nutq so'zladı.   |
| 2019-yil 14-15-sentabr | Qo'qon shahrida Birinchi xunarmandchilik festivali bo'lib o'tdi. Uning ochilish marosimida SH.Mirziyoyev ishtirok etib nutq so'zladı.  |
| 2019-yil 3-oktabr      | "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi <b>Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi</b> faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (PO-4472) qabul qilindi. |
| 2019-yil 18-oktabr     | SH.Mirziyoyev Surxondaryoda bo'lib, Sherobod tumanida tashkil etilgan <b>Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazining</b> ochilish marosimida ishtirok etdi.   |
| 2019-yil 21-oktabr     | O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligimng 30-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi. Unda SH.Mirziyoyev nutq so'zladı ("Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli").                         |
| 2019-yil 28-dekabr     | Toshkent shahrida propiskasiz bo'lish muddati 5 kundan 10 kunga uzaytirildi.   |
| 2020-yil 10-yanvar     | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi <b>Xavfsizlik</b>   |

|                    |   |
|--------------------|---|
|                    | kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda SH.Mirziyoyev nutq so'zлади ("Harbiy vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish – dolzarb vazifamizdir").  |
| 2020-yil 16-yanvar | SH.M.Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrovni qabul qildi.   |
| 2020-yil 17-yanvar | SH.M.Mirziyoyev Jahon Banki delegatsiyasini qabul qildi.  |
| 2020-yil 20-yanvar | SH.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi majlisida nutq so'zлади ("Parlament xalq irodasining haqiqiy ko'zgusi bo'lishi zarur"). SH.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining birinchi majlisida nutq so'zлади ("Senatorlik tashabbuskorlik va fidoyilik demakdir"). |
| 2020-yil 21-yanvar | SH.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisida nutq so'zлади ("Boshlagan ishlarmizni jadal davom ettirish – ustuvor vazifadir").  |
| 2020-yil 24-yanvar | Yangi ochilgan Konferens xollda (Toshkent Siti) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev Oliy Majlisga navbatdagi 3-Murojaatnomasini o'qib eshittirdi.   |
| 2020-yil 4-fevral  | O'zbekiston koronavirus tarqala boshlagan Uxan shahridan o'z fuqarolarini evakuatsiya qilish bo'yicha birinchi reysni yakunladi.  |
| 2020-yil 15-mart   | Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligi direktori Bahrom Almatov davlat televideniyesi efirida O'zbekistonda koronavirus bilan bog'liq ilk holat qayd etilganini e'lon qildi.   |
| 2020-yil 18-mart   | Mahalla va oila masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda SH.Mirziyoyev nutq so'zлади ("Koronavirusga qarshi kurashish tartib-intizom va sabrotoqatni talab qiladi").  |
| 2020-yil 26-mart   | O'zbekiston Respublikasi <b>Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi</b> .  |
| 2020-yil 16-aprel  | "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasini tashkil etish to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-5980) e'lon qilindi.   |
| 2020-yil 22-aprel  | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " <b>Doimiy propiska qilish hamda turgan joyi bo'yicha hisobga olish tartibini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida</b> " Farmoni qabul qilindi.   |
| 2020-yil 28-aprel  | 40 metr/sekundgacha tezlikda esgan shamol Buxoro, Navoiy, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlariga yopirildi. Buxoro viloyatining Olot va Qorako'l tumanlari eng ko'p talafot ko'rdi.   |
| 2020-yil 1-may     | O'zbekiston tarixidagi eng yirik texnogen ofat – Sirdaryo viloyati Sardoba tumanida ro'y berdi. Suv ombori dambasining  |

|                          |  |
|--------------------------|--|
|                          | 6-piket devori o'pinildi.  |
| 2020-yil 9-may           | Toshkent shahrining Olmazor tumanida “G‘alaba bog‘i” majmuasi ochildi.   |
| 2020-yil 31-may          | O‘zbekiston va Qirg‘iziston chegarasida, So‘x tumanidagi Chashma bulog‘i suvidan foydalanish masalasida o‘zbek va qirg‘izlar o‘rtasida ommaviy tartibsizlik kelib chiqdi. So‘xliklardan kamida 187 kishi jarohatlandi. O‘zbekiston tomondan 22 kishi sudga tortildi.               |
| 2020-yil 29-iyun         | O‘zbekiston Respublikasi <b>Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi</b> tashkil etildi.   |
| 2020-yil 10-iyul         | O‘zbekiston ikkinchi marta qat‘iy karantin rejimiga kirdi. Kuchavtirilgan cheklovlari 35 kun amalda bo‘ldi.  |
| 2020-yil 31-avgust       | Prezident Shavkat Mirziyoyev mustaqillikning 29 yilligiga bag‘ishlangan nutqida O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – <b>Uchinchi Renessans davriga</b> poydevor yaratila boshlanganligini e‘lon qildi.  |
| 2020-yil 23-sentabr      | SH.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida o‘zbek tilida nutq so‘zladi.  |
| 2020-yil<br>25-26-dekabr | Toshkent shahridagi “Xumo” arenada birinchi <b>Yoshlar forumi</b> bo‘lib o‘tdi. Forumning birinchi kunida Toshkent shahri yoshlari bilan uchrashuvlar, ikkinchi kuni har bir tumandan saralab olingan 10 nafar yoshlar bilan Prezident SH.Mirziyoyevning uchrashuvni bo‘lib o‘tdi. |
| 2020-yil 26-dekabr       | Toshkent yer usti metrosining Sergeli yo‘nalishi ishga tushirildi.   |
| 2020-yil 29-dekabr       | Kongress xoll (Hilton mehmonxonasi)da O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev Oliy Majlisga 4-Murojaatnomasini o‘qib eshitirdi.  |
| 2021-yil 22-fevral       | SH.Mirziyoyev BMT <b>Inson huquqlari bo‘yicha kengashining</b> Jenevada bo‘lib o‘tgan 46-sessiyasida onlayn ma’ruza qildi.   |

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston". 2019.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: "O'zbekiston", 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: "O'zbekiston", 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Asarlar 1-jild. -T.: "O'zbekiston". 2018.
5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Asarlar 2-jild. -T.: "O'zbekiston". 2018.
6. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. Asarlar 3-jild. -T.: "O'zbekiston". 2019.
7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. Asarlar 4-jild. -T.: "O'zbekiston". 2020.
8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: "O'zbekiston". 1997.
9. Karimov I.A. Tarixiy xotirisiz kelajak y o'q. -T.: "Sharq", 1998.
10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2008.
11. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: "O'zbekiston", 2011.
12. Иброҳимов А. Бизким ўзбеклар.... -Т.: "Шарқ". 1999.
13. Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. -Т.: 2001.
14. Мустақиллик: изоҳли илмий-оммабоп лугат / Абдуллаев М., Абдуллаева М., Абдуллаева Ф. ва бошқ. -Т.: "Шарқ". 2006.
15. Мустақил Ўзбекистон тарихининг дастлабки саҳифалари (даврий тўплам) №3. ЎзФА Тарих институти. -Т.: "Шарқ". 2000.
16. Тошпўлатов Т., Faffarov Я. Тарих ўқитиш методикаси. -Т.: "Турон-Иқбол". 2010.
17. Ergashev Q., Hamidov H. O'zbekiston tarixi: o'quv qo'llanma / -T.: "G'afur G'ulom". 2018.
18. Эргашев Қ., Ҳамидов Ҳ. Ўзбекистон тарихи. Ўқув қўлланма. -Т.: "Фан ва технология". 2019.
19. Ўзбекистон тарихи (Олий ўқув юртининг номутахассислик факультетлари талабалари учун дарслик). -Т.: "Янги аср авлоди". 2003.
20. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон Республикаси. -Т.: "Шарқ". 2000.
21. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи хрестоматияси / Масъул мухаррир Н.Талирова. -Т.: "Fan va texnologiya". 2014.
22. Ўзбекистон тарихи. Иккинчи китоб (1939-1991 йиллар). -Т.: "O'zbekiston". 2019.
23. Қобилов Ш.Р. Мустақиллик ғойибдан келган эмас... -Т.: "Ўқитувчи". 2012.

**24.Қувватов Н.Б.** Ўзбекистонда ўтиш даври ва жамият тараққиёти. -Т.: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”. 2013.

#### **Elektron ta'lim resurslari**

- www.gov.uz – O‘zbekiston hukumati portalı.
- www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchilik bazasi.
- www.academy.uz – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
- www. Info XS.uz - “Xalq so‘zi” gazetasi.
- www. turkiston sarkor.uz – “Turkiston” gazetasi
- www. ma’rifat – inform – “Ma’rifat” gazetasi.
- www. rzult academy.uz – “Janiyat va boshqaruv” jurnalı.
- www. moziy dostlink.net. – “Moziydan sado” jumali.
- www. Ziyonet.uz.
- www. Zyouz.uz.

**Matyaqubov Xalil Hayitbayevich**

# **O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI (o‘quv qo‘llanma)**

Босишига руҳсат этилди. 22.12.2021 й.  
Қоғоз бичими 60x84 1/16. Times New Roman  
гарнитурасида терилди.  
Офсет услубида оқ қоғозда чоп этилди.  
Нашриёт ҳисоб табори 18.75. Адади 100. Буюртма № 45  
Баҳоси келишув асосида

Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика  
университетининг босмахонасида чоп этилди.  
Манзил: Тошкент шаҳар, Чилонзор тумани,  
Бунёдкор кўчаси, 27-үй

